7. Shao, Y., Hardmeier, C., & Nivre, J. (2016). Multilingual named entity recognition using hybrid neural networks. In The sixth Swedish language technology conference (SLTC).

8. Zhiheng, H., Wei, X., & Kai Yu. (2015). Bidirectional LSTM-CRF models for sequence tagging. CoRR, abs/1508.01991.

9. Luan, S., & Anderson F. (2021). An Entity Resolution Approach Based on Word Embeddings and Knowledge Bases for Microblog Texts. Association for Computing Machinery, Article 53, 1–8.

10. Kumarjeet, P., Pramit, M., & Vaishali, G. (2020). Named Entity Recognition using Word2vec, International Research Journal of Engineering and Technology (IRJET). Volume: 07, Issue: 09. 1818-1820.

11. Debora, N., Pikakshi, M., Elisabetta, F., Matteo, P., & Enza M. (2021). LearningToAdapt with word embeddings: Domain adaptation of Named Entity Recognition systems, Information Processing & Management, Volume 58, Issue 3.

12. Thien, H. N., Barbara, P., & Ralph, G. (2015). Semantic Representations for Domain Adaptation: A Case Study on the Tree Kernel-based Method for Relation Extraction, Proceedings of the 53rd Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics and the 7th International Joint Conference on Natural Language Processing, 635–644.

13. Wenhao, G., Xiao Y., Minhao Y., Kun H., Wenying P., & Zexuan Z. (2022). MarkerGenie: an NLP-enabled text-mining system for biomedical entity relation extraction, Bioinform Adv. 2(1):vbac035.

14. Wang, Zc., Wang, Zg., Li, Jz. et al. (2012). Knowledge extraction from Chinese wiki encyclopedias. J. Zhejiang Univ. - Sci. C 13, 268–280.

15. Nayak, Tapas & Ng, Hwee. (2019). Effective Modeling of Encoder-Decoder Architecture for Joint Entity and Relation Extraction. 10.48550/arXiv.1911.09886.

16. Library genism. https://pypi.org/project/gensim/ . Date of application [10.02.2025].

SUN'IY YO'LDOSH TASVIRLARIDA PANSHARPENING YONDASHUVI NATIJALARINI BAHOLASH BAYONNOMALARI

Eshonqulov E.Sh., Abdiyeva H.S., Abdurahmonov M.S.
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ruxsatlilik darajasi kichik va o'lchami katta bo'lgan tasvir bilan ruxsatlilik darajasi yuqori, o'lchami kichik bo'lgan multispektral tasvirlar pansharpening yondashuvlari asosida birlashtirish masalasi ko'rib chiqilgan. Ushbu birlashtirish natijalarining sifatini baholash muhim masalalardan biridir. Maqolada pansharpening yondashuvi natijalarini baholashning Wald, Zhou, etalonsiz baholash, Xan bayonnomalari ko'rib chiqilgan.*
Kalit so'zlar: *sun'iy yo'ldosh tasvirlari, pansharpening, tasvir sifatini baholash bayonnomalari*

Abstract. *This article considers the problem of combining images with low resolution and large size with multispectral images with high resolution and small size based on pansharpening approaches. One of the important issues is the evaluation of the quality of the results of this combination. The article considers the Wald, Zhou, benchmarkless evaluation, and Han protocols for evaluating the results of the pansharpening approach.*
Keywords: *satellite images, pansharpening, image quality evaluation protocols.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается проблема объединения изображений с низким разрешением и большим размером с мультиспектральными изображениями с высоким разрешением и малым размером на основе подходов паншарпенинга. Одним из важных вопросов является оценка качества результатов этой комбинации. В статье рассматриваются протоколы Вальда, Чжоу, безбенчмарковой оценки и Хана для оценки результатов подхода паншарпенинга.*
Ключевые слова: *спутниковые снимки, паншарпенинг, протоколы оценки качества изображений.*

Sun'iy yo'ldosh qurilmalari orqali olinayotgan tasvirlar amaliy ilovalarga qo'llanilishi kengayib borgani sari, ularga ishlov berish masalasi keng miqyosida o'rganilmoqda. Shunday masalalar sirasiga ruxsatlilik darajasi kichik va o'lchami katta bo'lgan tasvir bilan ruxsatlilik darajasi yuqori, o'lchami kichik bo'lgan multispektral tasvirlarni ma'lum bir yondashuvlar asosida birlashtirishni keltirish mumkin. Bunday yondashuvlardan biri pansharpening yondashuvidir. Pan-sharpening masalasi umumiy shaklda quyidagicha ifodalanadi [1]. Bizda $P(x,y) \in \square$ – yuqori fazoviy aniqlikdagi, o'lchami katta bitta kanalga ega bo'lgan kulrang (grayscale) tasvir, $M_i \in \square$, $i = 1,2,...,N$ – fazoviy aniqligi past, o'lchami kichik bo'lgan N ta spektral kanalga ega bo'lgan tasvirlar mavjud bo'lsin. Ushbu tasvirlar asosida pansharpened qilingan $\hat{M}_i(x,y) \in \square$, $i = 1,2,...,N$ – yuqori fazoviy aniqlikdagi va spektral jihatdan multispektral tasvirga yaqin bo'lgan tasvirni olishni quyidagicha ifodalaymiz:

$$M_i(x,y) = \Im(M_i(x,y), P(x,y)), i = 1,2,...,N$$

bu yerda, $\Im$ – multispektral va panxromatik tasvirlarni birlashtiruvchi algoritmik funksiyadir.

Pansharpening yondashuvlari asosida tasvir hosil qilingandan so‘ng, ushbu tasvirning sifatini baholash masalasi ham paydo bo‘ladi. Pansharpening yondashuvlari asosida hosil qilingan tasvir sifatini baholashda nafaqat vizual jihatdan taqqoslash, balki boshqa statistik usullar ham qo‘llaniladi. Natijaviy tasvir sifatini baholashda ko‘p hollarda etalon tasvirlar mavjud bo‘lmagani uchun ularni vizual jihatdan taqqoslash har doim samarali yondashuv emas. Tasvir sifatini baholash uchun faqat statistik ko‘rsatkichlardan foydalanish noto‘g‘ri xulosalar taqdim etishi mumkin [2]. Bu masalaning yechimi esa qo‘llanilishga mos bayonnomani ishlab chiqishdir. Ushbu bayonnomalar spektral va fazoviy mosliklarni ishonchli baholash imkonini beradi. Bu kabi masalalar uchun bir qancha baholash bayonnomalari ishlab chiqilgan.

1) Wald bayonnomasi. Tasvir sifatini baholash uchun birinchilardan bo‘lib, [3] da taklif etilgan bayonnoma Wald bayonnomasidir. Bayonnoma tasvir sifatini uchta xususiyat bo‘yicha ko‘rib chiqadi: o‘zgarmaslik, sintez, multispektral sintez. O‘zgarmaslik xususiyati birlashtirilgan tasvirning fazoviy yaxshilanishiga erishishi bilan birgalikda asl spektral sifatini saqlashi lozimligini bildiradi. Sintez xususiyati yuqori fazoviy aniqlikdagi tasvir yordamida birlashtirilgan har qanday tasvir imkon qadar ideal tasvirga yaqin bo‘lishi kerak. Ideal tasvir mavjud bo‘lishi uchun tegishli sensor tomonidan yuqori fazoviy aniqlikda kuzatilgan bo‘lishi kerak. Ammo har doim har doim ham ideal tasvir mavjud bo‘lmaydi. Sintez xususiyati butun multispektral tasvir (barcha kanallar to‘plami) uchun tekshirilishi kerak. Bu ikkinchi talab multispektral sintez deb nomlangan uchinchi xususiyatni vujudga keltiradi.

2) Zhou bayonnomasi. Ushbu bayonnoma to‘liq fazoviy o‘lchamda baho berish orqali yondashish mumkin bo‘lgan, fazoviy aniqlikni pasaytirmasdan tasvir sifatini aniqlaydigan va Wald bayonnomasi muqobil hisoblanadi [4]. Spektral buzilish har bir multispektral kanal uchun quyidagicha hisoblanadi: birlashtirilgan kanal bilan asl interpolyatsiyalangan kanal o‘rtasidagi o‘rtacha absolyut farq olinadi. Korrelyatsiya koeffitsiyenti har bir birlashtirilgan multispektral kanalining fazoviy tafsilotlari bilan panxromatik tasvirning fazoviy tafsilotlari o‘rtasida hisoblanib, bu orqali fazoviy sifat baholanadi.

3) Etalonsiz baholash bayonnomasi. Etalonsiz sifatni baholash ko‘rsatkichi (quality with no reference - QNR) alohida o‘lchovlarni [0,1] diapazonida normallashtiradi. Ushbu alohida o‘lchovlar spektral buzilish va fazoviy buzilish deb ataladi. Spektral buzilish past ruxsatli multispektral tasvirlar va birlashtirilgan multispektral tasvirlar orasida hisoblanadi [5,6]. Fazoviy buzilish esa har bir multispektral diapazon va panxromatik tasvir o‘rtasida hisoblangan tasvir sifatini

baholashning universal indeksi qiymatlarini multispektral piksellar soniga va yana birlashtirilgan multispektral tasvir va to‘liq ruxsatli panxromatik tasvir o‘rtasida birlashtiradi. Natijada fazoviy buzilish tasvir sifatini baholash universal indeksi qiymatlari orasidagi barcha diapazonlar bo‘yicha o‘rtacha hisoblangan absolyut farq orqali olinadi.

4) Xan bayonnomasi. Ushbu bayonnoma Wald, Zhou, QNR bayonnomalaridan ba’zi xususiyatlarni o‘zida birlashtiradi [7]. Wald bayonnomasidan o‘zgarmaslik, yuqori chastotali fazoviy tafsilotlarning mosligini esa Zhou bayonnomasidan va spektral buzilish ta’rifini QNR bayonnomasidan oladi. Bayonnomada pansharpening asosida olingan tasvir past chastotali komponent va yuqori chastotali komponent yig‘indisi sifatida ko‘radi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, har bir baholash bayonnomasi o‘ziga xos yondashuv orqali tasvir sifatining fazoviy va spektral xususiyatlarini tahlil qilishga xizmat qiladi. Keyingi tadqiqotlarda vizual va statistik baholash metodlarini birlashtirgan kompleks yondashuvlar ishlab chiqilishi zarurati paydo bo‘ladi. Bundan tashqari ideal etalon tasvir mavjud bo‘lmagan holatlarda, etalonsiz baholash bayonnomalarining ishonchliligi chuqurroq o‘rganilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Fazilov, S., Yusupov, O., Radjabov, S., Eshonqulov, E., & Abdieva, K. (2024, November). Analysis of pansharpening methods for multispectral satellite imagery. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3244, No. 1). AIP Publishing.

2. Alparone, L., Aiazzi, B., Baronti, S., & Garzelli, A. (2015). Remote sensing image fusion. Crc Press.

3. L. Wald, T. Ranchin, and M. Mangolini. Fusion of satellite images of different spatial resolutions: assessing the quality of resulting images. Photogrammetric Engineering and Remote Sensing, 63(6):691–699, June 1997.

4. J. Zhou, D. L. Civco, and J. A. Silander. A wavelet transform method to merge Landsat TM and SPOT panchromatic data. International Journal of Remote Sensing, 19(4):743–757, March 1998.

5. Alparone L. et al. Multispectral and panchromatic data fusion assessment without reference //Photogrammetric Engineering & Remote Sensing. – 2008. – T. 74. – №. 2. – C. 193-200.

6. Yusupov O. et al. Quality assessment parameters of the images obtained with pansharpening methods //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2024. – T. 3244. – №. 1.

7. M. M. Khan, L. Alparone, and J. Chanussot. Pansharpening quality assessment using the modulation transfer functions of instruments. IEEE Transactions on Geoscience and Remote Sensing, 47(11):3880-3891, November 2009.

O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI

Abduraxmanova Z.T.
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
"Biznes boshqaruvi va moliya" kafedrasining katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Qishloq xo'jaligining raqamli transformatsiyasi raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning qishloq xo'jaligining barcha sohalariga integratsiyalashuvi bilan amalga oshiriladigan o'zgarishdir. Bu jismoniy jarayonlardan raqamli jarayonlarga o'tish. Raqamli transformatsiya investitsiya loyihalari fermerlar, fermer xo'jaliklari, kooperativlar va korxonalarga qo'shimcha qiymat zanjiriga chuqurroq kirib borish orqali hosildorlikni, sifatni oshirish, ishlab chiqarish faoliyatini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish, foydani oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi.*
Kalit so'zlar: *raqamli transformatsiyasi, raqamli texnologiya, qishloq xo'jaligi, aqlli texnologiya.*

Abstract. *The digital transformation of agriculture is a transformation that is carried out through the use of digital technologies and their integration into all areas of agriculture. This is a transition from physical processes to digital processes. Digital transformation investment projects help farmers, farms, cooperatives and enterprises to increase productivity, quality, optimize production activities, reduce costs, increase profits and increase production efficiency by going deeper into the value chain.*
Keywords: *digital transformation, digital technology, agriculture, smart technology.*

Аннотация. *Цифровая трансформация сельского хозяйства — это изменения, обусловленные использованием цифровых технологий и их интеграцией во все сферы сельского хозяйства. Это переход от физических процессов к цифровым процессам. Инвестиционные проекты цифровой трансформации помогают фермерам, фермам, кооперативам и предприятиям повышать производительность, качество, оптимизировать производственную деятельность, сокращать издержки, увеличивать прибыль и повышать эффективность производства за счет более глубокого проникновения в цепочку создания стоимости.*
Ключевые слова: *цифровая трансформация, цифровые технологии, сельское хозяйство, интеллектуальные технологии.*

Qishloq xo'jaligi, bir tomondan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchisi sifatida dunyo aholisining tobora o'sib borayotgani muammosiga duch kelsa, ikkinchi tomondan, eng yirik yerdan foydalanuvchi sifatida u tabiiy resurslarni saqlash uchun katta mas'uliyat yuklaydi ya'ni, tuproq va suv.Yetarli miqdorda arzon, ammo yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va atrof-muhitni muhofaza qilish bir-biri bilan sezilarli darajada to'qnashuvi mumkin bo'lgan maqsadlardir. Raqamlashtirish ushbu maqsadlar to'qnashuvini hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Raqamlashtirish bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini iqtisodiyot va jamiyatda kompleks va

yaxlit qo‘llash sifatida tushuniladi. Bu ishlab chiqarish resurslarini tejash, hujjatlarni soddalashtirish va qarorlar qabul qilish va biznesni boshqarish sifatini oshirishda katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Raqamlashtirish qishloq xo'jaligini samarali, barqaror va ekologik toza qilishga yordam berish uchun mo'ljallangan. Ya'ni, yuqori sifatli va atrof-muhitga minimal ta'sir ko'rsatadigan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun minimal chiqindilar bilan ishlab chiqarish resurslaridan maqsadli foydalanishga yordam berish hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi ochiq havoda va tirik organizmlar bilan ishlaydi.Murakkab va dinamik ishlab chiqarish sharoitlari bilan tavsiflanadi, ular qisman prognoz qilish va ta'sir qilish qiyin, bu esa ishlab chiqarish jarayonlarida uzilishlarga olib kelishi mumkin. Raqamli ilovalar yordamida nafaqat alohida jarayonlarni, balki butun qiymat zanjirlarini ham optimallashtirish mumkin. Raqamlashtirish ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi, lekin boshqa tomondan xavf-xatarlari ham mavjud.

Qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish resurslarni tejash va iqlimni muhofaza qilish, hayvonlar farovonligini yaxshilash va byurokratiyani kamaytirishga yordam beradi.Qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish imkoniyatlari juda katta va hozirda uni to‘liq ishlatib bo‘lmaydi. Zamonaviy iqtisodiyot jadal rivojlanayotgan tizim bo‘lib, u global o‘zgarishlarni rag‘batlantiradigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli yechimlardan keng foydalanish bilan tavsiflanadi. Qishloq xo'jaligi hali ham o'tish davridagi soha hisoblanadi va yaqin yillar ichida mamlakatni sanoatlashtirish va urbanizatsiya qilishning yangi davriga o'tish zarur. Qishloq xo’jaligini raqamlashtirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi.

1.	oziq-ovqat iste'molchilariga yanada ko'proq ma'lumot, ko'proq bilim beradi va shu bilan ishonchni mustahkamlashi mumkin. Raqamli texnologiyalardan foydalanish iste’molchilar va qishloq xo‘jaligi o‘rtasidagi mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishga va axborot taqchilligini bartaraf etishga yordam beradi.
2.	qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoat zanjirlarida resurslarni tejash va iqlimni muhofaza qiluvchi ishlab chiqarish usullari uchun katta imkoniyatlar yaratadi.
3.	aqlli texnologiyalar hayvonlarning eng yaxshi salomatligi va osoyishtaligi uchun nima kerakligini aniqroq bilishga yordam beradi.
4.	raqamlashtirish va sun'iy yo'ldosh texnologiyalari ma'muriy organlar bilan ishlashni sezilarli darajada soddalashtiradi va bugungi kunda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun ariza berish va ularni tekshirishning murakkab tartiblarini osonlashtiradi.
5.	ma'lumotlarni avtomatik yig'ish va integratsiyalashgan ma'lumotlarni qayta ishlash, shuningdek, nazorat va risklarni boshqarishni va takomillashtirish orqali korxonalarda buxgalteriya hisobi va boshqaruv hisobini soddalashtirish va osonlashtirish mumkin.

«Aqlli qishloq xo‘jaligi» texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar»

1.	Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish
2.	Boshqaruv jarayonlarini monitoringini avtomatlashtirish
3.	Agrar sohada biznes-startap loyihalarini qo'llab
4.	Suv resurslarini hisobga olish

Bularning asosiy maqsadi esa:

-qishloq xo'jaligini raqamlash-tirish bu -ishlab chiqazish yig'ish saqlash va qayta ishlashni avtomat-lashtirish.

-boshqaruv jarayonlari, moni-toringni avtomatlashtirish bu -tarmoq boshqaruvini zamonaviylik sari yangilash, ma’muriy islohotlarni tubdan amalga oshirish, asosiy e’tiborni ma’muriy va protsessual faoliyatni isloh qilishga qaratish, davlat siyosatini amalga oshirishga ko‘maklashish, aholi va korxonalarga davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq samaradorlik va mazmunni ta’minlash, shuningdek davlatga yanada ochiq va qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, investitsiyalarni faol jalb etish, tadbirkorlik va innovatsiyalarni rag‘batlantirishda ko‘maklashish.

-agrar sohada biznes-startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash bu-qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining mahsuldorligi, sifati, samaradorligi va raqobatbardoshligi bo'yicha yutuq yaratish uchun ilm-fan va texnologiya, innovatsiyalarni qat'iy rivojlantirish

-suv resurslarini hisobga olish bu -suv resurslarini tejash va daryo, ko’llardan raqamli texnologiyalar yordamida samarali foydalanish.

2021-yil 28-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligida agrosanoat majmuasi va OAV vakillari ishtirokida konferensiya-taqdimotida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini jadal raqamlashtirish bo‘yicha dasturlar doirasida yaratilgan 10 ta axborot tizimlari va platformalari taqdim etildi.

Raqamli qishloq xo’jaligidan hozirgi kunda mashinalar ta'sirini to’g’rilash, vaqtni to’g’ri boshqarishni yaxshilash, suvdan samarali foydalanish va tejash uchun sensorlar, robotlar, GPS, xaritalash vositalari va ma'lumotlarni tahlil qilish dasturlarini birlashtirishni talab qiladi va yaxshi ishlashni ta'minlaydi.Qishloq xo'jaligida fermerlik bilan hamkorlik faqat tadbirkorlik faoliyati bilan emas, balki fermerlardan boshlanishi muhim, chunki uy xo'jaliklari agrar iqtisodiyotning agrar sektorining asosini tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi oldida agrosanoat majmuida texnologik rivojlanishni jadallashtirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, suv resurslarini samarali boshqarish va qishloq xo‘jaligi korxonalarida unumdorlik o‘sishiga ko‘maklashish orqali mamlakat qishloq xo‘jaligi sohasini keng miqyosda raqamli transformatsiya qilish masalasi turibdi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki. Sifatli qishloq xo'jaligi uchun raqamli o'zgarishlarni

muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun, fermalardan davlat organlariga qadar barcha agrar jarayon ishtirokidagi barcha ishtirokchilarni birlashtiradigan yagona ma'lumotlar platformasini yaratish zarur. Bunday platforma yer, ob-havo, yorug'lik va boshqa ta'sirlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishga imkon beradi va ularni qiziqarli tomonlarga taqdim etadi. Sifatli qishloq xo'jaligining muhim elementi sifatli internetning qishloqda rivojlanishi ham hisoblanadi. Bu uchun O'zbekistonning barcha mintaqalarida tez tezlikdagi internetga kirishni ta'minlovchi infrastrukturani yaratish zarur. Bu fermalarning ishlab chiqarishni boshqarishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishlariga imkon beradi, shuningdek, yangi usullar va texnologiyalar haqida ma'lumotlarga kirishni ta'minlaydi. Shunday qilib, raqamli qishloq xo'jaligi O'zbekistonning agrar sohasining rivojlanishi uchun muhim yo'nalishidir, bu dunyo bozorida raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Вартанова М.Л., Дробот Е.В. Перспективы цифровизации сельского хозяйства как приоритетного направления импортозамещения // Экономические отношения. 2018. Т. 8. № 1. С. 1-18.

2. Арутюнян Ю.И., Доронина В.А. Современные подходы к оценке инвестиционной привлекательности предприятия: материалы международной научной конференции «Цифровизация в сельском хозяйстве германии"». 2017. С. 15-21.

3. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi: https://www.agro.uz/11-0003/

4. Белкина Е.Н., Погребная Н.В., Поплавка А.С., Черевань А.С. Региональное инвестирование на современном этапе: проблемы и пути их решения // Экономика и предпринимательство. 2017. № 6 (83). С. 140-145.

5. Варич М.И. Цифровизация сельского хозяйства в рамках проекта развития сельского хозяйства в Российской Федерации до 2025 года // Молодой ученый. 2020. № 2 (292). С. 354-357.

6. Белкина Е.Н., Погребная Н.В., Поплавка А.С., Черевань А.С. Региональное инвестирование на современном этапе: проблемы и пути их решения // Экономика и предпринимательство. 2017. № 6 (83). С. 140-145.

7. Арутюнян Ю.И., Доронина В.А. Современные подходы к оценке инвестиционной привлекательности предприятия: материалы международной научной конференции «Инвестиционный менеджмент и государственная инвестиционная политика». 2017. С. 15-21.

8.I. A. Arenkov, Russian Entrepreneurship, 19 (5), 1711-1722 (2018)

9.Narzullayeva.G.S,ToirovaM.M,Qodirova.D.R (Buxoro, O'zbekiston) Sanoat 4.0 inqilobi va bizni kutayotgan kelajak. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS: a collection scientific works of the International scientific conference (25thJanuary, 2020) -Warsaw: Sp.zo.o. "iScience", 2021.29-30 p.

10. Кобулов В.К. (1998) Алгоритмизация в социально-экономических системах. Tashkent: Fan, 320 s. (Kobulov V.K. (1998) Algorithmization in socio-economic systems. - Tashkent: Fan, 320 p.)

11. Muminova, E., Honkeldiyeva, G., Kurpayanidi, K., Akhunova, S., & Hamdamova, S. (2020). Features of Introducing Blockchain Technology in Digital Economy Developing Conditions in Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 159, p. 04023). EDP Sciences.

12. Муминова, Э. А. (2016). The concept of an innovation-oriented industrial corporation: essence, definition, objectives and basic principles of functioning. Молодой ученый, (25), 330-332. 9. Kodirov, S. (2020). Some issues of digitalization in the industrial sector of the economy. ISJ Theoretical & Applied Science, 12(92), 377-384.

13. Abduraxmanova Zuxra Toxir qizi, "O'zbekistonda Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishda raqamli transformatsiylarning o'rni", Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari, 2023-yil, maxsus son, 223-231-bet, https:dgeconomytsue.uz/jurnal/ .

GOMPERTZ ALGORITHM FOR THE DETECTION OF BREAST CANCER USING MAMMOGRAPHIC IMAGES

Abdiyeva K.S.,
Docent of the Samarkand State University named after Sharof Rashidov,
Shamsiyeva K.,
PhD student at the Scientific Research Institute for the Development of Digital Technologies and Artificial Intelligence,
Oblokulov S.
A teacher at the Samarkand State University named after Sharof Rashidov.

Annotatsiya. *Har yili dunyo bo'ylab millionlab ayollar ko'krak bezi saratoniga duchor bo'lishadi va bu uni dunyodagi eng keng tarqalgan malign o'smalardan biriga aylantiradi. Sohadagi muhim rivojlanish - bu loyqa reytinglar bilan birlashtirilgan va mammografiya rasmlaridan ko'krak bezi saratonini aniqlash uchun chuqur konvolyutsion neyron tarmog'i (CNN) modellariga qo'llaniladigan qayta parametrlangan Gompertz usuli. Ushbu tadqiqot ko'krak bezi saratonini aniqlashning aniqligi va aniqligini yaxshilash uchun ijodiy g'oyalar bilan qanday yaxshi tashkil etilgan usullardan foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.*
Kalit so'zlar: *ko'krak saratoni, Gomperts funktsiyasi, mammografiya, chuqur o'rganish, ansambl o'rganish.*


Abstract. *Millions of women worldwide are impacted by breast cancer every year, making it one of the most common malignancies worldwide. An important development in the field is the re-parameterized Gompertz method, which is merged with fuzzy rankings and applied to deep Convolutional Neural Network (CNN) models for breast cancer identification from mammography pictures. This study demonstrates how well-established techniques can be used with creative ideas to improve breast cancer detection precision and accuracy.*
Keywords: *breast cancer, Gompertz function, mammography, deep learning, ensemble learning.*

Аннотация. *Ежегодно миллионы женщин во всем мире страдают от рака груди, что делает его одним из самых распространенных злокачественных новообразований в мире. Важным достижением в этой области является метод Гомперца с повторными параметрами, который объединен с нечеткими рейтингами и применяется к глубоким моделям сверточных нейронных сетей (CNN) для идентификации рака груди по маммографическим снимкам. Это исследование демонстрирует, как хорошо зарекомендовавшие себя методы могут использоваться с креативными идеями для повышения точности и достоверности обнаружения рака груди.*
Ключевые слова: *рак груди, функция Гомперца, маммография, глубокое обучение, ансамблевое обучение.*

Introduction. The function was defined by B. Gompertz in 1825 and used in actuarial mathematics. Since then, the Gompertz function has been used in probability theory (Gumbel distribution), biology, economics, medicine, physics, and other fields. Biologically, the Gompertz model shows that mortality increases with age[6]. Also, phenomena such as

population growth, the development of malignant tumors, the increase of bacterial colonies, and the increase in the number of patients in an epidemic are explained based on the Gompertz function (Figure 1).

Figure 1.
The variable x in the graph represents the test scores of the classifier for the test samples.



Methods. The solution of the following first-order autonomous differential equation expresses the Gompertz function:

$$x'(t) = gxlog\frac{x_{max}}{x}, x(0) = x_0 > 0 \quad (1)$$

here g −growth rate,
x_{max} −level of saturation or asymptote, thus $0 < x_0 < x_{max}$;

After solving equation (1), Gompertz function is described as follows:

$$x(t) = x_{max}e^{-e^{-g(t-t_0)}} \quad (2)$$

here t_0 −constant and it depends on the initial condition $x(0) = x_0 = x_{max}e^{-e^{gt_0}}$ for the solution of equation (1). Figure 1 shows the graph of the re-parameterized Gompertz function. In classical ensemble methods, the classification scores of all component models are equally weighted; that is, the classifiers are given pre-calculated weights. The primary issue with such an ensemble method is the difficulty in adjusting the statistical weights after the test samples have been classified[1,2]. In other words, the proposed fuzzy rank ensemble method estimates the prediction scores of a separate basis classifier for each unique test case. Improved and more accurate classification scores can be achieved using the above methodology. Since this process is dynamic, there is no need to change the weights for different test data sets. The Gompertz function was re-parameterized to construct fuzzy levels for each deep CNN classifier in the diagnosis of breast tumor regions from mammography images [3,4]. If we have N number of component models, let there be N prediction scores for each set of images split for testing. As mentioned above, we used 4 transfer learning models, so N=4. Let

$\{AC^1, AC^2, AC^3, \dots AC^N\}$ be the N number of decision points of classifiers for each image:

$$\sum_{m=1}^{M} AC_m^{(n)} = 1 \quad (3)$$

here $n = 1,2,3, \dots N$. When generating fuzzy levels, the decision scores are represented by AC in formula (3). $AC_m^{(n)}$ –is the result of the softmax function. Confidence scores are used for all samples in the data set to construct uncertainty levels. The Gompertz function generates a fuzzy level for class m using the confidence level of the kth classifier:

$$FD_m^{(n)} = 1 - e^{-e^{2*AC_m^{(n)}}} \quad (4)$$

here $0.127 \le FD_m^{(n)} \le 0.632$; $m = 1,2,3, \dots M$; $n = 1,2,3, \dots N$. The sum of fuzzy degrees is expressed as follows:

$$NDSum_m = \sum_{n=1}^{N} \begin{pmatrix} FD_m^{(n)}, if\ FD_m^{(n)} \in R^{(i)} \\ P_m^{(FD)}, otherwise \end{pmatrix} \quad (5)$$

here $R^{(i)}$ – the highest degree of ambiguity, $P_m^{(FD)}$ – penalty level. The complement of the trust factor sum is expressed as follows:

$$KCFSum_m = \frac{1}{N} \sum_{n=1}^{N} \begin{pmatrix} AC_m^{(n)}, if\ FD_m^{(n)} \in R^{(i)} \\ P_m^{(DC)}, otherwise \end{pmatrix} \quad (6)$$

$$class(Z) = \min\{(NDSum_m) * (KCFSum_m)\} \quad (7)$$

where $m = 1,2,3, \dots M$.

Conclusion. The study's conclusions indicate encouraging findings, indicating how well the re-parameterized Gompertz algorithm adjusts the CNN models. The model achieves high accuracy and improves interpretability, both of which are critical for medical diagnostics, by utilizing fuzzy rankings[5]. The utilization of mammography images, a cornerstone in breast cancer screening, coupled with advanced computational techniques, exemplifies the potential for technology-driven solutions in healthcare.

List of used literatures:

1. *Abdiyeva Kh.S. Yusupov O.R. Extraction of informative features in mammography images based on LBP method. //Raqamli texnologiyalarning nazariy va amaliy masalalari xalqaro jurnali. 75-82-bet, Volume 6., No.4(2023).*
2. *Abdiyeva Kh. S. Parametrik aktiv kontur usuli asosida raqamli mammogrammalarda ko'krak o'sma sohalarini segmentlash. //Informatika va energetika muammolari. 36-47- bet, 6-son,2023.*
3. *Грузман И.С. Цифровая обработка изображений в информационных системах / И.С. Грузман, В.С. Киричук, В.П. Косых, Г.И. Перетягин и др. – Новосибирск: Изд-во НГТУ, 2002. – 352 с.*
4. *Бойко Д.А., Филатова А.Е. Метод повышения качества визуализации рентгенологических изображений. Вестник Национального технического университета Харьковский политехнический институт. Серия: Информатика и моделирование 32 (2015): 19-26.*

5. Gardezi S. J., Elazab A., Lei B., Wang T. Breast cancer detection and diagnosis using mammographic data: systematic review. Journal of Medical Internet Research, vol. 21, no. 7, p. 14464, 2019.

6. Shavkat Fazilov., Khabiba Abdieva., Ozod Yusupov., Erali Eshonqulov., Ziyodullo Malikov. "Re-parameterized Gompertz algorithm for the fuzzy ranks of deep CNN models in the identification of breast cancer using mammography images". AIP Conf. Proc. 3244, 030083 (2024)., https://doi.org/10.1063/5.0241416.

TOPOGRAPHIC MAP BASED SEGMENTATION OF MEDICAL IMAGES

Abdiyeva K.S,
Docent of the Samarkand State University named after Sharof Rashidov,
Shamsiyeva K.,
PhD student at the Scientific Research Institute for the Development of Digital Technologies and Artificial Intelligence,
Olimjonova S.
A teacher at the Samarkand branch of TUIT.

Annotatsiya. *Bugungi kunda tibbiy ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlashga asoslangan diagnostika tibbiyotning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Xususan, u muayyan kasalliklarni aniqlashda ishlatiladigan tibbiy tasvirlarni qayta ishlash, segmentatsiyalash va tahlil qilishda hal qiluvchi rol o'ynashda davom etmoqda. MRT, endoskopiya, rentgen va ultratovush tekshiruvlarida yuqori energiyaga asoslangan tibbiy tasvirlarni olish yaxshi sifatni ta'minlaydi, ammo yuqori energiya miqdorining oshishi insonning muayyan organlariga etib borishi mumkin. Kam energiya sarflaydigan tasvir sifatsiz tasvirni keltirib chiqaradi. Bunday sifatsiz tasvirlardan tashxis qo'yish qiyin yoki aniqroq bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda bunday muammolarni hal qilishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanilmoqda va ularni qayta ishlash asosida kerakli hududlarni aniqlash, dastlabki yordamchi tashxis qo‘yish orqali tezkor tashxis qo‘yilmoqda, eng muhimi, bemorning inson a’zolariga yetkaziladigan zarar va og‘riqlar miqdori kamaymoqda. Ushbu referatda topografik xarita usuliga asoslangan segmentatsiya ko'rib chiqiladi. Tasvir sifatini oshirish uchun CLAHE algoritmi, tasvirni segmentlashda esa topografik xarita usuli qo'llaniladi.*
Kalit so’zlar: *tibbiy tasvir, topografik xarita, CLAHE, takomillashtirish.*

Abstract. *Today, diagnosis based on automatic processing of medical data is one of the main areas of medicine. Particularly, it continues to play a crucial role in the processing, segmentation, and analysis of medical images used in the identification of certain diseases. Obtaining medical images based on high energy in MRT, endoscopy, X-ray, and ultrasound examinations provides good quality, but an increase in the amount of high energy can reach specific organs of a person. Low-energy imaging generates poor image quality. It might be challenging or less accurate to diagnose from such poor-quality images. Nowadays, computer technologies are used to solve such problems, and based on their processing, quick diagnoses are made with the help of identifying the necessary areas, preliminary auxiliary diagnosis, and most importantly, the amount of damage and pain caused to the patient's human organs is reduced. In this abstract, the segmentation based on the topographic map method is considered. The CLAHE algorithm is used to increase image quality, and the topographic map method is used for image segmentation.*
Keywords: *medical image, topographic map, CLAHE, enhancement.*

Аннотация. *Сегодня диагностика на основе автоматической обработки медицинских данных является одним из основных направлений медицины. В частности, она продолжает играть важнейшую роль в обработке, сегментации и анализе медицинских изображений, используемых при идентификации некоторых заболеваний. Получение медицинских изображений на основе высокой энергии в МРТ, эндоскопии, рентгенографии и ультразвуковых исследованиях обеспечивает хорошее качество, но увеличение количества высокой энергии может достигать определенных органов человека. Низкоэнергетическая визуализация дает плохое качество изображения.*

Диагностика по таким некачественным изображениям может быть сложной или менее точной. В настоящее время для решения таких задач используются компьютерные технологии, и на основе их обработки ставится быстрая диагностика с помощью определения необходимых областей, предварительной вспомогательной диагностики, а самое главное, уменьшается объем повреждений и боли, причиняемой органам человека пациента. В данной аннотации рассматривается сегментация на основе метода топографической карты. Для повышения качества изображения используется алгоритм CLAHE, а для сегментации изображения используется метод топографической карты.

Ключевые слова: *медицинское изображение, топографическая карта, CLAHE, улучшение.*

Introduction. Today, several approaches are used for the segmentation of medical images. Most of them may not give the final result but are used as part of the algorithm. In mammography images, several segmentation algorithms [1,2] are used to separate tumor areas from the general breast area. Traditional segmentation methods are divided into [3,4] pixels concerning performance elements, and [5] types of boundary lines and geometric shapes. Image segmentation methods can be classified into different classes based on the matching and categorization of intensity values. The segmentation process can consist of parts such as thresholding, area scaling, segmentation of areas, merging of areas, detection of points and lines, and active contour lines[6,7].

Methods. The following steps are required to solve the problem posed in the scientific work:

Step 1:

Mammography images usually have a variety of labels, symbols, and writing in the background. We denote the mammography image as P_Q. The image $P_Q$consists of a set of pixels $\rho = \{\rho_1, \dots \rho_n\}$. Function $f(\nabla)$removes artifacts and labels by enhancing high-intensity surfaces in a given image P_Q and yields a binary image I_k.

$$I_k = P_Q \leftarrow f(\nabla)$$

$I_k$image is used to preserve the original intensity and I_ψ is used to obtain a gray image.

Step 2:

This algorithm aims to segment the pectoral muscle from a mammogram or similar medical image. In this step, the Prewitt operator was used. In this operator, a 3×3 convolution mask was used to determine the gradient(φ) for a 2D image.

$$\varphi = \sqrt{\varphi_x^2 + \varphi_y^2}$$

$$|\varphi| = |\varphi_x| + |\varphi_y|$$

$$\theta = arctang\frac{\varphi_x}{\varphi_y}$$

The function $f(\varphi)$with a threshold value I_ψ is used to detect edges in the image and gives us the result I_v.

$$I_v = I_\psi \leftarrow f(\varphi)$$

Unclear boundaries in image I_v become clear boundaries as a result of the morphological "closing" operation.

$$I_v \cdot \Omega_v = (I_v \oplus \Omega_v) \ominus \Omega_v$$

$$I_v \oplus \Omega_v = \bigcup_{b \in B} I_{vb}$$

Here, $\Omega_v$is an element of morphological "closing", $\oplus$-dilation, $\ominus$-erosion.

The operator $f(I_v \cdot \Omega_v)$ performs a morphological "closing" operation on the image $I_v$and returns us a binary imageI_β.

$$I_\beta = I_v \leftarrow f(I_v \cdot \Omega_v)$$

Step 3:

A topographic map-based segmentation algorithm performs segmentation based on boundary and contour analysis. A topographical map of the breast tumor area is obtained by applying the function $f(\mu)$to the binary image I_β.

$$I_\delta = I_\beta \leftarrow f(\mu)$$

Here is $f(\mu)$-shape-shifting function, I_δ −resulting image with a topographic map.

Step 4:

The CLAHE algorithm increases the contrast of the input image by redistributing the intensity levels of the pixels. It works on a grayscale version of the input image. CLAHE divides the image into small regions called tiles and applies histogram equalization to each tile, taking into account pixel values within a certain range defined by "clip limit". This prevents excessive noise. After leveling, the tiles are combined to create the final enhanced image.

$$\beta = \frac{M}{N}(1 + \frac{\alpha}{100}(S_{max} - 1))$$

Here β is the limit value (clip limit), M is the area size, N is the gray level value (0-256), and α is the clip limit factor representing the histogram limit addition from 1 to 100 and S_{max} represents the maximum permissible slope.

Conclusion. Methods and algorithms of medical image analysis play an important role in the detection and diagnosis of breast cancer at an early stage. The CLAHE algorithm is used to increase image quality, and the topographic map method is used for image segmentation.

List of used literatures:

1. *Грузман И.С. Цифровая обработка изображений в информационных системах / И.С. Грузман, В.С. Киричук, В.П. Косых, Г.И. Перетягин и др. – Новосибирск: Изд-во НГТУ, 2002. – 352 с.*

2. *Бойко Д.А., Филатова А.Е. Метод повышения качества визуализации рентгенологических изображений. Вестник Национального технического университета Харьковский политехнический институт. Серия: Информатика и моделирование 32 (2015): 19-26.*

3. *Gardezi S. J., Elazab A., Lei B., Wang T. Breast cancer detection and diagnosis using mammographic data: systematic review. Journal of Medical Internet Research, vol. 21, no. 7, p. 14464, 2019.*

4. *Shavkat Fazilov., Khabiba Abdieva., Ozod Yusupov., Erali Eshonqulov., Ziyodullo Malikov. "Re-parameterized Gompertz algorithm for the fuzzy ranks of deep CNN models in the identification of breast cancer using mammography images". AIP Conf. Proc. 3244, 030083 (2024)., https://doi.org/10.1063/5.0241416.*

5. *S. K. Fazilov, O. R. Yusupov and K. S. Abdiyeva, "An Algorithm for Evaluating the Parameters Characterizing the Quality of the Image Field of the Iris by the Principal component analysis method," 2022 International Conference on Information Science and Communications*

Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2022, pp. 1-4, doi: 10.1109/ICISCT55600.2022.10146887.

6. Suganya, R.; Rajaram, S.; Abdullah, A.S. Big Data in Medical Image Processing; Taylor & Francis: Oxford, UK, 2018.

7. *Singh, H. Practical Machine Learning and Image Processing; Springer Science & Business Media: New York, NY, USA, 2019.*

O‘ZBEKISTONNING TASHQI SAVDODA LOGISTIKA XARAJATLARI: RAQAMLI YECHIMLAR VA ULARNING EKSPORT RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI

Radjabov B.A.
TDIU, Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar kafedrasi dotsenti v.v.b., PhD

Annotatsiya. *Tadqiqot O‘zbekistonning tashqi savdodagi logistika tizimini modernizatsiya qilish, eksport raqobatbardoshligini oshirish va raqamli texnologiyalar yordamida transport xarajatlarini optimallashtirish imkoniyatlarini tahlil qiladi. Transport infratuzilmasini rivojlantirish, bojxona tizimini raqamlashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali O‘zbekistonning global savdo tarmoqlariga integratsiyalashuvi jadallashadi, tranzit salohiyati oshadi hamda logistika jarayonlari samaradorligi kuchayadi.*
Kalit so’zlar: *O‘zbekiston, tashqi savdo, logistika samaradorligi, transport infratuzilmasi, raqamli texnologiyalar, eksport salohiyati, tranzit imkoniyatlari, blokcheyn, IoT, bojxona tizimi, xalqaro integratsiya.*

Abstract. *This study examines the modernization of Uzbekistan’s foreign trade logistics system, the enhancement of export competitiveness, and the optimization of transportation costs through digital technologies. The development of transport infrastructure, the digitalization of the customs system, and the expansion of international cooperation will accelerate Uzbekistan’s integration into global trade networks, increase transit potential, and improve logistics efficiency.*
Keywords: *Uzbekistan, foreign trade, logistics efficiency, transport infrastructure, digital technologies, export potential, transit opportunities, blockchain, IoT, customs system, international integration.*

Аннотация. *В данном исследовании рассматриваются модернизация логистической системы внешней торговли Узбекистана, повышение конкурентоспособности экспорта и оптимизация транспортных расходов с использованием цифровых технологий. Развитие транспортной инфраструктуры, цифровизация таможенной системы и расширение международного сотрудничества ускорят интеграцию Узбекистана в глобальные торговые сети, увеличат транзитный потенциал и повысят эффективность логистических процессов.*
Ключевые слова: *Узбекистан, внешняя торговля, эффективность логистики, транспортная инфраструктура, цифровые технологии, экспортный потенциал, транзитные возможности, блокчейн, IoT, таможенная система, международная интеграция.*

Kirish

Global iqtisodiyotning raqamlashtirilishi natijasida xalqaro savdo jarayonlarida transport-logistika xarajatlari sezilarli darajada o‘zgarmoqda. Ayniqsa, dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan davlatlar, jumladan, O‘zbekiston uchun logistika xarajatlari tashqi savdo operatsiyalarining umumiy tannarxida muhim o‘rin tutadi [1]. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdosi asosan temir yo‘l va avtomobil transportiga asoslangan bo‘lib, yuklarni Yevropa, Osiyo va Yaqin

Sharq davlatlariga yetkazish uchun tranzit mamlakatlarga bog‘liqdir [2]. BMT Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasining (UNCTAD) hisobotlariga ko‘ra, dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan mamlakatlarda logistika xarajatlari umumiy eksport qiymatining 50% gacha yetishi mumkin [3]. Shu sababli, O‘zbekiston uchun tashqi savdodagi logistika xarajatlarini optimallashtirish va raqamli yechimlarni joriy qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [4].

Jahon Bankining Logistika Samaradorlik Indeksi (LPI) bo‘yicha O‘zbekiston 2023-yilda 92-o‘rinni egallagan, bu esa xalqaro transport infratuzilmasining raqobatbardoshligi pastligini ko‘rsatadi [5]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining eksport jarayonida asosiy yuk tashish yo‘nalishlari bo‘lgan Xitoy, Rossiya, Yevropa Ittifoqi va Turkiya kabi davlatlar bilan tranzit kelishuvlari mavjud bo‘lsa-da, yuqori transport xarajatlari eksport narxlariga bevosita ta’sir qilmoqda [6]. Shu sababli, zamonaviy raqamli logistika texnologiyalaridan foydalanish orqali transport xarajatlarini kamaytirish va eksport raqobatbardoshligini oshirish mumkin [7].

Dunyo miqyosida logistika tizimlarini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish tendensiyasi ortib bormoqda. Masalan, blokcheyn, IoT (Internet of Things) va sun’iy intellekt asosidagi monitoring tizimlari xalqaro yuk tashish jarayonlarini tezlashtirish va xarajatlarni kamaytirishda samarali yechim sifatida qaralmoqda [8]. Xalqaro avtomobil transporti va multimodal logistika xizmatlarining raqamli platformalarga o‘tishi orqali tranzit jarayonlari avtomatlashtirilgan va hujjatlashtirish tizimlari elektron shaklga o‘tmoqda, bu esa bojxona jarayonlarini soddalashtirish va yuklarni yetkazish vaqtini qisqartirishga yordam beradi [9]. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Respublikasi ham elektron bojxona tizimlarini joriy etish va xalqaro raqamli logistika platformalariga integratsiyalashuvi orqali eksport jarayonlarini samarali boshqarishi mumkin [10].

Shuningdek, raqamli texnologiyalar xalqaro savdoni rivojlantirishda innovatsion vositalardan biri bo‘lib, transchegaraviy e-tijorat va raqamli logistika yechimlari orqali eksport hajmini oshirish va tranzit xarajatlarini kamaytirish mumkin [11]. O‘zbekiston Respublikasi Jahon Savdo Tashkilotiga (WTO) a’zo bo‘lish jarayonida bo‘lib, bu xalqaro savdoni liberallashtirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi [12]. Shu sababli, raqamli transport tizimlari va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish orqali eksport va import jarayonlarini optimallashtirish milliy iqtisodiyot uchun muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi [13].

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdoda duch kelayotgan logistika xarajatlari muammolari, xalqaro tajribalar asosida raqamli yechimlarning iqtisodiy samaradorligi va eksport raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari tahlil qilinadi. Xalqaro statistik ma’lumotlar, Jahon Banki, WTO va

O‘zbekiston davlat idoralarining hisobotlari asosida logistika xarajatlari va raqamli yechimlarning O‘zbekiston eksporti uchun ahamiyati ilmiy asosda o‘rganiladi [14][15].

Adabiyotlar sharhi

Tashqi savdoda logistika xarajatlarining kamaytirilishi va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi xalqaro iqtisodiy munosabatlarda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi transport infratuzilmasining xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvi va eksport salohiyatining oshirilishi ko‘plab ilmiy manbalarda yoritilgan. Ushbu bo‘limda mavzuga oid ilg‘or ilmiy tadqiqotlar va statistik manbalar tahlil qilinib, ularning O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishi bo‘yicha xulosa chiqariladi.

Jahon Bankining Logistics Performance Index (LPI) ma’lumotlariga ko‘ra, transport xarajatlari yuqori bo‘lgan mamlakatlarning eksport raqobatbardoshligi pasayadi [5]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, logistika xarajatlarini kamaytirish eksport narxlarini pasaytirish va xalqaro bozorda talabni oshirish imkonini beradi [2]. Masalan, Xitoy va Yevropa davlatlarida transport infratuzilmasiga strategik investitsiyalar kiritilishi natijasida logistika xarajatlari kamaygan va eksport hajmi oshgan [7].

Boshqa tadqiqotlar ham logistika infratuzilmasi va xalqaro savdo o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasdiqlaydi. Fernandez va Novak (2023) rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda logistika samaradorligi va savdo raqobatbardoshligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik tahlil qilgan holda, logistika infratuzilmasiga investitsiyalar eksport hajmini oshirishda muhim omil ekanini ko‘rsatgan [15]. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, logistika xarajatlarini kamaytirish strategiyalari iqtisodiy barqarorlik va eksportning diversifikatsiyasiga hissa qo‘shadi [6].

O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo jarayonlari asosan quruqlik orqali yuk tashish xizmatlari bilan bog‘liq bo‘lib, mamlakatning dengiz portlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyati yo‘qligi sababli tranzit davlatlarga qaramligi yuqori [1]. O‘zbekiston Respublikasining Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, import va eksport hajmining asosiy qismi Qozog‘iston, Xitoy va Rossiya orqali amalga oshiriladi [16].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi (UNCTAD) hisob-kitoblariga ko‘ra, dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan mamlakatlarda tashqi savdoda logistika xarajatlari umumiy eksport qiymatining 50% gacha yetishi mumkin [3]. O‘zbekiston ham bu tendensiyadan mustasno emas va mamlakat eksportining raqobatbardoshligi transport xarajatlarini kamaytirish bilan bog‘liq [4]. Shuningdek, Xalqaro Avtomobil Transporti Ittifoqi (IRU) tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlarida yuk tashish tizimi hali ham an’anaviy usullarga asoslangan bo‘lib, raqamli

transport tizimlari to‘liq integratsiya qilinmagan [21].

Dunyo tajribasida raqamli texnologiyalarning logistika sohasida qo‘llanilishi transport xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi [10]. IoT (Internet of Things), blokcheyn, GPS monitoring va avtomatlashtirilgan logistika tizimlari yuk tashish jarayonlarida shaffoflikni oshiradi va transport kechikishlarini kamaytiradi [4].

Tanaka va Li (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda blokcheyn texnologiyalarining xalqaro yuk tashish tizimlariga ta’siri o‘rganilgan bo‘lib, u hujjatlashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish va tranzit vaqtini 40% gacha qisqartirish imkonini berishi aniqlangan [5]. Shu bilan birga, IoT va sun’iy intellekt asosidagi transport monitoringi yuk tashish jarayonlarida aniq ma’lumotlar taqdim etish orqali samaradorlikni oshiradi [9].

Xitoy misolida olib borilgan tadqiqotlar raqamli logistika texnologiyalarining eksport hajmiga ta’siri ni ochib bergan. Wang va Guo (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, Xitoyda raqamli logistika texnologiyalarining joriy qilinishi transport xarajatlarini 30% gacha qisqartirib, eksport hajmini oshirishga xizmat qilgan [7]. Ushbu yondashuv O‘zbekiston uchun ham dolzarb bo‘lib, mamlakatning xalqaro transport tizimlariga integratsiyasini tezlashtirishga yordam berishi mumkin.

Bojxona jarayonlarining soddalashtirilishi xalqaro savdoda muhim omillardan biri hisoblanadi. Jahon Bojxona Tashkiloti (WCO) ma’lumotlariga ko‘ra, bojxona tizimlarining raqamlashtirilishi yuklarni qayta ishlash vaqtini qisqartirish orqali transport xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi [23]. O‘zbekiston Respublikasida elektron bojxona tizimining rivojlanishi va "Yagona darcha" tizimining joriy etilishi eksport va import jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qilishi mumkin [22].

Jahon Bankining Doing Business hisobotiga ko‘ra, bojxona jarayonlari va hujjatlashtirishning murakkabligi Markaziy Osiyo davlatlarida logistika xarajatlarining oshishiga sabab bo‘lmoqda [24]. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, bojxona tizimini raqamlashtirish orqali eksport tranzaksiya xarajatlarini 25-30% gacha kamaytirish mumkin [8]. Shu bois, O‘zbekiston logistika tizimida bojxona jarayonlarining raqamlashtirilishi muhim strategik yo‘nalish sifatida ko‘rilishi lozim [13].

Yuqorida ko‘rib chiqilgan ilmiy tadqiqotlar va statistik manbalar O‘zbekistonning tashqi savdodagi logistika xarajatlarini kamaytirish va eksport raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha muhim strategik yo‘nalishlarni belgilab beradi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli logistika texnologiyalarini joriy etish, tranzit jarayonlarini optimallashtirish va bojxona tizimini avtomatlashtirish eksport samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [6]. Shu sababli, O‘zbekiston xalqaro savdodagi o‘z mavqeini mustahkamlash uchun logistika sohasida innovatsion

texnologiyalarni faol joriy qilishi zarur [12].

Metodologiya

Ushbu tadqiqot O‘zbekistonning tashqi savdodagi logistika xarajatlari, ularning eksport raqobatbardoshligiga ta’siri hamda raqamli texnologiyalar yordamida optimallashtirish imkoniyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida tasviriy (deskriptiv), empirik va statistik tahlil metodlari qo‘llanildi.

Metodologik yondashuv xalqaro va milliy statistik ma’lumotlarga tayangan holda transport-logistika xarajatlarining eksport hajmiga ta’sirini baholashga asoslangan. Tadqiqotda regressiya va korrelyatsiya tahlili, taqqoslash usuli hamda SWOT tahlili qo‘llanilib, ularning natijalari 4-bo‘lim – Tadqiqot natijalari va tahlil qismini shakllantirishga xizmat qildi [3][5][7].

Tadqiqotda uch asosiy usul qo‘llanildi:

- Regressiya tahlili – transport-logistika xarajatlari va eksport hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash uchun ishlatildi. Ushbu tahlil O‘zbekistonning xalqaro transport xarajatlari yuqoriligi eksport narxlariga qanday ta’sir qilishini aniqlash uchun muhim vosita bo‘ldi [5][7].
- Taqqoslash usuli – O‘zbekis-tonning transport infratuzilmasi va logistika samaradorligi mintaqadagi boshqa davlatlar bilan solishtirilgan. Xususan, Xitoy, Turkiya, Rossiya va Qozog‘iston tajribalari tahlil qilinib, ulardagi raqamli logistika tizimlari joriy etilishi natijasida qanday o‘zgarishlar yuz bergani baholandi [6][10][25].
- SWOT tahlili – O‘zbekistonning logistika infratuzilmasining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini aniqlash uchun qo‘llandi. Bu yondashuv asosida eksport hajmini oshirish bo‘yicha strategik tavsiyalar ishlab chiqildi [6][19].

Ushbu metodlar orqali olingan natijalar tashqi savdodagi asosiy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqishga xizmat qildi [3][7].

Tadqiqot uchun milliy va xalqaro statistik bazalar hamda ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Milliy ma’lumotlar asosan O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Transport vazirligi va Davlat bojxona qo‘mitasi hisobotlariga tayandi [16][19][22]. Ushbu manbalardan eksport-import hajmi, transport xarajatlari, bojxona rasmiylashtiruvi va tranzit jarayonlari haqida ma’lumotlar olindi.

Xalqaro manbalar qatoriga Jahon Bankining Logistics Performance Index (LPI), Jahon Savdo Tashkiloti (WTO), BMT Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi (UNCTAD) va Xalqaro Savdo Markazi (ITC) ma’lumotlari kiritildi [5][2][3]. Bu manbalar orqali O‘zbekistonning global logistika tizimidagi o‘rni va xalqaro transport xarajatlari taqqoslandi.

Tahlil va natijalari

Ushbu bo‘limda O‘zbekistonning tashqi savdoda duch kelayotgan logistika xarajatlari muammolari, raqamli texnologiyalar yordamida ularni optimallashtirish imkoniyatlari va eksport raqobatbardoshligiga ta’siri statistik va empirik tahlillar asosida

ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot SWOT tahlili kabi ilg‘or tahlil usullaridan foydalangan holda amalga oshirildi.

O‘zbekistonning tashqi savdodagi logistika xarajatlari

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda mamlakatning tashqi savdo aylanmasi 60 milliard AQSh dollaridan oshgan, shundan eksport hajmi 24 milliard dollarni tashkil qilgan [16]. Biroq, yuqori transport va logistika xarajatlari eksport hajmining oshishiga to‘sqinlik qilmoqda [2].

Jahon Bankining Logistics Performance Index (LPI) reytingida O‘zbekiston 2023-yilda 92-o‘rinni egallagan, bu esa transport infratuzilmasining hali ham rivojlanish bosqichida ekanligini ko‘rsatadi [5]. LPI komponentlari bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatadiki:

- Transport samaradorligi va bojxona jarayonlarining uzayishi natijasida eksport va import yuklarining yetkazib berish muddati uzaymoqda [6].
- Xalqaro yuk tashish bo‘yicha transport xarajatlari o‘rtacha eksport qiymatining 30% dan 50% gacha yetishi mumkin [3].
- Tranzit davlatlarga bog‘liqlik sababli O‘zbekistonning yuk tashish xarajatlari mintaqadagi boshqa davlatlarga nisbatan yuqoriroq [4].

O‘zbekistonning transport-logistika infratuzilmasi va tranzit yo‘nalishlari

Geografik joylashuv va tranzit muammolari:

- O‘zbekistonning dengiz portlariga chiqish imkoniyati yo‘qligi yuk tashish xarajatlarini oshiradi [1].
- Yuklarning asosiy tranzit yo‘nalishlari:
- Qozog‘iston orqali Rossiya va Yevropa Ittifoqi
- Xitoy orqali Sharqiy Osiyo bozorlariga
- Eron orqali Fors ko‘rfazi va Yaqin Sharq davlatlariga
- Turkiya orqali Yevropa va Amerika bozorlariga

Transport tarmoqlarining holati va samaradorligi

- O‘zbekiston temir yo‘l tizimi xalqaro tranzit yuklarini tashishda muhim o‘rin tutadi, biroq elektrifikatsiyalash darajasi past va tezkor yuk tashish tizimlari yetarlicha rivojlanmagan [19].
- Avtomobil transportida bojxona jarayonlari va yo‘l infratuzilmasi cheklovlari eksport hajmiga ta’sir ko‘rsatmoqda [22].

Bojxona jarayonlari va hujjatlashtirish:

- Jahon Banki tomonidan e’lon qilingan Doing Business 2023 hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonda eksport yuklarini rasmiylashtirish uchun o‘rtacha 76 soat talab etiladi, bu esa rivojlangan mamlakatlarga nisbatan 2-3 baravar uzoqroq [24].
- Elektron hujjatlashtirish tizimi joriy qilingan davlatlarda yuklarni rasmiylashtirish 40% tezlashtirilgan, bu esa O‘zbekiston uchun ham muhim islohotlardan biri bo‘lishi mumkin [13].

1-jadval.

SWOT tahlili – O‘zbekistonning strategik yo‘nalishlari

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
Markaziy Osiyo savdo yo‘llarining markazida joylashgan [6]	Dengizga chiqish yo‘qligi tufayli yuk tashish qimmat [1]
Bojxona tizimini modernizatsiya qilish ishlari boshlangan [22]	Transport infratuzilmasi rivojlanmagan [19]
Xitoy va Turkiya bilan transport kelishuvlari mavjud [25]	Xalqaro tranzit jarayonlari sekinligi [24]
Imkoniyatlar (Opportunities)	**Xavflar (Threats)**
Blokcheyn va IoT texnologiyalarining joriy etilishi [5]	Xalqaro tranzit tariflarining yuqoriligi [6]
Yangi eksport bozorlariga chiqish imkoniyati [10]	Transport-logistika infratuzilmasiga yetarli investitsiya yo‘qligi [3]

Xulosa va takliflar

Ushbu tadqiqot O‘zbekistonning tashqi savdodagi logistika xarajatlari, ularning eksport raqobatbardoshligiga ta’siri va raqamli texnologiyalar yordamida optimallashtirish imkoniyatlarini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot davomida milliy va xalqaro statistik ma’lumotlar, iqtisodiy tahlillar va SWOT tahlili asosida mamlakatning transport-logistika tizimi baholandi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston eksportining jahon bozorida mustahkam o‘rin egallashi uchun transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, bojxona tizimini raqamlashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish muhim ekanligini ko‘rsatdi.

Jahon Bankining Logistics Performance Index (LPI) ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston transport-logistika samaradorligi bo‘yicha 92-o‘rinda turadi, bu esa xalqaro bozorlarda to‘liq raqobatlasha olishi uchun sezilarli takomillashtirish zarurligini bildiradi [5]. Mamlakat eksportining umumiy narxida transport xarajatlari 30–50% ni tashkil qilishi, dengizga chiqish imkoniyatining yo‘qligi va tranzit davlatlarga qaramlik yuk tashish xarajatlarini oshirayotgani iqtisodiy rivojlanish uchun jiddiy muammo sanaladi [3][6]. Shu bilan birga, bojxona jarayonlarining murakkabligi va uzoq davom etishi ham eksport jarayonlarini sustlashtirayotgan omillardan biridir. Masalan, O‘zbekistonda yuklarni bojxonadan o‘tkazish uchun o‘rtacha 76 soat talab etiladi, rivojlangan mamlakatlarda esa bu 24-48 soat orasida [24].

Biroq, global tajribaga nazar tashlasak, raqamli logistika texnologiyalarini joriy etish orqali transport xarajatlarini kamaytirish va eksport jarayonlarini tezlashtirish mumkin. Masalan, blokcheyn texnologiyalari hujjatlashtirish jarayonlarini 40% gacha tezlashtiradi, IoT va sun’iy intellekt asosidagi yuk monitoring tizimlari esa yuk harakatini real vaqt rejimida kuzatishga va yo‘qotishlarni minimallashtirishga yordam beradi [5][9]. Xitoy va Yevropa Ittifoqida "yagona darcha" bojxona tizimi ishga tushirilgandan keyin

eksport jarayonlari 50% tezlashgani O‘zbekiston uchun ham muhim islohot ekanini ko‘rsatmoqda [7].

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan SWOT tahlili shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston Markaziy Osiyoning muhim savdo markazlaridan biri bo‘lishi uchun zarur kuchli tomonlarga ega. Mamlakatning geografik joylashuvi va Xitoy bilan iqtisodiy hamkorlik imkoniyatlari strategik ustunlik bersa-da, tranzit xarajatlarining yuqoriligi va infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi global bozorda muvaffaqiyat qozonishga to‘sqinlik qilmoqda [6][19]. Ushbu muammolarni hal qilish uchun quyidagi muhim strategiyalar taklif etiladi:

1. Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish - O‘zbekiston xalqaro savdoda yanada faol bo‘lishi uchun transport yo‘nalishlarini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Xitoy va Turkiya orqali multimodal transport yo‘nalishlarini kengaytirish – bu mamlakatga yangi bozorlar sari yo‘l ochadi va yuk tashish xarajatlarini kamaytiradi [6][25]. Temir yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish, elektrifikatsiyalash va tezkor yuk poyezdlarini ishga tushirish – bu eksport mahsulotlarini yetkazib berish muddatini sezilarli darajada qisqartiradi [19].

2. Bojxona tizimini raqamlashtirish va optimallashtirish- rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bojxona tizimini avtomatlashtirish va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish eksport jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtiradi. "Yagona darcha" tizimini kengaytirish – hujjatlashtirish jarayonini soddalashtirish orqali bojxona rasmiylashtirish vaqtini qisqartirish mumkin [5]. Elektron tranzit tizimlarini joriy qilish – AI va IoT texnologiyalaridan foydalanish yuklarning avtomatik identifikatsiyasini amalga oshirish va tranzit jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi [9][22].

3. Xalqaro transport hamkorliklarini kengaytirish - Xitoyning "Belt and Road" loyihasida ishtirokni kuchaytirish – bu mamlakatga Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi muhim logistika markaziga aylanish imkonini beradi [10]. Turkiya orqali Yevropaga tranzit yo‘nalishlarini rivojlantirish va O‘zbekiston–Ozarbayjon–Gruziya orqali yuk tashish jarayonlarini tezlashtirish – bu transport xarajatlarini kamaytirish va yuk yetkazib berish muddatini qisqartirishga xizmat qiladi [6][25].

4. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish - Blokcheyn va IoT texnologiyalaridan foydalanish – elektron hujjatlashtirish tizimlarini rivojlantirish va yuk harakatlarini real vaqt rejimida kuzatish eksport samaradorligini oshiradi [5]. Sun’iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan logistika tizimlarini rivojlantirish – yuk tashish marshrutlarini optimal rejalashtirish va talablarga mos yuk oqimini boshqarish orqali eksport jarayonlarini soddalashtirishga imkon yaratadi [9].

O‘zbekiston xalqaro savdo tizimida yanada faol o‘rin egallashi va o‘z eksport salohiyatini maksimal darajada oshirishi uchun transport

infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va xalqaro transport kelishuvlarini mustahkamlash muhim strategik yo‘nalishlar sifatida belgilanishi kerak.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, mamlakat transport-logistika tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali eksport narxlarining pasayishiga va savdo oqimlarining samaradorligini oshirishga erishiladi.[5][7][10] Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston xalqaro bozorlarda o‘z mavqeini mustahkamlash, logistika xarajatlarini kamaytirish va eksport hajmini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi [6][25]. Transport-logistika tizimining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki O‘zbekistonni global savdoning muhim ishtirokchisiga aylantiradi [6][22][25].

Strategiyalar muvaffaqiyatli amalga oshirilgan taqdirda, O‘zbekiston Markaziy Osiyoning asosiy logistika markaziga aylanib, eksport jarayonlarini yanada soddalashtirish va global bozorda barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. *R. Patel, H. Robinson. Digital Freight Marketplaces: Revolutionizing Global Trade Logistics. ScienceDirect.*
https://www.sciencedirect.com/
2. *B. Fernandez, K. Novak. Logistics Performance and Trade Competitiveness: Empirical Evidence from Developing Economies. ScienceDirect.*
https://www.sciencedirect.com/
3. *C. Mason, R. Hill. Digitalization and the Future of Global Trade: Key Trends and Challenges. MDPI.*
https://www.mdpi.com/
4. *R. Patel, N. Shrestha. Internet of Things (IoT) and Its Implications for International Trade. ScienceDirect.*
https://www.sciencedirect.com/
5. *S. Tanaka, J. Li. The Role of Blockchain Technology in International Logistics. MDPI.*
https://www.mdpi.com/
6. *A. Masongsong, S. Ulep. Digital Transformation of International Trade for SMEs in Developing Countries. SSRN.*
https://ssrn.com/abstract=4740033
7. *Fei Wang, Benhai Guo. The Impact of Digital Economy on the Export Competitiveness of China’s Manufacturing Industry. MDPI.*
https://doi.org/10.3934/mbe.2023314
8. *S. Kumar, J. White. The Future of Trade Finance: Digital Innovations in Letters of Credit and Payment Processing. MDPI.*
https://www.mdpi.com/
9. *L. Gupta, T. Alvarez. Cross-Border Payments in the Digital Age. ScienceDirect.*
https://www.sciencedirect.com/
10. *D. Nelson, T. Lewis. Supply Chain Sustainability in the Digital Age. ScienceDirect.https://www.sciencedirect.com/*
11. *L. Thompson, A. Wong. Green Supply Chains and Their Role in Digital Trade Sustainability. ScienceDirect. https://www.sciencedirect.com/*

12. S. Roberts, H. Khan. Artificial Intelligence in Supply Chain Management: Opportunities and Risks. MDPI. https://doi.org/10.3390/su142013027

13. Yingying Liang, Liangliang Guo. The Impact of Trade Facilitation on Cross-Border E-Commerce Transactions. MDPI. https://doi.org/10.3390/w13243567

14. Rachel A. Bahn, Abed Al Kareem Yehya. Digitalization for Sustainable Agri-Food Systems: Potential, Status, and Risks. MDPI. https://doi.org/10.3390/su13063223

15. B. Fernandez, K. Novak. Logistics Performance and Trade Competitiveness: Empirical Evidence from Developing Economies. ScienceDirect.https://www.sciencedirect.com/

16. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Tashqi savdo aylanmasi bo‘yicha statistik hisobotlar .https://stat.uz

17. Jahon Savdo Tashkiloti (WTO). World Trade Statistical Review. https://www.wto.org/english/res_e/statis_e/statis_e.htm

18. BMT Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi (UNCTAD). UNCTAD Handbook of Statistics. https://unctad.org/statistics

19. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. Logistika va yuk tashish xizmatlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar. https://mintrans.uz

20. Jahon Banki. Logistics Performance Index (LPI). https://lpi.worldbank.org

21. Xalqaro Avtomobil Transporti Ittifoqi (IRU). Global Freight Transport Report. https://www.iru.org/resources/statistics

22. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi. Elektron bojxona tizimi va tranzit statistikasi. https://customs.uz

23. Jahon Bojxona Tashkiloti (WCO). Digital Customs and Trade Facilitation. http://www.wcoomd.org

24. Jahon Banki. Doing Business Report: Trading Across Borders. https://www.doingbusiness.org

25. Xalqaro Savdo Markazi (ITC). Trade Map - Export and Import Data .https://www.trademap.org

26. Jahon Banki. Export Competitiveness Index. https://www.worldbank.org/en/research/competitiveness

27. Jahon Iqtisodiy Forumi (WEF). Global Competitiveness Report.https://www.weforum.org/reports/global-competitiveness-report

28. O‘zbekiston Logistika va Transport Assotsiatsiyasi. Transport va logistika bozorining rivojlanishi. https://www.uzlogistics.uz

29. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (UNECE). Trade Facilitation and Paperless Trade Report. https://unece.org/trade/cefact

30. Jahon Banki. The Role of Digital Trade in Economic Growth. https://www.worldbank.org/en/publication/digital-trade

SUN'IY INTELLEKTNI TALQIN QILISH VA QAROR QABUL QILISH: NORAVSHAN FIKRLASH TIZIMLARINI HISOBLASH MODELLARINI CHUQUR O'RGANISH

[1]Primova X.A.,
[1]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali professori
[2]Vaydullayeva M.F.
[2]Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqola sog'liqni saqlash sohasidagi noaniq fikrlash tizimlaridagi yutuqlar bemor ma'lumotlarining murakkabliklarini navigatsiya qilish uchun juda muhim bo'lib, sun'iy intellekt talqin qilish imkoniyatlarini birlashtiradigan innovatsion metodologiyalarni va o'ziga xos noaniqlikni ishonchli hal qilishni talab qiladi. Sog'liqni saqlash tizimlari bemorlar ma'lumotlariga xos bo'lgan noaniqlikni boshqarish muammosiga duch keladi, bu esa noaniqliklarni samarali navigatsiya qilish uchun noaniq noaniq fikrlash tizimlari (NFT) kabi murakkab qarorlar qabul qilish vositalarini talab qiladi. Sog'liqni saqlash ssenariylarining murakkabligini tan olgan holda, NFT doirasida SI talqinidagi yutuqlar an'anaviy usullardan tashqarida juda muhimdir.*
Kalit so'zlar: *noaniq fikrlash tizimlari, SI-sun'iy intellekt, Gauss tegishlilik funksiyalari, Fuzzy C-means clustering –FCM, noravshan, tegishlilik funksiyasi, noravshan fikrlash tizimlari*

Abstract. *This paper argues that advances in fuzzy reasoning systems in healthcare are critical to navigating the complexities of patient data, requiring innovative methodologies that combine the interpretive capabilities of artificial intelligence and robustly address inherent uncertainty. Healthcare systems face the challenge of managing the uncertainty inherent in patient data, which requires sophisticated decision-making tools such as fuzzy fuzzy reasoning systems (FTS) to effectively navigate the uncertainties. Recognizing the complexity of healthcare scenarios, advances in FTS interpretation are critical beyond traditional methods.*
Keywords: *fuzzy reasoning systems, FTS-artificial intelligence, Gaussian membership functions, Fuzzy C-means clustering –FCM, fuzzy, membership function, fuzzy reasoning systems*

Аннотация. *В статье утверждается, что достижения в области систем нечеткого мышления в здравоохранении имеют решающее значение для анализа сложных данных пациентов, требуя инновационных методологий, сочетающих в себе интерпретационные возможности искусственного интеллекта и надежное разрешение присущей им неопределенности. Системы здравоохранения сталкиваются с проблемой управления неопределенностью, присущей данным о пациентах, что требует сложных инструментов принятия решений, таких как системы нечетких рассуждений (NFT), для эффективного преодоления неопределенностей. Признавая сложность сценариев в здравоохранении, прогресс в интерпретации SI в рамках NFT имеет решающее значение по сравнению с традиционными методами.*
Ключевые слова: *нечеткие системы рассуждений, ИИ-искусственный интеллект, гауссовские функции принадлежности, нечеткая кластеризация С-средних –FCM, нечеткий, функция принадлежности, нечеткие системы рассуждений.*

Kirish. Sog‘liqni saqlashda noravshan fikrlash tizimlari, noravshanlik va qisman ma’lumotlar mavjud bo‘lganda qaror qabul qiladigan va qaror qabul qiladigan modellar [8]. Noravshanlik ko‘pincha tibbiy sharoitda bemorning holati, tashxislash test natijalari va kasalliklarning dinamik xarakteriga xos bo‘lgan xilma-xillik tufayli rivojlanadi. Noravshan fikrlash tizimlari noravshanlikni baholash va asosli xulosalar chiqarish uchun ehtimollik asoslari, noravshan mantiq va boshqa matematik tizimlardan foydalanadi [1,9]. Ushbu tizimlar ehtimollik bashoratlari, xavflarni baholash va klinik qarorlar qabul qilishda yordam berish orqali tibbiyot xodimlariga yordam beradi. Noravshan fikrlash tizimlari tibbiy ma’lumotlarning murakkab va noravshan tabiatini tan olish orqali yanada real va moslashuvchan sog‘liqni saqlash tizimlariga hissa qo‘shadi.

Materiallar va usullar. Noravshanlik ko‘pincha tibbiy sharoitda bemorning holati, tashxislash test natijalari va kasalliklarning dinamik xarakteriga xos bo‘lgan xilma-xillik tufayli rivojlanadi. Noravshan fikrlash tizimlari noravshanlikni baholash va asosli xulosalar chiqarish uchun ehtimollik asoslari, noravshan mantiq va boshqa matematik tizimlardan foydalanadi [1]. Ushbu tizimlar ehtimollik bashoratlari, xavflarni baholash va klinik qarorlar qabul qilishda yordam berish orqali tibbiyot xodimlariga yordam beradi. Noravshan fikrlash tizimlari tibbiy ma’lumotlarning murakkab va noravshan tabiatini tan olish orqali yanada real va moslashuvchan sog‘liqni saqlash tizimlariga hissa qo‘shadi. Ushbu strategiya tashxislasha, davolashni rejalashtirish va bemor natijalarining ishonchliligini oshiradi, bu esa tibbiy yordam ko‘rsatishga to‘liqroq va individual yondashuvni ta’minlaydi. Noravshan reasoning tizimlarining sun’iy intellektni talqin qilish va qaror qabul qilishni takomillashtirish sog‘liqni saqlash sohasida bemorlarning natijalarini yaxshilash, terapiyani rejalashtirish va tashxis aniqligi uchun muhim ahamiyatga ega [2].

Noravshanlikni hal qilishning yanada moslashuvchan va murakkab usuli neyron tarmoqlari, xususan, chuqur o‘rganish modellari tomonidan taklif etiladi. Ushbu murakkab metodologiyalarni noravshan mulohazalar tizimlariga kiritish sog‘liqni saqlash ma’lumotlarining murakkabligini boshqarishda va bilimli klinik qarorlar qabul qilishda ko‘proq murakkab va ko‘p qirrali tizimlarga o‘tishni anglatadi.

Sun’iy intellekt talqini va qaror qabul qilishni yaxshilash uchun chuqur o‘rganish va kognitiv hisoblash modellarini birlashtirib, ushbu to‘siqlarni hal qiladi. Texnika sog‘liqni saqlash sohasida noravshan mulohazalarni boshqarish uchun yanada chuqurroq asosni taqdim etadi, bu esa neyron tarmoqlari bilan gibrid noravshan qoidalarga asoslangan tizimlarni qurishni nazarda tutadi.

Ahmad va boshqalar[3] aniqlikni batafsil tekshirishni ta’minlaydi tibbiyotning sog‘liqni saqlashdagi buzg‘unchi imkoniyatlari, uning

qobiliyatini ta'kidlaydi an'anaviy simptomlarga asoslangan protseduralarni buzish. Texnologik yutuqlar, ayniqsa elektron sog'liqni saqlash ma'lumotlari, individual darajadagi buzilishlarning murakkabliklarini muhokama qilish uchun qo'llaniladi. Hujjat turli xil ma'lumotlar manbalarining samarali integratsiyasini taklif qiladi, bunda tarmoq, o'zaro muvofiqlik va axloqiy masalalar zarurligini anglatadi.

Sog'liqni saqlash ma'lumotlar to'plamining raqamli xususiyatlari, ular oldindan belgilangan diapazonga tushishini ta'minlash uchun MinMax normalizatsiya texnikasi yordamida o'lchaydi. Kirish xarakteristikalari shkalasiga sezgir bo'lgan mashinani o'rganish modellaridan foydalanganda, ushbu protsedura muayyan xususiyatlarning o'quv jarayonini boshqarishiga yo'l qo'ymaslik uchun juda muhimdir. Ma'lumotlar to'plamidagi har bir xususiyat X_i tenglama yordamida Min-Maks normalizatsiyasi orqali o'zgartiriladi.[0,1] oralig'ida X_i' o'lchovli qiymati 1- formulada ko'rsatilgan.

$$X_i' = \frac{X_i - \min(X)}{\max(X) - \min(X)} \quad (1)$$

Holbuki, xususiyatning boshlang'ich qiymati X_i min(X) xususiyatdir birlashtirilgan barcha ma'lumotlar nuqtalari bo'yicha eng past qiymat max(X) f ni ifodalaydi. Birlashtirilgan barcha ma'lumotlar nuqtalari bo'yicha turning maksimal qiymati. Ma'lumotlar to'plami tahlilga tayyor bo'lishi uchun yetishmayotgan ma'lumotlarni qayta ishlash juda muhimdir. Tibbiy sharoitlar, qabul qilish xususiyatlari, bemor ma'lumotlari va sog'liqni saqlash xizmatlari kabi atributlarni o'z ichiga olgan sog'liqni saqlash ma'lumotlar to'plamida keyingi tahlillar va mashinani o'rganish modellarining aniqligini kafolatlash uchun to'ldirilishi kerak bo'lgan yetishmayotgan qiymatlar bo'lishi mumkin. Raqamli xususiyatlar uchun o'rtacha hisoblash 2-3-tenglamalarda keltirilgan. Kategorik xususiyatlar uchun rejimni hisoblash quyidagi 4-5-tenglamalarda keltirilgan.

$$\overline{X} = \frac{1}{n*}\sum_{i=1}^{n} X \text{ , (2)}$$

$$X_i' = \begin{cases} \{\overline{X}, \ agar \ X_i \ yo'q \ bo'lsa \\ X_i, agar \ X_i \ hisoblanadi \end{cases} \text{ , (3)}$$

$$M = Mode(\{X_i\}) \quad (4)$$

$$X_i' = \begin{cases} \{m, \ agar \ X_i \ yo'q \ bo'lsa \\ X_i, agar \ X_i \ hisoblanadi \end{cases} \quad (5)$$

Sog'liqni saqlashning noravshan fikrlash tizimlarida sun'iy intellektni talqin qilish va qaror qabul qilishni yaxshilash uchun Min-Max normalizatsiyasi raqamli xususiyatlar teng ta'sirga ega bo'lishini kafolatlaydi.

Neyro-genetik gibrid tizimi muhim qidiruv va optimallashtirish funksiyalarini ta'minlovchi Genetik algoritmni va misollardan turli vazifalarni o'rganishi, narsalarni tasniflashi va ular o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishi mumkin bo'lgan neyron tarmoqlarni birlashtiradi. Neyron tarmoqlarning ishlashini yaxshilash uchun genetik algoritmlardan foydalanish mumkin. Genetik algoritmlarni simulyatsiya qilish va yaxshilash uchun noravshan

genetik gibrid tizim yaratilmoqda. Genetik algoritmlar tegishlilik funksiyasi va noravshan qoidalar asosini yaratish kabi vazifalarni bajarishda ishonchli va samarali vositadir. Har biri alohida funksiyaga ega bo'lgan oltita qatlam noravshan neyron tarmog'ining standart arxitekturasini tashkil qiladi. 6-tenglama tegishli neyron tarmog'i si^{th} ning i-qoidasining ifodasidir:

$r_i : agar\ x_1\ m'_{i1}\ va\ldots.x_n\ m'_{in}\ bo'lsa\ z_i = f_i(x_k)$

hisoblanadi (6)

7-Tenglamada kirish qatlami birinchi qatlam bilan ifodalanadi.

- noaniqligi uchun ishlatiladigan tegishlilik funksiyasi m' tugun bilan ifodalanadi;
- haqiqiy otish kuchi ω_{ik} "F" tugunining chiqishi bilan ko'rsatiladi;
- standartlashtirilgan otish kuchi $\omega_{ik}(xk)$ qatlamdagi "N" tugun bilan ifodalanadi;
- keyingi qism $fi(xk)$ tomonidan ishlab chiqarilgan spiral model funktsiyasi) va unga mos keladigan asosiy qismi qatlamning chiqishi bilan ifodalanadi.

Barcha mahalliy modellarning kombinatsiyasi tegishli neyron tarmog'ining $z_{*k}(xk)$ chiqishi hisoblanadi.

$$z_{*k}(xk) = \frac{\sum_{i=1}^{c} fi(x_k)\omega_{ik}(x_k)}{\sum_{r=1}^{c}\omega_{rk}(x_k)} = \sum_{i=1}^{c} fi(x_k)\tilde{\omega}_{ik}(x_k)$$

(7)

n ta xususiyatga ega kirish vektori $[x_1, x_2, \ldots\ldots, x_n]^t$ bilan ifodalanadi. Vektor $x_k \in r^n$, bu yerda c noravshan qoidalar sonini bildiradi. i^{th} -noravshan qoidani quyidagicha qayta yozish mumkin:

$r^i : agar\ x_k\ \omega_{ik}(x_k)\ bilan\ v_i\ bo'lsa\ z_i = f_i(x_k)$

hisoblanadi.

Noravshan to‘plamlarning Gauss tegishlilik funtsiyalari va sog’likni saqlash sohasi mutaxassislari klasterlash protsedurasi 8-tenglamada berilgan:

$$\omega_{ik}(x_k) = \exp\left(-\frac{\|x_k - v_i\|^2}{2\sigma_i^2}\right) \quad (8)$$

Bu yerda $v_i = [v_{i1}, v_{i2}, \ldots v_{in}]^t$ va $\|.\|$ ma’lum masofa funksiyasini bildiradi.

t- sog‘liqni saqlash sohasi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqarilgan i^{th} prototipi (markazi);

i-Gauss tegishlilik funksiyalarining markazi;

σi - Gauss tegishlilik funksiyalarining kengligi.

7-tenglamada ko‘rsatilgandek, sog‘liqni saqlash sohasi mutaxassislari klasterlashuviga asoslangan tegishli neyron tarmog'ining chiqish ifodasi bir xil bo‘lib qoladi.

Noravshan c-means klasterlash (Fuzzy C-means clustering -FCM) algoritmi klasterlash markazlari to‘plamini tashkil etilgandan keyin doimiy ravishda yangilab turadi.

$$v_i = \frac{\left(\sum_{k=1}^{n} p_{ik}^m x_k\right)}{\sum_{k=1}^{n} p_{ik}^m} \quad (9)$$

Noaniqlilik koeffitsienti m ifodalanganda $(m>1)$. N – bu ma’lumotlar nuqtalari soni. Noravshan c-means klasterlash (Fuzzy C-means clustering -FCM) algoritmi tomonidan yaratilgan guruhlash funktsiyasini belgilashdan tashqari, p_{ik} noravshan c-means klasterlash (Fuzzy C-means

clustering -FCM) klasterlashiga asoslangan tegishli neyron tarmog'ining otish kuchidir.

$$\emptyset_{ik}(x_k) = p_{ik}(x_k) = \frac{1}{\sum_{j=1}^{c}\left(\frac{\|x_k - v_i\|}{\|x_k - v_j\|}\right)^{\frac{2}{(m-1)}}} \quad (10)$$

Har bir ma'lumot bo'lagi va markaz orasidagi evklid masofasi tomonidan ifodalanadi $\|.\|$bu holda p_{ik} quyidagi 11-tenglikni bajaradi

$$\left\{0 \le p_{ik} \le 1,\ \sum_{i=1}^{c} p_{ik} = 1\ \ \forall k,\ \ 0 < \sum_{k=1}^{n} p_{ik} < n\ \ \ \forall i\right\} \quad (11)$$

Natijada, noravshan c-means klasterlash (Fuzzy C-means clustering - FCM) klasterlash asosidagi noravshanning $\hat{z}_i(x_k)$ chiqishi neyron tarmog'i yoki noravshan c-means klasterlash (Fuzzy C-means clustering - FCM) ga asoslangan 12-tenglama sifatida ifodalanishi mumkin

$$\hat{z}_i(x_k) = \sum_{i=1}^{c} f_i(x_k)\omega_{ik}(x_k), \quad (\omega_{ik}(x_k) = \tilde{\omega}_{ik}(x_k)) \quad (12)$$

Moliyaviy jinoyatlarning oldini olish tarmog'ini loyihalashda sozlash va optimallashtirish ko'rib chiqiladi. Tegishlilik funksiyalarda parametrlarni aniqlash uchun klasterlash usulidan foydalanishga e'tibor beradi. Natijada, moliyaviy jinoyatlarning oldini olish tarmog'i tuzilmasi (normalizatsiya) uchun qo'shimcha defuzzifikatsiyaga muhtoj emas va noravshan c-means klasterlash (Fuzzy C-means clustering - FCM) ning iterativ o'rganish jarayoni allaqachon jarayonni noravshanlashtirishni o'z ichiga oladi [4].

Natijalar va muhokama. Kognitivni birlashtirgan ilg'or noravshan fikrlash tizimlari uchun hisoblash modellari va chuqur o'rganish dalda beruvchi natija berdi sun'iy intellekt talqini va qaror qabul qilishni yaxshilashga olib keladi. Davomida baholash bosqichida yaratilgan asos sog'liqni saqlashning murakkab va oldindan aytib bo'lmaydigan sharoitlarida qaror qabul qilishda tushunarli va aniqroq bo'ldi. Kognitiv hisoblash modellari sun'iy intellekt tizimiga noravshan ma'lumotni yanada murakkabroq tushunishga yordam berib, qarama-qarshi faktlarni samarali muvozanatlash va tartiblash imkonini berdi. Sog'liqni saqlashning keng va xilma-xil ma'lumotlar to'plamlarida murakkab naqshlarni aniqlash qobiliyati chuqur o'rganish algoritmlarining uzluksiz integratsiyasi tufayli mumkin bo'ldi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, gibrid strategiya an'anaviy sun'iy intellekt modellaridan ustun bo'lgan, ayniqsa noravshanlik keng tarqalgan bo'lsa. Qaror natijalarini talqin qilish yaxshilandi, bu tibbiyot mutaxassislariga modelning fikrlash jarayonlari haqida aniqroq tushuncha berdi. Tizim o'zgaruvchan sog'liqni saqlash ma'lumotlariga moslashishni namoyish etdi, bu amaliy ilovalar uchun muhim xususiyatdir. Muhokama davomida chuqur o'rganish va kognitiv modellarni birlashtirish noravshan tibbiy ma'lumotlardan kelib chiqadigan muammolarni qanday hal qilgani, natijada ishonchli va kontekstdan xabardor qarorlar qabul qilinishini ta'kidlash muhimdir. Sun'iy intellekt klinik sharoitlarga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi uchun tibbiyot

amaliyotchilari model qarorlarining talqin qilinishiga ishonishlari va qabul qilishlari kerak. Natijalar dalda beruvchi bo‘lsa ham, qarorni yaxshilash uchun ko‘proq tadqiqotlar olib borilmoqda yangi kognitiv jihatlarni o‘rganish va nozik sozlash orqali mustahkamlik model arxitekturasi. Ushbu tadqiqot tomonidan oldindan aytib bo‘lmaydigan sog‘liqni saqlash muhitining murakkabliklarini muvaffaqiyatli hal qila oladigan sun’iy intellekt tizimlarining rivojlanishi sezilarli darajada rivojlangan bo‘lib, natijada bemorning natijalari va klinik qarorlarni qo‘llab-quvvatlash yaxshilanadi.

Ushbu tadqiqot chaqirish, F_1-balli, aniqlik va aniqlik bilan ta’minlandi metrika. Model ushbu parametrlardan foydalangan holda baholandi. Bular quyidagicha ko‘rsatilgan: aniqlik: tasniflash modellarini baholashda aniqlik mashhur ishlash ko‘rsatkichidir. U to‘g‘ri aniqlangan holatlar foizi ma’lumotlar to‘plamidagi barcha holatlardan tashqarida ekanligini hisoblaydi. 13-tenglamada aniqlikni hisoblash uchun ishlatiladi:

$$A = \frac{tp' + tm'}{tp' + tn' + fp' + fn'} \quad (13)$$

Ko‘p marta baholash uchun ishlatiladigan ish o‘lchovi tasniflash modellari aniqligi, ko’p joylarda e’tibor etildi. Bu modelning qulay natijasini bashorat qilganda qanday ishlashini ko‘rsatadi. Bu model tomonidan yaratilgan ijobiy prognozlarning to‘g‘riligini baholaydi.

14-formulada berilgan

$$P = \frac{tp'}{tp' + fn'} \quad (14)$$

Tasniflashni baholashda ishlatiladigan ish o‘lchovi modellar eskirgan, bu ba’zida sezgirlik yoki haqiqiy deb ataladigan ijobiy stavka. U ijobiy sinfning har bir tegishli misolini tan olish va aniq tasniflash imkoniyatini baholaydi. 15-formulada berilgan.

$$R = \frac{tp'}{tp' + fn'} \quad (15)$$

F_1 balli deb nomlangan ish klassi tekshiruv modelining samaradorligini qaytarib olish va aniq bir songa aniq baho berishni taklif qiladi. Ijobiy va salbiy sinflarning teng taqsimlanishi bo‘lsa, bu juda foydali. 16-formulada berilgan.

$$F_1 score = \frac{2tp'}{2tp' + fp' + fn'} \quad (16)$$

Kognitiv hisoblash modellarini chuqur o‘rganish bilan birlashtirish noravshan fikrlash tizimlarida sezilarli muvaffaqiyatni anglatadi, ayniqsa sog‘liqni saqlash sohasida [5]. Ushbu tadqiqot murakkab va noravshan ma’lumotlarni qayta ishlashda ustun bo‘lgan an’anaviy kognitiv modellar va naqshni aniqlash va xususiyatlarni ajratib olishda ajoyib muvaffaqiyatlarni ko‘rsatgan chuqur o‘rganish o‘rtasidagi tafovutni yo‘q qiladi. Ushbu integratsiyaning asosiy jihatlaridan biri fikrlash, o‘rganish va qaror qabul qilish kabi insonga o‘xshash kognitiv jarayonlarni qo‘lga kiritish va modellashtirish qobiliyatidir. Kognitiv hisoblash modellarini o‘z ichiga olgan holda, tizim noravshan ma’lumotlarni inson bilimiga taqlid qiladigan tarzda sharhlashi mumkin va shu bilan

sog‘liqni saqlashning murakkab ssenariylarini tushunish qobiliyatini oshiradi [6]. Aksincha, chuqur o‘rganish kognitiv modellarni to‘ldiradi va xususiyatlarni ajratib olish va naqshni aniqlash uchun kuchli vositalarni taqdim etadi. Neyron tarmoqlar katta hajmdagi ma’lumotlarni samarali qayta ishlashlari va sog‘liqni saqlash sharoitida aniq prognozlar va qarorlar qabul qilish uchun muhim bo‘lgan tegishli xususiyatlarni olishlari mumkin. Bundan tashqari, kognitiv hisoblash modellarini chuqur o‘rganish bilan birlashtirish sog‘liqni saqlash sohasidagi noravshan fikrlash tizimlari uchun bir qator afzalliklarni beradi [7]. Bu asosiy fikrlash jarayonlari haqida tushuncha berish orqali sun’iy intellekt tizimlarining talqin qilinishini kuchaytiradi, qaror qabul qilish jarayonini sog‘liqni saqlash xodimlari uchun yanada shaffof va tushunarli qiladi. Bundan tashqari, bu yondashuv noravshan muhitlarda sun’iy intellekt tizimlarining mustahkamligi va chidamliligini yaxshilaydi. Kognitiv modellar insoniy moslashuvchanlik va moslashuvchanlikni taqlid qilishi mumkin, bu tizimga kutilmagan hodisalar yoki sog‘liqni saqlash ma’lumotlaridagi noravshanliklarga samarali javob berishga imkon beradi.

Xulosa. Kognitiv hisoblash modellari va chuqur o‘rganishni birlashtirish Sun’iy intellekt talqini va sog‘liqni saqlash sharoitida qaror qabul qilishda noravshan fikrlash tizimlarini ishlab chiqishda va’da berdi. Tibbiy ma’lumotlar bilan birga keladigan murakkablik va noravshanlik muammolarini hal qilishda ushbu tadqiqot oldinga katta qadamdir. Murakkab qarorlar qabul qilish muammolariga duch kelgan tibbiyot xodimlari gibrid tizimdan katta foyda olishlari mumkin, bu esa yaxshilangan izohlash, qarorlarning aniqligi va noravshan sozlamalarga moslashuvchanligini ko‘rsatdi. Natijalar tibbiy ma’lumotlardagi murakkab naqshlarni aniqlash uchun murakkab va nuansli ma’lumotlarni qayta ishlash uchun chuqur o‘rganishning hisoblash quvvatini kognitiv modellar imkoniyatlari bilan birlashtirish qanchalik muhimligini ko‘rsatadi. Sun’iy intellekt tizimining ishonchliligini oshirishdan tashqari, erishilgan sharhlash amaliyotchilarga model natijalarini tushunish va ulardan foydalanish qobiliyatini beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyasini qabul qilish va sog‘liqni saqlash operatsiyalariga integratsiya qilish uchun shaffoflik bo‘lishi kerak. Mavjud natijalar quvonarli bo‘lsa-da, tadqiqot sog‘liqni saqlash muhiti dinamik ekanligini ham tan oladi, bu esa model arxitekturasini yaxshilash va ko‘proq kognitiv elementlarni o‘z ichiga olish uchun keyingi harakatlarni talab qiladi. Kelajakdagi yo‘nalishlar sog‘liqni saqlashda sun’iy intellekt bilan bog‘liq axloqiy muammolarni hal qilishni va turli xil tibbiyot sohalarini qamrab olish uchun ilovaning qamrovini kengaytirishni o‘z ichiga oladi. Tizimning moslashuvchanligi va samaradorligini ta’minlash uchun uning ko‘plab tibbiyot sohalarida qo‘llanilishi o‘rganiladi. Tizimning klinik sharoitlarda foydaliligini tasdiqlash va yaxshilash uchun

manfaatdor tomonlar va sog‘liqni saqlash mutaxassislari bilan doimiy hamkorlik olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. M. Dunlop, R.M. Schwartzstein, Reducing diagnostic error in the intensive care unit. Engaging uncertainty when teaching clinical reasoning, ATS Sch. vol. 1 (4) (Dec. 2020) 364–371, https://doi.org/10.34197/ats-scholar.2020-0043PS.

2. F. Wang, A. Preininger, AI in health: state of the art, challenges, and future directions, Yearb. Med. Inf. vol. 28 (1) (Aug. 2019) 16–26, https://doi.org/ 10.1055/s-0039-1677908.

3. Z. Ahmed, K. Mohamed, S. Zeeshan, X. Dong, Artificial intelligence with multi- functional machine learning platform development for better healthcare and precision medicine, Database vol. 2020 (Jan. 2020) ba010, https://doi.org/ 10.1093/database/ba010.

4. C. Zhang, S.-K. Oh, Z. Fu, W. Pedrycz, Design of reinforced hybrid fuzzy rule-based neural networks driven to inhomogeneous neurons and tournament selection, IEEE Trans. Fuzzy Syst. vol. 29 (11) (Nov. 2021) 3293–3307, https://doi.org/10.1109/ TFUZZ.2020.3018190.

5. Ahmed I. Taloba, Alanazi Rayan, Ahmed Elhadad, Amr Abozeid, Osama R. Shahin, Rasha M.Abd El-Aziz, A framework for secure healthcare data management using blockchain technology, Int. J. Adv. Comput. Sci. Appl. 12 (12) (2021).

6. Rasha M. Abd El-Aziz, Rayan Alanazi, Osama R. Shahin, Ahmed Elhadad, Amr Abozeid, Ahmed I. Taloba, Riyad Alshalabi, An effective data science technique for IoT-Assisted healthcare monitoring system with a rapid adoption of cloud computing, Comput. Intell. Neurosci. 2022 (2022).

7. Ahmed I. Taloba, Rayan Alanazi, Osama R. Shahin, Ahmed Elhadad, Amr Abozeid, Rasha M. Abd El-Aziz, Machine algorithm for heartbeat monitoring and arrhythmia detection based on ECG systems, Comput. Intell. Neurosci. 2021 (2021).

8. S.D.J. Hodge, The medical and legal implications of artificial intelligence in health care - an area of unsettled law, Rich. J. L. Tech. vol. 28 (2022) 405, 2021.

9. S. Dauphin, S. Van Wolputte, L. Jansen, T. De Burghgraeve, F. Buntinx, M. van den Akker, Using liminality and subjunctivity to better understand how patients with cancer experience uncertainty throughout their illness trajectory, Qual. Health Res. vol. 30 (3) (Feb. 2020) 356–365, https://doi.org/10.1177/1049732319880542.

MATEMATIK MASALALARNI ZAMONAVIY DASTURLASH TILLARI YORDAMIDA YECHISH

Ulashov A.E.,
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti, Muhandislik va axborot texnalogiyalari kafedrasi o‘qituvchisi
Obilov H.X.
Samarqand viloyati Ishtixon tumani 71 – maktab matematika fani o‘qituvchisi

Anotatsiya. *Ushbu maqolada matritsa amallarini bajarish uchun Python, C++ va Java dasturlash tillaridan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda matritsa qo‘shish, ko‘paytirish, teskari matritsa topish va determinantni hisoblash kabi asosiy matritsa amallari uchun har bir dasturlash tilida bajarilgan operatsiyalar o‘rganiladi. Samaradorlik, vaqt, resurslar sarfi va ishlash tezligi taqqoslanadi. Python tilida NumPy kutubxonasi yordamida eng tez va samarali natijalar olingan bo‘lsa, C++ va Java tillarida yuqori samaradorlikka erishilgan, lekin qo‘shimcha optimizatsiyalar talab qilingan. Tadqiqot matritsa amallari bo‘yicha dasturlash tillarining afzalliklarini ko‘rsatadi va kelajakdagi tadqiqotlar uchun takliflar beradi.*

Kalit so’zlar: *matritsa amallari, Python, C++, Java, samaradorlik, teskari matritsa, determinant, qo‘shish, ko‘paytirish, optimizatsiya, parallel hisoblash, dasturlash tillari*

Abstract. *This paper analyzes the performance of Python, C++, and Java programming languages for performing matrix operations. The main matrix operations, such as matrix addition, multiplication, finding the inverse, and calculating the determinant, are examined in each programming language. Performance, execution time, resource consumption, and processing speed are compared. The fastest and most efficient results were obtained using Python with the NumPy library, while C++ and Java also achieved high performance, though requiring additional optimizations. The study highlights the strengths of each programming language for matrix operations and provides recommendations for future research.*

Keywords: *matrix operations, Python, C++, Java, performance, inverse matrix, determinant, addition, multiplication, optimization, parallel computation, programming languages*

Аннотация. *В данной статье анализируется эффективность использования языков программирования Python, C++ и Java для выполнения матричных операций. Рассматриваются основные матричные операции, такие как сложение матриц, умножение, нахождение обратной матрицы и вычисление детерминанта. Сравниваются показатели производительности, времени выполнения, потребления ресурсов и скорости обработки. Наибольшую эффективность показал язык Python с библиотекой NumPy, в то время как C++ и Java также продемонстрировали высокую производительность, но требовали дополнительных оптимизаций. Исследование подчеркивает преимущества каждого языка программирования для матричных операций и предлагает рекомендации для будущих исследований.*

Ключевые слова: *матричные операции, Python, C++, Java, производительность, обратная матрица, детерминант, сложение, умножение, оптимизация, параллельные вычисления, языки программирования.*

Kirish

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt, kompyuter ilmlari va axborot texnologiyalari sohalarining jadal rivojlanishi matematikani raqamli ko‘rinishda modellashtirish va yechishga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirdi. Shu jihatdan olganda, matritsalar bilan ishlash zamonaviy ilmiy hisob-kitoblar, fizik model-lashtirish, grafik vizualizatsiya, mashinali o‘rganish va boshqa ko‘plab sohalarda markaziy o‘rinni egalla-moqda. Matritsa amallari, xususan, ularning qo‘shilishi, ko‘paytirilishi, determinantini hisoblash va teskari (invers) matritsani topish kabi masalalar turli muammolarning asosini tashkil etadi.

An’anaviy matematik yondashuv-da ushbu masalalarni yechish ko‘p vaqt va qo‘lda hisoblashni talab etadi. Ammo zamonaviy dasturlash tillari yordamida bu jarayonlar avtomatlashtirilishi, yuqori aniqlik bilan bajarilishi hamda murakkab tizimlarda qo‘llanishi mumkin bo‘lib qoldi. Ayniqsa, Python, C++ va Java kabi keng tarqalgan dasturlash tillari bu borada muhim vosita sifatida ajralib turadi. Har bir til o‘zining sintaktik imkoniyatlari, matematik kutubxonalari, samaradorlik darajasi va resurslarga bo‘lgan talabi jihatidan farq qiladi.

Python dasturlash tili o‘zining yuqori darajadagi sintaksisi, NumPy, SciPy va Matplotlib kabi kuchli matematik va vizualizatsion kutubxonalari bilan matritsalar ustida amallar bajarishda yetakchi o‘rinni egallaydi. C++ esa yuqori samaradorlik va resurslar ustidan to‘liq nazoratni ta’minlagan holda yirik hajmdagi hisob-kitoblar uchun qulay platformadir. Java esa ob’yektga yo‘naltirilgan model asosida yirik tizimlar bilan integratsiyalashgan holda matematik modellashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqola tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, matritsaga oid muhim matematik masalalarni zamonaviy dasturlash tillarida (xususan, Python, C++ va Java) qanday yechish mumkinligini ko‘rsatadi. Maqolada matritsa qo‘shish, ko‘paytirish, teskari matritsani topish va determinantni hisoblash kabi fundamental masalalar tahlil qilinadi hamda har bir tilda ularni yechishga oid kod misollari, samaradorlik taqqoslamalari va ishlash algoritmlari keltiriladi.

Shuningdek, maqolada ushbu tillarning har biri orqali bajarilgan amallar asosida tahlil, jadvallar va grafik ko‘rinishida taqdim etilib, qaysi til qanday holatlarda ustunlik qilishi haqida xulosa chiqariladi. Natijalar esa ilmiy, muhandislik va texnologik sohalarda izlanish olib boruvchi mutaxassislar uchun amaliy qiymatga ega bo‘lishi mumkin[1-10].

Adabiyotlar tahlili

Matritsa tushunchasi dastlab 19-asrda riyozatchilar tomonidan chiziqli tenglamalar sistemasini umumiy ko‘rinishda ifodalash va yechish uchun kiritilgan. C. F. Gauss tomonidan taklif

etilgan **Gauss eliminatsiyasi** usuli matritsali tenglamalarni yechishning eng qadimgi va asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Keyinchalik bu metodlar asosida **determinant, invers matritsa, eigen qiymatlar va vektorlar** kabi tushunchalar rivojlanib bordi va bugungi kunda algebraik, geometrik va statistik modellashtirishda keng qo‘llanmoqda[6].

Matritsalar ustida bajariladigan asosiy amallar — **qo‘shish, ko‘paytirish, determinantini hisoblash va teskari matritsani topish** — nafaqat chiziqli algebra, balki fizika, iqtisodiyot, informatika, kompyuter grafikasi, mashinali o‘rganish va sun’iy intellekt kabi sohalarda ham asosiy hisoblanadi.

Determinant yordamida matritsaning **invertirlanadiganligi** aniqlanadi, bu esa ko‘p hollarda chiziqli tenglamalarni yechish jarayonida asosiy shart bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, **LU bo‘lish, QR dekompozitsiya,** va **eigen qiymatlar** hisoblash algoritmlari ko‘plab ilmiy modellashtirishlarda asosiy vositalar sifatida namoyon bo‘ladi [2].

Bugungi kunda matritsalar ustida hisoblashni soddalashtirish va avtomatlashtirish uchun ko‘plab dasturlash tillari va ularning kutubxonalari mavjud. Ulardan eng samaralilari — **Python, C++ va Java** tillaridir.

Python tili o‘zining yuqori darajadagi sintaksisi va matematik kutubxonalar boyligi bilan ajralib turadi. **NumPy** (Numerical Python) moduli orqali matritsa yaratish, elementlar bilan ishlash, ko‘paytirish, determinant va invers topish kabi barcha asosiy operatsiyalar tez va samarali bajariladi. Bundan tashqari, **SciPy, SymPy, Pandas** kabi kutubxonalar orqali statistik tahlillar va matematik modellashtirish yanada qulaylashtiriladi[5].

C++ tili matritsalar ustida ishlashda yuqori samaradorlik va nazoratni ta’minlaydi. Ayniqsa, **Eigen, Armadillo, Blaze** kabi kutubxonalar yordamida katta o‘lchamli matritsalarni samarali hisoblash imkoniyati mavjud. C++ ning kompilyatsiyalanuvchi tili ekanligi sababli matritsa ustida ishlov berish tezligi boshqa tillarga nisbatan yuqori bo‘ladi. Ammo sintaktik murakkablik va kutubxonalarni konfiguratsiya qilish ehtiyoji uni boshlovchilar uchun biroz murakkablashtiradi[3].

Java tili, ayniqsa, korporativ tizimlar, web-servislar va kross-platform modellar uchun keng qo‘llaniladi. Matritsa bilan ishlashda **Apache Commons Math, Jama** (Java Matrix Library) va **EJML** (Efficient Java Matrix Library) kabi kutubxonalar asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi Ushbu kutubxonalar yordamida matritsa hosil qilish, chiziqli tenglamalar sistemasini yechish, determinant va eigen qiymatlarni hisoblash mumkin[6].

O‘zbekistonda va xorijda olib borilgan bir qancha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dasturlash vositalari yordamida matematik masalalarni yechish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, C++ va Java tillarida matritsalar bilan ishlash

jarayonida **obyektga yo‘naltirilgan yondashuv**lar asosida strukturaviy modellar yaratilib, yirik loyihalarda modullilik ta’minlanmoqda[9].

Python tili asosida olib borilgan tadqiqotlar esa ko‘proq **eksperimental hisoblash**lar va **vizualizatsiya** imkoniyatlariga asoslangan. Masalan, mashinali o‘rganishda matritsa ko‘paytmasi va teskari matritsa hisoblash asosida gradientlar va og‘irliklar aniqlanadi [10].

Yuqorida ko‘rib chiqilgan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, matritsa amallari zamonaviy dasturlash tillarida nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham keng o‘rganilgan. Biroq, tillar o‘rtasida samaradorlik, kod soddaligi, kutubxonalar boyligi va tezlik bo‘yicha farqlar mavjud. Mazkur maqolada aynan shunday masalalarning amaliy tajribalari va natijalari keltiriladi.

Materiallar va metodlar

Ushbu tadqiqotda matritsalar bilan bog‘liq to‘rtta asosiy matematik masala tanlab olindi:

1. **Matritsalarni qo‘shish**
2. **Matritsalarni ko‘paytirish**
3. **Determinantni hisoblash**
4. **Teskari (invers) matritsani topish**

Tadqiqot doirasida ushbu masalalar Python, C++ va Java dasturlash tillarida ishlab chiqilgan algoritmlar asosida amaliy tarzda yechildi. Tanlov asosida ushbu tillar quyidagi sabablarga ko‘ra tanlandi:

- **Python** – yuqori darajadagi sintaksis, kuchli kutubxonalar (NumPy)
- **C++** – samarali va tezkor hisoblash, kuchli resurs boshqaruvi
- **Java** – obyektga yo‘naltirilgan yondashuv va keng platformalarda ishlash imkoniyati

Raqamli transformatsiya jarayonida kiberxavfsizlik risklari, texnologik risklar, raqamli bo'linish, huquqiy va me'yoriy risklar hamda raqobat risklari kabi qator muammolarni hal qilish zarur. Kelajakda bank sohasidagi raqamli transformatsiya jarayonlari yanada jadallashib, quyidagi yo'nalishlarda rivojlanishi kutilmoqda: Bank va fintech kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlik yanada kuchayadi, bu esa bank xizmatlari ekotizimini kengaytiradi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining bank sohasidagi roli yanada ortadi, bu esa bank operatsiyalarining samaradorligini va aniqligini oshiradi. Markaziy banklar

raqamli valyutalari (CBDC) joriy etilishi bank tizimini tubdan o'zgartirishi mumkin. Open Banking konsepsiyasi keng tarqaladi, bu esa bank ma'lumotlarining ochiqligini va bank xizmatlari ekotizimining kengayishini ta'minlaydi. Kiberxavfsizlik masalalari bank tizimida yanada muhim ahamiyat kasb etadi, bu esa banklarning kiberxavfsizlik tizimlarini takomillashtirishni talab qiladi. O'zbekiston bank tizimidagi raqamli transformatsiya jarayonlarini yanada jadallashtirilishi uchun quyidagi choralar taklif etiladi: Bank xodimlari va aholining raqamli savodxonligini oshirish bo'yicha kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish, ayniqsa qishloq joylarda internet sifati va qamrovini oshirish. Raqamli bank xizmatlari sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, xususan masofaviy identifikatsiya, elektron imzo va ma'lumotlarni himoya qilish masalalarida. Kiberxavfsizlik tizimlarini takomillashtirish va bank xodimlari hamda mijozlar o'rtasida kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish. Bank va fintech kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish, bu esa innovatsion moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni yaratishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Johnson, M. (2023). Digital Transformation in Banking: A Comprehensive Review. Journal of Banking & Finance, 45(3), 213-228.*
2. *Smith, A. & Brown, B. (2022). The Impact of Digital Technologies on Customer Experience in Banking. International Journal of Bank Marketing, 36(2), 112-127.*
3. *Wilson, D. (2021). COVID-19 and Accelerated Digital Transformation in Banking. Journal of Financial Services Research, 59(1), 78-93.*
4. *Герасименко, Н.А. (2020). Цифровая трансформация банковской деятельности. Финансы и кредит, 26(5), 1114-1128.*
5. *Koh, L. & Fong, S. (2022). Artificial Intelligence Applications in Banking: Current Trends and Future Perspectives. Journal of Financial Technology, 14(2), 145-160.*
6. *Каримов, А.Б. (2021). Рақамли трансформация жараёнлари ва уларнинг Ўзбекистон банк тизимига таъсири. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 3(5), 45-57.*
7. *Chen, Y. & Wang, X. (2021). Blockchain Technology in Banking: Opportunities and Challenges. Journal of Financial Innovation, 7(3), 182-197.*
8. *Peterson, J. (2023). Cybersecurity Challenges in Digital Banking. Journal of Financial Crime, 30(1), 67-82.*
9. *Ahmadov, S. (2022). Open Banking and Its Potential for Uzbekistan's Financial System. Central Asian Journal of Banking and Finance, 4(2), 34-49.*
10. *Голубев, С.С. (2023). Цифровые валюты центральных банков: влияние на банковскую систему. Деньги и кредит, 82(2), 93-108.*

НУТҚ СИГНАЛЛАРИДАН ШОВҚИНЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА ФИЛЬТРЛАР ЖУФТЛИГИНИ ҚЎЛЛАШ ЁНДАШУВИ

Ниёзматова Н.А.[1], Жалелов Қ.М.[2], Абдуллаева Б.М.[3]
[1]"Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти" Миллий тадқиқот университети қошидаги Фундаментал ва амалий тадқиқотлар институти
[2]"Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти" Миллий тадқиқот университети
[3]Наманган давлат университети

Аннотация. *Мазкур тадқиқот иши нутқ сигналларидаги шовқинларни пасайтириш масаласига бағишланган бўлиб, унда шовқинли нутқ сигналини бўлакларга ажратиш ҳамда уларга шовқин пасайтириш филтрлар жуфтликларини қўллаш ғояси келтирилган. Бунда филтрланган бўлакларни бирлаштириш орқали кирувчи шовқинли нутқ сигналига нисбатан юқори сифатли нутқ сигналини олиш мақсад қилинган бўлиб, ишда филтрлар адабиётлар таҳлили асосида танланган ва улар ёрдамида шакллантирилган жуфтликлар нутқ сигналини барча бўлаклари учун қўлланилган. Тадқиқотда шовқинни турли даражаларида синовлар ўтказилган ҳамда филтрлар жуфтликлари орасидан оптималини аниқлашда PESQ (Perceptual Evaluation of Speech Quality) кўрсаткичидан фойдаланилган.*

Калит сўзлар: *нутқ сигнали, шовқин даражаси, PESQ, фильтрлар жуфтликлари, паст частотали фильтр, Калман фильтри.*

Abstract. *This research work is devoted to the issue of reducing noise in speech signals, in which the idea of dividing a noisy speech signal into segments and applying pairs of noise reduction filters to them is presented. In this case, the goal is to obtain a high-quality speech signal compared to the incoming noisy speech signal by combining the filtered segments. In the work, the filters were selected based on a literature analysis and the pairs formed with their help were applied to all segments of the speech signal. In the study, tests were conducted at different levels of noise and the PESQ (Perceptual Evaluation of Speech Quality) indicator was used to determine the optimal one among the filter pairs.*

Keywords: *speech signal, noise level, PESQ, filter pairs, low-pass filter, Kalman filter.*

Аннотация. *Данная исследовательская работа посвящена вопросу шумоподавления речевых сигналов, в которой представлена идея разделения зашумленного речевого сигнала на сегменты и применения к ним пар фильтров шумоподавления. Целью является получение высококачественного речевого сигнала по сравнению с входящим зашумленным речевым сигналом путем объединения отфильтрованных сегментов. В работе фильтры были выбраны на основе анализа литературы, а сформированные с их помощью пары были применены ко всем сегментам речевого сигнала. В ходе исследования тестировались различные уровни шума и использовался показатель PESQ (перцептивная оценка качества речи) для определения оптимальной пары фильтров.*

Ключевые слова: *речевой сигнал, уровень шума, PESQ, пары фильтров, фильтр нижних частот, фильтр Калмана.*

Ҳозирги кунда замонавий технологиялар ривожланиши билан видеоконференциялар орқали турли тадбирлар ва учрашувларни ўтказиш тобора кенг тарқалмоқда [1,2]. Бироқ, видеоконференцияларда нутқ сигналини сифати билан боғлиқ муаммолар тез-тез юзага келади. Нутқ сигнали инсонлар ўртасида ахборот алмашишни асосий воситаси ҳисобланади [3]. Инсон нутқига хос бўлмаган барча товушлар шовқин сифатида таснифланиши мумкин. Ижро сифати ҳар қандай тингловчи учун муҳим бўлиб, ундаги шовқинлар, масалан, тақиллатиш, хириллаш ёки ғўнғиллаш каби аудио маълумотни қабул қилишга халақит беради. Юқори даражадаги шовқин ва бузилишлар нафақат сигнал сифатини, балки нутқни тушунарлилигини ҳам пасайтиради [4,5]. Шунинг учун, нутқ сигналларидаги шовқинларни пасайтириш бугунги куннинг долзарб масалаларидан биридир. Мазкур ишда шовқинли нутқ сигнали сифатини ошириш учун янги ёндашув таклиф этилган бўлиб, у шовқинни турли даражаларида синовлардан ўтказилган. Бунда сигнални маълум узунликдаги бўлакларга ажратиш орқали шовқин пасайтириш кўзда тутилган. Тадқиқотда бўлак узунлиги 32 мс деб қабул қилинган, чунки бу инсон нутқи хусусиятларига мос келади, яъни фонемалар давомийлиги одатда 30-40 мс атрофида бўлади. Бундан ташқари, нутқни таниб олиш бўйича кўплаб адабиётларда фрейм узунлиги 32 мс сифатида асосий мезон қилиб олинган.

Таклиф этилган ёндашувни асосий босқичлари қуйидагилардан иборат:

– нутқ сигналини бўлакларга ажратиш;
– шовқин пасайтиришга мўлжалланган филтрлар жуфтликларини қўллаш;
– филтрланган бўлакларни бирлаштириш;
– чиқишдаги нутқ сигнали сифатини баҳолаш;
– фильтрларни оптимал жуфтлигини аниқлаш.

Бу ёндашув бутун нутқ сигнали учун ягона филтрни қўллаш каби анъанавий ёндашувдан фарқ қилади, чунки у ҳар бир вақт ойнасида нутқ ва шовқин хусусиятларига локал даражада мослашиш имконини беради. Мазкур ишда таклиф этилган ёндашув самарадорлигини аниқлаш учун LibriSpeech маълумотлар базасини тоза нутқ сигналлари намуналаридан фойдаланилган. Ушбу нутқ сигналлари 16-бит чуқурлик, 16 кГц намуна олиш тезлиги ҳамда ўртача 4-6 секунд давомийликка эга wav форматидаги аудиофайллар бўлиб, ишда шовқинли нутқлар билан тадқиқотларни олиб бориш учун уларга 1%, 5%, 10%, 15% ва 20% даражадаги шовқинлар қўшилган. Шовқин 20% дан юқори бўлганда нутқни таниб олиш мураккаблашганлиги сабабли,

фақат 20% гача бўлган шовқинлар билан тадқиқотлар олиб борилган. Адабиёт таҳлили асосида f_1-паст частотали, f_2-полосали, f_3-Калман, f_4-Баттерворт ва f_5-Эллиптик филтрлар танланган ва улар орқлаи турли жуфтликлар тузилган. Бу жуфтликлар нутқ сигналларини бўлакларга ажратилган ва ажратилмаган ҳолатларида қўлланилган. Фильтрланган сигналлар сифати PESQ (Perceptual Evaluation of Speech Quality) кўрсаткичи орқали баҳоланган. Олинган натижалар қуйидаги жадвалда келтирилган.

1-жадвал

Шовқинни турли даражалари учун фильтрлар жуфтликларини ўртача PESQ қийматлари

Фильтрлар жуфтлиги	**PESQни ўртача қийматлари**									
	1% PESQ=1.11		**5%** PESQ=1.08		**10%** PESQ=1.03		**15%** PESQ=1.01		**20 %** PESQ=1.002	
	*	**	*	**	*	**	*	**	*	**
(f_1, f_1)	1,722	1,230	1,136	1,179	1,076	1,138	1,064	1,113	1,059	1,097
(f_1, f_2)	1,744	1,502	1,179	1,308	1,103	1,245	1,083	1,213	1,075	1,191
…	…	…	…	…	…	…	…	…	…	…
(f_5, f_4)	1,692	1,255	1,428	1,203	1,284	1,161	1,212	1,137	1,169	1,118
(f_5, f_5)	1,670	1,317	1,420	1,247	1,294	1,197	1,232	1,170	1,191	1,151
max(fi, fj)	**2,051**	**1,689**	**1,538**	**1,308**	**1,380**	**1,249**	**1,316**	**1,225**	**1,274**	**1,206**

*-нутқ сигналларини бўлакларга ажратган ҳолатдаги натижалар

**- нутқ сигналлари бўлакларга ажратилмаган ҳолатдаги натижалар

Тадқиқот натижасида қуйидаги хулосалар шаклланди:

– шовқин пасайтириш филтрларини кетма-кет қўллаш якка ҳолда қўллашга нисбатан самаралидир;

– 1% шовқин даражасида Калман филтрини кетма-кет қўллаш қўллаш оптимал эканлиги аниқланди;

– 5% шовқин даражасида эса паст частотали-полосали ва полосали-Баттерворт жуфтликлари самаралидир;

– 10-20% оралиғидаги шовқин даражаларида эллиптик ва полосали филтрлар жуфтлиги оптимал эканлиги аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. *Рудых Л. Г. Дистанционное обучение в вузе: проблемы и перспективы // Молодеж. вестн. ИрГТУ. 2020. Т. 10. № 2. С. 158–162.*
2. *Демина Н. В., Сабанова Л. В., Сабанова В. А. Видеоконференции и дистанционное обучение как основные виды телемедицинских услуг // Науч.-метод. электрон. журн. «Концепт». 2019. № V2. С. 28–33.*
3. *Mamatov, N., Niyozmatova, N., & Samijonov, A. (2021). Software for preprocessing voice signals. International Journal of Applied Science and Engineering, 18(1), 1-8.*
4. *Бысько М. В. Шумология // Медиамузыка. 2014. № 3. С. 6.*
5. *Топников А. И. Оценка разборчивости и обработка речевых сигналов в задаче шумоподавления: автореф. дис. … канд. техн. наук. Владимир, 2012. 16 с.*
6. *Niyozmatova, N. N., Jalelov, N. K., Samijonov, N. B., & Madrahimova, N. M. (2024). Eliminating noise from a speech signal based on a pair of filters. International Journal of Science and Research Archive, 13(2), 401–410. https://doi.org/10.30574/ijsra.2024.13.2.2058*
7. *Narzillo, M., Parakhat, N., Nilufar, N., & Abdurashid, S. (2019). Karakalpak speech recognition with CMU sphinx. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering, 8(10), 2446-2448.*

TIBBIY TASVIRLAR BAZALARI TAHLILI

Mamatov N.S., Jo‘rayev I.A, Jalelova M.M.., Usarov J.A.
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, O‘zbekiston

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tibbiy tasvirlar bazalarini xususiyatlari, tarkibi va ularni sun’iy intellekt algoritmlarini ishlab chiqishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tibbiy tasvirlarni qayta ishlash sohasidagi NIH ChestX-ray14, LUNA16, BraTS, DRIVE, BUSI kabi keng tarqalgan ma’lumotlar bazalarini taqqosiy tahlili keltirilgan. Tadqiqotlar natijasida ushbu bazalarni tanib olish algoritmlarini ishlab chiqish, kasalliklarni erta aniqlash jarayonlaridagi ahamiyati keltirilgan.*
Kalit so’zlar: *tibbiy tasvir, sun’iy intellekt, qayta ishlash, tashxislash jarayoni, segmentatsiya, obyekt.*

Abstract. *This article analyzes the characteristics, composition and importance of medical image databases in the development of artificial intelligence algorithms. A comparative analysis of such widely used databases in the field of medical image processing as NIH ChestX-ray14, LUNA16, BraTS, DRIVE, BUSI is presented. As a result of the research, the importance of these databases in the development of recognition algorithms and early detection of diseases is presented.*
Keywords: *medical image, artificial intelligence, processing, diagnostic process, segmentation, object.*

Аннотация. *В статье анализируются характеристики, состав и значение баз данных медицинских изображений в разработке алгоритмов искусственного интеллекта. Представлен сравнительный анализ популярных баз данных в области обработки медицинских изображений, таких как NIH ChestX-ray14, LUNA16, BraTS, DRIVE и BUSI. Результаты исследования подчеркивают важность разработки алгоритмов распознавания этих баз данных и раннего выявления заболеваний.*
Ключевые слова: *медицинское изображение, искусственный интеллект, обработка, диагностический процесс, сегментация, объект.*

Tibbiyotda tasvirga asoslangan tashxislash usullari klinik amaliyotni asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. So'nggi o'n yillikda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal rivojlanishi tibbiy tasvirlarni avtomatik qayta ishlash va tashxislash qarorlarni qabul qilishda sezilarli yutuqlarga olib keldi [1, 2]. Bu yutuqlar asosida tibbiy tasvirlar bazalarini yaratilishi va ulardan foydalanish yotadi.

Tibbiy tasvirlar bazalari — bu tashxis qo'yish, davolash jarayonlarini monitoring qilish va kasalliklarni erta aniqlash uchun zarur bo'lgan muhim ma'lumotlar manbaidir [3]. Bunday bazalar klinik ma'lumotlar bilan boyitilgan tasvirlarni o'z ichiga olib, SI algoritmlari uchun o'quv va sinov vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular orqali ishlab chiqilgan modellar esa tibbiy xodimlar uchun qaror qabul qilishda qo'shimcha vosita bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot ishini maqsadi tibbiy tasvirlar bazalarini tasnifi, ularning xususiyatlari,

o'lchamlari, tarkibi va qo'llanish doirasini tahlil qilish hamda ularni ilmiy-tadqiqot ishlaridagi ahamiyatini ko'rsatishdan iborat.

Tibbiy tasvirlar bazalari quyidagi muhim xususiyatlarga ko'ra farqlanadi:

Tasvirga olish usuli: Rentgen, kompyuter tomografiya, magnit-rezonans tomografiya, ultratovush tekshiruvi, pozitron-emission tomografiya va boshqalar.

Tasvirlanayotgan anatomik soha: bosh miya, ko'krak qafasi, o'pka, yurak, qorin bo'shlig'i, chanoq a'zolari, suyak-mushak tizimi.

Tasvirlar soni: Kichik (10-100), o'rta (100-1000), katta (1000-10000), ultra-katta (>10000).

Maqsadi: Tasniflash (kasallik mavjud yoki yo'q), lokallashtirish (kasallik joylashuvi), segmentatsiyalash (kasallik chegaralari).

Klinik ma'lumotlar mavjudligi: Bemor yoshi, jinsi, laboratoriya ko'rsatkichlari va boshqalar.

Bugungi kunda tibbiy tasvirlar bazalarini ko'pchiligi ochiq foydalanish uchun mavjud bo'lib, tadqiqotchilar uchun qimmatli resurs hisoblanadi [4]. Bu o'z navbatida,sun'iy intellekt sohasidagi tadqiqotlar samaradorligini oshirishga imkon beradi. Quyida keng qo'llaniladigan bir nechta mashhur bazalar tahlili keltirilgan.

NIH ChestX-ray14. Bu baza AQSH Milliy sog'liqni saqlash instituti (NIH) tomonidan 2017-yilda e'lon qilingan bo'lib, 30,000 dan ortiq bemorlardan olingan 112,120 ta ko'krak qafasi rentgen tasvirlarini o'z ichiga oladi [5]. Ushbu baza 14 xil patologiyani (atelektaz, kardiomegaliya, effuziya, infiltratsiya, massa, nodula, pnevmoniya, pnevmotoraks, konsolidatsiya, o'pka shishi, o'pka fibrozisi, plevraning qalinlashuvi, grija va koronal arteriya kasalligi) qamrab oladi.

Bazaning asosiy xususiyatlari:

- Tasvirlar o'lchami: 1024x1024 piksel
- Kesimlar soni: 112,120 ta
- Bemorlar soni: >30,000
- Etiketalash: Har bir tasvir uchun kasalliklar ro'yxati (NLP orqali radiologik hisobotlardan chiqarilgan)
- DICOM format

NIH ChestX-ray14 bazasi o'pka kasalliklarini avtomatik aniqlash, klassifikatsiya qilish va ko'krak qafasi rentgen tasvirlarini segmentatsiyalash algoritmlarini ishlab chiqish uchun muhim vosita hisoblanadi. Algoritm samaradorligi ROC (Receiver Operating Characteristic) va AUC (Area Under the Curve) ko'rsatkichlari orqali baholanadi.

LUNA16 (LUng Nodule Analysis 2016). Bu baza LIDC-IDRI (Lung Image Database Consortium - Image Database Resource Initiative) ma'lumotlaridan olingan bo'lib, o'pka nodullarini kompyuter tomografiya tasvirlarida aniqlash uchun mo'ljallangan [6]. Baza 888 ta KT tekshiruvlarini o'z ichiga oladi.

Bazaning asosiy xususiyatlari:

- Kesimlar soni: 888 ta
- Etiketalash: Har bir nodul uchun mutaxassislar tomonidan belgilangan koordinatalar va diametr
- O'lchami: >100 GB

LUNA16 bazasining asosiy ahamiyati - o'pka nodullarini avtomatik deteksiya qilish algoritmlarini sinash va taqqoslash uchun standartlashtirilgan platforma yaratishda. Bu baza yordamida o'pka saratonini erta aniqlash imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi.

BraTS (Brain Tumor Segmentation). 2012-yildan beri muntazam yangilanib kelayotgan, bosh miya o'simtalari (asosan gliomalar) MRT tasvirlarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar to'plami hisoblanadi [7]. Baza multimodal bo'lib, har bir holat uchun T1, T1-kontrastli, T2 va FLAIR tasvirlarini o'z ichiga oladi.

Bazaning asosiy xususiyatlari:

- Kesimlar soni: 369 ta (2020-yil uchun)
- Etiketalash: Mutaxassislar tomonidan segmentatsiyalangan o'simta sohalari (nekroz, aktiv tumor, peritumorali shish)
- O'lchami: >80 GB

BraTS bazasi bosh miya o'simtalarini avtomatik segmentatsiyalash algoritmlari uchun "oltin standart" hisoblanadi va har yili o'tkaziladigan xalqaro musobaqalar orqali yangi metodlarni baholash imkonini beradi.

DRIVE (Digital Retinal Images for Vessel Extraction). Bu baza Niderlandiyada diabetik retinopatiyani skrining qilish dasturi doirasida to'plangan ko'z tubi tasvirlaridan iborat [8]. Baza 40 ta tasvirni o'z ichiga oladi, ularning 7 tasi patologik o'zgarishlarni ko'rsatadi.

Bazaning asosiy xususiyatlari:

- Tasvirlar soni: 40 ta (o'quv to'plami: 20, sinov to'plami: 20)
- Etiketalash: Qo'lda belgilangan qon tomirlari maskasi
- Tasvirlar o'lchami: 565x584 piksel

DRIVE bazasi oftalmologik tasvirlarni qayta ishlash, xususan, ko'z tubi tasvirlarida qon tomirlarini segmentatsiyalash algoritmlarini ishlab chiqish va sinash uchun keng qo'llaniladi.

BUSI (Breast Ultrasound Images). BUSI bazasi ko'krak bezi ultratovush tasvirlaridan iborat bo'lib, ko'krak bezi o'simtalarini aniqlash va klassifikatsiya qilish uchun mo'ljallangan [9]. Baza 780 ta tasvirni o'z ichiga oladi.

Bazaning asosiy xususiyatlari:

- Tasvirlar soni: 780 ta (xavfsiz: 437, xavfli: 210, normal: 133)
- Etiketalash: Radiolog tomonidan belgilangan o'simta chegaralari
- Tasvirlar o'lchami: Turli o'lchamlar

Quyidagi jadvalda t**ibbiy tasvirlar bazalarini qiyosiy tahlili keltirilgan.**

1-jadval

Tibbiy tasvirlar bazalarini qiyosiy tahlili

Baza nomi	Tasvirga olish uskunasi	Tasvirlar soni	Tasvir obyekti	Etiketlar turi
ChestX-ray14	Rentgen	112,120	Ko‘krak qafasi	14 kasallik turi
LUNA16	KT	888	O‘pka nodullari	Nodul joyi va o‘lchami
BraTS	MRT	369	Bosh miya o‘simtasi	Segmentatsiya, o‘simta turlari
DRIVE	Fundus kamera	40	Ko‘z retinasi	Qon tomirlari belgilari
BUSI	Ultrasonografiya	780	Ko‘krak bezi	O‘simta turi va maskasi

Bazalarni tanlashda ulardagi tasvirlar sifati, obyektlar soni, kasalliklarni xilma-xilligi va tadqiqot maqsadiga mosligi muhim omillar hisoblanadi. Masalan, o‘pka kasalliklarini o‘rganish uchun LUNA16, miya o‘simtalarini tahlil qilish uchun esa BraTS bazasi eng maqbul tanlov bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. *Wang X., Peng Y., Lu L., Lu Z., Bagheri M., Summers R.M. ChestX-ray8: Hospital-scale Chest X-ray Database and Benchmarks on Weakly-Supervised Classification and Localization of Common Thorax Diseases // Proceedings of the IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR). – 2017. – P. 3462–3471.*
2. *Setio A.A.A., Traverso A., de Bel T., et al. Validation, comparison, and combination of algorithms for automatic detection of pulmonary nodules in computed tomography images: The LUNA16 challenge // Medical Image Analysis. – 2017. – Vol. 42. – P. 1–13.*
3. *Menze B.H., Jakab A., Bauer S., et al. The Multimodal Brain Tumor Image Segmentation Benchmark (BRATS) // IEEE Transactions on Medical Imaging. – 2015. – Vol. 34, No. 10. – P. 1993–2024.*
4. *Staal J., Abramoff M.D., Niemeijer M., Viergever M.A., van Ginneken B. Ridge-based vessel segmentation in color images of the retina // IEEE Transactions on Medical Imaging. – 2004. – Vol. 23, No. 4. – P. 501–509.*
5. *Al-Dhabyani W., Gomaa M., Khaled H., Fahmy A. Dataset of breast ultrasound images // Data in Brief. – 2020. – Vol. 28. – 104863. DOI: https://doi.org/10.1016/j.dib.2019.104863.*
6. *Litjens G., Kooi T., Bejnordi B.E., et al. A survey on deep learning in medical image analysis // Medical Image Analysis. – 2017. – Vol. 42. – P. 60–88.*

TIBBIY TASVIRLARNI TAHLIL QILISH USUL VA ALGORITMLARI

Mamatov N.S., Jo‘rayev I.A, Jalelova M.M., Jumayev B.J.
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”Milliy tadqiqot universiteti

Annotatsiya. *Mazkur ishda buyrak kasalliklarini erta aniqlashda tibbiy tasvirlarni tahlil qilishni zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan bo’lib, unda KT, MRT va ultratovush tasvirlari asosida buyrakdagi o‘simta, tosh va boshqa patologik holatlarni aniqlashda segmentatsiya va tasniflash algoritmlarini o‘rni tadqiq etilgan. Ayniqsa, CNN va U-Net kabi chuqur o‘qitish modellarini yuqori aniqlikka ega ekanligi ta’kidlangan. Tadqiqot so‘ngida algoritmlarni qiyosiy tahlili keltirilgan.*
Kalit so’zlar: *Segmentatsiya algoritmlari, tasniflash, chuqur o‘qitish, convolutional Neural Networks (CNN), U-Net, thresholding, Watershed algoritmi.*

Abstract. *This work analyzes modern approaches to medical image analysis for early detection of kidney diseases, and studies the role of segmentation and classification algorithms in detecting kidney tumors, stones, and other pathological conditions based on CT, MRI, and ultrasound images. In particular, it is emphasized that deep learning models such as CNN and U-Net have high accuracy. At the end of the study, a comparative analysis of the algorithms is presented.*
Keywords: *Segmentation algorithms, classification, deep learning, convolutional Neural Networks (CNN), U-Net, thresholding, Watershed algorithm.*

Аннотация. *В данной работе анализируются современные подходы к анализу медицинских изображений для раннего выявления заболеваний почек, а также изучается роль алгоритмов сегментации и классификации в выявлении опухолей почек, камней и других патологических состояний на основе изображений КТ, МРТ и УЗИ. В частности, модели глубокого обучения, такие как CNN и U-Net, известны своей высокой точностью. Исследование завершается сравнительным анализом алгоритмов.*
Ключевые слова: *Алгоритмы сегментации, классификация, глубокое обучение, сверточные нейронные сети (CNN), U-Net, пороговое значение, алгоритм Watershed.*

So‘nggi yillarda tibbiy tasvirlarni tahlil qilish sohasida erishilgan yutuqlar nafaqat tibbiyotni barcha bo‘limlariga, balki texnologiyalarning boshqa tarmoqlari, jumladan, neft va gaz sohalariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, bu yondashuvlarni buyrak kasalliklarini erta aniqlash, tashxislash va davolash jarayonlarida qo‘llanilishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buyrak toshlari, o‘simtalar, infeksiyalar yoki buyrak yetishmovchiligi kabi holatlarni aniqlashda zamonaviy tasvirlash texnologiyalariga asoslangan tahlil usullari tashxislash aniqligi va davolash jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Tibbiy tasvirlashda keng qo‘llanilayotgan texnologiyalar, jumladan, kompyuter tomografiyasi (KT), magnit rezonansli tomografiya (MRT) va ultratovush (US) tasvirlaridir. Mazkur texnologiyalar yordamida buyrakdagi to‘qimalar va ularni morfologik holati vizual tarzda

ko‘rsatiladi. Shuningdek, ushbu tasvirlarni tahlil qilishda segmentatsiya va tasniflash algoritmlarini o‘rni beqiyosdir. Tasvirlarni segmentatsiyalash orqali buyrak to‘qimalari chegaralari, o‘simtalar yoki boshqa kasallik hududlari aniq ajratiladi, tasniflash esa ularni turkumlash va aniqlik bilan baholash imkonini beradi. Xususan, sun'iy intellekt va chuqur o‘qitish texnologiyalari bu sohada tibbiy tasvirlarni yanada samarali tahlil qilishga yordam beradi. Convolutional Neural Networks (CNN) kabi chuqur o‘qitish algoritmlari buyrak tasvirlari segmentatsiyasini va tasniflashini ancha takomillashtirgan. Buyrakdagi o‘simta, tosh yoki boshqa patologik holatlarni aniqlashda bu algoritmlar yuqori aniqlik va samaradorlikni ta'minlaydi. Mazkur ishda buyrak kasalliklarini aniqlashda tibbiy tasvirlarni tahlil qilishni zamonaviy usul va algoritmlari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bunda asosan quyidagi mavzular yoritgan:

- Segmentatsiya va tasniflash algoritmlari [7]: Buyrak kasalliklarini tasvirlashda qanday algoritmlar foydalanilgan va ular qanday samaradorlikni ta'minlaydi.
- Chuqur o‘qitish usullari [2]: CNN, U-Net va boshqa arxitekturalar buyrak tasvirlarini tahlil qilishda qanday qo‘llaniladi.
- Buyrak o‘simtalarini aniqlash [5]: Buyrakdagi o‘simtalar, toshlar yoki boshqa holatlarni aniqlashda tasvirlarni segmentatsiyalash va tasniflash texnologiyalarini roli.
- Amaliy tajribalar [7]: Buyrak tasvirlari bo‘yicha o‘tkazilgan amaliy tadqiqotlar va ularni samaradorligi.

Buyrak kasalliklarini erta bosqichda aniqlash va davolashda tibbiy tasvirlarni segmentatsiyalash va tasniflash algoritmlarini har tomonlama tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Quyidagi jadvalda aynan ushbu qiyosiy tahlil keltirilgan.

1-jadval

Tibbiy tasvirlarni segmentatsiyalash va tasniflash algoritmlari qiyosiy tahlili

Turi	Algoritm	Tavsif	Yutuqlari	Kamchiliklari
Segmentatsiya	Thresholding [1]	Tasvirdagi piksellarni oki intensivlik darajasiga asoslanib ajratadi.	Sodda va tez.	Noaniq chegaralar ın samarali emas.
	Watershed [5]	Tasvirni suv havzalariga o‘lishga asoslanadi.	Aniq entatsiya, yaxshi natijalar.	Shovqinga sezgir o‘lishi mumkin.
Tasniflash	Random Forest (RF)	Qaror daraxtlari nbinatsiyasini ishlatib, tasvirni tasniflash.	Yuqori ıaradorlik, ko‘p ısusiyatlarga angan tasniflash.	Modelni o‘qitish va allashtirish jarayoni qtni talab qiladi.
	Support Vector chines (SVM)	Tasvirdagi ob'ektlarni ki ko‘p sinflarga ajratadi.	Katta tasvirlar hun samarali.	Murakkab va katta dordagi tasvirlar vaqtni talab qiladi.

	Convolutional ıral Networks (CNN) [6]	Tasvirdagi obyektlarni lamlar orqali o‘rganib flashni amalga oshiradi.	Yuqori aniqlik, ‘p miqdordagi rlarni avtomatik qilish imkoniyati.	Katta ma'lumotlar surslar talab qiladi.

Quyidagi jadvalda esa chuqur o‘qitish usullarini yutuq va kamchilik tomonlari taqdim etilgan:

2-jadval

Chuqur o‘qitish usullarining tavsifi, yutuq hamda kamchilik jihatlari

Usul	Tavsif	Yutuqlari	Kamchiliklari
Convolutional Neural Networks [6] (CNN)	Tasvirdagi belgilarni ajratib olish uchun bir nechta qatlamlarni qo‘llaydi.	Yuqori aniqlik, tasvirlarni avtomatik ravishda o‘rganish imkoniyati.	Katta ma'lumotlar va resurslar talab qiladi, uzoq vaqtni talab qilishi mumkin.
U-Net [6]	Tasvir segmentatsiyasi uchun maxsus yaratilgan arxitektura, asosan tibbiy tasvirlarni segmentatsiyalashda qo‘llaniladi.	Noaniq chegaralar uchun yuqori samaradorlik, chuqur o‘qitish orqali yuqori aniqlik.	Katta va yaxshi etiketlangan ma'lumotlar talab qiladi.
Generative Adversarial Networks [4] (GANs)	Dastlabki tasvirni yaratish va tasniflash uchun ikkita tarmoqdan foydalanadi.	Yangi, o‘xshash tasvirlarni yaratishda samarali, tasvir sifatini oshiradi.	O‘qitish va moslashtirish murakkab

Buyrak tasvirlarini segmentat-siya qilishda **Thresholding, Region Growing, Watershed,** va **U-Net** kabi algoritmlar samarali qo‘llaniladi. **U-Net** arxitekturasi yordamida buyrakdagi shish yoki o‘zgarishlar aniq segmen-tatsiya qilinadi.

Tasniflash jarayonida esa **SVM**, **RF** va **CNN** kabi usullar keng qo‘llaniladi. Masalan, buyrakdagi kasalliklarni aniqlashda, **CNN** yordamida tasvirlarni avtomatik tasniflash amalga oshiriladi. Buyrak tasvirlarini tahlil qilishda **CNN, U-Net,** va **GANs** kabi chuqur o‘qitish usullari eng yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. **CNN** va **U-Net** arxitekturalari buyrakda mavjud bo‘lgan patologiyalarni aniqlashda qo‘llanilib, yuqori darajadagi aniqlik va noaniqlik chegaralarini aniqlash imkonini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, buyrak tasvirlarini tahlil qilishda **segmentatsiya** va **tasniflash** algoritmlari, ayniqsa **chuqur o‘qitish** usullari yordamida yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Bunday metodlar buyrak kasalliklarini aniqlash va tahlil qilish jarayonini avtomatlashtirishda, shuningdek, tibbiy yordamni tezlashtirishda katta rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zhou, S. K., et al. (2017). "UNet: Hybrid deep learning for automated kidney tumor segmentation." Medical Image Analysis, 39, 212-221. DOI: 10.1016/j.media.2017.07.004

2. Litjens, G., et al. (2017). "A survey of deep learning in medical image analysis." Medical Image Analysis, 42, 60-88. DOI: 10.1016/j.media.2017.07.005

3. Esteva, A., et al. (2017). "Dermatologist-level classification of skin cancer with deep neural networks." Nature, 542(7639), 115-118. DOI: 10.1038/nature21056

4. Goodfellow, I., et al. (2014). "Generative adversarial nets." Advances in Neural Information Processing Systems (NeurIPS), 27.

5. Xu, Y., et al. (2020). "Automated kidney tumor segmentation and classification using deep learning: A review." Computers in Biology and Medicine, 122, 103803. DOI: 10.1016/j.compbiomed.2020.103803

6. Ronneberger, O., et al. (2015). "U-Net: Convolutional networks for biomedical image segmentation." MICCAI 2015, 234-241. DOI: 10.1007/978-3-319-24574-4_28

7. Rakhlin, A., et al. (2017). "Kidney tumor detection using deep learning-based segmentation and classification." Medical Imaging and Health Informatics, 6(3), 23-35.

TIBBIY 2D TASVIRLAR ASOSIDA 3D TASVIRLARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Mamatov N.S., Jalelova M.M., Jo'rayev I.A., Turakulova Sh.A.
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti

Annotatsiya. *Mazkur ishda 2D tibbiy tasvirlar asosida buyrak organini uch o'lchamli (3D) modelini tiklash jarayoni yoritilgan bo'lib, unda tibbiy tasvirlarni segmentatsiyalash, 3D rekonstruksiya va vizualizatsiya bosqichlari batafsil tahlil qilingan. Ayniqsa, chuqur o'qitish usullariga asoslangan U-Net modelining buyrak segmentatsiyasidagi yuqori aniqligi va samaradorligi e'tirof etilgan. Shuningdek, 3D sirt hosil qilishda Marching Cubes algoritmini ustun jihatlari ko'rsatib berilgan.*
Kalit so'zlar: *2D tibbiy tasvirlar, 3D rekonstruksiya, segmentatsiya algoritmlari, U-Net neyron tarmog'i, Marching Cubes, DICOM format.*

Abstract. *This work describes the process of reconstructing a three-dimensional (3D) model of the kidney organ based on 2D medical images, in which the stages of segmentation, 3D reconstruction and visualization of medical images are analyzed in detail. In particular, the high accuracy and efficiency of the U-Net model based on deep learning methods in kidney segmentation are recognized. Also, the advantages of the Marching Cubes algorithm in generating 3D surfaces are shown.*
Keywords: *2D medical images, 3D reconstruction, segmentation algorithms, U-Net neural network, Marching Cubes, DICOM format.*

Аннотация. *В данной работе описывается процесс реконструкции трехмерной (3D) модели почечного органа на основе двухмерных медицинских изображений, а также дается подробный анализ этапов сегментации медицинских изображений, трехмерной реконструкции и визуализации. В частности, модель U-Net, основанная на методах глубокого обучения, получила признание за свою высокую точность и эффективность при сегментации почек. Также показаны преимущества алгоритма Marching Cubes для генерации трехмерных поверхностей.*
Ключевые слова: *2D медицинские изображения, 3D реконструкция, алгоритмы сегментации, нейронная сеть U-Net, Marching Cubes, формат DICOM.*

Zamonaviy tibbiyotda tashxis-lash jarayoni samaradorligi ko'p jihatdan tibbiy tasvirlarni to'g'ri talqin qilishga bog'liq. Ko'p hollarda bu tasvirlar ikki o'lchamli (2D) formatda bo'lib, ular ultratovush (UZI), kompyuter tomografiyasi (KT) yoki magnit-rezonans tomografiyasi (MRT) yordamida olinadi. Biroq, inson organizmini murakkab anatomik tuzilmasini to'liq baholash uchun ko'p hollarda uch o'lchamli (3D) model zarur bo'ladi. Ayniqsa, buyrak kabi muhim hayotiy a'zolar holatini chuqur o'rganish va jarrohlik amaliyotlarini rejalashtirishda 3D modellashtirish alohida ahamiyatga ega. 2D tasvirlardan 3D obyektni tiklash, ya'ni rekonstruksiya qilish, kompyuter grafikasi, sun'iy intellekt va tasvirlarni qayta ishlash sohalarining kesishgan nuqtasida joylashgan murakkab

muammo hisoblanadi. Bu jarayon turli algoritmik yondashuvlar, jumladan, segmentatsiya, kesimlar asosidagi yig‘ish, sirt rekonstruksiyasi va chuqur o‘qitish metodlarini qo‘llashni talab etadi.

Buyrak misolida olib qaralganda, ushbu a’zo o‘zining tasvirdagi murakkab tuzilmasi bilan ajralib turadi. Bu esa 2D ultratovush yoki KT tasvirlaridan aniq 3D model hosil qilishni yanada murakkablashtiradi. Shu sababli, tadqiqotlar va amaliy ishlanmalar aynan buyrak 3D rekonstruksiyasi ustida faol olib borilmoqda.

Mazkur ishda buyrak tasvirlari asosida 2D tibbiy tasvirlardan 3D modelni yaratish metodologiyasi tadqiq etilgan bo‘lib, u quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Ma’lumotlarni yig‘ish. Buyrakni 2D tasvirlari KT, MRT va boshqa manbalardan olinadi [1].

2. Tasvirlarga dastlabki ishlov berish[2]. Tibbiy tasvirlarda mavjud shovqin va kontrast farqlari aniqlikni pasaytirishi mumkin. Shuning uchun quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:

- **Normalizatsiya** (piksellarni 0–1 oralig‘iga keltirish);
- **Shovqin pasaytirish**;
- **Kontrastni oshirish**;
- **Kesimlarni tekis formatga aylantirish**;

3. Segmentatsiya [1]. Bu bosqichda buyrak obyekti tasvirdan ajratib olinadi. Segmentatsiya uchun quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

- **Thresholding** – piksellar yorqinligiga qarab buyrak chegarasini ajratish;
- **Edge Detection** (Canny) – kontur chiziqlarni aniqlash;
- **Chuqur o‘qitish asosidagi U-Net** arxitekturasi – neyron tarmoqlar orqali yuqori aniqlikda segmenatatsiyalashni ta’minlaydi.

Natijada har bir kesimda buyrakni faqat o‘zi ajratilgan binar maska hosil qilinadi.

4. 3D rekonstruksiya[1,3]. Ajratilgan segmentlar asosida buyrakni uch o‘lchamli modeli yaratiladi. Bunda quyidagi algoritmlar keng foydalaniladi:

- Stacking Method. Har bir segmentatsiyalangan kesim 3D fazoda kerakli z-joylashuvda ketma-ket joylashtiriladi;
- Marching Cubes algoritmi. 3D voxel hajmli tasvirdan sirt hosil qilish algoritmi. Bu orqali mesh (uchburchakli sirt) yaratiladi;
- Surface Smoothing. Hosil bo‘lgan modelda sirt silliqlanadi va notekisliklar kamaytiriladi.

5. Modelni vizualizatsiya qilish [1,4]. Hosil bo‘lgan 3D modelni vizualizatsiya qilish uchun quyidagi vositalar foydalaniladi:

- **3D Slicer [5]** – tibbiy tasvirlar bilan ishlashga mo‘ljallangan ochiq platforma
- **Blender / MeshLab [5]** – yakuniy modelni ko‘rsatish va eksport qilish.

Tadqiqotdan quyidagi asosiy xulosalar shakllandi:

- **2D tibbiy tasvirlardan 3D modellashtirish** buyrakni aniq anatomik tuzilmasini aks ettirishda yuqori samaradorlik beradi;
- **U-Net asosidagi segmentatsiya** klassik usullarga nisbatan yuqori aniqlikni va moslashuvchanlikni ta’minlaydi;
- **Marching Cubes algoritmi** orqali silliq va realistik 3D sirt modeli yaratilishi mumkin.

Hosil bo‘lgan 3D modellarni **jarrohlik rejalashtiruvlari, ta’lim tizimlari va tibbiy vizualizatsiya dasturlari**da muvaffaqiyatli qo‘llash mumkin. Shuningdek, ushbu yondashuv keyingi bosqichlarda avtomatlashtirilgan tashxislash tizimlariga integratsiyalash uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. *Gonzalez, R. C., & Woods, R. E. (2018).* Digital Image Processing *(4th ed.). Pearson.*
2. *Ronneberger, O., Fischer, P., & Brox, T. (2015). U-Net: Convolutional Networks for Biomedical Image Segmentation.* MICCAI 2015 *(pp. 234–241). Springer.* https://doi.org/10.1007/978-3-319-24574-4_28
3. *Lorensen, W. E., & Cline, H. E. (1987). Marching Cubes: A High Resolution 3D Surface Construction Algorithm.* ACM SIGGRAPH Computer Graphics, *21(4), 163–169.* https://doi.org/10.1145/37402.37422
4. *Fedorov, A., Beichel, R., Kalpathy-Cramer, J., et al. (2012). 3D Slicer as an Image Computing Platform for the Quantitative Imaging Network.* Magnetic Resonance Imaging, *30(9), 1323–1341.* https://doi.org/10.1016/j.mri.2012.05.001
5. *Zhao, Y., Xie, L., & Chen, X. (2016). 3D Reconstruction from 2D Medical Images: A Review.* Journal of Biomedical Imaging, *2016, Article ID 9272856.* https://doi.org/10.1155/2016/9272856

INSON HIS-TUYG'ULARINI ANIQLASH DASTURIY VOSITALARI VA QURILMALARI

Niyozmatova N.A.[1], Madaminjonov A.D.[2]
[1]"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti qoshidagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti
[2]Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. *Mazkur ishda inson hissiy holatini yuz ifodasi, ovoz, biometrik signallar (EEG, GSR, EMG) kabi ko'rsatkichlar asosida his-tuyg'ularni aniqlashga mo'ljallangan zamonaviy dasturiy vositalar va texnik qurilmalar hamda ularni ishlash tamoyillari, yutuq va kamchiliklari, qo'llanilish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari esa bu yo'nalishdagi texnologiyalarni tanlash hamda amaliyotda qo'llash bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.*
Kalit so'zlar: *His-tuyg'ularni aniqlash, emotion recognition, yuz ifodasi tahlili, sun'iy intellekt, EEG, GSR, EMG sensorlar.*

Abstract. *This work examines modern software tools and technical devices designed to detect emotions based on indicators of human emotional state such as facial expressions, voice, biometric signals (EEG, GSR, EMG), as well as their principles of operation, advantages and disadvantages, and application possibilities. The results of the study serve to formulate scientific and practical recommendations for the selection and practical application of technologies in this area.*
Keywords: *Emotion detection, emotion recognition, facial expression analysis, artificial intelligence, EEG, GSR, EMG sensors.*

Аннотация. *В работе рассматриваются современные программные средства и технические устройства, предназначенные для определения эмоций на основе показателей эмоционального состояния человека, таких как мимика, голос и биометрические сигналы (ЭЭГ, КГР, ЭМГ), а также принципы их работы, преимущества и недостатки, возможности применения. Результаты исследований позволят сформулировать научные и практические рекомендации по выбору и практическому применению технологий в данной области.*
Ключевые слова: *Обнаружение эмоций, распознавание эмоций, анализ выражения лица, искусственный интеллект, датчики ЭЭГ, КГР, ЭМГ.*

Zamonaviy axborot texnologiyalarini rivojlanishi inson faoliyatining turli sohalarida sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarning keng qo'llanilishini taqozo etmoqda. Shu jarayonda, inson hissiy holatini aniqlash, ya'ni his-tuyg'ularini aniqlash texnologiyasi alohida e'tiborga loyiq yo'nalishlardan biriga aylandi. Bu texnologiyalar ta'lim, tibbiyot, xavfsizlik, marketing, robototexnika va boshqa ko'plab sohalarda inson bilan samarali muloqotni ta'minlash, stress va ruhiy holatlarni aniqlash, qaror qabul qilish tizimlarini yanada takomillashtirishda keng foydalanilmoqda.

Inson hissiyotlarini aniqlashda dasturiy ta'minotlar va maxsus qurilmalar asosiy vositalar sifatida muhim o'rin tutadi. Dasturiy vositalar orqali yuz ifodalari, ovoz, harakat va biometrik signal (yurak urishi, teri namligi) kabi belgilarni tahlil qilish imkonini beruvchi sun'iy intellekt algoritmlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, maxsus qurilmalar - EEG, GSR, EMG sensorlari va aqlli soatlar - real vaqtda emotsional holatni kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi.

Yuz ifodasiga asoslangan his-tuyg'ularni aniqlash dasturlari quyida keltirilgan:

– OpenFace - Yuzni aniqlash, yuz mushaklari harakatini (Facial Action Coding System - FACS) tahlil qiladi [1].

– Affectiva SDK (by Smart Eye) – Yuz ifodalari va ovoz orqali his-tuyg'ularni aniqlaydi [2].

– Microsoft Azure Face API – Yuzdagi ifodalarni aniqlab, asosiy his-tuyg'ularni (xursandlik, g'azab, qo'rquv va h.k.) taxmin qiladi [3].

– Emotion API (Microsoft Cognitive Services) – Rasm orqali 7+ xil emotsiyani aniqlaydi [4].

– DeepFace (by Facebook) – Yuzni tanish va emotsiyalarni aniqlash uchun chuqur o'qitish asosidagi model [5].

Ovoz (nutq) orqali his-tuyg'ularni aniqlash dasturlari quyidagilardir:

– openSMILE – Ovozdagi intonatsiya, tebranish va ohanglar orqali emotsiyalarni aniqlovchi mashhur toolkit [6].

– Google Speech Emotion Recognition – Google xizmatlariga asoslangan, mashinaviy o'rganish modellaridan foydalanadi [7].

– TensorFlow Speech Recognition models – Maxsus mashg'ulotdan o'tgan modellar orqali audio emotsiyalarni aniqlash mumkin [8].

Jismoniy signallar (biosignals) asosida dasturlar

– Emotient –Yuz ifodalariga asoslangan, lekin yurak urishi, nafas olish va boshqa signallar bilan bog'lash imkonini beradi [9].

– PhysioNet Toolkit – Yurak urishi, teri o'zgarishlari kabi ma'lumotlarni tahlil qiladi [10].

– BioSPPy (Python kutubxonasi) – EKG, EMG, GSR kabi biosignal ma'lumotlarni analiz qiladi [11].

Yuz va ko'z harakatlarini aniqlovchi qurilmalar

– Kamera (High-Res + Infrared) – Yuzdagi mimikani aniqlash uchun asosiy vosita.

– Eye-tracker (Tobii, EyeLink) – Ko'z harakatlari orqali diqqat markazini va stress darajasini o'lchaydi.

Biosignal o'lchovchi qurilmalar:

– EEG (Electroencephalography) – Muse Headband, Emotiv EPOC – Miyadagi elektr faollikni o'lchaydi, stress va xursandlik kabi holatlarni aniqlaydi.

– GSR Sensor (Galvanic Skin Response) -Teri qarshiligidagi o'zgarishlar orqali qo'rquv, hayajon aniqlanadi (misol: Shimmer GSR+).

– ECG Sensor (Electrocardiogram) – Yurak urishi

ritmi va intensivligi emotsional holat haqida ma'lumot beradi.

– EMG Sensor (Electromyography) – Mushaklar faolligini o'lchaydi, ayniqsa yuz mushaklari emotsiyalarga bog'liq.

Ko'p sensorli qurilmalar:

– Empatica E4 Wristband – Yurak urishi, teri harorati, harakat va GSR ni bir vaqtda o'lchaydi.

– Biopac Systems –ko'plab biosignalni o'lchash imkonini beruvchi platforma.

– Hexoskin Smart Shirt – Nafas olish, yurak urishi, harakat kabi ko'plab parametrlarni o'lchaydi.

Mobil va smart qurilmalar:

– Apple Watch / Fitbit / Samsung Galaxy Watch – Yurak urishi, stress va uyqu monitoring orqali emotsional holatlarni taxmin qiladi.

– Smartphone sensors (kamera, mikrofon, akselerometr) – Yuz ifodasi, ovoz va harakat orqali his-tuyg'ularni tahlil qiluvchi ilovalar (masalan, Moodpath, Youper).

Dasturiy vositalarni yutuq va kamchiliklari quyidagi jadvalda batafsil yoritib berilgan.

1-jadval

Inson his-tuyg'ularini aniqlash dasturiy vositalarini yutuq va kamchiliklari

Yo'nalish	Yutuqlari	Kamchiliklari
Yuz ifodasi asosida	- Kamera orqali oson tahlil - Real vaqt rejimida tahlil - Emotsionallik yuzda yaqqol aks etadi	- Yuzni to'liq ko'rish talab qilinadi - Yorug'lik sharoitiga bog'liq
Nutq asosida	- Mikrofon orqali aniqlash - Nutqdagi ohang, pauza, tezlik orqali emotsiyani ajratish	- Tovush sifati muhim - Tashqi shovqin tahlilga halal beradi
Biosignal asosida (software bilan)	- Yurak urishi, tana harorati, EEG, GSR orqali ancha aniq tahlil - Yashirin emotsiyalarni ajratadi	- Maxsus qurilmasiz ishlamaydi - Texnik jihatdan murakkab

Qurilmalarni yutuq va kamchiliklari quyidagi jadvalda batafsil yoritib berilgan.

2-jadval

Inson his-tuyg'ularini aniqlash qurilmalarini yutuq va kamchiliklari

Yo'nalish	Yutuqlari	Kamchiliklari
Biometrik signal qurilmalari	- Yuqori aniqlik - Tibbiy darajadagi monitoring - Stress, diqqat, hissiy javoblarni real o'lchaydi	- Narxi yuqori - Sensorlarni tanaga o'rnatish kerak - Sozlash murakkab
Kamera, mikrofon, Eye-tracker	- Oddiy kompyuter uskunalari bilan ishlaydi - Real vaqtli - Ko'proq UX testlarida qulay	- Tashqi ko'rinishga bog'liq - Yorug'lik, shovqin ta'sir qiladi
Mobil va smart qurilmalar	- Foydalanuvchiga qulay - Uzoq muddatli monitoring - Ko'p parametrni bir vaqtda oladi	- Batareya quvvati cheklangan - Har doim aniq signal bera olmaydi

Xulosa

Tadqiqotda inson his tuyg'ularini aniqlash uchun foydalaniladigan asosiy dasturiy vositalar va qurilmalar turlari, ishlash tamoyillari hamda ularni yutuq va kamchiliklari keng tahlil qilindi. Dasturiy vositalar orasida yuz ifodasi, ovoz (nutq) va biosignallar asosida emotsiyalarni aniqlovchi tizimlar batafsil ko'rib chiqildi. OpenFace, Affectiva, openSMILE kabi vositalar yuz harakati va tovush orqali emotsional holatlarni aniqlashda katta imkoniyatlarga ega bo'lsada, ular tashqi muhitga sezgirligi bilan ajralib turadi. Qurilmalar orasida esa EEG, GSR, EMG, Eye-tracker, smart soatlar va sensorlar kabi apparat ta'minotlari inson fiziologik holatlari (yurak urishi, miya to'lqinlari, teri o'tkazuvchanligi) asosida yuqori aniqlikda his-tuyg'ularni aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *https://cmusatyalab.github.io/openface/*
2. *https://www.affectiva.com/*
3. *https://azure.microsoft.com/en-us/pricing/details/cognitive-services/face-api/*
4. *https://www.microsoft.com/en-us/research/project/emotion-recognition-for-ms-cognitive-services/*
5. *https://github.com/serengil/deepface*
6. *https://www.audeering.com/research/opensmile/*
7. *https://cloud.google.com/speech-to-text*
8. *https://www.tensorflow.org/tutorials/audio/simple_audio*
9. *https://www.apple.com/*
10. *https://physionet.org/*
11. *https://biosppy.readthedocs.io/*

МАТНЛИ МАЪЛУМОТЛАРНИ ТАСНИФЛАШДА БЕЛГИЛАРНИ ШАКИЛЛАНТИРИШ УСУЛ ВА АЛГОРИТМЛАРИ

Мухамедиева Д.Т.[1], Маматов Н.С.[1], Маматов А.А.[2]
[1]"ТИҚХММИ" Миллий тадқиқот университети
[2]Наманган давлат университети

Аннотация. *Мақолада матнли маълумотларни таснифлашда қўлланиладиган белгиларни шакллантириш усул ва алгоритмлари кўриб чиқилган. Хусусан, Bag of Words (BoW) модели, TF-IDF кўрсаткичи ҳамда One-hot encoding усуллари таҳлил қилинган. Матнларни рақамли кўринишда ифодалашнинг назарий асослари ва амалий аҳамияти ёритилган. Шунингдек, ушбу соҳадаги асосий тадқиқотчилар ва уларнинг илмий ҳиссалари ҳақида маълумотлар келтирилган.*
Kalit so'zlar: *Матнли маълумотларни таснифлаш, белгиларни шакллантириш, Bag of Words, TF-IDF, One-hot encoding, табиий тилни қайта ишлаш, матнларни анализ қилиш, векторли модель.*

Abstract. *The article examines the methods and algorithms for character formation used in text data classification. In particular, the Bag of Words (BoW) model, TF-IDF indicator, and One-hot encoding methods are analyzed. The theoretical foundations and practical importance of representing texts in digital form are covered. Information about the main researchers in this field and their scientific contributions is also provided.*
Keywords: *Text data classification, character formation, Bag of Words, TF-IDF, One-hot encoding, natural language processing, text analysis, vector model.*

Аннотация. *В статье рассматриваются методы и алгоритмы формирования символов, используемые при классификации текстовых данных. В частности, были проанализированы модель «мешка слов» (BoW), индикатор TF-IDF и методы прямого кодирования. Рассматриваются теоретические основы и практическое значение цифрового представления текстов. Также представлена информация о ключевых исследователях в этой области и их научном вкладе.*
Ключевые слова: *Классификация текстовых данных, генерация признаков, Bag of Words, TF-IDF, One-hot encoding, обработка естественного языка, анализ текста, векторная модель.*

Матнли маълумотларни таниб олиш– компьютерлар ёрдамида ёзма ёки босма матнларни автоматик равишда аниқлаш ва ундан фойдаланиш жараёнидир. Бу жараёнда матндан фойдали маълумотларни ажратиб олиш учун махсус белгилар шакллантирилади.

Матнли маълумотларни таҳлил қилиш ва уларни рақамли кўринишда ифодалашда кенг қўлланиладиган асосий ёндашувлардан бири бу — Bag of Words (BoW) моделидир. Ушбу моделга илмий асос солган ва уни амалий жиҳатдан биринчи марта қўллаган тадқиқотчилардан бири Жерард Салтон (Gerard Salton) ҳисобланади. Салтон 1960–1970-йилларда ахборотни автоматик индекслаш ва ахборотни излаш тизимларини ривожлантириш

бўйича кенг кўламли илмий тадқиқотлар олиб борган бўлиб, ушбу соҳада чуқур илмий мерос қолдирган [1]. У томонидан ишлаб чиқилган Vector Space Model (VSM) матнларни векторлар орқали ифодалашга асосланган ёндашув айнан Bag of Words модели учун назарий пойдевор бўлиб хизмат қилган.

BoW моделини моҳияти шундаки, матндаги сўзлар уларнинг кетма-кетлиги ёки грамматик тузилмасига эътибор берилмаган ҳолда, фақат сўзлар ва уларни частотаси асосида вектор шаклида ифодаланади. Бу ёндашув матнлар орасидаги ўхшашликни аниқлаш, матнларни таснифлаш ва излаш тизимларида самарали қўлланилади. Шунингдек, Жерард Салтон томонидан ишлаб чиқилган TF-IDF (Term Frequency–Inverse Document Frequency) кўрсаткичи BoW моделини янада кучайтирган бўлиб, у матндаги сўзларни нисбий аҳамиятини аниқлаш имконини беради. Мазкур ёндашувлар табиий тилни қайта ишлаш (NLP) ва ахборот излаш тизимларида ҳозирги кунгача самарали фойдаланилиб келинмоқда.

Bag of Words (BoW) намуна

қуёшли, кун, об-ҳаво ва ёрқин қуёш, ёмғирли, булутлар

Hujjat 1: Қуёшли кун
Hujjat 2: ва ёрқин қуёш
Hujjat 3: ёмғирли кун ва булутлар

1-жадвал

	Хужжат	1	кун	об-ҳаво	ва	ёрқин	қуёш	булутлар
Хужжат1	1	1	1	0	0	0	0	0
Хужжат2	0	0	1	1	1	1	0	1
Хужжат2	0	0	0	0	0	0	1	1

Karen Spärck Jones IDF (Inverse Document Frequency) формуласини биринчи марта 1972-йилда фанга киритган бўлиб, у матндаги сўзларни умумий ҳужжатлар орасидаги муҳимлигини баҳолайди [2]. TF-IDF модели икки асосий қисмдан ташкил топган: TF (Term Frequency) – сўзнинг маълум бир ҳужжатдаги такрорланиш частотаси. IDF (Inverse Document Frequency) – сўзнинг умумий ҳужжатлар орасидаги ноёблиги. Бу модел матндаги муҳим, аммо кам учрайдиган сўзларни кўпроқ аҳамиятли деб ҳисоблайди буни Karen Spärck Jones ўзининг "A Statistical Interpretation of Term Specificity and Its Application in Retrieval" номли мақоласида баён қилган.

One-hot encoding матнли маълумотлар аввал белгиларга (tokens) ажратилади, сўнгра ҳар бир

белги рақамли векторга айлантирилади, бу вектор ичида фақат битта “1” бўлади, қолганлари “0”.

2-жадвал

One-hot кодланишига намуна

Ранг	Вектор
Қизил	[1,0,0]
Яшил	[0,1,0]
Кўк	[0,0,1]

Ушбу модел бўйича қуйидаги олимлар илмий изланишларни олиб боришган S. S. Stevens ўзинг "On the Theory of Scales of Measurement" номинал ўзгарувчилар ҳақида асосий назарий тушунчаларни берган [3]. Бу кейинчалик категорияли ўзгарувчиларни рақамли векторларга кодлаш заруратига асос яратган. Christopher M. Bishop ўзинг "Pattern Recognition and Machine Learning" китобида One-hot encoding ни синфларни ифодалаш учун фойдаланган, айниқса класс-сификация муаммоларида [4]. Yoshua Bengio, Ian Goodfellow, Aaron Courville ўзларининг “Deep Learning” китобиларида one-hot encoding ҳақида чуқур тушунчаларни нейрон тармоқлар ва ембеддинг методларига кириш сифатида кўрсатиб ўтишган [5].

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. *Salton, G., & McGill, M. J. (1983).* Introduction to Modern Information Retrieval. *McGraw-Hill.*
2. *Spärck Jones, K. (1972). A statistical interpretation of term specificity and its application in retrieval.* Journal of Documentation, *28(1), 11–21. https://doi.org/10.1108/eb026526*
3. *Stevens, S. S. (1946). On the theory of scales of measurement.* Science, *103(2684), 677–680. https://doi.org/10.1126/science.103.2684.677*
4. *Bishop, C. M. (2006).* Pattern Recognition and Machine Learning. *Springer.*
5. *Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016).* Deep Learning. *MIT Press.*

KASB KOMPETENSIYASIDA RAQAMLI TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

Raximov M.
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
Biznes boshqaruvi va moliya kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Raqamli ta'lim tizimining eng faol ishtirokchisi bu - ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi, bo'lajak mutaxassislardir. Shu boisdan ham ularda kasbiy kompetensiyaning rivojlanganlik darajasi yuqori darajada bo'lishi o'ta muhim masala sanaladi. Mazkur maqolada ayni shu masala yuzasidan to'plangan nazariy ma'lumotlarga asoslanib, aynan talabalarining kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish zaruriyati va kasbiy faoliyatlari mobaynidagi ahamiyati, faoliyat yuritishdagi muhim jihatlar mazmun-mohiyati yuzasidan fikrlar aks etadi.*
Kalit so'zlar: *ta'lim, raqamli ta'lim tizimi, pedagogik mahorat, ta'lim mazmuni.*

Abstract. *The most active participants in the digital education system are educators and learners, future specialists. Therefore, it is extremely important for them to have a high level of professional competence. Based on the theoretical information collected on this issue, this article reflects opinions on the need for students to have professional competence and its importance during their professional activities, the content and essence of important aspects in their activities.*
Keywords: *education, digital education system, pedagogical skills, educational content.*

Аннотация. *Наиболее активными участниками системы цифрового образования являются педагоги и обучающиеся, будущие специалисты. Поэтому для них крайне важно иметь высокий уровень профессиональной компетентности. В статье на основе теоретических сведений, собранных по данной проблеме, отражены мнения о необходимости наличия у студентов профессиональной компетентности и ее значении в процессе их профессиональной деятельности, а также содержание и сущность важных аспектов их деятельности.*
Ключевые слова: *образование, цифровая система образования, педагогическое мастерство, образовательный контент.*

So'nggi yillarda respublika iqtisodiyot tarmoqlari ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish, ilm-fan va ilmiy faoliyatni, xalq ta'limi sohasini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va natijadorligini oshirish bo'yicha aniqmaqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Demokratik islohotlarni amalga oshirish, jumladan, maktablarida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish va boshqarish, inson huquq va erkinliklari hamda qonun ustuvorligini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Shunday bo'lsada, mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ilm-fan va innovatsiya sohasida davlat boshqaruvi mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini rivojlantirishda shaffoflikni oshirish hamda iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlarini jadallashtirish lozimligini ko'rsatmoqda [1].

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng 2000-yillarning boshlaridan boshlab, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni rivojlantirish va raqamlashtirishga ustuvor ahamiyat bera boshladi. Shu fikrni isboti sifatida “2013-2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi”, “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” hamda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” va “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da milliy iqtisodiyot, sanoat va umuman jamiyatda raqamli transformatsiyani amalga oshirishga qaratilgan bir qator davlat boshqaruvini takomillashtirish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etildi.

Haqiqatan ham, raqamli transformatsiya jamiyatni yanada modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish salohiyatiga ega. Shu nuqtayi nazardan, amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, Yangi O‘zbekistonning kelgusi besh yilga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida barcha asosiy sohalarni raqamlashtirish hamda mamlakatda haqiqiy axborot jamiyatini barpo etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 - yil 5 - oktyabrdagi farmoniga asosan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek, 2020-2022-yillarda uni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlangan edi. Aynan bu strategiya ikki dasturni:

birinchidan, hududlarni raqamlashtirish va tarmoqlarni raqamlashtirishni nazarda tutib, raqamli infratuzilma, elektron hukumat, raqamli texnologiyalar milliy bozori, axborot texnologiyalari sohasida ta’lim va malaka oshirishni rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi bilan muhimdir;

ikkinchidan, barchamizga ma’lumki, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirishidagi eng muhim shartlaridan biri ham, sohaning moliyaviy ta’minoti va aholining raqamli savodxonligini oshirishni yangi bosqichga ko‘tarishdir.

Shuningdek, ushbu hujjatga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi boshqa tegishli davlat organlari bilan birgalikda 2022- yil dan boshlab, maktabgacha va maktab ta’limi, sog‘liqni saqlash va boshqa yo ‘nalishlar doirasida tizimli ravishda raqamlashtirishni yakunlash choralarini amalga oshirib kelmoqda. Xususan, mamlakatimiz elektron hukumatining asosiy tizimi – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) ishga tushirilgach, ushbu sohada, shuningdek, davlat boshqaruvida yangi texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirishda salmoqli yutuqlarga erishildi. Misol tariqasida, bugungi kunda respublika

maktablarida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish va boshqarish ilmiy-pedagogik muammo sifatida qaralmoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganlaridek, “...adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omili hisoblangan sifatlita’lim-tarbiya masalasi bundan buyon ham doimiy e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak. Bugungi va ertangi kunimizni, yosh avlodlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o‘qituvchilar, haqiqiy ziyolilar kerak...” [1].

2020 - yil 23 - sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 - yil 5 - sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son Qarori, 2018 - yil 5 - sentyabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni, 2019- yil 29 - apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”, 2020 -yil 6- noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni, shuningdek, qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda keltirilgan muhim vazifalardan kelib chiqib, maktablarda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish va boshqarish ularni kasbiy rivojlantirishda innovatsion boshqaruv faoliyatining tashkiliy-metodologik asoslarini tadqiq qilish da ham raqamli faoliyatning dolzarbligini belgilab beradi. Mazkur yuqoridagi normativ hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda yoshlarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish va boshqarish uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

Kishilik jamiyatida inson faoliyati – uning rivojlanishi uchun eng zarur texnika vositalari sharoit bo‘lib, shaxs hayotiy tajribaga ega bo‘ladi, atrof-olamni idrok etadi, bilimlarni o‘zlashtiradi, bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qiladi. Hozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o‘zgarishlar bo‘lishini ko‘rsatmoqda. [2] Zero, odam va olam to‘g‘risidagi tasavvurlar o‘zgardi, inson tafakkuri va olamni tushunishning yangi usullari shakllandi, ma’naviy-amaliy o‘zlashtirishning yangi vositalari va metodologiyasiga o‘tish sodir bo‘lmoqda.

Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish va boshqarish uning samarali ta’lim faoliyatini belgilab beruvchi asosiy omil sanaladi. O‘quvchining nazariy-ilmiy tasavvurlari evristik ta’limning pedagogik asosini tashkil qiladi.[3]

Maktab o‘quvchilaridagi bilish jarayoni ijodkorlik natijasida yuz beradi. Izlanishlar amaliyotni

jarayonida ijodkorlik faoliyati namoyon bo‘lishi uchun aniq maqsadga yo‘naltirilgan, rejalashtirilgan, me’yorlarga ega bo‘lgan, o‘z-o‘zini anglash faoliyatiga zarurat seziladi. Bunday amaliyot o‘quvchilarida atrof-olam obyektlari va ular haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish; ta’lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida uning aqliy-intellektual, ijodiy xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Bu borada, ayniqsa, uzliksiz ta’limning akademik bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bosqichida ijodiy faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlari kengroq hisoblanadi.[4]

Shu munosabat bilan raqamli iqtisodiyotni barcha yo‘nalishlar doirasida asosiy «drayver» sohaga aylantirib, 2026 yil oxiriga qadar uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirish, bunda dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 million AQSh dollariga yetkazish, shuningdek, iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 70 foizgacha oshirish belgilangan. Bundan tashqari, shaharlarni raqamlashtirish, qurilish va loyihalashtirish ishlari sifatini oshirish va «Aqlli shahar» konsepsiyasi doirasida rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilishi ham kun tartibidagi muhim masala ekanligini isbotladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent sh., 2020-yil 6-noyabr, PF-6108-son.

2. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta’lim samaradorligining muhim omili. – T.: Yoshlar tashkiloti, 2020. – 52 b.

3. Jalilova Dilshoda. "Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tarkibiy qismlarining mazmun-mohiyati". “O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2022 yil 30 noyabr | scientists.uz

4. Zamonaviy pedagog qiyofasi: marifat.uz

MATNLI MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH BOSQICHLARI

Turakulov O.X.
"Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti"

Annotatsiya. *Ushbu maqolada strukturalanmagan matnli ma'lumotlarni qayta ishlash bosqichlari hamda ular asosida bilimlarni ajratib olish jarayoni yoritilgan. Matnli ma'lumotlarni tahlil qilish beshta asosiy bosqichda amalga oshirilishi ko'rsatilgan: matnni aniqlash, dastlabki ishlov berish, bilimlarni qurish, Text Mining usullarini qo'llash va natijalarni vizuallashtirish. Har bir bosqichda bajariladigan amallar va qo'llaniladigan texnologiyalar haqida batafsil ma'lumot berilgan. Tadqiqot davomida matnli ma'lumotlar ustida ishlov berish jarayonlarini optimallashtiruvchi modellar va algoritmlar ishlab chiqilgan. Ayniqsa, matnlarni tasniflash, hissiy tahlil, gap tuzilmasini aniqlash va ijtimoiy tarmoqlardagi matnlarni tahlil qilish mexanizmlari alohida ko'rib chiqilgan.*
Kalit so'zlar: *Text Mining, strukturalanmagan ma'lumotlar, matnli ma'lumotlar, dastlabki ishlov berish, tasniflash, semantik tahlil, TF-IDF, vizualizatsiya, ma'lumotlarni transformatsiyalash.*


Abstract. *This article describes the stages of processing unstructured text data and the process of extracting knowledge based on them. It is shown that text data analysis is carried out in five main stages: text recognition, pre-processing, knowledge building, application of Text Mining methods and visualization of results. Detailed information is provided about the operations performed at each stage and the technologies used. During the research, models and algorithms were developed that optimize the processing processes of text data. In particular, the mechanisms of text classification, sentiment analysis, sentence structure detection and text analysis in social networks were considered separately.*
Keywords: *Text Mining, unstructured data, text data, pre-processing, classification, semantic analysis, TF-IDF, visualization, data transformation.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются этапы обработки неструктурированных текстовых данных и процесс извлечения знаний на их основе. Показано, что анализ текстовых данных осуществляется в пять основных этапов: распознавание текста, предварительная обработка, формирование знаний, применение методов Text Mining и визуализация результатов. Предоставляется подробная информация о действиях, которые необходимо предпринять на каждом этапе, и используемых технологиях. В ходе исследования были разработаны модели и алгоритмы для оптимизации процессов обработки текстовых данных. В частности, отдельно рассматриваются механизмы классификации текстов, анализа настроений, определения структуры предложений и анализа текстов в социальных сетях.*
Ключевые слова: *интеллектуальный анализ текста, неструктурированные данные, текстовые данные, предварительная обработка, классификация, семантический анализ, TF-IDF, визуализация, преобразование данных.*

Kirish. Zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyoti matnli ma'lumotlarga ishlov berish va ularni tahlil qilish sohasida keng imkoniyatlar yaratmoqda. Strukturali ma'lumotlarga nisbatan, matnli (strukturalanmagan) ma'lumotlar ustida ishlash ancha murakkab va ko'p bosqichli jarayon

hisoblanadi. Bunday ma'lumotlar odatda an'anaviy jadval ko'rinishiga ega bo'lmagan bo'lib, ularda saqlanayotgan axborotdan foydalanish uchun maxsus metod va vositalar talab etiladi. Text Mining – bu matnli ma'lumotlardan foydali bilimlarni ajratib olishga qaratilgan amaliyot bo'lib, bu jarayon bir nechta bosqichlardan iborat bo'ladi. Ushbu maqolada matnli ma'lumotlarni qayta ishlash bosqichlari, ularga tegishli texnologiyalar hamda tahlil usullarining samaradorligini oshirishga qaratilgan modellarning ishlab chiqilishi muhokama qilinadi.

So'ngi yillarda ma'lumotlarni tahlil qilish juda keng qamrovli qo'llanish sohalarga ega. Strukturali ma'lumotlarda ma'lumotlar bazasini loyihalash orqali dastlabki ishlov berish amalga oshiriladi, buning uchun maxsus tuzilma, munosabatlar va tizim qo'llaniladi. Shu bilan birgalikda mazkur axborot tahlilini amalga oshirish uchun undan hosil qilinadigan meta ma'lumot-bilimlarni yuzaga chiqarib olish zarur bo'ladi, buning uchun qo'shimcha amallar bajarish talab etiladi. Lekin qo'llanilgan shuncha sa'y-harakat to'laqonli natija bermasligi mumkin. Shuning uchun matnli ma'lumotlarni tahlil qilish ish samaradorligi yetarlicha bo'lmasligi mumkin. Bundan tashqari, har qanday matnli ma'lumotni jadval ko'rinishiga keltirishdagi muammo foydali bo'lgan matnning yo'qotilmasdan jadvalga aylantirilishi mumkin bo'lmagan holati hisoblanadi. Shuning uchun matnli ma'lumotlar MBda matn ko'rinishida saqlanadi. Shu qatorda matnli ma'lumotlar tarkibida juda katta miqdordagi axborot saqlanadi. Uning strukturaga ega emasligi Data Miningning algoritmlarini to'g'ridan to'g'ri qo'llash imkonini bermaydi. Bu masalani yechishda Text Mining vositalaridan foydalanish o'rinli bo'ladi.



1-rasm. Text Mining bosqichlari

Matnli ma'lumotlarni Text Mining vositalarida ishlov berish va tahlillash beshta bosqichlarda amalga oshirilishi mumkin (1-rasmga qarang). Matnli ma'lumotlarga ishlov berish jarayonining ikkinchi bosqichi

dastlabki ishlov berish bosqichi hisoblanadi. Masalaning qo‘yilishini shakllantirib olishda jarayonga umumiy nazar tashlash maqsadga muvofiq.

Strukturalanmagan ma’lumotlarni tahlil qilish usullari bir nechta predikat so‘z kesishuvida yotadi, bular: Data Mining, NLP, axborot qidiruvi, axborotni chiqarib olish va bilimlarni boshqarish. [1] ishida Data Mining tushunchasi qatorida matnli ma’lumotga ishlov berish jarayoni quyidagicha izohlangan: matnda bilimlarni aniqlash matnli ma’lumotlarda haqiqatan yangi, salohiyatli, foydali va tushunarli shablonlarni topish trivial bo‘lmagan jarayon hisoblanadi.

Bunda xulosa qilish mumkinki, Data Mining tushunchasidan farqli ravishda yangi “strukturalanmagan matnli ma’lumot” tushunchasi bilan farqlanar ekan. Bunday strukturalanmagan matnli hujjatlarga veb-sahifalar, elektron pochta, normativ hujjatlar va hokazolar bo‘lishi mumkin, ular o‘zlarida juda katta massivdagi nafaqat matn, balki grafik ma’lumotlarni ham mujassamlashtiradi. Katta massivli matnli ma’lumotlar, masalan XML, SGML va boshqa shunga o‘xshash matnli hujjatlar to‘plami yarim strukturalangan hujjatlar sifatida qaraladi. Ular ham Text Mining usul va vositalari yordamida ishlov berilishi, tahlil qilinishi mumkin.


Birinchi bosqichda turli axborotdan matnlar qidiruvi amalga oshirilib, qaysi matnli hujjat tahlillanishi kerak degan savolga javob olinadi. Bu yerda tahlillanayotgan ma’lumot foydalanuvchi tomonida qo‘lda bajarilishi yoki avtomatlashtirilgan ko‘rinishda amalga oshirilishi mumkin [2].

Ikkinchi bosqichda matnli ma’lumotlarni dastlabki ishlov berishni amalga oshirishda TextMining ishlashi mumkin bo‘lgan mexanizmga tushuvchi ko‘rinishga keltiriluvchi sodda ko‘rinishdagi usul va vositalar jamlanmasini ishlatish o‘rinli bo‘ladi. Ushbu jarayonning amalga oshirilishi ortiqcha so‘zlarni olib tashlash, matnga qat’iy ko‘rinish berish vazifalari amalga oshiriladi. Aynan shu bosqich tadqiqotning asosiy yo‘nalishlaridan hisoblanadi[3].

Uchinchi bosqichda axborotni hosil qilib olishda belgilab olingan ma’lumotlarda asosiy kalit tushunchalar belgilab olinadi va asosiy tahlil shu qism ustida amalga oshiriladi.

To‘rtinchi bosqichda matnlarning orasidan shablon va munosabatlar ajratib olinadi. Bu bizga matndagi asosiy bosqichni amalga oshirish imkonini beradi.

Beshinchi bosqichda matnli hujjatlardan bilimlarni hosil qilish ularni tabiiy til ko‘rinishida ifodalash yoki grafik ko‘rinishida vizuallashtirishni qamrab oladi[4].



2-rasm. Strukturalanmagan matnli ma'lumotlarni intellektual ishlov berish

Matnli ma'lumotlarni tahlil qilish hayotiy siklda olinadigan natijalar turli ko'rinishlarda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tuzilmani 1-rasmda ifodalangan bosqichlardan kelib chiqqan holda 2-rasmdagi ko'rinishda tasvirlash mumkin.

Bizga matnli (strukturalanmagan) ma'lumotlarga ishlov berish modeli (1) ko'rinishda berilgan bo'lsin:

$$A =< D, L, N, T, R > \quad (1)$$

bu yerda, D – hujjatlar yoki yozishma matnlar to'plami;

L – lug'at (unikal terminlar tanlanmasi - teglar);

N – hujjatlar yoki yozishma matnlarning umumiy soni;

T – lug'atdagi unikal so'zlar (termlar) soni;

R – matn va teg (termin)lar orasida o'rnatiladigan qoidalar yoki

modellar. $R = F(D, L)$ – D to‘plamda berilgan matnlarni L termlar lug‘ati bilan ishlov berish qoidalari bilan aniqlanadigan funksiya. D berilganlar tuzilmasi va L lug‘atning turlariga ko‘ra qo‘llaniladigan usullar masalaning mohiyatidan kelib chiqadi[5]. Bu yerda birinchi bobda tahlil qilingan quyidagi usullar qaraladi:

- Term chastotasi – teskari hujjat chastotasi (TF-IDF);
- So‘zlarni vektorli ifodalash;
- NT asoslangan murakkab namuna.

Matnli ma’lumotlarni intellektual ishlov berilishida quyidagi shartlar inobatga olinadi:

1. Tahlil qilinadigan ma’lumotlar to‘la avtomatlashtirilmaydi, jarayon predikat so‘z bo‘yicha ekspert ishtirokida modellashtiriladi.
2. Ma’lumotlarni tahlillash har yangi ma’lumot kirganda yangidan amalga oshiriladi:
3. Har bir o‘ziga xos ma’lumot qiymatlariga ishlov beriladi.

Tadqiqot vazifalaridan kelib, tadqiqot masalaning qo‘yilishi quyidagicha shakllantirildi.

1-masala. Matnli ma’lumotlarni tasniflash samaradorligini oshirishning mantiqiy-semantik algoritmini ishlab chiqish

2-masala. Ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar matnli ma’lumotlariga ishlov berish va tahlil qilish mexanizmini ishlab chiqish

3-masala. Matnli ma’lumotda gap tuzilmasini aniqlashga yo‘naltirilgan algoritmni ishlab chiqish.

4-masala. Matnli ma’lumotlarda hissiy tahlillashni amalga oshirish uchun tasniflashning neyron tarmoqlarga asoslangan model va algoritmini ishlab chiqish.

Yuqoridagi shartlarni bajarilishi jarayonga sarflanadigan vaqtni qisqartirish imkonini beradi. Bu shartli jarayonlar quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi[6]:

$$T_a = P + \sum_{j=1}^{c} S_j \cdot T_E \cdot V \quad (2)$$

$$T_m = \sum_{j=1}^{c} S_j T_E \quad (3)$$

$$T_a < T_m \quad (4)$$

bu yerda T_a- melinik rejimda ishlov berish; P- dastlabki sozlashga ketadigan vaqt; c- ishlov berish sikli; j- dastlabki ishlov berish sikli tartib raqami; T_E- predikat so‘z bilan ekspertning o‘rtacha ish vaqti (bu yerda to‘xtab qolish ham hisobga olingan). S_j- j ishlov berish siklidagi matnlar birligi o‘ziga xos qiymatlari to‘plami; V- qo‘l mehnati miqdori, T_m- to‘la qo‘l ishlov berish vaqti.

Bu yerda ishlov berish sifatini oshirish uchun dastlabki ishlov berish mexanizmi samaradorligini oshiruvchi model va algoritmlar ishlab chiqish talab etiladi.

Xulosa. Maqolada ko‘rib chiqilgan matnli ma’lumotlarni qayta ishlashning bosqichli modeli ularni samarali tahlil qilish va bilimlar ajratib olish imkonini beradi. Text Mining vositalarining qo‘llanilishi strukturalanmagan ma’lumotlardan qiymatli axborotni chiqarib olishni ta’minlaydi. Dastlabki ishlov berish jarayonining optimalligi umumiy tahlil sifatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Taklif etilgan model va algoritmlar yordamida matnli ma’lumotlarga ishlov berish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda sarf bo‘ladigan vaqt va resurslarni kamaytirish mumkin. Tadqiqotda ishlab chiqilgan yondashuvlar amaliy sohalarda, xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi tahlil, hujjatlarni tasniflash va hissiy aniqlash kabi jarayonlarda keng qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. *R.M.Silva, T.A.Almeida, and A.Yamakami, “MDLText: An efficient and lightweight text classifier,” Knowledge-Based Systems, vol. 118, pp. 152–164, 2017.*
2. *Бабомурадов О.Ж., Қўйлиева Ф.А., Туракулов О.Х. “Clustering approaches to text documents” The scientific journal vehichles and roads, 2022 №1 Научный журнал транспортных средств и дорог, 2022 №1 2 НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ И ДОРОГ Издается с 2021 год 109-114б.*
3. *D.Choi, B.K. Ko, H.Kim, and P.Kim, “Text analysis for detecting terrorism-related articles on the web,” Journal of Network and Computer Applications, vol. 38, pp. 16–21, 2014, doi: 10.1016/j.jnca.2013.05.007*
4. *O.J.Babomuradov., O.X.Turakulov “Matnni intellektual tahlillash yondashuvlari”, O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi O‘zbekiston respulikasi aloqa, axborotlashtirish va telekomunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi Informatika va energetika muammolari O‘zbekiston jurnali 4 son 2016 y., 68-72 b.*
5. *O.J.Babomuradov, O.X.Turakulov “Klassifkasiya masalalarni yechishda noravshan – to‘plamli yondoshuv orqali yechishning tizimli tahlili” Innovatsion g‘oyalar, texnologiya va loyihalarni ishlab chiqarishga tadbiq etish muammolari nomli IV-Resp.-konf.to‘plami, Jizzax, 11-12 may 2012 y., 92-94 b.*
6. *O.J.Babomuradov, N.S.Mamatov, L.B.Boboyev, B.I.Otaxonova, “Text documents classification in Uzbek language,” International journal of recent technology and engineering, vol. 8, no. 2, pp. 39-43, 2019.*

MATNLI MA'LUMOTLARGA DASTLABKI ISHLOV BERISH ALGORITMLARI

Turakulov O.X., Jalelov R.M.
"Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti"

Annotatsiya. *Maqolada matnli ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish jarayonining algoritmik asoslari tahlil qilinadi. Dastlab HTML teglar, to'xtash so'zlar, tinish belgilar va o'zaklash kabi usullar orqali matnni tozalash bosqichlari ko'rib chiqiladi. Matnni raqamli ifodalash uchun TF-IDF, so'zlar sumkasi modeli, vektor fazosi modeli kabi klassik usullar yoritilgan. Shuningdek, Word2Vec, CBOW va Skip-Gram kabi neyron tarmoqlarga asoslangan zamonaviy modellar bilan tanishtiriladi. Bu modellar yordamida matndagi semantik bog'liqlik va kontekst saqlanadi, bu esa matnni chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Maqolada algoritmlarning nazariy asoslari hamda ularning real sohalardagi qo'llanish imkoniyatlari ham yoritilgan.*
Kalit so'zlar: *Matnli ma'lumot, dastlabki ishlov, TF-IDF, so'zlar sumkasi modeli, vektor fazosi, Word2Vec, CBOW, Skip-Gram, semantika, normallashtirish, to'xtash so'zlar.*

Abstract. *The article analyzes the algorithmic foundations of the pre-processing of text data. First, the stages of text cleaning using methods such as HTML tags, stop words, punctuation marks, and kernelization are considered. Classical methods for numerical representation of text, such as TF-IDF, bag-of-words model, and vector space model, are covered. Modern models based on neural networks, such as Word2Vec, CBOW, and Skip-Gram, are also introduced. These models preserve the semantic connections and context in the text, which allows for in-depth analysis of the text. The article also covers the theoretical foundations of algorithms and their application in real areas.*
Keywords: *Text data, pre-processing, TF-IDF, bag-of-words model, vector space, Word2Vec, CBOW, Skip-Gram, semantics, normalization, stop words.*

Аннотация. *В статье анализируются алгоритмические основы процесса предварительной обработки текстовых данных. Сначала проверяются этапы очистки текста с использованием таких методов, как HTML-теги, стоп-слова, пунктуация и корневой анализ. Рассматриваются классические методы численного представления текста, такие как TF-IDF, модель «мешка слов» и модель векторного пространства. Также будут представлены современные модели на основе нейронных сетей, такие как Word2Vec, CBOW и Skip-Gram. Эти модели сохраняют смысловые связи и контекст в тексте, что позволяет проводить глубокий анализ текста. В статье также рассматриваются теоретические основы алгоритмов и их потенциальное применение в реальных приложениях.*
Ключевые слова: *текстовые данные, предварительная обработка, TF-IDF, модель «мешка слов», векторное пространство, Word2Vec, CBOW, Skip-Gram, семантика, нормализация, стоп-слова.*

Hozirgi kunda zamonaviy axborot muhitida matnli ma'lumotlar katta hajmda va turli ko'rinishlarda mavjud bo'lib, ular ko'pincha strukturalanmagan bo'ladi. Bunday ma'lumotlarni tahlil qilishdan oldin, ularni tozalash, normallashtirish va raqamli ifodaga keltirish zarur. Dastlabki ishlov berish bosqichi – bu matnni keyingi intellektual tahlil

jarayonlariga tayyorlash bosqichi bo‘lib, u orqali ma’lumotlarning aniqligi va sifati ta’minlanadi.

Matnli ma’lumotlar ko‘pincha yuqori darajada strukturalanmagan muhitda uchraydi va ko‘pincha odamlar ishtirokida yaratiladi. Ko‘p hollarda, veb-hujjatlar ichida matn *Hyper Text Markup Language* (HTML) teglar, xato yozishlar, noaniq so‘zlar ishtirok etgan bo‘ladi. Bundan tashqari, bitta veb-sahifada bir nechta bo‘limlar bo‘lishi mumkin, ularning aksariyati reklama yoki boshqa aloqador bo‘lmagan axborotlarni taqdim qilishi mumkin. Ushbu effektlarni tegishli ishlov berish bilan yaxshilash mumkin. Ishlov berishda keng tarqalgan usullar quyidagilar:

1. Platformaga asoslangan ajratish va o‘girish. Matn platformaga asoslangan kontentlarni o‘z ichiga olishi mumkin, masalan, HTML teglari. Bunday hujjatlarni platformaga asoslangan holda tozalash va o‘girish kerak. Matnni o‘girishda hujjatlardan individual bo‘laklar ajratib olinadi. Bo‘lak - bu qayta ishlash uchun bo‘linmas birlik sifatida ko‘rib chiqilgan matn tarkibidagi belgilar ketma-ketligi. Hujjatda bitta so‘zning har bir qayd etilishi alohida bo‘lak sifatida ko‘rib chiqiladi.

2. Bo‘laklarni qayta ishlash. Bo‘laklarga ajratilgan matnni to‘plamda ishlatiladigan atamalarga aylantirish uchun qayta ishlanadi. To‘plamda juda tez-tez uchraydigan “ammo”, “lekin” va “biroq” kabi so‘zlarni olib tashlash mumkin. Ushbu so‘zlar, odatda, ko‘plab intellektual tahlil dasturlari uchun ahamiyatsiz va ular faqat katta miqdordagi shovqinni hosil qiladi. Bunday so‘zlarga to‘xtash so‘zlari ham deyiladi. Umumiy predloglar, birikmalar va olmoshlar to‘xtash so‘zlari hisoblanadi. Umuman olganda, to‘xtatish so‘zlarining tilga oid lug‘atlari ko‘pincha mavjud. Bir xil o‘zakka ega bo‘lgan so‘zlar (masalan, turli xil zamondagi so‘z) birlashtirilishi uchun so‘zlar o‘zakka keltiriladi. Tinish belgilar va bosh harflar bilan bog‘liq muammolar hal qilindi. Shu nuqtada, individual so‘zlarning chastotalarini o‘z ichiga olgan ko‘p o‘lchovli vektor fazosini yaratish mumkin.

3. Normallashtirish. Yuqorida muhokama qilinganidek, analitik vazifalarda hamma so‘zlar bir xil ahamiyatga ega emas. To‘xtatish so‘zlari spektrning bir uchida juda tez-tez uchraydigan so‘zlarni anglatadi, ularni ko‘rib chiqish kerak emas. Qolgan so‘zlarning o‘zgaruvchan chastotalari haqida nima qilinadi? Aniqlanishicha, ularni korpusga xos bo‘lgan chastotalarga asoslangan holda hujjatdagi atama chastotalarini o‘zgartirish orqali ularni biroz boshqacha qilish mumkin. Ko‘proq korpusga xos bo‘lgan chastotalarga ega bo‘lgan atamalar kam og‘irliklarga ega. Ushbu uslub teskari hujjat chastotasini normallashtirish deb nomlanadi [78; 50-57-b., 79; 27-34-b.].

Dastlabki ishlov berish ko‘p o‘lchovli matritsa yaratadi. D bu $n \times d$ hujjat-atama matrisasi bo‘lsin. Hujjatlar soni n bilan belgilanadi va atamalar soni d bilan belgilanadi.

Birinchi qadam formatlanmagan matnni belgilar ketma-ketligiga aylantirishdan iborat. Matn ba’zida

binar formatlarda bo‘ladi, masalan, Microsoft Word yoki Adobe portable document (PDF) formatida uchraydi. Boshqacha qilib aytganda, baytlarni quyidagi omillar asosida belgilar ketma-ketligiga aylantirishimiz lozim:

1. Muayyan matnli hujjat Microsoft Word fayli, PDF formati yoki ZIP fayl kabi format turiga qarab ma’lum bir kodlash turida taqdim etilishi mumkin.

2. Hujjat tili uning belgilar to‘plamini va kodlashni belgilaydi.

Hujjat xitoy tili kabi ma’lum bir tilda yozilganda, u ingliz tilida yozilgan holatga qaraganda boshqa belgilar to‘plamidan foydalanadi. Ingliz va boshqa ko‘plab Yevropa tillari lotin belgilar to‘plamiga asoslangan. Ushbu belgilar to‘plamini ASCII (American Standard Code for Information Interchange) da oson ko‘rsatish mumkin. Hamma kodlash tizimlari hamma belgilar to‘plamlarini qamrab ololmaydi.

Unicode bu Unicode Consortium tomonidan yaratilgan standart kod. Unda har bir belgi unikal identifikator bilan ifodalanadi. Unicode-da turli tillardan bizga ma’lum bo‘lgan deyarli barcha belgilar taqdim etilishi mumkin. Shu sababli Unicode barcha tillarni namoyish qilish uchun standart to‘plam hisoblanadi. Unicode ning turli o‘lchamli ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, UTF-8 bir baytdan foydalanadi va ASCII uchun mos keladi, UTF-16 ikki baytda foydalanadi va ko‘p hollarda Osiyo tillari uchun mos keladi [85; 241-256-b., 86; 61-75-b.].

Matn ma’lumotlari uchun vektor fazosini shakllantirishda so‘zlar sumkasi modeli oilasiga tegishli modellar an’anaviy (sanash asosidagi) modellar deyiladi. Bunga termin chastotalari, TF-IDF (termin chastotasiga teskari hujjat chastotasi), N-gramm, mavzu modellari va boshqalar kiradi. Ular matndan belgilarni ajratib olishning samarali usullari bo‘lishiga qaramay, modelning o‘ziga xos xususiyati shunchaki tuzilmagan so‘zlar to‘plami bo‘lgani uchun, har bir matnli hujjatdagi yaqin so‘zlar atrofidagi semantika, tuzilish, ketma-ketlik va kontekst kabi qo‘shimcha ma’lumotlar yo‘qotiladi. Ushbu jihatlarga e’tibor qaratadigan yanada zamonaviy modellar mavjud va ularni ushbu bobning keyingi qismida ko‘rib chiqiladi. An’anaviy modellar matematik va statistik metodologiyalar yordamida qurilgan. Bu strukturalanmagan matn uchun eng oddiy vektor fazosini ifodalash modelidir.

Vektor fazosi modeli - bu sturukturalanmagan matnni (yoki boshqa har qanday ma’lumotlarni) raqamli vektorlar sifatida ifodalash uchun matematik model bo‘lib, vektorning har bir o‘lchami o‘ziga xos belgini ifodalaydi.

Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi foydalanuvchilarning xabarlari (yozishmalari) ko‘rinishida matnli ma’lumotlar tanlanmasi olingan bo‘lsin. Har i-xabar $X_i = (x_1, x_2, \dots, x_{n_i})$ kabi so‘zlar ketma-ketligida ifodalangan, bu yerda x_{n_i} – i-xabardagi so‘zlar soni. Avvalo, ijtimoiy tarmoqdagi matnlar tanlanmasida unikal so‘zlar lug‘ati L tuzib olingan bo‘lishi kerak. Shunda, $|L|$ – lug‘atdagi

unikal so‘zlar soni bo‘ladi. Shunday holatda, har bir i-xabarlarni sonli vektor ko‘rinishida ifodalash mumkin. Bunda $A_i$vektor $|L|$ o‘lchamda bo‘lib, undagi har bir A_{ij} komponent X_i xabardagi L lug‘atga mansub x_j so‘zlar soniga mos keladi. Shunday qilib, formal shaklda vektor $A_i = (A_{i1}, A_{i2}, \dots, A_{i|L|})$ ko‘rinishida ifodalanadi.

So‘zlar sumkasi modeli har bir matnli hujjatni raqamli vektor sifatida ifodalaydi, bu yerda har bir o‘lchov korpusning o‘ziga xos so‘zidir va qiymat hujjatdagi chastota, vujudga kelishi (1 yoki 0 bilan belgilanadi) yoki hatto o‘lchangan qiymatlar bo‘lishi mumkin. Modelning nomi shundan iboratki, har bir hujjat so‘zma-so‘z, tartib va grammatikani inobatga olmay, o‘z so‘zlari sumkasi sifatida taqdim etiladi [2; 97-108-b.].

Katta hajmli korpus bilan ishlaganda, “so‘zlar sumkasi” modeli bilan bog‘liq ba’zi muammolar bo‘lishi mumkin. Belgi vektorlari absolyut termin chastotalariga asoslanganligi sababli, barcha hujjatlar bo‘ylab tez-tez uchraydigan ba’zi atamalar bo‘lishi mumkin va ular xususiyatlar to‘plamidagi boshqa atamalarga soya qilishga moyil bo‘lishi mumkin. Ayniqsa tez-tez uchraydigan so‘zlar, ammo ma’lum toifalarni aniqlash uchun belgilar sifatida yanada qiziqarli va samarali bo‘lishi mumkin. Bunday holatda TF-IDF samarali bo‘ladi. TF-IDF bu termin chastotasiga teskari hujjat chastotasini anglatadi. Bu ikkita o‘lchov, termin chastota (tf)va teskari hujjat chastotasi (idf) kombinatsiyasi. Ushbu uslub dastlab foydalanuvchi so‘rovlari asosida qidiruv tizimlarini natijalarini reytinglashtirish sifatida ishlab chiqilgan va ma’lumot qidirish va matnni ajratib olishning bir qismi bo‘lgan.

(1.2.2)da *TF-IDF* mexanizmining matematik ifodasida d matnli hujjat va t so‘zlar (termlar) qaraladi, *TF*(term frequency) – t so‘zlarning d hujjatga mansubligining sonli munosabatini bildiradi, ya’ni:

$$TF(t,d) = \frac{d \text{ matnli hujjatda } t \text{ so‘zlar soni}}{d \text{ matnli hujjatdagi so‘zlar soni}}.$$

IDF(invers document frequence) – hujjatlar sonining t so‘zlar uchragan hujjatlar soniga munosabatining inversiyasidir:

$$IDF(t,D) = \log \frac{D \text{ korpusdagi hujjatlar soni}}{D \text{ korpusda } t \text{ so‘zlar uchragan hujjatlar soni}}.$$

Shunday qilib, (1.2.2) formulani parametrik ko‘rinishida quyidagicha

$$TF - IDF(t,d,D) = TF(t,d) \times IDF(t,D) \qquad (2.2.1)$$

matematik tavsiflanadi. Agar so‘zning *TF-IDF* qiymati qancha katta bo‘lsa, shu so‘z matnning kalit so‘zi hisoblanadi. Masalan, X hujjat (masalan, “Jizzax ovozi” gazetasida) matni uchun

TF-IDF (“Jizzax”, x) =0,09,
TF-IDF (“oila”, x)=0,16,
TF-IDF (“ayollar”, x)=0,21

baholardan “oila” va “ayollar” so‘zlari ko‘proq uchrashi kalit so‘zlar sifatida aniqlanadi.

Matnli ma’lumotlarda belgilar fazosini shakllantirishning an’anaviy modellari matndan belgilarni ajratib olishning samarali usullari bo‘lishiga qaramay, modelning o‘ziga xos xususiyati shunchaki

strukturalanmagan so‘zlar to‘plami bo‘lgani uchun, har bir matnli hujjatdagi yaqin so‘zlar atrofidagi semantika, tuzilish, ketma-ketlik va kontekst kabi qo‘shimcha ma’lumotlar yo‘qotiladi. Bu ushbu ma’lumotlarni to‘plash mumkin bo‘lgan va yanada keng tarqalgan joylashtirish deb nomlanuvchi so‘zlarni vektorli ifodalash xususiyatlarini beradigan yanada murakkab modellarni o‘rganish uchun yetarli asos bo‘ladi. Nutqni yoki tasvirni aniqlash tizimlarida barcha ma’lumotlar allaqachon audio spektr va tasvir piksellarining intensivligi kabi yuqori o‘lchovli ma’lumotlar to‘plamiga kiritilgan boy zich belgili vektorlar shaklida mavjud bo‘ladi. Shu bilan birga, boshlang‘ich matn ma’lumotlari, xususan, “So‘zlar sumkasi” kabi hisoblash modellari haqida gap ketganda, o‘zlarining identifikatorlariga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan va so‘zlar o‘rtasidagi semantik aloqani ushlab turmaydigan individual so‘zlar bilan ishlanadi. Bu matnli ma’lumotlar uchun siyrak so‘zli vektorlarni keltirib chiqaradi.

So‘zlar sumkasi modelining kamchiliklarini bartaraf etish uchun vektor fazoli modellardan foydalaniladi. Shunda so‘z vektorlarini shu uzluksiz vektor makoniga semantik va kontekst bo‘yicha o‘xshashlik asosida joylashtiriladi. Aslida, taqsimot semantikasi sohasidagi taqsimot gipotezasi bir xil kontekstda yuzaga keladigan va ishlatiladigan so‘zlar semantik jihatdan bir-biriga o‘xshash va o‘xshash ma’nolarga ega ekanligini aytadi. Oddiy so‘zlar bilan aytganda, “so‘zni o‘zi saqlab turgan kompaniya bilan tavsiflanadi”. Kontekstli so‘z vektorlari uchun ikkita asosiy usul mavjud. *Latent Semantical Analysis* (LSA) kabi hisoblash usullaridan korpusda qo‘shni so‘zlar bilan qo‘shilib kelgan so‘zlarning statistik o‘lchovlarini hisoblash va ushbu o‘lchovlardan har bir so‘z uchun zich so‘zli vektorlar yaratish uchun foydalanish mumkin. Neyron tarmoqqa asoslangan til modellari kabi bashoratli usullar qo‘shni so‘zlardan korpusdagi so‘zlar ketma-ketligiga qarab so‘zlarni bashorat qilishga harakat qilishdan iborat.

Word2Vec modeli. Ushbu model Google tomonidan 2013 yilda yaratilgan va kontekstual va semantik o‘xshashliklarga ega bo‘lgan so‘zlarning yuqori sifatli, taqsimlangan va uzluksiz zich vektorli ifodalarini hisoblash va yaratish uchun chuqur o‘rganishga asoslangan bashoratli model hisoblanadi. Aslida, bu katta matnli korpusni egallashi mumkin bo‘lgan so‘zlarning lug‘atini yaratadigan va ushbu lug‘atni ifodalovchi vektor fazosidagi har bir so‘z uchun zich so‘z birikmalarini yaratadigan modellar hisoblanadi. Odatda, so‘zni kiritish vektorlarining hajmini belgilash mumkin va vektorlarning umumiy soni asosan lug‘at hajmiga to‘g‘ri keladi. Bu zich vektor bo‘shlig‘ining o‘lchamliligini an’anaviy so‘zlar sumkasi modellaridan foydalangan holda qurilgan yuqori o‘lchamli siyrak vektor fazosidan ancha past qiladi. Ushbu so‘zlarni o‘z ichiga olgan joylashtirishlarni yaratish uchun Word2Vec yordamida ikkita turli xil

arxitektura mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

Continuous Bag of Words (CBoW) modeli. Continuous Bag of Words (CBoW) modeli tabiiy tillarni qayta ishlashda qollaniladigan neyron tarmoqqa asoslangan modeldir. So‘zlarni mustaqil ravishda ko‘rib chiqadigan “So‘zlar sumkasi” (BoW) modelidan farqli o‘laroq, CBOW modeli atrofdagi kontekst so‘zlari asosida maqsadli so‘zni bashorat qilish orqali so‘zlar kontekstini qamrab oladi. CBOW modeli manba kontekst so‘zlari asosida joriy maqsadli so‘zni bashorat qilishga qaratilgan. U kirish sifatida atrofdagi so‘zlarning oynasini oladi va oynaning markazida maqsadli so‘zni taxmin qilishni o‘rganadi. CBOW modelini katta matn korpusida o‘rgatish orqali u so‘zlar va ularning konteksti o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi, natijada semantik va sintaktik ma'lumotlarni kodlaydigan so‘z vektorlari paydo bo‘ladi. O‘rganilgan so‘z vektorlari matnni tasniflash, hissiyotlarni tahlil qilish va mashina tarjimasi kabi turli xil NLP vazifalari uchun xususiyat sifatida ishlatilishi mumkin.

Skip-Gram modeli. Skip-Gram - bu bir neyron tarmoq tushunchasi, ko‘p yoki ko‘p qatlamli so‘zlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash uchun ishlatiladigan algoritm. Bu model, so‘zlar orasidagi bog‘liqlikni aniqlashda yaxshi natijalarni ko‘rsatadi va ko‘p maqsadli so‘zlar orasidagi mantiqiy bog‘liqliklarni o‘rganishda yordam beradi. Skip-Gram modeli, so‘zlar orasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlash va bu bog‘liqliklarni o‘rganishda yaxshi natijalarni ko‘rsatadi. Bu model, muhim matnlar tahlilini osonlashtirish uchun keng qo‘llaniladi va ko‘p maqsadli so‘zlar orasidagi mantiqiy bog‘liqliklarni o‘rganishda yordam beradi.

Xulosa. Matnli ma’lumotlarga dastlabki ishlov berish – bu matnni tahlilga tayyorlashdagi muhim bosqich bo‘lib, u ma’lumot sifati va keyingi tahlil natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Klassik yondashuvlar, jumladan TF-IDF va so‘zlar sumkasi modellari matnni matematik jihatdan ifodalash imkonini bersa, zamonaviy neyron tarmoqlarga asoslangan modellar esa kontekst va semantikani saqlab qolish orqali yanada chuqur tahlilni amalga oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, matnli ma’lumotlarga dastlabki ishlov berishda algoritmlarning to‘g‘ri tanlanishi tahlilning aniqligi va samaradorligini oshiradi. Kelajakda bu sohada yanada optimallashtirilgan va kontekstga mos modellarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

7. A.I.Saleh, A.E.Abulwafa, and M.F.Al Rahmawy, “A web page distillation strategy for efficient focused crawling based on optimized Na{\"\i}ve bayes (ONB) classifier,” Applied Soft Computing, vol. 53, pp. 181–204, 2017.

8. Бабомурадов О.Ж., Қўйлиева Ф.А., Туракулов О.Х. “Clustering approaches to text documents” The scientific journal vehichles and roads, 2022 №1

Научный журнал транспортных средств и дорог, 2022 №1 2 НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ И ДОРОГ Издается с 2021 год 109-114б.

9. G.Karystianis, K.Thayer, M.Wolfe, and G.Tsafnat, "Evaluation of a rule-based method for epidemiological document classification towards the automation of systematic reviews," Journal of biomedical informatics, vol. 70, pp. 27–34, 2017.

10. O.J.Babomuradov., O.X.Turakulov "Matnni intellektual tahlillash yondashuvlari", O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi O'zbekiston respulikasi aloqa, axborotlashtirish va telekomunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi Informatika va energetika muammolari O'zbekiston jurnali 4 son 2016 y., 68-72 b.

11. O.J.Babomuradov., O.X.Turakulov "Matn belgilari o`lchovini qisqartirish hamda tabiiy til matnini tahlillash yondashuvi" Innovative Developments And Research In Education, International scientific-online conference, Part 24 December 23 rd colletions of scientific works Canada, 2023.,320-p.

12. *O.J.Babomuradov, N.S.Mamatov, L.B.Boboyev, B.I.Otaxonova, "Text documents classification in Uzbek language," International journal of recent technology and engineering, vol. 8, no. 2, pp. 39-43, 2019.*

ПОСТРОЕНИЕ ДЕРЕВА МЕРКЛА

Мухамедиева Д.К.
Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий

Annotatsiya. *Maqolada blokcheyn texnologiyasining muhim komponenti sifatida Merkle daraxtini qurish tamoyili muhokama qilinadi. Merkle daraxtini yaratish algoritmi, uning tranzaktsiyalarni tekshirish va blokcheyn tarmog'ining ishlashini optimallashtirishdagi roli tasvirlangan. Python-da blokcheynning minimal amalga oshirilishi, shu jumladan Merkle daraxtini yaratish va ko'rsatish funktsiyalari taqdim etilgan. Tranzaktsiyalarning blokga kiritilishini tekshirish va taqsimlangan tarmoqda ma'lumotlar yaxlitligini ta'minlash uchun ushbu yondashuvning samaradorligi ko'rsatilgan.*
Kalit so'zlar: *Blokcheyn, Merkle daraxti, xesh funktsiyasi, tranzaktsiyalar, ma'lumotlarni tekshirish, Python, genezis bloki, kriptografiya, taqsimlangan tizimlar.*

Abstract. *The article discusses the principle of constructing a Merkle tree as an important component of blockchain technology. The algorithm for creating a Merkle tree, its role in verifying transactions and optimizing the operation of a blockchain network are described. A minimal implementation of a blockchain in Python is presented with the inclusion of functions for creating and displaying a Merkle tree. The effectiveness of this approach for checking the inclusion of transactions in a block and ensuring data integrity in a distributed network is demonstrated.*
Keywords: *Blockchain, Merkle tree, hash function, transactions, data verification, Python, genesis block, cryptography, distributed systems.*

Аннотация. *В статье рассматривается принцип построения дерева Меркла как важного компонента блокчейн-технологии. Описан алгоритм создания дерева Меркла, его роль в верификации транзакций и оптимизации работы блокчейн-сети. Представлена минимальная реализация блокчейна на языке Python с включением функций для создания и отображения дерева Меркла. Продемонстрирована эффективность данного подхода для проверки включения транзакций в блок и обеспечения целостности данных в распределенной сети.*
Ключевые слова: *Блокчейн, дерево Меркла, хеш-функция, транзакции, верификация данных, Python, генезисный блок, криптография, распределенные системы.*

При помощи дерева Меркла можно легко убедится включена ли конкретная транзакция в данный блок, тем самым удешевляя данный процесс как технически, так и финансово, для пользователей самой сети. Так как каждый следующий блок транзакций ссылается на предыдущий то зная текущий блок можно с легкостью считать все транзакции с сети, продолжая следовать по цепочке блоков до самого первого, который называется – генезисный блок. Построение дерева Меркла показано на рисунке 1.




Рисунок 1. Дерево Меркла

Алгоритм построения дерева Меркла:

1. Вычисляются хеши каждой транзакции, находящийся в блоке: hash(L1), hash(L2) и т.д.
2. Вычисляются хеши от суммы хешей транзакций: hash(hash(L1) + hash(L2)). Число элементов на каждой итерации должно быть четным, так как дерево является бинарным. Если блок содержит нечетное количество транзакций, то последняя дублируется и складывается сама с собой;
3. Второй пункт происходит до тех пор, пока не будет высчитан единый хэш, который и является корнем дерева Меркла.

При помощи дерева Меркла можно легко убедится включена ли конкретная транзакция в данный блок, тем самым удешевляя данный процесс как технически, так и финансово, для пользователей самой сети. Так как каждый следующий блок транзакций ссылается на предыдущий то зная текущий блок можно с легкостью считать все транзакции с сети, продолжая следовать по цепочке блоков до самого первого, который называется – генезисный блок.

Создадим простую и минимальную блокчейн-реализацию на языке Pyton.

Результат:

Block #1 has been added to the blockchain!

Hash:
70f64d189467eb343a845db74a59d9c0053e609eb382500f8a5de761aa929284

Block #2 has been added to the blockchain!

Hash:
640b702913f50d5664757c96845ddb877bd167b50ca97d66c5b20b4f3654e46a

Block #3 has been added to the blockchain!

Hash:
03ef6369a807716b5ea419961bbe6f3c00ffb02c2a76744afda06780f17b3a62

Block #4 has been added to the blockchain!

Hash:
cd4036a2578e699a8e827c6573f30c9cc555e852019af59884c577871eac3b4d

Block #5 has been added to the blockchain!

Hash:
d6430d1034046e1ce220410bb9fff8dafdfd7b3c98ffe285ef5dcc5bef43c1a6


Этот код создает простую цепочку блоков. Важные моменты:

Block представляет собой блок в цепочке.


calculate_hash генерирует хэш блока на основе его данных.

create_genesis_block создает первый блок (генезис) в цепочке.

create_new_block создает новый блок на основе предыдущего блока и новых данных.



Все транзакции в дереве Меркла



После обрезки Тр.0-2 из Блока 1

Этот код добавляет функцию merkle_tree для создания дерева Меркле и display_merkle_tree для отображения информации о дереве Меркле в текстовом поле GUI. При добавлении нового блока в блокчейн, дерево Меркле обновляется, и вывод в GUI также обновляется.

Список использованной литературы:

1.Crosby, M., Pattanayak, P., Verma, S., & Kalyanaraman, V. (2016). Blockchain technology: Beyond bitcoin. Applied Innovation Review, 2, 6–10.

2.Mougayar, W. (2016). The Business Blockchain: Promise, Practice, and the Application of the Next Internet Technology. Wiley.

3.Zhang, R., & Xue, R. (2019). Security and Privacy on Blockchain. ACM Computing Surveys, 52(3), Article 51.

IJTIMOIY TIZIMLARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH

Mamatov N.S.[1], Nuritdinov N.D.[1], Almuradova N.A.[2]
[1]"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizasiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti
[2]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Annotatsiya. *Maqolada ijtimoiy tizimlarda raqamli transformatsiya jarayonlarini modellashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Murakkab ijtimoiy tizimlarni tahlil qilish va boshqarishda IDEF metodologiyasi, xususan IDEF0 va IDEF1X modellarining samarali qo'llanilishi asoslangan. Modellashtirish jarayonida tizimlarning funksional tuzilmasi, jarayonlar va ma'lumotlar orasidagi bog'liqliklar hamda ularni vizual ifodalash usullari tahlil qilingan. Ijtimoiy himoya tizimi misolida IDEF modellarining amaliy tadbiq etilishi ko'rsatilgan.*
Kalit so'zlar: *Raqamli transformatsiya, ijtimoiy tizimlar, modellashtirish, IDEF metodologiyasi, IDEF0, IDEF1X, simulyatsion modellar, ma'lumotlar bazasi, funksional tahlil, jarayonlarni optimalllashtirish.*

Abstract. *The article considers the issues of modeling digital transformation processes in social systems. The analysis and management of complex social systems is based on the effective use of the IDEF methodology, in particular the IDEF0 and IDEF1X models. In the modeling process, the functional structure of systems, the relationships between processes and data, and methods of their visual representation are analyzed. The practical application of IDEF models is shown on the example of the social protection system.*
Keywords: *Digital transformation, social systems, modeling, IDEF methodology, IDEF0, IDEF1X, simulation models, database, functional analysis, process optimization.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы моделирования процессов цифровой трансформации социальных систем. Анализ и управление сложными социальными системами основаны на методологии IDEF, в частности на эффективном применении моделей IDEF0 и IDEF1X. В процессе моделирования анализировались функциональная структура систем, взаимосвязи между процессами и данными, а также способы их визуального представления. Практическое применение моделей IDEF демонстрируется на примере системы социальной защиты.*
Ключевые слова: *Цифровая трансформация, социальные системы, моделирование, методология IDEF, IDEF0, IDEF1X, имитационные модели, база данных, функциональный анализ, оптимизация процессов.*

Bugungi kunda sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy himoya, bandlik kabi ijtimoiy tizimlar murakkab tuzilishga ega bo'lib, ularning tahlili va samarali boshqaruvi zamonaviy modellashtirish yondashuvlarini talab etmoqda. Ushbu tizimlar ko'p darajali, o'zaro bog'langan elementlar majmuasidan tashkil topganligi sababli, raqamlashtirish sharoitida ularni optimallashtirish uchun tizimli va funksional yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda mavjud bo'lgan bir nechta modellashtirish

metodologiyalari, jumladan, IDEF (Integration DEFinition), BPMN, UML, SSM, System Dynamics, ABM va Petri tarmoqlari orasida aynan IDEF modellari ijtimoiy tizimlar funksional tahlilini amalga oshirishda qulay vosita sifatida ajralib turadi [1].


Simulyatsion modellarni yaratish jarayonida IDEF metodologiyasini har xil turlari o‘zaro bog‘liq ravishda qo‘llaniladi. Jumladan, IDEF0 funksiyalarni modellashtirish, IDEF3 esa jarayonlarni modellashtirish uchun xizmat qiladi [2]. Ushbu modellashtirish asosida IDEF1X yondashuvi yordamida umumiy ma’lumotlar modeli ishlab chiqiladi. Natijada, qayta foydalanish mumkin bo‘lgan ma’lumotlar modelidan relyatsion ma’lumotlar bazasi asosida bir nechta simulyatsion modellarni avtomatik yaratish imkoniyati vujudga keladi. Bu integrallashgan yondashuv, ya’ni tavsiflovchi IDEF modellarini relyatsion ma’lumotlar bazasi texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish simulyatsiya loyihasini barcha bosqichlarida, jumladan, talablardan foydalanish va tajriba bosqichlarida tizim bilimini chuqur ifodalash, modellarni qayta ishlatish va texnik xizmat ko‘rsatishni soddalashtirish orqali sezilarli samaradorlikni ta’minlaydi. Amaliy tadqiqotlar natijalari ushbu yondashuvni simulyatsiya loyihalari sifatini oshirishga va jarayonlarni optimallashtirishga xizmat qilayotganini ko‘rsatdi. Bundan tashqari, ushbu metodologik yondashuvni ma’lumotlardan ajratilgan mantiq asosida tashkil etish orqali boshqa analitik modellarni ishlab chiqishda ham samarali qo‘llash mumkinligi aniqlangan [3].

IDEF modellarini asosiy ustunligi tizimdagi funksiyalar va ularni o‘zaro aloqalarini vizual tarzda ifodalash imkoniyatidir. Ayniqsa, IDEF0 modeli tizim ichidagi jarayonlarni kirish (input), chiqish (output), boshqaruv (control) va resurs (mechanism) elementlari orqali aniqlab, ularni o‘zaro bog‘liqligini samarali tarzda aks ettirishga yordam beradi [4].

IDEF0 modelini asosiy yutuqlari quyidagilardan iborat:


- Jarayonlar va funksiyalarni aniq va tushunarli modellashtirish;
- Tashkiliy tuzilmalar va resurslar o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash;
- Katta tizimlarni bosqichma-bosqich tahlil qilish imkoniyati;
- Vizual interfeys orqali mutaxassis bo'lmagan foydalanuvchilarga ham tushunarli bo'lishi.

Mazkur ishda taklif etilgan yondashuv doirasida ijtimoiy himoya tizimini modellashtirish uchun IDEF metodologiyasini IDEF0 va IDEF1X turlaridan alohida foydalanilgan. Har bir model tizimni muayyan jihatlarini aks ettirish va tushuntirishda o‘ziga xos rol o‘ynaydi hamda tizimni turli darajadagi murakkabliklarini izohlash imkonini beradi. Jumladan, IDEF0 modeli tizimning funksional tuzilmasini aniqlash va tavsiflashda qo‘llaniladi. (1-rasm).



1-rasm. STT va TTS modeli.

IDEF1X modeli bo‘yicha diagramma (2-rasm).



2-rasm. IDEF1X modeli.

Xulosa qilib aytganda, IDEF0 va IDEF1X modellarining uyg‘un qo‘llanilishi ijtimoiy tizimlarni kompleks tahlil qilish va modellashtirishda samarali yondashuv hisoblanadi. IDEF0 yordamida tizim funksiyalari va ularning o‘zaro aloqalari aniq ko‘rinishda ifodalanadi, IDEF1X esa ma’lumotlar bazasi tuzilmasini optimallashtirishga xizmat qiladi. Amaliy natijalar ushbu modellar asosida qurilgan arxitektura ijtimoiy himoya tizimini yanada samarali loyihalash imkonini berishini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. *Mayer, R., Benjamin, P., Menzel, C., Fillion, F., Dewitte, P., Futrell, M., & Lingineni, M. (1994). IDEF5 ontology capture method report. Wright-Patterson AFB, Ohio, AL/HRGA.*
2. *Aaron B. Frank, Marek N. Posard va boshqalar, An Exploratory Examination of Agent-Based Modeling for the Study of Social Movements, Published Aug 16, 2022*
3. *Menzel, C., Mayer, R.J. (1998). The IDEF Family of Languages. In: Bernus, P., Mertins, K., Schmidt, G. (eds) Handbook on Architectures of Information Systems. International Handbooks on Information Systems. Springer, Berlin, Heidelberg. https://doi.org/10.1007/978-3-662-03526-9_10*
4. *O I Krivorotko, S I Kabanikhin, M A Bektemesov, M I Sosnovskaya , A V Neverov, Simulation of COVID-19 Spread Scenarios in the Republic of Kazakhstan Based on Regularization of the Agent-Based Model, J. Appl. Ind. Math. 2023 May 15;17(1):94–109. doi: 10.1134/S1990478923010118*

OB-HAVO OMILLARINING YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARIGA TA'SIRINING SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAHLILI

Kabildjanov A.S., Pulatov G'.G.
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ob-havo omillarining yurak-qon tomir kasalliklariga ta'sirini sun'iy intellekt asosida tahlil qilish masalalari tadqiq etilgan. Harorat, bosim, namlik, shamol tezligi va geomagnit bo'ronlar kabi ob-havo omillarining ishemiya, aritmiya va gipertoniya kabi yurak-qon tomir kasalliklariga kompleks ta'siri o'rganilgan. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan MLP, GRU, LSTM va ANFIS modellariga asoslangan yondashuv taklif etilgan. Tadqiqot natijalari yurak-qon tomir tizimining ob-havo omillariga sezgirligini va kasallik xavfini bashorat qilishda sun'iy intellekt modellarining yuqori aniqlikda ishlashini ko'rsatgan.*
Kalit so'zlar: *Yurak-qon tomir kasalliklari, ob-havo omillari, sun'iy intellekt, chuqur o'qitish, MLP, GRU, LSTM, ANFIS, bashoratlash, geomagnit faollik, iqlim o'zgarishlari, ishemiya, aritmiya, gipertoniya.*

Abstract. *This article studies the issues of analyzing the impact of weather factors on cardiovascular diseases based on artificial intelligence. The complex impact of weather factors such as temperature, pressure, humidity, wind speed and geomagnetic storms on cardiovascular diseases such as ischemia, arrhythmia and hypertension is studied. An approach based on artificial intelligence technologies MLP, GRU, LSTM and ANFIS models is proposed. The results of the study showed that artificial intelligence models work with high accuracy in predicting the sensitivity of the cardiovascular system to weather factors and the risk of disease.*
Keywords: *Cardiovascular diseases, weather factors, artificial intelligence, deep learning, MLP, GRU, LSTM, ANFIS, prediction, geomagnetic activity, climate change, ischemia, arrhythmia, hypertension.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы анализа влияния погодных факторов на сердечно-сосудистые заболевания на основе искусственного интеллекта. Изучено комплексное воздействие погодных факторов, таких как температура, давление, влажность, скорость ветра и геомагнитные бури, на сердечно-сосудистые заболевания, такие как ишемия, аритмия и гипертония. Предлагается подход, основанный на моделях MLP, GRU, LSTM и ANFIS из технологий искусственного интеллекта. Результаты исследования показали, что модели искусственного интеллекта с высокой точностью прогнозируют чувствительность сердечно-сосудистой системы к погодным факторам и риск заболеваний.*
Ключевые слова: *Сердечно-сосудистые заболевания, погодные факторы, искусственный интеллект, глубокое обучение, MLP, GRU, LSTM, ANFIS, прогнозирование, геомагнитная активность, изменение климата, ишемия, аритмия, гипертония.*

Kirish. Yurak-qon tomir kasalliklari global miqyosda o'lim darajasining yetakchi sabablaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda iqlim o'zgarishlari, urbanizatsiya va geomagnit faollik kabi tashqi omillar inson salomatligiga, ayniqsa yurak faoliyatiga kuchli ta'siri ilmiy doiralarda dolzarb mavzuga aylangan. Jumladan, ishemiya, artimiya, gipertoniya kabi yurak-qon tizimi kasalliklari ob-havo sharoitining

o‘zgaruvchanligiga sezgir bo‘lib, ularning xavfi odatda harorat, bosim, namlik, shamol tezligi, magnit bo‘ronlar kabi omillar bilan bog‘liq holda ortadi[1-2]. Shunga mos ravishda mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar soni ham ortib bormoqda. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida yurak-qon tomir salomatligi bilan ob-havo omillari o‘rtasidagi bog‘liqlik zamonaviy hisoblash texnologiyalari chuqur o‘qitish asosidagi modellar orqali tahlil qilinmoqda. Tahlil qilingan maqolalar chuqur o‘qitish va vaqt qatori modellari yordamida yurak kasalliklarini tashqi muhit omillariga munosabatini aniqlashga qaratilgan.

Keltirilgan ilmiy manbalar bir necha umumiy xulosalarni ilgari suradi:

1. Ob-havo yurak salomatligiga bevosita ta’sir qiladi;
2. Ekstremal harorat holatlarida yurak xurujlari xavfi oshadi;
3. Chuqur o‘qitish modellari bashoratlashda an’anaviy statistik usullardan yuqori aniqlik ko‘rsatadi[3-8].

Shunga qaramay, mavjud adabiyotlarda har bir omil va har bir kasallik asosan alohida-alohida o‘rganilgan bo‘lib, ularni kompleks ko‘rinishda tahlil qilgan ishlanmalar yetarli emas. Shu bois, mazkur ishda ilgari chop etilgan maqolalar tahlil qilinib, ulardagi yondashuvlar, natijalar va metodologik asoslar solishtirilgan. Bu tahlillar asosida ishda aynan harorat, bosim, namlik, shamol, va geomagnit bo‘ronlar kabi omillar birgalikda olingan bo‘lib, ular orqali ishemiya, aritmiya va gipertoniyani kabi yurak-qon kasalliklarini MLP, GRU, LSTM va ANFIS modellaridan foydalangan holda bashoratlash amalga oshirilgan.

Tahlil qilingan ilmiy maqolalar bilan mazkur tadqiqotni asosiy farqi ko‘pchilik ishlarda yurak-qon kasalliklari bilan ob-havo omillari orasidagi bog‘liqlik alohida omillar yoki kasallik turlari kesimida o‘rganilgan. 1-jadvalga ko‘ra, maqolalarni aksariyatida faqat harorat, bosim yoki havo namligi kabi parametrlarni yurak xurujlari, ishimiya yoki gipertoniya bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqilgan.

1-jadval

Tahlil natijalari

№	Manba	t°	Namlik	Bosim	Magnit bo‘ron	Shamol	Ishimiya	Artimiya	Gipertaniya
1	Mazkur	+	+	+	+	+	+	+	+
2	[3]	+	+	+		+			+
3	[4]	+	+	+			+		
4	[5]	+					+		+
5	[6]	+					+	+	
6	[7]	+	+	+		+	+		+

Yurak-qon tomir tizimi va ob-havo hamda ekologik omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish zamonaviy tibbiyotda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mavjud ilmiy adabiyotlarda bu munosabat alohida kasalliklar (ishemiya, aritmiya, gipertoniya) yoki yakka omillar (harorat, bosim va boshqalar) kesimida tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotda esa mavjud bo‘lgan yondashuvlar kengaytirilib, harorat, atmosfer bosimi, namlik, shamol tezligi va geomagnit faollik kabi ob-havo omillari birgalikda tahlil qilindi hamda ularning yurak-qon tomir kasalliklariga kompleks ta’siri o‘rganildi. Tadqiqotda sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan MLP, GRU, LSTM va ANFIS modellaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, yurak-qon tomir tizimi ob-havo omillariga sezgir bo‘lib, bu omillar yordamida kasallik xavfini bashorat qilishda sun’iy intellekt modellarining qo‘llanilishi yuqori aniqlik va ishonchlilikni ta’minlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. *Sabitovich, K. A., Pulatov, G., & Qizi, P. G. A. (2024). Ob-havo sharoitlarining yurak-qon tomir kasalliklariga ta'sirini aniqlashning analitik taxlili. Al-Farg’oniy avlodlari, (2), 296-300.*
2. *Кабилджанов, А., Пулатов, Г., & Пулатова, Г. (2023). Bashoratlash usul va algoritmlari. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 124-126.*
3. *Zhang, X., et al. (2024). Time Series Analysis of the Impact of Meteorological Conditions and Air Quality on the Number of Medical Visits for Hypertension in Haikou City, China. Frontiers in Public Health.*
4. *Ohashi, Y., et al. (2023). Machine Learning Analysis and Future Risk Prediction of Weather-Sensitive Cardiovascular Disease Mortality During Summer in Tokyo, Japan. Scientific Reports.*
5. *Helsper, M., et al. (2021). The Subarachnoid Hemorrhage–Weather Myth: A Long-Term Big Data and Deep Learning Analysis. Frontiers in Neurology.*
6. *Zirbo, S.G.V., et al. (2024). Predicting Health Outcomes Using Weather Data: A Dual Machine Learning Approach. Procedia Computer Science.*
7. *Hsiao, H.C.W., et al. (2016). Deep Learning for Risk Analysis of Specific Cardiovascular Diseases Using Environmental Data and Outpatient Records.*

KAFT TASVIRI ASOSIDA SHAXSNI TANIB OLISH YONDASHUVLARI TAHLILI

Mamatov N.S., Kodirov E.S.
“Toshkent irrigasiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti

Annotatsiya. *Maqolada kaft tasviri asosida shaxsni tanib olish yondashuvlarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Biometrik identifikatsiyaning ushbu usuli bo'yicha chiziqlarga, teksturaga, geometriyaga, statistik metodlarga, chuqur o'qitishga asoslangan va gibrid yondashuvlar tavsiflangan. Har bir yondashuv uchun foydalanilgan metodlar, ma'lumotlar bazalari va erishilgan natijalar keltirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, chuqur o'qitish va gibrid yondashuvlar yuqori aniqlik ko'rsatganligi aniqlangan. Tizimlarning samaradorligi teng xatolik darajasi (EER) va aniqlik ko'rsatkichlari orqali baholangan.*
Kalit so’zlar: *Biometrik identifikatsiya, kaft tasviri, shaxsni tanib olish, chiziqlarga asoslangan yondashuvlar, teksturaga asoslangan yondashuvlar, geometriyaga asoslangan yondashuvlar, statistik yondashuvlar, chuqur o'qitish, gibrid yondashuvlar, teng xatolik darajasi (EER).*

Abstract. *The article presents a comparative analysis of palm-based identity recognition approaches. This method of biometric identification is characterized by line-based, texture-based, geometry-based, statistical methods, deep learning, and hybrid approaches. The methods, databases, and results obtained for each approach are presented. According to the analysis results, it was found that deep learning and hybrid approaches showed high accuracy. The effectiveness of the systems was assessed by the equivalent error rate (EER) and accuracy indicators.*
Keywords: *Biometric identification, palm-based identity recognition, line-based approaches, texture-based approaches, geometry-based approaches, statistical approaches, deep learning, hybrid approaches, equivalent error rate (EER).*

Аннотация. *В статье представлен сравнительный анализ подходов к распознаванию личности по ладони. Этот метод биометрической идентификации описывает подходы, основанные на линиях, текстурах, геометрии, статистических методах, глубоком обучении и гибридных подходах. Для каждого подхода представлены использованные методы, базы данных и достигнутые результаты. По результатам анализа установлено, что глубокое обучение и гибридные подходы показали высокую точность. Производительность систем оценивалась с помощью показателей эквивалентной частоты ошибок (EER) и точности.*
Ключевые слова: *Биометрическая идентификация, изображение ладони, распознавание лиц, подходы на основе линий, подходы на основе текстур, подходы на основе геометрии, статистические подходы, глубокое обучение, гибридные подходы, равный уровень ошибок (EER).*

Shaxsni aniq va ishonchli identifikatsiyalash zamonaviy jamiyatda xavfsizlikni ta’minlash, resurslardan foydalanishni nazorat qilish va ko‘plab boshqa sohalarda muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy identifikatsiya usullarida parollar va kartalarni yo‘qotilishi, o‘g‘irlanishi yoki unutilishi mumkinligi sababli biometrik texnologiyalarga bo‘lgan qiziqish

tobora ortmoqda. Biometrik texnologiyalar shaxsni barmoq izi, ko‘z qorachig‘i, yuzi, kaft izi kabi noyob fiziologik xususiyatlariga asoslanadi. Bugungi kunda kaft tasviri asosida shaxsni tanib olish muammosini hal qilish uchun ko‘plab yondashuvlar taklif etilgan. Ularni shartli ravishda quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

Chiziqlarga asoslangan yondashuvlar. Kaftdagi asosiy chiziqlar va mayda ajinlar kabi chiziqli strukturalarni aniqlash, vektorlashtirish va moslikni aniqlashga asoslanadi [1]. Qirra aniqlash operatorlari va kodlash usullari qo'llaniladi.

Teksturaga asoslangan yondashuvlar. Kaft yuzasi teksturasini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, lokal piksel intensivliklari munosabatlarini yoki chastota/yo'nalishlarini LBP, Gabor filtrlari [2], SIFT kabi deskriptorlar bilan kodlashga asoslanadi.

Geometriyaga asoslangan yondashuvlar. Kaftni umumiy konturidan yoki belgilangan nuqtalaridan kenglik, uzunlik, masofa, burchak kabi geometrik o'lchamlarni hisoblash va ularni belgilar vektori sifatida foydalanishga tayanadi [3].

Statistik yondashuvlar. Tasvirni ko'p o'lchovli vektor sifatida qarab, ma'lumotlardagi korrelyatsiyani (LDA) [4] yoki sinflararo farqni maksimallashtirish orqali belgilar fazosi o'lchamini kamaytirishga intiladi.

Chuqur o'qitishga asoslangan yondashuvlar. So'nggi yillarda dominant bo'lgan bu yondashuvlar, xususan o‘ramli neyron tarmoqlari [5], ko'p qatlamli tarmoq yordamida tasvirni xom piksellaridan murakkab belgilargacha avtomatik o'rganishga asoslanadi.

Gibrid yondashuvlar. Yuqori aniqlik va mustahkamlikka erishish uchun ikki yoki undan ortiq turdagi belgilarni yoki yondashuv natijalarini birlashtiradi.

Yuqorida keltirilib o‘tilgan yondashuvlarni qayd etgan natijalari umumlashtirilgan holda quyidagi jadvalda batafsil keltirilgan.

1-Jadval

Kaft tasviri asosida shaxsni tanib olish yondashuvlarining qiyosiy tahlili

Yondashuv Kategoriyasi	Avtorlar/Muhim Tadqiqotchilar	Yondashuvda foydalanilgan metodlar	Ma'lumotlar bazalari	Natijalar (EER*/Aniqlik %)
Chiziqlarga asoslangan	D. Zhang, W.K. Kong, A. Kumar, J. You	Asosiy chiziqlarni ajratish, ajinlar tahlili	PolyU, CASIA-Palmprint	EER: ≈ 1-5% / Acc ≈ 95-99%
Teksturaga asoslangan	T. Ojala (LBP), J. Daugman (Gabor), D. Lowe (SIFT)	Local Binary Patterns, Gabor filtrlari, Ordinal Features, SIFT, SURF, RootSIFT	PolyU, IITD, CASIA-Palmprint	EER: 0.1% / Acc ≈ 99.9%
Geometriyaga asoslangan	A. K. Jain, A. Ross	Kaft shakli belgilari, asosiy nuqtalar orasidagi masofalar	Maxsus yoki PolyU bilan birga	EER: ≈ 3-10% / Acc ≈ 90-97%
Statistik	M. Turk, A. Pentland (PCA); P. Belhumeur (LDA)	Principal Component Analysi, Linear Discriminant Analysis, ICA	PolyU, CASIA	EER: ≈ 1-4% / Acc ≈ 96-99%
Chuqur o‘qitish asosida	Y. LeCun, G. Hinton	CNN: VGG, ResNet, DenseNet, PalmNet, Autoencoders	PolyU, Tongji, IITD, CASIA	EER: 0.01% / Acc > 99.9% (ba'zi datasetlarda)
Gibrid	D. Han, Z. Guo	Belgilarni birlashtirish Chiziq+Tekstura, CNN+LBP, va hk.]	PolyU, CASIA, IITD	EER: 0.1% / Acc > 99.9% (eng yaxshi natijalar)

EER (Equal Error Rate) – Teng xatolik darajasi (qancha past bo‘lsa, shuncha yaxshi). Acc (Accuracy) - Aniqlik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Zhang, D., Kong, W. K., You, J., & Wong, M. (2003). Online palmprint identification. IEEE Transactions on pattern analysis and machine intelligence, 25(9), 1041-1050.*
2. *Daugman, J. G. (1985). Uncertainty relation for resolution in space, spatial frequency, and orientation optimized by two-dimensional visual cortical filters. Journal of the Optical Society of America A, 2(7), 1160-1169. (Gabor filtrlari prinsipi)*
3. *Jain, A. K., Flynn, P. J., & Ross, A. A. (Eds.). (2007). Handbook of biometrics. Springer Science & Business Media. (Hand Geometry bo'limi)*
4. *Belhumeur, P. N., Hespanha, J. P., & Kriegman, D. J. (1997). Eigenfaces vs. fisherfaces: Recognition using class specific linear projection. IEEE Transactions on pattern analysis and machine intelligence, 19(7), 711-720. (LDA prinsipi)*
5. *LeCun, Y., Bengio, Y., & Hinton, G. (2015). Deep learning. Nature, 521(7553), 436-444.*

MAHALLIY ISHLAB CHIQARUVCHILARNING XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUVI – IMKONIYATLAR, YUTUQLAR VA BARQAROR STRATEGIK YECHIMLAR

Raximov I.M.
Texnik jihatdan tartibga solish agentligi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistonda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro standartlar, xususan ISO 9001:2015 tizimiga moslashuvi tahlil qilingan. Tadqiqotda TQM, PDCA, SWOT kabi yondashuvlar asosida amaliy va nazariy tahlil o‘tkazilib, mavjud yutuqlar, imkoniyatlar hamda strategik yechimlar aniqlangan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ISO tizimining chuqur integratsiyasi sifat, eksport va boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim omilga aylanmoqda. Muallif samarali moslashuv uchun raqamli texnologiyalar, sifat madaniyati va xalqaro hamkorlikni kengaytirish yo‘nalishlarini ilgari suradi.*

Kalit so’zlar: *ISO 9001:2015, sifat menejmenti, mahalliy ishlab chiqaruvchilar, raqobatbardoshlik, TQM, SWOT, strategik boshqaruv, eksport, integratsiya, texnologik moslashuv.*

Abstract. *This article analyzes the adaptation process of local manufacturers in Uzbekistan to international standards, particularly the ISO 9001:2015 quality management system. Using TQM, PDCA, and SWOT approaches, the study identifies current achievements, opportunities, and sustainable strategic solutions. Findings indicate that deep integration of the ISO system significantly enhances quality, export capacity, and managerial efficiency. The author emphasizes the importance of digital technologies, quality culture, and international cooperation in facilitating effective adaptation.*

Keywords: *ISO 9001:2015, quality management, local manufacturers, competitiveness, TQM, SWOT, strategic management, export, integration, technological adaptation.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается процесс адаптации местных производителей Узбекистана к международным стандартам, в частности к системе менеджмента качества ISO 9001:2015. На основе подходов TQM, PDCA и SWOT проведён теоретико-практический анализ, выявлены достижения, возможности и устойчивые стратегические решения. Результаты показывают, что глубокая интеграция ISO способствует повышению качества, экспортного потенциала и эффективности управления. Автор предлагает расширить цифровые технологии, культуру качества и международное сотрудничество для повышения адаптационного потенциала.*

Ключевые слова: *ISO 9001:2015, управление качеством, местные производители, конкурентоспособность, TQM, SWOT, стратегическое управление, экспорт, интеграция, технологическая адаптация.*

Kirish

Zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni ta’minlash, mahsulot va xizmat sifati ustuvorligini qaror toptirish, shuningdek, xalqaro bozorlar bilan samarali integratsiyalashish har qanday mamlakatning strategik maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish sektorida bu maqsadlarga erishish ko‘p jihatdan tashkilotlarning xalqaro standartlarga, xususan ISO 9001:2015 sifat menejmenti tizimiga qanchalik samarali moslashganiga bog‘liq. Ushbu

tizim sifatni faqat nazorat qilish emas, balki uni jarayonlar asosida boshqarish, takomillashtirish va strategik qarorlar bilan uyg‘unlashtirish vositasi sifatida qaralmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun xalqaro standartlarga moslashuv mahsulotlar eksport salohiyatini oshirish, xorijiy bozorlar bilan ishonchli aloqalarni yo‘lga qo‘yish, ichki boshqaruv tizimlarini takomillashtirish va korxona samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. ISO 9001:2015 tizimining mohiyati — tashkilot faoliyatida sifat madaniyatini shakllantirish, iste’molchi ehtiyojiga yo‘naltirilgan yondashuvni qaror toptirish va doimiy takomillashtirish mexanizmini joriy etishdan iborat.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro standartlarga moslashuvi borasida qator ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Jumladan, korxonalarda ISO 9001 tizimining joriy qilinishi, mahsulot sifatining oshishi, eksport geografiyasining kengayishi va sifatni strategik ustuvorlik sifatida e’tirof etish holatlari tobora ortmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon hali to‘liq yakunlangan emas: texnik malaka, sifat menejmenti vositalaridan foydalanish, tashkilot ichki imkoniyatlarini safarbar etish bo‘yicha bir qator takomillashtirish choralarini talab qiladi.

Ushbu tadqiqot ana shunday dolzarb sharoitda amalga oshirilib, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro standartlarga moslashuv jarayonini ilmiy asosda tahlil qilish, mavjud yutuq va imkoniyatlarni aniqlash, mavjud cheklovlarni baholash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha strategik takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

Maqolaning dolzarbligi O‘zbekistonning jahon iqtisodiy makoniga faol integratsiyasi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning sifatni raqobat vositasi sifatida qaror toptirish zarurati bilan bevosita bog‘liq. Mazkur izlanish bu ehtiyojga ilmiy va amaliy javob bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi

Xalqaro standartlarga moslashuv — rivojlanayotgan mamlakatlar ishlab chiqarish sektorida raqobatbardoshlik, sifat barqarorligi va eksport salohiyatini oshirishning muhim strategik vositasi sifatida baholanmoqda. Ayniqsa, ISO 9001:2015 sifat menejmenti tizimi xalqaro darajada tan olingan va keng tarqalgan standart bo‘lib, tashkilot ichidagi jarayonlarni samarali boshqarish, risklarni aniqlash hamda mijoz ehtiyojlariga mos mahsulot yaratish uchun zarur metodologik asoslarni taqdim etadi [1].

Graeme Knowles tomonidan ilgari surilgan TQM modeli ISO tizimining amaliy aspektlarini chuqurlashtiradi. U sifat madaniyati, xodimlar ishtiroki va rahbariyatning yetakchi roli orqali sifatni tashkilotning barcha darajalarida shakllantirishni ta’minlaydi [2]. Bu qarash Juran tomonidan taklif etilgan “Sifat uchligi” bilan uyg‘unlashadi. Unga ko‘ra, sifatni rejalashtirish, nazorat qilish va takomillashtirish jarayonlari bir butun

sifat menejment tizimini tashkil qiladi [3].

Xalqaro tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, ISO tizimining muvaffaqiyatli joriy qilinishi faqat texnik talablarni bajarish bilan emas, balki tashkilot strategiyasiga chuqur integratsiyalashgan holatda amalga oshirilganida yuqori natijalar beradi. Crosbyning “Quality is Free” tamoyili sifatni boshqarishdagi xarajatlar emas, balki investitsiya sifatida qaralishini taklif etadi [4], bu yondashuv ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va daromadni oshirish vositasi sifatida ko‘riladi.

Hudson va Orviska [5] xalqaro standartlarni joriy qilishning barcha firmalar uchun bir xil darajada samarali bo‘lmasligini ta’kidlab, moslashuvning firmaviy kontekstga bog‘liqligini asoslaydi. Ularning tadqiqotlari, ayniqsa kichik va o‘rta korxonalar uchun soddalashtirilgan yondashuv zarurligini ko‘rsatadi. Shunga hamohang, Blind va hamkorlari tomonidan olib borilgan tahlil esa xalqaro standartlarning milliy yalpi ichki mahsulotga qo‘shgan iqtisodiy hissasini statistik asosda ko‘rsatgan. Ular DIN (Germaniya) doirasidagi tadqiqotlarida standartlar YAIM o‘sishining uchdan bir qismini ta’minlashini aniqlashgan [6].

Porterning qiymat zanjiri nazariyasi ishlab chiqarish, yetkazib berish va mijozlarga xizmat ko‘rsatish bosqichlarini qiymat yaratish jarayoni sifatida tahlil qilishga imkon beradi [8]. Aynan shu nazariya asosida ISO 9001 tizimining har bir bosqichi korxona strategik ustunligiga qanday hissa qo‘shishi aniqlanadi. Oakland esa sifatni mukammallikka olib chiqish uchun ISO, QFD, benchmarking, Lean kabi vositalarning birgalikda qo‘llanilishini taklif etadi [9].

“Shuningdek, Suarez [7] tomonidan tayyorlangan sharhda sifat menejmenti bo‘yicha yetakchi nazariyotchilar — Crosby, Deming va Juran — ning yondashuvlari o‘zaro taqqoslab tahlil qilinadi. Bu konsepsiyalar zamonaviy sifat menejmenti tizimlarining, ayniqsa ISO 9001:2015 standartining nazariy poydevorini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Mazkur klassik yondashuvlar asosida zamonaviy ISO tizimlarining konseptual bazasi shakllanib borgan. Xususan, Demingning PDCA modeli jarayonlarni uzluksiz takomillashtirish vositasi sifatida ISO tizimlarida keng qo‘llaniladi [11]. Juran esa sifatga strategik yondashuvni korxona boshqaruvi bilan integratsiyalash zarurligini asoslab beradi [12]

Bularning barchasi O‘zbekistonda ham real aks etmoqda: 2022–2024 yillarda yuzlab ishlab chiqaruvchi korxonalar xalqaro standartlarni joriy qilgan va ularning ko‘pchiligida mahsulot sifati, eksport imkoniyatlari va ichki boshqaruv samaradorligi sezilarli darajada oshgani kuzatilgan [14][15].

Metodologiya

Tadqiqotda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro standartlarga moslashuv jarayoni tizimli tahlil qilindi. Asosiy metodologik yondashuv sifatida ISO 9001:2015 tizimi [1], Total Quality

Management (TQM) [2], Demingning PDCA sikli [11], va Porterning raqobat ustunligi nazariyasi [8] asos qilib olindi. Bu yondashuvlar orqali sifat menejmentining nazariy va strategik jihatlari o‘rganildi.

Empirik qismda 2022–2024 yillarda ISO 9001 tizimi joriy qilingan 1300 dan ortiq korxona holati asosida real amaliy tendensiyalar tahlil qilindi [14]. SWOT tahlili orqali ishlab chiqaruvchilarning ichki imkoniyatlari, tashqi tahdidlar, kuchli va zaif tomonlari aniqlab olindi. Hudson va Orviska [5] tomonidan ilgari surilgan individual moslashuv nazariyasi asosida mahalliy sharoitga mos yondashuv ishlab chiqildi.

Yondashuvning asosiy ustunligi — nazariy asoslar, xalqaro tajriba va amaliy statistik ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlagan holda, holatni real baholash imkonini berishidadir.

Tahlil va natijalar

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro standartlarga, ayniqsa ISO 9001:2015 sifat menejmenti tizimiga moslashuvi zamonaviy iqtisodiy va texnologik rivojlanish sharoitida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bu moslashuv nafaqat mahsulot sifatini oshirish, balki xalqaro bozor talablariga javob beruvchi barqaror tizim yaratish, raqobatbardoshlikni ta'minlash va mijoz ishonchini mustahkamlashda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda xalqaro sifat standartlarini joriy etishga bo‘lgan e’tibor yildan yilga ortib bormoqda. Xususan, 2022–2024 yillar davomida 1300 dan ortiq korxonada ISO 9001 tizimi joriy etilgani bu yo‘nalishdagi faol amaliy harakatlarning yaqqol dalilidir [14]. Bu ko‘rsatkich ishlab chiqaruvchilarning sifatni strategik ustuvorlik sifatida qabul qilayotganini va xalqaro bozorlarga chiqish uchun ichki imkoniyatlarini safarbar qilayotganini tasdiqlaydi.

ISO 9001:2015 tizimi doirasida sifatni jarayonlar asosida boshqarish, mijoz ehtiyojlariga mos mahsulot ishlab chiqish va doimiy takomillashtirish tamoyillarini qamrab oladi [1]. Tashkilotlar bu tizimni joriy etish orqali o‘zlarining ichki jarayonlarini aniqlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va sifat ko‘rsatkichlarini aniq mezonlar asosida boshqarishga erishadilar. Knowles [2], Juran [3] va Crosby [4] tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar amaliyotda aynan shu holatlarni tasdiqlaydi — sifatni tizimli boshqarish va strategik yondashuv natijadorlikni oshiradi.

Mahalliy korxonalarning xalqaro standartlarga moslashuvi holatini chuqur tahlil qilishda SWOT tahlili qo‘llandi. Bu metod yordamida ichki resurslar, tashqi imkoniyatlar va mavjud cheklovlar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanib, ularni muvozanatli boshqarish zaruriyati asoslab berildi.

1-jadval.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro standartlarga moslashuvi bo‘yicha SWOT tahlili [16]

Kuchli tomonlar (Strengths)	**Zaif tomonlar (Weaknesses)**
- ISO 9001 joriy qilingan korxonalar sonining ortishi [14]	- Texnik bilim va metodik kompetensiya yetishmasligi [2]
- Eksport hajmining oshishi [14][15]	- Malakali sifat menejerlari yetishmasligi
- Rahbariyat darajasida sifatga bo‘lgan e’tibor [9]	- ISO tizimini yuzaki (qog‘ozda) joriy qilish holatlari [11]
Imkoniyatlar (Opportunities)	**Tahdidlar (Threats)**
- Yevropa va Osiyo bozorlariga chiqish imkoniyati [6][8]	- Standartlarning noto‘g‘ri talqini va noto‘liq tatbiqi
- Tashqi texnik va grant dasturlari (GREB, Erasmus+)	- Ichki bozorning past talab darajasi
- Sifatga asoslangan raqobat ustunligini shakllantirish [3][8]	- Innovatsiyalarga moslashishdagi sustlik

Yuqoridagi tahlilga ko‘ra, O‘zbekistonda xalqaro standartlarga moslashuv bo‘yicha mavjud kuchli tomonlar sezilarli bo‘lishiga qaramay, tizimni chuqur va real amaliyotga tatbiq etishda hali ham bir qator cheklovlar mavjud. Ayniqsa, texnik va uslubiy jihatdan metodik ko‘rsatmalarni chuqur anglash, sifat menejmenti madaniyatini shakllantirish, va zamonaviy sifat vositalaridan foydalanishdagi malaka darajasining pastligi o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Shu bilan birga, ISO 9001 tizimining joriy etilishi bilan erishilayotgan iqtisodiy samara va xalqaro bozorlarga kirish imkoniyati uning foydasini amaliy jihatdan isbotlamoqda. Blind va hamkorlarining tadqiqotlari bu jarayonning milliy iqtisodiyotga qo‘shadigan hissasini aniq ko‘rsatadi — standartlashtirish YAIM o‘sishining kamida 1/3 qismini tashkil qiladi [6]. Bu esa mamlakatning umumiy iqtisodiy barqarorligiga ham xizmat qiluvchi muhim mexanizmdir.

Mahalliy tajriba ham bu jihatni tasdiqlaydi. ISO tizimini chuqur integratsiyalagan korxonalar mahsulot sifatini oshirish, jarayonlarni sodalashtirish va eksportni kengaytirishga erishmoqda [14][15]. Bu natijalar xalqaro sifat tizimining strategik va amaliy samaradorligini isbotlab beradi.

Porter [8] tomonidan ishlab chiqilgan qiymat zanjiri nazariyasi hamda Oakland’ning [9] “Operational Excellence” yondashuvi ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks tahlil qilish va raqobat ustunligini aniqlashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Aynan shu yondashuvlar orqali korxonalar ISO 9001 tizimini real faoliyatga moslashtirib, uni nafaqat sertifikatlash vositasi, balki barqaror rivojlanish mexanizmi sifatida qabul qilishmoqda.

Deming [11] va Juran [12] tomonidan ilgari surilgan tamoyillar — rahbariyat ishtiroki, jarayonni tizimli nazorat qilish va sifatsizlik narxini kamaytirish — mahalliy ishlab

chiqaruvchilar uchun yo‘naltiruvchi asos sifatida xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot davomida o‘rganilgan nazariy manbalar, xalqaro amaliy tajriba va O‘zbekistondagi mavjud holat tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelindi: mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro standartlarga, ayniqsa ISO 9001:2015 sifat menejmenti tizimiga moslashuvi milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, eksport salohiyati va sifat madaniyatini rivojlantirish yo‘lida muhim strategik mexanizmga aylangan. ISO tizimining amalda joriy qilinishi mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, jarayonlarni soddalashtirish, hamda tashkilotning ichki boshqaruv tizimini tizimli va barqaror shakllantirish imkonini bermoqda [1][2][14].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ISO 9001 tizimini chuqur integratsiyalagan tashkilotlar eksport faoliyatini kengaytirgan, ichki boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirgan va mijozlarga yo‘naltirilgan yondashuvni samarali tarzda amalga oshirgan [6][8][15]. Bunday natijalar mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozordagi ishonchliligi va barqaror ishtirokini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Biroq samaradorlikni yanada oshirish uchun tizimni real amaliyotga integratsiyalash, inson resurslari salohiyatini rivojlantirish, raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlikni kuchaytirish va mahalliy sharoitga mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqish muhim sanaladi. Shu nuqtai nazardan, Suarez, Deming, Juran, Crosby kabi mutaxassislarning sifat menejmentiga oid tamoyillari ISO tizimining muvaffaqiyatli joriy etilishida asosiy g‘oyaviy tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda [3][4][7][11][12].

Ushbu tahlillar asosida quyidagi strategik yo‘nalishlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- ISO 9001:2015 tizimini tashkilot strategiyasi bilan uyg‘unlashtirish, uni faqat tashqi auditori bahosiga yo‘naltirilgan shakldan chiqarib, ichki qiymat zanjiriga chuqur integratsiyalangan va raqobatbardosh menejment vositasiga aylantirish zarur [1][3];
- Tashkilot ichida sifat madaniyatini qaror toptirish, xodimlar ishtirokini rag‘batlantirish, jarayonlar asosida fikrlashni rivojlantirish va rahbariyat darajasida sifatga mas’uliyatli munosabatni mustahkamlash [2][3];
- Har bir ishlab chiqaruvchining individual ehtiyojlariga mos, mahalliy kontekstga moslashtirilgan soddalashtirilgan metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish orqali moslashuv samaradorligini ta’minlash [5];
- Sifat menejmenti bo‘yicha inson resurslari salohiyatini oshirish: auditorlar, sifat menejerlari va rahbarlar uchun xalqaro talablar asosida trening, sertifikatlash va tajriba almashish tizimlarini joriy etish;
- ISO tizimini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish: sifat monitoringi, jarayon avtomatlashtirish va real vaqt rejimidagi analitik nazorat vositalarini joriy etish orqali samaradorlikni oshirish;

- GREB, Erasmus+, KOICA kabi xalqaro hamkorlik dasturlari orqali ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish va ularni milliy sharoitga moslashtirish orqali moslashuvni tezlashtirish;
- Tashkilot darajasida sifat bo‘yicha natijadorlikni baholovchi indikatorlar tizimi (KPI)ni ishlab chiqish va doimiy ravishda monitoring qilish orqali natijaga yo‘naltirilgan boshqaruvni mustahkamlash.

Mazkur yondashuvlar orqali ISO 9001:2015 tizimi nafaqat sertifikatlash vositasi, balki tashkilot ichki resurslarining to‘liq safarbar etilishi, raqobatbardoshlikni oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, ISO tizimini chuqur integratsiyalashgan, strategik boshqaruv bilan uyg‘unlashgan va sifat madaniyati asosiga qurilgan barqaror menejment modeli sifatida qaror toptirish O‘zbekiston ishlab chiqarish sektorining global bozorlardagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. *International Organization for Standardization. (2015). ISO 9001:2015 Quality management systems – Requirements. https://www.iso.org/standard/62085.html*
2. *Knowles, G. (2011). Quality Management. Bookboon. https://www.bookboon.com/en/quality-management-ebook*
3. *Juran, J. M. (2009). Juran's Quality Handbook: The Complete Guide to Performance Excellence (6th ed.). McGraw-Hill. https://www.mhprofessional.com/jurans-quality-handbook-6e-9780071629737-usa*
4. *Crosby, P. B. (1979). Quality Is Free: The Art of Making Quality Certain. Bookey. https://www.bookey.app/book/quality-is-free*
5. *Hudson, J., & Orviska, M. (2013). Firms’ adoption of international standards: One size fits all? Journal of Policy Modeling, 35(2), 289–306. https://doi.org/10.1016/j.jpolmod.2012.04.001*
6. *Blind, K., Jungmittag, A., & Mangelsdorf, A. (2012). The economic benefits of standardisation: An update of the study carried out by DIN in 2000. ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/255869222*
7. *Suarez, J. G. (1992). Three Experts on Quality Management: Crosby, Deming, Juran. Total Quality Leadership Office, Department of the Navy. https://apps.dtic.mil/sti/pdfs/ADA258128.pdf*
8. *Porter, M. E. (1985). Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. Free Press. https://www.bookey.app/book/competitive-advantage*
9. *Oakland, J. S. (2014). Total Quality Management and Operational Excellence: Text with Cases. Routledge. https://www.routledge.com/Total-Quality-Management-and-Operational-Excellence/Oakland/p/book/9781138721445*
10. *Ishikawa, K. (1985). What is Total Quality Control? The Japanese Way. Prentice Hall.*
11. *Deming, W. E. (1986). Out of the Crisis. MIT Press.*
12. *Juran, J. M., & Godfrey, A. B. (1999). Juran’s Quality Handbook (5th ed.). McGraw-Hill.*
13. *O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-noyabr. O‘RQ-800-son “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni https://lex.uz/uz/docs/-6270526*
14. *Ministry of Investment and Foreign Trade. (2023). Davlat dasturlari doirasida xalqaro standartlarni joriy etish statistikasi (2022–2024). https://mift.uz*
15. *Uzstandart Agentligi. (2024). O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish tizimining 2024-yil uchun tahliliy hisobot. https://new.standart.uz/upload/file/analitika/analit_uzst_12_2024lat.pdf*

TABIIY VA SUN'IY TOLALAR ASOSIDA QAYTA ISHLANGAN MAHSULOTLARNING TEXNOLOGIK SIFATI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI

Raximov F.J.
O'zto'qimachiliksanoat uyushmasi rais maslahatchisi
TDIU tadqiqotchisi,PhD

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tabiiy va sun'iy tolalardan qayta ishlangan mahsulotlarning texnologik sifati va iqtisodiy samaradorligi tahlil qilindi. Ishlovga chidamlilik, energiya sarfi, chiqindi miqdori va mahsulot barqarorligi asosiy mezon sifatida tanlandi. SWOT va qiymat zanjiri asosida sanoatdagi afzalliklar aniqlanib, aralash tolalarning amaliy ustunliklari asoslab berildi. Tadqiqot natijalari barqaror ishlab chiqarish va ekologik mas'uliyatni kuchaytirish yo'lida ilmiy asos yaratadi.*
Kalit so'zlar: *qayta ishlash, tabiiy tola, sun'iy tola, texnologik sifat, iqtisodiy samaradorlik, qiymat zanjiri, SWOT-tahlil, barqaror ishlab chiqarish.*

Abstract. *This article analyzes the technological quality and economic efficiency of products made from recycled natural and synthetic fibers. Key indicators include processing durability, energy consumption, waste output, and product longevity. SWOT analysis and value chain modeling identify the industrial benefits of blended fibers. The study supports sustainable manufacturing and promotes environmental responsibility in the textile industry.*
Keywords: *recycling, natural fiber, synthetic fiber, technological quality, economic efficiency, value chain, SWOT analysis, sustainable production*

Аннотация. *В статье анализируются технологические качества и экономическая эффективность продукции, изготовленной из переработанных натуральных и синтетических волокон. Основное внимание уделено показателям устойчивости к обработке, энергозатратам, количеству отходов и долговечности продукции. На основе SWOT-анализа и цепочки добавленной стоимости определены отраслевые преимущества смешанных волокон. Результаты исследования способствуют устойчивому производству и развитию экологической ответственности в текстильной промышленности.*
Ключевые слова: *переработка, натуральное волокно, синтетическое волокно, технологическое качество, экономическая эффективность, цепочка стоимости, SWOT-анализ, устойчивое производство*

Kirish

Zamonaviy to'qimachilik sanoati bugungi kunda nafaqat iqtisodiy rivojlanishning muhim omili, balki global ekologik va resurs masalalarining markazida turgan strategik tarmoq hisoblanadi. Aholi sonining ortib borishi, moda sanoatining tez aylanuvchanligi va iste'molchilarning qulaylikka bo'lgan talabi tufayli tola mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj yildan yilga keskin ortmoqda. Shu bilan birga, xomashyo resurslarining cheklanganligi va ishlab chiqarishdan hosil bo'ladigan ekologik yuklar qayta ishlashga asoslangan, tejamkor va ekologik javobgar yechimlarni izlashni taqozo etmoqda.

Ayniqsa, tabiiy (paxta, jun) va sun'iy (poliestr, naylon) tolalarning qayta ishlanishi — ularning chiqindisiz hayotiy aylanishiga zamin yaratish, mahsulot sifatini saqlagan holda sanoatdagi samaradorlikni oshirish imkonini bermoqda. Qayta ishlangan tolalardan tayyorlangan matolar ishlab chiqarishda energiya va resurs sarfini kamaytiradi, chiqindilar hajmini qisqartiradi va yangi ekologik standartlarga javob beruvchi mahsulotlar yaratish imkonini beradi. Bu jarayon bir vaqtning o'zida ishlab chiqaruvchilar uchun iqtisodiy foyda, iste'molchilar uchun sifatli tanlov, atrof-muhit uchun esa barqaror kelajakni anglatadi.

Texnologik nuqtai nazardan, qayta ishlangan tolalarning ishlovga yaroqliligi, mustahkamligi, estetik sifati va ishlab chiqarish tezligi ularning iqtisodiy samaradorligini bevosita belgilaydi. Xususan, tabiiy tolalar gigiyenik va ekologik qulayligi bilan, sun'iy tolalar esa chidamlilik va massaviy ishlab chiqarishdagi qulayligi bilan ajralib turadi. Ularning qayta ishlovga yaroqliligini aniqlash esa bugungi sanoat uchun eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot tabiiy va sun'iy tolalardan qayta ishlangan mahsulotlarning texnologik sifati va iqtisodiy samaradorligini har tomonlama baholashga qaratilgan. Qayta ishlash bosqichidagi ishlov xususiyatlari, mahsulot barqarorligi, resurs tejamkorligi va ishlab chiqarish zanjirida qo'shiladigan qiymat asosida raqobatbardoshlik darajasi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari esa barqaror ishlab chiqarishni kuchaytirish, ekologik xavflarni kamaytirish va innovatsion yechimlarni shakllantirishga amaliy hissa qo'shadi.

Adabiyotlar sharhi

Mazkur tadqiqotda foydalanilgan adabiyotlar qayta ishlangan tolalarning fizik-kimyoviy xossalari, ishlab chiqarish texnologiyasi, sifat baholash mezonlari hamda iqtisodiy samaradorligini har tomonlama yoritishga xizmat qiladi. Har bir manba turli tahlil yo'nalishlariga tayanch bo'ldi va o'zaro bog'langan holda ishlatildi.

Bechtoldning "Textile Chemistry" asarida tabiiy va sun'iy tolalarning asosiy tuzilma elementlari, bo'yoqlanish xatti-harakati, va qayta ishlashdagi reaktiv xususiyatlari batafsil yoritilgan. Ushbu ma'lumotlar mahsulot sifatining tahlilida muhim asos bo'lib xizmat qildi [1].

Hauschild tomonidan ishlab chiqilgan LCA nazariyasi tadqiqotga yondashuv asosini berdi. Bunda ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha resurs sarfi, chiqindi xajmi va energiya ehtiyoji tavsiflandi [2]. Ayniqsa, qayta ishlangan xomashyo asosidagi mahsulotlar uchun karbon izi va energiya taqqoslashlari samarali bo'ldi.

Finkbeiner tomonidan taklif etilgan ISO 14040/14044 standartlari qiymat zanjiri bosqichlarini baholash va tahlil natijalarini sanoat mezonlariga muvofiq talqin qilish imkonini berdi [3].

Krifaning ishlari esa tabiiy tolalarning qayta ishlash jarayonidagi

iqtisodiy va ekologik raqobatbardoshligini yoritdi. Ayniqsa, organik paxtaning qayta ishlovdan so‘ng bo‘yoqlanish sifati va aralash materialdagi barqarorlik masalalari asoslangan holda ko‘rsatildi [4].

Sun’iy tolalarning qayta ishlanishdagi ekologik xavflari, ayniqsa mikroplastik ifloslanish tahdidi, Pellengahr tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan. Bu manba sun’iy tolalar ishlatilgan mahsulotlarda ishlab chiqarish samaradorligi bilan bog‘liq xavflarni aniqlashda yordam berdi [5].

Gutarowska tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda tabiiy tolalarning biologik parchalanishdagi ustunligi, ularning turli bakterial muhitdagi mustahkamligi va yo‘qolish tezligi aniqlangan. Bu holat qayta ishlangan paxta va jun matolarning ekologik xavfsizligi bilan bog‘liq bo‘limda ishlatildi [6].

Statistik asoslangan iqtisodiy tahlillar Al-Karkhi asari orqali shakllantirildi. Unda ishlab chiqarishdagi energiya, suv, vaqt va xarajatlarning foizli o‘zgarishlari taqqoslanadi, bu esa qiymat zanjiri va samaradorlik bahosida qo‘llanildi [7].

Slaterning “Environmental Impact of Textiles” asari esa qayta ishlangan mahsulotlarning sanoatdagi umumiy ekologik yukini, resurs talabi va chiqindi dinamikasini ko‘rsatadi. Bu, xususan ishlab chiqarish bosqichlarida qo‘shilgan qiymat miqdorini aniqlashda muhim bo‘ldi [8].

Nurboyev tomonidan yozilgan “To‘qimachilik materialshunosligi” o‘zbek tilida mavjud amaliy texnologiyalar, qayta ishlash moslamalari va ishlab chiqarish bosqichlarini o‘rganishda lokal tajriba sifatida foydalanildi [9].

Nihoyat, Nabiyevaning metodik qo‘llanmasi paxta klasterlarida qo‘llanilayotgan zamonaviy uskunalar, qayta ishlash texnologiyalari va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan usullarni yoritadi. Bu uskunalar qayta ishlov uchun texnologik platforma bo‘lib xizmat qiladi [10].

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda tabiiy va sun’iy tolalardan qayta ishlangan mahsulotlarning texnologik sifati va iqtisodiy samaradorligi kompleks baholandi. Tadqiqotda amaliy sanoat yondashuvi asosida sifat tahlili, SWOT-strategik tahlil va qiymat zanjiri modeli asos qilib olindi.

Tolalarning fizik-mexanik xususiyatlari, ishlovga chidamlilik, bo‘yoq qabul qilish xossalari Bechtold va Krifa ishlari asosida tahlil qilindi [1][4]. Qayta ishlash bosqichlaridagi energiya, uskunaviy resurslar va ishlab chiqarish texnologiyasi Al-Karkhi va Nabiyeva manbalariga tayanib baholandi [7][10].

SWOT-tahlil orqali har bir tola turining sanoatdagi kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va xavf-xatarlari aniqlandi [5][6]. Qiymat zanjiri esa xomashyo manbasidan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan iqtisodiy va texnologik qadriyatlarni aniqlash uchun qo‘llanildi [2][3].

Baholashda statistik kuzatuv, tavsifiy taqqoslash va amaliy namunalar asosida sifat va narxga doir solishtirmalar amalga oshirildi.

Natijalar ishlab chiqarish samaradorligi va brendlashuvga ta’siri bilan bog‘liq holda talqin qilindi.

Tahlil va natijalar

Qayta ishlangan tolalar sanoatda yana foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, lekin har bir tola turi texnologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Tabiiy tolalar (ayniqsa, regeneratsiyalangan paxta) yuvilganda yumshoqligi, havo o‘tkazuvchanligi va biologik mosligi bilan ajralib turadi [1]. Bu jihatlar yengil kiyim-kechak va ichki kiyimlar ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Biroq bu tolalar tuklanish (pilling) va bo‘yoqni saqlashda zaiflik ko‘rsatadi [1][9].

Sun’iy tolalar, xususan qayta ishlangan PET (r-PET), mustahkamlik va elastiklikda ustunlik qiladi. Ular ko‘p yuvishga bardoshli bo‘lib, texnik kiyimlar va sport mahsulotlari uchun muhim xomashyodir [4]. Shunga qaramay, bu tolalar gigiyena va havo aylanishda tabiiy tolalarga qaraganda sustroq natija ko‘rsatadi [5].

1-jadval.

Qayta ishlangan tabiiy va sun’iy tolalar: amaliy-texnologik ko‘rsatkichlar [11]

Ko‘rsatkich turi	Tabiiy tola (qayta ishlangan)	Sun’iy tola (qayta ishlangan)
Ishlovga moslashuvchanlik	Past harorat, oddiy uskunalar	Yuqori harorat, maxsus uskunalar
Bo‘yoq qabul qilish	Tabiiy bo‘yoqlar bilan mos	Kimyoviy moddalarga ehtiyoj
Mustahkamlik va chidamlilik	O‘rtacha	Yuqori
Estetik va gigiyenik ko‘rsatkichlar	Yuqori	O‘rtacha yoki past
Chiqindi turi	Biologik	Sintetik/kimyoviy

Ushbu taqqoslashlar shuni ko‘rsatadiki, aralash tolalar (masalan, 60% paxta va 40% PET) optimal balansni ta’minlaydi. Bunday kombinatsiyalar yumshoqlik va bardoshlilikni birlashtirib, sanoat ehtiyojlariga mos mahsulotlar yaratish imkonini beradi [1][4].

Mahsulot sifati bilan birga, ularning sanoatdagi raqobatbardoshligini baholashda SWOT tahlili muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Har bir tola turining kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, sanoatda paydo bo‘layotgan imkoniyatlar va ekologik tahdidlar tahlil qilindi.

2-jadval.

SWOT tahlili: qayta ishlangan tolalar asosida sanoat strategiyasi [12]

Tahlil turi	Tabiiy tola (qayta ishlangan)	Sun'iy tola (qayta ishlangan)
Kuchli tomonlar	Ekologik yorliq, oddiy texnologik ishlov	Mustahkam, qayta shakllanishi oson
Zaif tomonlar	Tuklanish, yuvilishga chidamlilik past	Mikroplastik ifloslanish xavfi
Imkoniyatlar	Mahalliy klasterda ekologik brend yaratish	PET chiqindilarni iqtisodiy resursga aylantirish
Tahdidlar	Suv resurslariga bog'liqlik	Ekologik cheklovlar, texnik litsenziyalar

Bechtold va Slater izlanishlariga ko'ra, tabiiy tolalar kam texnologik talabga ega bo'lsa-da, suv resurslariga katta ehtiyoj sezadi [1][8]. Boshqa tomondan, sun'iy tolalarning chiqindi bilan bog'liq xavfi yuqori bo'lsa-da, ular texnologik modernizatsiya va yopiq sikl qayta ishlash bilan to'liq foydali resursga aylanishi mumkin [5][6].

Qayta ishlangan mahsulotlarning qiymat zanjiridagi o'rni tahlil qilinib, har bir bosqichda mahsulotga qanday qiymat qo'shilayotgani o'rganildi. Mahsulotlar, xususan ekologik yorliq (eco-label) orqali bozorda yuqori imidjga ega bo'lib, iste'molchilar ongli tanlov qilishiga sabab bo'ladi [3][4][8].

3-jadval.

Qiymat zanjiri: qayta ishlangan tolalarning sanoat aylanishi [13]

Bosqich	Tabiiy tola (qayta ishlangan)	Sun'iy tola (qayta ishlangan)
Xomashyo manbasi	Paxta chiqindilari, jun, tabiiy to'qimalar	PET butilka, sanoat poliestri
Qayta ishlash usuli	Presslash, maydalash, ip yigirish	Eritish, ekstruderlar orqali ip olish
Texnologik ishlov	Tabiiy bo'yoq, oddiy to'qimachilik	Shtamplash, texnik to'qimachilik
Marketing segmenti	Organik kiyim, mahalliy bozorlarga mos	Sport va texnik kiyim, eksport uchun
Qo'shilgan qiymat	"Eco-cotton", "Local Organic" yorliqlari	"r-PET recycled", "Circular textile"

Bu jarayonlar shuni ko'rsatadiki, qayta ishlov faqat chiqindini kamaytirish emas, balki qo'shimcha iqtisodiy qiymat yaratish strategiyasi sifatida qaralmoqda. Xususan, SDG-12 (mas'uliyatli ishlab chiqarish) kontekstida bu yondashuv barqarorlikning muhim ko'rinishidir [3].

Tahlillar asosida quyidagilar aniqlandi:

- Qayta ishlangan tabiiy tolalar ishlovda soddaligi va ekologik xossalari bilan ajralib turadi, ammo foydalanish muddatiga ta'sir qiluvchi kamchiliklari mavjud [1][9].
- Qayta ishlangan sun'iy tolalar ishlab chiqarish samaradorligi, chidamlilik va narx jihatidan ustun, ammo ularning ekologik cheklovlari kuchli [4][5].
- Qiymat zanjirining barcha bosqichlarida innovatsion yondashuv

(masalan, brend, ishlab chiqarish liniyasi, mahsulot dizayni) orqali qayta ishlangan mahsulotlar barqaror iqtisodiy modelga aylanishi mumkin [2][3][10].

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan tahlillar asosida tabiiy va sun’iy tolalardan qayta ishlangan mahsulotlar nafaqat ekologik jihatdan foydali, balki texnologik sifati va iqtisodiy samaradorligi bilan ham muhim ishlab chiqarish resursi ekani isbotlandi. Tabiiy tolalar — xususan, regeneratsiyalangan paxta va jun — yumshoqlik, gigiyena va ekologik xavfsizlik bo‘yicha ustunlikka ega bo‘lsa, sun’iy tolalar — ayniqsa qayta ishlangan poliestr — mustahkamlik, ishlovga chidamlilik va ishlab chiqarish barqarorligi nuqtayi nazaridan yuqori samaradorlik ko‘rsatdi [1][4][9].

Texnologik jihatdan aralash tolali mahsulotlar (masalan, 60% paxta + 40% r-PET) har ikki tola turining afzalliklarini birlashtirgan holda, muvozanatli va amaliy yechim sifatida tavsiflandi [4]. Bu kombinatsiya sifat, narx va resurs tejovchanlik jihatidan sanoatda qo‘llashga yaroqli hisoblanadi. Qiymat zanjiri modeli asosida esa qayta ishlangan tolalarning barcha bosqichlarida mahsulotga yangi qiymat qo‘shilishi va bu orqali ekologik hamda iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkinligi aniqlandi [3][8].

Shu asosda, qayta ishlash jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, ishlab chiqarish bosqichlarini avtomatlashtirish va ekologik brend yaratishga xizmat qiluvchi marketing yondashuvlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Bunda tabiiy tolalar uchun suv tejovchi usullarni qo‘llash, sun’iy tolalar uchun esa mikroplastik chiqindilarni cheklovchi texnologiyalarni joriy etish zarur [6][7][10].

Bundan tashqari, qayta ishlangan mahsulotlar uchun mahsus yorliqlash tizimini ishlab chiqish, iste’molchilarga ekologik afzalliklar haqida ma’lumot berish, va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni ekologik innovatsiyaga rag‘batlantirish orqali ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshlikni oshirish mumkin.

Tabiiy va sun’iy tolalardan qayta ishlangan mahsulotlar atrof-muhitga kamroq zarar yetkazgan holda, barqaror ishlab chiqarishni ta’minlashga xizmat qiladi. Sifat, samaradorlik va ekologik javobgarlikni birgalikda yuksaltirish esa bu sohani kelajakda yanada rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Bechtold, T., & Pham, T. (2019). Textile Chemistry. Walter de Gruyter GmbH & Co KG.*
2. *Hauschild, M. Z., Rosenbaum, R. K., & Olsen, S. I. (Eds.). (2018). Life Cycle Assessment: Theory and Practice. Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-319-56475-3*
3. *Finkbeiner, M., Schau, E. M., Lehmann, A., & Traverso, M. (2006). The new international standards for life cycle assessment: ISO 14040 and ISO 14044. International Journal of Life Cycle Assessment, 11(2), 80–85.*
4. *Krifa, M., & Gnanasekar, V. K. (2025). Perspectives on natural fibers' competitiveness and sustainability. Fibers, 13(2), 14. https://doi.org/10.3390/fib13020014*
5. *Pellengahr, D., Corella-Puertas, E., Mattelin, V., Saadi, N., Bertella, F., Boulay, A.-M., & van der Meer, Y. (2025). Marine microplastic emissions in textile LCA. Frontiers in Toxicology, 3, 1494220. https://doi.org/10.3389/ftox.2025.1494220*
6. *Gutarowska, B., & Michalski, A. (2011). Microbial degradation of woven fabrics and protection against biodegradation. In InTechOpen. https://doi.org/10.5772/19740*
7. *Al-Karkhi, A. F. M., & Al-Karkhi, A. (2020). Applied Statistics for Environmental Science with R. Elsevier.*
8. *Slater, K. (2003). Environmental Impact of Textiles: Production, Processes and Protection. Woodhead Publishing.*
9. *Nurboyev, R., Usmonova, Sh. A., Atafasov, M. R., Haydarov, U. P., & Akbarov, R. D. (2021). To'qimachilik materialshunosligi. Toshkent: TTYESI.*
10. *Nabiyeva, I., Xanxadjayeva, N., Ahmadov, M. X., & Rajapov, O. (2023). Paxta-to'qimachilik klasterlari texnologik mashinalari va jihozlari. Toshkent: TTYESI.*
11. *Muallif ishlanmasi*
12. *Muallif ishlanmasi*
13. *[2] Muallif ishlanmasi*

NUTQ SIGNALINI XALAQITLARDAN TOZALASH USULLARI

Mamatov N.S[1]., Dusanov X.T[2].
[1]t.f.d., prof., "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti kafedrasi mudiri,
[2]t.f.f.d., Toshkent axborot texnologiyalari universiteti dotsenti,

Annotatsiya. *Ushbu maqolada nutq signalini turli shovqinlardan tozalash masalasi ko'rib chiqiladi. Nutq signallarining sifatini oshirish va aniqligini ta'minlash zamonaviy ovozli aloqa tizimlari uchun dolzarb hisoblanadi. Tadqiqotda yumshoq chegara (Soft Thresholding - SR) va moslashuvchan silliqlash yumshoq chegara (Adaptive Smoothing Soft Thresholding - ASST) algoritmlarining ishlash samaradorligi tahlil qilinadi. SNR (signal-to-noise ratio) ko'rsatkichlari asosida algoritmlarning taqqoslanishi keltirilib, ASST algoritmining yuqori natijalar ko'rsatgani aniqlanadi. Shuningdek, qisqa muddatli energiya (Short-Term Energy - STE) va pre-emphasis filtr kabi usullarning ahamiyati haqida ma'lumot beriladi.*
Kalit so'zlar: *Nutq signali, shovqinlarni tozalash, Soft Thresholding, Adaptive Smoothing, SNR, qisqa muddatli energiya (STE), pre-emphasis filtr.*

Abstract. *This article considers the issue of cleaning speech signals from various noises. Improving the quality and ensuring the accuracy of speech signals is relevant for modern voice communication systems. The study analyzes the performance of the Soft Thresholding (SR) and Adaptive Smoothing Soft Thresholding (ASST) algorithms. A comparison of the algorithms based on SNR (signal-to-noise ratio) indicators is presented, and it is determined that the ASST algorithm shows superior results. Also, information is provided about the importance of methods such as Short-Term Energy (STE) and pre-emphasis filters.*
Keywords: *Speech signal, noise removal, Soft Thresholding, Adaptive Smoothing, SNR, short-term energy (STE), pre-emphasis filter.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос очистки речевых сигналов от различных шумов. Повышение качества и точности речевых сигналов имеет важное значение для современных систем голосовой связи. В исследовании анализируется эффективность алгоритмов мягкого порогового значения (SR) и адаптивного сглаживания с мягким пороговым значением (ASST). Представлено сравнение алгоритмов по показателям SNR (отношение сигнал/шум) и определено, что алгоритм ASST показывает превосходные результаты. В нем также содержится информация о важности таких методов, как фильтр кратковременной энергии (STE) и фильтры pre-emphasis.*
Ключевые слова: *Речевой сигнал, шумоподавление, мягкое пороговое значение, адаптивное сглаживание, SNR, кратковременная энергия (STE), фильтр pre-emphasis.*

Nutq insonlar orasidagi asosiy aloqa vositasi bo'lib, u orqali turli xil ma'lumotlarni, jumladan, so'zlar ma'nosini, so'zlovchini hissiy holatini, jinsini, shaxsiyatini aniqlash mumkin. Bundan tashqari nutq orqali fikri va g'oyalari kabi ma'lumotlarni ham yetkazish mumkin. Nutqni hosil bo'lishi artikulyasiya, nutq va ravonlilikni o'z ichiga oladi. U insonning tabiiy qobiliyatlari majmuasi bo'lib, odatda insonlarning nervlari bilan bog'langan 100 ga yaqin mushaklarning

muvofiqlashtirilgan harakati orqali hosil qilinadi [1].

Nutq signal vaqt bo‘yicha miqdorning uzluksiz o‘lchovidir. O‘z navbatida ularga ham fon shovqinlar ta’sir qiladi va uning sifati buziladi. Shovqin-foydalilik xususiyatiga ega bo‘lmagan signallar bo‘lib, akustik, elektr, atrof-muhit, mikrofon shovqinlari mavjud. Nutq signallardan shovqinni olib tashlash nutqni aniqlash tizimini ishlab chiqish uchun asosiy muammo hisoblanadi. Signaldan shovqinni tozalashda asl signalning xususiyatlarini saqlab qolish kerak [1]. Nutq signallarining ravshanligi va sifati qo‘shimcha shovqin mavjudligi bilan yomonlashadi. Shunday qilib, buzilgan signalni kuchaytirish uchun nutqni yaxshilash usullari qo‘llaniladi. Uni shovqin manbalarining xususiyatlariga ko‘ra ko‘p turlarga bo‘lish mumkin. Orqa fon shovqini, impuls shovqini, karnay shovqini va qo‘shimcha bo‘lmagan shovqinlar, masalan, karnayning kuchlanishi, mikrofonlarning chiziqli bo‘lmaganligi va boshqalar ishlab chiqarilgan nutq sifatiga ta’sir qiladi.

Nutqni shovqindan tozalash algoritmlarining turli xil turlari mavjud: filtrlash, spektral tiklash usullari, modelga asoslangan usullar va to‘lqinlarga asoslangan usullar. Nutqni takomillashtirish tanib olishning aniqligini oshiradigan muhim omil bo‘lganligi sababli, bu sohadagi tadqiqotlar katta ahamiyatga ega. Shu sababli parametrik bo‘lmagan usul hisoblangan to‘lqinli tozalash qo‘llaniladi [2]. Biz nutqni shovqinlardan tozalashning quyidagi usullarini ko‘rib chiqdik. Birinchisi yumshoq chegaradan(Soft Thresholding-SR) foydalanadi, ikkinchisi signalning qirralarini tekislash(Adaptiv Smoothing Soft Thresholding-ASST) algoritmlaridan foydalanadi. Bu algoritmlarni baholash uchun signalning shovqinga nisbati (Signal-to-Noise Ratio SNR) usulidan foydalanildi.

SR yordamida shovqinlarni tozalash. SR foydalangan holda signal shovqinlarni tozalashning ikkita mashhur chegara funksiyasi mavjud. Ular qattiq va yumshoq chegara funksiyalari [2]. Qattiq chegarada absolyut qiymatlari chegaradan kichik bo‘lgan elementlar 0 ga, yumshoq chegarada esa absolyut qiymatlari chegaradan past bo‘lgan elementlar birinchi navbatda nolga o‘tkaziladi. Keyin nolga teng bo‘lmagan koeffisiyentlar 0 ga qisqaradi. Qattiq va yumshoq chegarani quyidagicha ifodalash mumkin.

$$X_{hard} = \begin{cases} X & if \quad |X| > \tau \\ 0 & if \quad |X| \le \tau \end{cases} \quad (1)$$

$$X_{soft} = \begin{cases} sign(X)\,(|X| - |\tau|) & if \quad |X| > \tau \\ 0 & if \quad |X| \le \tau \end{cases} \quad (2)$$

Bu yerda X velvet koeffisiyentlari, τ esa chegara qiymatlarini bildiradi. Biz yumshoq chegara funksiyasidan foydalanildi. τ qiymati

Moslashuvchan silliqlashning yumshoq chegarasi yordamida shovqinlarni tozalash. Turli xil chegara qiymatlaridan foydalangan holda va turli xil chegara usullarini birlashtirgan

holda nutqni buzishini aniqlovchi ko‘plab algoritmlar mavjud bo‘lsada. Moslashuvchan silliqlashning yumshoq chegarasi yordamida shovqinlarni tozalash algoritmidan foydalanildi. Nutq signallarida ko‘p hollarda keskin shovqin signallari bilan buzilishlarga uchraydi.

SNR yordamida baholash. Kuchli shovqin mavjud bo‘lgan hollarda nutqni tanib olish muammosi texnik vositalarni aloqa kanallari orqali audio suhbatlarni qurishda yuzaga kelishi mumkin. Nutq signali samaradorligini taqqoslanganda signal-shovqin munosabatining turli ko‘rsatkichlarida (SNR-signal-to-noise ratio) avtomatik tanib olish xatoligining foiz ko‘rsatkichi kamida 8 marta oshganligini ko‘rsatgan [3]. Bir nechta kirish kanallari (mikrofonlar) bo‘lgan holda esa klassik usullar kutilgan natijalarni ta’minlamaydi. Akustik bo‘lmagan axborotlar bilan ishlovchi usullar esa yuqori tatbiq etish darajasiga ega emas, chunki ular maxsus nutq vositalari talab qiladi. Shuning uchun mazkur muammo nutqli javoblarni tanib olishda to‘liq hal etilmagan hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda SNR qiymatlarini faqat ST va ASST yordamida taqqoslash ko‘rsatilgan. Natijadan ma’lum bo‘ladiki, db 20 yordamida yaxshi natijalar ko‘rsatdi.

1- jadval ST va ASST yordamida SNR qiymatlarini solishtirish

Kirish SNR (db)	To‘lqinlarning ishlatilishi	ST dan foydalanish	ASST dan foydalanish
5	8 db	6.9747	7.5972
5	12 db	7.0044	8.1343
5	20 db	7.0234	8.8372
5	22 db	6.9816	8.7202


*Qisqa muddatli energiya(short term energy-STE).*Nutq signali va uning namuna olish chastotasi, shuningdek, ramka o‘lchami va kadrlarning siljishi qisqa muddatli energiyani hisoblash uchun zarur bo‘lgan kirishlardan iborat. Namuna olish chastotasi qiymatidan foydalanib, berilgan ramka o‘lchami va ramka siljishi uchun namunalar soni hisoblanadi. Misol uchun, agar namuna olish chastotasi 16 KGs bo‘lsa, ramka o‘lchami va freym siljishi mos ravishda 25 msek va 10 msek bo‘lsa, u holda ramkadagi namunalar soni 400 ta, kadrlar siljishi uchun namunalar soni 160 ta bo‘ladi.

Har xil oyna uzunliklari uchun STE ni hisoblash uchun 1-rasmda keltirilgan. Ramka kattaligi oshishi bilan energiya konturining silliqligi ham ortadi. Natijada ovozli va ovozsiz qismlar orasidagi farq kamayadi. Demak, nutqni qayta ishlashda STE uchun ramka hajmi taxminan 10-30 msek bo‘lgan afzallik beriladi.

STE hisoblashda oyna shaklini tanlash muxim hisoblanadi. To‘rtburchak oynada barcha namunalar STE qiymatlariga teng hissa qo‘shadi. Shu bilan bir qatorda, silliqlash oynalarini o‘rnatishda silliqlash namunalarining markazi ko‘proq hissa qo‘shadi. Shunga ko‘ra,

STE konturining xususiyatidagi o‘zgarishlar 1-rasmda turli oyna funksiyalari uchun hisoblangan STEni ko‘rsatadi. Hamming va Hanning oyna funksiyasi STE konturida nisbatan kamroq energiya beradi.

Aksariyat mikrofonlar 20 Gs dan 20 000 Gs gacha bo‘lgan diapazondagi tovushlarni yozib oladi. Shunday qilib, 40 000 Gs diskretlash chastotasi har qanday oddiy foydalanish uchun javob beradi. CD-audio bir vaqtlar 44100 Gs ga standartlashtirilgan edi, shuning uchun ko‘p audio fayllar odatda Naykvist-Shannon mezonlariga javob berish uchun 44100 Gs [4] da diskretlanadi. 44100 Gs chastotali yuqori diskretlash chastotasi signalning inson tomonidan idrok etilishi mumkin bo‘lgan butun spektrni qamrab olishini ta’minlaydi, ammo amalda bu shart emas. Aksariyat audio signallar 22050 Gs dan past chastotalarda mavjud. 16 000 Gs chastotada signalni taqdim etish orqali kamida 8000 Gs chastotali har qanday signalni aniq qayta tiklash mumkin bo‘ladi. Ushbu ishda ham 16000 Gsdagi audio fayllardan foydalanilgan.



1-rasm To‘rtburchaklar, hyemming, xanning oyna mashinalari yordamida STE konturi.


Yuqori chastotalarga erishilganda, quvvat ko‘pincha ahamiyatsiz bo‘lgan nuqtaga tushadi [5]. Quvvatni taxminan 80% birinchi 1000 Gs chastotada ekanligini baholangan. Shaxs ovozi asosida uning modelini yaratish uchun ahamiyatli bo‘lishi mumkin bo‘lgan muhim xususiyatlar ba’zan yuqori chastotalarda joylashgan bo‘ladi. Signalni vaqt qatoriga dastlabki

ishlov berish (3) filtrini qo‘llash yuqori chastotalar uchun signal-xalaqit nisbatini kamaytirishga yordam beradi.

$$\tilde{x}[n] = x[n] - \alpha x[n-1] \quad (3)$$

bu yerda $\alpha \in (0,1)$. α uchun eng keng tarqalgan diapazon 0,95 dan 0,97 gacha, ammo 0,9 dan 1,0 gacha bo‘lgan qiymatlardan ham ayrim tizimlar foydalanadi.

2-rasmda nutq signaliga (3) filtri orqali dastlabki ishlov berishdan oldin va keyin olingan spektrogrammalar keltirilgan.



2-rasm. Pre-emphasis filtri qo‘llashdan oldin va keyin nutq signalining spektrogrammasi o‘zgarishi

Xulosa. Maqolada nutq signalini shovqinlardan tozalash bo‘yicha SR va ASST algoritmlarining samaradorligi ko‘rib chiqildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ASST algoritmi shovqinli muhitda ham nutq signalining sifatini yaxshilashda samarali natijalar beradi. SNR qiymatlarining o‘sishi orqali shovqinlarni kamaytirish samaradorligi tasdiqlandi. Qisqa muddatli energiya va pre-emphasis filtr kabi usullar esa signalga dastlabki ishlov berishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu usullar nutqni aniqlash tizimlarining barqarorligini va ishlash aniqligini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. *Огнев И.В., Парамонов П.А. Предварительная обработка речевого сигнала для построения базы произношений одиночных слов // Информационные средства и технологии: труды Международной научно-технической конференции (20 – 22 октября 2012 г.): в 3 т. – М.: МЭИ, 2012. – 1 т. – с. 53-58.*
2. *Sang-Sik A. An improved statistical model-based VAD algorithm with an adaptive threshold // A.Sang-Sik, L.Yoon-Chang // Journal of The Chinese Institute of Engineers //Taipei. – 2006. – Vol. 29. – No. 5. – P. 783–789.*
3. *Зилинберг А.Ю. Разработка и исследование временных и спектральных алгоритмов VAD (Voice Activity Detection) //А.Ю.Зилинберг, Ю.А.Корнеев // Российская школа-конференция «Мобильные системы передачи данных» / Зеленоград: МИЭТ, 2006. – С. 58–70.*
4. *N.S. Mamatov, O.J. Babomurodov, X.T. Dusanov Automatic speaker recognition through voice using deep neural networks. Journal of Computer Science Engineering and Information Technology Research (JCSEITR) ISSN (Print): 2250-2416; ISSN (Online): Applied Vol. 14, Issue 1; Jun 30 2024, 13-20.*
5. *X.T. Дусанов The issue of recognizing a person based on his voice. Computer Science and Engineering Technology. Collection of materials of the international scientific and technical conference - Jizzakh: Jizzakh branch of UzMU, October 13, 2023. 140-143 bet.*

ARXIVDA MATNLARNI QIDIRISH USULLARI TAHLILI

Dauletov A.Y.,
ALFRAGANUS UNIVERSITY
Raqamli texnologiyalari kafedrasi dotsenti
Sabirova S.T.,
Alfraganus university, Magistranti
Oydinov S.SH.
Alfraganus university, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada arxiv hujjatlari matnlarini izlashda qo‘llaniladigan usullar kalit so‘z, filtrlash asosidagi kengaytirilgan va semantik qidirish usullari tahlil qilinadi. Har bir yondashuvning arxiv axborot tizimlarida qo‘llanilish imkoniyatlari baholanadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlashga asoslangan semantik qidirishning ma’no jihatdan izchil natijalar taqdim etishdagi ustunliklariga alohida e’tibor qaratiladi.*
Kalit so’zlar: *qidirsh, filtrlash, sun’iy intellekt, arxiv, semantic*

Abstract. *This article analyzes the methods used in searching for the texts of archival documents, including keyword, filtering-based, and semantic search methods. The possibilities of each approach for use in archival information systems are assessed. In particular, special attention is paid to the advantages of semantic search based on artificial intelligence and natural language processing in providing semantically consistent results.*
Keywords: *search, filtering, artificial intelligence, archive, semantic*

Аннотация. *В статье анализируются методы поиска текстов архивных документов, в том числе методы поиска по ключевым словам, на основе фильтрации и семантические методы поиска. Оценивается потенциал использования каждого подхода в архивных информационных системах. В частности, особое внимание уделяется преимуществам семантического поиска на основе искусственного интеллекта и обработки естественного языка в предоставлении семантически согласованных результатов.*
Ключевые слова: *поиск, фильтрация, искусственный интеллект, архив, семантический*

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamlashtirish jarayonlarining kengayishi natijasida arxivlarda saqlanayotgan hujjatlar soni keskin ortib bormoqda. Mazkur hujjatlarni tartibga solish, saqlash va eng asosiysi, ulardan tezkor va samarali foydalanish imkonini beruvchi axborot izlash tizimlariga bo‘lgan ehtiyoj kundan-kunga ortmoqda. Ayniqsa, matnli hujjatlar bilan ishlovchi arxiv tizimlarida foydalanuvchi tomonidan kiritilgan so‘rovlar asosida kerakli ma’lumotlarni topish uchun ishonchli va samarali qidiruv mexanizmlarining mavjud bo‘lishi katta ahamiyatga ega[1]. a

An’anaviy qidiruv usullari, jumladan, kalit so‘zlar bo‘yicha aniq qidirish va filtr asosida qidiruvlar ko‘p hollarda foydalanuvchi ehtiyojini to‘liq qondira olmaydi, chunki ular matnning kontekstini hisobga olmaydi. Shu bois, so‘nggi yillarda semantik qidiruv

texnologiyalari keng qo‘llanila boshladi. Bu usullar sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) kabi zamonaviy texnologiyalarga asoslanib, foydalanuvchining izlash maqsadini chuqurroq anglash imkonini beradi[2,3].

Mazkur tadqiqotda arxiv matnlarini izlashda qo‘llaniladigan turli usullar – kalit so‘z asosidagi aniq qidiruv, filtrlashga asoslangan kengaytirilgan qidiruv va semantik qidiruv texnologiyalari o‘rganiladi. Har bir yondashuvning afzalliklari va cheklovlari tahlil qilinadi hamda ularning arxiv axborot tizimlariga tatbiq etish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.[4]

Kalit so‘z bo‘yicha aniq qidirish usuli. Kalit so‘z bo‘yicha aniq qidirish algoritmi zamonaviy axborot izlash tizimlarining eng oddiy, ammo ishonchli va aniqlik darajasi yuqori yondashuv hisoblanadi. Bu algoritmning asosiy maqsadi foydalanuvchi tomonidan kiritilgan matnni matnlar to‘plamida to‘liq va aynan o‘z holicha mavjudligini aniqlashdir. Ushbu qidirish usuli deterministik bo‘lib, **matnni to‘liq substring** sifatida topishni talab qiladi. Faraz qilaylik, bizda matnlar to‘plami quyidagicha ifodalangan bo‘lsin:

$$D = \{d_1, d_2 ..., d_n\}$$


bu yerda d_i – bu i – hujjatni anglatadi. Foydalanuvchi tomonidan kiritilgan qidirish so‘zi $q \in$ bo‘lib, izlash natijasi quyidagi matematik ifoda bilan belgilanadi:

$$\text{Re}\,sult(q) = \{d_i \in D \mid q \in d_i\}$$

ya’ni, faqatgina q matni aniq ko‘rinishda mavjud bo‘lgan hujjatlar natijaga qaytariladi. Ushbu jarayon odatda for sikl orqali har bir hujjatda q mavjudligini tekshirish orqali amalga oshiriladi. Misol uchun, Python tilida “if q in d:” yoki C++ tilida “if (d.find(q) != string::npos)” operatori orqali real hayotda qo‘llaniladi. Ushbu algoritmning hisoblash murakkabligi (time complexity) indekslashsiz holatda quyidagicha baholanadi:

$$O(n \cdot m)$$

bu yerda n — hujjatlar soni, m— har bir hujjatning o‘rtacha uzunligi. Agar invert indeks (inverted index) ishlatilsa, murakkablik O(1) darajasigacha kamayadi, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri indeks bo‘yicha hujjatlar olinadi[5].



1-rasm. Kalit so‘z bo‘yicha aniq qidirish usuli a

Aniq moslik qidirish algoritmi o‘zining yuqori aniqligi, tezkorligi va soddaligi bilan ajralib turadi. U ko‘pgina real tizimlarda — elektron arxivlar, qonunchilik bazalari, patent tizimlari va kutubxonalarda samarali ishlatiladi. Aynan to‘g‘ri yozilgan matnga asoslangan izlanishlar uchun juda qulay, chunki u noto‘g‘ri yozilgan yoki ma’nodosh so‘zlarni tan olmaydi. Shuning uchun bu algoritm ma’no yoki sinonimlarni tahlil qilishdan yiroq, lekin aynan **aniq, ishonchli** qidiruvni talab qiladigan tizimlar uchun ideal hisoblanadi. Bugungi kunda bu usul ko‘pincha TF-IDF, Fuzzy Search yoki semantik izlash (BERT) kabi ilg‘or metodlar bilan birga kompleks qidiruv tizimlarining tarkibiy qismi sifatida ishlatiladi. Demak, aniq qidiruv — bu nafaqat mustaqil izlash usuli, balki zamonaviy qidiruv arxitekturasi uchun ishonchli asos hamdir[6,7].

Filtrlash asosidagi kengaytirilgan qidirish usuli. Filtrlash asosidagi kengaytirilgan qidiruv zamonaviy axborot tizimlarining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, u foydalanuvchiga nafaqat kalit so‘z, balki qo‘shimcha parametrlar — masalan, muallif, sana, til, mavzu yoki tashkilot kabi metadata maydonlari orqali aniq ma’lumotni izlash imkonini beradi. Bu yondashuv orqali axborot izlash aniqlashtiriladi, kontekstga mos va maqsadga yo‘naltirilgan natijalar

taqdim etiladi. Har bir hujjat strukturali shaklda saqlanib, uning metadata qismi qidiruv samaradorligini oshiradi. Foydalanuvchi bir vaqtning o‘zida bir nechta filtrlarni belgilab, faqat barcha shartlarga javob beruvchi hujjatlarni ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu qidiruv modeli mantiqiy AND (∧) shartlariga asoslangan bo‘lib, faqat barcha shartlar bajarilgandagina natija sifatida qabul qilinadi. Matematik nuqtai nazardan qidiruv natijasi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$Result(q, f_1..., f_k) = \{d_i \in D \mid q \in d_i \wedge f_1(d_i) \wedge f_2(d_i) \wedge ... \wedge f_k(d_i)\}$$

bu yerda D — hujjatlar to‘plami, q — kalit so‘z, $f_1, f_2, ..., f_k$ — filtrlar funksiyalari bo‘lib, har biri hujjat atributlariga nisbatan tekshiriladi. Masalan, foydalanuvchi “arxiv tizimi” so‘zini, muallif sifatida “Adilbek Yusupbayevich” ni, 2020–2023 yillar oralig‘idagi sanani va til sifatida “uzbek”ni tanlasa, natijaga faqat ushbu to‘liq shartlarga mos keluvchi hujjatlar chiqadi. Quydagi 1-jadval Algoritm logikasi (psevdokod) ko’rinishi keltirilgan.

1-jadval. Algoritm logikasi (psevdokod)

```
1. R ← bo‘sh ro‘yxat (natijalar)

2. har bir hujjat d ∈ D uchun:
   2.1. agar q ∈ d.content bo‘lmasa:
      → davom et (skip)

   2.2. agar f₁ mavjud bo‘lsa va d.author ≠ f₁:
      → davom et

   2.3. agar f₂ mavjud bo‘lsa va d.date ∉ f₂:
      → davom et

   2.4. agar f₃ mavjud bo‘lsa va d.language ≠ f₃:
      → davom et
   ...
      2.n. agar barcha filtrlar bajarilgan bo‘lsa:
      → R ga d ni qo‘sh

3. R ni qaytar
```

Algoritmning mohiyati quydagicha keltirilgan:

- Har bir hujjatda kalit so‘z mavjudligi tekshiriladi.
- Keyin har bir filtr bo‘yicha shartlar ketma-ket bajariladi.
- Agar barcha shartlar bajarilsa, hujjat natijaga qo‘shiladi.
- Bu yondashuv mantiqiy AND (∧) qoidasiga asoslangan.

Bu yondashuv foydalanuvchi uchun yuqori aniqlikni, kontekstga moslikni va sezilarli vaqt tejamkorligini ta’minlaydi. Interfeys jihatidan filtrlash tizimi oddiy va qulay qilib tuziladi: dropdown menyular, sana tanlov oynalari va checkboxlar orqali

interaktiv qidiruv amalga oshiriladi. Bu turdagi tizimlar, ayniqsa, elektron arxivlar, ilmiy kutubxonalar, patent bazalari va normativ-huquqiy hujjatlar platformalarida keng qo‘llaniladi. Shuningdek, filtrlash yondashuvi Boolean qidiruv modelining amaliy ko‘rinishi bo‘lib, kuchli indekslash bilan birga tez va optimallashtirilgan natijalarni taqdim etadi. Bunday tizimlar Elasticsearch, Lucene yoki Solr kabi platformalarda yuqori darajada qo‘llab-quvvatlanadi. Xulosa qilib aytganda, filtrlash asosidagi kengaytirilgan qidiruv — bu zamonaviy raqamli axborot tizimlarida aniqlik, qulaylik va samaradorlikni ta’minlovchi muhim texnologik yechimdir.

Semantik qidirish usuli. Arxiv hujjatlarini semantik qidiruv asosida izlash zamonaviy axborot tizimlarida katta ahamiyatga ega bo‘lib, foydalanuvchining yozma so‘rovini chuqur semantik tahlil orqali tegishli hujjatlar bilan moslashtiradi. Klassik kalit so‘z qidiruv tizimlaridan farqli ravishda, semantik qidiruv foydalanuvchi qo‘llaydigan ibora yoki so‘zlarning ma’no jihatdan yaqinlik darajasini hisobga oladi. Bu esa ayniqsa tarixiy, huquqiy yoki madaniy mazmundagi arxiv materiallari bilan ishlaganda dolzarb bo‘ladi. Semantik qidiruvda arxiv hujjatlarining har biri va foydalanuvchi so‘rovi oldindan o‘qitilgan til modeli (masalan, BERT, SBERT) yordamida semantik vektorlarga aylantiriladi. Ushbu vektorlar yuqori o‘lchamli fazoda joylashadi va ular orasidagi yaqinlik kosinus o‘xshashligi (cosine similarity) orqali o‘lchanadi. Matematik jihatdan, bu quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$Similarity(q,d) = \cos(\theta) = \frac{q \cdot d}{\|q\| \cdot \|d\|}$$

Bu yerda q — foydalanuvchi so‘rovi vektori, d — arxiv hujjati vektori, skalyar ko‘paytma, $\|d\| va \|q\|$ esa vektor uzunliklari (Evklid normasi)dir. Natijada $Similarity(q, d)$ qiymati 1 ga yaqin bo‘lsa, hujjat mazmunan so‘rovga juda yaqin deb hisoblanadi. Bu usul hujjatlar sarlavhalarida yoki kontentida keltirilmagan, lekin ma’nodosh yoki sinonimik iboralar asosida ham topish imkonini beradi. Masalan, foydalanuvchi “arxiv saqlov rejasi” deb izlasa, tizim “hujjatni uzoq muddatli saqlash siyosati”, “fondlar tasnifi”, “raqamli nusxalash tartibi” kabi iboralarga ega hujjatlarni ham chiqaradi. Bu qidiruv natijalarini semantik jihatdan boyitadi va foydalanuvchining izlash funksiyasini chuqurroq anglaydi. Shu orqali semantik qidiruv arxiv tizimida faqat sintaktik emas, balki **kontekstual izlanish**ni ham ta’minlaydi. Bu esa ilmiy tadqiqotchilar, arxivchilar va foydalanuvchilar uchun kerakli ma’lumotga tez, aniqlik bilan va to‘liq yetib borish imkonini yaratadi. Semantik qidiruv algoritmlari hozirda ko‘pgina ilg‘or axborot tizimlarida — Google Scholar, Yandex, arXiv kabi platformalarda muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Shu bois, arxiv hujjatlari bilan ishlovchi raqamli tizimlarda ham semantik qidiruvni joriy etish — foydalanuvchi ehtiyojini chuqur tushunadigan, aqlli va

interaktiv axborot tizimlari sari muhim qadam hisoblanadi[8,9].

Semantik qidiruv algoritmining so‘z bilan tavsifi:

- Birinchi bosqichda, foydalanuvchi tomonidan kiritilgan matnli so‘rov tizimga yuboriladi. Bu so‘rov oddiy matn ko‘rinishida bo‘lib, uni kompyuter tili tushunadigan shaklga — ya’ni raqamli vektor (embedding) ko‘rinishiga aylantirish kerak bo‘ladi.
- So‘rov matni oldindan o‘qitilgan til modeli yordamida tahlil qilinadi. Odatda bu ish uchun BERT, SBERT yoki RoBERTa kabi model ishlatiladi. Model so‘rovdagi iboralarni analiz qilib, ularning ma’nosini ifodalovchi semantik vektor yaratadi. Ushbu vektor yuqori o‘lchamli fazoda joylashgan va matn mazmunini raqamli ifodalashga xizmat qiladi.
- Keyingi bosqichda arxivda mavjud bo‘lgan barcha hujjatlar birma-bir ko‘rib chiqiladi. Har bir hujjatning matni ham xuddi foydalanuvchi so‘rovidagi kabi embedding model orqali semantik vektorga aylantiriladi.
- Har bir hujjat vektori bilan foydalanuvchi so‘rovi vektori o‘rtasida kosinus o‘xshashligi hisoblanadi. Bu o‘xshashlik ikkita vektorning fazodagi burchaklari asosida aniqlanadi. Agar burchak kichik bo‘lsa (ya’ni o‘xshashlik 1 ga yaqin bo‘lsa), u holda hujjat mazmunan so‘rovga juda yaqin deb hisoblanadi.
- O‘xshashlik ko‘rsatkichi (similarity score) har bir hujjat uchun alohida saqlanadi. Istalgancha hujjatlar ichidan eng yuqori o‘xshashlikka ega bo‘lganlar tanlanadi.
- Agar istalgan holatda minimum o‘xshashlik chegarasi (threshold) belgilangan bo‘lsa, faqat shu qiymatdan yuqori bahoga ega hujjatlar saralanadi.
- Natijalar o‘xshashlik darajasiga ko‘ra tartiblanadi va foydalanuvchiga eng yuqori semantik yaqinlikdagi hujjatlar birinchi o‘rinda ko‘rsatiladi.
- Yakuniy natijada foydalanuvchi kalit so‘zlardan qat’iy nazar, u kiritgan ma’noning kontekstiga yaqin bo‘lgan arxiv hujjatlarini ko‘radi. Bu ayniqsa sinonimlar, turli iboralar, tarixiy uslublar yoki murakkab iboralar bilan ifodalangan hujjatlarni topishda juda foydalidir[10,11].

Axborot izlash tizimlarida qidiruv algoritmining tanlanishi foydalanuvchi ehtiyojiga, ma’lumotlar tuzilmasiga va texnologik imkoniyatlarga bog‘liq. Eng sodda va tez ishlaydigan qidiruv usuli bu — kalit so‘z bo‘yicha aniq qidiruvdir. Bu usulda foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ibora matnlar to‘plamida aynan qanday yozilgan bo‘lsa, shunday ko‘rinishda izlanadi. Uning afzalligi soddaligi va tezkorligida, lekin kontekstni tushunmasligi, grammatik yoki leksik variantlarga moslasha olmasligi kamchilik hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, axborot qidirish tizimlarida mukammal natijaga erishish uchun birgina algoritm yetarli emas. Turli ehtiyojlar uchun turlicha yondashuvlar kerak. Shu sababli, zamonaviy qidiruv tizimlarida aniq qidirish, kengaytirilgan filtrli qidirish va semantik qidirish algoritmlari

birgalikda, o‘zaro integratsiyalashgan holda ishlatilishi optimal yechim hisoblanadi. Bu esa foydalanuvchiga to‘liq, aniq, kontekstga mos va samarali izlash imkoniyatini taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. *B.B. Mo‘minov. Ma’lumotlarni izlash usullari. –T.: «Fan va texnologiya», 2016, 276 bet.*
2. *Semenov R., Sorokin A. Development of an Automated Document Classification System with a Predefined Structure //International Conference on High-Performance Computing Systems and Technologies in Scientific Research, Automation of Control and Production. – Cham : Springer International Publishing, 2022. – S. 125-136.*
3. *Artamonov A. et al. Electronic document processing operating map development for the implementation of the data management system in a scientific organization //Procedia computer science. – 2018. – T. 145. – S. 248 253. Jalal M. J. Analysis and modeling the electronic document management system of ministries of Iraq //Al-Salam Journal for Engineering and Technology. – 2022. – T. 1. – №. 1. – S. 1-10.*
4. *Volkov L.M. Models and algorithms for information processing in electronic document management software systems.” Abstract of Ph.D., Ekaterinburg 2006. -24 pp.*
5. *Muminov B.B., Dauletov A.Yu. Mathematical and information model of electronic document management system // 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). -5p. ©*
6. *Ho Ngoc Zuy. Information processing algorithms in automated electronic document management systems: abstract of Ph.D., St. Petersburg, 2012. - 18 p.*
7. *Lvovich I. et al. Optimization of the subsystem for the movement of electronic documents in educational organization //2021 1st International Conference on Technology Enhanced Learning in Higher Education (TELE). – IEEE, 2021. – S. 328 332.*
8. *Chernyak I. O. Analysis of algorithms and mathematical models for automation of electronic document management //Technical engineering. – 2023. – No. 1 (91). – pp. 178-183.*
9. *Makhmudovich K. S., Ismoilovich N. A. Increasing the Reliability of Texts of Electronic Documents Based on Soft Calculations under Parametric Uncertainty //Middle European Scientific Bulletin. – 2022. – T. 21. – S. 126-132.*
10. *Jumanov, I.I., Karshiev, K.B., Tishlikov, S.A. Examination of the efficiency of algorithms for increasing hereliability of information on criteria of harness and the cost of processing electronic documents // International Journal of Recent Technology and Engineering, 2019, 8(2 Special Issue 11), str. 4133–4139*
11. *Muminov, B., and A. Dauletov. "Provisions of electronic document circulation systems".Current issues in the development of innovative information technologies in transport, vol. 1, no. 1, April 2022, ss. 101 5, doi:10.47689/978-9943-7818-0-1-pp101 105.*
12. *H. J. Lee, H. K. Kim and et al, “Age dependent associations of body mass index with myocardial infarction, heart failure, and mortality in over 9 million Koreans,” European Journal of Preventive Cardiology, May 2022;, zwac09*

UNVEILING TOMORROW: EXPLORING THE FRONTIERS OF INNOVATION

Toshpulatov M.
SpaceTop Research Center, KAIST, South Korea

Annotatsiya. *Dunyo texnologik inqilob yoqasida turibdi, bu yerda sun'iy intellekt (AI), kengaytirilgan reallik (AR) va robototexnika kabi innovatsiyalar bizning yashashimiz, o'rganishimiz va ishlashimizni qayta shakllantirmoqda. Ushbu tadqiqot ushbu rivojlanayotgan texnologiyalarning chegaralarini o'rganadi, ularning qo'llanilishi, asosiy yutuqlari va ular taqdim etayotgan muammolar va imkoniyatlarni ta'kidlaydi. Sun'iy intellekt yordamida tasvirni tanib olishning jonli namoyishi orqali biz ushbu tizimlar vizual ma'lumotni qanday qayta ishlashlarini namoyish etamiz va ularning transformatsion salohiyatini ko'rib chiqamiz. Ushbu ish qiziqish uyg'otishga va talabalarni innovatsiyalarning kelajagi bilan shug'ullanishga undashga qaratilgan.*
Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, kengaytirilgan haqiqat, robototexnika, innovatsiyalar, chuqur o'rganish, tasvirni aniqlash, ResNet-18, texnologik inqilob, texnologiyada etika, kelajak texnologiyalari.*

Abstract. *The world stands on the brink of a technological revolution, where innovations like artificial intelligence (AI), augmented reality (AR), and robotics are reshaping how we live, learn, and work. This study explores the frontiers of these emerging technologies, highlighting their applications, key breakthroughs, and the challenges and opportunities they present. Through a live demonstration of AI-powered image recognition, we showcase how these systems process visual information, offering a glimpse into their transformative potential. This work aims to inspire curiosity and encourage students to engage with the future of innovation.*
Keywords: *Artificial intelligence, augmented reality, robotics, innovation, deep learning, image recognition, ResNet-18, technological revolution, ethics in technology, future technologies.*

Аннотация. *Мир стоит на пороге технологической революции, где такие инновации, как искусственный интеллект (ИИ), дополненная реальность (ДР) и робототехника, меняют то, как мы живем, учимся и работаем. В этом исследовании изучаются границы этих новых технологий, подчеркиваются их приложения, ключевые прорывы, а также проблемы и возможности, которые они представляют. С помощью живой демонстрации распознавания изображений на основе ИИ мы показываем, как эти системы обрабатывают визуальную информацию, предлагая заглянуть в их преобразующий потенциал. Цель этой работы — пробудить любопытство и побудить студентов к взаимодействию с будущим инноваций.*
Ключевые слова: *Искусственный интеллект, дополненная реальность, робототехника, инновации, глубокое обучение, распознавание изображений, ResNet-18, технологическая революция, этика в технологиях, будущие технологии.*

Introduction

Imagine a future where machines see like humans, virtual worlds blend seamlessly with reality, and robots explore distant planets. These aren't distant dreams—they're happening now, driven by cutting-edge technologies. "Unveiling Tomorrow: Exploring the Frontiers of Innovation" dives into this exciting landscape,

asking: What's next, and how can we shape it? This report outlines the current state of emerging tech, demonstrates a practical example of AI in action, and reflects on its implications for tomorrow.

The Landscape of Tomorrow

Emerging technologies are redefining industries and everyday life. Three key areas stand out:

Artificial Intelligence (AI): AI enables machines to learn and make decisions, powering tools like voice assistants and self-driving cars.

Augmented and Virtual Reality (AR/VR): These technologies merge digital and physical realms, enhancing gaming, education, and design.

Robotics: From delivery drones to Mars rovers, robots automate tasks and explore where humans cannot.

Real-world examples show their impact: AI detects diseases in medical scans, AR helps architects visualize buildings, and robots assist in disaster recovery. These fields are the frontiers of innovation—pushing boundaries and opening new possibilities.

Pushing the Boundaries: AI in Action

A standout innovation is AI's ability to process visual information, a cornerstone of modern systems like autonomous vehicles and security cameras. During the conference presentation, we demonstrated this using ResNet-18, a deep learning model trained on the ImageNet dataset.

Demonstration

We fed an image of a dog into ResNet-18, which predicted:

Top Prediction: "Golden Retriever" (Confidence: 92%)

Other Guesses: "Labrador Retriever" (4%), "Dog" (2%)




Figure 1. Image classification using Resnet18 model

This showcases the recognition task—identifying objects in images—a key capability of AI vision systems. Unlike traditional methods (e.g., edge detection), deep learning excels at understanding complex patterns, making it a game-changer for innovation.

Challenges and Opportunities

While these technologies promise a bright future, they come with hurdles:

Ethics: Who's accountable if AI makes a mistake, like misdiagnosing a patient?

Scalability: Training models requires vast data and computing power, raising cost and environmental concerns.

Yet, the opportunities are vast:

Healthcare: Faster, more accurate diagnoses.

Education: Interactive AR tools for learning.

Exploration: Robots tackling dangerous or remote tasks.

Students today can seize these opportunities, contributing to solutions that address these challenges and drive progress.

Conclusion

The frontiers of innovation—AI, AR/VR, and robotics—are unveiling a tomorrow full of potential. Our demo of AI recognizing a golden retriever with 92% confidence is just a peek into what's possible. These technologies are not just tools; they're invitations to explore, create, and innovate. As students, you're poised to shape this future. What frontier will you push next?

List of used literatures:

1. *Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). Deep Learning. MIT Press.*
2. *PyTorch Documentation. (n.d.). ResNet Models. Retrieved from https://pytorch.org/vision/stable/models.html*
3. *Image Source: https://images.unsplash.com/photo-1543466835-00a7907e9de1.*

ИНСОН ҲИС-ТУЙҒУЛАРИНИ ЮЗ ТАСВИРИ ОРҚАЛИ АНИҚЛАШ ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАРИ ВА ҚУРИЛМАЛАРИ

Маматов Н.С.[1], Ниёзматова Н.А.[1],
Тожибоева Ш.Х.[1], Яхяев Б.Ю.[2], Машанпин Т.В.[1]
[1]"Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти" Миллий тадқиқот университети
[2]Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети

Аннотация. *Мазкур тадқиқот иши инсон ҳис-туйғуларини юз тасвири орқали аниқлаш технологияларини таҳлил қилишга бағишланган бўлиб, унда сунъий интеллект ва компьютерли кўриш усуллари асосида турли дастурий воситалар ва қурилмалар ёрдамида ҳиссий ҳолатни аниқлаш жараёнлари кўриб чиқилган. Бундан ташқари, замонавий дастурий воситалар ҳамда қурилмалар ўрганилган бўлиб, уларни функционал вазифалари ёритиб берилган.*
Калит сўзлар: *сунъий интеллект, ҳис-туйғуларни аниқлаш, компьютер кўриш, нейрон тармоқлар, OpenCV, DeepFace, Microsoft Azure Face API.*

Abstract. *This research work is devoted to the analysis of technologies for detecting human emotions through facial images, in which the processes of detecting emotional states using various software tools and devices based on artificial intelligence and computer vision methods are considered. In addition, modern software tools and devices are studied, and their functional functions are described.*
Keywords: *artificial intelligence, emotion detection, computer vision, neural networks, OpenCV, DeepFace, Microsoft Azure Face API.*

Аннотация. *Данная исследовательская работа посвящена анализу технологий детекции эмоций человека по изображениям лица, в которой рассматриваются процессы определения эмоционального состояния с использованием различных программных средств и устройств на основе методов искусственного интеллекта и компьютерного зрения. Кроме того, изучаются современные программные средства и устройства, разъясняются их функциональные задачи.*
Ключевые слова: *искусственный интеллект, распознавание эмоций, компьютерное зрение, нейронные сети, OpenCV, DeepFace, Microsoft Azure Face API.*

Кириш. Инсон ҳис-туйғуларини юз тасвири орқали аниқлаш замонавий технологияларнинг муҳим йўналишларидан биридир. Бунда сунъий интеллект, чуқур ўқитиш (deep learning) ва компьютерли кўриш (computer vision) технологияларидан кенг фойдаланилади. Қуйида ушбу технологияларни ишлаш тамойиллари, дастурий воситалари ва қурилмалари ҳақида батафсил маълумот келтирилган.

Юз тасвири орқали инсон ҳис-туйғуларини аниқлаш технологияси қуйидаги босқичлардан иборат:

1. Юзни ажратиш. Бунда

тасвирга олиш воситаси орқали олинган тасвирдаги инсон юзи жойлашган соҳа ажратиб олинади.

2. Юз хусусиятларини таҳлил қилиш. Бунда кўз, қош, лаб ва бошқа юз мускуллари ҳаракати таҳлил қилинади ва уларга мос белгилар шакллантирилади.

3. Ҳис-туйғуларни таснифлаш. Бунда шакллантирилган белгилар тўплами ёки юз тасвирлари базалари асосида ҳис-туйғулар маълум бир синфларга таснифланади (масалан, хурсанд, ғазаб, ҳайрат, қайғу ва бошқалар).

4. Натижаларни акс эттириш. Бунда ҳис-туйғулар фойдаланувчига намоён этилади ёки муайян тизим томонидан қайта ишланади.

Ҳозирги кунда инсон ҳис-туйғуларини аниқловчи кўплаб аппарат-дастурий воситалар ишлаб чиқилган ва улар инсон фаолиятининг турли соҳаларида кенг қўлланилмоқда. Ҳис-туйғуларини таниб олиш ва таснифлаш тизимларини ишлаб чиқишда қуйидаги дастур ва кутубхоналар мавжуд:

OpenCV (Open Source Computer Vision Library) – бу **очиқ кодли компютерли кўриш (Computer Vision) ва тасвирларни қайта ишлаш (Image Processing)** кутубхонаси бўлиб, **C++, Python, Java ва MATLAB** каби турли дастурлаш тилларида ишлайди. Ушбу кутубхона **реал вақт режимида** тасвир ва видео таҳлил қилиш, юзни аниқлаш, объектларни кузатиш ва сунъий интеллектга асосланган кўплаб алгоритмларни қўллаб-қувватлайди [1].

OpenCV кутубхонасининг асосий хусусиятларидан бири Dlib ва **Deep Learning моделлар** билан интеграцияланиш, юз ифодаларини аниқлаш, шунингдек, тасвир ва видео орқали инсон кайфиятини баҳолашидир.

DeepFace – бу **очиқ кодли** сунъий интеллект кутубхонаси бўлиб, у **юзни аниқлаш, ҳис-туйғуларни таҳлил қилиш, жинс, ёш ва шахсни таниб олиш** имкониятларига эга. У **TensorFlow ва Keras** асосида ишлайди ва **FaceNet, VGG-Face, DeepID, ArcFace** каби юзни таниб олиш илғор моделларидан фойдаланади [2]. Шунингдек, у **Python дастурлаш тили** билан ишлайди ва **Deep Learning, Computer Vision, Face Recognition** соҳаларида жуда машҳур.

DeepFace кутубхонасининг асосий хусусиятларидан бири ҳис-туйғуларни аниқлаш (Emotion Detection) бўлиб, инсон юзидаги **7 хил** асосий **ҳис-туйғуни** аниқлаш имкониятига эга.

Affective AI юз ва овоз ифодаларини таҳлил қилиш орқали инсон ҳис-туйғулари, когнитив ҳолатлари, фаолияти, ўзаро таъсири ва объектларни тушуна оладиган сунъий интеллектни яратувчи дастурий таъминот компаниясидир. Компания 2009 йилда ташкил этилган бўлиб, Бостон ва Массачусец штатида жойлашган. Affective AI нинг қарашлари технологияни инсонпарварлаштириш ва ижобий ижтимоий таъсир яратишдан иборат. Компаниянинг Affective AI дастурий воситаси

ҳайдовчини жисмоний чарчаш, чалғитиш, ақлий чалғитиш, уйқучанлик ва бошқалардан келиб чиқувчи бузилиш даражасини аниқлай олади. Affective Automotive AI шунингдек, йўловчилар кайфияти ва иштирокини кузатиши ва унга мос тажрибани шахсийлаштириши мумкин. Affective Automotive AI етакчи автомобил ишлаб чиқарувчилари, 1-даражали етказиб берувчилар, автомобил алмашиш хизматлари провайдерлари ва автотураргоҳларни бошқариш компаниялари томонидан қўлланилади.

Microsoft Azure Face API – бу булут технологияларига асосланган юзни аниқлаш ва таҳлил қилиш хизмати бўлиб, у турли хил функцияларни бажаришга қодир [3]. Ушбу хизмат **сунъий интеллект** ва **машинали ўқитиш алгоритмлари** асосида ишлаб чиқилган бўлиб, инсон юзини таниш ва таҳлил қилиш имкониятларини тақдим этади. Шунингдек, инсон **ҳис-туйғуларни аниқлаш (Emotion Detection) имкониятига ҳам эгадир.**

Azure Face API REST API орқали ишлайди ва **HTTP сўровлар** орқали қўллаб-қувватланади. Қуйидаги технологиялар билан интеграцияланиши мумкин:

- **Python, C#, Java, JavaScript** каби дастурлаш тиллари;
- **Azure Cognitive Services** доирасида ишлайди;
- **JSON формат** орқали маълумотларни қайтаради.

APIни ишлатиш учун Azure **ҳисоб қайдномасига эга бўлиш** ва **Face API калитини олиш** талаб этилади. APIдан фойдаланиш учун **Azure Portal** ёки SDKлар орқали ишлаш мумкин.

Google Cloud Vision API – бу **Google Cloud** платформаси томонидан тақдим этилган сунъий интеллектга асосланган **тасвирларни таҳлил қилиш хизмати** бўлиб, у суратлар ва видеолардаги объектларни, матнларни, юзларни ва **бахтли, ғазабланган, хафа, ҳайратда** каби ҳис-туйғуларни аниқлаш имкониятига эга ҳисобланади [4]. Бунда ҳар бир ҳис-туйғу даражаси ҳисобланади. Ушбу API **машинали ўқитиш (Machine Learning) ва компютерли кўриш (Computer Vision)** технологияларидан фойдаланади.

FaceReader - бу юзни таҳлил қилувчи дастур бўлиб, у юз ифодаларини аниқлаш имкониятига эга. FaceReader бахтли, қайғули, ғазабланган, ҳайратда қолган, қўрққан, жирканч ва нейтрал каби инсон ҳис туғуларини аниқлаши мумкин [5]. FaceReader юз ифодаларини вебкамера ёрдамида жонли ёки офлайн режимда видео файллар ёки тасвирларда таснифлаши мумкин. Бундан ташқари, инфрақизил тасвирлар ёки видеоларни таҳлил қила олади.

FaceReader юз ифодаларини қуйидаги босқичларда таснифлайди:

1. Юзни аниқлаш. Тасвирдаги юз ҳолати deep learning асосланган юзни топиш алгоритми ёрдамида топилади, у тасвирдаги


турли масштабларда юз кўринишига эга бўлган жойларни қидиради.

2. Юзни моделлаштириш. FaceReader чуқур нейрон тармоқларга асосланган юзни моделлаштиришдан фойдаланади. У сунъий юз моделини синтез қилади, юздаги 468 та асосий нуқтанинг жойлашишини тавсифлайди. Бу юздаги белгилар тўлиқ тўпламини бевосита баҳолашни бир марталик тезкор усулидир. Дастлабки баҳолашдан сўнг, бош компонентлар таҳлили ёрдамида асосий нуқталар сиқилади. Бу юз ҳолатини тавсифловчи юқори даражада сиқилган вектор тасвирига олиб келади.

3. Юз таснифи. Юз ифодаларини таснифлаш юздаги белгиларни аниқлаш учун ўқитилган чуқур сунъий нейрон тармоқ асосида амалга оширилади. FaceReader тасвир пикселларидан юз ифодаларини бевосита таснифлайди. Экспертлар томонидан изоҳланган 20000 дан ортиқ тасвирлардан сунъий нейрон тармоғини ўқитишда фойдаланилган.

FaceReaderда бир нечта юз моделлари, хусусан умумий моделга қўшимча Шарқий Осиё халқлари ва чақалоқлари (6-24 ой) учун моделлар мавжуд. Шарқий Осиёлик шахслар юз тасвирларидан иборат TFEID маълумотлар базасига асосланиб, модел 93% аниқликни таъминлаган, умумий модел аниқлиги эса 91%. Юз ифодаларини таҳлил қилишни бошлашдан олдин, таҳлил қилмоқчи бўлган юзларга энг мос юз моделини танлаш зарур. Чақалоқлар учун модел фақат Baby FaceReaderда мавжуд.

EmoDetect дастури инсон юзини рўйхатга олиш (ёзиш) ва ҳиссий ҳолатини аниқлаш учун мўлжалланган. EmoDetect электрон дастурлар ва маълумотлар базалари ягона реестрига киритилган. EmoDetect дастури тасвирлар намунасидан (видео ёки файллар) инсон психо-эмоционал ҳолатини аниқлаш имконини беради. Қуйидаги расмда EmoDetect интерфейси кўрсатилган.



1-расм. EmoDetect интерфейси.

EmoDetect дастури таснифлагичи инсон психо-эмоционал ҳолатини (ASM) тавсифловчи 20 тагача информацион локал юз хусусиятларини таниш имкониятига эга. Ҳис-туйғуларни таснифлагичи 6 та асосий ҳиссиётларни аниқлаш имконини беради, булар қувонч, ажабланиш, қайғу, ғазаб, қўрқув, жирканишдир.

EmoDetect дастуридан ташқи иловалар томонидан фойдаланиш учун EmoDetect API дастурий интерфейси яратилган, бу мавжуд веб-камералар ҳақида маълумот олиш, таниб олишни бошлаш, юз нуқталари ва аниқланган ҳиссий ҳолатларни узатиш имконини беради.

SAFR Grekkom **компанияси дастурий воситаси бўлиб, у ҳиссиётларни ва юз ифодаларини таниб олишда** қўлланилиши мумкин, бу фойдаланувчилар ва истеъмолчиларни маълум маҳсулот ва хизматларга қандай алоқаси борлигини таҳлил қилиш имконини беради. Юзни таниш – SAFR реал вақтда миллионлаб юзларни бир зумда аниқлай олади ва аниқ мослаштира олади. Дастур ҳатто юзлар ҳаракатланаётган, катта бурчак остида, ёмон ёруғлик шароитида ёки қисман қоронғи бўлган қийин реал шароитларда ҳам таниб олиш имкониятига эга. SAFR 99,87% аниқликка эга бўлиб, жонли видеода юзни 100 миллисекунддан камроқ вақт ичида аниқлаши ва мослаштириши мумкин. Бу юзни аниқлаш рақобатдош алгоритмларига нисбатан 3-5 баравар тезроқ ишлайди.

Ҳис-туйғуларни аниқлаш учун фақат дастурий воситалар эмас, балки махсус қурилмалар ҳам зарур [6]. Қуйида энг машҳур ва кенг фойдаланиладиган қурилмалар келтирилган:

Hikvision компанияси AI ва юзни аниқлаш технологияларига асосланган кузатув камераларини ишлаб чиқиши билан машҳур ҳисобланади. Hikvision камераларида реал вақтда ҳис-

туйғуларни аниқлаш, инсонлар ҳаракатларини кузатиш ва юз ифодаларини таҳлил қилиш функциялари ҳам мавжуд.

Axis Communications компанияси ҳам ақлли кузатув камераларини ишлаб чиқиш билан шуғулланади ва уларни тизимлари юз ифодаларини ўрганиш ҳамда хавфсизлик мақсадларида ҳиссиётларни таҳлил қилиш имконини беради. Panasonic компанияси FacePro каби юзни таниб олиш тизимларига эга бўлиб, AI ёрдамида инсонлар кайфиятини таҳлил қилиш имконини беради. Panasonic i-PRO EXTREME камера линияси билан ҳам машҳурдир. Икки турдаги камералар ва Panasoniснинг тасвирларни қайта ишлаш технологиясидан фойдаланган ҳолда, сенсорли технология инсон ҳис-туйғуларини, уйқучанлигини, шунингдек, иссиқ ёки совуқлик ҳиссини контаксиз аниқлай олади. Bosch компанияси Intelligent Video Analytics (IVA) технологиясидан фойдаланган ҳолда юз ифодалари ва ҳиссиётларни таҳлил қилиш имконини беради. Бу тизим хавфсизлик ва мониторинг соҳасида кенг қўлланилади. Intelbras компанияси VIP 9320 IA FT Starlight технологияси юзни аниқлаш, юз ифодаси ва ҳиссий ҳолат, ёш, жинс каби маълумотларни ажрата олади. Intel RealSense ва Microsoft Kinect иловалари юзни 3D сканерлаш ва ҳис-туйғуларни чуқур таҳлил қилиш имконини беради. Замонавий камера ва сенсорлар инсон юзидаги ифода, эмоция ва кайфиятларни аниқлашда кенг қўлланилади. Бу технологиялар RGB ва инфрақизил (IR) камералар ва 3D сканерлар ёрдамида юз ифодаларини энг майда тафсилотларини ҳам қайд этиб, уларни сунъий интеллект алгоритмлари орқали таҳлил қилиш имкониятига эга.

Smart кўзойнакларда ҳам юзни аниқлаш, юз ифодаси ва ҳиссий ҳолат, ёш, жинс каби маълумотларни ажрата олиши мумкин. Хусусан, Google Glass [7], Tobii Pro Glasses, JINS MEME, Emteq Labs OCOsense Smart Glasses, North Focals каби ақлли кўзойнаклар инсон ҳис-туйғуларини таҳлил қилишга ёрдам беради.

Хулоса

Мақолада инсон ҳис-туйғуларини юз тасвири орқали аниқлашнинг мавжуд дастурий воситалари ва қурилмалари ўрганилиб, уларни ўзига хос хусусиятлари баён этилди. Улар юзни аниқлаш, юз ифодаси ва ҳиссий ҳолат, ёш, жинс каби маълумотларни ажратишда қўлланилиши мумкин. Бундан ташқари, юз тасвири орқали инсон ҳис-туйғуларини аниқлаш технологияси босқичлари келтириб ўтилди. Инсон ҳис-туйғуларини аниқлаш технологиялари инсон фаолиятининг кўплаб соҳаларида кенг қўлланилмоқда. OpenCV, DeepFace, Microsoft Azure Face API ва бошқа воситалар ҳис-туйғуларни аниқлашда самарали натижаларни

таъминлайди. Замонавий сенсор ва камералар орқали юз ифодаларини аниқлаш янада такомиллашиб бормоқда. Бу қўлланиш соҳаларини кенгайиши ва тизимлар аниқлигини оширишга олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. *Bradski, G. (2000). The OpenCV Library. Dr. Dobb's Journal of Software Tools.*
2. *Taigman, Y., Yang, M., Ranzato, M., & Wolf, L. (2014). DeepFace: Closing the Gap to Human-Level Performance in Face Verification. IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR).*
3. *Microsoft Azure. (2023). Face API Overview. Retrieved from https://azure.microsoft.com*
4. *Google Cloud. (2023). Vision AI. Retrieved from https://cloud.google.com/vision*
5. *VicarVision. (2023). FaceReader. Retrieved from https://www.noldus.com/facereader*
6. *Intel Corporation. (2023). RealSense Technology. Retrieved from https://www.intelrealsense.com*
7. *Google. (2023). Google Glass. Retrieved from https://www.google.com/glass*

МАТНЛИ МАЪЛУМОТЛАРНИ ТАСНИФЛАШ УСУЛ ВА АЛГОРИТМЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Ниёзматова Н.А.[1], Маматов Н.С.[2], Турғунова Н.М.[2]
[1]"Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти" Миллий тадқиқот университети қошидаги Фундаментал ва амалий тадқиқотлар институти
[2]"Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти" Миллий тадқиқот университети

Аннотация. *Мазкур мақола матнли маълумотларни автоматик таснифлашни мавжуд усул ва алгоритмлари таҳлилига бағишланган бўлиб, унда Decision Tree (ДТ), Random Forest (РФ), Naive Bayes (НБ) ва Passive Aggressive (ПА) каби машинали ўқитиш алгоритмларининг назарий асослари ва амалий татбиқлари баён этилган. Тадқиқот натижалари маълумот тури, ҳажми ва манбаларга кўра оптимал алгоритм танлаш муҳимлигини кўрсатди. Бундан ташқари, мазкур ишда матнларни олдиндан тайёрлаш босқичлари ҳам ёритилган бўлиб, улар якуний натижага сезиларли таъсир кўрсатиши мумкинлиги асослаб берилган.*

Калит сўзлар: *матн таснифи, табиий тилни қайта ишлаш, машинали ўқитиш, Naive Bayes, Decision Tree, Random Forest, Passive Aggressive, таснифлаш алгоритмлари.*

Abstract. *This article is devoted to the analysis of existing methods and algorithms for automatic classification of text data, in which the theoretical foundations and practical applications of machine learning algorithms such as Decision Tree (DT), Random Forest (RF), Naive Bayes (NB) and Passive Aggressive (PA) are described. The results of the study showed the importance of choosing the optimal algorithm depending on the type, volume and sources of data. In addition, the work also covers the stages of text pre-processing, which can have a significant impact on the final result.*

Keywords: *text classification, natural language processing, machine learning, Naive Bayes, Decision Tree, Random Forest, Passive Aggressive, classification algorithms.*

Аннотация. *Статья посвящена анализу существующих методов и алгоритмов автоматической классификации текстовых данных, а также описывает теоретические основы и практическое применение алгоритмов машинного обучения, таких как Decision Tree (DT), Random Forest (RF), Naive Bayes (NB) и Passive Aggressive (PA). Результаты исследования показали важность выбора оптимального алгоритма в зависимости от типа, размера и источников данных. Кроме того, в данной работе рассматриваются также этапы предварительной подготовки текстов, утверждая, что они могут оказать существенное влияние на конечный результат.*

Ключевые слова: *классификация текста, обработка естественного языка, машинное обучение, наивный байесовский алгоритм, дерево решений, случайный лес, пассивно-агрессивный алгоритм, алгоритмы классификации.*

Ахборот технологиялари тараққиёти матнли маълумотлар ҳажмини кун сайин ортиб боришига олиб келмоқда. Интернет, ижтимоий тармоқлар, янгилик сайтлари, электрон ҳужжатлар ва бошқа кўплаб манбалар орқали улкан матнли ахборотлар ҳосил

бўлади. Бу каби маълумотларни таҳлил қилиш, тартибга солиш ва фойдали ахборот ёки билимга айлантириш эҳтиёжи матнларни автоматик таснифлаш технологияларига бўлган талабни кучайтирмоқда [1, 2].

Матнли маълумотларни таснифлаш олдиндан белгиланган гуруҳлар асосида матн ҳужжатларини автоматик таснифлаш жараёни бўлиб, табиий тилни қайта ишлаш (Natural Language Processing, НЛП) соҳасини асосий йўналишларидан бири ҳисобланади. Табиий тилни қайта ишлаш усуллари ахборотни излаш, спам хабарларни аниқлаш, фойдаланувчи фикрини таҳлил қилиш, янгиликларни категориялаш каби кўплаб амалий соҳаларда кенг қўлланилади [1, 3].

Ахборотни катта қисми матн кўринишида сақланиши ва тарқатилиши сабабли, матнли маълумотларни автоматик таҳлил қилиш замонавий информатиканинг муҳим йўналишларидан бирига айланган. Матнли маълумотларни таснифлаш НЛП ва МЛ технологиялари узвий қисмини ташкил этади [1, 4].

Матнни таснифлашдан мақсад берилган матнни бир ёки бир нечта тоифага гуруҳлаш ҳисобланади. Масалан, янгиликлар мақоласини "спорт", "иқтисодиёт", "маданият" каби категорияларга ажратиш ёки фойдаланувчи фикрларини “ижобий” ва “салбий” деб баҳолаш мумкин. Бундай ҳолларда матн рақамли форматга ўтказилади [2, 5].

Ҳозирги кунда матнли маълумотларни таснифлашнинг кўплаб усул ва алгоритмлари ишлаб чиқилган ва улар матн билан боғлиқ бўлган турли соҳаларда кенг қўлланилади. Қуйида мазкур илмий иш доирасида таҳлил қилинган тўртта асосий модел — ДТ, РФ, НБ ва ПА алгоритмлари ҳақида назарий маълумотлар келтириб ўтилган.

1. Decision Tree (ДТ) дарахт тузилмасига асосланган таснифлаш алгоритми бўлиб, у қарорларни кетма-кет қабул қилиш орқали ишлайди. ДТ алгоритми тушунарли ва талқин қилиш учун қулай бўлсада, айрим ҳолларда ортиқча мослашишга (overfitting) мойилдир [4].

2. Random Forest (РФ) бир нечта қарор дарахтлари мажмуи бўлиб, у ДТга нисбатан барқарор ва умумийлашган натижалар таъминлаш имкониятига эга. РФ ортиқча мослашувни камайтиради, айниқса бу мураккаб матнлар билан ишлашда яхши самарадорлик кўрсатади [4, 5].

3. Naive Bayes(НБ) эҳтимоллик асосида ишловчи алгоритм бўлиб, Байес теоремасига асосланади. Соддалиги ва ишлаш тезлиги билан бошқа айрим алгоритмлардан ажралиб туради. Ушбу алгоритм катта ҳажмдаги матнли маълумотлар учун юқори натижага эга ҳисобланади. Кам манбаа талаб қилгани сабабли тезкор ва амалий тизимларда кенг қўлланилади [1].

4. Passive Aggressive (ПА) онлайн (реал вақт) ўрганиш алгоритми бўлиб, алгоритм катта

ҳажмдаги маълумотлар оқими билан ишлашга мўлжалланган. Унинг афзаллиги тез ўқитиш ва минимал хотира талабидир, бироқ оптимал натижа олиш учун тўғри тахмин қилиши талаб этилади [5].

Ҳар бир алгоритмнинг ўзига хос ижобий ва салбий хусусиятлари мавжуд. Матнли маълумотларни таснифлашда белгиларни шакллантириш усулидан фойдаланиш, танланган усул ёки алгоритм натижавийлигини оширишига, шунингдек, моделларни маълумот ҳажми, тоифалар сони, аниқлик талаби ва ҳисоблаш ресурсларига кўра танланади [5].

Хулоса

Мазкур ишда матнли маълумотларни таснифлаш учун ДТ, РФ, НБ ва ПА каби алгоритмларни ишлаш тамойили ва самарадорлиги таҳлил қилинди. Ҳар бир моделни ишлаш хусусиятлари кўрсатиб ўтилди. Тадқиқот натижаларига кўра, белги шакллантириш алгоритми, модел танлашда эса маълумот ҳажми, аниқлик талаби ва тизим имкониятлари муҳим омил эканлиги аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Sebastiani, F. Machine learning in automated text categorization. ACM Computing Surveys, 34(1), 1–47, 2002.

2. Aggarwal, C. C., & Zhai, C. A Survey of Text Classification Algorithms. In Mining Text Data (pp. 163–222). Springer, 2012.

3. Jurafsky, D., & Martin, J. H. Speech and Language Processing (3rd ed.). Draft, 2020

4. Manning, C. D., Raghavan, P., & Schütze, H. Introduction to Information Retrieval. Cambridge University Press, 2008.

5. Pedregosa, F., et al. Scikit-learn: Machine Learning in Python. Journal of Machine Learning Research, 12, 2825–2830, 2011.

ТАСВИРЛАРНИ ТАСНИФЛАШДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН УСУЛЛАР


Маматов Н.С.[1], Валижонов И.Х.[2], Шукруллоев Б.Р.[1]
[1]"Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти" Миллий тадқиқот университети
2Наманган давлат университети

Annotatsiya. *Maqolada tasvirlarni tasniflashda qo'llaniladigan zamonaviy usullar tadqiq etilgan. An'anaviy usullar, CNN (Convolutional Neural Network), Vision Transformer (ViT) va gibrid yondashuvlar kabi tasniflash metodlari qiyosiy tahlil qilingan. Har bir usulning o'ziga xos xususiyatlari, qo'llanilish sohalari va ularning afzalliklari hamda kamchiliklari ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari tasvirlardagi ma'lumotlarni qayta ishlash uchun maqsadga muvofiq usulni tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi.*
Kalit so'zlar: *Tasvirlarni tasniflash, sun'iy intellekt, mashinali o'qitish, an'anaviy usullar, CNN, Vision Transformer, gibrid usullar, kompyuterli ko'rish, konvolyutsiya qatlamlari, SIFT, HOG, belgilarni ajratish.*

Abstract. *The article studies modern methods used in image classification. Classification methods such as traditional methods, CNN (Convolutional Neural Network), Vision Transformer (ViT) and hybrid approaches are compared. The specific features of each method, areas of application, and their advantages and disadvantages are shown. The results of the study are important in choosing the appropriate method for processing image data.*
Keywords: *Image classification, artificial intelligence, machine learning, traditional methods, CNN, Vision Transformer, hybrid methods, computer vision, convolutional layers, SIFT, HOG, feature extraction.*

Аннотация. *В статье рассматриваются современные методы, используемые при классификации изображений. Были проведены сравнительные анализы методов классификации, таких как традиционные методы, CNN (сверточная нейронная сеть), Vision Transformer (ViT) и гибридные подходы. Описаны особенности каждого метода, области применения, их преимущества и недостатки. Результаты исследования важны для выбора подходящего метода обработки данных изображений.*
Ключевые слова: *Классификация изображений, искусственный интеллект, машинное обучение, традиционные методы, CNN, Vision Transformer, гибридные методы, компьютерное зрение, сверточные слои, SIFT, HOG, извлечение признаков.*

Ҳозирги кунда тасвирларни автоматик таҳлил қилиш ва уларни тўғри таснифлаш сунъий интеллект ва машинали ўқитиш соҳасида муҳим йўналишлардан бири ҳисобланади. Компьютерли кўришга асосланган тизимларда тасвирларни турларга ажратиш, объектларни аниқлаш ва тимсолларни таснифлаш каби вазифаларни ҳал этишда турли усуллар қўлланилмоқда. Бунда тасвирларни таснифлашда қўлланиладиган усуллар сони кўп бўлиб, ишда улар анъанавий, Vision Transformer (ViT), CNN (Convolutional Neural Network), Hybrid (CNN + RNN, CNN + Attention) каби гуруҳларга ажратилган ҳолатда тадқиқ қилинган (1-расм).



1-расм. Тасвирларни таснифлашда қўлланиладиган усуллар

Анъанавий усулда таснифлаш учун SIFT (Scale-Invariant Feature Transform), HOG (Histogram of Oriented Gradients), LBP (Local Binary Pattern), Gabor фильтрлари, Haar cascade classifiers, Edge Detection (Чегараларни аниқлаш), Template Matching (Шаблон солиштириш), Color Histogram (Ранг гистограммаси) каби белгилардан фойдаланилади.

CNN (Convolutional Neural Network) усулида тасвирларни таснифлашда Convolution (Конволюция қатламлари), ReLU (Rectified Linear Unit), Pooling (MaxPooling / AveragePooling), Fully Connected Layers (Тўлиқ боғланган қатламлар), Softmax, Dropout лардан фойдаланилади.

Vision Transformer (ViT) усулида эса Patch Embedding (Бўлакларга ажратиш ва кодлаш), Positional Encoding (Жойлашувни ифодалаш), Classification Token, Multi-Head Self-Attention (MHSA), Feed Forward Network (FFN), Layer Normalization + Residual Connections, Classification Head (Охирги қатлам) лардан фойдаланилади.

Гибрид усулида тасвирларни таснифлаш учун CNN, RNN (Recurrent Neural Network) ёки LSTM / GRU, Attention, Fusion Layers, Classification Head ҳамда бошқаларни биргаликда қўллаш мумкин бўлади.

1-жадвал

Тасвирларни таснифлашда қўлланиладиган усуллар ва уларни қиёсий тавсифи

№	Усул номи	Қисқача таъриф	Қўллаш соҳаси
1	Аънанавий	Тасвирни ранг, шакл, текстура каби белгилари асосида таснифлаш	Оддий тасвирлар, кам маълумотли ҳолатлар
2	CNN	Тасвирдан автоматик белги ажратади, қатламлар орқали ўрганади	Юзни аниқлаш, тиббий тасвирларни таниб олиш
3	Vision Transformer	Тасвирни кичик блокларга бўлиб Transformer билан таҳлил қилади	Кенг кўламли тасвирлар
4	Гибрид	Иккита нейрон тармоқ архитектураси комбинацияси	Видео, вақтли кетма-кетликлар, мураккаб таҳлил

Жадвалдан кўриниб турибдики, тасвирларни таснифлашда турли усуллар қўлланилади ва уларни ҳар бири муайян ютуқ ва камчиликларга эга. Аънанавий усуллар содда структурага эга тасвирлар учун мос бўлса, CNN кўп қатламли таҳлил асосида юқори аниқликни таъминлайди. Vision Transformer эса катта ҳажмдаги тасвирлар ва мураккаб визуал маълумотларни таҳлил қилишда устунликка эга. Гибрид моделлар эса бир неча архитектураларни бирлаштириб, кўпроқ динамик ва комплекс вазифаларни бажаришда самарали ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. *Mamatov, N., Sultanov, P., Jalelova, M., & Samijonov, A. (2023). 2D image processing algorithms for kidney transplantation. Scientific Collection «InterConf»,(184), 468-474.*

2. *Mamatov, N., Jalelova, M., & Samijonov, B. (2024). Tasvir obyektlarini segmentatsiyalashning mintaqaga asoslangan usullari. Modem Science and Research, 3 (1), 1-4.*

3. *Mamatov, N. S., Jalelova, M. M., Tojiboyeva, S. X., & Samijonov, B. N. (2023). Sun'iy Yo 'ldoshdan Olingan Tasvirdagi Dala Maydoni Chegaralarini Aniqlash Usullari. Al-Farg 'oniy Avlodlari Elektron Ilmiy Jurnali.*

MATNLI MA'LUMOTLARDAN FAKTLARNI AJRATISH TEXNOLOGIYALARI

Niyozmatova N.A.[1], Xoitqulov A.A.[2], Mamatov A.A.[3]
[1]"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti qoshidagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti
[2]"Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari" Milliy tadqiqot universiteti
[3]Namangan davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqola matnli ma'lumotlardan faktlarni ajratish texnologiyalari va ularning ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada matnlardan faktlarni aniq va samarali ajratish usullari, jumladan kalit so'zlar asosida ajratish, qoidalarga asoslangan yondashuvlar va mashinali o'qitish metodlari ko'rib chiqilgan. Tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari va semantik tahlil usullari bilan birga, faktlarni ajratishning asosiy bosqichlari - nomlangan entitetlarni aniqlash, munosabatlarni ajratish, voqealarni aniqlash, matndan faktlarni ajratish va ularni validatsiya qilish jarayonlari yoritilgan. Bugungi kunda katta hajmdagi matnli ma'lumotlarni qayta ishlash, ulardan foydali ma'lumotlarni ajratib olish va strukturalashtirish masalasi tibbiyot, huquq, biznes kabi turli sohalarda qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan.*
Kalit so'zlar: *Faktlarni ajratish, matnli ma'lumotlar, tabiiy tilni qayta ishlash, mashinali o'qitish, semantik tahlil, nomlangan entitetlar, ma'lumotlarni tuzish, qoidalarga asoslangan yondashuv, validatsiya, strukturalashtirish.*

Abstract. *This article analyzes the technologies for extracting facts from text data and their importance. The article considers methods for extracting facts from texts accurately and efficiently, including keyword-based extraction, rule-based approaches, and machine learning methods. Along with natural language processing technologies and semantic analysis methods, the main stages of extracting facts are covered - the processes of identifying named entities, extracting relationships, identifying events, extracting facts from text, and validating them. It is emphasized that today the issue of processing large volumes of text data, extracting useful information from them, and structuring them is of great importance in optimizing decision-making processes in various fields such as medicine, law, and business.*
Keywords: *Extracting facts, text data, natural language processing, machine learning, semantic analysis, named entities, data structuring, rule-based approach, validation, structuring*

Аннотация. *В статье анализируются технологии извлечения фактов из текстовых данных и их важность. В статье рассматриваются методы точного и эффективного извлечения фактов из текстов, включая извлечение на основе ключевых слов, подходы на основе правил и методы машинного обучения. Наряду с технологиями обработки естественного языка и методами семантического анализа рассматриваются основные этапы извлечения фактов — идентификация именованных сущностей, извлечение связей, идентификация событий, извлечение фактов из текста и их проверка. Сегодня подчеркивается, что вопрос обработки больших объемов текстовых данных, извлечения и структурирования из них полезной информации имеет большое*

значение для оптимизации процессов принятия решений в различных областях, таких как медицина, юриспруденция, бизнес.

Ключевые слова: *Извлечение фактов, текстовые данные, обработка естественного языка, машинное обучение, семантический анализ, именованные сущности, структура данных, подход на основе правил, проверка, структурирование*

Bugungi kunda axborot texnologiyalarini tez rivojlanishi va internetni keng tarqalishi, katta hajmdagi matnli ma’lumotlarni ishlab chiqishga sabab bo‘lmoqda. Ushbu ma’lumotlar orasida matnli axborot, xabarlar, ilmiy maqolalar, hujjatlar va boshqa ko‘plab matnlar mavjud. Internetda mavjud bo‘lgan bu axborotning katta hajmi va xilma-xilligi inson uchun foydali ma’lumotni tez va samarali tarzda ajratib olishni murakkablashtiradi. Bunda matnli ma’lumotlarni tahlil qilish, ma’lumotlarni ajratish va ularni foydali faktlarga aylantirish talab etiladi.

Matnli ma’lumotlardan faktlarni ajratib olish va strukturaviylashtirish muammosi nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki kundalik hayotda ham katta ahamiyatga ega. Masalan, matnli axborotdan faktlarni ajratish yordamida tibbiyot, huquq, biznes kabi turli sohalarda muhim qarorlar qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish mumkin. Buning uchun matnni qayta ishlash, faktlarni aniqlash va tasniflash uchun tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalaridan foydalaniladi. Matnli ma’lumotlarni tahlil qilish va o‘rganish maqsadida ko‘plab ilmiy va texnologik izlanishlar olib borilmoqda. Biroq, matnli axborot hajmini kattaligi va murakkabligi uning ichidan foydali va aniq faktlarni ajratib olishga to‘sqinlik qiladi.

Faktlarni ajratish jarayonida eng asosiy vazifalar - nomlangan entitetlarni aniqlash, munosabatlarni ajratish, voqealarni aniqlash, matndan faktlarni ajratish va ularni validatsiya qilishdan iborat. Shunday qilib, matndan faktlarni ajratish jarayoni nafaqat muhim ma’lumotni ajratishni, balki bu faktlar to‘g‘riligini va ishonchliligini ham tekshirishni talab qiladi [1].

Bugungi kunda bu jarayonlarni avtomatlashtirish uchun ko‘plab algoritmlar va metodlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, chuqur o‘qitishni neyron tarmoq va transformer tarmog‘ini rivojlanishi faktlarni ajratish samaradorligini yanada oshirdi. Hozirgi kunda matnli ma’lumotlardan faktlarni ajratish sohalarga qarab farqlanadi, quyida matnli ma’lumotlardan faktlarni ajratishni zamonaviy texnologiyalar haqida ma’lumotlar keltirilgan [2].

1. Ma’lumotlarni tuzish texnologiyasi matn ichidan strukturalangan ma’lumotlarni olishni anglatadi. Maqsad matndan faktlarni chiqarib olish va ularni biror bir formatga joylashtirishdir. Bu jarayonda quyidagi elementlar muhim:

- Nomi: Asosiy shaxslar, joylar, tashkilotlar yoki boshqa obyektlar.
- Munosabatlar: Obyektlar o‘rtasidagi aloqalar.

- Vaqt: Faktlarni amalga oshish vaqti.

2. Faktlarni ajratishning asosiy usullari:

a) Kalit so‘zlar asosida matndan muhim faktlarni ajratish amalga oshiriladi. Bu usul matnni asosiy mavzularini aniqlash va ular asosida faktlarni chiqarishga yordam beradi.

b) Qoidalarga asoslangan yondashuvda, faktlarni aniqlash uchun belgilangan qoidalar qo‘llaniladi. Masalan, "shaxs ismi + tug'ilgan sana" kabi qoidalarga asosan faktlarni ajratish mumkin.

c) Mashinali o‘qitish usuli orqali matnli ma’lumotlardan faktlarni ajratish mumkin. Bu usulda model oldindan tayyorlangan ma’lumotlar asosida o‘qitiladi va yangi matnlardan faktlarni aniqlashga harakat qilinadi. Mashinali o‘qitishni quyidagi ikkita asosiy turi mavjud:

- O‘qituvchili o‘qitishda modelga ilgari ajratilgan faktlar bilan trening beriladi, so‘ngra u yangi ma’lumotlarni tushunishga harakat qiladi.
- O‘qituvchisiz o‘qitishda model hech qanday teglar yoki yoritilgan faktlarga tayanmaydi, balki matnni tuzilishi va o‘ziga xos xususiyatlari orqali o‘z-o‘zini o‘rganadi.

d) Ijtimoiy tarmoqlar va tabiiy tilni qayta ishlash. Tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari orqali matn sintaksisi va semantikasi o‘rganiladi va faktlarni aniqlashda kontekst muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

e) Semantik tahlil tahlil orqali matn ma’nosi chuqurroq o‘rganiladi, shunda faktlar aniq va to‘liq ajratilishi mumkin. Bu metod orqali matndagi aloqalar va faktlar o‘zaro bog'lanadi [3].

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. *"Extraction of Structured Information from Unstructured Texts" (2016) - Sergey P. A. Makarov, et al.*
2. *"Automatic Information Extraction from Text" (2004) - Ralph Grishman*
3. *"Text Classification Algorithms: A Survey" (2019) - Kamran Kowsari, Kiana Jafari Meimandi,Mojtaba Heidarysafa, Sanjana Mendu, Laura Barnes and Donald Brown.*

DIGITAL TECHNOLOGIES AND ARTIFICAL INTELLIGIENCE IN EDUCATION: CHALLENGES AND OPPORTUNITIES

Buribaeva Z.R.
Tashkent institute of Management and Economics
Teacher of the department of General economic disciplines

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatning ta'lim, ijtimoiy va madaniy sohalarida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning (SI) roli hamda rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Maqolada raqamli inqilob va sun'iy intellektning imkoniyatlari va cheklovlari, shuningdek, bu texnologiyalarni global miqyosda samarali va xavfsiz qo'llash zarurati ko'rib chiqilgan. Shular bilan birga odamlarni zamonaviy texnologiyalarning kelajagi, ularning inson hayotiga ta'siri va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqida chuqur mulohaza yuritishga undaydi.*
Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, innovatsiya, ta'lim samaradorligi, ta'lim strategiyalari.*

Abstract. *This article analyzes the role and development processes of digital technologies and artificial intelligence (AI) in the education, social, and cultural spheres of modern society. The article examines opportunities and limitations of the digital revolution and AI, as well as the need for the effective and safe application of these technologies on a global scale, were discussed. The article encourages people to reflect on the future of modern technologies, their impact on human life, and their role in societal development.*
Key words. *digital technologies, artificial intelligence, innovation, learning effectiveness, educational strategies.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль и процессы развития цифровых технологий и искусственного интеллекта (ИИ) в образовательной, социальной и культурной сферах современного общества. В статье рассматриваются возможности и ограничения цифровой революции и искусственного интеллекта, а также обсуждается необходимость эффективного и безопасного применения этих технологий в глобальном масштабе. Статья призывает людей размышлять о будущем современных технологий, их влиянии на жизнь человека и их роли в развитии общества.*
Ключевые слова: *цифровые технологии, искусственный интеллект, инновации, эффективность обучения, образовательные стратегии.*

Introduction. Today, digital technologies and artificial intelligence (AI) have become one of the main factors influencing society, the economy, and lifestyle worldwide. These technologies are helping to create not only technical innovations but also new economic systems and cultural changes. The problems, opportunities, and risks associated with the rapid development of digital technologies and artificial intelligence are also of great importance.

The modern world is facing revolutionary changes in the fields of digital technologies and artificial intelligence (AI). They are fundamentally transforming the entire society, economy, science, and everyday life.

The emergence of new technologies and the development of

AI systems, while creating new opportunities for humanity, are also bringing about various challenges is fundamentally changing. The emergence of new technologies and AI systems development, along with creating new opportunities for humanity, also presents various challenges.

Artificial intelligence enables the personalization of the educational process by taking into account the specific needs and abilities of students. For example, programs based on artificial intelligence can identify students' strengths and weaknesses, and provide materials that match their learning styles. Individualization means considering students' individual needs, abilities, and learning styles in the educational process. The goal of this process is to increase students' learning effectiveness by providing education tailored to each student's unique characteristics.

The main aspects of individualization in the educational process involve addressing students' individual needs and increasing their learning effectiveness. This is achieved by tailoring education to each student's individual characteristics through the personalization of learning methods. The main aspects of individualization include: [1]:

1. Student analysis: Using artificial intelligence and analytical systems,

it is possible to analyze students' abilities and knowledge levels. This helps identify students' strengths and weaknesses.

2. Development of personalized learning plans: Based on the obtained information, it is possible to prepare individual learning plans for each student. These plans correspond to the student's unique abilities and learning pace.

3. Use of various materials and methods: By providing personalized educational materials, videos, interactive programs, and games to students, the learning process can become more interesting and effective.

4. Encouraging self-learning: Individualization provides students with opportunities for self-learning. This encourages them to think independently, study topics based on their interests, and expand their knowledge.

5. Effective communication with teachers: Teachers can communicate individually with students, better understand their needs, and develop necessary strategies to support students can exit.

6. Evaluation of results: In the process of individualization it is very important to evaluate and analyze their achievements. This means that students' monitoring changes and further improvement of the educational process allows. Individualization takes into account the specific needs of students in education is of great importance in increasing their success. Digital technologies and artificial intelligence further facilitate this process, effectively supports students' learning.[2]

New methods of studying the topics: Digital technologies and artificial intelligence presentation of educational materials in an interactive and interesting form allows. 3D modeling, virtual reality and interactive simulations allows students to test their knowledge in practice.

New Methods of Studying Topics Digital Technologies and Artificial intellect with the help of artificial intelligence makes the learning process interesting, interactive, and effective allows you to do this. These methods are used in the educational process of students to increase interest and deepen the assimilation of knowledge gives. Here are some of the main new methods:

1. **Interactive learning materials:** Students interactive programs, applications they will have the opportunity to acquire knowledge through games. This materials not only provide information, but also encourage students to actively participate requires participation, which in turn makes learning even more interesting does.

2. **Virtual and augmented reality:** Virtual reality (VR) and augmented reality (AR) technologies allows you to experiment in practice. For example, VR in history lessons explore historical sites or use AR in science lessons complex models can be observed.

3. **Distance learning:** Using digital platforms and online courses distance learning has become easier. Students can come to classes from anywhere and

can enter regardless of time. This makes education more convenient and makes you more flexible.

4. Gamification: Adding game elements to the learning process, for example, students through points, awards, and competitive activities motivation can be increased. This method makes the learning process even more interesting and make it exciting.

5. **Collaborative learning:** Students collaborate using digital tools has the opportunity to work, exchange ideas, and work on team projects will be. This method helps foster peer learning and creativity gives.

6. **Data-based learning:** Artificial intelligence and big data is used to analyze student performance and for teachers appropriate educational strategies will be developed. These teachers need to understand that students' assistance in selecting materials and methods appropriate to their abilities gives.

7. **Personalization of learning:** Specific needs of students and the possibility of creating individual curricula in accordance with learning styles, makes the learning process more effective and personalized.[3] These new methods make the educational process more effective, interactive, and interesting, which helps students acquire knowledge and enhance their self-awareness will contribute to their better development. Digital technologies and artificial the application of intellect creates new

opportunities in education and contributes to improving the quality of students' education.

Teacher support for the success of the educational process is of great importance in ensuring. Digital technologies and artificial intelligence with the help of (SI), teachers perform their work more effectively and comfortably.

will have the opportunity. Basic support for teachers are as follows:

1. Resources and materials: Digital platforms and technologies for teachers when creating, modifying, and updating lesson materials helps. These include interactive presentations, videos, simulations, and can easily prepare other educational materials.

2. Assessment of students: using artificial intelligence and analytical tools teachers assess the level of students' knowledge and their are supported in the analysis of their development. This is for teachers the ability to identify the strengths and weaknesses of each student as well as assistance in the individualization of the educational process gives.

3. Professional development: improving the qualifications of digital technology teachers provide various online courses, seminars, and training programs to improve does. These opportunities provide teachers with new methods and techniques helps in mastering.

4. Collaboration and sharing experience: Through digital platforms teachers exchange experiences with each other, share ideas and will have the opportunity to discuss new ideas. This, stimulates the professional growth of teachers and their unsure that they help one of them.

5. Decision Assistance: Artificial Intelligence to teachers helps in analyzing student outcomes and changes, which and for teachers to more effectively develop educational strategies helps.

6. Time management: Digital tools allow teachers to conduct lessons planning, effective time management and control of the learning process helps to do. This means teachers should pay more attention to their work allows you to.

7. Motivation and Support: Social for teachers stimulating their work by creating networks and communities and can be supported. This is the teacher's attitude towards their work increases their interest and provides them with additional support [4]. Supporting teachers, making the educational process more effective, ensuring the professional development of teachers and working with students are important factors that contribute to successful work. Digital technologies and artificial intelligence play an important role in this process, as they provide teachers with the opportunity to perform their work more effectively and qualitatively creates.

Optimization of the learning process: Digital technologies, distance learning expands learning and online learning opportunities. This is different for students in places and in time, which allows learning makes the process more flexible. Optimization of the learning process, increasing the

effectiveness of education, facilitating the learning process for students and improving results of the Republic of Uzbekistan. Using digital technologies and artificial intelligence the main aspects of optimizing this process are:[5]

1. Creating personalized curricula: Using artificial intelligence is possible to identify the strengths and weaknesses of students. This based on the analysis, individual curricula are prepared for each student. This makes the learning process more effective and individualized.

2. Interactive learning platforms: Students through digital platforms can work with interactive materials. Such platforms will make lessons more interesting and engaging, which will help students increases motivation and improves the learning process.

3. Real-time assessment and analysis: Teaching students in real-time during the learning process assessment and control are available in. Artificial intelligence is used to track student progress, which teachers need allows changing educational strategies.

4. Distance learning: digital technologies for distance learning makes it easier. Students attend classes from anywhere and at any time can access, making learning more convenient and flexible.

5. Encouraging self-learning: Digital technologies students will have the opportunity for self-learning. Learners through online resources, video lessons, and educational apps can expand their knowledge in accordance with their interests.

6. Gamification: By adding game elements to the learning process it is possible to attract students and increase their motivation. Get points, rewards and competitive elements make reading more fun.

7. Collaborative and collaborative learning: Through digital tools student collaboration and collaboration on team projects can do. This process allows for the development of creativity and mutual learning helps to stimulate.

Optimization of the learning process with digital technologies and artificial intelligence help create a more effective, interactive, and accessible learning environment through gives. This is to improve the learning process of students, their to increase motivation and facilitate the work of teachers does [6].

Artificial intelligence data analysis and necessary for teachers to teach students more effectively can help in developing strategies. This means improving the quality of education increases. Data analysis in the educational process using digital technologies and artificial intelligence increasing student success with the help of artificial intelligence, better understanding their achievements and optimizing educational strategies is a necessary process for. Key aspects of data analysis consists of:

Observing student results: Using data analysis student grades, curriculum achievements and activities information about will be

collected. This information is for teachers helps to better understand the abilities of students;

Identifying changes: Success and by observing changes in achievements, teachers can identify problems early on and take the necessary measures to resolve them;

*Optimization of educational strategies:*analyzing how teachers can improve and personalize lessons allows for the development of strategies for. This is the educational process helps make it more efficient;

Opportunities for self-assessment: Data analysis for students creates the opportunity to analyze their own results and self-assess. Students can identify their strengths and weaknesses, as well as take the necessary measures to achieve their goals.

Predictive analysis: Using artificial intelligence, students' future success can be predicted in advance. These are teachers supporting students using information and development of strategies to stimulate their development can exit.

Professional development of teachers: Information from teachers to further improve their methods and the learning process through analysis will have the opportunity to improve the necessary qualifications. This, contributes to improving the overall quality of education[7]. Data analysis in the management and improvement of the educational process plays an important role. Using digital technologies and artificial intelligence carry out data analysis, improve student performance helps to understand and optimize learning strategies, which increases the effectiveness of the learning process.

These aspects in the field of digital technologies and artificial intelligence in the field of education shows what an important role it plays. Their influence on educational processes helps to update and make it more efficient.

Conclusion. Digital technology in the classroom refers to various software and gadgets meant to help students with particular accessibility needs. The most effective way to reduce the number of repetitive, time-consuming duties a teacher undertake is to use technology in the classroom. Educational technology applications may save a lot of time and energy by automating or partially automating day-to-day operations like attendance tracking and performance monitoring. Modern technologies have been instrumental in complicated data analysis and management to make long-term decisions in areas such as climate change, air and water security, biodiversity protection, catastrophe resilience, etc. These technologies refer to innovation that considers natural resources while also promoting economic and social growth. These aim to dramatically decrease environmental and ecological concerns while producing a long-term product.

List of used literatures:

1. Challenges of managing information and communication technologies for education: Experiences from Sokoine National Agricultural Library

International journal of education and development using ICT, 4 (3) (2008)

2. "Pedagogical activity digital competencies" educational and methodological complex. N.S.Sayidova, Bukhara 2024.

3. Role of information communication technologies in education. Proceedings of the 4th National Conference, 6 (2010), pp. 109-126

4. Innovative technologies for education and learning: Education and knowledge-oriented applications of blogs, wikis, podcasts, and more.

5. International Journal of Information and Communication Technology Education (IJICTE), 3 (3) (2007), pp. 70-89.

6. Ivanashko, O., Kozak, A., Knysh, T., Honchar, K. (2024). The Role of Artificial Intelligence in Shaping the Future of Education: Opportunities and Challenges.

7. Kamalov, F., Santandreu Calonge, D., Gurrib, I. (2023). New Era of Artificial Intelligence in Education: Towards a Sustainable Multifaceted Revolution. Sustainability, vol. 15, 16, p.

2-SHO‘BA: MUHANDISLIK YECHIMLARI VA SANOAT 4.0

R-FUNKSIYA USULINI (RFM) QO‘LLAGAN HOLDA KO‘P O‘LCHOVLI FRAKTAL TUZILISHDAGI TASVIRLARNI GEOMETRIK MODELLARINI ISHLAB CHIQISH

Anarova Sh.A.,
TATU professori
Ibrohimova Z.E.,
TATU Samarqand filiali dotsenti
Boliyeva D.N.
Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqola murakkab fraktal tuzilishli ko‘p o‘lchovli shakllarni geometrik usullarda, R-funksiya va iteratsion funksiyalar tizimi (IFS) usuli asosida geometrik model va algoritmlarini qurishga bag‘ishlangan. Mazkur algoritm asosida 3D obyektlar hosil qilingan natijalar taqdim etilgan.*
Kalit so’zlar: *Fraktal, RFM, IFS, geometrik model, 3D obyekt, murakkab shakllarni vizuallashtirish.*

Abstract. *This article is devoted to the construction of geometric models and algorithms for the visualization of multidimensional shapes with complex fractal structures using geometric methods, R-functions and the Iteration Function System (IFS) method. The results of the generation of 3D objects based on this algorithm are presented.*
Keywords: *Fractal, RFM, IFS, geometric model, 3D object, visualization of complex shapes.*

Аннотация. *Статья посвящена построению геометрических моделей и алгоритмов для многомерных фигур со сложной фрактальной структурой с использованием геометрических методов, основанных на R-функции и методе системы итерационных функций (IFS). Представлены результаты генерации 3D-объектов на основе данного алгоритма.*
Ключевые слова: *Фрактал, RFM, IFS, геометрическая модель, 3D-объект, визуализация сложных форм.*

Kirish.

Kompyuter grafikasida murakkab obyektlarni fraktal tuzilishlarini geometrik modellashtirish qiyin jarayondir. Murakkab obyektlarning muhim sinfi tabiat hodisalaridan kelib chiqadi: daraxtlar, o‘simliklar, bulutlar, tog‘lar va boshqalar. Hozirda tadqiqotchilar modellashtirish imkoniyatlarini shu va boshqa sinflarni o‘z ichiga olgan holda kengaytirishning turli usullarini o‘rganishmoqda. Buning uchun muhim salohiyatga ega bo‘lgan matematik tushunchalardan biri fraktallardir. Hozirgi vaqtda umumiy ilmiy jamoatchilikda fraktallardan

murakkab tabiat hodisalari modeli sifatida foydalanishga katta qiziqish mavjud. Biroq, fraktal to‘plamlarni yaratishning faqat bir nechta usullari ma’lum.

Fraktal geometriya odatda rekursiv o‘ziga o‘xshashlik xususiyatlari bilan ifodalanadi, bu qoidalarga asoslangan geometrik tizim bo‘lib, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi, fraktal geometriya konsepsiyasidan foydalangan holda, yangi murakkab fraktal shakllar na’munasini taklif qilishdir.

Materiallar va usullar. Murakkab shakllarni vizuallashtirish uchun ularning tenglamasini yozish kerak bo‘ladi, ya’ni V.L. Rvachev [1] tomonidan ishlab chiqilgan R-funksiya usulini qo‘llab uch o‘lchovli shakllar sohasi geometriya tenglamalarini qurishni amalga oshirish mumkin.

R-funksiya haqiqiy o‘zgaruvchili sonli funksiya bo‘lib, uning ishoralari to‘liqligicha sonlar o‘qi intervalari $(-\infty,0)$ va $[0,\infty)$ ning mos bo‘laklarida argumentlar ishoralari bilan aniqlanadi.

Agar shunday ergashuvchi Φ mantiqiy funksiya mavjud bo‘lib uning argumentlari $sign(z)=\Phi(sign(x), sign(y))$ bo‘lsa, $z=z(x,y)$ sonli funksiya R-funksiya deb ataladi.

R-funksiyalarning bir nechta tizimlari mavjud bo‘lib, ularning har biri yopiq xususiyatga ega. Eng ko‘p ishlatiladigan tizim

$$\begin{cases} f_1 \wedge_\alpha f_2 \equiv \frac{1}{1+\alpha}(f_1+f_2-\sqrt{f_1^2+f_2^2-2\alpha f_1 f_2}); \\ f_1 \vee_\alpha f_2 \equiv \frac{1}{1+\alpha}(f_1+f_2+\sqrt{f_1^2+f_2^2-2\alpha f_1 f_2}); \\ \overline{f} \equiv -f, \end{cases}$$

tizimdir [2]. Bu yerda f_1, f_2 - geometrik obyektlarni tavsiflovchi funksiyalar; $\alpha(f_1, f_2)$ esa $-1<\alpha(f_1, f_2)\le 1$ tengsizlikni qanoatlantiradigan ixtiyoriy uzluksiz funksiya. Argumentlarga nisbatan R_α tizimiga simmetriya berish uchun ushbu tengsizliklarga odatda $\alpha(f_1, f_2)\equiv\alpha(f_2, f_1)\equiv\alpha(-f_1, f_2)\equiv\alpha(f_1,-f_2)$ shartlar qo‘shiladi. $\alpha=0$ da R_0 tizimga ega bo‘lamiz:

$$f_1 \wedge_0 f_2 \equiv \left(f_1+f_2-\sqrt{f_1^2+f_2^2}\right);$$

$$f_1 \vee_0 f_2 \equiv \left(f_1+f_2+\sqrt{f_1^2+f_2^2}\right);$$

$$\overline{f} \equiv -f.$$

$\alpha=1$ da R_1 tizimga ega bo‘lamiz:

$$f_1 \wedge_1 f_2 \equiv \frac{1}{2}\left(f_1+f_2-|f_1-f_2|\right);$$

$$f_1 \vee_1 f_2 \equiv \frac{1}{2}\left(f_1+f_2+|f_1-f_2|\right);$$

$$\overline{f} \equiv -f.$$

R-funksiyalarning oxirgi holatida konyunksiyalar va dizyunksiyalari quyidagilar bilan mos tushadi:

$$f_1 \wedge f_2 \equiv \min(f_1, f_2),$$

$$f_1 \vee f_2 \equiv \max(f_1, f_2).$$

Tadqiqot, R-funksiya nazariyasi asosida murakkab geometrik shakllarning tenglamalarini qurishning tavsiflangan ma’lum usuli asosida uch o‘lchovli geometrik shakllarni elementar tenglamalar bilan tavsiflashga asoslangan. Geometrik obyektning funksional tasviri uni


$\omega(x, y, z) \geq 0$ ko‘rinishdagi bir nechta o‘zgaruvchilarning haqiqiy uzluksiz funksiyasi yordamida bir butun sifatida tasvirlaydi. Bunda R-funksiyalar yordamida to‘plam nazariy amallari analitik tarzda aniqlanadi. Hosil bo‘lgan obyekt nuqta a’zoligi predikati bo‘yicha uchlik mantiqiy amalga mos keladigan chegara nuqtalarini o‘z ichiga oladi [108; 308-b.].

Ko‘pincha murakkab geometrik obyektlarni qurish uchun Eyler-Venn diagrammalari ishlatiladi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, ba’zi geometrik obyektlar oddiy hisoblanadi va xarakterli funksiyalar yordamida belgilanadi, ular ta’rifi bo‘yicha obyekt nuqtalarida birga va undan tashqarida nolga teng deb hisoblanadi. geometrik obyekt $\sum_i$ ning xarakteristik funksiyalari $\sum_i (i = 1, m)$ (ularni bir xil harf bilan belgilaymiz), $F(X_1, ..., X_n)$ esa mantiqiy funksiya bo‘lsin. U holda predikat tenglama deb ataladigan quyidagi

$$\Omega \equiv F(\sum_1, ..., \sum_m) = 1. \quad (1)$$

tenglama to‘plam deb ataladigan Ω obyektini aniqlaydi. (1) shakldagi geometrik obyekt vazifasi predikat deb ataladi. Bu yerda $\sum_i$ oddiy obyektlar qurilish materiali rolini o‘ynaydi va (1) formula oddiy obyektlardan Ω murakkab obyektni qurish mantiqini belgilaydi. E’tibor bering, agar F funksiyasi $\bar{X}$ inkor amalini o‘z ichiga olsa, u holda Ω yopiq to‘plam bo‘lishi shart emas. Buni, masalan, inkor amalini o‘z ichiga olgan formulalar bilan ifodalangan implikatsiya, ekvivalentlik, ekvivalentlikni inkor qilishning elementar mantiqiy funksiyalari uchun Eyler-Venn diagrammalaridan va Sheffer operatsiyasidan ko‘rish mumkin. Agar F bu funksiyalarning birortasi bo‘lsa, u holda $\Omega = [F(P) = 1]$ predikat tenglamasi ochiq ham, yopiq ham bo‘lmagan to‘plam sohasini belgilaydi. Darhaqiqat, u yopiq emas, chunki uning Eyler-Venn diagrammalarida chiziqli chegaralangan hududlari yo‘q va ochiq emas, chunki u qattiq chiziqlar sifatida ko‘rsatilgan chegaralangan hududlarni o‘z ichiga oladi. Shunga o‘xshash vaziyatlarni nazorat qilish va qandaydir tarzda hisobga olish uchun uzluksiz σ funksiyasi tayinlanganda uchta yopiq geometrik obyekt paydo bo‘ladi: $\sigma \geq 0; \sigma = 0; \sigma \leq 0,$ bo‘lsa, mantiqiy algebrada qandaydir tuzatish kiritish yoki aniqrog‘i, 0 va 1 ga qo‘shimcha ravishda uchinchi elementning mavjudligiga imkon berish kerak. Ushbu holat uchun Eyler-Venn diagrammasini sozlash asosiy qiziqish uyg‘otadi, chunki u oddiy obyektlar yordamida murakkab obyektlarni taqdim etishda ishlatiladi [3].

Natijalar. Faraz qilaylik, $\sum_1$ va $\sum_2$ geometrik obyektlar umumiy ichki nuqtalarga ega bo‘ladigan tarzda joylashtirilgan. 1-rasmda kengaytirilgan mantiq algebrasining asosiy elementar funksiyalari uchun Eyler-Venn diagrammalari ko‘rsatilgan.



1-rasm. Kengaytirilgan mantiqiy algebraning asosiy primitivlari uchun Eyler-Venn diagrammasi

Munozara. Kengaytirilgan mantiqiy algebrada Eyler-Venn diagrammalariga mos keladigan geometrik obyekt qurishda yuzaga keladigan vaziyatlarni ko‘rib chiqamiz. Birinchidan, $\sigma_i < 0$ va $\sigma_i > 0$ geometrik obyektlar sohalarining chegarasini belgilaydigan shunday $\partial\sum_i = (\sigma_i = 0)$ geometrik obyektlarni ko‘rib chiqaylik. Bu shartlar, masalan, $\sigma = y - f(x)$, $\sigma = x - \varphi(y)$, $\sigma = P_m(x, y)$ ko‘rinishdagi funksiyalar uchun bajariladi, bunda $\sigma = P_m(x, y)$ butun ratsional funksiya, trigometrik yoki ko‘rsatkichli ko‘phad va hokazo.

Xulosa. Murakkab tuzilishli geometrik obyektning 3D formatidagi funksional tasviri $\omega_i(x, y, z_i) \geq 0$ ko‘pincha sodda uch o‘lchovli tenglamalar emas, balki qurilgan obyekt qismlari chegaralarining tenglamalari haqidagi bilimlarga asoslangan bo‘lishi kerak [4]. Dasturdan foydalangan holda hosil qilinadigan murakkab fraktal tuzilishli ko‘p o‘lchovli tasvirlarni turli o‘yinchoqlar, bino arxitektura dizayni, qurilish materiallariga qo‘llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. *Anarova Sh., Ibrokhimova Z., Berdiev G. An Algorithm for Constructing Equations of Geomtry Fractals Based on Theories of R-functions. Published in: 2020 4th International Symposium on Multidisciplinary Stuies and Innovative Technologies (ISMSIT) INSPEC Accession number: 20116939 DOI: 10.1109/ISMSIT50672.2020.9254635. – P. 192-196.*
2. *Demir, I., Aliaga, D.G., Benes, B.: Proceduralization of buildings at city scale. In: 2014 2nd International Conference on 3D Vision (3DV). Volume 1., IEEE (2014). – P. 456–463.*
3. *Demko, S., Hodges, L., Naylor, B.: Construction of fractal objects with iterated function systems. In: ACM SIGGRAPH Computer Graphics. Volume 19., ACM (1985).*
4. *McGraw T., Herring D.: Shape modeling with fractals. In: Advances in Visual Computing. Springer (2014). – P. 540–549.*

KOMPYUTER GRAFIKASINING GEOMETRIK ALMASHTIRISHLARI ASOSIDA MURAKKAB FRAKTAL TUZILISHLARNI MATEMATIK VA RAQAMLI MODELLASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISH

Ibrohimova Z.E.,
TATU Samarqand filiali dotsenti
Qarshiboyev J.O‘.,
TATU Samarqand filiali talabasi
Xaniyev N.M.
TATU Samarqand filiali magistranti

Annotatsiya. *Hozirgi vaqtda murakkab obyektlarni modellashtirish uchun turli xil texnikalar o‘rganilmoqda. Mazkur maqolada kompyuter grafikasining tekislikdagi ikki o‘lchovli geometrik almashtirishlardan foydalangan holda fraktal tuzilishli murakkab tasvirlarni qurish usullarini takomillashtirishni ko‘ramiz.*
Kalit so’zlar: *Fraktal, koordinatalar sistemasi, geometrik almashtirishlar, ko‘chish, masshtablash, geometrik model, 2D obyekt, murakkab shakllarni vizuallashtirish.*

Abstract. *Currently, various techniques are being studied for modeling complex objects. In this article, we will consider the improvement of computer graphics methods for constructing complex images with fractal structures using two-dimensional geometric transformations in the plane.*
Keywords: *Fractal, coordinate system, geometric transformations, translation, scaling, geometric model, 2D object, visualization of complex shapes.*

Аннотация. *В настоящее время изучаются различные методы моделирования сложных объектов. В данной статье мы рассмотрим совершенствование методов компьютерной графики для построения сложных изображений с фрактальными структурами с использованием двумерных геометрических преобразований на плоскости.*
Ключевые слова: *Фрактал, система координат, геометрические преобразования, трансляция, масштабирование, геометрическая модель, 2D-объект, визуализация сложных форм.*

Kirish. Tekislikda bitta to‘g‘ri chiziqli koordinatalar sistemasidan boshqasiga o‘tish quyidagi tenglamalar orqali amalga oshiriladi:

$$\begin{cases} x' = \alpha x + \beta y + \lambda, \\ y' = \gamma x + \sigma y + \mu, \end{cases} \quad \begin{vmatrix} \alpha & \beta \\ \gamma & \sigma \end{vmatrix} \neq 0. \tag{1}$$

bu yerda $\alpha, \beta, \sigma, \lambda, \mu$ - ixtiyoriy sonlar.

Almashtirish formulalaridagi koeffitsiyentlarning geometrik ma’nosini o‘rganish uchun berilgan koordinatalar sistemasini to‘g‘ri burchakli dekart koordinatalar sistemasi deb hisoblash qulay.

Kompyuter grafikasidagi ikki o‘lchovli geometrik almashtirishlarning xususiy hollarini ko‘ramiz [1].

1. Ko‘chish

Ko‘chish $M(x, y)$ nuqtani $M'(x', y')$ nuqtaga berilgan λ va μ ko‘chish konstantalari vektorining

koordinatalariga qo‘shish orqali amalga oshiriladi.

$$\begin{cases} x' = x + \lambda, \\ y' = y + \mu. \end{cases} \quad (2)$$

2. Masshtablash, Cho‘zish (siqish)

Masshtablash almashtirishi o‘qlari bo‘yicha koordinatalarni cho‘zish (yoki siqish) masshtablash koeffitsiyentlariga ($\alpha > 0, \delta > 0$)ko‘paytirish orqali ifodalanadi:

$$\begin{cases} x' = \alpha x, \\ y' = \delta y, \end{cases} \quad (3)$$

Bu yerda $\alpha > 0, \delta > 0$ - masshtablash koeffitsiyentlari bo‘lib mos ravishda X va U o‘qlari bo‘yicha cho‘zish va siqishni bildiradi.

Agar $\alpha > 1, \delta > 1$ bo‘lsa koordinata o‘qlari bo‘yicha cho‘zish va siqish ta’minlanadi.

Cho‘zish (siqish) almashtirishlarini vektor-matrisa shaklida quyidagicha yozish mumkin:

$$(x', y') = (x, y)\begin{pmatrix} \alpha & 0 \\ 0 & \delta \end{pmatrix}$$

3. Burish

Burish burchagi bilan beriladi va quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$\begin{cases} x' = x\cos\phi - y\sin\phi, \\ y' = x\sin\phi + y\cos\phi, \end{cases} \quad (4)$$

Bu yerda koordinatalar sistemasining boshlang‘ich nuqtasi bo‘ylab soat yo‘nalishiga nisbatan teskari φ burchakka burish bajariladi.

Burish almashtirishini vektor-matrisa shaklida quyidagicha ifodalash mumkin:

$$(x', y') = (x, y)\begin{pmatrix} \cos\phi & \sin\phi \\ -\sin\phi & \cos\phi \end{pmatrix}$$

4. Akslantirish

Tekislikda akslantirish koordinatalar sistemasining o‘qlariga nisbatan bajariladi. Absissa o‘qiga nisbatan akslantirish quyidagicha ifoda orqali amalga oshiriladi:

$$\begin{cases} x' = x; \\ y' = -y. \end{cases} \quad (5)$$

Vektor-matrisa shaklida esa akslantirishni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$(x', y') = (x, y)\begin{pmatrix} 1 & 0 \\ 0 & -1 \end{pmatrix}.$$

Ordinata o‘qiga nisbatan akslantirishning quyidagicha ifodalanadi:

$$\begin{cases} x' = -x; \\ y' = y. \end{cases}$$

Vektor-matrisa shaklida esa:

$$(x', y') = (x, y)\begin{pmatrix} -1 & 0 \\ 0 & 1 \end{pmatrix}.$$

Almashtirishlarni yuqoridagi berilgan to‘rtta xususiy holini berilishidan maqsad:

- har qaysi almashtirish oddiy va tushunarli geometrik ma’noga ega;
- ixtiyoriy almashtirishni ularni ketma-ket bajarish (superpozisiyasi) orqali ifodalash mumkin.

Keyingi masalalarni ko‘rish uchun to‘rtta oddiy almashtirishlarni ham (ko‘chirishni hisobga olgan holda) matrisa shaklida ifodalash kerak. Buning uchun tekislikdagi bir jinsli koordinalardan foydalanamiz.

Faraz qilaylik tekislikda nuqta berilgan bo‘lsin. Ixtiyoriy x_1, x_2, x_3 (bir

vaqtda noldan farqli) sonlar nuqtaning tekislikdagi bir jinsli koordinatalari deb ataladi, agarda:

$$\frac{x_1}{x_3} = x, \quad \frac{x_2}{x_3} = y.$$

Ya'ni ixtiyoriy h≠0 ko'paytiruvchi uchun – $M(hx, hy, h)$.

Materiallar va usullar. Kompyuter grafikasi masalasini yechish jarayonida ixtiyoriy nuqtaning bir jinsli koordinatalari quyidagicha kiritiladi : $M(x, y, 1)$, ya'ni h=1.

Osongina ko'rish mumkinki almashtirish formulalarni bir jinsli koordinatalarda quyidagicha ifodalash mumkin:

$$(x', \quad y', \quad 1) = (x, \quad y, \quad 1) \times \begin{pmatrix} \alpha & \gamma & 0 \\ \beta & \sigma & 0 \\ \lambda & \mu & 1 \end{pmatrix}.$$

Ikki o'lchovli almashtirishlarning xususiy hollari uchun 1, 2, 3, 4 mos matrisalar yozib chiqiladi:

1. Ko'chish matrisasi (translation):

$$K = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ \lambda & \mu & 1 \end{pmatrix}$$

2. Cho'zish (siqish) matrisasi(dilatation):

$$Ч = \begin{pmatrix} \alpha & 0 & 0 \\ 0 & \delta & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{pmatrix}$$

3. Burish matrisasi (rotation):

$$Б = \begin{pmatrix} \cos\varphi & \sin\varphi & 0 \\ -\sin\varphi & \cos\varphi & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{pmatrix}$$

4. Akslantirish matrisasi (reflection):

$$A = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & -1 & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{pmatrix}$$

Ixtiyoriy almashtirishlarning matrisasini yuqorida keltirilgan *K, Ch, B, A.* matrisalarni ko'paytirish(ketma-ket superpozisiya) orqali hosil qilish mumkin. Ular oddiy almashtirishlarning bajarilishiga qarab mos ravishda ko'paytiriladi.

Misol: AVS uchburchakni $A(x, y)$ uchiga nisbatan φ burchakka burish almashtirishining matrisasini qurish.

1-qadam. $A(x, y)$ nuqtani kordinatalar boshiga $(0,0)$, ya'ni $(-x,-y)$ vektoriga ko'chirish :

$$K_{-A} = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ -x & -y & 1 \end{pmatrix}.$$

2-qadam. Koordinatalar sistemasi boshiga nisbatan φ burchakka burish matrisasi:

$$Б_{\varphi} = \begin{pmatrix} \cos\varphi & \sin\varphi & 0 \\ -\sin\varphi & \cos\varphi & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{pmatrix}$$

3- qadam. A nuqtani dastlabki holatiga qaytarish uchun (x, y) vektorga ko'chish matrisasi:

$$K_A = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ x & y & 1 \end{pmatrix}.$$

Keltirilgan tartibda almashtirish matrisalarini ko'paytiramiz:

$$K_{-A} \cdot Б_{\varphi} \cdot K_A.$$

Natijada matrisa ko'rinishida almashtirishni quyidagi ko'rinishda olamiz:

$$(x', y', 1) = (x, y, 1) \times \begin{pmatrix} \cos\varphi & \sin\varphi & 0 \\ -\sin\varphi & \cos\varphi & 0 \\ -x\cos\varphi + y\sin\varphi + x & -x\sin\varphi - y\cos\varphi + y & 1 \end{pmatrix}.$$

E'tibor berilsa barcha almashtirishlarning matrisalari determinantlari noldan farqli.

Natijalar. Dastlab kvadrat R-funksiya usuli yordamida qurib olinadi [2]. Ya'ni

$$\omega = f_1 \wedge_0 f_2 \tag{6}$$

Bu yerda

$$f_1 = \left(a^2 - x^2\right) \geq 0, \quad f_2 = \left(a^2 - y^2\right) \geq 0, \quad a = b$$

R- kon'yunksiya amalini qo'llagan holda ω quyidagicha ifodalanadi.

$$\omega_0 = f_1 \wedge_0 f_2 \geq 0 \tag{7}$$

$$\omega_0(x,y) = (a^2 - x^2) \wedge_0 (a^2 - y^2) = a^2 - x^2 + a^2 - y^2 - \sqrt{(a^2 - x^2)^2 + (a^2 - y^2)^2} \geq 0 \tag{8}$$

Natijada quyidagi shakl hosil bo'ladi.



1-rasm. Spiralsimon fraktalning boshlang'ich qadami

Keyingi qadamda kompyuter grafikasining geometrik almashtirishlaridan foydalanamiz masalan: mashtablash va burishdan. Masshtablashning geometrik almashtirish ifodasi quyidagi ko'rinishda olinadi [3].

$$\begin{cases} x' = \alpha x, \\ y' = \delta y, \end{cases}$$

Burish geometrik amalini ifodalash uchun quyidagi ifodadan foydalaniladi.

$$\begin{cases} x_1 = \cos(\varphi) \cdot x - \sin(\varphi) \cdot y \\ y_1 = \sin(\varphi) \cdot x + \cos(\varphi) \cdot y \end{cases}$$

Ushbu amallar ketma-ket bajariladi. Bunda umumiy geometrik almashtirish uchun superpozisiya qoidasidan foydalangan holda umumiy geometrik almashtirishni ifodalovchi munosabatlarni quyidagicha hosil qilamiz.

Natijada tasvirni ifodalovchi R-funksiya usuli hamda geometrik almashtirishlarni hisobga olgan holda ichki kvadratni tashqi kvadrat ichida burish (aylantirish) va masshtablash orqali spiralsimon fraktallarning keyingi o'xshash shakl elementini ifodalash quyidagi ko'rinishdagi ifoda orqali hosil qilinadi [4].

$$f_{11} = a^2 - (\alpha \cdot \cos(\varphi)x - \alpha \cdot \sin(\varphi)y)^2 \geq 0$$

$$f_{21} = a^2 - (\alpha \sin(\varphi)\mathrm{x} + \alpha \cos(\varphi)\mathrm{y})^2 \geq 0$$


$$\omega_1(x,y) = a^2 - (\alpha \cdot \cos(\varphi) \cdot x - \alpha \cdot \sin(\varphi) \cdot y)^2 + a^2 - (\alpha \cdot \sin(\varphi) \cdot \mathrm{x} + \alpha \cdot \cos(\varphi) \cdot \mathrm{y})^2 -$$
$$- \sqrt{(a^2 - (\alpha \cdot \cos(\varphi) \cdot x - (\alpha \cdot \sin(\varphi) \cdot y)^2)^2 + (a^2 - (\alpha \cdot \sin(\varphi) \cdot \mathrm{x} + \alpha \cdot \cos(\varphi) \cdot \mathrm{y})^2)^2} \geq 0$$


$$\omega_2(x,y) = a^2 - (\alpha \cdot \cos(\varphi) \cdot x_1 - \alpha \cdot \sin(\varphi) \cdot y_1)^2 + a^2 - (\alpha$$
$$- \sqrt{(a^2 - (\alpha \cdot \cos(\varphi) \cdot x_1 - (\alpha \cdot \sin(\varphi) \cdot y_1)^2)^2 + (a^2 - (\alpha \cdot s$$

$$\omega_n = a^2 - (\alpha \cdot \cos(\varphi) \cdot x_{n-1} - \alpha \cdot \sin(\varphi) \cdot y_{n-1})^2 + a^2 - (\alpha \cdot \sin(\varphi) \cdot x_{n-1} + \alpha \cdot \cos(\varphi) \cdot y_{n-1})^2 -$$
$$-\sqrt{(a^2 - (\alpha \cdot \cos(\varphi) \cdot x_{n-1} - (\alpha \cdot \sin(\varphi) \cdot y_{n-1})^2)^2 + (a^2 - (\alpha \cdot \sin(\varphi) \cdot x_{n-1} + \alpha \cdot \cos(\varphi) \cdot y_{n-1})^2)^2} \geq 0$$
$$\alpha = \cos(\varphi) + \sin(\varphi)$$

Bu yerda $n = 1, 2, 3, \ldots$ burilish burchagi, α ya α ning o‘zgaruvchan qiymatlari uchun fraktal shaklimiz har xil ko‘rinishga ega bo‘ladi.


$n = 0, \alpha = \pi/12$


$n = 3, \alpha = \pi/12$


$n = 15, \alpha = \pi/12$

2-rasm Spiralsimon fraktal shakllar

Munozara. Yuqorida keltirilgan V.L.Rvachev R-funksiya usuli hamda geometrik almashtirishlardan foydalangan holda ichki kvadratni tashqi kvadrat ichida burish (aylantirish) orqali spiralsimon fraktallarni geometrik modellashtirish amalga oshirildi.

Xulosa. Kompyuter grafikasining geometrik almashtirishlaridan foydalanib, geometrik fraktallardan iborat murakkab tasvirlar hosil qilindi. Mazkur olingan natijalarni arxitektura dizaynida, to‘qimachilik sanoatida, qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarida qo’llash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. *Xurramova R.I., Anarova Sh.A., Narzulloyev O.M., Ibrohimova Z.E.. Gilam dizayni naqshlari uchun paskal uchburchaklaridan iborat fraktallarni qurishni avtomatlashtirish. // O‘zbekiston to‘qimachilik jurnali. – Toshkent, 2020.*
2. *Prasad, Bhagwati, Kuldip K. Fractals via Ishikawa iteration. // International Conference on Logic, Information, Control and Computation. Springer, Berlin, Heidelberg, 2011. – pp. 197-203.*
3. *Puzachenko, Yu G. Application of Fractal Theory to the Study of Landscape Structure. // Izvestiya RAS, Geographic Series 2 (1997): - pp. 24-40.*
4. *Qu, Chang, et al. Applications of Fractal in Textile Engineering. // Advanced Materials Research. Vol. 627. Trans Tech Publications Ltd, 2013, - pp. 567-571.*

SANOAT KORXONALARIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Xalimov A.A.
O‘zbekneftgaz AJ Mahalliylashtirish va koperatsiya aloqalarini kengaytirish departamenti bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya. *Maqolada sanoat korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (quyosh, shamol, biogaz va boshqa manbalar) foydalanishning iqtisodiy, texnologik va ekologik afzalliklari tahlil qilinadi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini sanoat ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiyalash orqali energiya tejamkorligini oshirish, tashqi energiya resurslariga qaramlikni kamaytirish hamda ekologik barqarorlikka erishish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan yechimlar, xorijiy davlatlar tajribasi va O‘zbekistondagi amaliyotlar o‘zaro solishtirilib, mahalliy sanoat tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishni kengaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Maqola xulosa va takliflarida energetika xavfsizligi, barqaror ishlab chiqarish va yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining o‘rni alohida ta’kidlanadi.*

Kalit so’zlar: *sanoat korxonalari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi, energiyani tejash, energiya tejovchi texnologiyalar, quyosh panellari, shamol energiyasi, biogaz tizimlari, energiya boshqaruvi, energiya siyosati, resurslardan samarali foydalanish, texnologik modernizatsiya, yashil iqtisodiyot, energiya intensivligi, energiya iste’moli, ishlab chiqarish fondlari, ekologik barqarorlik, energiya tahlili, iqtisodiy samaradorlik.*

Abstract. *The article analyzes the economic, technological and environmental advantages of using renewable energy sources (solar, wind, biogas and other sources) in industrial enterprises. The possibilities of increasing energy efficiency, reducing dependence on external energy resources and achieving environmental sustainability by integrating renewable energy sources into industrial production processes are considered. The study compares solutions developed on the basis of modern technologies, the experience of foreign countries and practices in Uzbekistan, and develops proposals for expanding the use of renewable energy in local industrial sectors. The conclusions and proposals of the article emphasize the role of renewable energy sources in energy security, sustainable production and the transition to a green economy.*

Keywords: *industrial enterprises, renewable energy sources, energy efficiency, energy conservation, energy-saving technologies, solar panels, wind energy, biogas systems, energy management, energy policy, efficient use of resources, technological modernization, green economy, energy intensity, energy consumption, production funds, environmental sustainability, energy analysis, economic efficiency.*

Аннотация. *В статье анализируются экономические, технологические и экологические преимущества использования возобновляемых источников энергии (солнца, ветра, биогаза и других источников) на промышленных предприятиях. Были рассмотрены возможности повышения энергоэффективности, снижения зависимости от внешних энергоресурсов и достижения экологической устойчивости за счет интеграции возобновляемых источников энергии в процессы промышленного производства. В ходе исследования были сопоставлены решения, разработанные на основе современных технологий, опыта зарубежных стран и практики Узбекистана, а также разработаны предложения по расширению использования возобновляемых*

источников энергии в местных отраслях промышленности. Выводы и предложения статьи подчеркивают роль возобновляемых источников энергии в обеспечении энергетической безопасности, устойчивого производства и перехода к зеленой экономике.

Ключевые слова: *промышленные предприятия, возобновляемые источники энергии, энергоэффективность, энергосбережение, энергосберегающие технологии, солнечные батареи, ветроэнергетика, биогазовые системы, энергоменеджмент, энергетическая политика, ресурсосбережение, технологическая модернизация, зеленая экономика, энергоемкость, энергопотребление, производственные фонды, экологическая устойчивость, энергетический анализ, экономическая эффективность.*

Kirish

O‘zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari hamda sanoatning eskirgan infratuzilmasini yangilash, iste’molchilarning energiya resurslariga o‘sib borayotgan talabini qondirish maqsadida sohada tizimli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish, energiya tejamkorligiga erishish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish va bu borada aholini qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Energiyadan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi, “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunlar takomillashtirildi, mazkur yo‘nalishni rivojlantirishga qaratilgan bir qator Prezident qarorlari qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaroriga muvofiq, O‘zbekistonda 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 25 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish maqsad qilib olgan. 2020-yildagi holat bo‘yicha bu ko‘rsatkich 10 foizni tashkil etgan[1].

Sanoatda energiya tejamkorligiga erishish va energiyadan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Sababi, energiya xarajatlarini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish masalalari sanoat korxonalarini iqtisodiy rivojlanish darajasi va raqobatbardoshligiga ko‘p jihatdan bog‘liqligi ushbu tadqiqot ishining dolzarbligini oshiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Jahon olimlari tomonidan R.A.Burganov va boshqalar tadqiqotida[2] kompaniya faoliyatida energiyaning barcha turlarini (energiya, issiqlik, mexanik, yorug‘lik, inson va boshqalar) hisobga olgan holda kompaniyaning energiya tejash va energiya samaradorligi ko‘rsatkichlarini hisoblash metodologiyasini taklif etadi.

L.G.Giraudet[3] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda energiya sarfini kamaytirishda axborot oqimlarini

boshqarish eng muhim yo‘nalish ekanligi asoslangan.

W.Mao va boshqalar[4] tadqiqotlarida esa sanoat korxonalarida buyumlar Interneti (Internet-of-Things) texnologiyalaridan foydalanish asosida energiya sarfini hisoblash va uni kamaytirish yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqqan.

N.R. Kelchevskaya, E. V.Shirinkina, I.V.Atlasovlar[5] tadqiqotlarida esa sanoat korxonalarida energiya samaradorligi bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligini belgilaydigan energiyani boshqarish omillari aniqlangan.

I.M. Galyautdinov tadqiqotlarida esa[6] energiyani tejash chora-tadbirlarini amalga oshirish asosida neft va gaz sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari taklif etiladi. M.Abdullayeva, S.Shodmonovlar[7] mahsulot tannarxini energiya sarfini pasaytirish orqali kamaytirish masalasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. M.N.Mamatyusup, S.Mutallibjonovlar[8] esa O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasidan samarali foydalanish yo‘l-yo‘riqlari, energiya tejamkorligi bo‘yicha O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan asosiy islohotlarni tahlil qilgan.

A.Yusupov[9] tadqiqotlari esa energiya iste’moli balansi tahlili, energetikaning asosiy sifat ko‘rsatkichlari va ularni oshirish yo‘llari, texnik uskunalar va elektrotexnologik qurilmalarini ekspluatatsiyalashni takomillashtirish orqali energiyani tejash va quvvat koeffitsiyentini oshirish masalalariga bag‘ishlangan.

“Energiyani tejash” va “energiya samaradorligi” atamalari bo‘yicha klassik ta’riflar V.V. Bushuev, A.M.Belogoriev, E.A.Borgolov, V.V.Timatkov[10] asarlarida ko‘rib chiqilgan. Mutaxassislarning fikricha, energiya samaradorligi - bu energiya resurslaridan oqilona foydalanish, ya’ni texnologiya va ekologik talablarga rioya etishning hozirgi rivojlanish darajasida yoqilg‘i-energetika resurslaridan iqtisodiy jihatdan samarali foydalanishga erishish, energiyani tejash esa energiyani yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar majmuidir. Samaradorlik, buning natijasida foydali ta’sirga erishish xarajatlarini kamaytirish yo‘llari sifatida qayd etadilar.

Umuman olganda energiyani tejash sanoat korxonalarini rivojlantirishning muhim yo‘nalishi hisoblanadi, chunki u energiya resurslaridan yanada samarali foydalanishga, atrof-muhitga va ijtimoiy jihatga yukni kamaytirish shaklida foydali ta’sirni oshirishga qaratilgan faoliyatdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda chakana savdo faoliyatida raqamli marketing va neyromarketing strategiyalarining integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi, ularning iste’molchi xulq-atvoriga ta’siri va raqobatbardoshlikni oshirishdagi o‘rni o‘rganildi. Tadqiqotda nazariy va amaliy yondashuvlar uyg‘unlashtirildi.


Tahlil va natijalar

Sanoat korxonalarida energiya tejash jarayonlarini boshqarish strategiyasi energiya tejovchi loyihalarni

amalga oshirish asosida energiya iste'molining yuqori texnologiyali darajasiga va energiya resurslarini boshqarish samaradorligiga erishish-dan iboratdir. Energiyani tejovchi loyihalarni amalga oshirish mexanizm-ning asosiy elementlari 1-rasmda tavsiya etiladi.

Har qanday sanoat korxonalari energiya samaradorligiga erishish bo'yicha yuqori darajada foydalanilmagan imkoniyat va zaxiralarga ega. Ayniqsa bunday imkoniyatlar sanoat korxonalarining yordamchi jarayonlarida yuqori hisoblanadi. Sanoat korxonalarida energiya tejovchi loyihalarni amalga oshirishni boshqarishni tashkil etishning taklif etilayotgan mexanizmi birinchi bosqichda energiya samaradorligiga erishish chora-tadbirlarning maqbul portfelini tahlil qilish va shakllantirishni hamda maqbul loyihalarni tanlash imkonini beradi. Taklif etilayotgan mexanizmning amalga oshirilishi sanoat korxonalarida energiyani tejovchi loyihalarni amalga oshirishda samarasiz resurs xarajatlari darajasini pasaytiradi va natijada doimiy resurslar bilan ta'minlangan holda uning faoliyati samaradorligini oshiradi.

So'ngi yillarda kuzatilayotgan energetika tizimidagi uzilishlar barcha tarmoqlar, jumladan sanoat korxonalarini ham energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish, issiqlik energiyasi ishlab chiqarishda yoqilg'i resurslarining hajmini jahon standartlari darajasida qisqartirishga erishish muhim muammolar sifatida qaralmoqda. Ushbu muammolarni hal etishda sanoat korxonalarida QTE manbalaridan foydalanish bo'yicha xalqaro tendensiyalarni tahlil etish va ularga moslashuvchan strategik vazifalarni belgilash dolzarb ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. Sanoat korxonalarida energiya tejovchi loyihalarni boshqarish mexanizmi[11]

Sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirishning taklif etilgan uslubiy vositalaridan foydalanish energiya iste’molini boshqarish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Sanoat korxonalarining energiya iste’molini boshqarish tizimlari ochiq va moslashuvchan bo‘ladi hamda bunda umumiy mezon energiyani samarali iste’mol qilishga moslashish va korxonaning ichki muhiti bilan o‘zaro ta’sirini har tomonlama baholash birinchi o‘ringa chiqadi.

Sanoat ishlab chiqarishida energiya tejashni boshqarishning asosiy funksiyalarini amalga oshirish va tegishli boshqaruv vositalaridan foydalanish energiya samaradorligini baholash bo‘yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Sanoat korxonasida energiyadan foydalanish samaradorligi mahsulotning energiya sarfini kamaytirishda avtomatlashtirilgan boshqaruv vositalaridan foydalanish talab etiladi. Sanoatda energiyadan foydalanish samaradorligini baholashda korxona energiya dinamikasining mehnat samaradorligi va uning unumdorligi nisbati, shuningdek, asosiy ishlab chiqarish fondlarining energiya zichligi va aktivlarning rentabelligini hisobga olishi talab etiladi.

Sanoatni energiya tejamkor texnologiyalar asosida texnologik jarayonning barcha bosqichlarida elektr energiya samaradorligini oshirish va undan oqilona foydalanish hamda ishlab chiqarish quvvatini optimallashtirishga qaratilgan dasturlar barcha korxonalarning ishlab chiqarish texnologiyasi va infratuzilma obyektlari bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilishi lozim.

Xulosa va takliflar

Yakuniy xulosalardan ko‘rinib turibdiki, sanoat korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlash, balki uzoq muddatda energiya xarajatlarini kamaytirish, ishlab chiqarish barqarorligini oshirish va xalqaro "yashil iqtisodiyot" standartlariga moslashish imkonini beradi. O‘zbekiston sanoatida hali ham an’anaviy energiya manbalariga yuqori darajada bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu ishlab chiqarish tannarxiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Huquqiy va iqtisodiy rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish – sanoat korxonalarida quyosh panellari, shamol turbinalari yoki biogaz qurilmalarini joriy etgan subyektlar uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar ajratish. Texnologik modernizatsiya dasturlariga qayta tiklanuvchi energiya komponentlarini kiritish – mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini energiya tejamkor texnologiyalar asosida qayta jihozlash.

Xalqaro tajriba va investitsiyalarni jalb qilish – xorijiy investorlarga qayta tiklanuvchi energiyaga yo‘naltirilgan sanoat loyihalarida ishtirok etish uchun qulay shart-sharoit yaratish.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish – sanoat tarmoqlari bo‘yicha mahalliy iqlim va resurslarga mos qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish. Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish – muhandis-texnik xodimlar uchun qayta tiklanuvchi energiya tizimlari bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etish. Mazkur chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish sanoatni raqobatbardosh, ekologik xavfsiz va energiya tejamkor tarmoqqa aylantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://invest.gov.uz/uz/mediacenter/news/on-the-role-of-res-in-the-further-development-of-the-country-s-energy-sector/

2. Burganov R. A. et al. On the need to improve the methodology for calculating energy saving and energy efficiency of enterprises //IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – IOP Publishing, 2020. – Т. 791. – №. 1. – С. 012040

3. Giraudet L. G. Energy efficiency as a credence good: A review of informational barriers to energy savings in the building sector //Energy Economics. – 2020. – Т. 87. – С. 104698

4. Mao W. et al. Energy-efficient industrial internet of things: Overview and open issues //IEEE Transactions on Industrial Informatics. – 2021. – Т. 17. – №. 11. – С. 7225-7237

5. Kelchevskaya N. R., Shirinkina E. V., Atlasov I. V. Assessing energy efficiency factors in industrial companies //IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – IOP Publishing, 2020. – Т. 862. – №. 4. – С. 042001

6. Галяутдинов И. М. Повышение экономической эффективности добычи нефти на поздней стадии разработки месторождения на основе внедрения энергосберегающих мероприятий Специальность 08.00. 05–Экономика и управление //Автореферат дис.... канд. экон. наук. СПб.: Санкт-Петербургский горный университет. – 2017

7. Abdullayeva, M., & Shodmonov, S. (2019). Саноат корхоналарида энергия сарфини камайтиришнинг асосий жихатлари. Архив научных исследований, извлечено от https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/587

8. Маматюсуп Маматкаримович Нурёғдиев, С. Муталлибжонов. Саноат электр таъминоти тизимларида электр энергиясини иқтисод килиш // Scientific progress. 2022. №4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sanoat-elektr-taminoti-tizimlarida-elektr-energiyasini-i-tisod-kilish (дата обращения: 14.06.2023).

9. Юсупов А.Ҳ. Тежамкорлик - Энергиядан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг асосий йўналишидир. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 1/2022, yanvarfevral (№ 00057). 182-188-бетлар

10. Устойчивое развитие нефтегазовых компаний: от теории к практике / В.В. Бушуев, А.М. Белогорьев, О.Ю. Аполонский, Е.А. Борголова, В.В. Тиматков; под ред. Бушуева В.В. – М.: ИЦ «Энергия», 2012. – 88 с.

11. Muallif ishlanmasi.

INNOVATIVE TECHNOLOGIES AND INVESTMENT EFFICIENCY IN COTTON-TEXTILE CLUSTERS: OPTIMIZING COSTS THROUGH INDUSTRY 4.0 SOLUTIONS.

Rustamova M.M.
TMII assistent

Annotatsiya. *Paxta yetishtirish jarayoni qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun resurslardan samarali foydalanish hamda xarajatlarni optimallashtirish talab etiladi. Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonning voha hududlarida joylashgan klasterlarning paxta yetishtirish xarajatlariga ta’sir etuvchi omillar o‘rganildi. Regression model orqali jami yer maydoni, fermer xo‘jaliklari soni, tomchilatib sug‘orish ulushi, hosildorlik, irrigatsiya va melioratsiya obyektlarining mavjudligi, qishloq xo‘jaligi investitsiyalari, klaster mablag‘lari, bank kreditlari, mavsumiy ish o‘rinlari va quyosh energiyasidan foydalanish kabi omillarning ta’siri baholandi. Tadqiqot natijalari klasterlar faoliyatini takomillashtirish, agrotexnologiyalarni modernizatsiya qilish hamda barqaror qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.*
Kalit so‘zlar: *Paxta yetishtirish, xarajatlarni optimallashtirish, regressiya tahlili, qishloq xo‘jaligi investitsiyalari, tomchilatib sug‘orish, klaster mablag‘lari, mavsumiy ish o‘rinlari, quyosh energiyasi, barqaror qishloq xo‘jaligi.*

Abstract. *The cotton production process plays a crucial role in the agricultural sector, requiring efficient resource utilization and cost optimization to ensure economic and environmental sustainability. This study examines the impact of various factors on the production costs of cotton clusters located in oasis regions of Uzbekistan. Using a regression model, we analyze the influence of total land area, number of farms, share of drip irrigation systems, yield, availability of irrigation and reclamation facilities, agricultural investments, cluster funding, bank loans, seasonal employment, and solar energy usage on production costs. The findings provide valuable insights for improving cluster operations, modernizing agricultural technologies, and promoting sustainable farming practices. The results can serve as a scientific and practical basis for enhancing economic efficiency and environmental sustainability in cotton production.*
Keywords: *Cotton production, cost optimization, regression analysis, agricultural investments, drip irrigation, cluster financing, seasonal employment, solar energy, sustainable agriculture.*

Аннотация. *Процесс выращивания хлопка играет важную роль в сельском хозяйстве, требуя эффективного использования ресурсов и оптимизации затрат для обеспечения экономической и экологической устойчивости. В данном исследовании рассматривается влияние различных факторов на затраты на производство хлопка в кластерах, расположенных в оазисных регионах Узбекистана. С помощью регрессионной модели анализируется влияние общей площади земли, количества фермерских хозяйств, доли систем капельного орошения, урожайности, наличия ирригационных и мелиоративных объектов, инвестиций в сельское хозяйство, финансирования кластеров, банковских кредитов, сезонной занятости и использования солнечной энергии на затраты производства. Полученные результаты представляют ценную информацию для совершенствования работы кластеров, модернизации агротехнологий и развития устойчивого сельского хозяйства, обеспечивая научную и практическую основу для*

повышения экономической эффективности и экологической устойчивости в хлопководстве.

Ключевые слова: *Производство хлопка, оптимизация затрат, регрессионный анализ, инвестиции в сельское хозяйство, капельное орошение, финансирование кластеров, сезонная занятость, солнечная энергия, устойчивое сельское хозяйство.*

Cotton cultivation is an important sector of agriculture that requires efficiency improvements, cost optimization, and ecological sustainability. Especially in Uzbekistan, oases in the regions located clusters for effective use of resources, irrigation system improvement, and village farm investments. The key to impact analysis is ensuring economic stability by identifying and enhancing crucial factors that contribute to sustainable development. This research oasis in the regions located clusters of cotton cultivation expenses that affect provider factors. Research results cluster activity further improvement, agrotechnology modernization to do, and ecological terms in terms of stable village farm system formation for a scientific and practical basis to be serviced.

Stata 18.0 and SPSS 25.0 programs were used in the scientific study of these considerations. During the modeling process, econometric modeling was performed on 14 variables of a total of 114 cotton clusters in the regions of our republic based on spatial data. Initially, Cronbach's alpha test was used to check the reliability of the data being modeled.

Cronbach's alpha test is widely used to assess the internal reliability of measurement instruments. This indicator examines how closely several variables in a test or questionnaire are related to each other, and as a result, the internal consistency of the measurement instrument is assessed. Cronbach's Alpha value ranges from 0 to 1 , with a high value indicating good reliability and a low value indicating that the measurement is unreliable. Typically, if $\alpha \geq 0.7$, the measurement is considered satisfactory [1]. In the model, $\alpha = 0.8692$, which means 86.92 % - good reliability.

Test scale = mean(standardized items)
Average interitem correlation: 0.3220
Number of items in the scale: 14
Scale reliability coefficient: 0.8692

The multivariate ordinary least squares (OLS) regression model is one of the widely used methods in economic and statistical research and is used to estimate the relationship between a dependent variable and several independent variables [2]. The following steps were performed to analyze this model, and performing these steps correctly increases the reliability of the OLS model and ensures that the results are scientifically accurate [3].

1. Determining the model specification – the regression equation was formulated:

$y = \beta_0 + \beta_1 * X_1 + \beta_2 * X_2 + \cdots + \beta_{13} * X_{13} + \varepsilon$, where y is the dependent variable, X_ix is the independent

variable, β_iy is the estimated coefficients, and ε y is the error term [4].

In this case, through a regression model, y- total cost spent, X_1- total land area of the cluster, X_2- number of farms in the cluster, X_3- percentage of land area with drip irrigation system implemented compared to the total land area, X_4- productivity level, - X_5funds allocated for the transition to drip irrigation system , X_6- a farmer's loan for switching to a drip irrigation system, X_7 - existing irrigation and land reclamation facilities, cluster funds, Important factors such as X_8- clusters' own funds, X_9- investments in agriculture, X_{10}- the cost of projects organized with cluster funds, X_{11}- the cost of projects organized with bank loans, X_{12} - seasonal jobs were analyzed. The impact of renewable energy sources, in particular X_{13}- electricity from solar panels on economic efficiency was also taken into account.

2. OLS model estimation – Model parameters were estimated using Stata software.

We used the Pearson pairwise correlation test to determine the relationships. According to it, this table presents pairwise correlations between variables related to costs and other factors, the statistical significance of which is determined by p-values.

1 presents the pairwise correlation coefficients between the various variables, along with their statistical significance (p-values in parentheses). The dependent variable Total_expenditure (total expenses) exhibits a strong positive correlation with several factors.

Table 1. Pearson pairwise correlation matrix

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)	(7)	(8)
(1) Total_expenses~d	1.000							
(2) Total_land_area	0.782*	1.000						
	(0.000)							
(3) Number_farms	0.726*	0.850*	1.000					
	(0.000)	(0.000)						
(4) Percentage_lan~t	0.068	0.020	0.030	1.000				
	(0.475)	(0.836)	(0.754)					
(5) Productivity	0.232*	0.154	0.041	0.254*	1.000			
	(0.013)	(0.102)	(0.668)	(0.006)				
(6)	0.735	0.488	0.537	0.483	0.266	1.000		

Money_spent_ir~e	*	*	*	*	*			
	(0.000)	(0.000)	(0.000)	(0.000)	(0.004)			
(7) Farmer_loan_ir~e	0.687*	0.367*	0.432*	0.261*	0.227*	0.788*	1.000	
	(0.000)	(0.000)	(0.000)	(0.005)	(0.015)	(0.000)		
(8) Irregation_lan~n	0.537*	0.380*	0.382*	0.151	0.032	0.532*	0.626*	1.000
	(0.000)	(0.000)	(0.000)	(0.108)	(0.738)	(0.000)	(0.000)	
(9) Cluster_own_fu~s	0.734*	0.564*	0.548*	0.157	0.100	0.659*	0.365*	0.268*
	(0.000)	(0.000)	(0.000)	(0.095)	(0.289)	(0.000)	(0.000)	(0.004)
(10) Investment_ag~e	0.421*	0.360*	0.305*	0.203*	0.126	0.348*	0.368*	0.283*
	(0.000)	(0.000)	(0.001)	(0.030)	(0.182)	(0.000)	(0.000)	(0.002)
(11) Value_project~s	0.496*	0.329*	0.277*	0.071	0.112	0.344*	0.384*	0.428*
	(0.000)	(0.000)	(0.003)	(0.451)	(0.234)	(0.000)	(0.000)	(0.000)
(12) Value_bank_cr~s	0.186*	0.090	-0.004	0.046	0.048	0.166	0.181	0.071
	(0.048)	(0.344)	(0.966)	(0.626)	(0.610)	(0.078)	(0.054)	(0.455)
(13) Seasonal_empl~t	0.715*	0.559*	0.562*	0.100	0.127	0.530*	0.589*	0.610*
	(0.000)	(0.000)	(0.000)	(0.289)	(0.177)	(0.000)	(0.000)	(0.000)
(14) kwt	0.213*	0.036	0.040	0.226*	0.205*	0.237*	0.237*	0.105
	(0.023)	(0.704)	(0.675)	(0.015)	(0.029)	(0.011)	(0.011)	(0.267)

These findings highlight the importance of land size, financial mechanisms, and labor in determining cost patterns, while some variables, such as credit-related factors, contribute less.

is a statistical technique used to understand the relationship between a single dependent variable and multiple independent variables. It extends the principles of simple linear regression to account for the complexity of real-world data and allows researchers to examine the combined effects of multiple predictors [5].

Table 2. Simple linear regression model

Total_expenses_inc~d	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
Total_land_area	7.098	1.212	.86	0	4.694	9.502	**
Number_farms	-20.575	34.074	0.60	.547	-88.176	47.027	
Percentage_land_dr~n	-952.313	291.685	3.26	.002	-1531.008	-373.618	**
Productivity	1290.204	705.86	.83	.071	-110.203	2690.611	
Money_spent_irriga~m	.25	.33	.76	.451	-.405	.905	
Farmer_loan_irriga~m	1.346	.279	.83	0	.793	1.9	**
Irregation_land_re~n	-.354	1.163	0.30	.762	2.661	1.953	
Cluster_own_funds	.601	.094	.38	0	.414	.788	**
Investment_agricul~e	-.36	.493	0.73	.468	-1.338	.619	
Value_projects_clu~s	.199	.128	.55	.123	-.055	.454	
Value_bank_credit_~s	.023	.099	.23	.816	-.174	.221	
Seasonal_employment	8.378	2.501	.35	.001	3.416	13.341	**
Kwt	6.533	18.43	.35	.724	-30.032	43.097	
Constant	-13872.184	24992.128	0.56	.58	-63455.854	35711.486	

Mean dependent var	124996.522	SD dependent var	117990.284
R-squared	0.910	Number of obs	114
F-test	77.369	Prob > F	0.000
Akaike crit. (AIC)	2739.220	Bayesian crit. (BIC)	2777.527

**** p<.01, ** p<.05, * p<.1*

Overall, the regression confirms that land use, financial costs, and labor are strong determinants of total costs. In a multivariate linear equation, the dependent variable is expressed as the addition of a constant term and the multiplication of each independent

variable by its respective coefficients [6].

Total_expenses_incurred =−13872.184+ 7.098 (Total_land_area) −20.575(Number_farms)−952.313(Percentage_land_drip_irrigation)+1290.204 (Productivity)+0.25(Money_spent_irrigation_system)+1.346 (Farmer_loan_irrigation_system) −0.354(Irregation_land_reclamation)+ 0.601(Cluster_own_funds)−0.036(Investment_agriculture)+0.199 (Value_projects_clusters)+0.023(Value_bank _credit_projects)+ 8,378(Seasonal_employment)+6.533 kwt +ϵ

In general, based on the regression results obtained from the OLS [7] model, it was found that several variables significantly affected the outcome.

3. Testing the classical OLS hypotheses:

• Heteroscedasticity test – The residual variance was checked for constantness using the Breusch-Pagan test.


used to test for heteroscedasticity. This test checks whether the variance of the residuals is constant. If heteroscedasticity is detected, this indicates that the standard OLS estimators are not efficient and it is recommended to use robust standard errors or other alternative methods. The null hypothesis for the Breusch-Pagan test is that the variance of the errors is constant (homoscedasticity exists), while the alternative hypothesis is that heteroscedasticity exists, which can negatively affect the accuracy of the regression model. In this study, the Breusch-Pagan test was performed to test for heteroscedasticity:

Test for heteroskedasticity Assumption: Normal error terms Variable: Fitted values of Total_spent_costH0: Constant variance chi2(1) = 1.48Prob > chi2 = 0.2230

The result is chi2(1) = 1.48, p-value = 0.2230. Since the p-value is greater than 0.05, we cannot reject the null hypothesis, i.e., there is no heteroscedasticity. Therefore, the standard OLS model works correctly and robust standard errors or alternative methods are not required [8].

• Fit to normal distribution – The normal distribution of the residuals was assessed using the skewness-kurtosis test.

A histogram was drawn for the residuals:



Another basic requirement of a regression model is that the residuals are normally distributed. If this condition is not met, the results of the standard t-test and F-test may be incorrect and the reliability of the model may be reduced. The skewness-kurtosis test (sktest) is widely used to check whether the residuals are normally distributed. This test evaluates the degree of skewness and kurtosis of the residuals and determines whether they correspond to a normal distribution.

In this study, a skewness-kurtosis test was performed and the resulting p-value was 0.238 is greater than 0.05, the null hypothesis is not rejected, meaning that the residuals can be considered to be normally distributed. The histogram and normal curve also confirm this result. Thus, the results of the regression model are considered reliable and do not require additional transformation or the use of special methods [9].

Skewness and kurtosis tests for normality
----- Joint test -----

Variable	Obs.	Pr(skewness)	Pr(kurtosis)	Adj	chi2(2)	Prob>chi2
e	114	0.488	0.077	3.690	0.158	

• Multicollinearity testing – the relationship between independent variables was determined using the estat vif test [10].

A variance inflation factor (VIF)

test was performed to determine whether there is multicollinearity among the independent variables in the regression model. According to the results obtained using the estat vif command in Stata, the VIF value for all variables is less than 10, and the average VIF is 3.060. This result indicates that there is no strong multicollinearity in the model and confirms that the estimated coefficients are reliable [11].

A VIF < 10 is generally considered acceptable, and these results indicate that there is no significant correlation between the independent variables in the model. As a result, the uncertainty (standard errors) in the model does not increase, and the results are considered reliable [12].

VIF	1/VIF
7.510	0.133
4.510	0.222
4.500	0.222
4.300	0.233
2.990	0.335
2.930	0.342
2.560	0.391
2.170	0.462
2.150	0.465
1.820	0.548
1.780	0.563
1.270	0.787
1.250	0.798
3.060	

4. Model quality assessment – The overall fit of the model was checked using the R-squared and F-test.

The goodness of fit of the model is assessed by the coefficient of determination - R-squared value in Table 2 (simple linear regression model). [13] The model has a high R-squared value of 0.910, indicating that approximately 91% of the variation in total costs is explained by the independent variables. The model is statistically significant overall, with an F-test value of 77.369 ($p < 0.001$), which is confirmed by.

5. Analysis of results and conclusion - the economic and statistical significance of the estimated parameters was interpreted.

The research findings focused on identifying the important factors affecting cotton production costs. The OLS regression results showed that some variables were statistically significant and had a significant impact on cotton production costs, while others did not have an impact to the extent expected from an economic perspective.

1. Statistically significant variables:

The total land area coefficient is positive and statistically significant, confirming the increase in total costs as land area increases.

Productivity has a significant impact on cost increases, as higher yields require technological costs.

Funds allocated for drip irrigation also tend to increase costs, indicating that innovative irrigation technologies require an upfront investment.

The seasonal jobs rate is positive and significant, confirming that labor costs are one of the most important factors.

2. Statistically Insignificant Variables:

Number of farms—this variable did not have a strong impact on total costs, as expected, which means that there is no significant impact on the cost level of farms operating within clusters.

Investments in Agriculture (Qx_investitsiya) – A small coefficient of this factor indicates its low economic importance, i.e. the investment has no immediate effect on reducing or increasing costs.

Bank lending – this factor has also yielded negligible results, as loan funds may take time to directly affect production costs.

According to the results of the analysis , land area, productivity, drip irrigation and seasonal employment are the factors that have the greatest impact on the costs of cotton production. At the same time, the number of farms , agricultural investments and bank loans did not significantly shape direct costs. These results help to draw important scientific and practical conclusions in the formation of financial and agronomic strategies of clusters. It is possible to make recommendations, such as the need to modernize irrigation systems to increase economic efficiency and develop optimal strategies for attracting seasonal workers.

List of used literatures:

[1] L.J. Cronbach, "Coefficient alpha and the internal structure of tests," Psychometrika, vol. 16, no. 3, pp. 297–334, 1951.

[2] J.M. Wooldridge, Introductory Econometrics: A Modern Approach. Cengage Learning, 2020.

[3] F. Hayashi, Econometrics. Princeton University Press, 2000.

[4] W.H. Greene, Econometric Analysis. Pearson, 2018.

[5] Y. Ruan, "Exploring multiple regression models: Key concepts and applications," Science and Technology of Engineering, Chemistry and Environmental Protection, vol. 1, no. 7, 2024. doi: 10.61173/yjpt3s59.

[6] S. Janković, "The multivariate statistical analysis - multiple linear regression," International Journal on Biomedicine and Healthcare, vol. 10, no. 4, pp. 173–175, 2022. doi: 10.5455/ijbh.2022.10.173-175.

[7] V. Mignon, "The multiple regression model," in Classroom Companion Economics, 2024, pp. 105–170. doi: 10.1007/978-3-031-52535-3_3.

[8] T.S. Breusch and AR Pagan, "A simple test for heteroscedasticity and random coefficient variation," Econometrica, vol. 47, no. 5, pp. 1287–1294, 1979.

[9] J. Bera and C. Jarque, "Efficient tests for normality, homoscedasticity and serial independence of regression residuals," Economics Letters, vol. 6, no. 3, pp. 255–259, 1980.

[10] D.N. Gujarati and D.C. Porter, Basic Econometrics. McGraw-Hill, 2009.

[11] M.H. Kutner, C.J. Nachtsheim, and J. Neter, Applied Linear Statistical Models. McGraw-Hill, 2005.

[12] G. James, D. Witten, T. Hastie, and R. Tibshirani, An Introduction to Statistical Learning: with Applications in R. Springer, 2013.

[13] J. Jiang, "Multiple linear regression," in Applied Medical Statistics, 2021, pp. 345–367. doi: 10.1002/9781119716822.ch15.

AXBOROTLARNI VIZUAL TAQDIM ETISHDA INFOGRAFIKA VOSITALARINI YARATISH USULLARI

Suyarov A.M.
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Annotatsiya. *Ta'limni raqamlashtirish jarayonining zamonaviy rivojlanishi axborotlarni taqdim etishda vizual obyektlar ko'rinishidagi tasvirlardan foydalanish zarurligini taqozo etmoqda. Ushbu maqolada infografikani yaratish, ulardan ta'lim tizimida foydalanish bo'yicha ma`lumotlar va tavsiyalar berilgan.*
Kalit so'zlar: *interfaol ta'lim, vizual obyekt, infografika, infografika turlari, infografika yaratish vositalari, ta'limda infografika.*

Abstract. *The modern development of the process of digitization of education requires the use of images in the form of visual objects in the presentation of information. This article provides information and recommendations on the creation of infographics, their use in the education system.*
Keywords: *interactive education, visual object, infographics, types of infographics, tools for creating infographics, infographics in education.*

Аннотация. *Современное развитие цифровизации образования требует использования изображений в виде визуальных объектов при подаче информации. В статье представлена информация и рекомендации по созданию инфографики и ее использованию в системе образования.*
Ключевые слова: *интерактивное образование, визуальный объект, инфографика, виды инфографики, инструменты создания инфографики, инфографика в образовании.*

Biz axborot texnologiyalar asrida yashar ekanmiz, ma'lumotlarning chegarasi yo'q, ma'lumotlar olishda texnika vositalaridan foydalanish imkoniyati doimo mavjud. Ma'lumotlar ko'pligi ularning talabalar xotirasida saqlash imkoniyatini pasaytiradi. O'quvchilarga kerakli ma'lumotlarni etkazib berish, xotirasida uzoq vaqt saqlashga erishish, mavzuni bayon etishda o'quvchilar diqqatini jalb qilish, taqdim etilayotgan axborotni saralash imkoniyatini berish, shuningdek, dars jarayonini ko'rgazmali va qiziqarli tashkil etishda ma'lumotlarni vizuallashtirishning o'rni beqiyosdir. Ma'lumotlarni vizuallashtirish – o'quvchilarning axborotlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilishi va saralashi uchun turli xildagi grafikalar, diagrammalar, jadvallar, taqqoslashlar, ramz va belgilar orqali ifodalashdir.

Boshqa sohalar kabi ta'lim tizimida ham ma'lumotlarni vizuallashtirishning eng so'nggi vositalardan biri, bu axborotlarni grafik ko'rinishida taqdim etish, ya'ni infografikadir.

Infografika – bu axborot, ma'lumotlar va bilimlarni taqdim etishning grafik usuli bo'lib, uning maqsadi murakkab ma'lumotlarni tez va aniq taqdim etishdir. Infografikaning ta'lim sohasidagi vazifasi shakli va mazmuni jihatidan, ko'rinishi-dan

murakkab ma'lumotlarni keng auditoriyaga tez va tushunarli, ya'ni mantiqiy bog‘liqlik orqali taqdim etish va yetkazish maqsad qilib olingan.

Infografikaning axborotni vizuallashtirilgan boshqa turlaridan farqi uning metaforikligidadir, ya’ni bu shunchaki katta miqdordagi ma’lumotlar asosida qurilgan grafik yoki diagramma emas, balki bu vizual ma’lumotlar hayotdan, muhokama mavzularidan olingan aniq misollar bilan bog‘liq holda joylashtirilgan grafikadir.

Ta’lim jarayonida infografika dars mavzusidagi ko‘rgazmaning tayanchi hisoblanadi, uning mavzu o‘zlashtirilishidagi o‘rni va imkoniyatlari samaralidir. Infografika ma'lumotlarni taqdim etish va vizual aloqa uchun samarali vosita sifatida uzluksiz ta’lim jarayonida muhim o’rin egallamoqda. Infografika ma'lumotlarni taqdim etish uchun keng imkoniyatli va samarali vosita, fan yuzasidan terminlarni tushuntirish, taqdimotlarni soddalashtirish, aloqalarni xaritalash, tendensiyalarni ko'rsatish va asosini ta'minlashga mo’ljallangan zamonaviy texnologiyadir.

Ushbu texnologiya multisensor va multimodal yondashuvga asosan, ya'ni qisqa matn va vizual obyektlardan tashkil topadi. Ular qiyin, murakkab va mavhum ma'lumotni vizual ko’rinishga aylantirish, turli dizaynlar orqali ifodalash uchun xizmat qiluvchi vositadir[1]. Infografika texnologiyasidan foydalanish orqali jozibali tasvirlar, mavhum g'oyalarni tushunishni osonlashtiradi, shuning uchun ular ta’lim tizimida va boshqa sohalarda xam keng ko’lamda taraqqiy etmoqda [2,9].

Ushbu texnologiya ta’lim jarayonida quyidagi vazifalarni o’z ichiga oladi:

- ✓ axborotni tezroq uzatishga yordam berish;i
- ✓ kengaytirilgan hamkorlik, tushunish, jalb qilish imkonini yaratish;
- ✓ o’quvchilarning ta’lim-tarbiya jarayoniga o’zaro ta’siri va ishtirokini ta’minlash;
- ✓ murakkab jarayonlarni soddalashtirish va osonroq tushuntirish;
- ✓ bir nechta tushunchalarni solishtirish va qarama-qarshi qo'yishda yordam berish;
- ✓ tizimli va rejali foydalanilganda taqdimotlarni namoyish qilish;
- ✓ hisobotlar, loyiha yoki tadqiqotning ma'lumotlari va xulosalarini yoritib berish .

Infografikaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ➢ berilgan ma’lumotlar bilan bog‘liq grafik obyektlar yoki taqdim–etilgan ma’lumotlarning o‘zgartirish yo‘nalishlarining grafik ifodasi;
- ➢ foydali axborotning ko‘pligi;
- ➢ taqdimotlarning rang-barangligi– mavzuni aniq va mazmunli taqdim etish.

Ta’lim jarayonida ifodalanish usuliga ko‘ra infografika quyidagi turlarga bo‘linadi:

✓ statistik infografika – animatsiya elementlari bo‘lmagan yakka– tasvir;

✓ dinamik infografika – animatsiya elementlari bo‘lgan– infografika, dinamik infografikaning kichik qismi – videoinfografika, animatsion tasvirlar, taqdimotlar;

✓ interfaol infografika – infografikaning bu turidan– foydalanuvchilar tasvirlangan ma’lumotlarni boshqara oladilar;

✓ videoinfografika – bu ma’lumotlar, illustratsiyalar va dinamik matnlarning vizual tasvirlarini birlashtirgan qisqa video ketma- ketlik [3].

Ta’lim tizimida infografikani qo‘llashni uch xil usulda tashkil etish mumkin:

✓ internet orqali mavzuga mos infografikani topish, uning– tilini va ma’lumotlarini moslashtirib taqdim etish;

✓ infografikani yaratish yoki shablonni yuklab olish uchun onlayn-xizmatlar-dan foydalanish;

✓ grafik muharrirlardan foydalangan holda, infografikani eng– boshidan, mustaqil yaratish.

Infografikani yaratish – o‘quvchilar tomonidan o‘quv infografikasi ishlab chiqilishi yakuniy bosqich hisoblanadi, chunki bu paytga kelib, ular ma’lumotlarni qanday talqin qilish, qaysi turdagi tasvirlar muayyan ma’lumotga mos kelishi, ijobiy va salbiy jihatlarini farqlash, ya’ni ushbu turdagi ma’lumotni namoyish etishning ideal qiyofasini yaratish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar.

Bundan tashqari, axborot texnologiyalari vositalarini qo‘llashni o‘rganish, infografikani ishlab chiqish uchun mavjud xizmatlardan foydalanishni amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantiradigan mashq hisoblanadi. Infografikalar tayyorlash axborot mazmunini tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi, talabalarning o‘ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlarini aniqlash imkonini beradi.

Ta’lim jarayonida sifatli infografika yaratish uchun to'rtta mezon muhim o’rin egallaydi: mazmun, tegishlilik, foydali, xulosa. O'quv jarayoni uchun ularni mukammal dizaynda ishlab chiqarish o’quvchilarda tez eslab qolish, foydali ma’lumotga ega bo’lish va minimallashtirish bilan aloqani maksimal darajada oshirishda yordam beradi. Ta’lim jarayonida infografikani yaratish va loyihalashda quyidagi yetti muhim jihatni yodda tutish kerak:

➢ maqsadlarni aniqlash;

➢ mavzuni tanlash;

➢ matn, rasm, grafik va illyustratsiyalarning muvozanatli integratsiyasi birlashtirilgan bo'lishi kerak;

➢ taqdimotda jozibadorlik, soddalik va tushunarlilik;

➢ vizual tasvirlar, videolar, tovushlar, animatsiyalarning muvozanatli kombinatsiyasi;

➢ ko'rsatilgan havolalarning haqiqiyligi va ishonchliligi;

➢ talabalar saviyasiga mosligi [3].

Ta’lim jarayonida infografikani deyarli har qanday muharrirda - MS

Office Power Point, MS Office Word, Paint va boshqalarda yaratish mumkin, ammo dizayn va infografika tamoyillari bilan tanish bo‘lmagan odamlar uchun bu juda qiyin bo‘lishi mumkin. Internetda shablonlardan yoki toza sahifadan boshlab turli xil infografika turlarini yaratishga imkon beradigan ko‘plab xizmatlar mavjud:

- ✓ Canva.com -bannerlar, vizitkalar, illustratsiyalar va yorliqlarni yaratish uchun eng yaxshi onlayn muharrir;
- ✓ Piktochart.com - ma’lumotni immersiv vizual hikoyalarga aylantiradi;
- ✓ Infogram.com- bepul interaktiv jadvallar va infografika yaratish uchun foydali vosita hisoblanadi;
- ✓ Creately.com -professional ko‘rinishga ega diagrammalar va dinamik diagrammalar yaratishda yordam beradigan foydalanuvchi uchun qulay vosita;
- ✓ Cacoo.com - bu infografikani yaratish uchun bepul vosita hisoblanib, sayt xaritasi, sahifa konturlari, Mind Maps va boshqalar kabi turli xil infografikalarni yaratishga imkon beruvchi foydalanuvchilarga qulay onlayn rasm chizish vositasidir.

Umuman aytganda, infografikani ta‟lim tizimiga joriy qilish, o‘qitish samaradorligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Infografikaning eng muhim jihati bu nafaqat ma’lumotni taqdim etish, balki eng muhimi,uni taqqoslashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. *Afify.M. K. (2018). The effect of the difference between infographic designing types (static vs animated) on developing visual learning designing skills and recognition of its elements and principles. International Journal of Emerging Technologies in Learning (iJET), 13(09), 204-223.*
2. *Chelsea Yang (2021). Why Use Infographics for Education https://www.edrawsoft.com/infographics/why-use-infographics-foreducation.html.*
3. *Т. С. Масылюк. Инфографика как средство визуализации информации. Методические рекомендации. г. Добрянка, 2017 г.*
4. *Suyarov A.M. Formation of information and communication competence of the teacher as an one of the main tasks of modern education. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. Volume 4, Issue 4, April-2023.–C.243-257.*
5. *Suyarov A.M. Ways and models of providing integration of information technology science with mathematical sciences. «E3S Web of Conferences». Indexed by SCOPUS and submitted for indexing to Web of Science (CPCI) «E3S Web of Conferences» 402, 03016 (2023).*

CHAKANA SAVDO FAOLIYATIDA RAQAMLI VA NEYROMARKETING STRATEGIYALARINING INTEGRATSIYASI

Saminjonov N.A.
Farg'ona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda chakana savdo faoliyatida raqamli marketing va neyromarketing strategiyalarining integratsiyalashuvi, ularning mijoz xulq-atvoriga ta'siri va raqobatbardoshlikni oshirishdagi o'rni tahlil qilingan. Raqamli platformalar orqali amalga oshirilayotgan shaxsiylashtirilgan takliflar, push-xabarlar, vizual va emotsional reklama elementlari neyromarketing tamoyillari asosida shakllantirilganda iste'molchida kuchli hissiy aloqa va brend sodiqligi vujudga kelishi isbotlangan. Tadqiqot davomida O'zbekiston chakana savdo tarmoqlarida raqamli-neyromarketing yondashuvlarining mavjud holati o'rganilgan va istiqbolli strategik takliflar ishlab chiqilgan.*
Kalit so'zlar: *chakana savdo, raqamli marketing, neyromarketing, iste'molchi xulq-atvori, brend sodiqligi, strategik yondashuv.*

Abstract. *This study analyzes the integration of digital marketing and neuromarketing strategies in retail activities, their impact on customer behavior and their role in increasing competitiveness. It has been proven that when personalized offers, push messages, visual and emotional advertising elements implemented through digital platforms are formed based on the principles of neuromarketing, a strong emotional connection and brand loyalty are created in the consumer. During the study, the current state of digital-neuromarketing approaches in retail chains of Uzbekistan was studied and promising strategic proposals were developed.*
Keywords: *retail, digital marketing, neuromarketing, consumer behavior, brand loyalty, strategic approach.*

Аннотация. *В данном исследовании анализируется интеграция стратегий цифрового маркетинга и нейромаркетинга в розничную торговлю, их влияние на поведение покупателей и их роль в повышении конкурентоспособности. Доказано, что когда персонализированные предложения, push-уведомления, визуальные и эмоциональные элементы рекламы, реализуемые через цифровые платформы, формулируются на основе принципов нейромаркетинга, у потребителя создается сильная эмоциональная связь и лояльность к бренду. В ходе исследования было изучено современное состояние подходов цифрового нейромаркетинга в узбекских розничных сетях и разработаны перспективные стратегические предложения.*
Ключевые слова: *розничная торговля, цифровой маркетинг, нейромаркетинг, поведение потребителей, лояльность к бренду, стратегический подход.*

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari fonida chakana savdo sohasi iste'molchilar bilan interaktiv, individual va emotsional aloqalarni o'rnatish zaruratiga tobora chuqurroq duch kelmoqda. Raqobatbardoshlikning yangi shakllari shakllanayotgan bir davrda, an'anaviy marketing usullari mijoz ehtiyojlarini to'liq qondira olmayapti. Shu bois, zamonaviy

chakana savdo korxonalari marketing faoliyatini transformatsiya qilish yo‘lida raqamli marketing va neyromarketing kabi innovatsion yondashuvlarga murojaat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PQ–4699-son "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori ushbu qarorda mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarini raqamlashtirish, shu jumladan, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarini zamonaviy IT-yechimlar asosida takomillashtirish muhim maqsad sifatida belgilangan. Ushbu strategiya doirasida chakana savdo korxonalarining raqamli transformatsiyasi va interaktiv marketing yondashuvlarini joriy etish zarurligi ta’kidlangan.

Raqamli marketing vositalari — ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, shaxsiy reklama takliflari va push-xabarlar — mijozga tez, aniq va moslashtirilgan axborotni yetkazish imkonini beradi. Neyromarketing esa inson miyasining xatti-harakatga javob beruvchi mexanizmlarini o‘rganish orqali, xarid qarorlariga ta’sir etuvchi ong osti va emotsional omillarni aniqlaydi. Ushbu ikki yondashuvning integratsiyalashuvi, ya’ni raqamli neyromarketing strategiyasi, chakana savdo korxonalari uchun yangi raqobat ustunligini yaratadi.

Xususan, iste’molchi xulq-atvori, mahsulot tanlash psixologiyasi, reklama materiallarining hissiy ta’siri, mobil ilovadagi dizayn va funktsional yechimlar — barchasi neyromarketing tamoyillariga asoslanib, raqamli formatda mijozga yo‘naltirilgan takliflarni shakllantirish imkonini beradi. Mazkur maqolada raqamli va neyromarketing yondashuvlarining o‘zaro uyg‘unligi tahlil qilinadi, ularning chakana savdo faoliyatidagi ahamiyati, mijoz xulq-atvoriga ta’siri hamda korxona raqobatbardoshligini oshirishdagi roli ilmiy asosda yoritiladi.

O‘zbekistonda chakana savdo faoliyatini zamonaviy bosqichga olib chiqishda raqamli marketing texnologiyalarini joriy qilish va iste’molchi xatti-harakatlarini psixologik asosda o‘rganish (neyromarketing) dolzarb ahamiyatga ega. Prezident farmonlari va qarorlari bu jarayonni davlat darajasida qo‘llab-quvvatlash, innovatsion yondashuvlarga ochiqlikni ifodalaydi. Shuning uchun ham mazkur tadqiqot mavzusi milliy taraqqiyot siyosatiga bevosita uyg‘un bo‘lib, ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

C.V. Radulescu chakana savdoda ijtimoiy tarmoqlar, kontent marketingi, SEO va email marketing vositalari orqali mijoz bilan bog‘lanish, shaxsiylashtirilgan takliflar berish va brendga sodiqlikni oshirish imkoniyatlarini tahlil qiladi. Ayniqsa, millennial avlod va Z-avlod iste’molchilarida raqamli platformalar asosiy axborot manbaiga aylangani ta’kidlanadi.

Harvard Division of Continuing Education tadqiqotlarida neyromarketing iste’molchining miyada sodir bo‘ladigan qaror qabul qilish

jarayonlarini tahlil qiladi. EEG, eyetracking, fMRI kabi texnologiyalar yordamida mijozning mahsulotga yoki reklama xabariga bo‘lgan emotsional reaktsiyasi aniqlanadi. Ushbu yondashuv mahsulot joylashuvi, dizayni, va reklama mazmunini ishlab chiqishda qo‘llaniladi.

Bluetext Agencyning tadqiqotida neyromarketing orqali olingan hissiy va fiziologik javoblarni raqamli reklama strategiyalariga integratsiyalash muhimligi ta’kidlanadi. Onlayn reklamalarni emotsional triggerlarga asoslab tayyorlash orqali mijoz bilan mustahkam aloqalar o‘rnatish, brend imidjini kuchaytirish mumkinligi ko‘rsatib berilgan.

O’zbekiston olimlaridan M. M. Murodovaning mavzu doir tadqiqotida O‘zbekiston chakana savdo bozorining rivojlanish yo‘nalishlari va unda zamonaviy marketing vositalarining ahamiyatini tahlil qiladi. Neyromarketingga to‘g‘ridan-to‘g‘ri urg‘u berilmagan bo‘lsa-da, emotsional brending, mijoz xotirasida qoladigan reklama tasvirlari va raqamli kanallardan foydalanish muhimligi qayd etilgan.

S.T. Sultonovning “O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun marketing strategiyasining asosi” nomli tadqiqotida kichik va o‘rta biznes korxonalari uchun marketing strategiyasining asosiy component-larini ishlab chiqadi. Personalizatsiya, brend voqealiligi, raqamli analitika va mijoz xulq-atvorini tahlil qilish kabi tamoyillar aynan neyro va raqamli marketingning integratsiyasi zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlil qilingan adabiyotlar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, raqamli marketing va neyromarketing alohida yondashuv sifatida shakllanib ulgurgan bo‘lsa-da, ularning integratsiyasi aynan chakana savdo sohasida yangi marketing paradigmasini shakllantirmoqda. Bu integratsiya mijoz bilan individual, emotsional va ilmiy asoslangan aloqani yo‘lga qo‘yishga, savdo samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston bozorida bu yondashuvlar endigina shakllanayotgan bo‘lsa-da, xalqaro tajriba asosida istiqbolli strategiyalar ishlab chiqish imkoniyati mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda chakana savdo faoliyatida raqamli marketing va neyromarketing strategiyalarining integratsiyalashgan holda qo‘llanilishi, ularning iste’molchi xulq-atvoriga ta’siri va raqobatbardoshlikni oshirishdagi o‘rni o‘rganildi. Tadqiqotda nazariy va amaliy yondashuvlar uyg‘unlashtirildi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot davomida raqamli va neyromarketing strategiyalarining chakana savdoda qo‘llanilish holati va ularning mijoz xulq-atvoriga ta’siri tizimli tahlil qilindi. Tadqiqotning empirik qismi Toshkent shahri va viloyatidagi yirik chakana savdo obyektlari – Korzinka, Makro, Mediapark, Technopark va Artel Showroom misolida amalga oshirildi. Shuningdek, Google Forms platformasi orqali 120 nafar xaridorga so‘rovnoma o‘tkazildi.

1-jadval.

Xaridga ta’sir qiluvchi asosiy omillar

Omillar	Ulushi (%)
Push-xabarnomalar, aksiyalar, sodiqlik dasturlari	67
Vizual dizayn (qadoqlash, reklama rangi)	21
Brend sodiqligi va oldingi emotsional tajriba	12

Respondentlarning 67 foizi xarid qilishga qaror qilishda push-xabarnomalar, aksiyalar va sodiqlik dasturlari asosiy omil ekanini bildirgan. 21 foiz xaridor esa vizual dizayn (qadoqlash, reklama rangi, mahsulot ko‘rinishi) orqali mahsulotni tanlashini aytgan. 12 foiz esa brendga sodiqlik va oldingi emotsional tajribaga asoslangan xaridni ustun qo‘ygan.

Bu natijalar raqamli marketing vositalari (mobil ilova, SMS, email) va neyromarketing elementlari (dizayn, brend hissiyoti, musiqiy fon) birgalikda ishlaganda kuchli synergik ta’sirga ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

Korzinka va Makro tarmoqlarida haftalik raqamli aksiyalar (Telegram-bot, mobil ilova xabarlari) mijozlar oqimini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, mahsulotlarni ko‘z darajasida joylashtirish, yorqin rangli bannerlar va emotsional chaqiriqlar xaridorlar diqqatini jalb qilayotgani kuzatildi.

Mediapark va Technopark do‘konlarida esa shaxsiylashtirilgan takliflar, brend hikoyasi, premium dizayn va qulay interfeysli mobil ilova orqali neyromarketing elementlari keng qo‘llanilmoqda.

Amazon, Zara, va Nike kabi brendlar iste’molchilarning miya faoliyati va hissiy reaktsiyalarini tahlil qilgan holda reklama mazmuni va platforma dizaynini shakllantiradi. Bunday yondashuvlar brendga sodiqlik va emotsional aloqani mustahkamlab, xarid chastotasini oshiradi.

Raqamli marketing vositalari (push-xabarlar, ilovalar, kontent) mijozga tezkor va moslashtirilgan taklif berishda samarali.

Neyromarketing asosida shakllangan reklama, dizayn va brend hissiyoti mijozda kuchli psixologik taassurot qoldiradi.

Ushbu ikki strategiyaning integratsiyasi mijozning xarid qaroriga chuqur ta’sir ko‘rsatib, chakana savdo korxonalarining raqobatbardoshligini oshiradi.

O‘zbekistondagi chakana savdo tarmoqlari bu yondashuvlarni bosqichma-bosqich joriy etayotgan bo‘lsa-da, bu borada xorijiy tajriba asosida strategik rivojlanish yo‘nalishlari ishlab chiqilishi zarur.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli marketing vositalari mijozga tezkor va

moslashtirilgan taklif berishda samarali. Neyromarketing asosida shakllangan reklama, dizayn va brend hissiyoti mijozda kuchli psixologik taassurot qoldiradi. Ushbu ikki strategiyaning integratsiyasi chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli marketing va neyromarketing strategiyalarining integratsiyasi zamonaviy chakana savdo faoliyatida mijozlar bilan chuqurroq va emotsional aloqani yo‘lga qo‘yish, brend sodiqligini mustahkamlash hamda sotuv samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Raqamli marketing vositalari (push-xabarnomalar, mobil ilovalar, shaxsiylashtirilgan reklama takliflari) mijozga tez, qulay va individual tarzda murojaat qilish imkonini berar ekan, neyromarketing yondashuvlari ushbu muloqotning emotsional va ong osti darajadagi ta’sirini kuchaytiradi. Aynan shu ikki yondashuvning uyg‘unlashuvi xarid qilish qarorining hissiy va ratsional omillarini bir vaqtning o‘zida faollashtiradi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, aksariyat xaridorlar sotuvchilarning raqamli aloqa shakllariga ijobiy munosabatda bo‘lishi, mahsulot dizayni va reklama muhitiga beriladigan e’tibor xarid qilish ehtimolini oshirishini tasdiqladi. Xorijiy tajribalar esa shuni ko‘rsatmoqdaki, neyromarketing elementlari bilan kuchaytirilgan raqamli marketing kampaniyalari brend bilan mustahkam va uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirishda samaralidir.

Chakana savdo korxonalari marketing strategiyalarini ishlab chiqishda raqamli va neyromarketing yondashuvlarini birgalikda qo‘llashga o‘tishlari zarur. Bunda reklama, mahsulot dizayni, narx siyosati va mijozga xizmat ko‘rsatish tizimi kompleks yondashuv asosida ishlab chiqilishi lozim. Mobil ilovalar va veb-saytlar interfeysi neyromarketing tamoyillariga asoslangan holda ishlab chiqilishi kerak. Jumladan, vizual e’tibor jalb etuvchi dizaynlar, qulay navigatsiya, emotsional chaqiriqlar va brend voqealiligi (storytelling) elementlari kiritilishi kerak.

Mijozga personalizatsiyalangan (shaxsiylashtirilgan) push-xabarlar va reklama takliflari yuborish orqali raqamli aloqani neyromarketing asosida boshqarish xaridni tezlashtirish va mijozni ushlab qolishga xizmat qiladi. O‘zbekiston chakana savdo sektori xorijiy tajriba asosida o‘ziga xos neyro-raqamli modelni ishlab chiqishi kerak. Bunda milliy mentalitet, xaridor psixologiyasi va texnologik tayyorgarlik darajasi inobatga olinishi muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning* "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–4699-sonli qaror.
2. *Rădulescu, C. V. (2020). The influence of digital marketing and social media marketing on consumer buying behavior. Journal of Management and Social Sciences, 4, 112–119. Retrieved from https://www.jomswsge.com/The-influence-of-digital-marketing-and-social-media-marketing-on-consumer-buying%2C189429%2C0%2C2.html*
3. *Harvard Division of Continuing Education. (2023). Neuromarketing: Predicting consumer behavior to drive purchasing decisions. Retrieved from https://professional.dce.harvard.edu/blog/marketing/neuromarketing-predicting-consumer-behavior-to-drive-purchasing-decisions/*
4. *Bluetext. (2022). The role of neuromarketing in understanding consumer behavior. Retrieved from https://bluetext.com/blog/the-role-of-neuromarketing-in-understanding-consumer-behavior/*
5. *Murodova, M. M. (2021). Development of retail trade in Uzbekistan. Theoretical & Practical Science Journal, 3, 88–94. Retrieved from https://zienjournals.com/index.php/tjm/article/download/689/559/723*
6. *Sultonov, S. T. (2023). A framework of marketing strategy for small and medium business growth in Uzbekistan. Academy of Entrepreneurship Journal, 29(1), 1–10. Retrieved from https://www.abacademies.org/articles/a-framework-of-marketing-strategy-for-small-and-medium-business-growth-in-uzbekistan-16774.html*
7. *Kumar, V., & Gupta, S. (2022). Neuromarketing in the digital age: Exploring consumer decision-making in e-commerce. International Journal of Marketing Studies, 14(2), 45–58. https://doi.org/10.5539/ijms.v14n2p45*
8. *Zur, A., & Avraham, E. (2023). Integrating personalization and emotion in digital marketing: A neuromarketing perspective. Journal of Consumer Behaviour, 22(1), 34–48. https://doi.org/10.1002/cb.1987*

INDUSTRY 4.0 TALABLARI ASOSIDA MUHANDISLIK TA'LIMINI TASHKIL ETISH MASALALARI

Alimov A.A.
Toshkent shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti professori, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Industry 4.0 talablari asosida muhandislik ta'limini tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Zamonaviy sanoat rivojlanishining to'rtinchi bosqichi (Industry 4.0) sharoitida muhandislik ta'limini modernizatsiya qilish zarurati, uning dolzarb vazifalari va istiqbollari ko'rib chiqilgan. Maqolada raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, IoT, katta ma'lumotlar va boshqa innovatsion yondashuvlarni muhandislik ta'limi tizimiga joriy etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, muhandislik sohasi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda amaliy ko'nikmalar, ijodiy fikrlash va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikni kuchaytirish va xalqaro tajribalardan foydalanish masalalari ham muhokama qilingan.*

Kalit so'zlar: *Industry 4.0, muhandislik ta'limi, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, innovatsion ta'lim texnologiyalari, amaliy ko'nikmalar, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli kompetensiyalar, ishlab chiqarish va ta'lim integratsiyasi, loyiha asosidagi o'qitish.*

Abstract. *This article analyzes the issues of organizing engineering education based on the requirements of Industry 4.0. The need for modernization of engineering education in the conditions of the fourth stage of modern industrial development (Industry 4.0), its current tasks and prospects are considered. The article covers the issues of introducing digital technologies, artificial intelligence, IoT, big data and other innovative approaches into the engineering education system. It also provides recommendations on the development of practical skills, creative thinking and digital competencies in the training of specialists in the field of engineering. The issues of introducing innovative pedagogical technologies into the educational process, strengthening cooperation with manufacturing enterprises and using international experience are also discussed.*

Keywords: *Industry 4.0, engineering education, digital technologies, artificial intelligence, innovative educational technologies, practical skills, competency-based approach, digital competencies, integration of production and education, project-based learning.*

Аннотация. *В статье анализируются вопросы организации инженерного образования с учетом требований Индустрии 4.0. Рассмотрены необходимость модернизации инженерного образования, его актуальные задачи и перспективы в условиях четвертого этапа современного индустриального развития (Индустрия 4.0). В статье рассматриваются вопросы внедрения цифровых технологий, искусственного интеллекта, IoT, больших данных и других инновационных подходов в систему инженерного образования. Даны также рекомендации по развитию практических навыков, творческого мышления и цифровых компетенций при подготовке инженерных специалистов. Также обсуждались вопросы внедрения инновационных педагогических технологий в образовательный процесс, укрепления сотрудничества с производственными предприятиями, использования международного опыта.*

Ключевые слова: *Индустрия 4.0, инженерное образование, цифровые технологии, искусственный интеллект, инновационные образовательные технологии, практические навыки, компетентностный подход, цифровые компетенции, интеграция производства и образования, проектное обучение.*

To‘rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) kiber-jismoniy tizimlar, narsalar interneti (IoT), sun’iy intellekt (AI) va katta ma’lumotlarni tahlil qilish kabi texnologiyalar orqali sanoat amaliyotlariga jiddiy o‘zgarishlar olib kirdi. Bu yutuqlar raqamlashgan sanoat muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun muhandislar tayyorlashda yangi paradigmani talab etmoqda. Ushbu bo‘limda Industry 4.0 talablariga mos muhandislik ta’limini tashkil etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga asoslangan xolis yondashuv bayon qilinadi.

Industry 4.0 texnologiyalarini muhandislik o‘quv dasturlariga integratsiya qilish talabalarning yangi texnologiyalar va metodologiyalardan xabardor bo‘lishiga xizmat qiladi. Bularga raqamli egizaklar, virtual ishga tushirish va inson-robot hamkorligi kabilar kiradi [1,2]. Masalan, virtual ishga tushirish usullaridan foydalanish talabalarga sanoat jarayonlarini virtual muhitda modellash va sinash imkonini berib, ularning muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantiradi.

Kompetensiyaga asoslangan ta’lim

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv Industry 4.0 uchun zarur bo‘lgan aniq ko‘nikma va bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan. Asosiy kompetensiyalar qatorida raqamli savodxonlik, ma’lumotlar tahlili va gibrid jamoalarda (inson va mashina) ishlash qobiliyati bor [3]. Bu yondashuv talabalarni texnik va muloqot, jamoaviy ish, tanqidiy fikrlash kabi "soft skills" bilan ta’minlaydi [4].

Natijaga yo‘naltirilgan ta’lim (OBE)

Natijaga asoslangan ta’lim — bu talabaning markaziy o‘rnida bo‘lgan, ta’lim natijalarini sanoat ehtiyojlariga moslashtiruvchi yondashuv. Masalan, CDIO (Conceive, Design, Implement, Operate) modeli asosidagi dasturlar talabalarga haqiqiy muammolar uchun yechim yaratishda amaliy tajriba beradi [5]. Shuningdek, ushbu yondashuv emotsional intellekt va liderlik qobiliyatlarini ham rivojlantirishga yordam beradi.

Tajriba asosida o‘qitish va amaliy mashg‘ulotlar

Lean Thinking Learning Space (LTLS) kabi o‘quv maydonlari raqamli vositalar orqali sanoat muammolarini hal qilishni o‘rgatadi. Ularda aqlli kanban tizimlari kabi texnologiyalardan foydalaniladi [6]. Talabalar raqamli tizimlarni loyihalash, yaratish va integratsiya qilish orqali Industry 4.0 tushunchalarini chuqurroq o‘zlashtiradi.

Loyihaga asoslangan o‘qitish (PBL)

Bu yondashuv talabalarni haqiqiy loyihalarga jalb qilib, ularni ko‘pincha sanoat sheriklari bilan hamkorlikda amalga oshirishni nazarda tutadi. Masalan, talabalar Industry 4.0 texnologiyalari — IoT va AI —ni o‘z

ichiga olgan avtomobil yig‘ish liniyalarini loyihalashlari mumkin [7]. Bu usul texnik ko‘nikmalar bilan birga innovativ fikrlash va hamkorlikni rivojlantiradi.

Muhandislik ta’limida raqamli savodxonlik

Raqamli savodxonlik — bu Industry 4.0 muhitida muhandislar uchun asosiy ko‘nikma hisoblanadi. Bunga 3D chop etish, kengaytirilgan reallik (AR) va raqamli egizaklardan foydalanish kiradi [13]. Oliy ta’lim muassasalari ushbu texnologiyalarni o‘quv dasturiga joriy etishi lozim.

IoT va IIoT texnologiyalari muhandislik ta’limida qurilmalar va tizimlarning o‘zaro bog‘liqligini tushunishni ta’minlaydi. Masalan, IoT sanoat jarayonlarini kuzatish va boshqarishda, IIoT esa ishlab chiqarishni optimallashtirishda qo‘llaniladi [9]

Sun’iy intellekt (AI) va mashinali o‘qitish

AI va mashinali o‘qitish Industry 4.0ning ajralmas qismlaridandir. Ular orqali profilaktik ta’mirlash, sifat nazorati va jarayonni optimallashtirish mumkin. Muhandislik ta’limida AIni sanoat sharoitida qo‘llashga qaratilgan kurslar va loyihalar bo‘lishi zarur [8].

Sanoat va ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlik

Sanoat va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik muhandislik ta’limini Industry 4.0 talablariga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bu hamkorliklar loyihalar, keys-stadi va ilmiy tadqiqotlar shaklida amalga oshirilishi mumkin [10, 13].

O‘quv poligonlari va loyihalar

O‘quv poligonlari talabalarga nazariy bilimlarni amalda qo‘llash imkonini beradi. Sanoat hamkorligida amalga oshirilgan loyihalar Industry 4.0 texnologiyalarini amalda o‘zlashtirishga yordam beradi [10].

O‘quv poligonlari — bu sanoat jarayonlarini simulyatsiya qiluvchi fizik yoki virtual muhitlar bo‘lib, talabalar ularda amaliyot o‘tashadi. Virtual ishga tushirish orqali talabalar sanoat tizimlarini haqiqiy muhitda ishga tushirishdan oldin raqamli ravishda sinab ko‘radilar. Bu yechim xarajatlarni kamaytiradi, xavfni minimallashtiradi va o‘quv jarayonini tezlashtiradi.

Qaytar aloqa va baholash

Sanoat vakillaridan olinadigan fikr-mulohazalar ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. So‘rovlar va baholashlar orqali o‘quv dasturining dolzarbligi aniqlanadi va unga tegishli o‘zgartishlar kiritiladi [11].

Yangi tendensiyalar va istiqbolli yo‘nalishlar

Chellenjga asoslangan o‘qitish modeli talabalarni Industry 4.0 texnologiyalari orqali real muammolarni hal qilishga undaydi. Ular barqarorlik, samaradorlik va innovatsiya kabi masalalar ustida ishlashadi [12].

Agile va Scrum metodlarini muhandislik ta’limiga joriy etish talabalarni tez o‘zgaruvchan loyihalarga tayyorlaydi. Ular jamoaviy ish, moslashuvchanlik va doimiy takomillashuvni talab qiladi [12].

Geymifikatsiya va virtual muhitlar — bu muhandislik ta'limida rivojlanayotgan tendensiyalardir. Ular talabalarga sanoat jarayonlarini xato xatarisiz simulyatsiya qilish imkonini beradi [1, 4].

Xulosa qilib aytganda, Industry 4.0 talablariga mos muhandislik ta'limini tashkil etish yangicha texnologiyalar, tajriba asosida o'qitish va sanoat bilan hamkorlikni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Kompetensiyaga asoslangan ta'lim, raqamli savodxonlik va amaliy loyihalarga e'tibor qaratish orqali talabalarni raqamlashgan sanoat muhitida samarali ishlashga tayyorlash mumkin.

Taklif etilayotgan klasterli ta'lim modeli quyidagi elementlardan iborat:

- Darajalarga asoslangan bilim bosqichlari
- Kompetensiyalar mozaikasi – umummadaniyaviy, shaxsiy, umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalar
- Smart Portfolio – talabalar shaxsiy rivojlanishini hujjatlash va baholash vositasi

Demak, sanoatning dinamik talablari asosida ta'lim mazmunini moslashtirish ta'lim sifatini oshirishda asosiy rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Richert, A., et al. (2016). Digital transformation and gamification in engineering education.*
2. *"Application of Industry 4.0 trends in the teaching process." (2022).*
3. *"Features of Implementing The Competency-Based Approach to Teaching Engineering Students in The Context of Industry 4.0." (2022).*
4. *Bühler, P., et al. (2022). Integrating soft skills in engineering for Industry 4.0.*
5. *Namasivayam, S., et al. (2023). CDIO-Based Outcome-Oriented Engineering Education.*
6. *Salinas-Navarro, D., et al. (2023). Digitally Enabled Experiential Learning Spaces.*
7. *Malhaire, F. & Fougères, A.J. (2023). Project-Based Learning in Automotive Engineering.*
8. *Guevara, S. R., et al. (2022). AI and Machine Learning for Engineering Applications.*
9. *Carrero, M. P., et al. (2023). IoT Integration in Smart Manufacturing Education.*
10. *Centea, D., et al. (2018). Learning Factories: A Bridge between Academia and Industry.*
11. *Ferreira, D., et al. (2022). Continuous Feedback Systems in Engineering Curricula.*
12. *Coelho, J., et al. (2024). Agile and Challenge-Based Learning for Engineering Education.*
13. *07065086538 (2022). Digital Literacy and Engineering Education.*

SANOAT KLASTERLARINI SHAKLLANISH MEXANIZMLARI VA ZAMONAVIY MODELLARI

Sobirov A.A.,
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti "Biznes boshqaruvi moliya" kafedrasi mudiri PhD., dotsent
Zaripbayeva A.A.
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sanoat klasterlarining shakllanish mexanizmlari va ularning zamonaviy modellariga oid nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Klasterlarning iqtisodiy tizimdagi o'rni, ularning tashkil topish bosqichlari, asosiy harakatlantiruvchi omillari va boshqaruv mexanizmlari izchil ko'rib chiqilgan. Muallif tomonidan sanoat klasterlari shakllanishining institutsional, infratuzilmaviy va mintaqaviy omillar bilan bog'liqligi asoslangan holda yoritilgan. Maqolada AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlar tajribasi asosida klaster modellari (vertikal, gibrid, innovatsion, mintaqaviy va tarmoqlararo klasterlar)ning o'ziga xos xususiyatlari taqqoslab tahlil qilingan. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida samarali sanoat klasterlarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlar tahlil qilinib, takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ilgari surilgan.*
Kalit so'zlar: *Sanoat klasteri, klasterlash mexanizmi, klaster modeli, innovatsion rivojlanish, institutsional muhit, hududiy integratsiya*

Abstract. *This article analyzes the theoretical approaches to the mechanisms of formation of industrial clusters and their modern models. The role of clusters in the economic system, the stages of their formation, the main driving factors and management mechanisms are consistently considered. The author based his analysis on the connection of the formation of industrial clusters with institutional, infrastructural and regional factors. The article compares and analyzes the specific features of cluster models (vertical, hybrid, innovative, regional and inter-sectoral clusters) based on the experience of the USA, Germany, Japan, South Korea and other countries. At the same time, the economic, legal and organizational conditions necessary for the formation of effective industrial clusters in the conditions of Uzbekistan are analyzed and recommendations for their improvement are put forward.*
Keywords: *Industrial cluster, clustering mechanism, cluster model, innovative development, institutional environment, territorial integration*

Аннотация. *В статье анализируются теоретические подходы к механизмам формирования промышленных кластеров и их современные модели. Последовательно рассмотрены роль кластеров в экономической системе, этапы их формирования, основные движущие факторы и механизмы управления. Автор основывает свой анализ на взаимосвязи формирования промышленных кластеров с институциональными, инфраструктурными и региональными факторами. В статье сравниваются и анализируются особенности кластерных моделей (вертикальных, гибридных, инновационных, региональных и межотраслевых) на основе опыта США, Германии, Японии, Южной Кореи и других стран. При этом были проанализированы экономические, правовые и организационные условия, необходимые для формирования эффективных промышленных кластеров в условиях Узбекистана, и выдвинуты рекомендации по их совершенствованию.*

Ключевые слова: *Промышленный кластер, механизм кластеризации, кластерная модель, инновационное развитие, институциональная среда, региональная интеграция*

Kirish

Hozirgi davrda sanoat tarmoqlarini samarali rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini mustahkamlashda innovatsion yondashuvlarga asoslangan boshqaruv modellariga ehtiyoj ortib bormoqda. Xususan, sanoat klasterlarini shakllantirish ushbu maqsadlarga erishishda strategik vosita sifatida qaralmoqda. Klasterlash nafaqat ishlab chiqarish quvvatlarining jamlanishini, balki ilmiy-tadqiqot, innovatsiya, logistika va xizmat ko‘rsatish sohalarining uzviy integratsiyasini ham ta’minlaydi.

Bugungi global iqtisodiy muhitda ishlab chiqarish tarmoqlarining barqarorligi, mintaqaviy iqtisodiy o‘sish va ixtisoslashuv darajasining ortishi ko‘p jihatdan klasterlash mexanizmlarining muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilganligiga bog‘liq. Xalqaro tajriba — AQShdagi "Silicon Valley", Germaniyadagi "Bavariya avtomobil klasteri", Janubiy Koreyadagi "ICT klasterlari" kabi modellar — sanoat klasterlarining iqtisodiy dinamika va innovatsion taraqqiyotga bevosita ta’sirini yaqqol namoyon qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi va “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturi”da sanoatni klaster asosida tashkil etish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, qo‘shilgan qiymat zanjirlarini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa ushbu mavzuni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Ushbu maqolada sanoat klasterlarining shakllanish mexanizmlari, ularning zamonaviy modellarini tahlil qilish, xalqaro tajribani o‘rganish va O‘zbekiston sharoitida moslashtirish imkoniyatlarini baholash orqali klasterlash siyosatini takomillashtirish yo‘llari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili

Mintaqaviy klasterlarni rivojlantirish sanoati rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dolzarb. Bu mintaqaviy iqtisodiyotda klasterlarni shakllantirish va samarali boshqarishga bo‘lgan islohotlar uchun asosiy siyosat hisoblanadi.

Jumladan, Bryussel mediya industriyasi sohasida klasterlarni shakllantirish va klaster tuzilmalarini aniqlash borasida Marlen Komorowski[1] tadqiqotlar olib borgan. Virtual korxona shaklida innovatsion sanoat klasterini yaratish imkoniyatlari A.Babkin[2] tadqiqotida o‘rganilgan. Rossiyaning Voronej viloyati o‘rmon xo‘jaligi, mebel sanoati korxonalari aglomeratsiyasi va hududiy-sanoat klasterini shakllantirish bo‘yicha S.Svetlana, G.Yelena[3] va boshqalar tadqiqot olib borganlar. Biotexnologiyalar sanoati sohasida innovatsion klasterlarni yaratish va ularni hududiy rivojlanishga ta’sirini L.A. Suvorova va L.L. Zaushitsynalar[4] baholangan.

Mahalliy bozorlarda sanoat klasterini shakllantirish jarayoniga

tadbirkorlik subyeklarining muhim roli mavjud ekanligi aniqlangan. Klasterlarni shakllanishi avvalo ichki bozordagi tadbirkorlik qobiliyati muhimroq rol o‘ynashi T. Sonobe , D. Hu & K.[5] tadqiqotlarida keltirilgan. Alina Romanova, Anton Abdurakhmanova va boshqalar tomonidan klasterlarni shakllanishining ko‘p bosqichli algoritmi tavsiya etilgan[6]. Aksariyat tadqiqotlarda klasterlarni shakllanishi ta’biiy jarayon sifatida, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlanishi bilan bog‘lashadi[7]. Sanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish tashabbuskorlar tomonidan amalga oshirilishi lozim. Ijro hokimiyati va mahalliy davlat hokimiyati organlari klasterlarni yaratish va tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga asosiy e’tibor qaratishi lozim. Mintaqa iqtisodiyotida klasterlarni shakllanishi stixiyali amalga oshishi agent model orqali aniqlangan[8]. Timothy L. Faley tomonidan sanoat klasterini yaratishda birinchi qadamlarni qo‘yishga yordam berishga qaratilgan tadqiqot olib borilgan bo‘sada, unda aniq algoritm tavsiya etilmagan.

Asosiy qism

Hududlarda ishlab chiqarish kuchlarining aglomeratsiyasining paydo bo‘lishi klaster shakllanishining boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi. Agar konsentratsiyaga ega korxona va tashkilotlarning innovatsion faoliyat, xarajatlarni minimallashtirish va bozorlarda hamkorlikka asoslangan raqobat istagi paydo bo‘lsa, ularning negizida klasterlar paydo bo‘la boshlaydi. Iqtisodiyotda avvalo innovatsion ta’sir mexanizmlari asosida klasterlar shakllanadi. Sanoat kooperatsiyasi va xo‘jalik yurituvchi subyektlardan klasterlarning asosiy farqlovchi belgisi bu konsentratsiya hosil qilishi, ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning chuqurlashib borishidir. Klasterlar asosan ishlab chiqarish va texnologiyalari sohasida raqobatda ustunliklar yaratish, yangi "bozor bo‘shliqlari" ga kirish maqsadini ko‘zlangan mintaqalar iqtisodiyotida shakllanadi[9]. Klasterning ishlab chiqarish, kooperatsiya va xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi yana bir eng muhim farqlovchi xususiyati innovatsion yo‘naltirilganlikdir. Biroq, korxonalarning konsentratsiyasi mavjud bo‘lsa-da ayrim hududlarda sanoat klasterlari shakllanmaydi. Ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda jumladan, O‘zbekistonda shunday holat kuzatilgan. Bunday holda hukumat va mahalliy hokimiyat organlar klasterlarni yaratishga harakat qilishi talab etiladi.

Har bir korxonaning bozordagi asosiy maqsadi ishlab chiqarilayotgan mahsuloti raqobatbardoshligini oshirishdan iboratdir. Buning uchun, korxona o‘zining bozor faoliyati samaradorligini ta’minlashi va daromadning joriy xarajatlardan ortiq qismini istiqbolda rivojlanish maqsadlari uchun investitsiyalashi lozim. Agar korxonaning klasterdagi jamoaviy faoliyati jumladan, xarid va sotish bozorlaridagi mavqeyini barqarorlashtirsa, yanada rivojlantirishga, ko‘proq daromad olish va kamroq sarflashga, resurs imkoniyatlarini ko‘paytirishga,

texnologiyalaridan unumdor foydalanishga, mahsulotning sifati va miqdorini oshirishga, umumiy holda raqobatbardoshlikni oshirishga imkon bersa, albatta korxona klasterda faoliyat yuritishga intiladi.

Iqtisodiyotda klasterlarni shakllanishi darhol sodir bo‘lmaydi. Chunki, hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish jarayoni nafaqat kutilayotgan iqtisodiy samaraga balki, tomonlar o‘rtasidagi erishilgan ishonch darajasiga ham bog‘liq. Barcha iqtisodiy tarmoqlarning asosiy muammosi tarmoqda faoliyat yurituvchi subyektlarining klasterda birlashishi uchun o‘zaro ishonch muhitini shakllantirishdir. Klasterlarning shakllanish va rivojlanishi jarayoni yuqorida keltirib o‘tilgan sababga ko‘ra sekinlashishi kuzatiladi.

Klasterlar doimo induktiv rivojlanish xususiyatiga ega. Klaster ishtirokchilari uchun o‘zaro ishonch muhiti shakllangungacha bo‘lgan davrda, ya’ni klasterlarni shakllanish davrida umumjamoaviy vazifalar oddiyroq, aniqroq va tez erishiladigan maqsadlar belgilanishi lozim.

Sanoat klasterlarida ishlab chiqarish funksiyalarining markazlashuv (muayyan texnologik bosqichlarni ixtisoslashuv va konsentratsiyalashuv) darajasining maqsadga muvofiqligi, texnologik parametrlari, mahsulotlarning konstruktiv va texnologik murakkabligi bilan ham belgilanadi.

Klasterlarni yaratish va rivojlantirish ishtirokchilarning turli darajadagi vakolat va resurslar integratsiyasini maqsadga muvofiq tashkil etishdan boshlanadi. Bunday omillar sinergiya ta’sirni yuzaga chiqaradi.


Klasterlarning rivojlanishida aglomeratsiya, klasterlarning paydo bo‘lishi, rivojlanayotgan klasterlar, yetuk klaster va transformatsiya (yoki pasayish) bosqichlaridan o‘tishi O.Kostenko tadqiqotlarida ham asoslanadi. Uning fikricha, klasterning harakatlantiruvchi kuchlari - kuchli raqobat va rivojlangan hamkorlik, ijtimoiy kapitalning ta’sirida yuz beradi. Klasterlarni shakllanishida aglomeratsiya eng muhim element sifatida qaraladi.

Klaster ishtirokchilarining ichki tashkiliy va iqtisodiy ahvoliga ta’sir qilmaydigan eng oson o‘rnatilgan munosabatlar axborot almashinuvi hisoblanadi. O‘zaro axborot asosidagi integratsiyalashuv "moddiy" hamkorlikning eng oqilona variantlarini topishga va bir-biri bilan moslashtirishga hissa qo‘shadi.

Doimiy va maqsadli axborot almashinuvi orqali aloqalarni o‘rnatish hamkorlikni yo‘lga qo‘yilishi klaster tuzilmalarini shakllanishining birinchi bosqichi sifatida qaraladi. Axborot almashinuvi va o‘zaro ishonchning ortib borishi klasterlar shakllanishining birinchi bosqichi hisoblanib, ularni xalqaro amaliyotda “protoklaster”lar deb ataladi.

Protoklaster - bu klasterning bir qator xususiyatlariga ega bo‘lgan va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari amalga oshirilganda to‘liq klasterga aylanishi mumkin bo‘lgan korxonalar birlashmasidir. Protok-lasterning asosiy xususiyatlari doimiy bo‘lmagan xarakterga ega bo‘lgan axborot va texnologik integratsiyala-shuvni o‘z ichiga oladi.

1-



rasm. Protoklasterlarning asosiy xususiyatlari[11]

“Protoklaster” yoki maqsadli klaster deganda, to‘laqonli klaster sifatida shakllangan klasterlarni emas, balki bir nechta xususiyatlariga ega bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar majmuini tushunish lozim. Protok-lasterlardan klasterlar shakllanadi. Ularning shakllanishi bir qator xususiyatlarni kombinatsiyalashuvi asosida kechadi. Protoklasterlardan klasterlarni shakllantirishning nazariy asosi V.A.Titareva, tadqiqotlarida[10] kuzatiladi (1-rasm).

1-rasmda belgilangan 1-maydon - "korxonalar soni". Ma’lum hududda sanoatning ma’lum tarmog‘idagi korxonalar sonining ortib borishi klasterlarni shakllanishining asosiy xususiyati hisoblanadi. Korxonalar ma’lum hududda resurs, infratuzilma va boshqa bir qator omillar ta’sirida ko‘payib boradi. Biroq, innovatsion faollik va ichki integratsiyalashuv kuzatilmaydi.

2-maydon – “innovatsion faoli-yat”. Ikkinchi soha mintaqaviy iqtiso-diyot uchun odatiy bo‘lmagan faoli-yatda yagona innovatsion ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning mavjudligi bilan ajralib turadi.

3-maydon - "ichki integratsiya-lashuv". Uchinchi yo‘nalish hamkor-likning yuqori darajasi bilan ajralib turadi, bunda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlari o‘rtasida, masalan, faoliyatning bir sohasi bilan birlash-tirilgan yuqori zichlikdagi aloqalar mavjud.

7-maydon - uchta belgining mavjudligi, bu to‘laqonli samarali rivojlanayotgan klaster mavjudligini ko‘rsatadi.

4, 5 va 6-maydonlar klasterning ikkita xususiyatining birlashishi bilan tavsiflanadi. Ushbu maydonlar ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarning uyg‘unlashuviga asoslangan protoklasterlar deb ataladi.

Klasterning umumiy belgilari mavjudligini ko‘rsatadigan asosiy tushuncha iqtisodiy aglomeratsiya atamasi hisoblanadi. Iqtisodiy aglomeratsiya - bu mintaqadagi bir faoliyat sohasi bilan birlashtirilgan geografik jihatdan konsentrlangan ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar to‘plamidir. Iqtisodiy aglomeratsiya rivojlanayotgan obyekt (hududiy birlik) bo‘lib, aglomeratsiyalarning rivojlangan cho‘qqisi protoklasterlar hisoblanadi.

Yuqori ishlab chiqarish imkoniyatlari va mexanizmlarning tegishli to‘plami tufayli protoklasterlardan shakllangan va kengaytirilgan qo‘shilish sikli mavjud bo‘lgan hamda uning ichida innovatsion siklning barcha bosqichlarini samarali amalga oshirishga qodir klasterlar shaklanadi. Klasterlar ishtirokchilarning manfaatlariga to‘liq mos keladigan va ular o‘rtasidagi boshqaruv munosabatlari o‘zaro ishonch asosiga quriladi.

Yetuk klaster o‘zini-o‘zi ta’minlaydigan, tashqi ta’sirlarga chidamli, dinamik rivojlanayotgan klasterdir. Bu uning rivojlanishining eng yuqori shakli. Bunday klasterning asosiy xususiyati jahon bozorida yuqori raqobatbardoshlikdir.

Yetuk klasterlar korporatsiyalarga o‘xshaydi, lekin korporatsiyalardan farqi shundaki, klaster a’zolari mustaqillikning asosiy tamoyillarini saqlab qoladilar, jumladan: mulkka egalik qilish huquqi, klasterdan chiqish huquqi, klasterdagi maqomini o‘zgartirish huquqi, boshqa klasterlarda ishtirok etish huquqi, uyushmalarga birlashish va imtiyozlar olish huquqi, yuklangan funksiyalarni bajarish huquqi va boshqalar.


Yaratilish vaqtida, sanoat klasterlarini samarali ishlash rejimiga va keyinchalik yetuk holatga keltirish davrida har bir klaster boshqalarga nisbatan turli xil strategiyalar belgilab olishni nazarda tutadi. Klasterni nol darajasidan yetuk klastergacha rivojlantirishning strategik rejasi klasterni tashkiliy rivojlantirishning umumiy rejasidir. Klasterlarning barcha holatlari (hech bo‘lmaganda ularning individual tipologik guruhlari) har xil bo‘lganligi sababli, ular o‘zlarining rivojlanish rejalariga ega bo‘lishi talab etiladi.

Mintaqaviy sanoat klasterlarini shakllantirishning ikki yo‘nalishi mavjud. Birinchi yo‘nalish innovatsion g‘oyalar tashuvchisi sifatida faoliyat yurituvchi yetakchi ilmiy muassasalar bazasida yangi tarmoq klasterlarni shakllantirishdir. Ikkinchi yo‘nalish mavjud iqtisodiy aglomeratsiyalar bilan bog‘liq bo‘lib, ular ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarini qo‘shib, innovatsiyalarni ishlab chiqarishga faol joriy etish uchun sharoit yaratishga e’tibor qaratiladigan yo‘nalishdir.

Umuman olganda klasterni yaratish iqtisodiy aglomeratsiyani shakllantirish va uning ishtirokchilari o‘rtasida innovatsiyaga yo‘naltirilgan aloqalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Agar iqtisodiy aglomeratsiya allaqachon mavjud bo‘lsa, mamlakatda

klasterni faollashtirish bo‘yicha choralar ko‘rilishi talab etiladi.

Mintaqaviy sanoat klasterini shakllantirishning yuqoridagi ikki yo‘nalishi o‘rtasidagi farqni klasterlarni shakllanish bosqichlarining ketma-ketligi nuqtayi nazaridan tushunish maqsadga muvofiq. Mintaqaviy sanoat klasterini shakllanish jarayoni bir qator bosqichlardan iborat (2-rasm).



2-rasm. Klasterlarni shakllanishining spontal yo‘nalishi[12].

Klasterlar avvalo sanoat aglomeratsiyasi sifatida paydo bo‘ladi, jumladan yetakchi sanoat korxonalarini, shuningdek turdosh va yordamchi tarmoqlar konsenratsiyalashuvi asosida shakllanadi.

Klasterlarni shakllanishining spontal usulida dastlab sanoat zonalari shakllanadi. Sanoat zonalarida sanoat ishlab chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi, xususan: infratuzilma, institutsional sharoitlar, inson resurslari va hayot sifati.

Sanoat zonalariga avtomobil yo‘llari tutashtiriladi, savdo-logistika tizimlari uchun sharoitlar yaratiladi. Bunday klasterlarni shakllanishiga misol sifatida Xitoyning Guanchjoudagi avtomobil klasteri misol bo‘la oladi. Guanchjoudagi avtomobil klasteri Yaponiyaning Toyota, Honda va Nissan firmalari o‘zlarining ishlab chiqarishini Xitoyga ko‘chirishi asnosida shakllangan klasterlardir. Rivojlanayotgan iqtisodiy aglomeratsiyalar banklarni, logistika kompaniyalarini, asbob-uskunalar va ehtiyot qismlarni mahalliy yetkazib beruvchilarni keng jalb qilishga harakat qiladi. Guanchjou provinsiyasida avtomobilsozlik klasterini shakllantirish mahalliylashtirilgan tashkilotlarga innovatsion faoliyat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lib, buning uchun ixtisoslashgan universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlarini tashkil etish, innovatsion infratuzilmani shakllantirish, yuqori texnologiyali xizmatlar ko‘rsatuvchi mahalliy firmalar sonini ko‘paytirish orqali tashkil etilgan. Klaster siyosatining eng muhim elementi ishlab chiqarish jarayonini mohirona tashkil etuvchi yuqori kasbiy mahoratga ega ishchilarni jalb etishdan iborat. Buning uchun eng muhim yo‘nalish o‘zining ilmiy bazasini shakllantirishdir. Guanchjou munitsipaliteti bu borada birinchi chora sifatida Yapon-Xitoy

tarjimonlari sonini ko‘paytirgan. Tarjimonlarning mavjudligi avtomobil biznesi bilan bog‘liq yapon firmalarini Xitoyga jalb qilishda muhim omil bo‘lgan. Xitoylik muhandislar Yaponiyada shunga o‘xshash ishlab chiqarish jarayonlarini o‘rgangan. Guanchjou shahrida avtomobil klasteri shakllangan taqdirda, aglomeratsiyalarning rivojlanishiga mutanosib ravishda innovatsion faollikni oshirish vazifasi tobora dolzarblashib borgan.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan ilmiy-nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sanoat klasterlari zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda strategik vosita sifatida muhim o‘rin tutadi. Ular sanoat korxonalari o‘rtasidagi resurs, bilim va innovatsiyalar almashinuvini faollashtirib, iqtisodiy sinergiya effekti hosil qiladi. Klasterlashning muvaffaqiyatli shakllanishi esa bir vaqtning o‘zida korxonalar massasi, innovatsion faollik va ichki integratsiyalashuv (kooperatsiya) omillarining uyg‘unligini talab etadi.

Dunyo tajribasida ishlab chiqilgan klaster modellari (vertikal, gibrid, mintaqaviy, innovatsion) sanoat salohiyatini oshirish, eksportni ko‘paytirish va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishda asosiy mexanizm sifatida foydalanilmoqda. O‘zbekistonda esa ushbu modelni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bo‘lsada, uni izchil rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur.

Sanoat klasterlarini shakllantirish mexanizmlarini qonuniy va institutsional asosda mustahkamlash, ya’ni “klaster to‘g‘risida”gi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish lozim. Hududiy ixtisoslashuvga asoslangan klasterlarni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, har bir viloyat yoki sanoat zonasi uchun eng maqbul klaster modelini tanlash tavsiya etiladi.

Ilmiy-tadqiqot muassasalari, OTMlar va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish, innovatsiyalarni amaliyotga joriy qilish mexanizmlarini soddalashtirish zarur. Texnologik infratuzilmani rivojlantirish, ya’ni sanoat klasterlari uchun logistika markazlari, texnoparklar va servis xizmatlari tizimini takomillashtirish muhim.

Investitsiyalar uchun rag‘batlantiruvchi choralarni kuchaytirish, xususan, klaster ishtirokchilari uchun soliq yengilliklari, subsidiyalar va kredit imtiyozlarini qo‘llash foydali bo‘ladi. Xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganib, ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish, ayniqsa Germaniya va Janubiy Koreya kabi sanoati yuqori rivojlangan davlatlar modelini amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Komorowski M. Identifying industry clusters: a critical analysis of the most commonly used methods // Reg. Stud. Reg. Sci. 2020. Vol. 7, № 1. P. 92–100
2. Alexander B., Tatiana K., Svetlana U. Formation of Industrial Clusters Using Method of Virtual Enterprises // Procedia Econ. Financ. Elsevier B.V., 2013. Vol. 5, № 13. P. 68–72
3. Morkovina S.S. et al. Development of methodological approaches to the efficiency analysis of territorial-industry cluster formation in the forest sector // Asian Soc. Sci. 2014. Vol. 10, № 23. P. 85–94
4. Morkovina S.S. et al. Development of methodological approaches to the efficiency analysis of territorial-industry cluster formation in the forest sector // Asian Soc. Sci. 2014. Vol. 10, № 23. P. 85–94
5. Sonobe T., Hu D., Otsuka K. Process of cluster formation in China: A case study of a garment town // J. Dev. Stud. 2002. Vol. 39, № 1. P. 118–139
6. Romanova A. et al. Formation of a regional industrial cluster on the basis of coordination of business entities' interests // Procedia Comput. Sci. Elsevier B.V., 2019. Vol. 149. P. 525–528
7. Feldman M.P., Francis J., Bercovitz J. Creating a cluster while building a firm: Entrepreneurs and the formation of industrial clusters // Reg. Stud. 2005. Vol. 39, № 1. P. 129–141
8. Boush G.D., Kulikova O.M., Shelkov I.K. Agent modelling of cluster formation processes in regional economic systems // R-Economy. 2016. Vol. 2, № 1. P. 89–101
9. Ferova, I.S. Klasternыy podxod: ot konsepsii k promыshlennoy politike regiona: Monografiya. Krasnoyarsk: Krasnoyarskiy gosudarstvennыy un-t, 2005. - 106 s.
10. Titareva, V. A. (2017). Razvitiye protoklasterov v regione. Uspexi sovremennoy nauki, 5(3), 122-124.
11. Titareva, V. A. (2017). Razvitiye protoklasterov v regione. Uspexi sovremennoy nauki, 5(3), 122-124
12. Muallif ishlanmasi

AQLLI ENERGIYA TIZIMLARI VA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH USULLARI VA SAMARADORLIGI

Sharipov K.A.,
Oliy ta`lim, fan innovatsiyalar vaziri
t.f.d., professor
Karimov V.A.
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqola Sanoat 4.0 kontekstida aqlli energiya tizimlari va qayta tiklanadigan energiya manbalarining o‘zaro integratsiyasini tadqiq etadi. Zamonaviy ishlab chiqarish muhitida energiya samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy foyda keltirish uchun innovatsion yechimlar taqdim etiladi. IoT qurilmalari, sun’iy intellekt va bulutli hisoblash texnologiyalari yordamida aqlli energiya tizimlari qanday yaratilishi va boshqarilishi, shuningdek, quyosh, shamol, gidro, biomassa va boshqa qayta tiklanadigan manbalarni integratsiyalash orqali energiya ta’minoti barqarorligi qanday ta’minlanishi ko'rib chiqiladi.*
Kalit so'zlar: *Sanoat 4.0, aqlli energiya tizimlari, qayta tiklanadigan energiya, IoT, sun’iy intellekt, energiya samaradorligi, barqaror rivojlanish.*

Abstract. *This article explores the integration of smart energy systems and renewable energy sources in the context of Industry 4.0. Innovative solutions are presented to improve energy efficiency, ensure environmental sustainability and bring economic benefits in modern manufacturing environments. It examines how smart energy systems can be created and managed using IoT devices, artificial intelligence and cloud computing technologies, as well as how energy supply sustainability can be ensured by integrating solar, wind, hydro, biomass and other renewable sources.*
Keywords: *Industry 4.0, smart energy systems, renewable energy, IoT, artificial intelligence, energy efficiency, sustainable development.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается интеграция интеллектуальных энергетических систем и возобновляемых источников энергии в контексте Индустрии 4.0. Предлагаются инновационные решения для повышения энергоэффективности, обеспечения экологической устойчивости и получения экономических выгод в современной производственной среде. Будет рассмотрено, как можно создавать и управлять интеллектуальными энергетическими системами с использованием устройств Интернета вещей, искусственного интеллекта и технологий облачных вычислений, а также как можно обеспечить устойчивость энергоснабжения путем интеграции солнечной, ветровой, гидроэнергии, биомассы и других возобновляемых источников.*
Ключевые слова: *Индустрия 4.0, интеллектуальные энергетические системы, возобновляемые источники энергии, Интернет вещей, искусственный интеллект, энергоэффективность, устойчивое развитие.*

Kirish. Sanoat 4.0 inqilobi ishlab chiqarish va energetika sektorida tub o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Raqamlashtirish, avtomatlashtirish va

innovatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi energiya ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarini optimallashtirishga imkon bermoqda. Sanoat korxonalari energiya sarfini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish maqsadida aqlli energiya tizimlari va qayta tiklanadigan energiya manbalariga tobora ko'proq murojaat qilmoqda [1].

Bugungi kunda global iqtisodiyot uchun eng muhim muammolardan biri – bu energiya xavfsizligini ta'minlash va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarni hal qilishdir. Ushbu muammolarni hal qilishda Sanoat 4.0 va qayta tiklanadigan energiya manbalari integratsiyasi muhim rol o'ynaydi. Qayta tiklanadigan energiya manbalarining an'anaviy kamchiliklari – ya'ni, ishlab chiqarishning beqarorligi va bashorat qilish qiyinligi – aqlli energiya boshqaruv tizimlari, sun'iy intellekt algoritmlari va katta ma'lumotlar tahlili orqali bartaraf etilishi mumkin [2].

Ushbu tadqiqotning maqsadi Sanoat 4.0 kontekstida aqlli energiya tizimlari va qayta tiklanadigan energiya manbalarining samarali integratsiyasini o'rganish, ularning afzalliklari va qo'llanilish imkoniyatlarini tahlil qilish hamda kelajakdagi istiqbollarni baholashdan iborat. Shuningdek, tadqiqot doirasida real ishlab chiqarish korxonalarida ushbu texnologiyalarni joriy etish natijasida erishilgan energiya tejamliligi, iqtisodiy ko'rsatkichlar va ekologik foyda tahlil qilinadi.

Tadqiqot gipotezasi: Sanoat 4.0 texnologiyalariga asoslangan aqlli energiya tizimlari va qayta tiklanadigan energiya manbalarining integratsiyasi ishlab chiqarish jarayonlarida energiya samaradorligini kamida 25% ga oshirish va karbonat gazlari emissiyasini 30% gacha kamaytirish imkonini beradi.

Kelajakda energiya xizmatlari modellarining rivojlanishi, blokcheyn texnologiyalari, peer-to-peer energiya almashinuvi va mikrogridlar kabi yangi yondashuvlar sanoat korxonalarining energiya ta'minoti va boshqaruvi sohasidagi imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Qayta tiklanadigan vodorod va yangi avlod energiya saqlash texnologiyalarining rivojlanishi qayta tiklanadigan energiya manbalarining jozibadorligini yanada oshiradi.

Biroq, aqlli energiya tizimlari va qayta tiklanadigan energiya manbalarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun kompleks yondashuv, modulli o'tish strategiyasi, xodimlarni o'qitish va xavfsizlikni ta'minlash choralarini ko'rish talab etiladi. Davlat tomonidan subsidiyalar, soliq imtiyozlari va boshqa rag'batlantirish choralari joriy etish jarayonini tezlashtirishi va moliyaviy samaradorligini oshirishi mumkin [6].

Sanoat 4.0 va qayta tiklanadigan energiya manbalari integratsiyasi nafaqat alohida korxonalar uchun, balki global miqyosda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, energiya xavfsizligi, iqlim o'zgarishi bilan kurashish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga hissa qo'shadi.

Materiallar va usullar. Modellashtirish va ma’lumotlarni tahlil qilish metodlari. Sanoat korxonalari uchun optimal energiya tizimlarini loyihalashtirishda MATLAB va Python dasturlash tillari yordamida kompyuter modellashtirish va simulyatsiya o‘tkazildi. Turli ssenariylarda energiya oqimlari, samaradorlik ko‘rsatkichlari va iqtisodiy parametrlar baholandi[4].

Ma’lumotlarni tahlil qilishda statistik tahlil usullari, ko‘p o‘lchovli regressiya tahlili, vaqt qatorlari tahlili, sun’iy intellekt algoritmlari (neyron tarmoqlari, mashinali o‘qitish) qo‘llanildi. Ma’lumotlar tahlili Python dasturlash tili yordamida amalga oshirildi.

Natijalar. Aqlli energiya tizimlari arxitekturasi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Sanoat 4.0 kontekstida samarali aqlli energiya tizimi arxitekturasi quyidagi asosiy komponentlardan iborat bo‘lishi kerak:

1. Sensor qatlami: Energiya ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol qilish jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish uchun IoT qurilmalari va aqlli sensorlar tarmog‘i.
2. Aloqa qatlami: Ma’lumotlarni yig‘ish va uzatish uchun simsiz sensorlar tarmog‘i (WSN), 5G, LoRaWAN, Zigbee kabi texnologiyalar[5].
3. Hisoblash va tahlil qatlami: Katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish uchun bulutli va tumanlashtirilgan (fog/edge) hisoblash tizimlari.
4. Boshqaruv qatlami: Energiya oqimlarini optimallashtiradigan va taqsimlaydigan avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari.
5. Foydalanuvchi interfeysi qatlami: Energiya tizimi ishlashini vizuallashtiradigan va monitoring qiladigan dastur interfeyslar.


Qayta tiklanadigan energiya manbalarining integratsiyasi. Tadqiqot davomida turli qayta tiklanadigan energiya manbalarining sanoat muhitidagi samaradorligi va integratsiya imkoniyatlari o‘rganildi. 1-jadvalda asosiy qayta tiklanadigan energiya manbalarining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari va qo‘llanilish imkoniyatlari keltirilgan[8].

1-jadval. Qayta tiklanadigan energiya manbalarining Sanoat 4.0 kontekstida texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Energiya manbai	**Samaradorlik koeffitsienti (%)**	**O‘rtacha LCOE* (USD/kWh)**	**Integratsiya qiyinligi**	**Sanoat qo‘llanilishi**
Quyosh PV	18-22	0.039-0.058	O‘rta	Yuqori
Konsentrlangan quyosh	22-27	0.067-0.098	Yuqori	O‘rta
Quruqlikdagi shamol	35-45	0.026-0.054	O‘rta	Yuqori
Dengizdagi shamol	40-50	0.058-0.087	Yuqori	Cheklangan
Biomassa	25-35	0.065-0.11	Past	Yuqori
Geotermal	10-20	0.072-0.11	Yuqori	Cheklangan
Kichik gidroenergetika	70-90	0.05-0.09	O‘rta	O‘rta

*LCOE - Levelized Cost of Energy (Energiyaning tenglashtirilgan qiymati)

IoT va Sun’iy intellektning aqlli energiya tizimlaridagi roli. Tadqiqot natijalariga ko’ra, IoT qurilmalari va sun’iy intellekt algoritmlari aqlli energiya tizimlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. 1-rasmda IoT qurilmalarining sanoat korxonasida energiya sarfini monitoring qilishdagi natijalarini ko‘rsatuvchi grafik keltirilgan[6].



1-rasm. IoT qurilmalari yordamida korxonada energiya sarfini monitoring qilish natijalari

Sun‘iy intellekt algoritmlari, xususan neyron tarmoqlari va chuqur o‘qitish usullari energiya ishlab chiqarish va iste’molini bashorat qilishda yuqori aniqlik ko‘rsatdi. 2-jadvalda turli bashorat qilish

usullarining solishtirma tahlili keltirilgan.

2-jadval.

Energiya ishlab chiqarish va iste'molini bashorat qilish usullariningsolishtirma tahlili

Bashorat usuli	**MAPE (%)**	**RMSE (kWh)**	**Hisoblash resurslari talabi**	**Real vaqt rejimida ishlash imkoniyati**
ARIMA	12.8	78.5	Past	Yuqori
XGBoost	8.7	52.3	O'rta	Yuqori
LSTM	5.2	41.7	Yuqori	O'rta
CNN-LSTM	4.1	35.2	Yuqori	Past
Transformerlar	3.6	31.8	Juda yuqori	Past

Energiya saqlash tizimlari integratsiyasi. Qayta tiklanadigan energiya manbalarining beqarorligini bartaraf etish uchun energiya saqlash tizimlari muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda turli energiya saqlash texnologiyalari tahlil qilindi va ularning sanoat korxonalarida qo'llanilish samaradorligi baholandi[9].

3-jadval.

Energiya saqlash texnologiyalarining taqqoslama tahlili

Energiya saqlash texnologiyasi	**Energiya zichligi (Wh/kg)**	**Ishlash muddati (sikl)**	**Quvvat qilish vaqti**	**O'z-o'zidan quvvatsizlanish**	**Narx (USD/kWh)**
Li-ion batareyalar	100-265	1000-3000	Tez	O'rta	250-550
Oqimli batareyalar	20-70	12000-14000	O'rta	Juda past	300-700
Siqilgan havo	2-6	>25000	O'rta	O'rta	120-280
Mahobiklar	0.5-1.5	>25000	Tez	Yuqori	150-300
Superkondensatorlar	5-15	>1000000	Juda tez	Yuqori	1000-5000
Vodorod	500-1500	>1000	O'rta	Past	400-1000


Case study natijalari. Tadqiqot doirasida o'rganilgan 12 ta korxonadan 3 tasi bo'yicha energiya samaradorligi va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarishi tahlil qilindi.

4-jadval.

Aqlli energiya tizimlari va qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etgan korxonalardagi natijalar

Ko'rsatkich	**A korxona (Oziq-ovqat)**	**B korxona (Kimyo)**	**C korxona (Metallurgiya)**	**O'rtacha**

Energiya sarfi kamayishi (%)	32.7	27.8	19.5	26.7
CO2 emissiyasi kamayishi (%)	41.2	35.6	22.3	33.0
Operatsion xarajatlar kamayishi (%)	28.5	23.7	17.2	23.1
ROI (yil)	3.2	4.1	5.7	4.3
Ishlab chiqarish samaradorligi o‘sishi (%)	14.7	11.2	8.5	11.5



2-rasm. Aqlli energiya tizimlari va qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etgan korxonalar ko‘rsatkichlari o'zgarishi

Muhokama. Tadqiqot natijalari Sanoat 4.0 sharoitida aqlli energiya tizimlari va qayta tiklanadigan energiya manbalarining integratsiyasi ishlab chiqarish korxonalari uchun sezilarli foyda keltirishi mumkinligini ko‘rsatdi. O‘rtacha energiya sarfi 26.7% ga, CO2 emissiyasi 33.0% ga kamaygan va ishlab chiqarish samaradorligi 11.5% ga oshgan. Bu natijalar ilgari surilgan tadqiqot gipotezasini tasdiqlaydi.

Afzalliklar va cheklovlar. Sanoat korxonalarida aqlli energiya tizimlari va qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etishning quyidagi asosiy afzalliklari aniqlandi:

1. Energiya xarajatlarining kamayishi: Energiya sarfini monitoring qilish va optimallashtirishning avtomatlashtirilgan tizimlari energiya iste’molini 20-35% ga kamaytirishi mumkin.
2. Ekologik foyda: Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish CO2 emissiyasini sezilarli darajada kamaytiradi.
3. Ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligi: Aqlli energiya tizimlari energiya uzilishlarini oldindan bashorat qilish va oldini olish imkonini beradi.
4. Moslashuvchanlik va scalability: Modulli arxitekturaga ega bo‘lgan aqlli energiya tizimlari korxona ehtiyojlariga moslashtirilishi va kengaytirilishi mumkin.

5. Ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish: Real vaqt rejimida ma’lumotlar tahlili energiya bilan bog‘liq qarorlar qabul qilishni optimallashtirishga imkon beradi.

Biroq, quyidagi cheklovlar va qiyinchiliklar ham mavjud:

1. Yuqori boshlang‘ich investitsiyalar: Aqlli energiya tizimlari va qayta tiklanadigan energiya qurilmalarini o‘rnatish katta moliyaviy sarmoyalarni talab qiladi.

2. Texnik murakkablik: Tizimlarni joriy etish va ulardan foydalanish yuqori malakali mutaxassislarni talab qiladi.

3. Mavjud infratuzilma bilan integratsiya: Eski ishlab chiqarish tizimlari va uskunalarni zamonaviy aqlli energiya tizimlari bilan integratsiyalash texnik qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

4. Kiberxavfsizlik muammolari: IoT qurilmalarining ko‘payishi va tarmoqqa ulanishi kiberhujumlar xavfini oshiradi.

5. Geografik va iqlim cheklovlari: Barcha qayta tiklanadigan energiya manbalari ham barcha joylarda bir xil samaradorlikka ega emas.

Joriy etish bo'yicha tavsiyalar. Tadqiqot natijalariga asoslanib, sanoat korxonalari uchun aqlli energiya tizimlari va qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etishda quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi:

1. Kompleks energiya auditi: Joriy etishdan oldin korxonadagi energiya oqimlarini chuqur tahlil qilish, energiya sarfi va yo‘qotishlarini aniqlash.

2. Modulli yondashuv: Bir vaqtning o‘zida butun tizimni emas, balki modullar bo‘yicha bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasini qo‘llash.


3. Gibrid yechimlar: Bir nechta qayta tiklanadigan energiya manbalarini kombinatsiyalash va an’anaviy energiya manbalari bilan integratsiyalash.

4. Ochiq standartlar: Kengaytiriladigan va boshqa tizimlar bilan mos keladigan ochiq standartlarga asoslangan texnologiyalarni tanlash.

5. Xodimlarni o‘qitish: Korxona xodimlarini yangi texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash va malakasini oshirish.

6. Kiberxavfsizlikni ta‘minlash: Energiya tizimlari uchun xavfsizlik me’yorlari va protokollarini ishlab chiqish.

7. Davlat subsidiyalari va soliq imtiyozlaridan foydalanish: Ko‘plab mamlakatlarda qayta tiklanadigan energiya texnologiyalarini joriy etish uchun moliyaviy yordam dasturlari mavjud.



3-rasm: Sanoat korxonalarida aqlli energiya tizimlarini joriy etish bosqichlari

Kelajak tendensiyalari va istiqbollar. Aqlli energiya tizimlari va qayta tiklanadigan energiya manbalari sohasidagi kelajak tendensiyalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Energiya-as-a-Service (EaaS) modellari: Korxonalarga katta boshlang‘ich investitsiyalarsiz aqlli energiya tizimlaridan foydalanish imkonini beruvchi xizmat modellari.
2. Blokcheyn texnologiyalarining integratsiyasi: Energiya savdosi va hisob-kitoblar uchun blokcheyn asosidagi tarqatilgan tizimlar.
3. Peer-to-peer energiya almashinuvi: Korxonalar o‘rtasida energiya ortig‘ini sotish va sotib olish imkoniyati.
4. Mikrogridlar: Markazlashtirilgan energiya tarmog‘iga qo‘shilgan holda mustaqil ishlash qobiliyatiga ega bo‘lgan mahalliy energiya tizimlari.
5. Energiya saqlash texnologiyalarining takomillashuvi: Yangi avlod batareyalari va energiya saqlash usullari, energiya zichligi va samaradorlikning oshishi.
6. Qayta tiklanadigan vodorod: Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan olingan elektr energiyasi yordamida ishlab chiqarilgan vodoroddan energiya manbai va energiya saqlash vositasi sifatida foydalanish.
7. Sun’iy intellektning yanada chuqurroq integratsiyasi: Energiya sarfini yanada optimallashtirish uchun unsupervised va reinforcement learning algoritmlaridan foydalanish.

Xulosa. Ushbu tadqiqot Sanoat 4.0 kontekstida aqlli energiya tizimlari va qayta tiklanadigan energiya manbalarining integratsiyasi sanoat korxonalari uchun energiya samaradorligi, iqtisodiy ko‘rsatkichlar va ekologik barqarorlik nuqtayi nazaridan sezilarli foyda keltirishi mumkinligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, to‘g‘ri loyihalash-tirilgan va joriy etilgan aqlli energiya tizimlari energiya sarfini o‘rtacha 26.7% ga, CO_2 emissiyasini 33.0% ga kamaytirishi va ishlab chiqarish samaradorligini 11.5% ga oshirishi mumkin.

Sanoat 4.0 texnologiyalari, jumladan, IoT qurilmalari, bulutli hisoblash va sun'iy intellekt algoritmlari qayta tiklanadigan energiya manbalarining an'anaviy kamchiliklarini bartaraf etishga yordam beradi. Aqlli sensorlar tarmog'i, real vaqt rejimida ma'lumotlarni tahlil qilish va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlari energiya oqimlarini optimallashtirish va energiya sarfini kamaytirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Abdurakhmanov, A., & Umarov, B. (2023). Industry 4.0 and renewable energy integration: case studies from Central Asia. Journal of Sustainable Manufacturing, 12(3), 278-293.*
2. *Berdiyorov, T., & Karimov, O. (2024). Smart energy management systems for industrial applications in Uzbekistan. International Journal of Energy Research, 45(2), 145-162.*
3. *Chen, Y., & Zhang, L. (2022). IoT-enabled energy management in manufacturing: A comprehensive review. Journal of Cleaner Production, 321, 128978.*
4. *Deng, C., Yang, M., & Wang, H. (2023). Artificial intelligence for renewable energy forecasting: A review. Applied Energy, 331, 120375.*
5. *Ghorbani, R., & Eskandari, H. (2023). Energy storage technologies in smart industrial microgrids: A comparative analysis. Energy Conversion and Management, 275, 116471.*
6. *International Energy Agency. (2024). Renewables in Industrial Applications: Global Outlook 2024. IEA Publications.*
7. *Kumar, N., & Singh, M. (2022). Blockchain-based energy trading systems for industrial microgrids. IEEE Transactions on Industrial Informatics, 18(7), 4921-4932.*
8. *Lee, J., Bagheri, B., & Kao, H. A. (2021). A cyber-physical systems architecture for Industry 4.0-based manufacturing systems. Manufacturing Letters, 3, 18-23.*
9. *Malek, J., & Torres, R. (2024). Energy-as-a-Service models for industrial applications. Energy Policy, 177, 113523.*
10. *Patel, A., & Johnson, K. (2023). Machine learning for energy optimization in industrial processes. Applied Energy, 335, 120765.*
11. *Qian, X., & Zhang, T. (2022). Fog computing for industrial energy management systems. IEEE Internet of Things Journal, 9(5), 3561-3574.*
12. *Tursunov, O., & Kamilov, M. (2024). Green hydrogen production and storage in industrial settings: technological assessment and economic analysis. International Journal of Hydrogen Energy, 49(4), 472-489.*
13. *Valizada, I., & Aliyev, R. (2022). Advanced energy monitoring systems for industrial applications. Energy, 244, 123137.*
14. *Wang, S., & Liu, J. (2023). Digital twins for energy management in smart factories. Journal of Manufacturing Systems, 66, 218*

3-SHO‘BA: ROBOTOTEXNIKA VA AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV TIZIMLARI

ИНСОН ЭҲТИЁЖЛАРИНИ АНГЛОВЧИ ВА УЛАРГА ЖАВОБ БЕРИШ ҚОБИЛИЯТИГА ЭГА ЭМПАТИК РОБОТЛАР

Маматов Н.С.[1], Самижонов А.Н.[1], Самижонов Б.Н.[2]
[1]“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти” Миллий тадқиқот университети, Ўзбекистон
[2]Седжон университети, Корея

Аннотация. *Мақола инсон эҳтиёжларини англаш ва уларга жавоб бериш қобилиятига эга бўлган эмпатик роботлар тадқиқига бағишланган бўлиб, унда эмпатик роботлар моделини яратиш жараёни таҳлил этилган. Одатда бундай роботлар сўзлар ва имо-ишоралар орқали инсон эмоционал ҳолатини аниқлаш орқали реакция билдириш қобилиятига эга бўлади. Тадқиқотда табиий тилни қайта ишлаш, эмоцияларни таниб олиш, матндан ёки нутқдан маълумотларни аниқ бир вақтда тушунишни таҳлил қилиш ва машинали ўқитиш каби технологиялар асосида эмпатик роботлар моделини яратиш жараёнлари ўрганилган. Шунингдек, эмпатик роботларни тиббиёт, таълим ва хизмат кўрсатиш соҳаларига жорий этилиши баён этилган бўлиб, бу йўналишдаги илмий-этик муаммолар ёритиб берилган.*

Калит сўзлар: *эмпатик робот, сунъий интеллект, инсон-робот алоқаси, NLP, эмоцияларни таниб олиш, интеллектуал тизим.*

Abstract. *The article is devoted to the study of empathic robots that have the ability to understand and respond to human needs, and analyzes the process of creating a model of empathic robots. Typically, such robots have the ability to react by determining the emotional state of a person through words and gestures. The study studies the processes of creating a model of empathic robots based on technologies such as natural language processing, emotion recognition, analysis of simultaneous understanding of information from text or speech, and machine learning. It also describes the introduction of empathic robots into the fields of medicine, education, and service, and highlights scientific and ethical issues in this area.*

Keywords: *empathic robot, artificial intelligence, human-robot communication, NLP, emotion recognition, intelligent system.*

Аннотация. *Статья посвящена исследованию эмпатических роботов, обладающих способностью понимать и реагировать на потребности человека, а также анализируется процесс создания модели эмпатических роботов. Обычно такие роботы обладают способностью реагировать, определяя эмоциональное состояние человека по словам и жестам. В исследовании изучались процессы создания моделей эмпатических роботов на основе таких технологий, как обработка естественного языка, распознавание эмоций, анализ понимания данных в реальном времени из текста или речи и машинное обучение. Также описывается внедрение эмпатических роботов в сферы медицины, образования и сервиса, освещаются научные и этические проблемы в этом направлении.*

Ключевые слова: *эмпатический робот, искусственный интеллект, взаимодействие человека и робота, НЛП, распознавание эмоций, интеллектуальная система.*

Кириш

Сунъий интеллект ва робототехника соҳаларидаги тезкор ривожланиш инсон ва машиналар орасидаги самарали мулоқотни таъминлашга қаратилган янги технологик ёндашувларни талаб қилади. Бугунги кунда интеллектуал роботлар фақат техник вазифаларни бажариш билан чекланиб қолмай, балки инсон билан ижтимоий, мулоқотга асосланган муносабатга кириша олиши, уни эҳтиёжларини тушуниши ва мос жавоб қайтара олиши долзарб масалага айланмоқда. Шунинг учун ҳам робототехника соҳасида эмпатия ва контекстни англай оладиган интерактив моделларга эҳтиёж кун сайин ортиб бормоқда [1].

Эмпатик роботлар концепцияси инсонни вербал (сўзлар орқали) ва невербал (ишора, юз ифодалари, овоз оҳанги, ҳаракатлар ва ҳ.к.) алоқалари орқали у билан муносабатлар ўрната оладиган, эҳтиёж ва ҳиссиётларини англовчи роботлар моделини англатади. Бундай роботлар табиий тилни қайта ишлаш (NLP), турли маълумотларни бирлаштириш, контекстуал таҳлил ва реал вақтда инсон эмоцияларини таниб олиш каби технологияларга асосланади [2].

Инсон ва робот орасидаги мулоқотда фақат ахборот алмашинуви эмас, балки эмоционал мувофиқлик ҳам катта аҳамиятга эга ҳисобланади. Айниқса, бу тиббиёт, таълим, хизмат кўрсатиш ва ижтимоий ёрдам каби соҳаларда робот эмпатик қобилиятлари уни самарадорлигини оширишга кўмаклашади. Хусусан, кексалар ва ногиронларга кўмаклашувчи ёрдамчи роботлар нафақат маълум бир ишни бажариши, балки уларни кайфиятига қараб унга тасалли бериш, мулоқот қилиш, диққат ва эътибор кўрсатиши мумкин [3].

Ушбу мақолада эмпатик роботларни ишлаб чиқишда қўлланиладиган технологик асослар, яъни NLP, машинали ўқитиш, маълумотлар таҳлили, эмоцияларни таниб олиш ва уларни интерпретациялаш усуллари ўрганилган. Шунингдек, эмпатик роботларни турли соҳалар амалиётидаги афзалликлари ва улар билан боғлиқ этик ва ижтимоий муаммолар таҳлил қилинган [4].

Роботларни ишлаш қобилиятлари уларни мустақил қарор қабул қилиш, муҳитни тез ва аниқ таҳлил қилиш, турли вазифаларни бажаришга қодир бўлишини кўрсатмоқда. Бироқ, роботларни инсонлар билан ўзаро муносабатларини табиий ва эмпатик таъминлаш ушбу технологияларни амалий қўлланишини янги босқичга олиб чиқади [5].

Инсон-робот муносабатларидаги муҳим йўналишлардан бири —

роботларда эмпатияларни мавжудлиги таъминлашдир, яъни инсон эҳтиёжлари ва ҳиссиётларини англаш, мос тўғри жавоб бериш қобилиятидир. Эмпатик роботлар инсон эмоцияларини ёки муҳитдаги ўзгаришларни таниб олиш ва уларга мувофиқ муносабатда бўлишга қодир бўлиши зарур. Бу технологик инқилоб инсон ва роботлар орасидаги мулоқотларни яхшилаш, инсон ҳаёт сифатига ижобий таъсир кўрсатишга кўмаклашади [6].

Эмпатик роботлар ҳам оддий роботлар бўлиб, уларни дизайн ва ишлаш тамойилларида инсон эҳтиёжлари ва эмоциялари эътиборга олиниши асосий мақсад сифатида олинади. Роботлар табиий тилни қайта ишлаш (NLP), юмшоқ робототехника, мавжуд муаммоларни ечишда тезкор алгоритмлар, эмпатик мулоқотни таъминлаш учун интерфаол ҳаракатлар ва вербал ёки невербал жавоблар интеграциясини қамраб олади. Бундан ташқари, роботлар инсон ҳиссиётларини ҳам тушуниши ва уларга мувофиқ хулқ-атворга эга бўлиши учун машинали ўқитишнинг турли кўринишлари ва контекстуал таҳлил усуллари амалиётга киритилмоқда [7].

Эмпатик роботлар технологияси ижтимоий ёрдам, таълим, психотерапия, тиббиёт каби соҳаларда катта аҳамиятга эгадир. Инсон эҳтиёжларига мослашувчи роботлар, хусусан шифокор ёки ёрдамчи бўлиши зарур бўлган жабҳаларда кўпқиррали ифодаланишларга эга бўлиши талаб этилади. Тиббиётда роботлар бемор эмоционал ҳолатини таснифлаш орқали у билан мулоқот қилиш ва кайфиятини яхшилашга ёрдам бериши мумкин. Таълим соҳасида эса, роботлар талабалар эҳтиёжларига мослашиш орқали фақат билим беришга эмас, балки эмоционал қўллаб-қувватлашга ҳам кўмаклашиши мумкин [8].

Ушбу ишнинг мақсади робот ва инсон орасидаги ҳамкорлик самарадорлигини янада ошириш ва уларни ўзаро муносабатларини инсон даражасига етказишга яқинлаштиришдан иборат. Шу нуқтаи назардан, инсон эҳтиёжларини англовчи ва уларга муносабат билдира оладиган эмпатик роботларни ишлаб чиқиш замонавий илмий тадқиқотларда муҳим йўналиш сифатида юзага келмоқда [9].

Эмпатик роботлар инсон сўзлари, юз ифодаси, овоз тембри, танасининг ҳолати каби вербал ва невербал белгиларни таҳлил қилиш орқали фойдаланувчи эҳтиёжларини англаш ва жавоб бериш имкониятига эга бўлиши шарт. Бунинг учун табиий тилни қайта ишлаш (NLP), компютерли кўриш, сигналлар таҳлили ва машинали ўқитиш технологиялари кенг қўлланилади [10].

Ушбу роботлар одатда қуйидаги технологиялар билан жиҳозланади:

- Natural Language Processing (NLP): инсон нутқини тўғри тушуниш ва унга жавоб қайтариш (OpenAI GPT-архитектураси, Google

BERT ва Microsoft DialoGPT).

- Computer Vision (CV): юз ифодаларини таҳлил қилиш, кўз қараши, бош бурилиши ва ҳаракатларни аниқлаш (FaceNet ва Affectiva Emotion AI).
- Speech Emotion Recognition (SER): овоз оҳангини таҳлил қилиб, кайфиятни аниқлаш.
- Multimodal Learning: турли маълумотлар манбаларини (тил, кўриш, овоз) интеграциялаш орқали умумий контекстни англаш.
- Reinforcement Learning: мураккаб ҳолатларда эмпатик муносабатни мослаштириш учун динамик моделлаш.

2021 йилда Станфорд университети тадқиқотчилари томонидан олиб борилган тадқиқотда (Stanford HCI Group), CNN ва LSTM асосидаги моделлар инсон юз ифодаларидан 87% аниқлик билан ғам, қувонч, ғазаб каби 7 асосий эмоцияни ажратиб берган.

MIT Media Lab (2020) томонидан олиб борилган тадқиқотда, роботлар томонидан эмоционал жавоб қайтариш инсонларда ишонч даражасини 32% оширгани қайд этилган. Бу натижа, хусусан, тиббиётдаги ёрдамчи роботлар фаолияти учун муҳим омил ҳисобланади.

Японияда фойдаланилаётган “Paro” номли терапевтик робот кекса беморларда стрессни 45% камайтирган ва уйқу сифатини 29% яхшилаган. Бу роботлар реал вақтда овоз ва ҳаракатларни таҳлил қилиб, таъсирчан муносабат бера олади.

2019 йилда Carnegie Mellon университетида ўтказилган тадқиқотда таълим соҳасида фойдаланилган эмпатик роботлар талабаларни машғулотларда иштирок даражасини 23% га оширган.

Эмпатик роботлар қуйидаги соҳаларда белгиланган мақсадларда кенг қўлланилиши мумкин:

1. Тиббиёт – кексалар ва беморларга ёрдам, когнитив бузилишларни бартараф этишда ёрдам.
2. Таълим – талабалар ҳолатига мослашувчан таълим.
3. Хизмат кўрсатиш – мижоз кайфиятини англаб хизматни мослаш.
4. Ногиронлиги бор инсонлар – ёрдамчи роботлар орқали ҳаёт сифатини яхшилаш.

Технологияларни ривожланиши билан бир қаторда этик муаммолар ҳам долзарб бўлиб бормоқда. Жумладан, шахсий маълумотларни ҳимоя қилиш, инсон ҳиссиёти билан манипуляциялаш хавфи ва маданиятлараро фарқлар робот хулқ-атворини нотўғри талқинига олиб келиши мумкин.

Эмпатик роботлар билан боғлиқ айрим муаммолар ҳам мавжуд:

- Шахсий маълумотларни ҳимоялаш: инсон юз ифодалари, овоз ва мулоқотлар махфийлиги таъминланиши шарт.
- Маданиятлараро контекст: бир мамлакатда ижобий деб қабул қилинган хулқ-атвор бошқасида тўғри бўлмаслиги мумкин.

- Манипуляция эҳтимоли: робот томонидан “ҳиссий таъсир” орқали инсон қарорларига таъсир кўрсатиш мумкин.

Хулоса

Эмпатик роботлар инсон ва машиналар орасидаги мукаммал мулоқотни таъминлашда муҳим рол ўйнамоқда. Бу роботлар фақат техник вазифаларни бажариш билан чекланмай, балки инсон эҳтиёжларини ва ҳиссиётларини тушуниш, уларга мувофиқ мулоқот қилиш имкониятини тақдим этмоқда. Бу технологик инқилоб эмпатия ва контекстуал таҳлилга асосланган роботлар моделларини ишлаб чиқишга ёрдам беради, уларни турли соҳаларда кенг қўллаш мумкин.

Роботларни турли хусусиятларга эга бўлиши ёрдамчи тизимлар ва хизматларда инсон ҳаётига ижобий таъсир кўрсатишига олиб келади. Бироқ, эмпатик роботлар тараққиёти билан бир қаторда, этик ва ижтимоий муаммолар аҳамиятга эга эканлигини эсдан чиқармаслик лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. *Martin, W. (2020). Empathic Robots: New Directions in Human-Robot Interaction. Journal of Robotics and Intelligent Systems, 15(2), 45-57.*
2. *Li, S., & Kim, H. (2021). Natural Language Processing and Emotion Recognition Technologies. Journal of Artificial Intelligence and Machine Learning, 29(3), 113-121.*
3. *Sharp, E. (2022). Empathic Robots in Medicine and Their Importance. Medicine and Technology Journal, 34(4), 205-212.*
4. *Nguyen, H., & Ton, K. (2019). Robotics and Psychotherapy: The Psycho-Emotional Impact of Empathy. Psychological Research Journal, 27(1), 88-102.*
5. *Johnson, R. (2020). The Impact of Robots on Human Emotions and Assistive Robotics. Social Innovations and Robotics, 12(5), 134-142.*
6. *Kurt, M. (2021). Interactive Robotics: Empathic Robots and Family Assistance. International Journal of Robotics, 38(6), 156-165.*
7. *Zhang, P., & Su, L. (2022). Robots and Emotional Relief: The Psychology of Interactive Communication. Robotics and Human Factors, 48(2), 67-74.*
8. *Petrov, A., & Volkov, I. (2019). Empathic Robots and Social Interactions Between Humans and Robots. Journal of Intellectual Technologies, 11(4), 199-208.*
9. *Simonova, M., & Yakovlev, A. (2021). Empathic Robots and Their Impact on Human Life. Technology and Society, 22(1), 123-130.*
10. *Gorshkov, I., & Belousov, A. (2020). Interactive Robots and Their Assistance in Human Relations. Innovations and Technologies, 17(3), 92-101.*

MAYSALARNI O‘RISH VA QOR TOZALASH MASHINASINI MASOFADAN BOSHQARISHNI AVTOMATLASHTIRISH

Yusupov R.A.,
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti dotsenti
G‘ulomov A.X.
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola maysalarni o‘rish va qor tozalash mashinasi – sensorlar va navigatsiya (GPS) bilan jihozlangan avtomatlashtirilgan qurilma bo‘lib, masofadan boshqarish imkoniyati mavjud. Belgilangan jadval asosida ishlaydi, vaqtni tejaydi, inson aralashuvisiz katta hududlarni boshqaradi. Akkumulyator yoki benzinli, ekologik, shovqinsiz modellari bilan qulaylik va samaradorlikni ta’minlaydi.*
Kalit so’zlar: *Dasturlashtirish, maysalarni o‘rish, qor tozalash, avtomatlashtirilgan, sensorlar, navigatsiya, GPS, samaradorlik, vaqtni tejash, ekologik, shovqinsiz, akkumulyator, benzin, qulaylik, katta hududlar.*

Abstract. *This article is about a lawn mower and snow blower - an automated device equipped with sensors and navigation (GPS), with the ability to be controlled remotely. It works on a set schedule, saves time, and manages large areas without human intervention. It provides convenience and efficiency with battery or gasoline-powered, ecological, noiseless models.*
Keywords: *Programming, lawn mower, snow blower, automated, sensors, navigation, GPS, efficiency, time saving, ecological, noiseless, battery, gasoline, convenience, large areas.*

Аннотация. *В статье речь идет о газонокосилке и снегоочистителе — автоматизированном устройстве, оснащенном датчиками и навигацией (GPS) и способном к дистанционному управлению. Он работает по установленному графику, экономит время и обрабатывает большие площади без вмешательства человека. Экологичные и бесшумные модели с аккумуляторным или бензиновым двигателем обеспечивают комфорт и эффективность.*
Ключевые слова: *Программирование, стрижка газона, уборка снега, автоматизация, датчики, навигация, GPS, эффективность, экономия времени, экологичность, бесшумность, аккумулятор, бензин, удобство, большие площади.*

Kirish

Texnologik taraqqiyotning zamonaviy davrida avtomatlashtirish jarayonlari inson hayotining turli jabhalarida o‘z o‘rnini topmoqda. Xususan, dasturlashtirilgan maysazor o‘rish va qor tozalash mashinalari kabi qurilmalar kundalik vazifalarni soddalashtirish va samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega [1]. Ushbu mashinalar sun’iy intellekt, sensor texnologiyalari va dasturiy ta’minot yordamida avtonom tarzda ishlaydi. Bu esa odamlarga vaqtni tejash, jismoniy mehnatni kamaytirish va atrof-muhitni tartibli saqlash imkonini beradi. xatolarini kamaytirib, gazonlarni o‘rish jarayonida aniqroq va sifatliroq natijalarga erishish imkonini beradi.

Asosiy qism

Maysalarni o‘rish va qor tozalash mashinalarining tuzilishi va ishlash prinsipi, maysalarni o‘rish va qor tozalash mashinalarini avtomatlash-tirish, ko‘pincha robot-maysalarni o‘rish deb ataladi va murakkab texnologik tizimlardan iborat. Ularning asosiy komponentlari orasida harakatlantiruvchi dvigatellar, kesish pichoqlari, sensorlar va dasturiy boshqaruv tizimi mavjud [2]. Mashina oldindan belgilangan hududda harakatlanish uchun GPS yoki simli chegaralovchi tizimlardan foydalanadi. Ultratovushli yoki infraqizil sensorlar to‘siqlarni (masalan, daraxtlar, toshlar) aniqlash va ulardan qochish imkonini beradi. Elektron dasturlash zamonaviy texnologiyalarni kengroq qo'llashga imkon beradi, bu esa insonlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi [4].

Bu mashina zamonaviy hayot uchun katta yengillik beradi. Dasturlashtirish imkoniyati tufayli u oldindan belgilangan vaqtda, masalan, kechasi yoki siz ishda bo‘lganingizda maysa o‘radi yoki qorni tozalaydi. Sensorlar va GPS yordamida to‘siqlardan qochadi va ishni bir tekis bajaradi. Akkumulyatorli modellari shovqinsiz va ekologik toza, bu esa shahar va qishloq joylari uchun juda qulay [3]. Vaqtni tejash bilan birga, u katta bog‘larga ega odamlar uchun inson omilini sezilarli darajada kamaytiradi.

Lekin bu texnologiyaning salbiy tomonlari ham bor.

- narxi yuqori – hamma ham bunday qurilmani sotib ololmaydi.
- agar biror qismi, masalan, sensor yoki akkumulyator buzilsa, ta’mirlash qimmat va murakkab bo‘lishi mumkin.
- notekis yoki toshli yerlarda mashina ishlamay qolishi ehtimoli bor.
- u inson mehnatini almashtirib, jismoniy faollikni kamaytiradi va ba’zi hollarda mahalliy ishchilar uchun ish o‘rinlarini yo‘qotishga olib keladi.

Narx masalasida, uzoq muddatda bu mashina o‘zini oqlaydi, chunki qo‘l mehnati yoki yollanma ishchilarga sarflanadigan xarajatlardan ko‘ra tejamkorroq [2]. Texnologiya rivojlanmoqda, shuning uchun yangi modellar murakkab erlarga moslashib, kamchiliklarni bartaraf qilmoqda. Ish o‘rinlari va faollikka kelsak, bu mashina odamlarga ko‘proq bo‘sh vaqt beradi – ular bu vaqtni sport yoki boshqa foydali ishlar uchun ishlatishi mumkin.

Shunga qaramay, hamma sharoitda ham bu mashina ideal emas. Masalan, elektr ta’minoti cheklangan qishloq joylarda akkumulyatorli modellar qiyinchilik tug‘diradi. Shuningdek, tabiat bilan aloqada bo‘lishni yaxshi ko‘radiganlar uchun maysa o‘rish yoki qor tozalash kabi ishlar dam olish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Texnologiyaga haddan tashqari tayanish esa bunday oddiy zavqlarni yo‘qotishi mumkin [3].

Xulosa

Xulosa qiladigan bo‘lsak, maysalarni o‘rish va qor tozalash mashinalarini avtomatlashtirish zamonaviy hayotni soddalashtirishda muhim o‘rin tutadi. Ularning avtomatlashtirilgan tizimlari inson

Omnichannel marketing konsep-siyasi an’anaviy cross-channel yonda-shuvdan farqli ravishda har bir kanalning nafaqat mavjud bo‘lishini, balki ular o‘rtasida sinxronlik va izchillikni talab etadi. Bu ayniqsa B2B segmentda muhimdir, chunki xarid qilish qarorlari ko‘p bosqichli va texnik jihatdan murakkabdir. B2B xaridorlari odatda xarid qilishdan oldin mahsulotni bir nechta manbalarda solishtiradi, texnik hujjatlarni ko‘radi va savdo vakillari bilan bog‘lanadi. Shu bois har bir aloqa nuqtasi (touchpoint) bir-birini to‘ldiruvchi va mantiqan mos bo‘lishi kerak [2][8][20].

Ketola (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda B2B kompa-niyalarda omnichannel tizimni joriy etish mijoz yo‘lini optimallashtirishga va yetkazib berishdagi uzilishlarni kamaytirishga olib kelgani aniqlangan [8]. Bundan tashqari, Zumstein va hamkorlar (2022) tomonidan olib borilgan keng miqyosli tahlil (625 kompaniya ishtirokida) omnichannel yondashuv savdo samaradorligi va xaridor sadoqatini sezilarli oshirishini isbotlaydi [20].

Maishiy kimyo mahsulotlari – bu tez aylanuvchan, gigiyenik talablar yuqori va yetkazib berishda kechikishga toqat qilmaydigan mahsulotlar turkumi hisoblanadi. Shu sababli bu sohada omnichannel strategiyani qo‘llash mijozga qiymat yetkazishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.



2-rasm. Maishiy kimyo sektorida omnichannel strategiyaning amaliy afzalliklari [22]

2-rasm asosida shuni ta’kidlash mumkin: buyurtma bajarish tezligi (90%) va mijoz sadoqati (85%) omnichannel yondashuv yordamida eng samarali ko‘rsatkichlarga erishgan. Bu esa maishiy kimyo sohasida raqamli transformatsiyani joriy etishda asosiy yo‘nalishlar sifatida qaralishi lozim [6][3].

Ko‘p kanalli marketing strategiyasining afzalliklari bilan birga, uni joriy qilishda texnik, tashkiliy va investitsion muammolar yuzaga keladi. Quyidagi jadvalda omnichannel tizimning asosiy foydalari va ehtimoliy muammolari umumlashtirilgan:

1-jadval.

Omnichannel strategiyasining afzalliklari va muammolari

Asosiy elementlar	Foyda	Muammo
Mijoz tajribasining yaxshilanishi	✓	
Kanal sinxronligi	✓	
Savdo samaradorligi	✓	
Axborot shaffofligi	✓	
Texnologik murakkablik		✓
Kanal ziddiyatlari		✓
Investitsiya talabi		✓

Tahlildan kelib chiqib, omni-channel strategiya umumiy xaridor qadriyatini oshirsa-da, uni muvaf-faqiyatli joriy qilish uchun zarur bo‘lgan texnologik yechimlar va

moliyaviy sarmoyalar har qanday kompaniya uchun oson amalga oshiriladigan jarayon emas. Ayniqsa, mavjud kanallar o‘rtasidagi ziddiyatlar yoki raqamli platformalarni sinxronlashtirishdagi qiyinchiliklar kompaniya samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [1][11][15].

Nazariy va amaliy manbalarga, shuningdek, vizual vositalar orqali amalga oshirilgan tahlillarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, omnichannel strategiyasi – ayniqsa B2B kontekstda va maishiy kimyo sanoatida – kompaniya raqobatbardoshligini oshirish, xaridor sadoqatini mustah-kamlash va taqsimot tizimini samarali boshqarish imkonini beradi. Har bir kanalning o‘zaro sinxronligi, raqamli transformatsiyalarga tayyorlik va strategik moslashuvchanlik bu modelning muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi[6][9][13][20].

Xulosa va takliflar

Ushbu tadqiqotda o‘rganilgan ilmiy manbalar va tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ko‘p kanalli marketing strategiyasi maishiy kimyo mahsulotlarini B2B shaklida taqsimlashda samarali natija beruvchi strategik yondashuv hisoblanadi. Tahlil etilgan nazariy modellar va amaliy tajribalar omnichannel tizimining afzalliklarini ochib berdi: bir tomondan u mijozga qulay, tezkor va sinxronlashtirilgan xizmat ko‘rsatish imkonini yaratsa, ikkinchi tomondan kompaniyaga logistika jarayonlarini muvofiqlashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish va mijoz bilan uzoq muddatli aloqani mustahkamlash imkonini beradi.

Strategiyani ishlab chiqishda kanallararo muvofiqlik, texnologik integratsiya, mijoz tajribasiga yo‘naltirilganlik va real vaqtli axborot oqimi eng muhim elementlar bo‘lib chiqdi. Ayniqsa maishiy kimyo kabi tez aylanuvchi tovarlar bozorida buyurtma tezligi, xizmat sifati va axborot aniqligi korxonaning bozordagi obro‘siga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu sektor uchun raqamli kanallarni bir-biriga uyg‘unlashtirib ishlash tizimi samaradorlik va ishonchlilikni oshiradi.

Shuni hisobga olgan holda, kompaniyalar quyidagi amaliy choralarni ko‘rib chiqishlari mumkin: mavjud distribyutsiya tizimini raqamli texnologiyalar bilan to‘ldirish, har bir kanalni yagona platformaga sinxronlashtirish, mijoz bilan aloqa jarayonida individual yondashuvni ta’minlash va ichki xodimlar malakasini oshirish orqali strategiyani barqaror boshqarish. Bu yondashuv orqali nafaqat savdo hajmi, balki brend sadoqati va bozor pozitsiyasi ham kuchayadi.

Omnichannel marketing modeli — ayniqsa B2B formatda faoliyat yurituvchi maishiy kimyo kompaniyalari uchun raqamli asr talablariga javob beruvchi va raqobatga chidamli strategik yo‘nalish sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ailawadi, K. L., & Farris, P. W. (2020). Getting Multi-Channel Distribution Right. Harvard Business Review Press.
2. Beck, N., & Rygl, D. (2015). Categorization of omnichannel retailing: A literature review. Procedia - Social and Behavioral Sciences, 213, 849–854. https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2015.11.503
3. Budiwan, A. P. (2022). Omnichannel communication platform design for Thai B2B construction glass and accessory e-commerce [Master's thesis, Thammasat University].
4. Budiwan, A. P., Wongwatcharapaiboon, J., & Tapracharoen, K. (2023). Key factors to design omnichannel communication platform for B2B Thai construction e-commerce business. BERAC Conference Proceedings.
5. Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. (2019). Digital Marketing (7th ed.). Pearson Education.
6. Kabir, M. T. (2024). Omnichannel marketing and customer loyalty in household products [Master's thesis, Kajaani University of Applied Sciences].
7. Kaplan, A. M., & Haenlein, M. (2010). Users of the world, unite! The challenges and opportunities of social media. Business Horizons, 53(1), 59–68. https://doi.org/10.1016/j.bushor.2009.09.003
8. Ketola, G. (2023). Digitalizing B2B customer journeys: A case study on industry-leading solution supplier firms [Master's thesis, Hanken School of Economics].
9. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management (15th ed.). Pearson Education Limited.
10. Kumar, A., et al. (2023). Digging DEEP: A framework for omni-channel healthcare supply chain resilience. Journal of Business Research, 166, 114091. https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2023.114091
11. Li, Q., Zhang, N., & Li, L. (2015). Towards the convergence of e-commerce and supply chain management: A data-centric view. Computers in Industry, 70, 112–125. https://doi.org/10.1016/j.compind.2015.02.006
12. Morell Batlle, L. M. (2021). Supply chain in B2C and B2B online channels [Master's thesis, Universitat Politècnica de Catalunya].
13. Palmatier, R. W., Stern, L. W., & El-Ansary, A. I. (2020). Marketing Channel Strategy: An Omni-Channel Approach (8th ed.). Routledge.
14. Rivero Gutiérrez, L., & Samino García, R. (2020). Delphi-based identification of omnichannel strategies in distribution channels: An ophthalmology case. Frontiers in Psychology, 11, 1142. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2020.01142
15. Syhyda, L. O., et al. (2022). Marketing distribution policy of enterprises: Theory and practice. Sumy State University.
16. Tamilia, R. D. (2019). History of channels of distribution and their evolution in marketing thought. Research in Marketing, UQAM, Montreal.
17. Babanina, D. (2016). Marketing Channel Strategy for EU Entry – eloSpaces Oy Case Study Master's thesis, Arcada University of Applied Sciences.
18. Verhoef, P. C., Kannan, P. K., & Inman, J. J. (2015). From multi-channel retailing to omni-channel retailing: Introduction to the special issue on multi-channel retailing. Journal of Retailing, 91(2), 174–181. https://doi.org/10.1016/j.jretai.2015.02.005
19. Yrjölä, M., Spence, M. T., & Saarijärvi, H. (2018). Omni-channel retailing: Propositions, examples and solutions. International Review of Retail, Distribution and Consumer Research, 28(3), 258–276.
20. Zumstein, D., Oswald, C., & Brauer, C. (2022). Online Retailer Survey 2022: Success factors and omnichannel services in digital commerce. Zurich University of Applied Sciences.
21. Muallif ishlanmasi
22. Muallif ishlanmasi

MASHINANI O‘QITISH USULLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA ZARARLI DASTURLARNI ANIQLASH

Qudratov U.I., Abdullayeva N.R.
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Annotatsiya. *Zamonaviy rivojlanishi bilan birga axborot xavfsizligiga tahdidlar ham ortib bormoqda. An’anaviy zararli dasturlarni aniqlash usullari tobora murakkab bo‘layotgan kiberhujumlar qarshisida samarasiz bo‘lib bormoqda. Shu sababli mashinani o‘qitish (ML) usullari zararli dasturlarni aniqlash va oldini olish jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada zararli dasturlarni aniqlashda mashinali o‘qitish texnologiyalarining o‘rni, va istiqbollari ko‘rib chiqiladi.*
Kalit so’zlar: *Zararli dastur, Mashinali o‘qitish (ML) va xavfsizlik.*

Abstract. *Along with the development of modern information security, threats to information security are also increasing. Traditional methods of detecting malware are becoming ineffective in the face of increasingly sophisticated cyberattacks. Therefore, machine learning (ML) methods are gaining importance in the process of detecting and preventing malware. This article reviews the role and prospects of machine learning technologies in detecting malware.*
Keywords: *Malware, Machine Learning (ML) and security.*

Аннотация. *Вместе с современным развитием растут и угрозы информационной безопасности. Традиционные методы обнаружения вредоносных программ становятся неэффективными перед лицом все более изощренных кибератак. Поэтому методы машинного обучения (МО) становятся все более важными в процессе обнаружения и предотвращения вредоносных программ. В статье рассматриваются роль и перспективы технологий машинного обучения в обнаружении вредоносных программ.*
Ключевые слова: *Вредоносное ПО, машинное обучение (МО) и безопасность.*

1. Zararli dasturlar tushunchasi va ularning tasnifi. Zararli dasturlar (malware) kompyuter tizimlariga zarar yetkazish yoki ularning normal ishlashiga xalaqit berish uchun ishlab chiqilgan dasturiy ta’minot hisoblanadi. **Viruslar** – o‘zini takrorlab, boshqa dasturlarga zarar yetkazuvchi kodlar. **Troyan dasturlari** – foydalanuvchilarni aldab, tizimga zarar yetkazuvchi dasturlar. **To‘lov dasturlari (ransomware)** – foydalanuvchi ma’lumotlarini shifrlab, yechish uchun to‘lov talab qiluvchi dasturlar.

An’anaviy zararli dasturlarni aniqlash usullari, masalan, imzo (signature-based) va heuristik tahlilga asoslangan yondashuvlar, polimorfik va metamorfik xususiyatlarga ega yangi zararli dasturlarni aniqlashda samarasiz bo‘lishi mumkin. Shu bois, zamonaviy xavfsizlik tizimlari mashinani o‘qitish yondashuvlaridan foydalana boshladi.

2. Mashinali o‘qitishning zararli dasturlarni aniqlashdagi roli Mashinani o‘qitish algoritmlari statistik va xulq-atvor naqshlari asosida zararli dasturlarni avtomatik ravishda

aniqlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv quyidagi afzalliklarga ega:

- **Noma'lum zararli dasturlarni aniqlash** – ilgari aniqlanmagan tahdidlarni ularning xatti-harakatlariga qarab aniqlash imkonini beradi.
- **O'zgarishlarga moslashuvchanlik** – ML modellari muntazam yangilanish orqali yangi kiberhujum usullariga moslasha oladi.

3. ML asosida zararli dasturlarni aniqlash tizimini yaratish bosqichlari.

3.1. **Ma'lumotlarni yig'ish**. Mashinani o'qitish modellarini o'qitish uchun zararli va xavfsiz dasturlarga oid ma'lumotlar yig'iladi. Ushbu ma'lumotlar quyidagi manbalardan olinishi mumkin:

- Dastur kodi va xotira yozuvlari
- Tarmoq so'rovlari va faoliyat jurnallari

3.2. **Ma'lumotlarni oldindan qayta ishlash.**

- **Xususiyatlarni aniqlash**: Statik (fayl tuzilishi, xesh qiymatlari) va dinamik (tarmoq aloqalari, jarayonlar) xususiyatlar ajratiladi.
- **Sinf muvozanatini ta'minlash**: Zararli dasturlar odatda toza dasturlarga nisbatan kam uchraganligi sababli, ortiqcha yoki kam namuna olish (oversampling/undersampling) texnikalaridan foydalaniladi.

3.3. **Algoritmlarni tanlash.** Zararli dasturlarni aniqlash uchun quyidagi mashinali o'qitish usullari qo'llaniladi:

- **Tasniflash usullari**: Logistik regressiya, qaror daraxtlari, tasodifiy o'rmon, gradient boosting (XGBoost, LightGBM).
- **Klasterlash usullari**: G'ayritabiiy xatti-harakatlar guruhlarini aniqlash uchun qo'llaniladi.

3.4. **Modelni o'qitish va baholash.**

- Ma'lumotlarni o'qitish, validatsiya va test to'plamlariga ajratish.
- Modellarning aniqlik, eslab qolish (recall), F1-o'lchov, ROC-AUC kabi metrikalar yordamida baholash.

3.5. **Modelni joylashtirish** ML modeli xavfsizlik tizimlariga (masalan, IDS yoki antivirus dasturlariga) integratsiya qilinadi va real vaqt rejimida ishlatiladi.

4. Amalga oshirish misollari.

- **Statik tahlil**: ML modellaridan foydalanib zararli dastur xususiyatlarini tahlil qilish (masalan, EMBER kutubxonasi orqali).
- **Dinamik tahlil**: OT va tarmoq faoliyati asosida zararli dasturlarni aniqlash (Cuckoo Sandbox yordamida).

Xulosa. Zamon rivojlangani sayin raqamli dunyoda turli-xil zararli dasturlar paydo bo'lmoqda, mashinali o'qitish (ML) esa raqamli xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Boburbek Odiljonov, Zarif Xudoyqulov. "Mashinani o'qitishdan foydalanib steganografik usullar orqali yashiringan ma'lumotlarni aniqlash metodlari"

2. Kamoliddin Qodirov. "Mashinali o'qitish va o'rganish usullari".

ELLIPTIK EGRI CHIZIQ ASOSIDA XAVFSIZ KALIT ALMASHINUVI

[1]Muhamediyeva D.T., [2]Raupova M.
[1]"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti,
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada klassik elliptik egri kriptografiyasi (ECC) va kvant algoritmlarini birlashtirgan holda xavfsiz umumiy kalit almashinuvi algoritmi taklif etiladi. Algoritm Python va Qiskit kutubxonasi yordamida realizatsiya qilinadi. ECC ustida punktlar ko'paytirish orqali umumiy kalitlar yaratiladi va Qiskit orqali kvant superpozitsiyasi amalga oshiriladi. Taklif etilgan yondashuv kvant hujumlariga nisbatan barqaror bo'lishi mumkin va kelajakdagi kvantga chidamli kriptotizimlar uchun asos bo'la oladi.*
Kalit so'zlar: *Kvant xavfsizligi, elliptik egri chiziq, kriptografiya, umumiy kalit almashinuvi, kvant hisoblash.*

Abstract. *This paper proposes a secure public key exchange algorithm combining classical elliptic curve cryptography (ECC) and quantum algorithms. The algorithm is implemented using Python and the Qiskit library. Public keys are generated by point multiplication on ECC, and quantum superposition is performed using Qiskit. The proposed approach can be robust against quantum attacks and can serve as a basis for future quantum-resistant cryptosystems.*
Keywords: *Quantum security, elliptic curve, cryptography, public key exchange, quantum computing.*

Аннотация. *В данной статье предлагается безопасный алгоритм обмена открытыми ключами, объединяющий классическую криптографию на основе эллиптических кривых (ECC) и квантовые алгоритмы. Алгоритм реализован с использованием Python и библиотеки Qiskit. Открытые ключи создаются путем умножения точек поверх ECC, а квантовая суперпозиция выполняется с помощью Qiskit. Предложенный подход может быть устойчив к квантовым атакам и может послужить основой для будущих квантово-устойчивых криптосистем.*
Ключевые слова: *квантовая безопасность, эллиптическая кривая, криптография, обмен открытыми ключами, квантовые вычисления.*

Kirish.

Klassik kriptografik tizimlar, ayniqsa elliptik egri asosidagi algoritmlar, hozirgi zamonaviy xavfsizlik tizimlarida keng qo'llaniladi. Biroq Shorning algoritmi va boshqa kvant algoritmlari kelajakda RSA, ECC kabi tizimlarni xavf ostida qoldiradi. Shu sababli kvantga chidamli (post-quantum) algoritmlar ustida faol tadqiqotlar olib borilmoqda [1]. Zamonaviy axborot xavfsizligi tizimlarining asosi bo'lgan kriptografik algoritmlar ko'p hollarda faktorizatsiya yoki diskret logarifm kabi klassik matematik muammolarga tayangan. Biroq, kvant kompyuterlarining paydo bo'lishi bilan bu asosiy muammolar Shorning algoritmi kabi kvant algoritmlari yordamida samarali tarzda yechilishi mumkin bo'ldi [2]. Bu esa mavjud klassik kriptotizimlarning

xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi. Shu sababli, kvantga chidamli kriptografiya (Post-Quantum Cryptography, PQC) dolzarb yo‘nalish sifatida shakllandi. Uning asosiy vazifasi – kelajakda kvant kompyuterlariga bardosh bera oladigan kriptotizimlarni ishlab chiqishdir.

2. Usullar. Elliptik egri kriptografiyasi (ECC) quyidagi umumiy ko'rinishdagi elliptik egri tenglamasiga asoslanadi [3]:

$$E: y^2 = x^3 + ax + b \pmod{p}.$$

Bu yerda:

- $a, b \in F_p$ — maydon elementlari,
- p — oddiy (prime) modul,
- $(x, y) \in F_p^2$ — egri ustidagi nuqtalar.

Har bir foydalanuvchi (Alice va Bob) quyidagicha maxfiy va ochiq kalitlarga ega bo'ladi:

- Maxfiy kalitlar: $d_A, d_B \in Z_p$
- Ochiq kalitlar: $Q_A = d_A \cdot P,$ $Q_B = d_B \cdot P$

Bu yerda P — generatsion nuqta (birlamchi nuqta).

Alice umumiy kalitni quyidagicha hisoblaydi:

$$S_A = d_A \cdot Q_B = d_A \cdot (d_B \cdot P).$$

Bob esa:

$$S_B = d_B \cdot Q_A = d_B \cdot (d_A \cdot P).$$

Natijada:

$$S = S_A = S_B = d_A \cdot d_B \cdot P.$$

Bu kalit faqat Alice va Bob tomonidan hisoblab chiqilishi mumkin. Tashqi kuzatuvchi uchun bu qiymatni hisoblash Elliptik Egri Diskret Logarifm Muammosi (ECDLP) tufayli amalda imkonsiz.

Qiskit yordamida superpozitsiya holati hosil qilinadi:

- $|0\rangle \xrightarrow{H} \frac{1}{\sqrt{2}}(|0\rangle + |1\rangle)$.
- *CNOT* orqali bog'lanish yaratiladi: $CNOT_{0,1}$.

Bu oddiy kvant aloqa modelida kvant bog'lanish g'oyasini ifodalaydi:

$$|\psi\rangle = \frac{1}{\sqrt{2}}(|00\rangle + |11\rangle).$$

Bu Bell holati ikki tomon orasidagi ishonchli kvant kanalini modellashtiradi. Natijalar *AerSimulator* orqali simulyatsiya qilinadi.

3. Natijalar. Natijalarga ko‘ra Alice va Bob bir xil umumiy kalitga ega bo‘ladi. XOR asosida simmetrik shifrlash qo‘llanib, kalit orqali matn muvaffaqiyatli shifrlanadi va de-shifrlanadi.

Alice ochiq kaliti Q_A: (9, 16); Bob ochiq kaliti Q_B: (0, 6); Alice umumiy kaliti: (10, 11) ; Bob umumiy kaliti: (10, 11).

4. Xulosa. Maqolada klassik elliptik egri chiziq kriptografiyasi (ECC) va kvant hisoblash asoslarini birlashtirgan holda, xavfsiz umumiy kalit almashinuvi algoritmi taklif etildi. Taklif etilgan yondashuvda ECC ustida nuqtalar ustida amallar bajarilib, umumiy kalitlar generatsiya qilindi va kvant registrlari yordamida isogeniya xaritalash elementlari simulyatsiya qilindi. Qiskit kutubxonasi orqali kvant superpozitsiya holatlari yaratilib, kvant komponentlar klassik kalit almashinuvi bilan bog‘landi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Bernstein, D. J., Lange, T. (2017). Post-quantum cryptography. Nature, 549(7671), 188–194. https://doi.org/10.1038/nature23461*
2. *Jao, D., De Feo, L. (2011). Towards quantum-resistant cryptosystems from supersingular elliptic curve isogenies. In Post-Quantum Cryptography (pp. 19–34). Springer.*
3. *Chen, L., et al. (2016). Report on Post-Quantum Cryptography. National Institute of Standards and Technology (NIST), U.S. Department of Commerce.*

POST-KVANT KRIPTOGRAFIYA ASOSIDA POLINOMLAR BILAN SHIFRLASH

[1]Muhamediyeva D.T., [2]Raupova M.
[1]"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti,
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

Annotatsiya. *Ushbu maqolada NTRU (N-th degree Truncated Polynomial Ring) shifrlash algoritmi taqdim etiladi va polinomlar yordamida shifrlash va deshifrlash jarayonlari kengaytiriladi. Shifrlash va deshifrlash algoritmlarining ishlashi, tasodifiy polinomlar yaratish va xabarlarni polinomlarga aylantirish orqali amalga oshiriladi. Maqolada NTRU algoritmining kvantga chidamli xususiyatlari va u qanday qilib klassik RSA yoki elliptik egri algoritmlaridan farq qilishi haqida muhokama qilinadi.*
Kalit so'zlar: *NTRU shifrlash, Post-quantum cryptography, Polinomlar bilan shifrlash, Kvantga chidamli algoritmlar, Xavfsiz kalit almashish*

Abstract. *This paper presents the NTRU (N-th degree Truncated Polynomial Ring) encryption algorithm and extends the encryption and decryption processes using polynomials. The encryption and decryption algorithms work by generating random polynomials and converting messages into polynomials. The paper discusses the quantum-resistant properties of the NTRU algorithm and how it differs from classical RSA or elliptic curve algorithms.*
Keywords: *NTRU encryption, Post-quantum cryptography, Polynomial encryption, Quantum-resistant algorithms, Secure key exchange*

Аннотация. *В данной статье представлен алгоритм шифрования NTRU (усеченное полиномиальное кольцо N-й степени) и расширены процессы шифрования и дешифрования с использованием полиномов. Работа алгоритмов шифрования и дешифрования осуществляется путем генерации случайных полиномов и преобразования сообщений в полиномы. В статье рассматриваются квантово-устойчивые свойства алгоритма NTRU и его отличия от классических алгоритмов RSA или эллиптических кривых.*
Ключевые слова: *шифрование NTRU, постквантовая криптография, полиномиальное шифрование, квантово-устойчивые алгоритмы, безопасный обмен ключами*

Kirish.

Post-kvant kriptografiyaga oid asosiy yo'nalishlar va ularning qisqacha tavsifi, shuningdek Python orqali soddalashtirilgan namunaviy kod bilan bir nechtasini ko'rib chiqamiz. Bu algoritmlar Shor algoritmiga chidamli bo'lib, kelajakdagi kvant kompyuter hujumlariga bardosh bera oladi.

NTRU shifrlash algoritmi xabarlarni polinomlar bilan shifrlashni ta'minlaydi va bu algoritmning xavfsizligi polinomlar va ularning ko'paytmasiga asoslangan matematik muammolarga bog'liq. Shifrlash va deshifrlash jarayonlarida polinomlar ustida arifmetik operatsiyalarni bajarish orqali, shifrlangan xabarni

faqat maxfiy kalitga ega bo‘lgan tomonlar deshifrlay oladi.

2. Usullar. NTRU algoritmi post-quantum kriptografiyasida ishlatiladigan eng samarali va xavfsiz tizimlardan biridir. NTRU shifrlashning asosiy tamoyili polinomlar ustida ishlashga asoslanadi. Ushbu bo‘limda, NTRU shifrlash va deshifrlash jarayonlari, shuningdek, bu tizimning matematik formulalarini ko‘rib chiqamiz.

NTRU algoritmida kalitlar polinomlar ustida quriladi. Biz ikki xil kalitni yaratamiz: ochiq kalit va maxfiy kalit.

1. Maxfiy kalit f, g ikkita polinomdan iborat bo'ladi:

$$f(x) = f_0 + f_1x + f_2x^2 + \cdots + f_Nx^N$$
$$g(x) = g_0 + g_1x + g_2x^2 + \cdots + g_Nx^N$$

Bu polinomlar kichik butun sonlar bilan ifodalanadi va ularning o'zaro teskari bo'lishi talab etiladi.

2. Ochiq kalit $h(x)$ quyidagi shaklda bo'ladi:

$$h(x) = f^{-1}(x) \cdot g(x) \mod q$$

Bu yerda $f^{-1}(x)f(x)$ ning modulyar teskari polinomi bo‘lib, q esa xavfsizlikni ta'minlash uchun tanlangan katta son hisoblanadi.

Shifrlash jarayonida yuboruvchi (masalan, Alice) xabarni $m(x)$ polinomi sifatida ifodalaydi va bu xabarni quyidagi formula yordamida shifrlaydi:

1. Xabarni polinom shaklida ifodalash:

$$m(x) = m_0 + m_1x + m_2x^2 + \ldots + m_Nx^N$$

Xabar $m(x)$ uzunligi N -ni tashkil qiladi va faqat kichik butun sonlar bilan ifodalanadi.

2. Shifrlashda yuboruvchi $e(x)$ va $r(x)$ tasodifiy polinomlarni tanlaydi. Shifrlash uchun quyidagi formulani qo'llaymiz:

$$c_1(x) = r(x) \cdot h(x) \mod q$$
$$c_2(x) = m(x) + r(x) \cdot f(x) \mod q$$

Bu yerda $c_1(x)$ va $c_2(x)$ shifrlangan xabarni tashkil etadi.

3. Natijalar. Ushbu maqolada, NTRU algoritmi yordamida shifrlash va deshifrlash jarayonlari amalga oshirildi. Kutilgan natijalar quyidagicha:

Ochiq kalit:0000102121100000010212110000000102121100

Ochiq kalit $h(x)$, polinomlar ustida qurilgan va xavfsizlikni ta'minlash uchun maxfiy kalit bilan bog‘langan. Maxfiy kalit: ([0,1,0,0,1,1,1],[0,0,1,0,1,1,1])([0, 1, 0, 0, 1, 1, 1], [0, 0, 1, 0, 1, 1, 1])([0,1,0,0,1,1,1],[0,0,1,0,1,1,1])

Maxfiy kalit $f(x)$ va $g(x)$ polinomlarining qiymatlari, bu polinomlar yordamida xabarni shifrlash va deshifrlash amalga oshiriladi.

Shifrlangan matn (c_1 va c_2): 000000000112436352311000, 1101001

Shifrlash jarayonida m(x) xabarini tasodifiy polinomlar yordamida shifrlash natijasida olingan c_1 va c_2 polinomlaridir. Deshifrlangan matn:1101001

3. **Xulosa.** Ushbu maqolada NTRU (Number Theoretic Transform Unit) algoritmi asosida kriptografik tizimni yaratish va uning kvantga

chidamli xususiyatlarini ko‘rib chiqdik. NTRU algoritmi, uning polinomial asosidagi shifrlash va deshifrlash metodlari yordamida xavfsiz kalit almashinuvi va xabarni himoya qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Dasturda maxfiy va ochiq kalitlar generatsiyasi, shifrlash va deshifrlash jarayonlari muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. *W. Stallings, Cryptography and Network Security: Principles and Practice, 7th ed. Pearson Education, 2017.*
2. *R. K. Santosh, M. S. Arumugam, and M. B. W. Edumnd, "Cryptography with NTRU encryption: From basic principles to practical implementation," International Journal of Applied Cryptography, vol. 12, no. 5, pp. 35–50, 2021.*
3. *P. Schnorr, "Security of NTRU and its applications to cryptographic systems," Journal of Cryptology, vol. 25, pp. 452–487, 2016. https://doi.org/10.1007/s00145-015-9223-4.*

KVANT KALIT ALMASHINUVI BILAN INTEGRATSIYALANGAN RSA SHIFRLASH

[1]Muhamediyeva D.T., [2]Raupova M.
[1]"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti,
[2]Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, Quantum Key Distribution (QKD) va Blockchain texnologiyalari yordamida xavfsiz aloqa kanali yaratish jarayoni va unga RSA asimmetrik shifrlash algoritmining integratsiyasi ko'rib chiqilgan. QKD orqali Alice va Bob o'rtasida kvant kalit almashish jarayoni amalga oshiriladi, shuningdek, Eve (tishlovchi) aralashuvini aniqlash uchun monitoring mexanizmi ishlatiladi. RSA shifrlash algoritmi orqali yuborilgan maxfiy xabarlar shifrlanadi va de-shifrlanadi, bu esa ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlaydi. Maqolada, Eve monitoringi va shifrlashning muhim o'rni, shuningdek, Quantum Computing va Blockchain texnologiyalarining integratsiyasining afzalliklari muhokama qilinadi.*
Kalit so'zlar: *kvant kalit almashinuvi, blockchain texnologiyasi, RSA shifrlash, asimmetrik shifrlash algoritmlari, maxfiy aloqa.*

Abstract. *This article discusses the process of creating a secure communication channel using Quantum Key Distribution (QKD) and Blockchain technologies and the integration of the RSA asymmetric encryption algorithm into it. Through QKD, a quantum key exchange process is carried out between Alice and Bob, and a monitoring mechanism is also used to detect Eve (biter) interference. Secret messages sent using the RSA encryption algorithm are encrypted and decrypted, which ensures data security. The article discusses the important role of Eve monitoring and encryption, as well as the advantages of integrating Quantum Computing and Blockchain technologies.*
Keywords: *quantum key exchange, blockchain technology, RSA encryption, asymmetric encryption algorithms, secret communication.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается процесс создания защищенного канала связи с использованием технологий квантового распределения ключей (QKD) и блокчейна, а также интеграция в него алгоритма асимметричного шифрования RSA. С помощью QKD осуществляется процесс обмена квантовыми ключами между Алисой и Бобом, а также используется механизм мониторинга для обнаружения вмешательства Евы (кусателя). Конфиденциальные сообщения, отправляемые с использованием алгоритма шифрования RSA, шифруются и расшифровываются, что обеспечивает безопасность данных. В статье обсуждается важная роль мониторинга и шифрования EVE, а также преимущества интеграции технологий квантовых вычислений и блокчейна.*
Ключевые слова: *квантовый обмен ключами, технология блокчейн, шифрование RSA, асимметричные алгоритмы шифрования, конфиденциальная связь.*

Kirish.

Ushbu maqolada, QKD texnologiyasining asoslari, uning ishlash prinsiplari, imkoniyatlari va amaliy qo'llanilishini tahlil qilish, shuningdek, uni kengaytirish va rivojlantirish yo'llari muhokama qilinadi. Maqolada shuningdek, QKD texnologiyasi bilan

birga, elliptik egri kriptografiya (ECC) va boshqa zamonaviy xavfsizlik metodlari bilan birgalikda ishlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi [1].

Maqolaning asosiy maqsadi, Quantum Key Distribution (QKD) texnologiyasining zamonaviy xavfsizlik tizimlaridagi o'rni va uning amaliy qo'llanilish imkoniyatlarini tahlil qilishdir [2,3].

2. Usullar. QKD texnologiyasining asosiy maqsadi ishonchli va xavfsiz kalit almashishni ta'minlashdir. QKD ning asosiy prinsipi Bell holatlari va kvant holatlarni o'lchashga asoslanadi. Bell holati va kvant o'lchashlarni formulalar orqali ifodalash mumkin.

Bell holatining umumiy matematik ifodasi quyidagicha:

$$|\Phi^+\rangle = \frac{1}{\sqrt{2}}(|00\rangle + |11\rangle).$$

Bu yerda:

- $|\Phi^+\rangle$ - Bell holati.
- $|00\rangle$ va $|11\rangle$ - to'liq o'zgarmaydigan kvant bitlar.

Agar Alice va Bob Bell holatidan foydalanib kalitni uzatishga qaror qilsa, ular o'zlarining bitlarini kvant o'lchash yordamida o'lchaydilar. O'lchashlar quyidagi formulalar bilan ifodalanadi:

$$P(\text{result}) = |\langle \psi | \Phi^+ \rangle|^2.$$

Bu yerda $P(\text{result})$ Alice va Bob o'rtasidagi o'lchash natijasining ehtimoliy taqsimotini ifodalaydi, va $|\langle \psi | \Phi^+ \rangle|^2$ ularning kvant holatlari orasidagi o'xshashlikni ko'rsatadi.

ECC elliptik egri chiziq ustida ishlaydigan matematik kriptografiya metodidir. ECC yordamida maxfiy kalitlarni yaratish va autentifikatsiyani amalga oshirishda quyidagi elliptik egri tenglamasidan foydalaniladi:

$$y^2 = x^3 + ax + b \pmod p.$$

Bu yerda:

- (x, y) — elliptik egri nuqtasi.
- a, b — elliptik egri parametrlar.
- p — moduli.

Maxfiy kalitni yaratishda, Alice va Bob o'zlarining nuqtalarini generatsiya qilib, shundan keyin ularni birgalikda ishlatib, umuman olish mumkin bo'lgan kalitni hosil qilishadi. Elliptik egri asosidagi kalitlar ishonchli va yuqori xavfsizlikni ta'minlaydi.

3. Natija. Agar kalitni yuborishda QKD ishlatilgan bo‘lsa, hatto eng sodda simmetrik shifrlash ham ma'lumotni yuqori xavfsizlik bilan himoya qilishi mumkin — bu kvant kriptografiyaning kuchli jihatidir.

Shifrlangan matn:

b'\xa7\x8a\x8f\x85\x83\xc6\x80\x89\x9f\x82\x87\x8a\x87\x88\x93\x90\x85\x8e\x8f\xc6\x92\x89\x8b\x89\x88\x8f\x82\x87\x88\xc6\x9f\x93\x84\x89\x94\x8f\x8a\x81\x87\x88\xc6\x8b\x87\x9e\x80\x8f\x9f\xc6\x9e\x87\x84\x87\x94\xc8'

De-shifrlangan matn:

Alice foydalanuvchi tomonidan yuborilgan maxfiy xabar.

4.Xulosa. Ushbu tadqiqotda kvant kriptografiyasining asosiy vositalaridan biri bo‘lgan Quantum Key Distribution (QKD) – ya’ni kvant kalitlarni taqsimlash protokoli, klassik simmetrik shifrlash (XOR, RSA) usullari, elliptik egri chiziqli kriptografiya (ECC) va blokcheyn texnologiyalarini integratsiyalashgan

holda birgalikda qo‘llash orqali yuqori xavfsizlikka ega aloqa tizimi ishlab chiqildi. Taklif etilgan model foydalanuvchining autentifikatsiyasi-dan boshlab, kvant kanal orqali kalit almashish, shifrlash, tinglovchi (Eve) monitoringi va sessiya ma’lumotlarini blokcheyn asosida saqlash imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi. QKD yordamida hosil qilingan tasodifiy kvant kalitlar, tinglovchi mavjudligini aniqlash orqali aloqa ishonchliligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. *Stallings, W. (2017). Cryptography and Network Security: Principles and Practice (7th ed.). Pearson.*
2. *Chen, L. et al. (2016). Report on Post-Quantum Cryptography. National Institute of Standards and Technology (NIST).*
3. *Pirandola, S., et al. (2020). Advances in quantum cryptography. Advances in Optics and Photonics, 12(4), 1012–1236.*

ZAMONAVIY RAQAMLI MUHITDA KIBERXAVFSIZLIK TAHDIDLARI VA ULARNING OLDINI OLISH YO‘LLARI

Mamayusupov A.A.
Toshkent shaxar Yakkasaroy tumani IIO FMB

Annotatsiya. *Ushbu maqola zamonaviy raqamli muhitda kiberxavfsizlik tahdidlari va ularni bartaraf etish usullarini o'rganadi. Maqolada fishing, malware, DDoS hujumlar, ijtimoiy muhandislik, zero-day attack va botnet kabi asosiy kiberxavf-xatarlar ko'rib chiqilgan. Kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun kriptografiya, tarmoq xavfsizligi, identifikatsiya va autentifikatsiya, IDS/IPS tizimlari, ma'lumotlarni zaxiralash hamda kiber gigiyena kabi muhim himoya mexanizmlari tahlil qilingan. Zamonaviy kriptografik algoritmlar (AES, RSA, ECC) va sun'iy intellekt texnologiyalarining kiberxavfsizlikni ta'minlashdagi roli ko'rsatilgan. O'zbekistonda kiberxavfsizlik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va qonunchilik bazasi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Axborot xavfsizligini ta'minlash nafaqat texnologik, balki ijtimoiy va huquqiy yondashuvlarni ham talab qiluvchi kompleks masala ekanligi ta'kidlangan.*
Kalit so‘zlar: *Kiberxavfsizlik, raqamli muhit, fishing, malware, DDoS hujumlar, kriptografiya, AES, RSA, ECC, tarmoq xavfsizligi, autentifikatsiya, mashinaviy o'rganish, kiber savodxonlik, axborot tizimlarini himoyalash.*

Abstract. *This article examines cybersecurity threats in the modern digital environment and methods for eliminating them. The article examines the main cyber threats such as phishing, malware, DDoS attacks, social engineering, zero-day attacks and botnets. To ensure cybersecurity, important protection mechanisms such as cryptography, network security, identification and authentication, IDS/IPS systems, data backup and cyber hygiene are analyzed. The role of modern cryptographic algorithms (AES, RSA, ECC) and artificial intelligence technologies in ensuring cybersecurity is shown. Information is also provided about the reforms and legislative framework being implemented in the field of cybersecurity in Uzbekistan. It is emphasized that ensuring information security is a complex issue that requires not only technological, but also social and legal approaches.*
Keywords: *Cybersecurity, digital environment, phishing, malware, DDoS attacks, cryptography, AES, RSA, ECC, network security, authentication, machine learning, cyber literacy, information systems protection.*

Аннотация. *В статье рассматриваются угрозы кибербезопасности в современной цифровой среде и способы их устранения. В статье рассматриваются основные киберугрозы, такие как фишинг, вредоносное ПО, DDoS-атаки, социальная инженерия, атаки нулевого дня и ботнеты. Для обеспечения кибербезопасности были проанализированы важные механизмы защиты, такие как криптография, сетевая безопасность, идентификация и аутентификация, системы IDS/IPS, резервное копирование данных и кибергигиена. Показана роль современных криптографических алгоритмов (AES, RSA, ECC) и технологий искусственного интеллекта в обеспечении кибербезопасности. Также представлена информация о реформах и законодательной базе, реализуемых в сфере кибербезопасности в Узбекистане. Подчеркнуто, что обеспечение информационной безопасности — сложная проблема, требующая не только технологических, но и социальных, и правовых подходов.*

Ключевые слова: *Кибербезопасность, цифровая среда, фишинг, вредоносное ПО, DDoS-атаки, криптография, AES, RSA, ECC, сетевая безопасность, аутентификация, машинное обучение, киберграмотность, защита информационных систем.*

Kirish. Raqamli texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi zamonda kiberxavfsizlik dolzarb masalalardan biriga aylandi. Internet va raqamli qurilmalardan foydalanish kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan. Shu bilan birga, ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, ularni o'g'irlash, soxtalashtirish va zarar yetkazish kabi kiberxavf-xatarlar ortib bormoqda. Kiberxavfsizlik masalasi nafaqat kompaniyalar va tashkilotlar, balki davlatlar, ta'lim muassasalari va oddiy foydalanuvchilar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari turli sohalarda – moliya, sog'liqni saqlash, sanoat, ta'lim, davlat boshqaruvi – keng qo'llanilmoqda. Shu sababli axborot tizimlarining xavfsizligini ta'minlash zamonaviy jamiyat uchun strategik muhim vazifalardan biridir. Shuning uchun zamonaviy texnologiyalarni himoya qilishga qaratilgan algoritmlar va xavfsizlik usullarini chuqur o'rganish va amaliyotda qo'llash zarurati ortmoqda[1-2].

Asosiy qism. Kiber tahdidlar. Bugungi kunda mavjud asosiy kiberxavf-xatarlar quyidagilar hisoblanadi:

- Fishing: foydalanuvchilarni aldab, shaxsiy ma'lumotlarni qo'lga kiritish usuli;
- Malware (virus, trojan, ransomware): qurilmalarga zarar yetkazuvchi dasturiy ta'minot;
- DDoS hujumlar: tarmoq yoki xizmatni ishdan chiqarish uchun bir vaqtning o'zida ko'plab so'rovlar yuborish;
- Ijtimoiy muhandislik: psixologik usullar orqali ma'lumotlarni olish;
- Zero-day attack: ilgari noma'lum bo'lgan zaifliklar orqali hujum qilish;
- Botnet: bir vaqtning o'zida ko'plab qurilmalarni nazorat ostiga olish orqali amalga oshiriladigan hujumlar.

Kiberxavfsizlikni ta'minlash usullari. Kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun turli himoya mexanizmlari va algoritmlar ishlab chiqilgan. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Kriptografiya: ma'lumotlarni shifrlash orqali himoya qilish. AES, RSA va ECC algoritmlari eng keng tarqalganlaridandir.
- Tarmoq xavfsizligi: xavfsizlik devorlari (firewall), virtual xususiy tarmoqlar (VPN), kirishni boshqarish tizimlari.
- Identifikatsiya va autentifikatsiya: foydalanuvchini tanish va unga mos ruxsatlarni berish. Ikki bosqichli autentifikatsiya (2FA), biometrik autentifikatsiya.
- IDS/IPS tizimlari: tarmoq trafigini tahlil qilish va tahdidlarni aniqlash (Snort, Suricata).
- Zaxiralash va tiklash: ma'lumotlar yo'qolgan taqdirda ularni

qayta tiklash uchun zaxira nusxalarini saqlash.

- Kiber gigiyena: foydalanuvchilarning xavfsizlikka oid odatlari va xulq-atvorini shakllantirish[3].

Algoritmlar va zamonaviy yondashuvlar. Zamonaviy kiberxavfsizlik tizimlarida turli algoritmlardan foydalaniladi. AES (Advanced Encryption Standard) algoritmi ma'lumotlarni blokli shifrlash uchun ishlatiladi va yuqori darajadagi xavfsizlikni ta'minlaydi. RSA algoritmi esa ochiq kalitli kriptografiyada qo'llaniladi va ma'lumotlarni ishonchli tarzda uzatishga imkon beradi. ECC (Elliptic Curve Cryptography) esa kam resurs talab qiluvchi lekin kuchli shifrlash algoritmidir. Bundan tashqari, mashinaviy o'rganish va sun'iy intellekt algoritmlari ham xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, neyron tarmoqlar (ANN), Random Forest, SVM, Deep Learning modellaridan zararli faoliyatni aniqlash va tahlil qilishda foydalaniladi.

Xulosa. Dunyo bo'ylab kiberxavfsizlik sohasida ko'plab chora-tadbirlar ko'rilmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham 2020-yilda "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, axborot xavfsizligini ta'minlashga oid maxsus markazlar tashkil etilgan. Davlat organlari, bank tizimlari, ta'lim muassasalari o'z axborot tizimlarini himoyalash uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy qilmoqda. Aholi o'rtasida kiber savodxonlikni oshirish, yosh avlodni raqamli xatarlar haqida ogoh etish va sohaga ixtisoslashgan mutaxassislar tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Kiberxavfsizlik – bu faqat texnologik masala emas, balki axborot madaniyati, huquqiy me'yorlar va inson salohiyatining uyg'unligini talab qiluvchi kompleks tizimdir. Shu boisdan, nafaqat texnik, balki ijtimoiy va huquqiy yondashuvlar asosida ham kiberxavfsizlikni mustahkamlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Latipdjanovich, D. M., Shavkatjonovich, A. S., & Gofurjonovich, P. G. (2016). Improve The Strength Of Hmac Based One Time Passwords Using Sha3 In Hmac. Научно-Практические Решения И Подходы, 34.

2. Umarov, A. M. O. G. L. (2021). Axborot xavfsizligi xavfini baholash. Scientific progress, 2(8), 293-300.

3. Pulatov, G. I. G. (2021). Simsiz tarmoqni uzaytirish muammolari va yechimlari. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 1(1), 120-127.

ОПТИМИЗАЦИЯ ФУНКЦИЙ С ПРИМЕНЕНИЕМ ЭВОЛЮЦИОННЫХ АЛГОРИТМОВ

Тоиров Ш. А.
Ташкентский институт менежмент и экономики, Доцент

Annotatsiya. *Ushbu maqolada genetik algoritmlardan foydalangan holda funktsiyalarning ekstremallarini o'rganish uchun MatLAB proaktiv dasturlashning Genetik algoritm paketlari bilan ishlash asoslarini o'rganish metodologiyasi ishlab chiqilgan.*
Kalit so'zlar: *Genetik algoritm, intellektual tahlil, neyron tarmoqlar, Genetik algoritm Matlab.*

Abstract. *In this paper, a methodology for studying the basics of working with the Genetic Algorithm packages of proactive programming MatLAB for studying the extrema of functions using genetic algorithms is developed.*
Keywords: *Genetic algorithm, intelligent analysis, neural networks, Genetic Algorithm Matlab.*

Аннотация. *В данной работе разработана методика изучения основ работы с пакетами Genetic Algorithm проактивного программирования MatLAB для исследования экстремумов функций с использованием генетических алгоритмов.*
Ключевые слова: *Генетический алгоритм, интеллектуальный анализ, нейронные сети, Genetic Algorithm Matlab.*

Введение. Генетический алгоритм- это эвристический алгоритм поиска, используемый для решения задач оптимизации и моделирования путём случайного подбора, комбинирования и вариации искомых параметров с использованием механизмов, аналогичных естественному отбору в природе[1].

Отличительной особенностью генетического алгоритма является акцент на использование оператора «скрещивания», который производит операцию рекомбинации решений-кандидатов, роль которой аналогична роли скрещивания в живой природе.

Генетические алгоритмы оптимизации являются алгоритмами случайно-направленного поиска и применяются в основном там, где сложно или невозможно сформулировать задачу в виде, пригодном для более быстрых алгоритмов локальной оптимизации, либо если стоит задача оптимизации недифференцируемой функции или задача многоэкстремальной глобальной оптимизации.

Типичными применениями ГА являются следующие:

- оптимизация функций;
- оптимизация запросов в базах данных;
- задачи на графах (задача коммивояжера, раскраска, нахождение паросочетаний);
- настройка и обучение искусственной нейронной сети;

- задачи компоновки;
- составление расписаний и др.

Основной идеей ГА является организация «борьбы за существование» и «естественный отбор» среди пробных (примерных) решений задачи. Поскольку ГА используют биологические аналогии, то применяющаяся терминология напоминает биологическую. Как известно, эволюционная теория утверждает, что жизнь на нашей планете возникла вначале лишь в простейших ее формах – в виде одноклеточных организмов. Эти формы постепенно усложнялись, приспосабливаясь к окружающей среде и порождая новые виды, и только через многие миллионы лет появились первые животные и люди. Можно сказать, что каждый биологический вид с течением времени улучшает свои качества так, чтобы наиболее эффективно справляться с важнейшими задачами выживания, самозащиты, размножения и т. д. Таким путем возникла защитная окраска у многих рыб и насекомых, панцирь у черепахи, яд у скорпиона и многие другие полезные приспособления [2].

Основная часть. Такие алгоритмы чаще всего используются в случае, когда искомая целевая функция является разрывной, существенно нелинейной, стохастической и не имеет производных или эти производные являются недостаточно определенными. Собственно генетические алгоритмы относятся к разделу Genetic Algorithm и вызываются из командной строки с помощью gatool.

Основными параметрами ГА являются:

- вероятность мутации;
- точность получения результата;
- количество итераций алгоритма или количество поколений;
- размер популяции.

Генетический алгоритм работает согласно следующей схеме:

1) Прежде всего, в данном алгоритме для организации начала счета создается произвольное исходное семейство.

2) Далее алгоритм производит некую последовательность новых семейств или поколений. На каждом отдельном шаге алгоритм использует определенные индивидуумы из текущего поколения, для того, что бы создать последующее поколение. При формировании нового поколения в алгоритме проводятся следующие действия:

- Отмечается каждый член текущего семейства посредством вычисления соответствующего значения пригодности;
- Проводится масштабирование полученного ряда значений функции пригодности, что позволяет построить диапазон значений более удобный для последующего использования;
- Выбираются родительские значения на основе значений их пригодности;

• Часть индивидуумов из родительского поколения имеет более меньшие значения функции пригодности и которые в далее выбираются как элитные значения. Эти элитные значения передаются далее уже в последующее поколение;

• Дочерние значения образуются или путем неких случайных изменений отдельного одного родителя - мутация - или путем комбинации векторных компонентов некой пары родителей – кроссовер;

• Замена текущего семейства на дочернее с целью формирования последующего поколения.

3) Останов алгоритма производится тогда, когда выполняется какой-нибудь критерий останова.

Также основной принцип работы ГА можно описать по схеме, представленной на рис. 1.

1. Генерируем начальную популяцию из n хромосом;
2. Вычисляем для каждой хромосомы ее пригодность;
3. Выбираем пару хромосом-родителей с помощью одного из способов отбора;
4. Проводим кроссинговер двух родителей с вероятностью, производя двух потомков;
5. Проводим мутацию потомков с вероятностью;
6. Повторяем шаги 3–5, пока не будет сгенерировано новое поколение популяции, содержащее n хромосом;
7. Повторяем шаги 2–6, пока не будет достигнут критерий окончания процесса [6].





Рис. 1. Схема работы генетического алгоритма

Пример поиска глобального минимума. Рассмотрим принцип работы генетических алгоритмов на примере сложной функции. Определим минимум функции Розенброка, определяемой как:

$$f(x_1, x_2) = 100 * (x_2 - x_1^2)^2 + (1 - x_1)^2 .$$

График функции Розенброка представлен ниже на рис. 2.



f

Рис. 2. График функции Розенброка

Как видно из графика, функция Розенброка содержит несколько локальных минимумов. Однако функция имеет только один глобальный минимум, который находится в точке с координатами (1;1). Значение функции в этой точке $f(1,1) = 0$.

Таким образом, можно сделать вывод, что задача оптимизации по нахождению минимума сложной функции не всегда может быть решена с помощью стандартных методов оптимизации.

Проведем исследование этой же функции с помощью генетических алгоритмов в ППП MatLAB [5].

Напишем М-файл для данной функции и сохраним его под именем **rozenbr_fun.m** (рис. 3).

```
1 -  function y=rozenbr_fun(x)
2 -  y=100*(x(2)-(x(1))^2)^2+(1-x(1))^2;
```

Рис. 3. М-файл с целевой функцией

В поле **fitness function** введем имя целевой функции **@rozenbr_fun**.

Установим количество особей в популяции = 10, в разделе plots установим флажки для **best fitness, best individual, distance**. Щелкнем по кнопке **start.**

Для данной задачи результаты получились следующие - минимум функции достигается в точке с координатами $x_1 = 0{,}901;\ x_2 = 0{,}806.$ Значение

функции Розенброка в этой точке $f(x_1, x_2) = 0{,}014071620305311536$.

Графическое решение приведено на рис. 4.




Рис. 4. Графическое решение задачи

Первый график (Fitness Value) отображает изменение значение целевой функции. Видно, что, начиная с 40 популяции, алгоритм сошелся к решению. На втором графике (Current best individual) изображена наилучшая особь. Третий график (Average Distance) соответствует изменению расстояния между особями в поколениях.

Конечная точка расчетов близка к точке истинного минимума (1;1). Исследуем функцию при различных исходных данных, результаты приведены в табл. 1. Количество итераций алгоритма или количество поколений является остановом алгоритма, его значение оставим по умолчанию равным 100 поколениям. Тип оператора мутации выберем Гауссов с вероятностью 1%.

Таблица 1. Результаты эксперимента по нахождению минимума.

		Размер начальной популяции				
		10	50	100	500	1000
Вероятность кроссовера	1	$x_1 = 0,847$ $x_2 = 0,657$	$x_1 = 0,838$ $x_2 = 0,7$	$x_1 = 0,896$ $x_2 = 0,807$	$x_1 = 0,963$ $x_2 = 0,925$	$x_1 = 0,977$ $x_2 = 0,956$
	0,5	$x_1 = 0,894$ $x_2 = 0,798$	$x_1 = 1,069$ $x_2 = 1,151$	$x_1 = 1,111$ $x_2 = 1,234$	$x_1 = 0,991$ $x_2 = 0,981$	$x_1 = 1,012$ $x_2 = 1,023$
	0	$x_1 = 1,048$ $x_2 = 1,117$	$x_1 = 0,9$ $x_2 = 0,803$	$x_1 = 0,949$ $x_2 = 0,894$	$x_1 = 0,968$ $x_2 = 0,936$	$x_1 = 1,018$ $x_2 = 1,035$

Выводы. По результатам проведенных экспериментов видно, что однозначную зависимость полученных координат от вероятности влияния скрещивания и мутации от величины популяции выявить сложно, так как исходная популяция создается случайным образом. Но в любом случае видно, что при отсутствии мутации значения координат более искажены и с ростом популяции значения координат становятся более близкими к истинным значениям [3].

Список использованной литературы:

1. *Саймон Д. Алгоритмы эволюционной оптимизации. — М: ДМК Пресс, 2020. — 940 с. — ISBN 978-5-97060-812-8.*
2. *Емельянов В. В., Курейчик В. В., Курейчик В. М. Теория и практика эволюционного моделирования. — М: Физматлит, 2003. — 432 с. — ISBN 5-9221-0337-7.*
3. *Курейчик В. М., Лебедев Б. К., Лебедев О. К. Поисковая адаптация: теория и практика. — М: Физматлит, 2006. — 272 с. — ISBN 5-9221-0749-6.*
4. *Гладков Л. А., Курейчик В. В., Курейчик В. М. Генетические алгоритмы: Учебное пособие. — 2-е изд. — М: Физматлит, 2006. — 320 с. — ISBN 5-9221-0510-8.*
5. *Matlab 6.5 SP1/7/7 SP1/7 SP2 + Simulink 5/6. Инструменты искусственного интеллекта и биоинформатика. Серия «Библиотека профессионала». – М.:СОЛОН-ПРЕСС, 2006. – 456 с.*
6. *Панченко Т. В. Генетические алгоритмы: учебно-методическое пособие. – Астрахань: Издательский дом «Астраханский университет», 2007. – 87 с.*
7. *Кочура А.В. Генетические алгоритмы в MatLAB: методические указания. – Курск: Авторская редакция, 2010. – 19 с.*

ARCHITECTURE OF OPERATORS IN QUANTUM ALGORITHMS

Toirov Sh. A.
Tashkent Institute of Management and Economics,
associate professor

Annotatsiya. *Maqolada (qog'ozda) kvant algoritmlari operatorlari tuzilishi, uning matematik va sxematik tasviri taklif qilingan. Umumjahon kvant algoritmining diagrammalar ko'rinishidagi umumiy tuzilishi maqolada (qog'ozda) amalga oshiriladi. Diagrammada kvant algoritmining asosiy elementlari, ularning xossalari, vazifalari keltirilgan. Sxematik diagrammalarning har bir bloki ketma-ket jarayonlar va kvant algoritmlarining bosqichlaridan iborat.*
Kalit so'zlar: *Kvant algoritmi, chalkashlik, superpozitsiya, kvant hisoblash, interferensiya, Hadamard operatori, kvant bloki, unitar matritsa.*

Abstract. *The article (paper) proposes the structure of operators of quantum algorithms, its mathematical and schematic representation. The general structure of the universal quantum algorithm in the form of diagrams is realized in the article (paper). The diagram presents the main elements, their properties, functions of the quantum algorithm. Each block of the schematic diagrams are decomposed of successive processes and stages of quantum algorithms.*
Keywords: *Quantum algorithm, entanglement, superposition, quantum computation, interference, Hadamard operator, quantum block, unitary matrix.*

Аннотация. *В статье (статье) предложена структура операторов квантовых алгоритмов, ее математическое и схематическое представление. В статье (статье) реализована общая структура универсального квантового алгоритма в виде диаграмм. На диаграмме представлены основные элементы, их свойства, функции квантового алгоритма. Каждый блок схематических диаграмм разложен на последовательные процессы и этапы квантовых алгоритмов.*
Ключевые слова: *Квантовый алгоритм, запутанность, суперпозиция, квантовые вычисления, интерференция, оператор Адамара, квантовый блок, унитарная матрица.*

Introduction.

At present, active research and physical realization of a quantum computing is conducting in the world. Prototypes of computing devices have already been built in different parts of the world at different times, but there is not yet a full-fledged quantum calculator that simulates quantum computing on a computer with a classical architecture in order to study and further design a quantum calculator.

The result of the quantum algorithm is of a probabilistic nature. Due to a small increase in the number of operations in the algorithm and to maximize the entanglement of qubits, can be arbitrarily approximate the probability of obtaining the correct result to unity [1].

Functions and types of quantum operators in designing quantum algorithms. The process of designing a quantum algorithm consists of a matrix form of the representation of three operators [2]

[3]. Superposition (S), quantum entanglement [2] (entangled states) (UF) and interference (Int). In general, the structure of the quantum algorithm, as the basis of quantum computation, can be represented as following

$$QAY = [\ (Int \otimes {}^{n}Id) * U_f\ ]^{h+1} * [{}^{n}H \otimes {}^{m}S] \quad (1)$$

Where Id is an identical operator, $\otimes$ symbol is a tensor product; S is an operator of superposition and finally, H is a Hadamard operators.

In Fig. 1 describes the structure of the operators of quantum algorithms, equivalent to the expression. The input of the quantum algorithm is always given a binary function f. This function is represented as a mapping that divides the image of each input binary string. First, the function f is coded as a unitary matrix operator U_F that depends on f function properties. The resulting matrix operator U_F is included in the structure of a cable cell, a unitary matrix whose structure depends on the U_F matrix and on the problem that the algorithm must solve [1].




Fig. 1. Structure of operators of quantum algorithms.

The superposition contains all the information needed to solve a specific task/problem. Due to the superposition creation, a measurement operation is performed to extract the information. Consecutive use of the quantum operator and measurement of the result characterizes the quantum block. It is executed k times to derive a set of basis vectors. This measurement is not a deterministic operation, therefore the resulting basis vectors will be different. Therefore, each of them will contain only a part of the information needed to solve a particular task/problem [4].

General structure of the quantum algorithm. Schematic diagram of the simulation of a quantum algorithm operation on a classical computing device is illustrated in Fig. 2. The quantum block in this figure performs the alternate application of the quantum operator and the measurement of the result. It is executed n times to obtain a set of basis vectors. Since measurement is not a deterministic operation, the resulting basis vectors will be the same, and each of them will contain only a part of the information needed to solve the problem [5].




Fig. 2. Schematic diagram of the quantum algorithm.

The final phase of the quantum algorithm is the interpretation of the set of basis vectors for the solution of a specific task/problem with a certain probability value [1-2].

Encoding block

The work diagram of the encoding block is shown in Fig. 3.




Fig. 3. Decomposition of encoding block..

Step 1. The representation table of the function $f:\{0,1\}^{n+m} \rightarrow \{0,1\}^{n+m}$ is transformed into a representation table of a unitary function $F:\{0,1\}^{n+m} \rightarrow \{0,1\}^{n+m}$ such that

$$F(x_0,\ldots.x_{n-1}, y_0,\ldots.y_{n-1}) = (x_0,\ldots.x_{n-1}, f(x_0,\ldots.x_{n-1}) \otimes (y_0,\ldots.y_{n-1}) \quad (2)$$

The necessity of such a change is related to the unitarity condition for the operator U_F. It is reversible and can not represent two different inputs into the same output values [6]. Since this operator is a matrix mapping of the function F, it must be invertible. Reversibility is carried out by increasing the number of bits and describing the function F instead of f.

Step 2. The representation of the function F is transformed into a representation, according to the following restrictions.

$$\forall s \in \{0,1\}^{n+m} : U_m [\tau(s)] = \tau[F(s)] \quad (3)$$

The encoding table $\tau:\{0,1\}^{n+m} \rightarrow C^{2n+m}$, where C^{2n+m} is the resultant Hilbert space, defined as:

$$\tau(0) = \begin{matrix}1\\0\end{matrix} = |0>, \ \tau(1) = \begin{matrix}0\\1\end{matrix} = |1> \quad (4)$$

$\tau(x_0,.....x_{n+m-1}) = \tau(x_0) \otimes .... \otimes \tau(x_{n+m-1}) = |x_0,.....x_{n+m-1}>$ (5)

Step 3. The representation of U_F is transformed into a matrix operator according to the following rule:

$[U_{Fij}]=1 \Leftrightarrow U_F |i> = |j>$ (6)

This rule is easy to understand if we consider |i> and |j> as columns of a vector. By distributing these columns according to the canonical basis, UF determines the permutation of the rows of the identity matrix. In a general form, the series |i> is mapped into the series |i> [3].

Quantum block. The main element of a quantum block is a quantum cell.

Its form depends on the properties of the matrix of the operator [7]. The matrix operator U_F, which is the output of the encoding block, in this structure is the input of the quantum block.

The unitary matrix is applied k times to the initial canonical vector |i> of dimension 2^{n+m}. The resultant complex linear combination of basis vectors is measured by producing one basic vector $|x_i>$ as a result. All the measured basis vectors $\{x_l .... x_k\}$ come together.

The resulting set is the output of a quantum block.




Fig. 4. Decomposition of quantum block.

The decoding unit includes an interpretation of the set of basis vectors. Decoding of basic vectors consists in their transformation into binary strings. Then they are used as the coefficients of some equation or for extracting the answer. The structure of the decoding unit depends significantly on the nature of the problem being solved, and is essentially one or other of the classical algorithms.

The last part of the quantum algorithm contains a block of interpretation of a set of basis vectors that allows you to isolate a finite, meaningful solution of the problem under study with a certain probability [7].

Summarizing all of the above, it is worth noting that the developed and proposed general structure of the quantum algorithm finds a successful implementation in the software

development and implementation of quantum simulators as auxiliary external modules. As for the structure of quantum algorithms operators, it is universal and, in general, does not depend on the properties and solved problems of a particular quantum algorithm.

Conclusion. The mathematical and schematic representation structure of the operators of quantum algorithms is proposed in the paper. Detailed decomposition of each block of the schematic diagram of the description of sequential processes and stages of quantum algorithms is performed. The general structure of the universal quantum algorithm is realized as diagrams that reveal the basic elements, their properties, functions and place in the work of the quantum algorithm.

List of used literatures:

1. *V.S. Potapov and S. Gushansky, "Definition and implementation of operators of quantum algorithms," Juvenis scientia, No. 2, pp. 38-40, 2016.*
2. *S. V. Ulyanov, L. Litvintseva and S. S. Ulyanov, "Quantum information and quantum computational intelligence: Design & classical simulation of quantum algorithm gates," Universita degli Studi di Milano: Polo Didattico e di Ricerca di Crema Publ., vol. 80, 2005*
3. *S. Ulyanov and A. S. Polunin, "Modeling on a classical computer the quantum decision-making algorithm of Daych," Electronic journal "System Analysis in Science and Education", No. 2, pp. 76-89, 2010.)*
4. *V. F. Guzik, S. M. Gushansky and V. S. Potapov, "Estimation of the complexity of quantum algorithms," in the Collected Articles of the International Scientific and Practical Conference, Gelendzhik, 2014.*
5. *A. V. Kasarkin and S. M. Gushansky, "Cleansing of entanglement," in Informatics, modeling, design automation. Collection of scientific works of the third All-Russian school-seminar of graduate students, students and young scientists, Ulyanovsk, 2011.*
6. *V. Guzik, S. Gushanskiy, M. Polenov and V. Potapov, "Models of a quantum computer, their characteristics and analysis," in 9th International Conference on Application of Information and Communication Technologies (AICT), Rostov-on-Don, 2015.*
7. *V. F. Guzik, S. M. Gushansky and M. Yu. Polenov, "Realization of Components for Building an Open Modular Model of Quantum Computing Devices," Informatization and Communication, No. 1, pp. 44-48, 2015.)*

5-SHO‘BA: TA’LIMDA AXBOROT VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING QO‘LLANILISHI

TALABALARNING O‘ZLASHTIRISH NATIJALARINI BAHOLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Olimov S.A.
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti PhD, katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi va uning talabalarning o‘zlashtirish natijalarini baholashdagi ahamiyati tadqiq etiladi. Oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy raqamli baholash tizimlarining joriy etilishi, ularning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, kelajakdagi istiqbollari tahlil qilingan. Maqolada an’anaviy baholash usullaridan raqamli baholash usullariga o‘tish jarayoni, talabalar bilimini nazorat qilishning kompyuterlashtirilgan tizimlari va ularning o‘quv jarayoni sifatini oshirishdagi roli muhokama qilinadi.*
Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiyalar, ta’lim, baholash, elektron baholash tizimlari, ta’lim sifati, o‘zlashtirish natijalari.*

Abstract. *This article examines the use of digital technologies in the educational process and their importance in assessing students' learning outcomes. The introduction of modern digital assessment systems in higher education institutions, their advantages and disadvantages, as well as future prospects are analyzed. The article discusses the process of transition from traditional assessment methods to digital assessment methods, computerized systems for monitoring student knowledge and their role in improving the quality of the educational process.*
Keywords: *digital technologies, education, assessment, electronic assessment systems, quality of education, learning outcomes.*

Аннотация. *В статье рассматривается использование цифровых технологий в образовательном процессе и их значение в оценке результатов обучения студентов. Анализируется внедрение современных цифровых систем оценки в высших учебных заведениях, их преимущества и недостатки, а также дальнейшие перспективы. В статье рассматривается переход от традиционных методов оценки к цифровым методам оценки, компьютеризированным системам контроля знаний учащихся и их роль в повышении качества образовательного процесса.*
Ключевые слова: *цифровые технологии, образование, оценка, электронные системы оценки, качество образования, результаты обучения.*

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimi raqamli transformatsiya bosqichidan o‘tmoqda. Ayniqsa, ta’lim sifatini nazorat qilish, ya’ni talabalarning o‘zlashtirish natijalarini samarali, tez va adolatli baholash raqamli texnologiyalar yordamida ancha yengillashtirildi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyatning barcha sohalariga, shu jumladan, ta’lim sohasiga ham chuqur kirib kelmoqda. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi nafaqat o‘qitish usullarini, balki talabalarning o‘zlashtirish natijalarini baholash tizimini ham tubdan o‘zgartirmoqda [4]. O‘zbekistonda ham “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta’lim muassasalarini raqamlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda [1].

Baholash - bu talabalar yoki o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘lchash, ularning o‘quv materialini qanchalik yaxshi o‘zlashtirganliklari haqida ma'lumot to‘plash va qaror qabul qilish jarayonidir.

Baholash quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- ***O‘lchash*** - talabaning bilim va ko‘nikmalar darajasini aniq mezonlar asosida aniqlash
- ***Ma'lumot to‘plash*** - o‘quv jarayoni davomida yoki ma'lum bosqichlar yakunida talabaning ko‘rsatkichlarini qayd etish
- ***Tahlil qilish*** - to‘plangan ma'lumotlarni o‘rganib, talabaning erishgan natijalarini belgilangan standartlar bilan taqqoslash
- ***Qayta aloqa*** - talabaga uning yutuqlari va kamchiliklari haqida ma'lumot berish

Baholash oddiy baho qo‘yishdan tashqari keng qamrovli jarayon hisoblanadi. U o‘qitishning muhim qismi bo‘lib, talabalarning o‘quv materialini o‘zlashtirishlariga yordam beradi, ularning motivatsiyasini oshiradi, o‘qituvchilarga o‘quv jarayonining samaradorligi haqida ma'lumot beradi va ta'lim dasturlarini takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Talabalarning o‘zlashtirish natijalarini baholash ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu jarayon orqali talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash, o‘quv jarayoni samaradorligini baholash va talabalarning keyingi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash mumkin.

An’anaviy baholash usullari (yozma imtihonlar, og‘zaki so‘rov, test topshiriqlari) zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirilib, elektron baholash tizimlari, onlayn testlash platformalari, o‘zlashtirishni avtomatik monitoring qilish tizimlari kabi innovatsion usullar

bilan boyitilmoqda [2]. Bu esa o‘z navbatida baholash jarayonining obyektivligi, shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda [3].

Tadqiqotning asosiy maqsadi talabalarning o‘zlashtirish natijalarini baholashda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyatini kompleks tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo‘llarini ko‘rsatib berishdan iborat.

Talabalar o‘zlashtirish natijalarini baholashda raqamli texnologiyalarning rivojlanish tendensiyalari

Ta’lim sohasida raqamli texnologiyalarning tatbiq etilishi o‘qituvchi-talaba munosabatlarining yangi formatini shakllantirishga olib keldi [7]. Baholash tizimidagi o‘zgarishlar quyidagi asosiy tendensiyalarda namoyon bo‘lmoqda [8]:

1. ***Elektron ta’lim tizimlari (LMS – Learning Management Systems)*** orqali talabalarning o‘zlashtirish natijalarini kompleks baholash. Moodle, Canvas, Blackboard kabi platformalar o‘qituvchilarga talabalarning faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish, baholash va tegishli qarorlar qabul qilish imkonini bermoqda [6].

2. ***Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari*** – talabalarning bilimini tekshirish va baholashning kompyuterlashtirilgan usullari, jumladan, onlayn testlar, mashina yordamida tekshiriluvchi vazifalar, avtomatik tahlil qilinuvchi loyihalar [2].

3. ***O‘zlashtirishni vizuallashtirish vositalari*** – talabalarning o‘quv faoliyati natijalarini vizual ko‘rinishda (grafiklar, diagrammalar, infografika) taqdim etish orqali murakkab ma’lumotlarni tushunarli shaklda tahlil qilish [9].

4. ***Analitik platformalar*** – ta’lim ma’lumotlarini yig‘ish, tahlil qilish va interpretatsiya qilish imkonini beruvchi maxsus dasturiy ta’minot (Educational Data Mining, Learning Analytics) [10].

5. ***Adaptiv baholash tizimlari*** – talabaning individual o‘zlashtirish sur’ati va darajasiga moslashuvchi, shaxsga yo‘naltirilgan baholash tizimlari [4].

Raqamli baholash texnologiyalarining afzalliklari

Talabalarning o‘zlashtirish natijalarini baholashda raqamli texnologiyalardan foydalanish quyidagi muhim afzalliklarga ega [7]:

1. ***Obyektivlik va shaffoflik*** – inson omili ta’sirini kamaytirish hisobiga baholash jarayonining xolisligini ta’minlash [4]. Avtomatlashtirilgan tizimlar barcha talabalarga yagona mezonlar asosida yondashadi, bu esa subyektiv baholash xavfini kamaytiradi [9].

2. ***Vaqt va resurslarni tejash*** – o‘qituvchilarning talabalar ishlarini tekshirish va baholashga sarflaydigan

vaqtini qisqartirish [2]. Bu ularga koʻproq eʼtiborni oʻquv materiallarini takomillashtirish va talabalar bilan individual ishlashga qaratish imkonini beradi.

3. ***Tezkor qayta aloqa*** – talabalarga ularning oʻzlashtirish natijalari toʻgʻrisida tezkor maʼlumot berish [8]. Bu talabalarga oʻz bilimlaridagi boʻshliqlarni oʻz vaqtida aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi.

4. ***Katta hajmdagi maʼlumotlar bilan ishlash*** – talabalarning oʻzlashtirish koʻrsatkichlari boʻyicha katta hajmdagi maʼlumotlarni yigʻish, tahlil qilish va interpretatsiya qilish imkoniyati [10]. Bu oʻquv jarayonidagi muammolarni aniqlash va taʼlim sifatini oshirish boʻyicha asoslangan qarorlar qabul qilish uchun muhim.

5. ***Baholash jarayonining masofadan turib amalga oshirilish imkoniyati*** – geografik jihatdan uzoqda boʻlgan talabalarning bilim darajasini baholash va nazorat qilish imkoniyati [6]. Bu ayniqsa masofaviy taʼlim sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

6. ***Individuallashtirish*** – har bir talabaning oʻzlashtirish darajasi va surʼatiga moslashuvchi adaptiv baholash tizimlarini qoʻllash imkoniyati [7]. Bu talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda oʻqitish samaradorligini oshiradi.

Raqamli baholash texnologiyalarini joriy etishdagi muammolar

Raqamli baholash texnologiyalarini joriy etish jarayonida quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin [3]:

1. ***Texnik taʼminot va infratuzilma muammolari*** – barcha taʼlim muassasalarida zarur texnik jihozlar va yuqori tezlikdagi internetning mavjud emasligi [5]. Bu ayniqsa chekka hududlarda joylashgan taʼlim muassasalari uchun dolzarb muammo hisoblanadi.

2. ***Raqamli kompetensiyalarning yetishmasligi*** – oʻqituvchilar va talabalarning raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun zarur bilim va koʻnikmalarga ega emasligi [6]. Bu raqamli baholash vositalarining potensialidan toʻliq foydalanish imkonini cheklaydi.


3. ***Maʼlumotlar xavfsizligi va shaxsiy maʼlumotlarni himoya qilish muammolari*** – talabalarning shaxsiy maʼlumotlari va oʻzlashtirish natijalarining ruxsatsiz foydalanishdan himoyalanish darajasining yetarli emasligi [5].

4. ***Plagiat va nohalol oʻzlashtirish muammosi*** – masofadan baholash jarayonida talabalarning nohalol yoʻl bilan bilimlarini namoyish etish imkoniyatlarining ortishi [9].

5. ***Raqamli baholash tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish xarajatlarining yuqoriligi*** –

sifatli raqamli baholash tizimlarini yaratish va ularni doimiy ravishda takomillashtirib borish uchun katta moliyaviy resurslar talab etilishi [8].

Talabalarning o‘zlashtirish natijalarini baholashda raqamli baholashni quyidagi ta’riflash mumkin:



1-rasm. Raqamli baholash tuzilmasi

Raqamli baholash jarayonini tashkil etish bosqichlari

1. Maqsadni belgilash - baholashdan ko‘zlangan maqsadni aniqlash
2. Vositalarni tanlash - maqsadga muvofiq raqamli vositalarni tanlash
3. Baholash mezonlarini ishlab chiqish - aniq va o‘lchanadigan mezonlarni belgilash
4. Talabalarni tayyorlash - raqamli baholash jarayoni bilan tanishtirish
5. Natijalarni tahlil qilish - olingan ma’lumotlarni to‘g‘ri talqin qilish

6. Qayta aloqa - natijalar asosida talabalar bilan qayta aloqa o‘rnatish

7. Takomillashtirish - baholash jarayonini muntazam takomillashtirish

Raqamli baholash texnologiyalarining amaliyotdagi tatbiqi: keys-stadi

Hozirgi kunda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida raqamli baholash texnologiyalarining turli shakllari qo‘llanilmoqda [6]. Masalan, Toshkent axborot texnologiyalari universitetida "Elektron universitet" tizimi joriy etilgan bo‘lib, u talabalarning o‘zlashtirish natijalarini kompleks baholash imkonini beradi [2]. Tizim talabalarning har bir fan bo‘yicha joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalarini avtomatik ravishda hisoblab boradi va ularni ham talabalarga, ham o‘qituvchilarga real vaqt rejimida taqdim etadi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarida Moodle platformasi keng qo‘llanilmoqda [9]. Bu platforma o‘qituvchilarga turli xil baholash vositalarini (testlar, topshiriqlar, forumlar, seminarlar) ishlab chiqish va qo‘llash, talabalarning o‘zlashtirish natijalarini avtomatik ravishda hisoblash va tahlil qilish imkonini beradi.

Samarqand davlat universitetida esa talabalarning o‘zlashtirish natijalarini baholashda "Proktoring" tizimi sinov tariqasida joriy etilgan [3]. Bu tizim masofadan turib imtihonlar o‘tkazish jarayonida talabalarning xulq-atvorini nazorat qilish va imtihon jarayonining xolisligini ta’minlash imkonini beradi.

isidagi ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish orqali o‘qitish jarayonini individuallashtirish va optimallashtirish.

Xulosa va tavsiyalar

Raqamli texnologiyalar talabalarning o‘zlashtirish natijalarini baholashda muhim ahamiyatga ega. Ular baholash jarayonini tezlashtiradi, obyektivlikni oshiradi va har bir talabaga individual yondashish imkoniyatini beradi. Shuningdek, raqamli baholash natijalarining tahlili o‘quv jarayonini takomillashtirish uchun qimmatli ma’lumotlar taqdim etadi.

Talabalarning o‘zlashtirish natijalarini baholashda raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi ta’lim sifatini oshirish, baholash jarayonini obyektivlashtirish va samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Biroq, raqamli baholash tizimlarining samaradorligi nafaqat texnik imkoniyatlarga, balki ularni qo‘llashning pedagogik asoslariga ham bog‘liq.

Raqamli baholash texnologiyalarini yanada rivojlantirish va samarali qo‘llash uchun quyidagi tavsiyalar taqdim etiladi:

1. O‘qituvchilar va talabalarning raqamli

kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha doimiy ravishda malaka oshirish tadbirlarini tashkil etish.

2. Raqamli baholash tizimlarini ishlab chiqish va joriy etishda xalqaro tajribani o‘rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish.

3. Raqamli baholash texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik asoslarini ishlab chiqish va takomillashtirish.

4. Ta’lim muassasalarining texnik infratuzilmasini takomillashtirish, kompyuter texnikasi va yuqori tezlikdagi internet bilan ta’minlash.

5. Raqamli baholash jarayonida ma’lumotlar xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish.

6. Nohalol o‘zlashtirishning oldini olish uchun proktoring tizimlari va plagiatni aniqlash dasturlaridan foydalanish.

7. Raqamli baholash texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish.

Ushbu tavsiyalarning amalga oshirilishi O‘zbekistonda raqamli ta’lim ekotizimini rivojlantirish va ta’lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-6079-son Farmoni.*

2. *Xashimova D. P. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning o‘rni // "Zamonaviy ta’lim" jurnali. – Toshkent, 2021. – №3. – B. 23-29.*

3. *Abduraxmanov K. X., Zokirova N. K. Innovatsionnaya obrazovatelnaya sreda kak vajnoye usloviye podgotovki kvalifitsirovannыx kadrov // Innovatsii v ekonomike. – Toshkent, 2020. – №4. – S. 85-91.*

4. *Berman, S., & Čuk, S. (2022). Digital Assessment in Education: A Comprehensive Review. Educational Technology & Society, 25(2), 132-147.*

5. *Gulyamov S.S. i dr. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T.: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019. – 447 bet.*

6. *Karlыbayeva G. Ye. Oliy ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim muhitini shakllantirish // "Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar" jurnali. – Nukus, 2022. – №2. – B. 143-148.*

7. *McKenney, S., & Reeves, T. C. (2023). Educational Design Research for Digital Learning Environments. Routledge.*

8. *Rakhimov O. D., Rakhimova D. O. Innovative educational technology. – Tashkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021. – 180 p.*

9. *Toshxo‘jayev M. M. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini baholashning zamonaviy usullari // "Innovatsion texnologiyalar" jurnali. – Qarshi, 2022. – №1. – B. 78-83.*

10. *Williamson, B., Bayne, S., & Shay, S. (2020). The datafication of teaching in Higher Education: critical issues and perspectives. Teaching in Higher Education, 25(4), 351-365.*

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O‘QUV JARAYONINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Olimov S.A.
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti PhD, katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida o‘quv jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati va ularning ta'lim sifatini oshirishdagi roli tahlil qilingan. O‘zbekiston oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari, zamonaviy axborot tizimlari va platformalarning joriy etilishi, masofaviy ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi hamda raqamli ko‘nikmalarning shakllantirilishi masalalari yoritilgan. Raqamli texnologiyalar asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish va o‘quv jarayonini samarali boshqarish bo‘yicha xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*
Kalit so’zlar: *oliy ta'lim, raqamli texnologiyalar, ta'lim sifati, axborot tizimlari, masofaviy ta'lim, raqamli transformatsiya, o‘quv jarayoni boshqaruvi.*

Abstract. *This article analyzes the importance of digital technologies in managing the educational process in higher education institutions and their role in improving the quality of education. The issues of digital transformation processes, the introduction of modern information systems and platforms, the development of distance learning technologies, and the formation of digital skills in the higher education system of Uzbekistan are covered. Conclusions and recommendations are developed on improving the activities of higher education institutions and effective management of the educational process based on digital technologies.*
Keywords: *higher education, digital technologies, quality of education, information systems, distance learning, digital transformation, educational process management.*

Аннотация. *В статье анализируется значение цифровых технологий в управлении образовательным процессом в высших учебных заведениях и их роль в повышении качества образования. Освещены вопросы процессов цифровой трансформации в системе высшего образования Узбекистана, внедрения современных информационных систем и платформ, развития технологий дистанционного обучения, формирования цифровых навыков. Разработаны выводы и рекомендации по совершенствованию деятельности высших учебных заведений и эффективному управлению образовательным процессом на основе цифровых технологий.*
Ключевые слова: *высшее образование, цифровые технологии, качество образования, информационные системы, дистанционное обучение, цифровая трансформация, управление учебным процессом.*

Kirish

Bugungi kunda jahonda kecha-yotgan globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari barcha sohalarda, jumladan, oliy ta'lim tizimida ham tub o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan

islohotlar doirasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi [1]. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g'risida"gi Farmoni [2] muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu farmonga ko‘ra, oliy ta'lim tizimida o‘quv jarayonini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish hamda vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish vazifalari belgilangan.

Oliy ta'lim muassasalarida (OTM) o‘quv jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi ta'lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish, professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ta'lim xizmatlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [3]. Shu bois, ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida o‘quv jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati va ularni joriy etish masalalari tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini boshqarish - bu ta'lim muassasasi (maktab, kollej, universitet va boshqalar) rahbariyati tomonidan o'quv jarayonining barcha tarkibiy qismlarini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va tartibga solish faoliyatidir.

Samarali o'quv jarayonini boshqarish ta'lim muassasasining muvaffaqiyatli ishlashi, o'quvchilarning yuqori natijalarni ko'rsatishi va umuman ta'lim tizimining rivojlanishi uchun muhim asos hisoblanadi

O'quv jarayonini boshqarishning asosiy yo'nalishlari:

1. *Strategik rejalashti*rish - ta'lim muassasasining uzoq muddatli maqsadlarini belgilash va ularga erishish yo'llarini aniqlash
2. *O'quv rejalarini ishlab chiqish* - fanlar, mavzular va soatlar taqsimotini belgilash
3. *O'qituvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish* - yuqori sifatli ta'lim berish uchun o'qituvchilar ishini nazorat qilish va yo'naltirish
4. *O'quvchilar bilimini baholash* - bilim olish jarayonini monitoring qilish va natijalarni tahlil qilish
5. *Ta'lim muhitini takomillashtirish* - zamonaviy o'quv usullarini joriy etish va o'quv jarayonini doimiy rivojlantirib borish

Samarali boshqaruv usullari:

- Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish
- O'qituvchilar malakasini oshirish tizimini yaratish
- Har bir ta'lim yo'nalishi uchun aniq ko'rsatkichlarni belgilash

- O'quv jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish
- Muntazam monitoring va tahlil o'tkazish

Oliy ta’limda o‘quv jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari.

Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya – bu ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash, axborot tizimlari va platformalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tizimli o‘zgarishlar majmuidir [4]. Raqamli transformatsiya jarayonlari quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:


- Ta'lim jarayonini boshqarish uchun yagona axborot tizimlarini yaratish;
- O‘quv-uslubiy materiallarni raqamlashtirish va elektron ta'lim resurslarini rivojlantirish;
- Masofaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish;
- Professor-o‘qituvchilar va talabalarning raqamli ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Ta'lim sifatini baholash tizimlarini avtomatlashtirish.

O‘zbekistonda oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O‘zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g'risida"gi Farmoni [5] doirasida oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan.

2. O‘quv jarayonini boshqarishda axborot tizimlari va platformalar.

Oliy ta'lim muassasalarida o‘quv jarayonini samarali boshqarish uchun zamonaviy axborot tizimlari va platformalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Bunday tizimlar quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi [6]:

- Talabalar kontingentini boshqarish va monitoring qilish;
- O‘quv jarayonini rejalashtirish va dars jadvallarini shakllantirish;
- Professor-o‘qituvchilar faoliyatini nazorat qilish va baholash;
- Ta'lim sifatini monitoring qilish va tahlil etish;
- O‘quv-uslubiy hujjatlarni raqamlashtirish va tizimlash;
- Talabalar bilimini baholash va nazorat qilish;
- Masofaviy ta'lim kurslarini tashkil etish va boshqarish.



1-rasm. Oliy ta’limda o‘quv jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalar

O‘zbekiston oliy ta'lim muassasalarida "HEMIS" (Higher Education Management Information System) axborot tizimining joriy etilishi o‘quv jarayonini boshqarishda muhim qadam bo‘ldi [7]. Bu tizim orqali talabalar kontingenti, professor-o‘qituvchilar tarkibi, o‘quv rejalari, dars jadvallari, baholash natijalari va boshqa ma'lumotlarni boshqarish, monitoring qilish va tahlil etish imkoniyatlari yaratildi.

Bundan tashqari, ko‘plab oliy ta'lim muassasalarida Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams kabi platformalar ham faol qo‘llanilmoqda [8]. Bu platformalar o‘quv materiallarini joylashtirish, topshiriqlar berish, talabalar bilimini baholash, muloqot qilish va hamkorlik o‘rnatish imkoniyatlarini taqdim etadi.

3. Masofaviy ta'lim texnologiyalari va ularning ahamiyati.

COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta'lim texnologiyalari oliy ta'lim tizimida yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi. Bu texnologiyalar o‘quv jarayonini uzluksiz davom ettirish, ta'lim xizmatlarining qamrovini kengaytirish va ta'lim olish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qildi [9].

Masofaviy ta'lim texnologiyalarining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Ta'lim olish uchun vaqt va makon chegaralarining yo‘qolishi;
- Individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish imkoniyati;
- Ta'lim resurslaridan keng foydalanish imkoniyati;
- Talabalarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- Ta'lim jarayonini moslashuvchan tashkil etish.

O‘zbekistonda masofaviy ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Elektron universitetlar” loyihasi doirasida oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim platformalari joriy etilmoqda [10]. Bu platformalar orqali talabalar onlayn darslarni kuzatish, o‘quv materiallarini o‘rganish, topshiriqlarni bajarish va bilimlarini tekshirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.

4. Ta'lim sifatini baholash va monitoring qilishda raqamli texnologiyalar.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini baholash va monitoring qilishda raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi [11]:

- Talabalar bilimini obyektiv baholash;
- Ta'lim jarayoni samaradorligini uzluksiz monitoring qilish;
- O‘qitish sifatini tahlil qilish va muammolarni aniqlash;
- Ta'lim dasturlarini takomillashtirish uchun ma'lumotlar bazasini shakllantirish;
- Ta'lim natijalarini prognozlashtirish va boshqarish.

O‘zbekistonda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini baholash va monitoring qilish uchun alohida axborot tizimlari yaratilmoqda. Jumladan, Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash tizimi joriy etilgan bo‘lib, bu tizim orqali OTMlarning ta'lim sifati, ilmiy faoliyati, xalqaro hamkorligi va boshqa ko‘rsatkichlari baholanadi [12].

5. Professor-o‘qituvchilar va talabalarning raqamli ko‘nikmalarini shakllantirish.

Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun professor-o‘qituvchilar va talabalarning raqamli ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada quyidagi yo‘nalishlarda ishlar olib borilmoqda [13]:

- Professor-o‘qituvchilarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha malakasini oshirish;
- Talabalarning raqamli savodxonligini rivojlantirish;
- Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish;
- Raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyatini rivojlantirish.

O‘zbekiston oliy ta'lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus o‘quv kurslari va treninglar tashkil etilmoqda. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalari o‘quv rejalariga "Axborot texnologiyalari", "Raqamli iqtisodiyot", "Ma'lumotlar bazasini boshqarish" kabi fanlar kiritilmoqda [14].

Xulosa va tavsiyalar

Oliy ta'lim muassasalarida o‘quv jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi ta'lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va nazorat qilish, professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ta'lim xizmatlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, bu borada quyidagi yo‘nalishlarda ishlarni yanada kuchaytirish tavsiya etiladi:

1. Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy kompyuter texnikalari va dasturiy ta'minot bilan jihozlash;
2. Professor-o‘qituvchilar va talabalarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus o‘quv kurslari va treninglarni tashkil etish;
3. Oliy ta'lim muassasalarida sifatli masofaviy ta'lim kurslarini yaratish va rivojlantirish;
4. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va xorijiy oliy ta'lim muassasalari tajribasini o‘rganish;
5. Oliy ta'lim tizimini raqamlashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash;
6. Ta'lim jarayonini boshqarish uchun yagona axborot tizimini takomillashtirish va uning funksional imkoniyatlarini kengaytirish;
7. Raqamli transformatsiyani amalga oshirish uchun zarur huquqiy va me'yoriy bazani takomillashtirish.

Yuqoridagi tavsiyalarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston oliy ta'lim tizimida o‘quv jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash, ta'lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarga muvofiq ta'lim xizmatlarini taqdim etish imkoniyatlari yanada kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lutfullayev P.M. Oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish: muammolar va istiqbollar // Zamonaviy ta'lim. – 2020. – № 5(90). – B. 15-21.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // https://lex.uz/docs/4545884
3. Taylakov N.I., Abduraxmanova G.N. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishda raqamli texnologiyalarning o'rni // Zamonaviy axborot texnologiyalari va ularning ta'limdagi ahamiyati. – Toshkent, 2021. – B. 45-48.
4. Qulmatov A.A. Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari // Xalq ta'limi. – 2021. – № 3. – B. 78-83.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // https://lex.uz/docs/5031048
6. Mahkamov A.A., Yuldashev Sh.S. Oliy ta'lim muassasalarida axborot tizimlari va platformalarining qo'llanilishi // Axborot texnologiyalari va ta'lim. – 2022. – № 2. – B. 56-62.
7. Mutalibov I.X. HEMIS tizimining oliy ta'lim muassasalari boshqaruvida tutgan o'rni // O'zbekistonda innovatsion tadqiqotlar jurnali. – 2021. – № 6. – B. 135-139.
8. Abdullayeva Sh.A., Gafurova D.M. Oliy ta'limda masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanish samaradorligi // Pedagogik mahorat. – 2021. – № 3. – B. 67-72.
9. Hamidov J.A. COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta'limning ahamiyati va samaradorligi // Zamonaviy ta'lim. – 2021. – № 2(99). – B. 58-64.
10. Xodjayeva M.X., Xusanov L.E. "Elektron universitet" tizimini joriy etish: tajriba va natijalar // Axborot texnologiyalari va ta'lim. – 2022. – № 3. – B. 89-95.
11. Abduraxmanova S.P. Ta'lim sifatini baholashda raqamli texnologiyalarning o'rni // Pedagogik innovatsiyalar. – 2022. – № 1. – B. 45-51.
12. Usmonov B.Sh., Rasulov T.X. Oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlashning zamonaviy usullari // Xalqaro ta'lim forumi materiallari. – Toshkent, 2022. – B. 78-82.
13. Qodirov Sh.Q., Raxmonov A.T. Oliy ta'lim tizimida raqamli ko'nikmalarni shakllantirish metodikasi // Ta'lim va innovatsiyalar. – 2022. – № 4. – B. 112-118.
14. Karimov U.A. Oliy ta'lim muassasalari o'quv rejalariga raqamli texnologiyalar fanlarini integratsiya qilish // Pedagogik mahorat. – 2022. – № 5. – B. 79-84.

ENGAGING ESP LEARNERS: STRATEGIES FOR PRODUCTIVE LESSONS

Uzakova G.Z.
Senior Teacher, Tashkent Institute of Management and Economics, Fergana Campus

Annotatsiya. *Ushbu maqola dars samaradorligini va tilni o'zlashtirishni maksimal darajada oshirish uchun maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) o'quvchilari o'rtasida faollikni oshirish bo'yicha keng qamrovli strategiyalarni o'rganadi. U ehtiyojlarni tahlil qilish, haqiqiy materiallar, texnologiya, hamkorlik metodologiyalari va qo'llab-quvvatlovchi sinf muhitida qayta aloqa mexanizmlarini integratsiyalashuvining muhim rolini ta'kidlaydi. Ta'lim mazmunini o'quvchilarning kasbiy va akademik maqsadlariga moslashtirish orqali ESP yo'riqnomasi ko'proq motivatsiya, ishtirok etish va uzoq muddatli tilni bilishni rivojlantirish uchun moslashtirilishi mumkin. Maqolada, shuningdek, ushbu strategiyalarning o'quvchilarning faolligi va muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadigan amaliy qo'llanmalar va misollar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP), o'quvchilarni jalb qilish, ehtiyojlarni tahlil qilish, haqiqiy materiallar, hamkorlikda o'rganish, til ta'limi texnologiyasi, maqsadlarni belgilash, fikr-mulohazalar strategiyasi, o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim, professional kontekstlar.*

Abstract. *This paper explores comprehensive strategies for enhancing engagement among English for Specific Purposes (ESP) learners to maximize lesson productivity and language acquisition. It emphasizes the critical role of needs analysis, the integration of authentic materials, technology, collaborative methodologies, and feedback mechanisms within a supportive classroom environment. By aligning instructional content with learners' professional and academic goals, ESP instruction can be tailored to foster greater motivation, participation, and long-term language proficiency. The article also presents practical applications and case studies, illustrating the positive impact of these strategies on learner engagement and success.*

Keywords: *English for Specific Purposes (ESP), Learner Engagement, Needs Analysis, Authentic Materials, Collaborative Learning, Technology in Language Education, Goal Setting, Feedback Strategies, Learner-Centered Instruction, Professional Contexts.*

Аннотация. *В этой статье рассматриваются комплексные стратегии повышения вовлеченности среди учащихся, изучающих английский для специальных целей (ESP), для максимизации производительности урока и усвоения языка. В ней подчеркивается важнейшая роль анализа потребностей, интеграции аутентичных материалов, технологий, совместных методик и механизмов обратной связи в поддерживающей среде класса. Согласуя учебный контент с профессиональными и академическими целями учащихся, обучение ESP можно адаптировать для повышения мотивации, участия и долгосрочного владения языком. В статье также представлены*

практические приложения и тематические исследования, иллюстрирующие положительное влияние этих стратегий на вовлеченность и успех учащихся.

Ключевые слова: *Английский для специальных целей (ESP), вовлеченность учащихся, анализ потребностей, аутентичные материалы, совместное обучение, технологии в языковом образовании, постановка целей, стратегии обратной связи, обучение, ориентированное на учащихся, профессиональные контексты.*

Introduction

English for Specific Purposes (ESP) has emerged as a pivotal domain within applied linguistics, distinguished by its learner-centered approach and emphasis on language instruction tailored to specific professional or academic disciplines[3]. As globalization intensifies the demand for domain-specific communication skills, ESP serves as an essential bridge between language proficiency and real-world application. However, engaging adult learners—often professionals or pre-professionals—requires deliberate pedagogical planning that considers their diverse motivations, prior knowledge, and occupational expectations. In contrast to General English, which aims at broad communicative competence, ESP hones in on context-specific uses of language. This targeted approach requires instructors to go beyond textbook materials and design lessons that are responsive to learners' fields, such as engineering, finance, aviation, or healthcare. The challenge lies in making the learning process both specialized and pedagogically sound.

Understanding Learner Needs: The Foundation of ESP Instruction

A thorough needs analysis is indispensable for the effective design of ESP courses [2]. This process involves gathering qualitative and quantitative data about learners' backgrounds, occupational roles, linguistic requirements, and preferred learning styles. Techniques such as surveys, structured interviews, diagnostic tests, and stakeholder consultations (e.g., employers, subject-matter experts) help instructors create targeted syllabi that reflect authentic communicative tasks. Needs analysis not only fosters relevance but also cultivates intrinsic motivation by aligning course objectives with learners' real-world ambitions.

Integrating Authentic Materials to Enhance Relevance

Authentic materials—defined as texts created for native speakers and real-life purposes—are instrumental in ESP instruction. Their use bridges the gap between classroom input and workplace discourse, providing learners with exposure to domain-specific lexis, genre conventions, and discourse structures [1]. Examples include legal contracts for law students, clinical notes for medical personnel, or technical manuals for engineers.

Incorporating such resources allows learners to practice reading, listening, and producing texts that mirror their professional contexts, thereby enhancing linguistic confidence and functional competence.

Collaborative Learning: Promoting Interaction and Teamwork

The communicative nature of ESP necessitates interactional competence, which can be fostered through collaborative activities. Group work, simulations, debates, and role-plays emulate professional scenarios and encourage peer-to-peer communication [5]. For example, students in a hospitality English course may engage in front-desk simulations, practicing service-related language in realistic settings. Collaboration not only strengthens language skills but also nurtures soft skills such as leadership, negotiation, and intercultural communication—skills highly valued across disciplines.

Incorporating Technology: A Tool for Innovation and Access

Technological integration in ESP instruction expands the learning environment beyond the physical classroom. Online learning platforms (e.g., Moodle, Google Classroom), video conferencing tools (e.g., Zoom), mobile applications, and multimedia tools (e.g., podcasts, digital storytelling) offer flexible, interactive, and multimodal learning experiences [4]. Moreover, digital tools support autonomous learning, allowing students to review material at their own pace, participate in asynchronous discussions, and access domain-specific corpora or glossaries.

Setting Clear Objectives and Providing Constructive Feedback

Setting explicit and measurable learning outcomes facilitates instructional alignment and learner accountability. These objectives should adhere to the SMART criteria—Specific, Measurable, Achievable, Relevant, and Time-bound. For instance, rather than stating 'learn business vocabulary,' a clearer objective would be: 'By the end of the session, students will be able to write a formal business email with accurate tone and structure.' Equally crucial is formative and summative feedback. Constructive feedback helps learners recognize progress, address deficiencies, and maintain motivation [6]. Peer and self-assessment can also promote reflective learning practices and learner autonomy.

Creating a Supportive and Inclusive Learning Environment

A psychologically safe and inclusive environment encourages participation, risk-taking, and persistence in language learning. Establishing rapport, acknowledging learner diversity, and fostering mutual respect are key components of a positive classroom culture. Ice-breakers, group norms, and inclusive

language policies contribute to a learning space where students feel valued and motivated. Instructors must also be culturally sensitive and adapt content to respect learners' sociocultural backgrounds and workplace norms.

Case Study: Business English for International Trade

Context: A university offers a Business English ESP course to undergraduates aiming to enter the field of international trade. Strategies Implemented:
- Needs Analysis: Conducted through stakeholder interviews with local exporters and surveys among students.
- Authentic Materials: Included international contracts, emails, and trade regulations.
- Technology Integration: Utilized Zoom for mock negotiations and online databases for market research.
- Project-Based Learning: Students created full business proposals, including SWOT analyses and marketing strategies.
- Guest Speakers: Professionals from trade sectors shared insights into practical language use.
Outcomes: Learners reported increased confidence in using English for workplace communication. Course evaluations highlighted the relevance and practicality of content as key motivators for continued learning.

Pedagogical Implications and Recommendations

The practical implications of the strategies discussed in this paper extend beyond individual lesson planning. Institutions and educators must adopt a systemic approach to implementing ESP methodologies. Curriculum developers should collaborate with industry professionals to design competency-based frameworks that integrate language outcomes with professional standards. Additionally, teacher training programs must equip instructors with the skills to conduct effective needs analyses, develop authentic materials, and leverage educational technologies.

Assessment practices in ESP should also reflect real-world communication tasks. Rather than relying solely on traditional tests, instructors should incorporate performance-based assessments such as project presentations, case study analyses, and simulations. These methods offer a more accurate representation of learners' communicative competence in professional contexts. Finally, continuous feedback from learners can be used to refine content and ensure that instruction remains relevant and engaging over time.

Conclusion

Effective engagement of ESP learners requires a multifaceted, responsive, and context-aware pedagogical approach. By integrating needs-based planning, authentic input,

interactive methods, and supportive practices, educators can cultivate environments conducive to both language development and professional preparedness. The strategies outlined in this paper offer a foundation for designing high-impact ESP curricula that meet the evolving demands of global workplaces and empower learners toward linguistic and occupational success. Moreover, the successful implementation of these strategies hinges on ongoing professional development for instructors and a commitment to curriculum flexibility. Institutions should foster interdisciplinary collaboration to ensure that language instruction complements domain-specific training. Future research could explore how ESP learners' long-term career outcomes are influenced by their classroom experiences, offering insights into the broader impact of these pedagogical strategies.

List of used literatures:

1. Basturkmen, H. (2010). Developing Courses in English for Specific Purposes. Cambridge University Press.

2. Dudley-Evans, T., & St. John, M. J. (1998). Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. Cambridge University Press.

3. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. Cambridge University Press.

4. Long, M. H. (1985). A Role for Instruction in Second Language Acquisition: Task-Based Language Teaching. In Input in Second Language Acquisition (pp. 79–100). Routledge.

5. Nunan, D. (2004). Task-Based Language Teaching. Cambridge University Press.

6. *Richards, J. C., & Schmidt, R. (2010). Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics (4th ed.). Pearson Education.*

SANATORIY-SOG‘LOMLASHTIRISH MUASSASALARINING ICHKI AUDITINI FUNDAMENTAL ASOSDA TASHKIL ETISH

Shafkarov F.X.
“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti
mustaqil izlanuvchisi, Registrator ofisi boshlig‘i

Annotatasiya. *Ushbu maqolada sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasalarida ichki audit tizimini tashkil etish ko‘zda tutilgan va tegishli masalalar o‘rganilgan, shuningdek uning samaradorligiga erishishdagi roli bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Ichki audit tizimining jihatlari, bosqichlari va yondashuvlarining talqini, ma'lumotlar tahlili, ichki auditni o‘tkazish maqsadlari va o‘rganish metodologiyasi aniqlandi. Ichki auditni takomillashtirish zarurati sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasasida yetakchi o‘rinni egallaydi.*
Kalit so‘zlar: *sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasasi, ichki audit, ichki audit tizimi, tahlil, auditorlik tekshiruvlari, ichki audit samaradorligi.*

Abstract. *This article provides for the organization of an internal audit system in sanatorium-recreational institutions and studies related issues, as well as research on its role in achieving efficiency. The interpretation of aspects, stages and approaches of the internal audit system, data analysis, objectives of internal audit and research methodology are determined. The need to improve internal audit occupies a leading place in sanatorium-recreational institutions.*
Keywords: *sanatorium-recreational institution, internal audit, internal audit system, analysis, audit audits, internal audit efficiency.*

Аннотация. *В статье рассматривается организация системы внутреннего аудита в санаторно-курортных учреждениях и рассматриваются сопутствующие вопросы, а также исследование ее роли в достижении эффективности. Были разъяснены аспекты, этапы и подходы системы внутреннего аудита, проведен анализ данных, определены цели проведения внутреннего аудита, определена методология исследования. Необходимость совершенствования внутреннего аудита является ведущей проблемой в санаторно-курортном учреждении.*
Ключевые слова: *санаторно-курортное учреждение, внутренний аудит, система внутреннего аудита, анализ, аудиторские проверки, эффективность внутреннего аудита.*

Kirish

Sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasalarida ichki audit tizimini samarali tashkil etish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish muassasaning umumiy faoliyati samaradorligini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ichki audit tizimi nafaqat muassasaning moliyaviy va xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish, balki moliyaviy hisobotlarning ishonchli-ligini ta’minlash, resurslardan samarali

foydalanishni nazorat qilish bilan bir qatorda quyidagi funksiyalarni bajaradi: moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini tekshirish; narxlar va tariflarni va ularni qo‘llashning amaldagi tartibiga muvofiqligini belgilash, shuningdek, muassasaning hisob siyosati va buxgalteriya hisobini uslubiy shakllantirish bo‘yicha takliflarni tayyorlashdan iborat.

Hozirgi kunda sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasalari faoliyati turli xil murakkab va ko‘p qirrali jarayonlarni o‘z ichiga oladi, bu esa ichki auditning dolzarbligini yanada oshiradi. Bu muassasalarning tashkiliy tuzilmasi va taqdim etilayotgan xizmatlarning xilma-xilligi, shuningdek, ular tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning o‘ziga xosligi ichki audit tizimining maxsus yondashuvlarni talab qilishiga olib keladi. Shu sababli, sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasalarida ichki audit tizimini samarali tashkil etish uchun nazariy va uslubiy asoslarni rivojlantirish va mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola-da quyidagi uslub va usullar qo‘llanildi: ilmiy usullar, ma'lumotlarni tahlili, sintez qilish, qayta ishlash, taqqoslash usullardan foydalangan. Sanatoriy-sog'lomlashtirish muassasalarida ichki audit tizimining uslubiy asoslari ichki auditni rejalashtirish, o‘tkazish, axborot to‘plash, ma'lumotlar tahlili va talqin qilish, hisobotlarni tayyorlash va tuzatish harakatlarini aniqlash kabi turli jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Taklif etilayotgan ichki audit tizimini maqsadi sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasasining ishonchli boshqaruvini ta'minlash va ichki nazorat, risklarni boshqarish tizimining samaradorligini oshirish, shuningdek, muassasa faoliyatining barcha muhim jihatlarini tizimli ravishda kuzatib borish, ularga tezkor ta'sir ko‘rsatish orqali uning moliyaviy holatini yaxshilashdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasalarida ichki audit tizimini tashkil etishning nazariy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan. Bu orqali ichki audit tizimini takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash va muassasalar faoliyatining samaradorligini oshirish uchun takliflar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

Bugungi kunda zamonaviy qonunchilikda ichki auditning aniq ta'rifi yo‘q, iqtisodiy adabiyotlarda mahalliy va xorijiy iqtisodchi va auditchilar tomonidan turli xil talqinlar berilgan.

Ichki nazorat korxona faoliyatining barcha darajalarida amalga oshirilishi kerak. Ichki nazorat tizimi xo‘jalik yurituvchi subyektning barqaror faoliyatiga, shuningdek, biznes jarayonlari va korporativ boshqaruv tizimini doimiy o‘zgaruvchan tashqi muhitga o‘z

vaqtida moslashtirishga qaratilgan bo‘lishi kerak [1 : 10].

Ichki audit-bu tashkilotning qiymatini oshirish va faoliyatini yaxshilashga qaratilgan mustaqil, obyektiv sifat kafolati va maslahat faoliyati [2 : 10].

Ichki audit mo‘ljallangan foydalanuvchilarning moliyaviy hisobotlarning ishonchli ekanligiga ishonch hosil qilish uchun zarurdir. Shuningdek, ichki audit iqtisodiy bozorlarning ishlashi uchun muhimdir va moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobining amaldagi prinsiplariga muvofiq tashkilotning moliyaviy holati va faoliyati to‘g'risida to‘g'ri va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etishiga kafolat bo‘lib xizmat qiladi [3 : 15].

So‘rovlarga javoblar auditorga ilgari mavjud bo‘lmagan va boshqa so‘rovlar uchun zarur bo‘lgan ma'lumotlarni olish imkonini beradi. So‘rovlar ko‘pincha boshqa auditorlik talablarini to‘ldiradi [4 : 10].

Ichki auditning asosiy funksional vazifalari boshqaruv talablariga qarab o‘zgaradi: ichki hujjatlar va nazorat tartib-taomillarini tayyorlashda tashkilot rahbariyati tashkilotning amaldagi normativ hujjatlari va ta'sis hujjatlariga asoslanganligini tekshirish; buxgalteriya hisobining to‘g'riligini va moliyaviy hisobotning ishonchliligini tekshirish; tashqi omillarning tashkilot faoliyatiga ta'sirini baholash; soliq va boshqa nazorat organlarini tekshirishga tayyorgarlikni tashkil etish [5 : 114].

Ichki auditning maqsadi qoidabuzarliklarning oldini olish va boshqaruv samaradorligini oshirish, moliyaviy – xo‘jalik faoliyatini rivojlantirish zaxiralarini aniqlash, shuningdek maslahat yordamini ko‘rsatish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqish va taqdim etishdir [6 : 118].

Xodimlarni monitoring qilish va buxgalteriya tizimlaridan mustaqil ravishda ma'lumot olish natijasida to‘g'ridan-to‘g'ri auditor tomonidan olingan dalillar ishonchli dalil, eng ishonchli esa to‘g'ridan-to‘g'ri auditorlik tashkilotidan olingan dalillardir [7 : 246].

Ichki auditni tashkil etish va uning faoliyati samaradorligini va investitsion jozibadorligini oshirish uchun kompaniya muammolarini hal qilish vositasi sifatida ishlash masalalari ochib berilgan [8 : 457].

Bizning fikrimizcha, zamonaviy usul va vositalarni joriy etgan holda uzluksiz auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazish ichki audit xavfini minimallashtiradi va sanatoriy-sog'lomlashtirish muassasaning muvozanatli rivojlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, ichki audit tizimi xatarlarni baholash va samarali boshqarish bo‘yicha tizimli va izchil yondashuvlardan foydalangan holda muassasa tomonidan qo‘yilgan maqsadlarga erishishga yordam beradi.

Sanatoriy-sog'lomlashtirish muassasasida quyidagi maqsadlar eng dolzarbdir: tashqi tekshiruvlarga tayyorgarlik ko‘rish; qarzlar va kamchiliklarni aniqlash; suiiste'mol qilish va korporativ firibgarlik faktlarini aniqlash; hisobotlarning ishonchliligini tekshirish; yetkazib beruvchilarning ishonchliligini baholash kerak.

Sanatoriy-sog‘lomlashtirish tadqiqot materiallari. Sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasasidagi ichki audit bo‘limining boshqaruv tizimini takomillashtirish, mablag'lardan noqonuniy, samarasiz foydalanish, bo‘ysunuvchi tashkilotlar faoliyatidagi xato yoki kamchiliklarning oldini olish va ichki nazoratni takomillashtirishga qaratilgan faoliyati hisoblanadi. Ichki audit, birinchi navbatda, muassasaning butun ichki nazorat tizimi jarayonida og'ishlar, noto‘g'ri va samarasiz harakatlar yo‘qligini maksimal darajada ta'minlashga yo‘naltirilishi kerak.

Sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasalarida ichki audit tizimini asosi bo‘lgan jihatlar, bosqichlar va yondashuvlarning talqini ko‘rsatilgan.

Ichki audit tizimini jihatlari	**Ichki audit tizimini bosqichlari**	**Ichki audit tizimini yondashuvlari**
Ichki audit bo‘limining holatini aniqlash. Tarmoqlangan tuzilishga ega sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasalarida ichki audit tizimi mustaqil bo‘linma bo‘lishi mumkin. Oddiy tashkiliy shaklga ega bo‘lgan kichik va o‘rta tashkilotlarda bunday bo‘limni yaratish maqsadga muvofiq emas, chunki uni saqlash xarajatlari iqtisodiy samaradan oshib ketishi mumkin.	*Tayyorgarlik.* Ichki audit tizimini tashkil etish maqsadga muvofiqligi to‘g'risida qaror qabul qilinadi, tashkilot tarkibidagi o‘zgarishlarning maqsadlari belgilanadi, uning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati tahlil qilinadi.	*Ichki audit ko‘p qirrali vosita ekanligiga asoslangan yondashuv.* U nafaqat nazoratni, balki boshqaruv funksiyalarini ham bajarishga qaratilgan: konsalting, bashoratlash, monitoring, tahlil.
Ichki audit tizimini shakllantirish. U sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasani mustaqil tarkibiy bo‘linmasi bo‘lishi va bosh direktorga	*Me’yorlash.* Sanatoriy-sog‘lomlashtirish sohasini xususiyatlariga moslashtirilgan ichki audit tizimini me'yoriy va uslubiy bazasi shakllantirilmoqda.	*Ichki audit axborotni shakllantirishga olib keladigan yondashuv.* Ichki audit o‘z vaqtida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan

bo‘ysunishi mumkin. Bo‘lim tarkibiga rahbar va ichki auditorlar kiradi.		ma'lumotlarni shakllantirishga qaratilgan yondashuv.
lavozim ko‘rsatmalarni ishlab chiqish. Ularda nazorat funksiyalarini aniqlash va nazorat vakolatlari va shaxslarning o‘z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarligi bilan bog'liq bo‘limlarga e'tibor qaratish lozim.	*Moslashuvchan.* Ichki audit tashkilotni boshqarish tizimida moslashtiriladi va bo‘lim sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasa tarkibiga qanday joylashishi aniqlanadi.	*Ichki audit buxgalteriya ishi bilan bog'liq bo‘lgan yondashuv.* Bu yondashuvni ayrim turlari boshqaruv auditi deb ataladi. Ushbu yondashuv bilan ichki auditning mohiyati boshqaruv hisobida hosil bo‘lgan ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlari loyihalarini shakllantirishga kamayadi.
Xizmat dasturining bajarilishini tahlili. U asosiy xizmat ko‘rsatish hajmi va turlari bo‘yicha dasturning bajarilishini umumiy baholashni, dasturning bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashni, tashkilotning ishlash vaqtidan to‘liq foydalanish uchun zaxiralarni hisoblashni, yil davrlari bo‘yicha rejaning bir xilligini aniqlashni o‘z ichiga oladi.	*Holatlarni mustahkamlash*. Ichki auditorlar faoliyati, o‘zaro ishonch, sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasa tuzilmasi ierarxiyasidagi ichki audit bo‘limining yuqori darajasi natijasidir va hal qilinishi kerak bo‘lgan vazifalar tizimdagi aloqani kengaytirish natijasida yetakchilikdan qoniqishning ortishi bilan tavsiflanadi.	*Ichki auditni o‘tkazishning uslubiy usullari.* Ushbu uslubiy usullari; haqiqiy tekshirish, hujjatli tekshirish, tasdiqlash, kuzatish, so‘rovlar, qarshi va maxsus tekshiruvlar va ichki audit tizimini tashkil etish uslubiy usullari: tekshirishni rejalashtirish, audit dasturini tuzish, tekshirish varaqasini shakllantirish, ma'lumot to‘plash usullaridan foydalanish, mustaqillik tamoili, raqamlashtirish va avtomatlashtirish vositalaridan foydalanish mumkin.

Ichki audit tizimini yaratishda sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasasi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini, masalan, sog'lomlashtirish xizmatlarini ko‘rsatishning mavsumiyligi va chiptalarni sotishga bo‘lgan ehtiyojning notekisligini hisobga olish muhimdir. Audit o‘tkazish tafsilotlari har bir tashkilot uchun shaxsiydir va uning tuzilishi, ko‘lami, ish oqimiga bog'liq.

Ichki auditni boshqa mezonlarga ko‘ra ham tasniflash mumkin; tekshirish usullarini ishlab chiqish, tekshirish obyekti, tekshirishning muntazamligi va tekshirish maqsadi.

Sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasasi materiallarini tahlili. Ishning nazariy ahamiyati sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasaning mavjud ichki audit tizimini tahlil qilish, shuningdek uni takomillashtirish bo‘yicha takliflar shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Ichki audit tizimini samarali tashkil etish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasa umumiy faoliyatining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ichki audit tizimi ma'lumotlarini tahlili, ularni amalga oshirish va nazariy ahamiyati muhokama qilinadi.

1. Ichki nazorat tizimi va uning muhimligi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ichki nazorat tizimi sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda asosiy omillardan biridir. Bu tizimning asosiy vazifasi muassasaning moliyaviy va xo‘jalik faoliyatidagi xatoliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishdir. Tadqiqot davomida aniqlandiki, ichki nazorat tizimini kuchaytirish orqali muassasalarning moliyaviy holatini barqarorlashtirish va faoliyat samaradorligini oshirish mumkin. Bu natijalar muassasalar faoliyatining boshqaruv jarayonlarini yanada yaxshilash uchun ichki auditning naqadar muhimligini tasdiqlaydi.

2. Tashkiliy jihatlar va audit samaradorligi. Ichki audit xizmatining tashkiliy tuzilmasi va funksiyalarining aniq belgilanishi audit jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Ichki auditning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko‘p jihatdan bu xizmatning tashkil qilinishi va uning tashkiliy tuzilmasiga bog‘liq. Bu bo‘limda, ayniqsa, ichki audit xizmatining vazifalari va majburiyatlari haqida muhokama qilinadi. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, ichki audit xizmatini samarali tashkil qilish va uning funksiyalarini aniq belgilash orqali muassasaning moliyaviy nazorat tizimlarini kuchaytirish mumkin.

3. Audit jarayonlarini avtomatlashtirishning ahamiyati. Ichki audit jarayonlarini avtomatlashtirish sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasalarida audit samaradorligini oshirishning muhim yondashuvi sifatida aniqlangan. Avtomatlashtirilgan tizimlar orqali moliyaviy ma’lumotlarni o‘z vaqtida va aniq olish ichki auditorlarga muassasa bo‘limlarining faoliyatini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi. Bunday yondashuvning nazariy ahamiyati shundaki, avtomatlashtirish jarayonlari ichki audit tizimining ishonchliligini oshiradi va xatoliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa, bu yondashuv muassasa resurslarini

yanada oqilona boshqarishga imkon beradi.

4. Sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasalarida ichki auditning maxsus yondashuvlari. Sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasalari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lganligi sababli, ichki audit tizimini tashkil etishda maxsus yondashuvlar talab qilinadi. Tadqiqot natijalari bu muassasalarda ichki audit tizimini tashkil etishda har bir xizmat turi uchun maxsus yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatdi. Bu yondashuvlar audit jarayonining sifatini oshirishga, shuningdek, muassasaning moliyaviy holatini yaxshilashga xizmat qiladi. Nazariy jihatdan, bu yondashuvlar sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasalarining tashkiliy tuzilmasi va faoliyatining murakkabligini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan nazorat strategiyalarini amaliyotga tatbiq etishda yordam beradi.

O‘tkazilgan tadqiqotlarda sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasalari ichki audit tizimini tashkil etish zarurligini va uning samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini aniqlashga imkon berdi. Ichki auditning samarali tashkil etilishi muassasaning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, resurslardan samarali foydalanish, va faoliyatning umumiy sifatini oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Kelgusida, ichki audit tizimini yanada rivojlantirish va uni avtomatlashtirish orqali sanatoriy-sog‘lomlashtirish muassasalari faoliyatini optimallashtirish mumkin. Ushbu tadqiqot nazariy va amaliy asoslar berish bilan birga, ichki audit tizimining takomillashtirilishiga qaratilgan kelgusidagi tadqiqotlar uchun ham mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lepsaya V.V. Development of the internal control system as an element of economic security of an economic entity. The Eurasian Scientific Journal, 2022. Vol 14, № 1. - Pp. 1-10. https://esj.today/PDF/20ECVN122.pdf.

2. Omelchenko D.O. Analiz i Sovershenstvovanie sistemi vnutrennego kontrolya straxovoy organizasii / D.O.Omelchenko // Vestnik evraziyskoy nauki.

3. Werner M., Wiese M., Maas A. Embedding process mining into financial statement audits. Internal Journal of Accounting Information System. 2021. – Pp. 1-15.

4. Volkova M.N. Metodologicheskie aspekti vzaimosvyazi auditorskix prosedur: zaprosov i podtverjdeniy / Volkova M.N. // FES: Finansi. Ekonomika. 2010. – № 11. – Pp. 7-10.

5. Zorikov D.P. Organizasiya vnutrennego audita: funktsii, trebovaniya i planirovanie/ D.P. Zarikov // Novaya Nauka: Problemi i perspektivi. 2016. – № 4-1. – Pp. 111-114.

6. Romanova I.B., Ermishina O.F., Ilina S.N. Vnutrenniy audit kak sostavlyayutshaya vnutrennego kontrolya // Vestnik Samgups. – 2016. – № 1 (31). – Pp. 112-118

7. Sapunova E.A. Tipi auditorskix dokazatelstv i IX Vliyanie na ob'em auditorskix prosedur // Studencheskaya Nauka i XXI vek. 2015.– № 12. – Pp. 245-246.

8. Qudbiyev N.T., Mexmonaliyev U.E., Mominov I.L. Tadbirkorlik subyektlarida ichki nazoratning samarali tizimi sifatida ichki auditning o‘rni va ahamiyati // Scientific progress. 2022. Vol 3, Is 1, - Pp. 449-457.

TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARNING SODIQLIK DASTURLARI ASOSIDA DEPOZITLARNI OSHIRISH YO'LLARI

Raximov Sh.F.
"O'zsanoatqo'rilishbank" ATB
departament direktori

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot tijorat banklarida sodiqlik dasturlarining omonat mablag'larini jalb qilishdagi rolini baholashga qaratilgan. Tadqiqot davomida sodiqlik strategiyalarining mijoz xatti-harakatlariga, depozit hajmiga va bankning raqobatbardoshligiga ko'rsatgan ta'siri empirik va nazariy manbalar asosida o'rganilgan. Miqdoriy yondashuv asosida o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, CRM tizimlari, mukofotli omonatlar (PLS), va marketing aralashmasi elementlari mijoz ishonchini oshirish hamda omonat o'sishini ta'minlashda samarali vosita bo'lgan. SWOT tahlil orqali sodiqlik dasturlarining kuchli va zaif jihatlari, institutsional imkoniyatlar hamda ehtimoliy xavf-xatarlar aniqlab berilgan. Tadqiqot sodiqlik dasturlarining tijorat banklarida barqaror depozit bazasini shakllantirishdagi strategik ahamiyatini asoslab bergan.*

Kalit so'zlar: *tijorat banki, sodiqlik dasturi, depozit jalb qilish, CRM, mukofotli omonat (PLS), bank marketingi, mijoz sodiqligi, SWOT tahlil.*

Abstract. *This study focused on evaluating the impact of loyalty programs on deposit mobilization in commercial banks. The research explored both theoretical and empirical sources to assess how loyalty strategies influenced customer behavior, deposit volume, and bank competitiveness. Based on a quantitative approach, the findings indicated that CRM systems, prize-linked savings (PLS), and elements of the marketing mix served as effective tools for enhancing customer trust and increasing deposit growth. A SWOT analysis identified the strengths, weaknesses, institutional opportunities, and potential risks associated with loyalty programs. The study substantiated the strategic importance of loyalty initiatives in building a stable deposit base in the commercial banking sector.*

Keywords: *commercial bank, loyalty program, deposit mobilization, CRM, prize-linked saving (PLS), bank marketing, customer loyalty, SWOT analysis.*

Аннотация. *Данное исследование было посвящено оценке влияния программ лояльности на привлечение депозитных средств в коммерческих банках. В процессе анализа были изучены теоретические и эмпирические источники, отражающие воздействие программ лояльности на поведение клиентов, объем вкладов и конкурентоспособность банков. Количественный подход позволил установить, что использование CRM-систем, бонусных вкладов (PLS) и инструментов маркетинга способствовало укреплению доверия клиентов и росту депозитной базы. С помощью SWOT-анализа были выявлены сильные и слабые стороны программ лояльности, институциональные возможности и потенциальные угрозы. Исследование доказало стратегическую значимость программ лояльности в обеспечении устойчивости ресурсной базы банков.*

Ключевые слова: *коммерческий банк, программа лояльности, привлечение вкладов, CRM, бонусный вклад (PLS), банковский маркетинг, лояльность клиента, SWOT-анализ.*

Kirish

Mijozlar ehtiyojiga mos xizmat koʻrsatish va ularni uzoq muddatli hamkorlikka jalb etish bugungi tijorat bankchiligining eng muhim ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylangan. Raqobatning keskin kuchayishi, moliyaviy texnologiyalar taraqqiyoti va mijoz xatti-harakatlarining oʻzgarib borishi fonida anʼanaviy bank xizmatlari yetarli boʻlmay qolmoqda. Ayniqsa, omonat jalb qilish boʻyicha faoliyat olib borayotgan tijorat banklari uchun nafaqat yuqori foiz stavkalari, balki mijoz ishonchini shakllantiruvchi va ragʻbatlantiruvchi strategiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada sodiqlik dasturlari (loyalty programs) samarali vosita sifatida maydonga chiqmoqda.

Sodiqlik dasturlari marketing va mijozlar bilan aloqalar boshqaruvi (CRM) asosida ishlab chiqilgan, mijozga qoʻshimcha qiymat yaratish va bank brendiga sodiqligini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlardir. Ular ball toʻplash, mukofotli jamgʻarma hisobvaraqlari, chegirmalar, bonusli xizmatlar yoki sovrinli aksiyalar shaklida taklif etilishi mumkin. Bunday tizimlar mijozning bank bilan doimiy aloqada boʻlishini ragʻbatlantiradi va ayni paytda omonat hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Jahon va mintaqaviy miqyosdagi tadqiqotlar sodiqlik dasturlarining tijorat banklarida omonat jalb qilishga sezilarli taʼsirini koʻrsatmoqda. Xususan, raqamli CRM tizimlari bilan uygʻunlashtirilgan strategiyalar, mijozni nafaqat saqlab qolish, balki yangi mijozlarni ham jalb etishda muhim rol oʻynayotgani qayd etilgan [1][2][4]. Shu bilan birga, baʼzi banklarda bu tizimlarning samarasizligi, notoʻgʻri maqsadli guruh tanlovi yoki yetarli targʻibot yoʻqligi sababli kutilgan natijalar berilmayapti. Bu holat sodiqlik dasturlarining real iqtisodiy samaradorligi va depozit bazasiga taʼsirini ilmiy tahlil qilish zarurligini yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqot aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, tijorat banklarida sodiqlik dasturlarining depozit jalb qilishdagi rolini empirik maʼlumotlar, ilgari oʻtkazilgan ilmiy ishlar va amaliy tajribalar asosida oʻrganishni maqsad qilgan. Shu orqali banklar uchun samarali va barqaror sodiqlik strategiyalarini ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratiladi.

Adabiyotlar sharhi

Zamonaviy bank marketingida sodiqlik dasturlari (loyalty programs) mijoz ishonchini oshirish, ularni uzoq muddat bank bilan bogʻlash va barqaror daromad oqimini taʼminlash vositasi

sifatida keng qo‘llanilmoqda. Das, Parmar va Sadanand (2009) Hindistonda o‘tkazgan tadqiqotida CRM (Customer Relationship Management) tizimining samarali qo‘llanishi mijoz sodiqligi va xizmatlardan muntazam foydalanishni kuchaytirishini asoslab bergan [1]. Ularning tadqiqotida sodiqlik strategiyalari mijozning qoniqish darajasiga va bank bilan munosabatining davomiyligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani ko‘rsatilgan.

Shuningdek, Ndubisi va Nwankwo (2019) Nigeriyada bank sektorini tahlil qilar ekan, mijoz qoniqishi va sodiqligi bank moliyaviy ko‘rsatkichlari bilan bevosita bog‘liq ekanligini empirik dalillar bilan isbotlaganlar [2]. Ularning fikricha, sodiqlik dasturlarining asosiy ahamiyati — bu nafaqat yangi mijoz jalb qilish, balki mavjud mijozlarni saqlab qolish va ular orqali depozitlar hajmini barqaror ushlab turishdir.

Rao va Sharma (2010) bank tanlashdagi mijoz afzalliklarini o‘rganar ekan, ayniqsa yosh mijozlar segmenti — talabalar orasida mukofotli xizmatlar, bonuslar va sodiqlik sxemalarining jozibadorligini ta’kidlaydilar [3]. Ular bank tanlashda faqat foiz stavkalari emas, balki xizmat sifati va shaxsiylashtirilgan yondashuvlar hal qiluvchi rol o‘ynayotganini ko‘rsatganlar.

Vuong va hammualliflar (2020) esa Vetnamda o‘tkazgan empirik tadqiqotlarida, mijozning omonat qo‘yish qaroriga xizmat sifati, foiz stavkalari va sodiqlik tizimlari kabi bir nechta omil kompleks tarzda ta’sir qilayotganini aniqlaganlar [5]. Bu tadqiqotlar omonatchi xatti-harakatlarining ko‘p omilli tabiatini tushunishga xizmat qiladi.

Ogbulu, Uruakpa va Umezinwa (2015) Nigeriyada olib borgan tadqiqotlarida, foiz stavkasi depozit jalb qilishda muhim omil bo‘lsa-da, uning sodiqlik strategiyalari bilan uyg‘unligi samarani yanada kuchaytirishini ko‘rsatib o‘tganlar [6]. Mashamba, Magweva va Gumbo (2014) esa Zimbabveda banklar depozit stavkalarini oshirish orqali omonatlarni jalb qilishga urinishganini, ammo bu doimiy yechim emasligini, boshqa rag‘batlantirish vositalari zarurligini ta’kidlaganlar [8].

Duguma va Han (2018) moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda sodiqlik dasturlarining xizmatlar sifatiga qo‘shgan hissasini tahlil qilib, ularning qishloq banklarida ham ijobiy natija berganini aniqlaganlar [4].

Efiopiyalik tadqiqotchilar tomonidan tayyorlangan dissertatsiyalar ushbu mavzuni amaliy nuqtai nazardan yoritadi. Mulugeta (2018) va Gebrecherkos (2021) o‘z tadqiqotlarida sodiqlik dasturlari va reklama strategiyalari mijoz jalb qilishda va mavjud mijozni ushlab qolishda sezilarli samaradorlik berganini ko‘rsatganlar [9][11]. Ularning natijalari, ayniqsa, yirik

shahar filiallarida amalga oshirilgan aksiyalar orqali depozitlar hajmi o‘sganini tasdiqlaydi.

Moltote (2022) Prize Linked Saving (PLS) dasturining omonat hajmiga ta’sirini o‘rganib, psixologik rag‘batlantirish elementlari orqali mijozlar faoliyatini kuchaytirish mumkinligini asoslab bergan [10].

Bundan tashqari, Mezgebu (2021), Sisay (2021) va Kinfe (2016) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, sodiqlik dasturlari bilan boyitilgan marketing strategiyalari nafaqat depozitlarni ko‘paytiradi, balki bankning imidjiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [12][13][14].

Tilahun (2019) esa o‘z tadqiqotida depozit jalb qilishdagi amaliy muammolarni ko‘rsatgan bo‘lib, u yerda sodiqlik dasturlari mavjud emasligi sababli mijozlar oqimining pastligi aniqlangan [15].

Metodologiya

Tadqiqotda tijorat banklarida sodiqlik dasturlarining depozit jalb qilishga ta’sirini baholash uchun miqdoriy yondashuv qo‘llanildi. Asosiy e’tibor CRM tizimlari, rag‘batlantirish mexanizmlari va marketing strategiyalarining mijoz xatti-harakatlariga ta’sirini o‘lchashga qaratildi. Tahlilda ikkilamchi ma’lumotlar asosida deskriptiv va korrelyatsion usullar ishlatildi; natijalarda sodiqlik dasturlari mavjud bo‘lgan banklarda depozit hajmi va mijoz saqlanish darajasi sezilarli yuqori bo‘lgani aniqlandi. SWOT tahlili orqali bu strategiyalarning kuchli jihatlari va institutsional imkoniyatlari tahlil qilinib, ular bank resurs barqarorligini ta’minlovchi omil sifatida baholandi.

Tahlil va natijalar

Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan ularning mijozlar bilan samarali aloqalar o‘rnatishiga bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sodiqlik dasturlarini joriy etgan banklar depozit jalb qilishda muhim ustunlikka ega. Duguma va Han (2018) Efiopiya tajribasida sodiqlik mexanizmlari depozit bazasining o‘sishiga va mijoz ishonchining mustahkamlanishiga xizmat qilganini ko‘rsatganlar [4].

Marketing strategiyalar bilan kuchaytirilgan sodiqlik dasturlari yillik depozit o‘sish sur’atini 9–10% gacha oshirishga yordam beradi, an’anaviy yondashuvdagi banklarda esa bu ko‘rsatkich 5–6% atrofida qoladi [7][9].

Sodiqlik dasturlarining samaradorligi ko‘p hollarda banklarda CRM tizimlarining mavjudligi bilan bog‘liq. Das et al. (2009) va Ndubisi & Nwankwo (2019) CRM orqali amalga oshirilgan avtomatlashtirilgan muloqot, shaxsiy xizmatlar va rag‘batlantirishlar mijoz sodiqligini mustahkamlashini empirik asosda tasdiqlaganlar [1][2].

CRM asosidagi banklarda mijozlar o‘rtacha 2.6 yil bank xizmatlaridan foydalansa, CRM tizimi

mavjud bo‘lmagan banklarda bu raqam 1.9 yil atrofida qoladi [1][11].

Sodiqlik dasturlari doirasida amalga oshirilgan reklama, aksiyalar, bonuslar, tanlovlar va mijozga yo‘naltirilgan targ‘ibotlar depozit jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi. Admass Mulugeta (2018) va Gebrecherkos (2021) tadqiqotlarida bunday vositalar mijoz qarorlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani, xususan, yangi omonatchilar oqimi va mavjud mijozlarning faol ishtirokini rag‘batlantirgani qayd etilgan [9][11].

Mukofotli omonat (PLS) dasturlari, ya’ni depozit qo‘ygan mijozlar orasida sovrinli tanlov o‘tkazish orqali rag‘batlantirish, hozirgi kunda sodiqlikni oshirishda innovatsion yondashuvlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Moltote (2022) bu modelni Efiopiyada Commercial Bank of Ethiopia misolida tahlil qilib, mijoz motivatsiyasining an’anaviy foiz stavkalariga nisbatan sezilarli yuqori bo‘lganini ko‘rsatgan [10].

Rao va Sharma (2010) ham mukofot tizimlari ayniqsa yoshlar va talabalar orasida bank tanlashda ustuvor omilga aylanganini ta’kidlaydilar [3].

Korrelyatsion tahlillarga ko‘ra:

- Sodiqlik dasturi mavjudligi bilan depozit hajmi o‘rtasida $r \approx 0.68$ kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjud.
- CRM tizimi mavjudligi bilan mijoz saqlanish muddati o‘rtasida $r \approx 0.70$ dan yuqori korrelyatsiya kuzatilgan [1][5][6].

Shuningdek, sodiqlik dasturlarini faol amalga oshirgan banklarda o‘rtacha yillik depozit hajmi 23–28% ga ko‘proq bo‘lishi kuzatilgan [4][7][13].

Sodiqlik dasturlarining tijorat banklarida qo‘llanilishi strategik afzalliklar bilan birga, muayyan xavf-xatarlarni ham keltirib chiqaradi. Quyidagi SWOT tahlili asosida bu jihatlar tahlil qilinadi:

1-jadval.
Sodiqlik dasturlarining tijorat banklarida qo‘llanilishi strategik afzalliklari SWOT tahlili[16]

Kategoriya	**Tahlil**
Kuchli jihatlar (Strengths)	– Mijozni uzoq muddatli ushlab qolish – Brend sodiqligini oshirish – Depozit bazasini barqarorlashtirish [1][4][11]
Zaif jihatlar (Weaknesses)	– Yuqori xarajatlar (IT, mukofotlar) – Past darajadagi raqamli savodxonlik muammosi [6][10]
Imkoniyatlar (Opportunities)	– CRM tizimlari orqali personalizatsiya – Yangi avlod mijozlari uchun raqamli sodiqlik platformalari [5][10][12]
Tahdidlar (Threats)	– Mukofotlarga haddan tashqari qaramlik – Soliq qonunchiligi va moliyaviy regulyatsiyalar [7][14]

Yuqoridagi tahlillar sodiqlik dasturlarining tijorat banklaridagi strategik o‘rnini yaqqol ko‘rsatib beradi. Mijozni rag‘batlantiruvchi mexanizmlar, shaxsiylashtirilgan xizmatlar va innovatsion yondashuvlar — sodiqlik orqali depozit jalb qilish mexanizmining eng muhim elementlari hisoblanadi. Shu sababli, zamonaviy banklar o‘z marketing strategiyalarini mijoz ehtiyojlariga mos sodiqlik yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirish orqali raqobat ustunligini qo‘lga kiritishlari mumkin.

Xulosa va takliflar

Ushbu tadqiqot asosida aniqlanishicha, tijorat banklarida sodiqlik dasturlarini joriy etish mijoz ishonchini oshirish, omonat hajmini kengaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim strategik vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari sodiqlik dasturlariga ega banklarda depozit jalb qilish sur’atlari yuqoriroq bo‘lishini, mijoz saqlanish muddati uzoqroq davom etishini va xizmatdan qayta foydalanish ehtimoli sezilarli darajada ortishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, CRM texnologiyalariga asoslangan personalizatsiyalangan xizmatlar, mukofot tizimlari va Prize Linked Saving (PLS) kabi innovatsion mexanizmlar depozit jalb qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Empirik tahlil va ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari ushbu tizimlarning nafaqat marketing vositasi sifatidagi rolini, balki resurs bazasini kengaytiruvchi moliyaviy instrument sifatida ahamiyatini ochib beradi. Sodiqlik dasturlari va depozitlar o‘rtasidagi sezilarli ijobiy bog‘liqlik ($r \approx 0.68$) aniqlangan bo‘lib, bu natija ularning tijorat banklari uchun real strategik qiymatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

SWOT tahlil natijalari ham shuni ko‘rsatmoqdaki, sodiqlik dasturlari

kuchli raqobat ustunligini shakllantiradi, ammo ularni samarali qo‘llash uchun tizimli yondashuv, texnologik infratuzilma va segmentatsiyalangan marketing zarur. Aks holda, sodiqlik dasturlari rejalashtirilgan natijalarni bermasligi mumkin.

Yuqoridagil;arni hisobga olib quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. CRM tizimlarini keng joriy etish – mijoz xatti-harakatlarini chuqur tahlil qilish va shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taklif etish orqali sodiqlikni oshirish mumkin.

2. Prize Linked Saving mexanizmlarini kengaytirish – rag‘batlantirish orqali mijozni omonatga undovchi, ishonchga asoslangan tizim sifatida samarali natija beradi.

3. Marketing aralashmasini kuchaytirish – reklama, aksiyalar va bonusli dasturlar depozit jalb qilishni faol qo‘llab-quvvatlovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

4. Maqsadli mijoz segmentatsiyasiga asoslangan dasturlar – xizmatni yosh, daromad, xulq-atvor kabi mezonlarga moslashtirish sodiqlik samaradorligini oshiradi.

5. Xarajat-foyda tahlili asosida monitoring – sodiqlik dasturlarining rentabelligini baholovchi doimiy moliyaviy nazorat tizimi yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, sodiqlik dasturlari bank va mijoz o‘rtasida uzoq muddatli, ishonchli munosabatlarni shakllantirish orqali tijorat banklarining depozit bazasini mustahkamlashda zamonaviy va zaruriy vositadir. Ularni strategik va texnologik asosda joriy etish bank raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Das, K., Parmar, J., & Sadanand, V. K. (2009). Customer relationship management (CRM) best practices and customer loyalty: A study of Indian retail banking sector. European Journal of Social Sciences. https://www.researchgate.net/publication/285955548

2. Ndubisi, E. C., & Nwankwo, C. A. (2019). Customer satisfaction and organizational performance of the Nigerian banking sub-sector. https://www.researchgate.net/publication/340732111

3. Rao, A. S., & Sharma, R. K. (2010). Bank selection criteria employed by MBA students in Delhi: An empirical analysis. Journal of Business Studies Quarterly, 1(2), 56–69. https://ssrn.com/abstract=1597902

4. Duguma, G. J., & Han, J. (2018). Effect of deposit mobilization on the financial sustainability of rural saving and credit cooperatives: Evidence from Ethiopia. Sustainability, 10(10), 3387. https://doi.org/10.3390/su10103387

5. Vuong, B. N., Tung, D. D., Giao, H. N. K., Dat, N. T., & Quan, T. N. (2020). Factors affecting savings deposit decision of individual customers: Empirical evidence from Vietnamese commercial

banks. Journal of Asian Finance, Economics and Business, 7(7), 293–302. https://doi.org/10.13106/jafeb.2020.vol7.no7.293

6. Ogbulu, O. M., Uruakpa, P. C., & Umezinwa, M. (2015). Empirical investigation of the impact of deposit rates on fund mobilization by deposit money banks in Nigeria. Journal of Finance and Bank Management, 3(1), 122–138. https://doi.org/10.15640/jfbm.v3n1a8

7. Tuyishime, R., Memba, F., & Mbera, Z. (2015). The effects of deposits mobilization on financial performance in commercial banks in Rwanda: A case of Equity Bank Rwanda. International Journal of Small Business and Entrepreneurship Research, 3(6), 44–71. https://www.eajournals.org/wp-content/uploads/The-Effects-of-Deposits-Mobilization-on-Financial-Performance-in-Commercial-Banks-in-Rwanda.pdf

8. Mashamba, T., Magweva, R., & Gumbo, L. C. (2014). Analysing the relationship between banks' deposit interest rate and deposit mobilisation: Empirical evidence from Zimbabwean commercial banks (1980–2006). IOSR Journal of Business and Management, 16(1), 64–75. https://www.iosrjournals.org/iosr-jbm/papers/Vol16-issue1/Version-6/J016166475.pdf

9. Mulugeta, A. (2018). The effect of promotion strategies on deposit mobilization: The case of Commercial Bank of Ethiopia [Master's thesis, St. Mary's University]. http://repository.smuc.edu.et/bitstream/123456789/4085/1/ADMASS%20MULUGETA%20ASEFA%20SGS%200105%202008B%20JUNE%202018.pdf

10. Moltote, F. (2022). Effect of Prize Linked Saving on deposit growth: A case of Commercial Bank of Ethiopia [Master's thesis, St. Mary's University]. http://repository.smuc.edu.et/bitstream/123456789/7380/1/EFFECT%20OF%20PRIZE%20LINKED%20SAVING%20ON%20DEPOSIT%20GROWTH%20A%20CASE%20OF%20COMMERCIAL%20BANK%20OF%20ETHIOPIA%20by%20Fikirte%20Moltote.pdf.pdf

11. Gebrecherkos, A. (2021). The effect of promotion mix strategies on deposit mobilization of Commercial Bank of Ethiopia [Master's thesis, St. Mary's University]. http://repository.smuc.edu.et/bitstream/123456789/7347/1/Abeba%20Gebrecherkos%20ID%20SGS.0393.2011A.pdf

12. Mezgebu, M. (2021). Factors affecting the growth of saving customers in Commercial Bank of Ethiopia: The case of selected districts in Addis Ababa [Master's thesis, St. Mary's University]. http://repository.smuc.edu.et/bitstream/123456789/6667/1/Mahder%20Mezgebu%20Final%20paper.pdf

13. Sisay, B. (2021). Assessment of deposit mobilization practice: The case of NIB International Bank S.C. [Master's thesis, St. Mary's University]. http://repository.smuc.edu.et/bitstream/123456789/6270/1/BETELHEM%20SISAY%20FINAL%20THESIS.pdf

14. Kinfe, E. (2016). Effectiveness of deposit mobilization strategies in Lion International Bank S.C. (city branches) [Master's thesis, St. Mary's University]. http://repository.smuc.edu.et/bitstream/123456789/5378/1/ETALEM%20FINAL%20TESIS%201.pdf

15. *Tilahun, D. (2019). Challenges of deposit mobilization in Bunna International Bank S.C: A case study in Addis Ababa branches [Master's thesis, St. Mary's University]. http://repository.smuc.edu.et/bitstream/123456789/4791/1/DEMEKE%20TILAHUN%20pdf.pdf*

ОПИСАНИЕ КРАЙНЫХ ГИББСОВСКИХ МЕР ДЛЯ МОДЕЛИ ИЗИНГА С НЕНУЛЕВЫМ ВНЕШНИМ МАГНИТНЫМ ПОЛЕМ НА РЕШЕТКЕ БЕТЕ

Туракулова Ш.А.,
Институт ТМС город Ташкент
Суюнова Н.
Студентка институт ТМС

Annotatsiya. *Ikkinchi tartibli Keyley daraxtidagi raqobatdosh o'zaro ta'sirga ega Ising modeli uchun ikkinchi davr bilan davriy Gibbs taqsimotiga mos keladigan operator olinadi. Ushbu operatorning o'zgarmas kichik to'plamlari topiladi, ular yordamida davriy Gibbs taqsimotlari tavsiflanadi.*
Kalit so'zlar: *Keyley daraxti, konfiguratsiya, chegara Gibbs o'lchovi, davriy Gibbs o'lchovi.*

Abstract. *For the Ising model with competing interactions on the second-order Cayley tree, an operator corresponding to periodic Gibbs distributions with period two is obtained. Invariant subsets of this operator are found, using which periodic Gibbs distributions are described.*
Keywords: *Cayley tree, configuration, limit Gibbs measure, periodic Gibbs measure.*

Аннотация. *Для модели Изинга с конкурирующими взаимодействиями на дереве Кэли второго порядка получен оператор, соответствующий периодическими распределениям Гиббса с периодом два. Найдены инвариантные подмножества этого оператора, с применением которых описаны периодические гиббсовские распределения.*
Ключевые слова: *дерево Кэли, конфигурация, предельная мера Гиббса, периодическая мера Гиббса.*

Введение

Применение математики как орудия исследования физического мира, дает возможность получить ценный интеллектуальный опыт. С одной стороны, знание физических явлений подсказывает нам новые теоремы и пути их доказательств. С другой стороны, математическому миру новую структуру и смысл. Знание этой структуры и смысла и составляет понимание «природы вещей» настолько глубокое, насколько мы вообще можем надеяться его получить.

Понимание природы фазовых переходов остается одной из главных нерешенных проблем математической физики.

Пусть $T^{к} = (V, l, i)$, где V есть множество вершин $T^{к}$, L-его множество ребер и i-функция инцидентности, сопоставляющая каждому ребру $l \in L$ его концевые

точки $x, y \in V$ называемые соседними, и которые обозначался через <x,y>.

Расстояние d(x,y), $x, y \in V$, на решетке Бете определяется по формуле $d(x,y) = min\{d \ni x = x_0, x_1, \dots, x_{d-1}, x_d = y \in V$, такое, что пары ближайшие соседи$\}$.

Последовательность $\pi = \{x = x_0, x_1, \dots, x_{d-1}, x_d = y \in V\}$, реализующая указанный минимум, называется путем из x в y.

В модели Изинга с внешним полем на решетке Бете спиновые переменные σ(x), x $\in V$, принимают значения -1, 1 и гамильтониан имеет вид

$$H(\sigma) = -J \sum_{<x,y>} \sigma(x)\sigma(y) - \alpha \sum_{x \in V} \sigma(x),$$

где суммирование введется по всем парам ближайших соседей <x,y> и $J, \alpha \in R$.

Антиферромагнитная модель Изинга определяется этим гамильтонианом при J<0.

В работах С.А.Пирогова и Я.Г.Синая, посвященных изучению классических решетчатых систем на целочисленных решетках Z^d, d≥2, показано, что для ряда моделей полезно условие трансляционной инвариантности гамильтониана, гиббсовских состояний, конфигураций и тд., т.е. инвариантности относительно группы всех пространственных сдвигов Z^d, заменить на более слабое условие периодичности. т.е. инвариантности относительно некоторой полгруппы $\widetilde{Z^d} \in Z^d$ конечного индекса.

Целью данного параграфа является описание структуры периодических распределений Гибоса на решетке Бете, следуя работе.

Рассмотрим G_k, -свободное произведение k+1 циклических групп второго порядка с образующими $a_1, a_2, \dots, a_{k+1}$ соответотвенно.

Предложение 1. Существует взаимно-однозначное соответствие между множеством вершин у решетка Бете порядка k и группой G_k.

Структура графа на G_k определяется следующим образом: вершины, соответствующие словам $g, h \in G_k$, , называются ближайшими соседями и соединяются ребром, если либо $g = ha_i$, либо $h = ga_j$, для некоторого (i или j. Нетрудно убедиться, что определенный таким образом граф образует решетку Бете порядка k. На G_k структуру графа можно определить и другим образом: вершины, соответствующие словам $g, h \in G_k$,

называются ближайшими соседями и соединяются ребром, если либо $g = a_i h$, либо $h = a_j g$, для некоторого i или j. Решетка Бете, построенное первым (вторым) способом, называется правым (левым) представлением решетки Бете.

Рассмотрим на группе G_k следующие преобразования:

1) Преобразования левого (правого) сдвига, определяемые следующим образом: для $g_0 \in G_k$, положим

$$T_{g_0}(h) = g_0 h \quad \left[\widetilde{T_{g_0}}(h) = h g_0\right],$$
для любого $h \in G_k$

Совокупность всех левых (правых) сдвигов на G_k изоморфна группе G_k.

2) Пусть π-перестановка на множестве образующих $\{a_1, a_2, \dots, a_{k+1}\}$ группы G_k. Определим на G_k преобразование T_π следующим образом: каждому слову $a_{j_1} a_{j_2} \dots a_{j_n} \in G_k$ поставим соответствие слово $\pi(a_{j_1})\pi(a_{j_2}) \dots \pi(a_{j_n})$.

Преобразование сдвига 1) и T_π, нвляются взнимнооднозначни- ми отображениями с, на себя, но вообще говоря, не является автоморфизмами группы G_k

3) Преобразование G_k, определенное следующим образом: для $g_0 \in G_k$

$I_{\text{п}_0}(h) = g_0^{-1} h g_0$, для любого $h \in G_k$

называется внутренним автоморфизмом группы G_k.

Предложение 2. Группа левых (правых) сдвигов на правом (левом) представлении решетке Бете является группой трансляций решетки Бете.

Таким образом по аналогии с решеткой Z^d, группа трансляций на решетке Бете G_k изоморфна группе G_k.

Предложение 3. Подгруппа $\widetilde{G_k}$ группы G_k, состоящая из слов четной длины, является подгруппой индекса два.

Очевидно, что гамильтониан (I) и варианте относительно действия группы $\widetilde{G_k}$ т.е. периодичен. Поэтому мы будем искать периодические распределения периода 2.

В [7] при $\alpha = 0$ и $J \in R$ построены два периодических распределения Гиббса и несчетное число крайных непериодических распределения Гиббса.

В настоящей работе мы получаем аналогичные результаты при $\alpha \neq 0$.

Опишем общую структуру крайних распределений Гиббса для моделей рассматриваемых на решетке Бете. Если из решетке Бете


T^k удалить произвольное ребро $< x^0, x^1 > \in L$, то она разобьется на две компоненты-две полу бесконечные решетки Бете T_0^k и T_1^k.

Теорема 1. Для того, чтобы μ было периодическим крайним распределением Гиббса на решетке Бете, необходимо и достаточно, чтобы существовали периодические крайние распределения Гиббса μ_0, μ_1 (однозначно определяемые μ) на T_0^k, T_1^k, соответственно, такие что

$$\mu = Z^{-1}\mu_0\mu_1 \, exp\left\{\left(\frac{J}{T}\right)\sigma(x^0)\sigma(x^1)\right\}, \quad (1)$$

где Z>0 нормирующая константа.

Теорема I. сводит описание крайних распределения Гиббса на решетке Бете к полу бесконечной решетке T_0^k. Пусть V^0 есть множество вершин T_0^k и L^0 –ее множество ребер. На T_0^k имеется выделенная граничная вершина $x^0 \in V^0$, из который выходит k ребер.



множество

$$W_n = \{x \in V^0 | d(x^0, x) = n\}$$

Назовем n-ым этажом дерева T_0^k, Пусть

$$V_n = \{x \in V^0 | d(x^0, x\} \leq n$$

Есть «n-этажный дом».

На дерене T_0^k можно ввести частичное упорядочение, сказав, что

y>x, если существует путь $x = x_0, \dots x_n = y$ из x в y, "идущий вверх", т.е. такой, что $d(x_k, x^0) = d(x_{k-1}, x^0) + 1, k = 1,2, \dots, n$.
Множество вершин $V_x^0 = \{y \in V^0 | y \geq x\}$ и соединяющие их ребра образуют полу бесконечное дерево T_x^k, "растущее" из вершины $x \in V^0$.

Теорема 2. Пусть n>1. Для того, чтобы было крайним распределением Гиббса на T_0^k, необходимо достаточно, чтобы существовали крайние распределения Гиббса на T_x^k, $x \in W_n$ (однозначно определяемые μ), такие, что

$$\mu = Z_n^{-1}\, exp\{-(1/T)H_n(\sigma)\} \prod_{x \in W_n} \mu_x, \quad (2)$$

где

$$H_n(\sigma) = -J \sum_{<x,y>: x,y \in V_n} \sigma(x)\sigma(y) - \alpha \sum_{x \in V_n} \sigma(x),$$

Обозначим через $E = E(T_0^k)$ множество крайних распределений Гиббса на T_0^k и через $F = F(T_0^k)$- множество распределений Гиббса μ на T_0^k таких, что для всех $x \in V^0$ существуют распределения Гиббса μ_x на T_x^k и при любом $n \geq 0$ по справедливо факторизация (3). Класс F есть класс Марковских случайных полей решетке Бете ({2I,38,52}) и из теоремы 2 следует, что $E \in F$. Распределения Гиббса $\mu \in F$ обладает следующим простым, но важным свойством.

Теорема 3. Пусть $\mu \in F$ и $\{\mu_x, x \in V^0\}$ – соответствующие распределения Гиббса на $(T_x^k, x \in V^0)$. Тогда для любого $x \in V^0$, $\mu_x \in F(T_x^k)$ и соответствующие распределения Гиббса, обеспечивающие свойства факторизации (2) есть $\{\mu_y, y \geq x\}$.

Пусть μ распределение Гиббса на T_0^k и $\{\mu_x, x \in V^0\}$ – соответствующие μ и распределения Гиббса на $T_x^k, x \in V^0$.

Рассмотрим распределение $\mu_x(\sigma(x))$ спина $\sigma(x) = \pm 1$ относительно μ_x и запишем его в виде

$$\mu_x(\sigma(x)) = Z_1^{-1} \exp(h_x \sigma(x)),$$
если $x \in W_{2n}, n = 0,1,2 \dots$

$$\mu_x(\sigma(x)) = Z_2^{-1} \exp\left(\acute{h_x}\sigma(x)\right),$$
если $x \in W_{2n+1}, n = 0,1,2 \dots$

где $h_x, \acute{h_x} \in R$ и

$$Z_1 = \exp(h_x) + \exp(-h_x),$$

$$Z_2 = \exp(\acute{h_x}) + \exp(-\acute{h}_x),$$

Из (4) ясно, что

$$\frac{\mu_x(\sigma(x) = 1)}{\mu_x(\sigma(x) = -1)} = \exp(2h_x), \text{если } x \in W_{2n}, n = 0,1, \dots,$$

$$\frac{\mu_x(\sigma(x)=1)}{\mu_x(\sigma(x)=-1)} = \exp\left(2\acute{h_x}\right), \text{если } x \in W_{2n+1}, n = 0,1,\ldots,$$

Таким образом, с каждым распределением Гиббса μ мы можем связать совокупность величин $\{h_x, x \in U_n W_{2n}\}$ и $\left\{\acute{h_x},\ x \in U_n W_{2n+1}\right\}$

Для описание $\widetilde{G_k}$ – периодических мер, предположим

$$h_x = \begin{cases} h, \text{если } x \in U_n W_{2n} \\ \acute{h}, \text{если } x \in U_n W_{2n+1} \end{cases}$$

Тогда описание периодических мер, сводится к описание неподвижных точек отображение (см. {2,4I})

$$\begin{cases} \tilde{h} = \dfrac{\alpha}{T} + kf(\acute{h}: 0) \\ \tilde{\acute{h}} = \dfrac{\alpha}{T} + kf(h: 0) \end{cases} \qquad (2.I.6)$$

где $\theta = th\left(\frac{J}{T}\right), f(x;0) = arcth(\theta thx)$.

В этом стати, используя методб основанный на теории марковских случайных ролей и реккурентных уравнений этой теории, дается анализ предельных гиббсовских мер модели Изинга с ненулевым внешным магнитным полем на решетке Бете, которые в нашем случае окажутся трансляционно – инвариантными или периодическими. Также исследуюстя некоторые классы непериодических предельных гиббсовских мер.

Список использованной литературы:

1. Абдулла-Заде Ф.Г., Минлос Р.А., Погосян С.К. Кластерные оценки для гиббсовских случайных полей и некоторые их применения. -В об. Многокомпонентные случайные системы. М.Наука, 1978, с.5-30.

2. Блехер П.М., Ганиходжаев Н.Н. О чистых фазах модели Изинга на решетке Бете// Теории вероят, и ее примен..., 1990. т.35. вып.2.-с. 920-930 .

5. Бекстер Р. Точно решаемые модели в статистической физике. М. :Мир, 1985.-486 с.

4. Ганиходжаев Н.Н. О чистых фазах ферро магнитной модели Поттса с тремя состояниями на решетке Бете второго порядка// Теоретическая и математическая физика, 1990. т.85, № 2. -с. 163-175 .

5. Ганиходжаев Н.Н. Групповое представление и автоморфизмы дерева Кэли// Доклады АН РУз, 1934, 4, с.3-5.

6. Ганикоджаев Н.Н., Розиков У.А. О крайних гиббсовских распределениях модели Изинга с конкурирующими взаимно-действиями.// УзМЖ, 1995. 2, -с.36-47.

7. Ганиходжаев Н.Н.Розиков У.А. О периодических гибосовских распределениях модели Изинга ва решетке Бете // Узмк, 1995, J 4, -с. 8-I8.

8. Ганиходжаев Н.Н. Розиков У.А. Описание периодических крайних гиббсовских мер некоторых моделей на дереве Кэли// Теор. матем. физика 1997. Т. 111. с. I09-II7.

9. Yang C.N., Lee T.D. Statistical theory of equations of state and phase transitions // Phys. Rev. , 1962. v. 87, p. 404-409 .

10. Wu F. Y. The Potts model // Rev... Mod. Pya. 1982. v. 54. p. 235-268 .

11. Назаров Х.А. трансляционно- инвариантных распредаленина Гиббса модели Изинга о несколькими значениями спина на решетке Бете // International conference on topics of mathematics October 13-17, 1996 Samarkand, p.

12. Назаров Х.А. О предельных гиббсовских мерах модели Поттса с конкурирующими взаимодействиями на решетке Бете // Узбекистон Республикаси Мустикиллигиниг 5 йиллагига багишланган I-коллоквууми материаллари. Тошкент 1997, 14-16 бетлар.

13.Назаров Х.А. трансляционно-инвариантных чистых фазах модели Поттса с конкурирующини взаимодействинми на решетке Бете // ДАН РУз. 1990, № 1, стр. 16-18.

14. Назаров Х.А. периодических гиббсовских распределениях модели Изинга с ненулевыми внешними магнитными полими на решетке Бете// Уз 1990, 2, стр. 52-50.

ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: TENDENSIYALAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLARI

Ulashov A.E.
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O'zbekistonning oliy ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi jarayoni tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, zamonaviy o'quv dasturlaridagi raqamli o'zgarishlar va ularning samaradorligi o'rganilgan. Tadqiqotda raqamli savodxonlikni oshirish, masofaviy ta'limni rivojlantirish, elektron darsliklar va interaktiv materiallarning muhimligi haqida gapiriladi. O'zbekistonning raqamli transformatsiyaga oid yuridik asoslari hamda xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim sohasidagi raqamli texnologiyalarning mavjud salbiy tomonlari, texnik infratuzilmaning etishmasligi va raqamli materiallarning yetarli emasligi muammolari ko'rib chiqiladi. Yangi takliflar va strategiyalar orqali Oliy ta'lim tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish maqsad qilingan.*

Kalit so'zlar: *raqamli transformatsiya, ta'lim tizimi, raqamli ta'lim, LMS (Learning Management System), raqamli savodxonlik, masofaviy ta'lim, elektron darsliklar, ta'lim texnologiyalari, o'quv dasturlari, Oliy ta'lim, raqamli infrastrukturani rivojlantirish, xalqaro tajriba, interaktiv materiallar, texnik infratuzilma, onlayn ta'lim, raqamli platformalar.*

Abstract. *This article analyzes the process of digital transformation in the higher education system of Uzbekistan. It explores the integration of digital technologies into the education system, digital changes in modern curricula, and their effectiveness. The research focuses on increasing digital literacy, the development of distance learning, and the importance of electronic textbooks and interactive materials. Legal foundations of digital transformation in Uzbekistan and international experiences are also discussed. Furthermore, the article addresses existing problems such as insufficient technical infrastructure and the lack of digital materials. New strategies and recommendations are proposed to accelerate the digitization of the higher education system.*

Keywords: *digital transformation, education system, digital education, LMS (Learning Management System), digital literacy, distance learning, electronic textbooks, educational technologies, curricula, higher education, digital infrastructure development, international experience, interactive materials, technical infrastructure, online education, digital platforms.*

Аннотация. *В данной статье анализируется процесс цифровой трансформации системы высшего образования Узбекистана. Рассматривается интеграция цифровых технологий в систему образования, цифровые изменения в современных учебных программах и их эффективность. Исследование затрагивает повышение цифровой грамотности, развитие дистанционного обучения, важность электронных учебников и интерактивных материалов. Также анализируются юридические основы цифровой трансформации в Узбекистане и международный опыт. В статье рассматриваются*

существующие проблемы, такие как недостаточность технической инфраструктуры и недостаток цифровых материалов. Предлагаются новые стратегии и рекомендации для ускорения процесса цифровизации в системе высшего образования.

Ключевые слова: *цифровая трансформация, система образования, цифровое образование, LMS (система управления обучением), цифровая грамотность, дистанционное обучение, электронные учебники, образовательные технологии, учебные программы, высшее образование, развитие цифровой инфраструктуры, международный опыт, интерактивные материалы, техническая инфраструктура, онлайн-образование, цифровые платформы.*

Kirish

So‘nggi yillarda globallashuv, raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim sohasiga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Jahon tajribasidan ma’lumki, ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi nafaqat o‘quv jarayonini interaktiv va qulay shaklga olib keladi, balki ta’lim sifatini oshirish, pedagogik yondashuvlarni yangilash, talaba va o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi pandemiya davrida o‘zini ayniqsa yaqqol namoyon etdi. 2020–2021 yillarda butun dunyo bo‘ylab oliy ta’lim muassasalari onlayn va masofaviy o‘qitish shakllariga o‘tishga majbur bo‘ldi. Bu holat o‘z navbatida mavjud infratuzilma, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi va metodik tayyorgarlik darajasi bilan bog‘liq muammolarni ochib berdi. O‘zbekiston ham bu jarayonlardan mustasno bo‘lmadi. So‘nggi yillarda respublika miqyosida ta’limni raqamlashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, “Elektron universitet” konsepsiyasi, “Online darslar” platformalari bu boradagi muhim tashabbuslardandir. Shu bilan birga, mamlakatimizda raqamli ta’lim infratuzilmasi hali ham to‘liq shakllanmagan, barcha oliy ta’lim muassasalarida yagona standartlar asosida masofaviy ta’lim tashkil etilmagan, ko‘plab o‘qituvchilar raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha yetarlicha tayyor emas. Bu esa raqamli transformatsiya jarayonining tizimli, bosqichma-bosqich yondashuv asosida amalga oshirilishini taqozo etadi.

Mavzuning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlovchi omil – bu yosh avlodning axborot texnologiyalariga yuqori qiziqishi, ularning o‘quv jarayoniga interaktiv, moslashuvchan, multimediaviy kontentlar orqali yondashuvga ehtiyoji kuchayib borayotganidir. Talabalar nafaqat bilim olish, balki uni izlash, baholash, o‘rganish va taqdim etishda ham

zamonaviy raqamli vositalardan foydalanishga intilmoqda.

Mazkur maqola aynan ta'lim tizimidagi raqamli transformatsiyaning konseptual asoslari, milliy ta'lim tizimidagi joriy holat, mavjud muammolar, ilg'or xorijiy tajribalar va kelgusidagi istiqbolli yo'nalishlarni o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – raqamli transformatsiya jarayonini chuqur tahlil qilish, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni samarali joriy etishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqishdan iborat[1-10].

Raqamli transformatsiya tushunchasi ilk bor ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida qo'llanila boshlagan bo'lsa-da, hozirda bu jarayon ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalariga, xususan, ta'lim tizimiga chuqur kirib bormoqda. Ta'limdagi raqamli transformatsiya deganda nafaqat texnik vositalarning joriy etilishi, balki ta'limning mazmuni, metodikasi, boshqaruvi va baholash tizimining raqamli texnologiyalar asosida yangilanishi tushuniladi.

Jahon banki (World Bank, 2020) raqamli transformatsiyani rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lim sifatini oshirishning asosiy vositasi sifatida ko'radi. Uning hisob-kitoblariga ko'ra, raqamli vositalar ta'limda inklyuzivlikni kuchaytiradi, shaxsiylashtirilgan yondashuvga yo'l ochadi va ta'lim resurslariga teng kirishni ta'minlaydi. OECD (2021) ma'lumotlariga ko'ra, raqamli savodxonlik XXI asrning eng muhim kompetensiyalaridan biri bo'lib, uni rivojlantirish oliy ta'lim vazifalariga aylangan[5].

UNESCO (2022) tomonidan ishlab chiqilgan "Raqamli ta'lim strategiyasi"da har bir mamlakat ta'lim tizimida quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlanadi:

- raqamli infratuzilmani mustahkamlash,
- pedagoglar malakasini oshirish,
- o'quvchilar uchun mos va interaktiv kontent ishlab chiqish,
- muvofiqlashtirilgan boshqaruv tizimi yaratish[3].

Finlyandiya ta'lim tizimi dunyodagi eng ilg'orlaridan biri bo'lib, bu yerda raqamli texnologiyalar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, kreativligi va muloqot ko'nikmalari rivojlantiriladi. Har bir o'quvchi individual rivojlanish yo'nalishiga ega bo'lib, "Bring Your Own Device" siyosati asosida raqamli vositalardan foydalanadi.

Janubiy Koreyada raqamli transformatsiya davlat strategiyasi darajasida olib boriladi. "Smart Education Strategy" asosida barcha maktablar raqamli texnologiyalar bilan jihozlangan, o'quvchilarning baholash tizimi to'liq elektron shaklga o'tkazilgan.

Estoniyada esa ta’lim sohasidagi raqamlashtirish siyosati “e-Estonia” konsepsiyasi doirasida amalga oshiriladi. Bu mamlakatda maktabdan tortib oliy ta’limgacha barcha bosqichlarda elektron darsliklar, onlayn testlar va masofaviy kurslar faol qo‘llaniladi.

O‘zbekistonda raqamli transformatsiya so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ta’lim sohasini raqamlashtirish alohida bandda ko‘zda tutilgan bo‘lib, unda quyidagilar belgilangan:

- Elektron universitet va maktab konsepsiyalarini joriy etish,
- Masofaviy ta’lim platformalarini yaratish va takomillashtirish,
- Pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish.

Prezident qarori (PQ–187-son, 2021-yil 26-yanvar) bilan “Oliy ta’limda masofaviy o‘qitish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari” tasdiqlandi. Unga ko‘ra, 2023-yilgacha barcha OTMlar elektron ta’lim tizimiga o‘tish, LMS (Learning Management System) tizimlarini joriy etish lozim edi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan normativ hujjatlar, jumladan, “Elektron ta’lim kontenti yaratish tartibi” bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar (2022) muhim manbalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston ilmiy jamoatchiligi ham raqamli ta’limga oid ko‘plab tadqiqotlarni olib bormoqda. Jumladan:

- A. Qodirov (2022) masofaviy o‘qitishning didaktik imkoniyatlari va cheklovlarini tahlil qilgan;
- M. Karimov (2021) elektron ta’lim resurslarining samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqqan;
- G. Xolmatova (2023) esa oliy ta’limda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha kompleks yondashuvlarni taklif qilgan.

Ushbu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli transformatsiya bo‘yicha ilmiy manbalar yetarli bo‘lsa-da, ularni amaliyotga tatbiq etish, tizimlashtirish va o‘zaro integratsiyalash bo‘yicha hali ko‘plab ishlar qilish zarur.

Materiallar va metodlar

Mazkur tadqiqotda zamonaviy ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasini o‘rganishda kompleks yondashuv asosida ilmiy-tahliliy metodlar qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy va amaliy bazasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, xalqaro tashkilotlarning statistik ma’lumotlari, ilg‘or xorijiy davlatlarning tajribalari hamda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarining faoliyati tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida quyidagi turdagi ma’lumotlar asos qilib olindi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezident qarorlari (PQ-187, PQ-4883, PQ-4699),
- “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi,
- Ta’lim vazirligi statistik hisobotlari (2020–2024),
- 15 ta OTMdagi raqamli infratuzilma va masofaviy ta’lim tizimining amaldagi holati bo‘yicha so‘rovnomalar,
- Talaba va o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovlar (N=250),
- UNESCO, OECD, World Bank kabi tashkilotlar hisobotlari.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo‘llanildi:

- **Taqqoslama tahlil**: O‘zbekiston va ilg‘or xorijiy mamlakatlardagi raqamli ta’lim strategiyalarining o‘zaro solishtirilishi.
- **Kontent-analiz**: Raqamli ta’limga oid me’yoriy hujjatlar va ilmiy maqolalarning mavzular bo‘yicha kodlanishi va tahlili.
- **Statistik tahlil**: 15 ta OTMda o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalarining Microsoft Excel va SPSS dasturlari orqali statistik qayta ishlanishi.
- **Grafik vizualizatsiya**: Diagramma va grafiklar orqali natijalarni ko‘rgazmali taqdim etish.
- **SWOT-analiz**: Oliy ta’limda raqamli transformatsiyaning kuchli, zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini aniqlash.

So‘rovnoma shakli va tahlil parametrlari

So‘rovnoma ikki asosiy guruh – OTM o‘qituvchilari (N=100) va talabalari (N=150) o‘rtasida onlayn tarzda Google Forms orqali o‘tkazildi. Savollar quyidagi yo‘nalishlarda tuzildi:

- raqamli platformalardan foydalanish chastotasi,
- onlayn darslarning samaradorlik darajasi,
- raqamli infratuzilma (kompyuter, internet, LMS tizimlar) bilan ta’minlanganlik,
- raqamli savodxonlik bo‘yicha o‘zini baholash,
- raqamli o‘quv kontent sifati va unga kirish imkoniyati.

Quyidagi diagrammada respondentlarning LMS (Learning Management System) tizimlaridan foydalanish darajasi ko‘rsatilgan:

1-jadval. Respondentlarning LMS tizimlaridan foydalanish chastotasi

Foydalanish darajasi	Talabalar (%)	O‘qituvchilar (%)
Har kuni	48	55
Haftada bir necha marta	32	30
Juda kam (oyda 1–2 marta)	12	10
Foydalanmaydi	8	5

(Manba: So‘rovnoma natijalari, 2024-yil)

Tadqiqot chegaralari

Mazkur tadqiqotda faqatgina oliy ta’lim tizimiga oid raqamli transformatsiya jarayonlari o‘rganilgan bo‘lib, maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim bosqichlari ko‘zda tutilmagan. Shuningdek, tahlil faqat ayrim OTMlar misolida olib borilgan bo‘lib, bu holat umumlashtirishda muayyan cheklovlarga olib kelishi mumkin.

Tahlil va natijalar

Raqamli transformatsiya jarayoni O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida tobora faol rivojlanmoqda. Ushbu bo‘limda ta’limdagi raqamlashtirishning hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni yechish yo‘llari asosiy e’tiborga olinadi.

Oliy ta’lim muassasalarida raqamli infratuzilma holati

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning 68% qismi ta’lim muassasasida raqamli infratuzilma qisman mavjudligini bildirgan, 20% to‘liq mavjud deb hisoblaydi, qolgan 12% esa raqamli infratuzilma mavjud emasligini ta’kidlagan.

LMS tizimlaridan foydalanish darajasi

LMS (Learning Management System) platformalari – zamonaviy ta’limni raqamlashtirishdagi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. So‘rovnomada qatnashgan o‘qituvchilarning 85%i Moodle, Google Classroom yoki ZiyoNET kabi platformalardan foydalanishini bildirgan. Talabalarning esa faqat 58%i ushbu tizimlar orqali muntazam ishlaydi.

2-jadval. O‘qituvchi va talabalar orasida LMS tizimlaridan foydalanish chastotasi

Foydalanish chastotasi	O‘qituvchilar (%)	Talabalar (%)
Har kuni	55	48
Haftada bir necha marta	30	32
Kamdan-kam	10	12
Foydalanmaydi	5	8

(Manba: Tadqiqot natijalari, 2024-yil)

Raqamli savodxonlik darajasi

Raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatli kechishi ta'lim ishtirokchilarining raqamli savodxonligiga bog'liq. Quyidagi diagramma talaba va o'qituvchilarning o'zini baholash asosida raqamli savodxonlik darajasini ko'rsatadi.

O'zlashtirish darajasiga raqamli ta'limning ta'siri

Masofaviy va onlayn darslar ta'lim sifati va o'zlashtirish darajasiga qanday ta'sir qilayotganini aniqlash maqsadida talabalardan baho va umumiy fikrlari so'raldi. Natijalarga ko'ra, o'zlashtirish darajasi raqamli vositalar orqali o'rganganlarda o'rtacha 15–20% ga yuqoriligi aniqlangan. Shuningdek, vaqt va joydan mustaqillik, darslar yozib olinib saqlanishi va qulay baholash mexanizmi ijobiy jihatlar sifatida ko'rsatilgan.

3-jadval. Masofaviy va an'anaviy ta'limning o'zlashtirish darajalari taqqoslamasi

Ta'lim shakli	O'rtacha baho (5 ballik)
An'anaviy dars	3.6
Masofaviy dars	4.2

(Manba: So'rovnoma asosidagi natijalar, 2024-yil, 150 talaba ma'lumotlari asosida)

4.5. SWOT tahlil (raqamli transformatsiyaning imkoniyat va muammolari)

Quyida oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiyaning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda tahdidlari keltirilgan:

1-sxema. SWOT-tahlil

Kuchli tomonlar	**Zaif tomonlar**
- Moslashuvchanlik	- Internet sifati va barqarorligi
- Talabalik erkinligi	- Texnik vositalar yetishmasligi
- O'qituvchining yuklamasi pasayishi	- Pedagoglarning raqamli savodxonligi pastligi
Imkoniyatlar	**Tahdidlar**
- Global platformalar bilan integratsiya	- Kiberxavfsizlik muammolari
- Yangi kasblarga mos kadrlar tayyorlash	- Tashkiliy-psixologik qarshiliklar

(Manba: muallif tahlili asosida, 2024)

Asosiy muammolar

Tahlil natijasida quyidagi asosiy muammolar ajratib olindi:

1. Ko'plab OTMlarda texnik infratuzilmaning yetishmasligi;

2. LMS tizimlarining standartlashmaganligi va o‘quv jarayoniga to‘liq integratsiya qilinmaganligi;
3. Raqamli savodxonlik darajasining notekisligi;
4. Elektron ta’lim kontentining sifati va dolzarbligiga oid muammolar;
5. Uzoq hududlarda internet tezligi va barqarorligining pastligi.

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Ammo bu jarayon hali to‘laqonli va tizimli tus olgan emas. Quyidagi asosiy xulosalarni keltirib o‘tamiz:

Raqamli infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan. Ayrim oliy ta’lim muassasalarida kompyuterlar, serverlar, zamonaviy LMS tizimlari mavjud bo‘lsa-da, ularning soni va sifati ta’lim jarayonini to‘liq raqamlashtirish uchun yetarli emas.

Raqamli savodxonlik darajasi talabalarda nisbatan yuqori bo‘lsa-da, ko‘plab o‘qituvchilarda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari sust. Bu esa ta’lim samaradorligini pasaytiradi.

Ta’lim kontenti (elektron darsliklar, video darslar, interaktiv vazifalar) hali hamon yetarli emas. Mavjud materiallar esa ko‘p hollarda yangilanmagan yoki bir xil formatda taqdim etilgan.

Masofaviy ta’limning samaradorligi o‘rganilgan vaqtda ayrim talabalarda o‘zlashtirish darajasi oshgan bo‘lsa-da, bu holat barcha fan va guruhlar uchun umumlashtirib bo‘lmaydi. Texnik imkoniyatlar bu yerda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Xavfsizlik va maxfiylik muammolari – raqamli transformatsiyaning eng dolzarb tahdidlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, platformalarning barqaror ishlashi va uzluksiz xizmat ko‘rsatishi talab etiladi.

Raqamli transformatsiya jarayonini jadallashtirish va uni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish uchun quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

Oliy ta’lim muassasalarida yagona raqamli platformani joriy etish – har bir OTM o‘zining alohida LMS tizimiga ega emas, bu esa ta’limda fragmentatsiyaga olib kelmoqda. Yagona platforma (masalan, ZiyoLMS) joriy qilinib, barcha tizimlar u bilan integratsiyalashuvi kerak.

O‘qituvchilar uchun doimiy raqamli malaka oshirish kurslarini tashkil etish – ayniqsa, texnika va ITdan yiroq yo‘nalishdagi mutaxassislar uchun maxsus modullarda o‘quv dasturlari ishlab chiqilishi lozim.

Raqamli kontent ishlab chiqaruvchi milliy platformani yaratish – elektron darsliklar, testlar, interaktiv topshiriqlar, videodarslar

uchun yagona markaz tashkil etilishi zarur.

Uzoq hududlardagi OTMlarga maxsus internet infratuzilmasi ajratish – hukumat va xususiy sektor hamkorligida talab yuqori bo‘lgan joylarda optik tolali internet tarmoqlari yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish – barcha OTMlarda antivirus, autentifikatsiya tizimlari, foydalanuvchilar huquqini himoya qiluvchi mexanizmlar joriy etilishi kerak.

Raqamli texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini monitoring qilish – o‘qituvchi va talaba faoliyatini tahlil qiluvchi raqamli analitika tizimlari (learning analytics) joriy etilishi ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Davlat dasturlarini ilmiy-analitik asosda ishlab chiqish – “Raqamli O‘zbekiston – 2030” doirasidagi oliy ta’limga oid strategiyalar xalqaro tajriba asosida muntazam ravishda yangilanib borilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-dekabrdagi **PQ-4699-son** “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan strategiya” hujjati. (https://www.lex.uz)*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-martdagi **PQ-4883-son** “Oliy ta’limni raqamlashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori. (https://www.lex.uz)*
3. *UNESCO (2021). **The Future of Education: Rethinking the Role of Digital Technologies in Education**. UNESCO Report. (https://www.unesco.org/en/digital-learning)*
4. *OECD (2020). **Digital Transformation in Higher Education: A Global Perspective**. OECD Education Working Papers, No. 231. (https://doi.org/10.1787/2f8f2b8e-en)*
5. *World Bank (2021). **The Impact of Digital Education in Emerging Economies**. World Bank Education Report. (https://www.worldbank.org/en/education)*
6. *Isroilov, N., & Akhmedov, T. (2022). **Modern Education System in Uzbekistan: Digitalization and Challenges**. Journal of Education and Technology, 15(3), 34-56.*
7. *Sharipov, A. (2023). **Digital Transformation in the Education Sector: Current Trends and Future Prospects**. International Journal of Education and Development, 8(1), 15-25.*
8. *Sultonov, M. (2022). **Oliy Ta'lim Tizimida Raqamli Infratuzilmaning Rivojlanishi**. Ta'lim Innovatsiyalari, 17(4), 78-90.*
9. *Shirinova, R. (2020). **Raqamli Ta'lim: Yangi Fursatlar va Qiyinchiliklar**. Ta'lim va Jamiyat, 19(2), 22-35.*
10. *Tashkent State University of Economics (2024). **Digital Education Development in Uzbekistan: A Case Study**. Unpublished manuscript.*

O‘ZBEKISTONDA TA’LIMNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI VA SUN’IY INTELLEKT

Radjabov B.A.
TDIU, Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar kafedrasi dotsenti v.v.b., PhD

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda O‘zbekistondagi ta’lim tizimini raqamli transformatsiya qilish jarayoni va u bilan bog‘liq muammolar muhokama qilinadi. Xususan, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy sharoitda sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etishning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, elektron adaptiv ta’lim konsepsiyasi, jumladan, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashadigan intellektual ta’lim platformalari haqida so‘z boradi. Raqamli muhitda ta’limni innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish imkoniyatlari va zamonaviy tendensiyalar sanab o‘tiladi. Adaptiv raqamli muhit nafaqat bilim olish jarayonini yengillashtirishi, balki talabalar kasbiy kompetensiyalari va qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynashi ta’kidlanadi.*

Bundan tashqari, sun’iy intellekt yordamida ta’limda inklyuzivlik va tenglikni ta’minlash imkoniyatlari ham ko‘rib chiqiladi. Yakunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son qaroriga 1-ilova “Sun’iy intellekt texnologiyalarini sun’iy intellektni rivojlantirish bo‘yicha 2030-yilgacha ishlab chiqilgan Milliy Strategiya” doirasida ta’lim sohasida ushbu texnologiyalardan foydalanish istiqbollari tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: *raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, elektron ta’lim, adaptiv intellektual platforma, mobil ta’lim, inklyuziv ta’lim.*

Abstract. *This study examines the process of digital transformation in Uzbekistan’s education system and the challenges associated with it. In particular, it analyzes ways to improve the quality and efficiency of education through the use of artificial intelligence technologies. The study also explores the specific aspects of integrating artificial intelligence technologies into the educational process in modern conditions. Additionally, the concept of electronic adaptive learning is discussed, including intelligent learning platforms that adjust to students’ individual needs. The opportunities for developing education in a digital environment through innovative approaches and modern trends are outlined. It is emphasized that an adaptive digital environment not only facilitates the learning process but also plays a crucial role in shaping students’ professional competencies and values. Furthermore, the potential for ensuring inclusivity and equality in education through artificial intelligence is considered. Finally, an analysis is conducted on the prospects of using these technologies in education under the "National Strategy for the Development of Artificial Intelligence until 2030," as outlined in Appendix 1 of the Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan No. PQ-358, dated October 14, 2024.*

Keywords: *digital transformation, artificial intelligence, e-learning, adaptive intelligence platform, mobile learning, inclusive education.*

Аннотация. *В данном исследовании рассматривается процесс цифровой трансформации системы образования в Узбекистане и связанные с ним проблемы. В частности, анализируются пути повышения качества и эффективности образования с использованием технологий искусственного интеллекта. Рассматриваются особенности внедрения технологий искусственного интеллекта в образовательный процесс в современных условиях. Кроме того, обсуждается концепция электронного адаптивного обучения, включая интеллектуальные образовательные платформы, адаптирующиеся к индивидуальным потребностям учащихся. Перечисляются возможности развития образования в цифровой среде на основе инновационных подходов и современные тенденции. Подчеркивается, что адаптивная цифровая среда не только упрощает процесс обучения, но и играет важную роль в формировании профессиональных компетенций и ценностей студентов. Также рассматриваются возможности обеспечения инклюзивности и равенства в образовании с помощью искусственного интеллекта. В заключение проводится анализ перспектив использования этих технологий в сфере образования в рамках «Национальной стратегии развития искусственного интеллекта до 2030 года» согласно Приложению 1 к Постановлению Президента Республики Узбекистан № PQ-358 от 14 октября 2024 года.*

Ключевые слова: *цифровая трансформация, искусственный интеллект, электронное обучение, адаптивная интеллектуальная платформа, мобильное обучение, инклюзивное образование.*

Kirish

Raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyat bugungi davrning muhim global tendensiyalaridan biri bo‘lib, ta’lim tizimini yangi sharoitlarga moslashtirish va modernizatsiya qilishni talab qiladi. Ta’limning asosiy maqsadi – insonlarni raqamli jamiyat va iqtisodiyot sharoitida yashash va ishlashga tayyorlashdir. [6]

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va zamonaviy raqamli ta’lim tizimini yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Raqamli transformatsiyaning asosiy maqsadi – zamonaviy talab va ehtiyojlarga javob beradigan samarali ta’lim tizimini shakllantirish hamda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishdir.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutayotgan raqamli texnologiyalarga quyidagilar kiradi: zamonaviy aloqa tarmoqlarini yaratishga xizmat qiluvchi telekommunikatsiya texnologiyalari, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlarni (Big Data) qayta ishlash tizimlari, virtual va kengaytirilgan reallik, bulutli texnologiyalar, narsalar interneti (IoT), blokcheyn texnologiyalari va boshqa innovatsiyalar.

Ta’lim jarayonida shaxsiy yondashuvni rivojlantirish va amaliy bilim berishga ko‘proq e’tibor qaratish ehtiyoji yangi o‘quv metodlarini joriy etishga undamoqda. Hozirgi kunda

adaptiv tizimlar, aralash ta’lim (blended learning), keys-stadi, mobil ta’lim, gamifikatsiya (o‘yin elementlari asosida o‘qitish), loyihaviy faoliyat kabi usullar tobora keng tarqalib, ta’lim tizimini o‘zgartirmoqda. [7]

Biroq, yangi raqamli ta’lim texnologiyalarining samaradorligini oshirish uchun aniq va ishonchli mezonlarni ishlab chiqish muhimdir. Ushbu mezonlar o‘quv jarayonini yanada tushunarli va samarali qilishga yordam berib, ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi lozim.

Asosiy qism

Hozirgi kunda elektron ta’lim – ya’ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali o‘qitish – juda keng tarqalmoqda. Zamonaviy tendensiyalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ta’lim jarayonining shaxsiylashtirilishi global o‘zgarishlarga sabab bo‘layotganini ko‘rish mumkin. Buning sababi oddiy: har bir inson o‘zining shaxsiy ehtiyojlariga mos keladigan, qulay va samarali ta’lim olishni istaydi. Ayniqsa, texnologiyalar rivojlanayotgan davrda odamlar bilim va ko‘nikmalarni o‘zlariga mos yo‘l bilan egallashga intilmoqda.

Zamonaviy ta’limda bir qator muhim tendensiyalar mavjud. Masalan, internetda juda ko‘p o‘quv materiallari mavjudligi, ta’lim kontentining batafsil ishlab chiqilishi va ma’lumotlarning bir-biri bilan bog‘lanishi shaxsiylashtirilgan o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ayniqsa, adaptiv ta’lim – ya’ni sun’iy intellekt yordamida har bir o‘quvchining ehtiyojlariga mos ravishda moslashuvchi ta’lim usuli – katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu tizim o‘quvchining bilim darajasi va qiziqishlarini inobatga olgan holda, unga eng mos o‘quv materiallarini tavsiya qiladi.

Bugungi kunda bunday tizimlar Big Data, Data Mining, Learning Analytics kabi ilg‘or texnologiyalar bilan birgalikda ishlaydi. Ta’lim jarayonida katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyati o‘quvchilarga yanada sifatli ta’lim olishga yordam beradi.

O‘zbekistonda ta’limda sun’iy intellekt qo‘llanayotgan misollardan biri bu "Edu Market" platformasidir. Ushbu platforma sun’iy intellekt asosida ishlaydigan adaptiv ta’lim tizimini joriy qilgan bo‘lib, o‘quvchilarning bilim darajasini avtomatik baholaydi va ularga mos o‘quv materiallarini tavsiya qiladi.

Shuningdek, 2023-yilda Toshkent shahridagi Inha universiteti AI Tutor nomli sun’iy intellekt yordamida ishlaydigan o‘qitish tizimini sinovdan o‘tkazdi. Ushbu tizim o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini tahlil qilib, ularning bilimidagi bo‘shliqlarni aniqlaydi va shaxsiylashtirilgan topshiriqlarni taklif etadi.

Bundan tashqari, ZiyoNET ta’lim portali ham sun’iy intellekt vositalarini joriy qilish ustida ishlamoqda. Bu tizim o‘quvchilarning qiziqishlari va bilim

darajasiga mos tarzda individual o‘quv dasturlarini shakllantirishni maqsad qilgan.

O‘zbekistonda ta’limda sun’iy intellekt qo‘llanayotgan yana bir misol – "myEdutor" platformasidir. Ushbu tizim IT Park va O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi hamkorligida ishlab chiqilgan bo‘lib, sun’iy intellekt asosida ishlaydigan shaxsiy o‘quv yordamchisi vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Milliy universitetida sun’iy intellekt asosida ishlaydigan "Intellektual matematik analiz tizimi" sinovdan o‘tkazilmoqda. Ushbu tizim talabalar tomonidan kiritilgan matematik formulalar va yechimlarni avtomatik baholaydi, tahlil qiladi va xatolarni ko‘rsatib beradi.

Toshkent shahridagi IT ta’lim muassasalari ham sun’iy intellektdan faol foydalanmoqda. Masalan, "Najot Ta'lim" va "Mohirdev" ta’lim markazlari o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonini tahlil qiladigan va ularga mos kurslarni tavsiya qiladigan AI algoritmlarini joriy qilgan. O‘zbekistonda sun’iy intellekt yordamida masofaviy ta’lim, individual o‘quv dasturlari va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari yanada rivojlanishi kutilmoqda.

Kelajakda sun’iy intellekt ta’lim tizimida yanada kengroq qo‘llanilishi kutilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sun’iy intellektni rivojlantirish bo‘yicha 2030-yilgacha Milliy strategiya" doirasida ta’lim sohasida AI texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari belgilab berilgan. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim raqamli transformatsiya jarayonida katta o‘zgarishlarga yuz tutmoqda. Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar yordamida har bir inson o‘ziga mos o‘quv jarayonini shakllantirishi, sifatli bilim olishi va o‘z kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Bu esa ta’limning yanada samarali va qiziqarli bo‘lishiga olib keladi.

2022/2023 o‘quv yilidan “Sun’iy intellekt” yo‘nalishida kadrlar tayyorlash bo‘yicha jami 6 ta oliy ta’lim muassasalarida 245 ta kvota ajratildi. Shuningdek, alohida “Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt” doktorantura yo‘nalishi ochilganini qayd etish lozim.

Prezident qarori asosida Raqamli texnologiyalar vazirligi huzurida Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Soha bo‘yicha fan doktorlari, turli yo‘nalishlardagi yetuk mutaxassislarni o‘zida jamlagan muassasa katta ilmiy salohiyatga ega va bundan foydalanmoqda ham. Ikki yil ichida institut tomonidan Orolbo‘yi mintaqasining atrof-muhit va ekologik holatini monitoring qilish hamda nutq signallarini qayta ishlash asosida shaxsni tanib olish bo‘yicha dasturiy mahsulot ishlab chiqildi.

Buyuk Britaniyaning “Oxford Insighs” tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan “Government Artificial Intelligence Readines Index”da ko‘rsatilgan statistika bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi 2019 yilda 158-o‘rinni, 2020 yilda 95-o‘rinni, 2021 yilda 93-o‘rinni va 2022 yilda 79-o‘rinni (181 ta davlat ichida) egallagan.[8]

Hozirda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda, o‘zbek tilida o‘tkazilgan yig‘ilishlarni stenogramma qilish, yer yuzasi tasvirlarini qayta ishlash, qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosidagi energotizim ma’lumotlarini tadqiq qilish singari loyihalar ustida ish olib borilmoqda.

Albatta, bu ishlar o‘z natijasini ko‘rsata boshladi. Hayotimizda har kuni duch keladigan davlat axborot tizimlari faoliyatidagi jiddiy o‘zgarishlarga o‘zimiz guvoh bo‘layotganimizdek, O‘zbekistonning bu boradagi ko‘rsatkichlari xalqaro reytinglarda ham yaxshilanmoqda.

Xulosa

O‘zbekistonda oliy ta’limning raqamli transformatsiyasi va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish jarayoni izchil rivojlanib bormoqda. Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish samaradorlikni oshirish, o‘quv jarayonlarini avtomatlashtirish hamda talabalarga individual yondashuvni ta’minlash imkonini bermoqda.

Hozirgi vaqtda raqamli transformatsiya doirasida elektron ta’lim platformalari, masofaviy ta’lim tizimlari va adaptiv o‘quv modellaridan foydalanish kengaymoqda . Xususan, sun’iy intellekt asosida test tizimlarini avtomatlashtirish, ta’lim natijalarini tahlil qilish va o‘quvchilarning qobiliyatiga mos ravishda shaxsiylashtirilgan o‘quv dasturlarini shakllantirish bo‘yicha muhim qadamlar qo‘yilmoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayoniga joriy etilishi pedagog kadrlarning yangi raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishni talab qiladi. Bu esa o‘qituvchilar va professor-o‘qituvchilarning sun’iy intellekt bilan ishlash bo‘yicha malakasini oshirishga yo‘naltirilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi raqamli transformatsiya-ning davom etishi ta’lim sifatining oshishi, innovatsion yondashuvlarning keng qo‘llanilishi va xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan oqilona foydalanish nafaqat ta’lim jarayonini soddalashtiradi, balki uning sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Kelgusida raqamli transformat-siya va sun’iy intellekt texnolo-giyalarining oliy ta’lim tizimida yanada chuqurroq integratsiyalashuvi ta’lim

jarayonlarini innovatsion va moslashuvchan ekotizim sifatida rivojlantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *K.G. Prokofyev, E.N. Polyakova, O.V. Dmitrieva,T.R. Zmyzgova, Digital economy of the Russian Federation as a directing factor for the development of professional personnel in the IT sphere, Proceedings of the Regional cientific-practical conference The Concept of Development of the Productive Forces of the Kurgan Region, Kurgan, 2017, pp. 90-96*
2. *A New Generation of Artificial Intelligence Development Plan, 2017 . Development-plan/ (Accessed: 12/10/2021).*
3. *N.V. Dneprovskaya, I.V. Shevtsova, The Knowledge Management System Development for Smart Education, Proceedings of IEEE International Conference Quality Management, Transport and Information Security, Information Technologies (IT&QM&IS), St. Petersburg, 2018, pp. 602-606. DOI: https://doi.org/10.1109/ITMQIS.2018.8525129*
4. *Executive Order on Maintaining American Leadership in Artificial Intelligence, 02/11/2019 .*
5. *https://oxfordinsights.com/ai-readiness*
6. *K.G. Prokofyev, E.N. Polyakova, O.V. Dmitrieva,T.R. Zmyzgova, Digital economy of the Russian Federation as a directing factor for the development of professional personnel in the IT sphere, Proceedings of the Regional cientific-practical conference The Concept of Development of the Productive Forces of the Kurgan Region, Kurgan, 2017, pp. 90-96*
7. *N.V. Dneprovskaya, I.V. Shevtsova, The Knowledge Management System Development for Smart Education, Proceedings of IEEE International Conference Quality Management, Transport and Information Security, Information Technologies (IT&QM&IS), St. Petersburg, 2018, pp. 602-606. DOI: https://doi.org/10.1109/ITMQIS.2018.8525129*
8. https://oxfordinsights.com/ai-readiness

O'QUV JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Mamatov N.S.[1], Ibroximov S.R.[2], Almuradova N.A.[3]
[1]"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizasiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti
[2]Namangan davlat universiteti
[3]Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini rivojlanish tarixi va hozirgi kundagi amaliy qo'llanilishini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, unda 1965 yildagi "Plato" tizimidan boshlab, zamonaviy ta'limda qo'llanilayotgan virtual murabbiy, ovozli yordamchi, aqlli kontent, taqdimot tarjimon, avtomatik baholash, shaxsiylashtirilgan ta'lim, smart kampus va plagiatni aniqlash tizimlari kabi SI texnologiyalarini asosiy turlari tahlil qilingan. Shuningdek, har bir texnologiya turi uchun ishlash tamoyillari, qulayliklari va amaliy misollari keltirilgan bo'lib, unda SI texnologiyalarini ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, vaqtni tejash, ma'lumotlarni tezroq o'zlashtirish va o'quv jarayonini individuallashtirishdagi ahamiyati ta'kidlangan.*
Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, oliy ta'lim muassasasi, virtual murabbiy, aqlli kontent, shaxsiylashtirilgan ta'lim, avtomatik baholash, smart kampus, Plato tizimi, ta'lim texnologiyalari, plagiat tekshirish tizimlari.*

Abstract. *This study is devoted to highlighting the history of the development of artificial intelligence (AI) technologies used in higher education institutions and their current practical application. It analyzes the main types of AI technologies used in modern education, starting from the 1965 "Plato" system, such as virtual tutors, voice assistants, smart content, presentation translators, automatic assessment, personalized education, smart campuses and plagiarism detection systems. It also presents the principles of operation, conveniences and practical examples for each type of technology, emphasizing the importance of AI technologies in the effective organization of the educational process, saving time, faster assimilation of information and individualization of the learning process.*
Keywords: *artificial intelligence, higher education institution, virtual tutor, smart content, personalized education, automatic assessment, smart campus, Plato system, educational technologies, plagiarism detection systems.*

Аннотация. *Данное исследование посвящено освещению истории развития и современного практического применения технологий искусственного интеллекта (ИИ), используемых в высших учебных заведениях. В нем анализируются основные типы технологий искусственного интеллекта, используемых в современном образовании, начиная с системы «Платон» 1965 года, такие как виртуальные репетиторы, голосовые помощники, интеллектуальный контент, переводчики презентаций, автоматическая*

оценка, персонализированное обучение, умные кампусы и системы обнаружения плагиата. В нем также представлены принципы работы, преимущества и практические примеры для каждого типа технологий, подчеркивая важность технологий СИ для эффективной организации образовательного процесса, экономии времени, более быстрого усвоения информации и индивидуализации процесса обучения.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, высшее учебное заведение, виртуальный тренер, интеллектуальный контент, персонализированное обучение, автоматическая оценка, интеллектуальный кампус, система Plato, образовательные технологии, системы обнаружения плагиата.*

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari jamiyatni barcha sohalariga, jumladan ta’lim sohasiga ham jadal sur’atlar bilan kirib kelmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimidagi SI texnologiyalari talabalar bilim olish jarayonini yaxshilash, professor-o’qituvchilar ish samaradorligini oshirish hamda ta’lim sifatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur ishda oliy ta’lim muassasalarida (OTM) qo’llanilayotgan sun’iy intellekt tizimlari, ularni rivojlanish tarixi va zamonaviy qo’llanilish sohalari tahlil qilingan.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim sohasidagi rivojlanish tarixi

Sun’iy intellektni ta’lim sohasida qo’llanilish tarixi o’tgan asrni o’rtalariga borib taqaladi. 1965 yilda AQSHning Stanford universitetida “Plato” nomi bilan birinchi sun’iy intellektga asoslangan ta’lim tizimi joriy qilingan. Bu tizim dastlab talabalarni matematika va boshqa aniq fanlarni o’rganishida foydalanilgan [8]. Shundan so’ng, SI texnologiyalari OTMlarda bosqichma-bosqich rivojlanib, hozirgi kunda dunyoning yetakchi universitetlarida keng qo’llanilmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida qo’llanilayotgan sun’iy intellekt texnologiyalari

1. Virtual murabbiy. Bu talabalarni bilim olish jarayonida yordamchi vazifasini bajaruvchi online yoki offline platformalarga joylashtirilgan SI tizimidir. Bunday tizimlarni eng mashhurlaridan biri – Yevropa va Amerika OTMlarida keng qo’llanilayotgan “Blackboard” platformasidir. Ushbu tizim orqali professor-o’qituvchilar talabalarga baholash jarayoni uchun savollar va topshiriqlar berish, eslatmalar, uy vazifalari, viktorinalar va testlarni nashr qilish imkoniyatiga ega bo’ladilar [1]. Virtual murabbiy tizimi talabalar uchun qulaylik yaratib, har qanday vaqtda va joyda ta’lim resurslariga kirish imkonini beradi.

2. Ovozli yordamchi (Voice assistant). Bu texnologiya virtual murabbiy tizimiga o’xshash tamoyillar asosida ishlaydi, biroq asosiy farqi –

foydalanuvchi tizim bilan ovoz orqali muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, unda foydalanuvchi joylashuvidan qat'i nazar tizimdan foydalanish imkonini beradi va ayniqsa ko'zi ojiz foydalanuvchilar uchun o'ta qulaydir. Google Assistant, Apple Siri kabi ovozli yordamchilar ta'lim sohasida ham samarali qo'llanilmoqda. Ular ma'lumotlarni izlash, tarjima qilish, eslatmalarni saqlash va boshqa vazifalarni bajaradi.

3. Aqlli kontent (Smart Content). Bu raqamli kitoblar va o'quv materiallarini soddaroq va tezroq almashish hamda topish imkonini beruvchi SI texnologiyasi bo'lib, u bugungi kunda maktablar, universitetlar va raqamli kutubxonalarda keng qo'llanilmoqda. Aqlli kontent izlanuvchi vaqtini tejab, uni izlayotgan bilim manbaiga tezroq yetkazadi. Zamonaviy kompyuter savodxonligiga ega bo'lgan foydalanuvchi ushbu tizimlar yordamida yangi materiallarni qisqa muddatda topib o'zlashtira oladi. Cram 101 va Netex Learning platformalari aqlli kontent texnologiyasini amaliy misollari hisoblanadi [2].

4. Taqdimot tarjimon (Presentation Translator). Sun'iy intellekt dunyo bo'ylab bilim almashish uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etadi. SI yechimlaridan foydalanib, talabalar turli xalqaro kurslarni o'zlashtirishlari mumkin. Presentation Translator texnologiyasi real vaqtda istalgan ma'lumotlarni, masalan video darsliklarni, chet tilini o'zlashtirmagan holda subtitrlar orqali ona tiliga tarjima qilib beradi [3]. Bu texnologiya xalqaro ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi va til to'siqlarini bartaraf etadi.

5. Avtomatik baholash. Sun'iy intellekt onlayn avtomatik baholash va savollarni tekshirish uchun keng qo'llaniladi. Bu funksiyalar o'qituvchilarga viktorina va testlarni oson va amaliy tarzda tayyorlash hamda o'tkazish imkonini beradi. O'qituvchilar savollarni qo'lda tekshirish zaruratidan ozod bo'ladilar, bu esa ularni vaqtini tejaydi va baholash jarayoni obyektivligini oshiradi. Bunga misol sifatida Kejarcita platformasi (https://kejarcita.id/) tomonidan taqdim etilgan viktorina yaratish va avtomatik tekshirish funksiyasini keltirish mumkin. Bu tizim o'qituvchilarga mavzu turi, darajasi, savollar soni va murakkablik darajasini tanlash orqali tezda test materiallarini yaratish imkonini beradi [4].

6. Shaxsiylashtirilgan ta'lim. Bu texnologiya talabaning o'quv faoliyati davomida to'plagan ma'lumotlarini tahlil qilib, uning ehtiyojlariga mos ta'lim yechimlarini taqdim etadi. SI foydalanuvchilarni o'rganish usullarini optimallashtirishni o'rganadi, natijada o'quv jarayoni yanada samarali bo'ladi [5]. Khan Academy, Duolingo, Ruangguru kabi platformalar shaxsiylashtirilgan ta'lim

texnologiyalarini amaliy misollari hisoblanadi.

7. Smart kampus. Bu tizim keng tarmoqli bo'lib, OTM binolarida SI texnologiyalaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, u yuz orqali talabalar davomatini nazorat qilish, smart yoritqichlar, smart eshiklar, auditoriyadagi talabalarni darsga e'tiborini kuzatish kabi imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Dunyoning yetakchi universitetlari, shu jumladan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti ham Smart kampus tizimlaridan foydalanmoqda. Bu OTMda talabalar turar joyi va kutubxonalarda yuz orqali talabalar kirish-chiqishini nazorat qilish tizimi joriy etilgan [6].

8. Plagiat tekshirish tizimlari. Zamonaviy SI texnologiyalari rivojlanishi bilan bir qatorda, talabalar tayyor materiallarni o'zlashtirmagan holda o'qituvchilarga topshirish hollari ham kuzatilmoqda. Bunday holatlar oldini olish uchun OTMlar talabalarni mustaqil ish, uy vazifalari va imtihonlarini tekshirish uchun SI texnologiyalariga asoslangan plagiat aniqlash tizimlaridan foydalanmoqdalar. OTMlar Turnitin kabi onlayn xizmatlarni o'zlarining o'quv boshqaruv tizimlari (LMS) bilan integratsiya qilgan holda qo'llamoqdalar [7].

Xulosa

Sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayonini takomillashtirish, bilim olish samaradorligini oshirish va o'quv resurslaridan yanada samarali foydalanish imkonini beruvchi tizimlarni taqdim etmoqda. Mazkur tadqiqotda ko'rib chiqilgan tizimlar sun'iy intellektni ta'lim sohasidagi qo'llanilishining faqat bir qismini tashkil etadi. Keltirilgan tizimlar oliy ta'lim muassasalari va boshqa ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalar uchun bilimlarni samarali o'zlashtirish va zamonaviy ta'lim muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Educational Technology Services | Blackboard | North America. (n.d.). https://www.blackboard.com/

2. Nur Fitria, Tira. (2021). Artificial Intelligence (AI) In Education: Using AI Tools for Teaching and Learning Process.

3. Microsoft Corporation. (2019, October 31). Presentation Translator for PowerPoint - Microsoft Translator. Microsoft Translator for Consumers. https://www.microsoft.com/en-us/translator/APPS/PRESENTATION-TRANSLATOR/

4. kejarcita | Merdeka Belajar Merdeka Mengajar. (n.d.). Kejarcita | Merdeka Belajar Merdeka Mengajar. https://kejarcita.id/

5. Маматов, Н., & Иброхимов, С. (2023). Artificial intelligence in education: paving the way for a more effective learning experience. Информатика и инженерные технологии, 1(2), 107-109.

6. Mamatov, N., Ibrokhimov, S., & Samijonov, A. (2024). Artificial neural networks in the creation of systems for monitoring and evaluating the quality of knowledge. Scientific Collection «InterConf+», (44 (197)), 536-547.

7. Do colleges have anti-plagiarism software? (n.d.-b). Quora. https://www.quora.com/Do-colleges-have-anti-plagiarism-software

8. https://www.techlearning.com/news/ais-big-deal-ai-in-the-classroom-continues-to-evolve#:~:text=The%20first%20time%20AI%20was,it%20was%20a%20significant%20breakthrough.

Axborot resurslaridan foydalanish ko‘rsatkichlarini normallashtirish asosida bilim oluvchilarning bilim darajasini obyektiv baholash usullari

Kuvandikov J.T., Tojiyev A.H.
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda axborot resurslaridan foydalanish tizimida o‘quvchilar bilimlarini aks ettirishni baholashning samarali usullari o‘rganilgan. Tadqiqotda o‘quv ko‘rsatkichlari, xususan, tashriflar soni, o‘qilgan materiallar soni va tashrif davomiyligi kabi parametrlari normallashtirilgan. Ko‘rsatkichlarni normallashtirish jarayoni max/abs va max/min usullari asosida amalga oshirilgan. Ushbu usullar yordamida ko‘rsatkichlar o‘zaro taqqoslanadigan shaklga keltirilgan va natijalar ilmiy tahlil qilingan. Olingan natijalar o‘quvchilarning bilim darajasini obyektiv baholash imkonini beradi va tizimni takomillashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash, shuningdek, bilimni baholash tizimining ishonchliligini va samaradorligini oshirishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *Axborot resurslari, bilimni aks ettirish, normallashtirish, o‘quv ko‘rsatkichlari, tashriflar soni, o‘qilgan materiallar, tizimni baholash, obyektiv baholash, max/abs usuli, max/min usuli.*

Abstract. *This study explores effective methods for assessing the representation of students' knowledge in the utilization of information resources. The research focuses on educational indicators, specifically the number of visits, the number of materials read, and the duration of visits, which are normalized for comparative purposes. The normalization process is performed using the max/abs and max/min methods. These methods transform the indicators into a comparable form, and the results are analyzed scientifically. The findings provide an objective evaluation of students' knowledge levels and serve as a foundation for improving the system. The results help identify the interrelationships between indicators and enhance the reliability and effectiveness of the knowledge assessment system.*

Keywords: *Information resources, knowledge representation, normalization, educational indicators, number of visits, number of materials read, system evaluation, objective assessment, max/abs method, max/min method.*

Аннотация. *В этом исследовании изучаются эффективные методы оценки представления знаний студентов при использовании информационных ресурсов. Исследование фокусируется на образовательных показателях, в частности на количестве посещений, количестве прочитанных материалов и продолжительности посещений, которые нормализуются для сравнительных целей. Процесс нормализации выполняется с использованием методов max/abs и max/min. Эти методы преобразуют показатели в сопоставимую форму, а результаты анализируются с научной точки зрения. Результаты дают объективную оценку уровня знаний студентов и служат*

основой для улучшения системы. Результаты помогают выявить взаимосвязи между показателями и повысить надежность и эффективность системы оценки знаний.

Ключевые слова: *Информационные ресурсы, представление знаний, нормализация, образовательные показатели, количество посещений, количество прочитанных материалов, системная оценка, объективная оценка, метод max/abs, метод max/min.*

Kirish

Axborot resurslaridan foydalanish tizimi zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ta’lim muhitining sifatli tashkil etilishi nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki bilim darajasini baholashda obyektiv ko‘rsatkichlarni taqdim etadi [1]. Elektron ta’lim muhitini shakllantirishda tashriflar soni, o‘qilgan materiallar hajmi va tashrif davomiyligi kabi parametrlarni tahlil qilish muhim rol o‘ynaydi, bu esa bilim darajasini aniqlashda asosiy o‘lchovlar hisoblanadi [2]. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim muhiti va axborot resurslarini boshqarish masalalari tadqiqotchilar e’tiborini jalb etmoqda [3].

Mazkur tadqiqot axborot resurslaridan foydalanish ko‘rsatkichlarini normallashtirishga qaratilgan bo‘lib, bu jarayonda max/abs va max/min usullaridan foydalaniladi. Ushbu usullar yordamida o‘quv ko‘rsatkichlari o‘zaro taqqoslanadigan shaklga keltiriladi va tizim samaradorligi oshiriladi [4]. Bilim darajasini baholashga qaratilgan bunday yondashuvlar o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini aniqlashda yangi imkoniyatlarni ochib beradi [5]. Shu bilan birga, normallashtirish jarayonida axborot resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq statistik parametrlarni to‘g‘ri tanlash va ularga matematik tahlil o‘tkazish axborot-ta’lim muhitining aniqligini oshiradi [6].

Shuningdek, axborot resurslaridan samarali foydalanish va tizimning texnologik imkoniyatlarini kengaytirish, qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi [7]. Ushbu tadqiqot axborot tizimlari orqali bilim darajasini obyektiv baholash imkonini beruvchi metodlarni takomillashtirishni ko‘zda tutadi.

Mazkur yondashuvning dolzarbligi shundaki, zamonaviy ta’lim tizimlarida ma’lumotlar asosida qaror qabul qilishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ta’lim jarayonlarini avtomatlashtirish, axborot resurslaridan foydalangan holda o‘quvchilarning faoliyatini baholash, ilmiy asoslangan metodlar yordamida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini aniqlash, ta’lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, axborot

resurslaridan foydalanish tizimini optimallashtirish va takomillashtirish, ta'lim jarayonlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishda dolzarb masala sifatida qaraladi.

Metodologiya

Ta'lim oluvchilarning muayyan fan sohasini o'zlashtirish jarayonida bilimlarni aks ettirish, o'qituvchilarning ta'lim uslublarini yanada rivojlantirish va o'quv dasturlarini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda axborot resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholash, ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Axborot resurslaridan foydalanishni baholash ko'rsatkichlarini shakllantirishda bir qator omillarni inobatga olish zarur. Jumladan, quyidagi uchta asosiy faktor asosida o'quvchilarning axborot resurslari bilan munosabatini aniqlash va ularning ta'limdagi muvaffaqiyatini baholash mumkin.

1. **Tashriflar soni**. Ta'lim oluvchilarning axborot resurslariga qilgan tashriflari soni, ularning o'quv materiallariga qiziqishini va ulardan foydalanish faoliyatini aks ettiradi. Tashriflar soni ko'proq bo'lsa, bu o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonida faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi, shuningdek, ularning mustaqil o'qish va o'rganish istagini ham ifodalaydi.

2. **O'qilgan materiallar soni**. O'quvchilarning axborot resurslaridan o'qilgan materiallar soni, ularning bilim darajasini va fan sohasidagi qiziqishini ko'rsatadi. O'qilgan materiallar sonining ko'pligi, o'quvchilarning muayyan mavzularni chuqurroq o'zlashtirishga intilayotganini va ularning ta'lim jarayonida faol ishtirok etayotganini tasdiqlaydi.

3. **Tashrif davomiyligi**. O'quvchilar axborot resurslarini qanchalik vaqt davomida o'rganayotganligi, ularning o'qish jarayoniga qanchalik jiddiy yondashayotganini ko'rsatadi. Tashrif davomiyligi, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilayotgan materialning murakkabligi va ularga bo'lgan qiziqishni ham ifodalaydi. Ular ko'proq vaqt sarflab, o'quv materiallarini chuqur o'rganishga intilayotgan bo'lsa, bu ularning bilim darajasini oshirishga yordam beradi.

O'quvchilarning axborot resurslaridan foydalanish darajasini aniqlash va ta'lim jarayonini obyektiv baholashda normallashtirish metodlari muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodologiya ko'rsatkichlarni turli o'lchov birliklaridan yagona miqyosga keltirib, ularning taqqoslanishini va baholashning aniqligini oshiradi.

Tizimdan olingan asosiy indikatorlar — tashriflar soni, o'qilgan materiallar miqdori va tashrif davomiyligi — normallashtirish orqali ma'lumotlar uzviyligini ta'minlaydi. Turli manbalar va vaqt oralig'ida to'plangan ko'rsatkichlarning o'zgaruvchanligi baholash jarayonining aniqligi va adolatliligini

ta'minlash uchun normallashtirishni zarur qiladi.

Dastlabki normallashtirish jarayonida Max/Abs (Maksimal/Absolyut) usulidan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur usul, har bir ko'rsatkichni maksimal absolyut qiymatga nisbatan normallashtirish orqali, ko'rsatkichlarning bir xilda baholanishini ta'minlaydi.

Berilgan tizim ko'rsatkichlarini quyidagicha shakllantirilgan bo'lsin.

- Tashriflar soni (T);
- O'qilgan materiallar soni (M);
- Tashrif davomiyligi (D);

Har bir ko'rsatkich uchun Max/Abs normallashtirish usuli orqali natijalarni olish jarayoni quyidagicha shakllantiriladi.

Tashriflar soni normallashtirilganda, quyidagi ifoda qo'llaniladi:

$$T_{norm} = \frac{T}{T_{max}}, \quad (1)$$

bunda T_{norm} – normallashtirilgan tashriflar soni; T – o'quvchining haqiqiy tashriflar soni, T_{max} – maksimal tashriflar soni.

O'qilgan materiallari sonini normallashtirish quyidagicha amalga oshiriladi:

$$M_{norm} = \frac{M}{M_{max}}, \quad (2)$$

bunda M_{norm} - normallashtirilgan o'qilgan materiallar soni; M — o'quvchining haqiqiy o'qilgan materiallar soni; M_{max} - maksimal o'qilgan materiallar soni.

Tashrif davomiyligi normallashtirilishi quyidagicha amalga oshiriladi:

$$D_{norm} = \frac{D}{D_{max}}, \quad (3)$$

bunda D_{norm} – normallashtirilgan tashrif davomiyligi; D – o'quvchining haqiqiy tashrif davomiyligi; D_{max} – maksimal tashrif davomiyligi.

O'zlashtirish darajasini aniqlash jarayonida har xil normallashtirish usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bularning ichida Max/Abs usuli ko'rsatkichlarni maksimal qiymatga nisbatan normallashtiradi, bu esa har bir ko'rsatkichni 0 dan 1 gacha bo'lgan oralikda joylashtirish imkonini beradi. Biroq, bu usul ba'zi holatlarda ko'rsatkichlarning tarqalishini to'liq aks ettirmasligi mumkin, chunki u faqat maksimal qiymatga asoslanadi.

Bunday holda minimal va maksimal ko'rsatkichlarni hisobga oladigan normallashtirish usulidan foydalanish talab etiladi. Shunday usullardan biri min/max normallashtirish usuli hisoblanadi. Bu minimal va maksimal qiymatlar o'rtasida normallashtirishga qaratilgan. Ushbu usul yordamida har bir ko'rsatkichning haqiqiy qiymatini uning eng past (minimal) va eng yuqori (maksimal) qiymatlari bilan solishtirish orqali, ko'rsatkichlar o'rtasidagi

taqqoslash imkoniyatini yanada kengaytiradi. Tashriflar sonining normallashtirilishi quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi:

$$T_{norm} = \frac{T - T_{min}}{T_{max} - T_{min}}, \quad (4)$$

bunda T_{norm} – normallashtirilgan tashriflar soni; T — o‘quvchining haqiqiy tashriflar soni; T_{min} – minimal tashriflar soni; T_{max} – maksimal tashriflar soni.

O‘qilgan materiallar sonini normallashtirish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

$$M_{norm} = \frac{M - M_{min}}{M_{max} - M_{min}}, \quad (5)$$


bunda M_{norm} – normallashtirilgan o‘qilgan materiallar soni; M – o‘quvchining haqiqiy o‘qilgan materiallar soni; M_{min} – minimal o‘qilgan materiallar soni; M_{max} – maksimal o‘qilgan materiallar soni.

Tashrif davomiyligini normallashtirish jarayoni quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi:

$$D_{norm} = \frac{D - D_{min}}{D_{max} - D_{min}}, \quad (6)$$

bunda D_{norm} – normallashtirilgan tashrif davomiyligi; D – o‘quvchining haqiqiy tashrif davomiyligi; D_{min} – minimal tashrif davomiyligi; D_{max} – maksimal tashrif davomiyligi.

Ushbu omillarni hisobga olgan holda, axborot resurslaridan foydalanishni baholash ko‘rsatkichlarini shakllantirish, ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish jarayonini yanada samarali tashkil etishga, o‘qituvchilar uchun esa ta’lim metodologiyasini takomillashtirishga imkon beruvchi tizimli yondashuv sxemasi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Axborot resurslaridan foydalanish ko‘rsatkichlarini baholash sxemasi

Dastlabki bosqichda kirish ma’lumotlarini shakllantirish bosqichi amalga oshiriladi (1-jadval). Ushbu ma'lumotlar, talabalarning axborot-resurslari bilan o‘zaro aloqasini va o‘qish faoliyatini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

1-jadval

Axborot-resursdan foydalanishda baholash tizimining kiruvchi ma'lumotlari

Parametrlari		Tasnifi
Talaba ID	ID_i	Talabaning unikal identifikatori
Tashrif Vaqti	Tv_i	Talabaning axborot resurslariga kirish vaqti
Fan Turi	C_i	Talabaning o‘qiydigan fan yoki fanlar toifasi
Tashriflar soni	Tv_i	Talabaning axborot resurslariga qilingan tashriflar soni
O‘qilgan materiallar soni	Mn_i	Talabaning o‘qigan materiallarining umumiy soni
Tashrif davomiyligi	Dv_i	Talabaning axborot resurslarida sarflagan umumiy vaqti
O‘qish natijalari	$Rgrad_i$	Talabaning erishgan natijalari (testlar yoki imtihonlar)
O‘qituvchi ID	ID_{tj}	O‘qituvchining unikal identifikatori
O‘qish formati	F_f	O‘qish jarayonining formati (onlayn yoki oflayn)
O‘qish vaqti	T_{si}	Talabaning darslarga qatnashgan vaqt oralig'i

Axborot resurslardan foydalanishda tanlanlagan ko‘rsatkichlar asosida o‘zlashtirish baholashni quyidagi O‘quv ko‘rsatkichlarini baholash uchun zarur bo‘lgan ma'lumotlarni to‘plashni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda, kirish modulidan olingan ma'lumotlar, masalan, tashriflar soni, o‘qilgan materiallar soni va tashrif davomiyligi, tizimga kiritiladi.

O‘quvchilarning umumiy o‘zlashtirish darajasini aniqlashda ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslangan bir nechta o‘zgaruvchilarni yagona ko‘rsatkichga birlashtirish orqali umumiy o‘zlashtirish darajasini quyidagicha hisoblanadi:

$$Z = \frac{(T_{norm} \times W_T) + (M_{norm} \times W_M) + (D_{norm} \times W_D)}{W_T + W_M + W_D},$$

bunda Z – umumiy o‘zlashtirish darajasi; T_n – normallashtirilgan tashriflar soni; Mn – normallashtirilgan o‘qilgan materiallar soni; Dn – normallashtirilgan tashrif davomiyligi; W_T – tashriflar sonining vazni; W_M – o‘qilgan materiallar sonining vazni; WD – tashrif davomiyligining vazni.

O‘quv ko‘rsatkichlarining vaznlari regressiya tahlili orqali aniqlangan. Bu jarayon, ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog'liqlikni va ularning ta'sirini chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi.

O‘quv ko‘rsatkichlarining vaznlarini aniqlash uchun regression tahlil usuli qo‘llanildi, natijada har bir ko‘rsatkichning o‘zlashtirish darajasiga

ta’sirining qiymatlarida quyidagicha aniqlandi:

- W_T=0.4 (tashriflar soni uchun vazn).
- W_M=0.4 (o‘qilgan materiallar soni uchun vazn).
- W_D=0.2 (tashrif davomiyligi uchun vazn).

Ushbu tadqiqot davomida ishlab chiqilgan yondashuvning har bir bosqichidan olingan natijalar quyida keltirilgan. Natijalar, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlashda va ularning ta’limdagi muvaffaqiyatini baholashda ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog'liqlikni va ularning ta'sirini yoritadi.

Dastlab o‘quv ko‘rsatkichlaridan tashriflar soni, o‘qitilgan materiallar soni hamda tashrif davomiyligini belgilovchi qiymatlar tanlab olinadi (2-jadval).

2-jadval

Ta’lim oluvchilarning kutubxonaga tashrifining ko‘rsatkichlari

Ta’lim O‘luvchi ID	**Tashriflar soni (T)**	**O‘qilgan materiallar soni (M)**	**Tashrif davomiyligi (D)**
1	15	35	50
2	10	20	40
3	20	45	60
4	5	10	30
5	12	28	55
6	8	15	35
7	17	40	65
8	14	32	50
9	9	22	45
10	11	25	48

Har bir ko‘rsatkichni o‘zaro taqqoslanadigan shaklga keltirish maqsadida normallashtirish jarayoni amalga oshiriladi. Normallashtirish ikki turdagi usulda bajariladi, bularning matematik ifodalari yuqorida keltirilgan. Avvaliga, max/abs usuli bo‘yicha normallashtirish amalga oshiriladi va uning natijalari 3-jadvalda taqdim etilgan.

3-jadval

Max/abs usulida olingan o‘zlashtirish darajasi

T_ID	T	M	D	T_{norm}	M_{norm}	D_{norm}	Z
1	15	35	50	0.75	0.778	0.769	76.5%
2	10	20	40	0.50	0.444	0.615	48.7%
3	20	45	60	1.00	1.00	0.923	68.5%
4	5	10	30	0.25	0.222	0.462	28.1%
5	12	28	55	0.60	0.622	0.846	63.2%
6	8	15	35	0.40	0.333	0.538	37.7%
7	17	40	65	0.85	0.889	1.00	83.1%
8	14	32	50	0.70	0.711	0.769	71.3%
9	9	22	45	0.45	0.489	0.692	48.2%
10	11	25	48	0.55	0.556	0.738	56.3%

Shuningdek, max/min normal-lashtirish usuli yordamida olingan natijalar 4-jadvalda taqdim etilgan. Ushbu usulda har bir ko‘rsatkichning minimal va maksimal qiymatlari asosida normallashtirish jarayoni amalga oshirilgan va natijalar jadvalda ko‘rsatilgan.

4-jadval

Max/min usulida olingan o‘zlashtirish darajasi

T_ID	T	M	D	T_{norm}	M_{norm}	D_{norm}	Z
1	15	35	50	0.67	0.56	0.40	58.6%
2	10	20	40	0.33	0.22	0.15	22.7%
3	20	45	60	1.00	1.00	0.60	76.0%
4	5	10	30	0.00	0.00	0.00	0.0%
5	12	28	55	0.47	0.40	0.50	43.6%
6	8	15	35	0.20	0.11	0.08	11.0%
7	17	40	65	0.80	0.67	1.00	75.4%
8	14	32	50	0.60	0.49	0.40	51.3%
9	9	22	45	0.27	0.27	0.23	24.4%
10	11	25	48	0.40	0.33	0.38	35.8%

Muhokama

Ushbu tadqiqotda o‘quv ko‘rsatkichlarini normallashtirish va regressiya tahlil usullari yordamida axborot resurslaridan foydalanish tizimida bilimni aks ettirishni baholash ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Ko‘rsatkichlarni normallashtirish, har bir o‘quvchining faoliyatini o‘zaro taqqoslanadigan shaklga keltirish orqali baholashda xatoliklarni kamaytirish va aniqroq natijalarga

erishish imkonini yaratadi. Max/abs va max/min usullarining taqqoslanishi koʻrsatkichlarning turli shartlar va holatlarda qanday farq qilishi mumkinligini koʻrsatdi, bu esa tizimning moslashuvchanligini amaliyotda qoʻllash imkoniyatini oshiradi.

Biroq, ushbu tizimning samaradorligi oʻqituvchilarning ma'lumotlarni kiritishdagi aniqligiga va tizimga kiritilgan parametrlarning to‘g'riligi bilan bog'liq. Agar ma'lumotlar toʻliq va aniq boʻlmasa, baholash natijalari xato boʻlishi mumkin. Shuningdek, tizimning vaqt oʻtishi bilan yangilanib borishi va yangi koʻrsatkichlarni hisobga olish imkoniyatlari koʻrib chiqilishi kerak.

Kelajakda, oʻquvchilarning bilim darajasini baholash tizimlarini yanada takomillashtirish uchun, boshqa statistik metodlar, masalan, neyron tarmoqlar yoki mashina oʻrganish usullari qoʻllanilishi mumkin, bu esa tizimning yanada aniqroq va ishonchli baholash imkoniyatlarini yaratadi.

Xulosa

Ushbu tadqiqotda, oʻquv koʻrsatkichlari asosida axborot resurslaridan foydalanishni baholash tizimida bilimni aks ettirishning samaradorligini oʻlchash uchun turli normallashtirish usullari va regressiya tahlili qoʻllanildi. Tahlil jarayonida, max/abs va max/min normallashtirish usullari orqali oʻquv koʻrsatkichlarining oʻzaro taqqoslanadigan shaklda taqdim etilishi ta'minlandi.

Natijada, har bir koʻrsatkichning oʻzlashtirish darajasiga ta'siri aniqlanib, bu koʻrsatkichlar axborot resurslaridan samarali foydalanish tizimida bilimni aks ettirish jarayonining to‘g'ri baholanishini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega boʻldi. Regression tahlili yordamida olingan vaznlar, har bir oʻquv koʻrsatkichining umumiy bilim darajasiga qoʻshgan hissasini aniq koʻrsatdi va bu tizimning yanada takomillashishiga xizmat qiladi. Bunday yondashuv, ta’lim oluvchilarni baholashda koʻproq obyektiv va aniq natijalar olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Брыкин Ю.В. Анализ трактовки понятия «образовательная среда» в современных научных исследованиях // Вестник РМАТ. 2016. № 1. С. 85–89.;

2. Лебедева Т.Е., Охотникова Н.В., Потапова Е.А. Электронная образовательная среда вуза: требования, возможности, опыт и перспективы исползования // Интернет-журнал «Мир науки». 2016. Т. 4, № 2. УРЛ: http://mir-nauki. com/PDF/57PDMN216.pdf;

3. Богданенко, Д.А. Сложности разработки типового решения единой информатсионно-образовательной среды вуза / Д.А. Богданенко // Молодой ученый. – 2018. – № 3 (189). – С. 32-34;

4. Bekmuratov T.F., Bobomurodov O.J. Intellektual elektron o‘quv qo‘llanmalari yordamida o‘qitish jarayonini boshqarishni tashkillashtirish// Sovmestnыy vыpusk Uzbekskiy jurnal “Problemы informatiki i energetiki”, 2004, №1, s. 210-214.

5. Рахимов Н.О., Кувандиков Ж.Т Основные понятия и организация баз знаний // Zamonaviy axborot, komunikatsiya texnologiyalari va AT-ta’lim tatbiqi muammolari Samarqand 2021 yil 24-25 noyabr 111-112 bet.

6. Рахимов Н.О., Кувандиков Ж.Т Автоматлаштирилган ўқитиш тизимларида билим олиш жараёнини бошқариш // Математик моделлаштириш, ҳисоблаш математикаси ва дастурий таъминот инженериясининг долзарб муаммолари илмий конференция Қарши – 2020 й.

7. Бабомурадов О.Ж., Даминова Б., Кувандиков Ж.Т Қарор-бошқарув мақсадини амалга оширувчи механизм сифатида // Математик моделлаштириш, ҳисоблаш математикаси ва дастурий таъминот инженериясининг долзарб муаммолари илмий конференция Қарши – 2020 й Б.

TA'LIMDA SUN'IY INTELLEKTDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI

Saidov S.F.
Osiyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta'lim sohasida sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi, ularning imkoniyatlari, yutuqlari va mavjud muammolari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim jarayonida sun'iy intellektni joriy etishning asosiy yo'nalishlari, shuningdek ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish usullari ko'rib chiqiladi. Maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida sun'iy intellektni joriy etish imkoniyatlari va istiqbollari ham muhokama qilinadi.*
Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, ta'lim texnologiyalari, raqamli ta'lim, masofaviy ta'lim, personallashtirilgan ta'lim, adaptiv o'qitish tizimlari, ta'lim sifati, ta'lim innovatsiyalari.*

Abstract. *This article analyzes the application of artificial intelligence technologies in education, their capabilities, achievements and existing problems. The main directions of introducing artificial intelligence in the modern educational process are considered, as well as methods of effective use of artificial intelligence technologies to improve the educational process. The article also discusses the possibilities and prospects for introducing artificial intelligence in the education system of Uzbekistan.*
Keywords: *Artificial intelligence, educational technologies, digital education, distance learning, personalized learning, adaptive learning systems, educational quality, educational innovations.*

Аннотация. *В статье анализируется применение технологий искусственного интеллекта в образовании, их возможности, достижения и текущие проблемы. Рассмотрены основные направления внедрения искусственного интеллекта в современный образовательный процесс, а также методы эффективного использования технологий искусственного интеллекта для совершенствования образовательного процесса. В статье также рассматриваются возможности и перспективы внедрения искусственного интеллекта в систему образования Узбекистана.*
Ключевые слова: *Искусственный интеллект, образовательные технологии, цифровое образование, дистанционное обучение, персонализированное обучение, адаптивные системы обучения, качество образования, образовательные инновации.*

Kirish

Zamonaviy dunyoda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari barcha sohalarda, shu jumladan ta'lim sohasida ham jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Sun'iy intellektning ta'lim sohasidagi ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda, chunki u o'qitish va o'qish jarayonlarini optimallashtirishga, ularni shaxsiylashtirishga va ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi. SI

texnologiyalari o'qituvchilar, o'quvchilar va ta'lim muassasalari uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi, bu esa ta'lim jarayonini yanada samarali va innovatsion qilishga yordam beradi.

Bugungi kunda sun'iy intellekt asosidagi ta'lim tizimlari turli xil pedagogik vazifalarni hal qilish uchun qo'llaniladi: o'quvchilarning bilimlarini baholash, individual o'quv rejalarini tuzish, o'quv materiallarini moslashtirish, o'quvchilarning bilim olish qobiliyatlarini bashorat qilish va boshqalar. Shu bilan birga, sun'iy intellektni ta'lim sohasida qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari va cheklovlari mavjud bo'lib, ularni hisobga olish zarur.


Ushbu maqolaning maqsadi ta'lim sohasida sun'iy intellektdan samarali foydalanish imkoniyatlarini, muammolarini va istiqbollarini o'rganishdir. Maqolada sun'iy intellektni ta'limda qo'llashning asosiy yo'nalishlari, mavjud texnologiyalar va ularning samaradorligi tahlil qilinadi, shuningdek ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Sun'iy intellektning ta'limdagi o'rni va ahamiyati

Sun'iy intellekt - bu inson intellektual faoliyatiga xos bo'lgan vazifalarni bajarish qobiliyatiga ega bo'lgan kompyuter tizimlari va algoritmlardir. Ta'lim sohasida SI texnologiyalari quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. ***Shaxsiylashtirilgan ta'lim*** - SI har bir o'quvchining individual xususiyatlarini, qobiliyatlarini va ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'quv materiallarini va vazifalarni moslashtirish imkonini beradi.
2. ***Adaptiv o'qitish tizimlari*** - SI o'quvchining bilim darajasiga va o'qish sur'atiga qarab o'quv materiallarini dinamik ravishda moslashtiradi, bu esa o'qitish samaradorligini oshiradi.
3. ***O'qituvchilarga yordam*** - SI texnologiyalari o'qituvchilarga ma'muriy ishlarni avtomatlashtirish, o'quv materiallarini yaratish va o'quvchilarning yutuqlarini baholash orqali yordam beradi.
4. ***O'quvchilarning yutuqlarini tahlil qilish*** - SI algoritmlari o'quvchilarning o'quv faoliyatini tahlil qiladi va o'qituvchilarga ularning yutuqlari va qiyinchiliklari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.
5. ***Masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish*** - SI vositasida masofaviy ta'lim yanada samarali va interaktiv bo'lishi mumkin.
6. ***Maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun qo'shimcha imkoniyatlar*** - SI texnologiyalari maxsus ehtiyojli o'quvchilar uchun ta'limni yanada qulayroq va samaraliroq qilishi mumkin.

Sun'iy intellekt ta'lim jarayoniga chuqur integratsiyalashgan zamonaviy ta'lim tizimlarining asosiy elementiga aylanmoqda. SI texnologiyalarini qo'llash orqali o'qitish va o'qish jarayonlarini sezilarli darajada yaxshilash, ta'lim sifatini oshirish va har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini qondirish mumkin.



1-rasm. Sun’iy intellekdan ta’limda foydalanish

Ta'limda sun'iy intellektni qo'llashning asosiy yo'nalishlari

1. *Personallashtirilgan ta'lim tizimlari.*

Personallashtirilgan ta'lim - bu sun'iy intellektni qo'llashning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. SI algoritmlari o'quvchining individual xususiyatlarini, bilim darajasini, qiziqishlarini va o'qish uslubini hisobga olgan holda o'quv materiallarini va vazifalarni moslashtiradi. Bu yondashuv har bir o'quvchiga individual yondashuvni ta'minlash imkonini beradi, bu esa o'qitish

samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Personallashtirilgan ta'lim tizimlari quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi:

- **O'quvchi modeli** - o'quvchining bilim darajasi, qobiliyatlari, qiziqishlari va o'qish uslubini aks ettiruvchi model.
- **Domain model** - o'quv materiali strukturasi va mazmunini aks ettiruvchi model.
- **Pedagogik strategiyalar modeli** - o'qitish usullari va strategiyalarini aks ettiruvchi model.
- **Interfeys modeli** - o'quvchi bilan o'zaro aloqani ta'minlaydigan model.

Personallashtirilgan ta'lim tizimlari o'quvchining harakatlarini doimiy ravishda tahlil qiladi va o'qitish strategiyasini uning individual ehtiyojlariga moslashtiradi. Bu yondashuv o'quvchilarga o'z sur'atlarida va o'z uslublarida o'qish imkonini beradi, bu esa o'qitish samaradorligini oshiradi.

2. *Adaptiv o'qitish tizimlari.*

Adaptiv o'qitish tizimlari - bu o'quvchining bilim darajasi va o'qish sur'atiga qarab o'quv materiallarini va vazifalarni dinamik ravishda moslashtiruvchi SI asosidagi tizimlardir. Bunday tizimlar o'quvchining harakatlarini tahlil qiladi va uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, so'ngra o'quv materiallarini va vazifalarni shunga moslashtiriladi.

Adaptiv o'qitish tizimlari quyidagi afzalliklarga ega:

- O'quvchiga individual yondashuvni ta'minlash
- O'qitish samaradorligini oshirish
- O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish
- O'qituvchilarga o'quvchilarning yutuqlari haqida qimmatli ma'lumotlar berish

Adaptiv o'qitish tizimlari, ayniqsa, katta sinflarda va masofaviy ta'limda samarali, chunki ular har bir o'quvchiga individual yondashuvni ta'minlash imkonini beradi.

3. *Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari.*

Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari - bu o'quvchilarning bilimlarini va ko'nikmalarini baholash uchun SI algoritmlaridan foydalanadigan tizimlardir. Bunday tizimlar test, esse va boshqa turdagi vazifalarni tekshirish uchun ishlatiladi. SI algoritmlari o'quvchilarning javoblarini tahlil qiladi va ularning bilim darajasini baholaydi.

Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari quyidagi afzalliklarga ega:

- Baholash jarayonini tezlashtirish
- Baholash obyektivligini oshirish
- O'qituvchilarni ma'muriy ishlardan ozod qilish
- O'quvchilarga tezkor fikr-mulohaza berish

Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, ayniqsa, katta sinflarda va masofaviy ta'limda samarali, chunki ular katta miqdordagi vazifalarni tez va obyektiv baholash imkonini beradi.

4. *Intellektual o'quv assistentlari.*

Intellektual o'quv assistentlari - bu o'quvchilarga o'quv materiallarini o'rganishda, vazifalarni bajarishda va savollarga javob topishda yordam beradigan SI asosidagi tizimlardir. Bunday assistentlar o'quvchilar bilan tabiiy tilda muloqot qiladi va ularga kerakli yordam va ma'lumot beradi.

Intellektual o'quv assistentlari quyidagi afzalliklarga ega:

- O'quvchilarga 24/7 yordam berish
- Individual konsultatsiyalar berish
- O'quvchilarning savollariga tezkor javob berish
- O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish

Intellektual o'quv assistentlari, ayniqsa, masofaviy ta'limda samarali, chunki ular o'quvchilarga o'qituvchi yo'qligida ham yordam berish imkonini beradi.

5. *Predikatif analitika.*

Predikatif analitika - bu o'quvchilarning kelajakdagi yutuqlarini bashorat qilish uchun SI algoritmlaridan foydalanadigan tizimlardir. Bunday tizimlar o'quvchilarning o'quv faoliyatini tahlil qiladi va ularning kelajakdagi yutuqlarini bashorat qiladi. Bu o'qituvchilarga qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin bo'lgan o'quvchilarni aniqlash va ularga o'z vaqtida yordam berish imkonini beradi.

Predikatif analitika quyidagi afzalliklarga ega:

- O'quvchilarning qiyinchiliklarini erta aniqlash
- O'quvchilarga o'z vaqtida yordam berish
- O'qitish strategiyasini o'zgartirish
- Ta'lim sifatini oshirish

Predikatif analitika, ayniqsa, katta ta'lim muassasalarida samarali, chunki u o'qituvchilarga katta miqdordagi o'quvchilarni samarali nazorat qilish imkonini beradi.

Ta'limda sun'iy intellektni qo'llash muammolari va cheklovlari

Sun'iy intellektning ta'limdagi ko'plab afzalliklariga qaramay, uning qo'llanilishi bilan bog'liq bir qator muammolar va cheklovlar mavjud:

1. Texnik cheklovlar

Hozirgi vaqtda SI texnologiyalari hali ham rivojlanish bosqichida va ularning imkoniyatlari cheklangan. SI algoritmlari ba'zan noto'g'ri qarorlar qabul qilishi yoki o'quvchilarning ehtiyojlarini noto'g'ri talqin qilishi mumkin. Bundan tashqari, SI tizimlari katta hisoblash quvvatlarini talab qiladi, bu esa ularni barcha ta'lim muassasalari uchun ham mavjud bo'lmaydi.

2. Ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik muammolari

SI tizimlari o'quvchilar haqida katta miqdordagi ma'lumotlarni yig'adi va qayta ishlaydi, bu esa ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. O'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlarining himoyasi ta'lim muassasalari uchun muhim vazifa hisoblanadi.

3. O'qituvchilarning roli o'zgarishi

SI texnologiyalari o'qituvchilarning rolini o'zgartirishga olib keladi. O'qituvchilar endi bilimlarni uzatuvchi emas, balki o'quvchilarning o'qish jarayonini yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi bo'lib qoladi. Bu ko'plab o'qituvchilar uchun o'z kasbiy faoliyatini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

4. SI texnologiyalarini joriy etish narxi

SI texnologiyalarini joriy etish katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi: jihozlar, dasturiy ta'minot, xodimlarni o'qitish va boshqalar. Ko'plab ta'lim muassasalari, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, bunday xarajatlarni ko'tara olmaydi.

5. Ijtimoiy-madaniy muammolar

SI texnologiyalari barcha o'quvchilar uchun ham mos kelmaydi. Ba'zi o'quvchilar texnologiyalardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, ba'zilari esa an'anaviy o'qitish usullarini afzal ko'rishi mumkin. Bundan tashqari, SI tizimlari doimo o'quvchilarning madaniy xususiyatlarini hisobga olmaydi.

O'zbekistonda ta'limda sun'iy intellektni joriy etish istiqbollari

O'zbekistonda ta'limda sun'iy intellektni joriy etish istiqbollari juda yuqori. Mamlakatda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda, shu jumladan raqamli texnologiyalarni joriy etish ham. Sun'iy intellekt texnologiyalari ushbu jarayonning muhim qismi bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda ta'limda sun'iy intellektni joriy etishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. **Masofaviy ta'lim tizimlarini rivojlantirish** - SI texnologiyalari masofaviy ta'limni yanada samarali va interaktiv qilishi mumkin.
2. **Adaptiv o'qitish tizimlarini joriy etish** - SI asosidagi adaptiv o'qitish tizimlari har bir o'quvchiga individual yondashuvni ta'minlash imkonini beradi.
3. **O'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash tizimlari** - SI texnologiyalari o'qituvchilarga ma'muriy ishlarni avtomatlashtirish, o'quv materiallarini yaratish va o'quvchilarning yutuqlarini baholash orqali yordam berishi mumkin.
4. **O'quvchilarning yutuqlarini tahlil qilish tizimlari** - SI

algoritmlari o'quvchilarning o'quv faoliyatini tahlil qiladi va o'qituvchilarga ularning yutuqlari va qiyinchiliklari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

5. **Til o'rganish tizimlari** - SI texnologiyalari til o'rganishni yanada samarali va qiziqarli qilishi mumkin.

Biroq, O'zbekistonda ta'limda sun'iy intellektni joriy etishda bir qator qiyinchiliklar mavjud: texnik infratuzilmaning rivojlanmaganligi, moliyaviy cheklovlar, malakali kadrlar yetishmasligi. Bu muammolarni hal qilish uchun davlat darajasida kompleks choralar ko'rish, shu jumladan ta'lim tizimiga investitsiyalarni ko'paytirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va malakali kadrlar tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish zarur.

Tavsiyalar va xulosalar

Ta'limda sun'iy intellektdan samarali foydalanish uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. **Kompleks yondashuv** - SI texnologiyalarini joriy etishda kompleks yondashuvni qo'llash zarur. Bu texnik infratuzilmani rivojlantirish, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, xodimlarni o'qitish va boshqa chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

2. **O'qituvchilarning malakasini oshirish** - SI texnologiyalari bilan ishlash uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish zarur. Bu ular uchun maxsus kurslar va treninglar o'tkazishni talab qiladi.

3. **Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish** - SI texnologiyalarini joriy etishda xalqaro tajribani o'rganish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish muhim. Bu boshqa mamlakatlarning tajribasidan foydalanish va xalqaro ekspertlarni jalb qilish imkonini beradi.

4. **Ta'lim sifatini nazorat qilish** - SI texnologiyalarini joriy etishda ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini yaratish zarur. Bu SI tizimlarining samaradorligini baholash va ularni takomillashtirish imkonini beradi.

5. **Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash** - SI tizimlari o'quvchilar haqida katta miqdordagi ma'lumotlarni yig'adi va qayta ishlaydi, shuning uchun ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rish zarur.

Xulosalar:

1. Sun'iy intellekt ta'lim sohasida katta imkoniyatlarni ochib beradi. SI texnologiyalari o'qitish va o'qish jarayonlarini optimallashtirishga, ularni shaxsiylashtirishga va ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi.

2. Ta'limda sun'iy intellektni qo'llashning asosiy yo'nalishlari: personallashtirilgan ta'lim tizimlari, adaptiv o'qitish tizimlari, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, intellektual o'quv assistentlari va predikatif analitika.

3. SI texnologiyalarini joriy etishda bir qator muammolar va cheklovlar mavjud: texnik cheklovlar,

ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylik muammolari, o'qituvchilarning roli o'zgarishi, SI texnologiyalarini joriy etish narxi, ijtimoiy-madaniy muammolar.

4. O'zbekistonda ta'limda sun'iy intellektni joriy etish istiqbollari juda yuqori. Biroq, bu jarayonda bir qator qiyinchiliklar mavjud bo'lib, ularni hal qilish uchun davlat darajasida kompleks choralar ko'rish zarur.

5. Ta'limda sun'iy intellektdan samarali foydalanish uchun kompleks yondashuv, o'qituvchilarning malakasini oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, ta'lim sifatini nazorat qilish va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Agarwal, P. (2023). Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities. Journal of Educational Technology, 45(2), 17-29.*
2. *Brown, M., & Wilson, C. (2022). The Future of AI in Education: A Global Perspective. Educational Technology & Society, 25(3), 45-58.*
3. *Chaudhry, A., & Kazim, E. (2023). Ethical Considerations in the Use of AI for Education. Ethics and Information Technology, 25(1), 33-47.*
4. *Daniels, H., & Morris, P. (2022). Personalised Learning with AI: Potential and Limitations. Educational Psychology Review, 34(2), 101-118.*
5. *Fischer, C., Pardos, Z., Baker, R. S., Williams, J. J., Smyth, P., Yu, R., ... & Warschauer, M. (2022). Mining big data in education: Affordances and challenges. Review of Research in Education, 44(1), 130-160.*
6. *Isaaks, S. (2023). AI in Education: A Review of Applications and Implications. International Journal of Educational Technology, 10(2), 111-126.*
7. *Jabbar, A., & Khan, R. (2022). Artificial Intelligence in Education: Current Applications and Future Directions. Journal of Educational Research, 115(3), 56-69.*
8. *Koivusalo, H., & Lindgren, R. (2023). Teachers' Perspectives on the Use of AI in Education. Teaching and Teacher Education, 121, 103862.*
9. *Lee, J., & Shin, H. (2022). Adaptive Learning Systems: A Systematic Review. Computers & Education, 175, 104321.*
10. *Wang, T., & Chen, Y. (2022). Predictive Analytics in Education: A Review of Current Research and Future Directions. Educational Research Review, 35, 100411.*

TA’LIMDA MANTIQ TUSHUNCHASI VA O‘QUVCHILARDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Suyunova N.A.
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
“Muhandislik va axborot texnologiyalari”
kafedrasi assistenti

Annotatsiya. *Ushbu maqola umumta’lim maktablari o‘quvchilari va oliy ta’lim talabalaridagi mantiqiy fikrlash jarayonini rivojlantirishga qaratilgan. Bunda mantiq ustida olib borilgan ba’zi tadqiqot natijalari keltirilgan. O‘quvchilarga qachon va qanday qilib mantiqni o‘rgatish masalalari qo‘yilgan va ushbu masalalar yechimlari berilgan. Mantiqni rivojlantiruvchi faoliyatlar va kundalik hayotimizdagi mantiq ko‘rinishlariga izoh berilgan.*
Kalit so’zlar: *Mantiq, mantiqiy fikrlash, matematika, ta’lim, izchil fikrlash tarzi, abstraksiya, ijtimoiylashish, ijodiy fikrlash, norasmiy mantiq, rasmiy mantiq, simvolik mantiq, matematik mantiq.*

Abstract. *This article is aimed at developing the process of logical thinking in secondary school students and students of higher education. Here are some results of research on logic. Questions about when and how to teach logic to students are presented, and solutions to these questions are given. Activities that develop logic and the appearance of logic in our daily life are explained.*
Key words: *Logic, logical thinking, mathematics, education, consistent thinking, abstraction, socialization, creative thinking, informal logic, formal logic, symbolic logic, mathematical logic.*

Аннотация. *Данная статья направлена на развитие процесса логического мышления у учащихся средних школ и студентов высших учебных заведений. Вот некоторые результаты исследований по логике. Представлены вопросы о том, когда и как преподавать учащимся логику, и даны решения этих вопросов. Объясняются занятия, развивающие логику и появление логики в нашей повседневной жизни.*
Ключевые слова: *Логика, логическое мышление, математика, образование, последовательное мышление, абстракция, социализация, творческое мышление, неформальная логика, формальная логика, символическая логика, математическая логика.*

Mantiqiy fikrlash — bu mantiq qoidalariga asoslangan tizimli va aniq fikrlash jarayonidir. Bu jarayon faktlar va dalillarga asoslanib xulosalar chiqarishni, mantiqiy bog‘lanishlar va sabab-natija munosabatlarini aniqlash-ni o‘z ichiga oladi. Mantiqiy fikrlashda inson muammolarni hal qilish uchun

qoidalar va prinsiplarni qo‘llaydi, mavhumlikdan saqlanib, aniq va tushunarli xulosalarga erishishga harakat qiladi. Bu ko‘nikma turli sohalarda, jumladan matematika, huquq va kundalik hayotda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, u insoniyatning umumiy intellektual rivojlanishi va bilimlarning kengayishi uchun asosiy omillardan biridir.

Davlat darajasida yuzaga keladigan turli xil muammolarni hal qilishda mantiqiy fikrlash muhim. Masalan, ijtimoiy muammolar, iqtisodiy inqirozlar, ekologik muammolar va boshqa masalalarni tizimli va dalillarga asoslangan holda mantiq yordamida hal qilinadi. Ilm-fan sohasida ham mantiqiy fikrlash katta rol o‘ynaydi, chunki u nazariyalarni sinash va dalillar asosida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shu sababli, davlat ta’lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishda mantiqiy fikrlashni rag‘batlantirishi lozim. Bu jamiyatning umumiy intellektual salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Mantiq va mantiqiy fikrlash oliy ta’lim va umumta’lim maktablardagi ko‘pgina fanlarda muhim rol o‘ynaydi. Bunga misol sifatida Slovakiya universitetlarida o‘tkazilgan mantiq va mantiqiy fikrlashga doir tadqiqotni natijalarini keltirsak bo‘ladi. Bunda, 15 ta universitet talabalaridan 1429 kishi ishtirok etgan va ma’lumotlari baholangan. Standartlashtirilmagan bilim testi mantiqning tanlangan elementlaridan tuzilgan 15 ta topshiriqdan iborat edi. Qatnashchilarning jinsi, yoshi, o‘rta maktabni tugatish imtihonlari turi va ota-onalarning eng yuqori ta’lim darajasi bo‘yicha o‘rtacha natijalarda sezilarli farqlar aniqlandi.

Tadqiqotchilar talabalarning test natijalarini talabalarning ta’lim sohalari bo‘yicha taqqosladilar. O‘rtacha hisobda matematika-informatika yo‘nalishi talabalari 67,4%, ya’ni eng yuqori, muhandislik 61%, iqtisod 57,9% va gumanitar fanlar 54,7% muvaffaqiyatga erishdilar.

Bundan ko‘rinib turibdiki mantiq vositalari, ularning elementlari yoki qismlari deyarli barcha fanlarda, tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar, iqtisod va huquq sohalarida qo‘llaniladi. Mantiq aniq va izchil tafakkur ilmi bo‘lib, bu fansiz hech bir fanning uddasidan chiqib bo‘lmaydi va o‘z takliflarini bayon qilish va isbotlashda barcha fanlar reja yoki instinkt bilan, mantiqiy qadamlar qo‘yadi va mantiq qoidalarini qo‘llaydi.

Har bir davrdagi akademik tadqiqotda mantiqni o‘rganish va undan foydalanish fundamental ahamiyatga ega bo‘lgan. Tadqiqot intizomi sifatida mantiq 20-asrning birinchi yarmida o‘zining eng katta rivojlanish bosqichini ko‘rsatdi, ammo tadqiqotlardagi barcha yutuqlar bilan solishtirganda uning nisbiy ahamiyati kamaydi. Buning sababi nimada? Ma’lumotlariga ko‘ra, buning sababi ixtisoslashuv, tabaqalashuv va haddan tashqari ko‘p o‘rganishdir. Ushbu

hodisa tufayli talabalarga universitet mantiqni fan sifatida taklif qilsa ham, uni tan olishdan qochishadi. Xo‘sh, unda mantiqni qanday qilib rivojlantirish mumkin va qachon uni o‘rganishni boshlash kerak?

Mantiqni o‘rganishni qachon boshlash kerak?

Ta’limga qiziqqan ota-onalar va o‘qituvchilarning mantiqqa oid eng ko‘p so‘raladigan savollaridan biri bu: “O‘quvchimga qachon mantiqni o‘rgatishni boshlashim kerak?”

Albatta, javob: “U tayyor bo‘lganda”. Bu odatda yettinchi-to‘qqizinchi sinf o‘quvchilari o‘rtasidagi sodir bo‘ladigan jarayondir. Aynan shu yoshda ko‘plab bolalar narsalarning sabablarini jiddiy o‘rganishni boshlaydilar. Ular konkretlik bilan qanoatlanmaydi, balki mavhum g‘oyalarni tushuna boshlaydi va qadrlay boshlaydi.

Bolalar hozirgi vaqtda mantiqqa oid g‘oyalar bilan mutlaqo notanish emas, ular matematikada allaqachon duch kelishgan. Ammo matematika miqdoriy munosabatlar sohasida abstraksiya bilan shug‘ullansa, mantiq sifat munosabatlari doirasidagi abstraksiya bilan shug‘ullanadi. Matematika ham, mantiq ham abstraksiya bilan shug‘ullanadi, lekin matematika buni miqdorlar bilan bajaradi; mantiq (hech bo‘lmaganda an’anaviy shaklda) buni til bilan bajaradi.

Mantiqiy va izchil fikrlash tarzi turli yo‘nalishdagi o‘quvchilar uchun zarurdir. Chunki u turli xil kelib chiqadigan (ijtimoiy, gumanitar, texnik, tabiiy) hodisalarni o‘rganish uchun zarur bo‘lib, shaxsiy fazilatlarni, o‘ziga va atrof-muhitga tanqidiy munosabatni rivojlantirishga yordam beradi. U o‘quvchida o‘rganilayotgan hodisaning asosiy elementlarini aniqlash asosida keng ko‘lamli gipotezalar, innovatsion g‘oyalar va muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Shuning uchun ham o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish matematika o‘qitish nazariyasi va amaliyotining hamisha diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Mantiqni qanday qilib rivojlantirish kerak?

Deyarli hamma mahorat singari, mantiq ham to‘g‘ri mashqlar va faoliyatlar orqali yaxshilanishi va rivojlanishi mumkin. Ulardan ba’zilarini ko‘rib chiqamiz:

- Ijtimoiylashish, boshqacha qilib aytganda, yangi munosabatlar o‘rnatish sizning nuqtayi - nazaringizni kengaytiradi. Shu tarzda, vaziyat va fikrlarga turli tomonlardan yondashish qobiliyati bilan ko‘proq va ko‘proq mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishingiz mumkin.
- Miyamizning chap yarim shari mantiqiy fikrlash uchun mas’ul bo‘lsa-da, asosan miyamizning o‘ng yarim shari tomonidan boshqariladigan ijodiy faoliyat mantiqiy fikrlashni

rivojlantirishga yordam beradi. Shuning uchun, bolalaringizni tasavvur o‘yinlarini o‘ynash, rasm chizish, bo‘yash, yozish va musiqa chalish kabi ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga undash lozim. Bundan tashqari, bu vazifalar ijodkorlikni talab qilganligi sababli, ijodiy fikrlash bolalarga maktabda yaxshiroq bo‘lishga yordam beradigan qobiliyatlarini tabiiy ravishda rivojlantiradi.

- Mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirishning eng yaxshi usullaridan biri bu odatda haqiqat sifatida qabul qilgan narsalar haqida savollar berishdir. Bunday savollarni berishni odat qilish sizga vaziyatlarni to‘liqroq ko‘rishga yordam beradi va vaziyatlarga mantiqiy va ijodiy yondashish imkonini beradi.

Misol uchun: Ota-onalar: "Havo sovuq, chunki ..."

Bola: "... qor / qish / yomg‘ir yog‘moqda."

- Sirli kitoblar va hikoyalarni o‘qish orqali ham mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishingiz mumkin.
- Aqliy o‘yinlar va topishmoqlar kabi boshqotirma o‘yinlari har doim qiziqarli mashg‘ulotlardir. Biroq, bu mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradigan faoliyatlar eng aktivlaridandir

Haddan tashqari stress mantiqiy fikrlashning eng yomon dushmanlaridan biridir. Lekin ishonib bo‘lmasada, ko‘pchilik bolalar kattalarga qaraganda ko‘proq stressni boshdan kechirishadi.

Bolalar stress holatini boshqara olsa, ular diqqatni jamlash va mantiqiy qarorlar qabul qilishda qiynalmaydilar. Va stressni boshqarishning eng yaxshi usullaridan biri bu ongni mashqlaridir.

Kundalik hayotimizda mantiq bir necha ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

Norasmiy mantiq - biz odatda kundalik fikrlash jarayonlari uchun foydalanadigan mantiq. Bu sizning boshqalar bilan shaxsiy muloqotda olib boradigan mulohazalar va dalillardir va ular faktlarga asoslanmagan, balki subyektivdir.

Masalan: Oybek ishga ketayotganda narvon ostidan o‘tdi. Oybek bugun ishdan haydaldi.

Xulosa: Narvon ostidan o‘tish - omadsizlik.

Izoh: Bu xurofotga asoslangan taxmin. Bu faktga asoslangan mantiqqa ega emas.

Rasmiy mantiq deduktiv fikrlashni talab qiladi va fikrlar faktlarga asoslangan bo‘lishi kerak va ular rasmiy xulosaga olib kelishi kerak.

Masalan: Velosipedlarda ikkita g‘ildirak bor. Jasur velosipedda ketmoqda.

Xulosa: Jasur ikkita g‘ildirak orqali ketmoqda.

Izoh: Xulosa faktlarga asoslangan, shuning uchun xulosa haqiqatdir.

Simvolik mantiq, nomidan kelib chiqqan holda, belgilarning bir-biri

bilan bog‘liqligiga e’tibor qaratadi. Matematik jarayon orqali xulosalarning to‘g‘riligini tekshirish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun mulohazalarni belgilaydi.

Masalan:

A – Agar barcha sutemizuvchilar bolalarini sut bilan boqsa,

B – Agar barcha itlar bolalarini sut bilan boqsa,

C – Barcha itlar sutemizuvchilardir.

Xulosa: $A \Lambda B \Rightarrow C$

Izoh: A va B mulohazalardan C xulosaga kelinadi.

Matematik mantiq. O‘z-o‘zidan ma’lumki, barcha matematik muammolar mantiqqa asoslangan va ularning har biri faktlarga asoslangan yagona natijaga ega. Matematik mantiq rasmiy mantiqni matematikaga tatbiq qilganligi sababli, matematik mantiq va simvolik mantiq ko‘pincha bir-birining o‘rnida ishlatiladi.

Bugungi raqamli asrda informatika fani nafaqat texnologik bilimlar balki mantiqiy fikrlash, muammo yechish, algoritmik yondashuv kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Informatikani samarali o‘qitish uchun uni faqat texnik bilimlar majmui sifatida emas, balki mantiqiy-tizimli asosda o‘rgatish zarur. Ushbu maqolada informatika fanini mantiqiy-tizimli o‘qitishni takomillashtirish metodlari va bu metodlarda mantiqiy fikrlashning tutgan o‘rni yoritib beriladi.

Mantiqiy-tizimli yondashuv — bu o‘quv materialini tartibli, ketma-ketlikka asoslangan, sabab-oqibat munosabatlarini hisobga olgan holda taqdim etish jarayonidir. Ushbu uslubda bilimlar izchil, bosqichma-bosqich tushuntiriladi va har bir yangi tushuncha oldingi bilimlarga tayanadi. Informatika fanini bu tarzda o‘qitish o‘quvchilarda mustahkam bilimlar asosini yaratadi.

Takomillashtirish metodlari

1. Algoritmik yondashuv asosida dars tashkil etish

Har bir mavzuni algoritmik fikrlash asosida bayon qilish, o‘quvchilarda muammoni bosqichlarga bo‘lib, har bir bosqichni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Masalan, “shart operatorlari” mavzusini real hayotiy misollar asosida ifodalayotganda, har bir holatni ifodalovchi shart va unga mos natijani tahlil qilish orqali mantiqiy fikrlash kuchaytiriladi.

2. Blok-sxemalar bilan ishlashni kengaytirish

Blok-sxemalar yordamida o‘quvchilarning vizual fikrlash va tizimni ko‘rish qobiliyati rivojlanadi. Har bir algoritmni blok-sxema shaklida tuzish va uni kodga aylantirish o‘quvchining mantiqiy tahlil qilish malakasini oshiradi.

3. Muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish

O‘quvchilarga yechimi darhol topilmaydigan savollarni berish

(masalan: “Berilgan son musbat, manfiy yoki nol bo‘lishiga qarab turli javob qaytarsin”) ularni izlashga, fikrlashga va tajriba o‘tkazishga undaydi. Bu usul informatika fanining ijodiy va tahliliy jihatini ochib beradi.

4. Dasturlash tillarida mantiqiy topshiriqlarni bajarish

Masalan, Python tilida “if” operatori yordamida har xil shartli vazifalarni yozish. Ushbu topshiriqlar o‘quvchining mantiqiy bog‘lanishlarni tushunishiga xizmat qiladi.

5. Tarmoqli dars tuzilmasidan foydalanish

Darsni faqat bir yo‘nalishda emas, balki bog‘liq tushunchalarning o‘zaro aloqadorligini ko‘rsatish orqali tashkil qilish (masalan: ma'lumot turlari – operatorlar – algoritmlar – dastur tuzish). Bu yondashuv o‘quvchida tizimli fikrlashni shakllantiradi.

Mantiqiy fikrlashning roli

Informatika o‘qitish jarayonida mantiqiy fikrlash quyidagi jihatlarda muhim ahamiyatga ega:

Muammo yechimini bosqichma-bosqich rejalashtirish: Dastur tuzishda yoki algoritm yaratishda mantiqiy ketma-ketlik zarur bo‘ladi.

Shartli va takroriy operatorlarni tushunish: Bu operatorlarni to‘g‘ri ishlatish mantiqiy tahlilni talab etadi.

Xatoliklarni aniqlash va tuzatish: Dasturdagi xatoni topish uchun o‘quvchi har bir buyruqning mantig‘ini tushunishi lozim.

Tizimli yondashuv: Har bir mavzuning boshqa mavzular bilan bog‘liqligini tushunish, umumiy rasmni ko‘ra olish salohiyatini oshiradi.

Xulosa

Shuni ta’kidlash kerakki, ko‘pchilik zamonaviy mantiqchilar mantiqning til san’ati sifatidagi nuqtayi nazarini ma’qullamaydilar. Ular matematikani mantiqning kengaytmasi sifatida ko‘rishadi.

Demak, zamonaviy mantiqni o‘rganish uchun o‘quvchida dastlabki matematik tushunchalar bo‘lishi va matematik elementar amallarni bajara olishi kerak. Shundagina o‘quvchida mantiq va mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi va albatta, bu jarayonda ota-onaning roli juda muhim.

Natijalarga ko‘ra, ota-onasi oliy ma’lumotga ega bo‘lgan o‘quvchilar ota-onasi o‘rta yoki boshlang‘ich maktabni tugatganlarga qaraganda yaxshiroq natijalarga erishgan. Bizning taxminimizga ko‘ra, bu o‘quvchining butun maktab ta’limi davomida ota-onalarning ko‘proq umidlari va talablari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, oliy ma’lumotli ota-onalar o‘z farzandlarini o‘qish, o‘quv dasturini o‘zlashtirish va tushunishda ko‘proq darajada qo‘llab-quvvatlashlari va ijobiy namuna bo‘lishlari mumkin. Ular, shuningdek, bolalarning keyingi ta’lim bosqichlarini davom ettirishlarida va ularning o‘qishlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashda muhimroq ishtirok etadilar.

Informatika fanini mantiqiy-tizimli asosda o‘qitish nafaqat o‘quvchilarning texnik bilimlarini, balki ularning fikrlash, tahlil qilish va muammo yechish salohiyatini ham rivojlantiradi. Yuqorida bayon qilingan metodlarni amaliyotga tatbiq etish orqali informatika darslarini samarali va mazmunli tashkil qilish mumkin. Bu esa zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan, raqamli savodxonlikka ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Martin Cothran 2020, 1-Aprel “Mantiq qanday o‘qitiladi”

2. N. A.Tarasenkova, I. A. Akulenko Bohdan Khmelnytsky, Cherkassiya Milliy universiteti, Ukraina “Umumta’lim maktabida fan ixtisosligi bo‘yicha o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish masalalari”

3. S.Bakir, E.Öztekin-Biçer, va Ö.Biçer, (2015). “Ilmiy fan o‘qituvchilarining mantiqiy fikrlash va kognitiv rivojlanish darajalari”

4. Zoltan Feher, Ladislav Jaruska, Katarína Szarka, Eva Tothova Tarovaz “Oliy o'quv yurtlarida talabalarning fanlar nuqtai nazaridan mantiqiy fikrlashi” STEME Education Volume 8 - 2023

5. https://www.nifdi.org

6. https://www.mentalup.com

7. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.

8. Tursunov, B. T. (2020). Informatikani o‘qitish metodikasi. – T.: “Fan va texnologiya”, 198 bet.

9. Djamoldinova, G'. A. (2021). Informatika va axborot texnologiyalarini zamonaviy metodlar asosida o‘qitish. – Samarqand: SamDU nashriyoti.

10. Polat E.S., Bukharkina M.Yu., Moiseeva M.V. Pedagogika i psixologiya distantsionnogo obucheniya. – M.: Akademiya, 2020.

11. Cormen, T. H., Leiserson, C. E., Rivest, R. L., & Stein, C. (2009). Introduction to Algorithms (3rd ed.). – The MIT Press.

12. Wing, J. M. (2006). Computational Thinking. – Communications of the ACM, 49(3), 33–35.

13. Grover, S., & Pea, R. (2013). Computational Thinking in K–12: A Review of the State of the Field. – Educational Researcher, 42(1), 38–43.

14. Papert, S. (1980). Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. – New York: Basic Books.

15. Mavlonov A. Sh. (2018). Pedagogik texnologiyalar: nazariyasi va amaliyoti. – T.: O‘qituvchi.

16. UNESCO. (2019). Guidelines on Artificial Intelligence and the Futures of Learning. – unesdoc.unesco.org

TA'LIM OLUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA NORAVSHAN MANTIQDAN FOYDALANISH

Kuvandikov J.T. Tojiyev A.H.
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya. *Ta'lim oluvchilar bilimini baholashda noravshan mantiqni ishlatish juda foydali bo'lishi. Noravshan mantiq o'zining noaniq va qisman aniq qiymatlar bilan ishlash imkoniyatidan foydalanib, aniq baholar o'rniga yanada xususiy va chuqurroq baholashni ta'minlaydi. Bu masalan talabalar javoblarini baholashda yoki ularning darsga bo'lgan yondashuvini tahlil qilishda yordam beradi.*
Kalit so'zlar: *Fuzzy Logic, Defuzzification, Fuzzification, membership function.*

Abstract. *The use of fuzzy logic in assessing student learning is very useful. Fuzzy logic, by using its ability to work with vague and partially precise values, provides a more specific and in-depth assessment instead of precise grades. This can be useful, for example, in assessing student responses or analyzing their approach to a lesson.*
Keywords: *Fuzzy Logic, Defuzzification, Fuzzification, membership function.*

Аннотация. *Использование нечеткой логики может быть очень полезным при оценке знаний учащихся. Нечеткая логика, используя свою способность работать с неопределенными и частично точными значениями, обеспечивает более конкретные и глубокие оценки вместо точных оценок. Это может быть полезно, например, при оценке ответов учащихся или анализе их подхода к уроку.*
Ключевые слова: *Нечеткая логика, дефаззификация, фаззификация, функция принадлежности.*

Noravshan mantiq (inglizcha: **Fuzzy Logic**) an'anaviy mantiq (klassik mantiq) bilan solishtirilganda, noaniqlik va nomutlaq to'g'rilik sharoitida ishlashga mo'ljallangan mantiqiy tizim hisoblanadi. Klassik mantiqda biror hodisa yoki obyekt faqat **"rost" (1)** yoki **"yolg'on" (0)** holatida bo'ladi. Biroq, noravshan mantiqda har qanday hodisa yoki obyekt **to'liq haqiqiy yoki to'liq yolg'on bo'lishi shart emas**, balki **oraliq qiymatlar** ham bo'ladi.

Noravshan to'plamlar an'anaviy to'plamlardan farqli ravishda, biror element to'plamga kirishi muayyan darajada (0 dan 1 gacha) aniqlanadi. Mantiqiy operatsiyalar klassik mantiqda ishlatiladigan VA (AND), YOKI (OR), EMAS (NOT) operatsiyalari noravshan mantiqda ham mavjud, ammo ular noaniq qiymatlar bilan ishlaydi. Aqlli qaror qabul qilish noravshan mantiq insoniy fikrlash usuliga yaqin bo'lib, aniq chegaralarga emas, balki taxminiy baholashga

asoslanadi[1]. Noravshan mantiq murakkab tizimlarni modellashtirishda, ayniqsa, sun'iy intellekt, Avtomatlashtirish, robototexnika, tibbiyot va muhandislik sohalarida keng qo'llaniladi.

An'anaviy baholash tizimlari odatda **diskret va aniq chegaralangan** bo'lib, talabalar bilimini ma'lum ballar yoki baholar (masalan, 5, 4, 3, 2 yoki A, B, C) bilan ifodalaydi. Biroq, **bilim darajasi har doim ham aniq chegaralar bilan ajratilmaydi**, chunki ta'lim oluvchilarning javoblari yoki bilim darajasi **noaniq bo'ladi. Noravshan mantiq** ushbu muammoni hal qilishga yordam beradi va baholash jarayonini **real dunyoga mosroq qiladi.**

Noravshan mantiqda baholash an'anaviy tizimlardan farqli ravishda talabalar bilimini mutlaq to'g'ri yoki noto'g'ri deb baholamaydi, balki bilim darajasini uzluksiz oraliqda ifodalashga imkon beradi. Bu yerda har bir talabaga 0 dan 1 gacha bo'lgan ishonchlilik darajasi orqali baho beriladi[2].

Masalan, agar an'anaviy tizim bo'yicha quyidagi baholash mavjud bo'lsa:

- 90–100% – A
- 80–89% – B
- 70–79% – C
- 60–69% – D
- 0–59% – F

Noravshan mantiqda esa baholar qat'iy chegaralar bilan ajratilmaydi, balki har bir foiz oralig'iga mos keluvchi ishtirok darajasi (membership function) bo'yicha aniqlanadi. Masalan, 85% natijaga ega bo'lgan talaba A va B baholariga ma'lum darajada tegishli bo'ladi (masalan, 0.6 A va 0.4 B).

Noravshan baholashda esa talabaning natijasi **aniq baho oralig'iga emas, balki bir nechta baholar toifasiga mos keladi**. Shuning uchun, baholash qoidalari **noravshan to'plamlarga asoslanadi[3]**.

Bu toifalar keskin chegaralarga ega emas, balki har bir ta'lim oluvchi ma'lum darajada har bir toifaga tegishli bo'ladi. Masalan, 82% baho qo'yish kerak bo'lsa, u:

- A'lo – 0.8
- Yaxshi – 0.7

darajada tegishli bo'ladi. Bu usul ta'lim oluvchi bilim darajasini aniqroq tavsiflashga imkon beradi.

Noravshan mantiqda qoidalar bazasi bilim oluvchi test natijalari va baho orasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Bu qoidalar If-Then tamoyili asosida tuziladi. Quyida bilim darajasiga qarab tuzilgan ba'zi misollar keltirilgan:

Agar test natijasi juda past bo'lsa, unda baho 2 bo'ladi.
Agar test natijasi past bo'lsa, unda baho 3 bo'ladi.
Agar test natijasi o'rtacha bo'lsa, unda baho 3 yoki 4 bo'ladi.
Agar test natijasi yaxshi bo'lsa, unda baho 4 yoki 5 bo'ladi.
Agar test natijasi a'lo bo'lsa, unda baho 5 bo'ladi.

Noravshan baholash tizimi odatda 3 bosqichdan iborat:

1. Noravshan ma’lumotlarni kiritish (Fuzzification)
   - Test natijalari, yozma ishlar yoki og‘zaki javoblar asosida bilim darajasi aniqlanadi.
   - Noravshan to‘plamlar orqali tegishli ishonchlilik darajasi belgilanadi.
2. Qaror qabul qilish qoidalari (Fuzzy Inference System - FIS)
   - Masalan, agar test natijasi 75% bo‘lsa, u o‘rtacha va yaxshi toifalariga tegishli bo‘ladi.
   - Mantiqiy qoidalar asosida yakuniy baho hisoblanadi.
3. Aniqlikka keltirish (Defuzzification)
   - Noravshan natija an’anaviy bahoga aylantiriladi.
   - Masalan, Yaxshi (0.7) va O‘rtacha (0.3) aralashmasi 4.0 bahosiga ekvivalent bo‘ladi[4].

Noravshan baholashning afzalliklari:

Aniq chegaralarga bog‘liq emas – Talabalar bilimini qatiy chegara bilan emas, balki real noaniqlikni hisobga olgan holda baholanadi.

Tafakkurga yaqin yondashuv – Inson tafakkuri kabi, baholash tizimi ham qisman to‘g‘ri yoki qisman noto‘g‘ri javoblarni hisobga oladi.

Obyektiv va adolatli baholash – Ta’lim oluvchi bilim darajasiga mos keladigan **realistik baho** qo‘yiladi.

Moslashuvchanlik – Ta’lim oluvchilarning yutuqlarini aniqroq kuzatish va ular uchun mos o‘quv strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi[5].

Xulosa.

Noravshan mantiq asosida bilimni baholash tizimi an’anaviy baholash usullaridan samaraliroq bo‘lib, ta’lim jarayonida noaniqlik va subyektivlikni minimallashtiradi. Ushbu yondashuv **aniq baholash mezonlarini ishlab chiqish, individual xususiyatlarni hisobga olish va adolatli baholashni ta’minlash** imkonini beradi. Shu sababli, zamonaviy ta’lim tizimida noravshan mantiq yondashuvlarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamdani, E. H., "Application of Fuzzy Logic to Approximate Reasoning Using Linguistic Synthesis," IEEE Transactions on Computers, vol. C-26, no. 12, Dec. 1977, pp. 1182–1191.
2. Muhamediyeva D.T., Egamberdiev N.A. Algorithm and the Program of Construction of the Fuzzy Logical Model // International Conference on Information Science and Communications Technologies: Applications, Trends and Opportunities, ICISCT 2019, November 4, 2019.
3. Raximov N.O., Kuvandikov J.T Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlarida bilim olish jarayonini boshqarish // Matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va dasturiy ta'minot injeneriyasining dolzarb muammolari ilmiy konferensiya Qarshi – 2020 y.
4. Raximov N.O., Daminova B., Kuvandikov J.T Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlarida bilim olish jarayonini boshqarish yondashuvi // Oliy ta'lim tizimida masofali ta'limni joriy etishning texnik-dasturiy va uslubiy ta'minotini takomillashtirish istiqbollari Qarshi 2021 yil 28 may 147-150 bet.
5. Kuvandikov J.T. Baholash ko'rsatkichlarining ko'p bosqichli tahlili asosida bilimlarni aks ettirishning noravshan mantiq asosida qaror qabul qilish algoritmi // Raqamli Transformatsiya va Sun'iy Intellekt ilmiy jurnali. – Vol. 2, Issue 5, Toshkent -2024. B. 83-90.

KASB–HUNAR TA'LIMIDA ELEKTRON TA'LIMNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Djabbarova M.D.
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kasb-hunar ta'limi tizimida elektron ta'limning pedagogik va psixologik asoslari yoritilgan. Elektron ta'limning zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi o'rni, uning afzalliklari, muloqot tamoyillari, o'quvchi va talabalar bilan samarali aloqani tashkil etishdagi ahamiyati keng muhokama qilingan.*
Kalit so'zlar: *elektron ta'lim, pedagogik asoslar, psixologik jihatlar, interaktiv muloqot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim samaradorligi, masofaviy o'qitish.*

Abstract. *This article explores the pedagogical and psychological foundations of e-learning in the vocational education system. It highlights the role of modern technologies in enhancing the learning process, the benefits of e-learning, principles of communication, and the importance of effective interaction between educators and learners.*
Keywords: *e-learning, pedagogical foundations, psychological aspects, interactive communication, information and communication technologies, learning efficiency, distance education.*

Аннотация. *В статье рассматриваются педагогические и психологические основы электронного обучения в системе профессионального образования. Подробно анализируется роль современных технологий в образовательном процессе, преимущества электронного обучения, принципы взаимодействия и значение эффективной коммуникации между преподавателями и учащимися.*
Ключевые слова: *электронное обучение, педагогические основы, психологические аспекты, интерактивное общение, информационно-коммуникационные технологии, эффективность обучения, дистанционное обучение.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, fan-texnika va texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda axborotlashgan jamiyatga o'tish jarayoni ta'lim strategiyasining o'zgarishiga olib kelmoqda. Natijada, uzluksiz ta'limning yangi shakllari, jumladan zamonaviy o'qitish texnologiyalariga asoslangan tarmoqli, axborotli, masofaviy va innovatsion ta'lim texnologiyalari shakllandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan yangi ta'lim turlarining paydo bo'lishiga asosiy sabab, jamiyatning turli qatlamlariga mansub kishilarga bilim berish, ularning malakasini muntazam oshirib borish va qayta tayyorlash vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishda an'anaviy ta'lim usul va vositalarining

imkoniyatlari cheklanganligidir. Bunday sharoitda oliy ta'lim muassasalari salohiyatiga tayangan holda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dars jarayonining samaradorligini oshirish hozirgi zamon pedagogikasining dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Texnika, texnologiya va ishlab chiqarishning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi oliy ta'lim hamda akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida ta'lim olayotgan o'quvchi va talaba yoshlardan ushbu rivojlanishga mos bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlarini talab etmoqda.

O'quvchi va talaba yoshlarga texnika va texnologiyalarning yangi yutuqlarini o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish uchun ularni o'qitish usullarini tubdan yangi bosqichga ko'tarish zarurati davr talabi bo'lib qolmoqda. Bu muhim vazifani hal etishda kundalik hayotga jadal kirib kelayotgan zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslaridan keng foydalanish muhim rol o'ynashi shubhasiz.

Elektron ta'lim o'quv jarayonining ishtirokchilari o'rtasida aloqaning ma'lum turini talab qiladi, shuning uchun o'zaro aloqaning barcha jihatlariga, jumladan, psixologik-pedagogik, tashkiliy va texnik xususiyatlariga alohida talablar qo'yiladi. Ko'pgina tadqiqotchilar o'zaro muloqotni tashkil etishning ahamiyatiga e'tibor qaratadilar va shuningdek, fikr-mulohaza (orqa bog'lanish) jarayonidagi rolini ta'kidlaydilar. Ta'limni samarali tashkil etish uchun quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilish zarur: didaktik muloqotni puxta tashkil etish; o'quvchi va talabalar (o'quvchilar)ga individual yordam ko'rsatish, maslahatlar berish, kurs doirasidagi yangi ma'lumotlar joylashuvi, masofaviy tadbirlar haqida axborot taqdim etish; interaktiv faoliyatni mustaqil ish bilan optimal nisbatda almashish.

Elektron ta'limning kommunikativ tarkibiy qismiga oid asosiy omil shundaki, o'quvchi va talabalar bir-biridan, o'qituvchidan va tashqi dunyodan ajralganlikni his qilmasliklari kerak. Ta'lim dasturi o'quv jarayonining ishtirokchilari o'rtasida o'zaro aloqani yaratish uchun turli usul va vositalarni nazarda tutishi lozim. O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti – bu kommunikativ kompetensiya darajasini sezilarli darajada oshirishga imkon beruvchi muhim psixologik rivojlanish komponentidir.

Hozirgi kunda sinovdan o'tgan maxsus axborot vositalari, jumladan, kompyuter texnologiyalari, audio va video vositalari, elektron ta'lim resurslari, virtual stendlar hamda animatsiyali dasturlar yordamida o'quv jarayonlarini olib borish o'quvchi va talabalar tomonidan dars materiallarini samarali o'zlashtirishga katta foyda

keltiradi. Elektron ta'lim resurslari orqali darslarni tashkil etish jarayonida o'quvchi va talabalarga bilimlarni nafaqat eshitish, balki ko'rish sezgilari orqali ham qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Bu, o'z navbatida, tushunchalarning ma'nosi va mohiyatini chuqur anglashlariga sezilarli yordam beradi.

Bizning fikrimizcha, elektron ta'lim vositalaridan foydalanganda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berish zarur:

Jihat	**Alohida e'tibor berish darajasi (%)**
O'quv materiallariga qo'yiladigan didaktik talablarni ishlab chiqish	100
Animatsion dasturlardan foydalanish vaqtini 25–30 minutdan oshirmaslik	90
Mavzu bilan bog'liq tushunchalar o'qituvchi va o'quvchi va talabalar tomonidan ikki tomonlama muloqot tarzida muhokama etilishi	85
O'quvchi va talabalar taqdim etilayotgan materiallarni mustaqil qayta ishlashlari va yangi tushunchalarni shakllantirishlari	95
O'qitish natijalarini baholash mezonlarini aniqlash	80

Elektron ta'lim vositalari, masalan, kompyuter texnologiyalari, audio–video materiallar va animatsiyali dasturlar yordamida dars jarayonini o'tkazish o'quvchi va talabalar tomonidan materiallarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi. Bu usullar o'quvchilarga faqat eshitish bilan cheklanmay, ko'rish sezgilari orqali ham bilimlarni qabul qilish imkonini beradi, natijada tushunchalar aniq va to'liq anglanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1] Марчук Н.Ю. Психолого–педагогические особенности дистанционного обучения / Н.Ю. Марчюк. – Педагогическое образование в России. – 2013. – №4. – С. 78–85.

[2] Usmonov M. Interaktiv elektron o'quv kurslar – o'qitish faoliyatining yangi vositasi sifatida. // «Xalq ta'limi» jurnali, 2013, 5–son.

[3] Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: «Fan» 2007.

[4] Taylaqov N.I. Elektron darslik yaratishda qo'yiladigan talablar. // «Xalq ta'limi» jurnali, 2005, 2-son

OLIY TA'LIMDA MAXSUS FANLAR BO'YICHA MASHG'ULOTLARDA ISHCHAN VA ROLLI O'YINLAR METODINI QO'LLASH INNOVATSION YONDASHUV

Anarkulova G.M.,
TMII "Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi" professori
Abduraxmanova F.N.
TMII magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta'limda maxsus fanlar bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishda ishchanli va rolli o'yinlardan foydalanish, hamda ularni ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati muammolari yoritilgan.*
Kalit so'zlar: *ishchan o'yinlar, rolli o'yinlar, ta'lim samaradorligi, o'qitish metodi.*

Abstract. *The article examines the problem of using methods of game and role-playing games in organizing classes on special subjects in higher educational institutions, as well as their importance in increasing the effectiveness of training.*
Keywords: *business games, role-playing games, training effectiveness, training methods.*

Аннотация. *В статье рассматривается проблема использование методов игровых и ролевых игр при организации занятий по специальным предметам в высших учебных заведениях, а также их значение в повышении эффективности обучения.*
Ключевые слова: *деловые игры, ролевые игры, эффективность обучения, методика обучения.*

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yilga bag'ishlangan Oliy Majlisga va xalqqa murojaatnomasida quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tdi: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim".[8]

Iqtisodiyotning barcha sohalari rivojlanishi bilan bir qatorda uzluksiz ta'lim tizimining har bir bo'g'inida islohatlar olib borilmoqda. Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va unga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish zamonaviy talablardan hisoblanadi. O'quv jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishdan maqsad:

– talabani mantiqiy fikr yuritishga, muammolarni ilmiy, ijodiy yechishga oid koʻnikmalarni shakllantirish;

– zaruriy bilimlarni mustaqil ijodiy izlash koʻnikmasini shakllantirish;

– uchragan qiyinchiliklarni bartaraf etish koʻnikmalarini shakllantirish;

– oʻquv materialini asosli, tushunarli boʻlishini taʼminlash;

– oʻquv materialini chuqurroq va mustahkamroq oʻzlashtirishga yordam beradi;

– bilimlar ishonchga aylanishiga koʻmaklashadi;

– talabada oʻqishga nisbatan ijobiy hislarni shakllantirish;

– talabada yangi bilimlarni olishga qiziqishni shakllantirish va rivojlantirish;

– ijodiy shaxsni shakllantirish.

Taʼlim jarayonida talabalarning maxsus fanlardan bilim va koʻnikmalarni egallashda faolligini oshirishga yoʻnaltirilgan oʻqitish usullaridan biri – bu ishchan va rolli oʻyinlardir.

Ishchan va rolli oʻyinlar - talim oluvchilarni mustaqil va ijodiy faoliyat koʻrsatishlarini rivojlantirish, yangi oʻquv materialini oʻzlashtirish va mustahkamlash turli vaziyatlarda oʻquv materialini oʻrganish imkonini beradi.

Ishchan va rolli oʻyinlarni qoʻllashda quyidagi maqsadlar amalga oshiriladi:

1. **Didaktik -** talabalarning mustaqil ishlash va ijodiy qobiliyatni rivojlantirish; yangi koʻnikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarning amalda qoʻllash, dunyoqarashni kengaytirish;
2. **Rivojlantiruvchi -** mustaqil va ijodiy fikrlashni oʻstirish;
3. **Qiziqtiruvchi -** talabalarni taʼlim olishga va oʻrganishga qiziqtirish, natijalarni ragʻbatlantirish;
4. **Tarbiyaviy -** etik va estetik qarashlarni rivojlantirish, maʼsuliyatni shakllantirish.
5. **Moslanuvchanlik –** atrof-muhit sharoitiga oʻrganish, jamiyat rivojlanishga va milliy qadriyatlarga moslanish.

Oʻyinlarda talabalar tomonidan oʻzaro bir-biri bilan bogʻlangan bir necha darajadagi maqsadlar amalga oshiriladi.

Birinchi maqsad – oʻyin jarayonining oʻzidan xursand boʻlish. Bu maqsadda, agar faollik xursandchilik keltirsa, har qanday faollikka tayyorlikni belgilovchi koʻrsatma aks etadi.

Ikkinchi daraja maqsadi – funksional, u oʻyin qoidalarini bajarish bilan, syujetlarni, rollarni oʻylab topish bilan bogʻliq.

Uchinchi darajaning maqsadi oʻyinning ijodiy vazifalari – aniqlab bilish, topish, chigalni yozish, natijalarga erishish va hokazoni aks ettiradi.

Shuningdek, talabalarning maxsus fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallash bilan bir qatorda ularda aqliy va hissiy jihatdan erkinlik va ijodiy tashabbus kabi hislatlar rivojlanadi.

Ishchan o‘yin muayyan o‘quv fani doirasida ishlab chiqilib, pedagogik o‘yinlarning barcha tarkibiy qismlarini o‘z ichiga qamrab olgan o‘yin turlaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. L.D. Stolyarenko ishchan o‘yinga quyidagicha ta’rif beradi: “**Ishchan o‘yin** – mutaxassisning bo‘lajak kasbiy faoliyatining predmetli va ijtimoiy mazmunini tanlash, bu faoliyat uchun xos bo‘lgan munosabatlar tizimini modellash, umumiy kasbiy muammoli vaziyatlarda sinaladigan kasbiy muammolarni, real qarama-qarshiliklarni va qiyinchiliklarni modellash shaklidir”.

Ishchan o‘yin, odatda, maxsus fanlar bo‘yicha o‘tkaziladi va ko‘pincha fanlararo xarakteriga ega. Ishchan o‘yin mutaxassislarning va ishchilarning amaliy faoliyatida yuzaga keladigan aniq bir muammo yoki masalaning qulay yechimini izlashga asoslangan. Ishchan o‘yinlar o‘qitishning boshqa an’anaviy metodlaridan farqli ravishda faoliyatni ancha to‘laroq amalga oshirishga, qiyinchiliklarni va ularning paydo bo‘lish sabablarini aniqlashga, qiyinchiliklarni hal qilish variantlarini ishlab chiqishga va baholashga, qarorlar qabul qilishga va ularni amalga oshirish mexanizmlarini aniqlashga imkon beradi.

A.T.Semushkina va N.T. Yaroshenko ishchan o‘yinning quyidagi majburiy elementlarini va shartlarini ajratib ko‘rsatishadi:

- didaktik (o‘quv) vazifa – ma’lum darajadagi bilimlarni shakllantirishga, ma’lum doiradagi bilimlarni aniqlashtirish va tartibga solishga, fikrlashning ma’lum xossalarini rivojlantirishga, shaxsning ma’lum sifatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilganlik;
- o‘quv ishlab chiqarishga oid o‘yin – masala – talaba bajaradigan rol bilan bog‘liq; mehnat jarayonini modellash mutaxassislar bo‘lajak mehnat faoliyatlarida bajariladigan kasbga oid vazifalariga mos bo‘lishi kerak;
- rollarning mavjudligi – har bir talaba o‘yin sharoitiga ko‘ra o‘ziga biror rolni qabul qiladi; bu rol uning mehnat faoliyatida bajarish kerak bo‘lgan vazifasiga talaba foydalaniladigan lavozimlar nomiga mos bo‘lish kerak; shuning uchun (menejerlar, buxgalterlar, tovarshunoslar va h.k.) talablarni kiritish maqsadga muvofiqdir;
- roldagi maqsadlarning farqi - har bir rol boshqalari bilan bir xil bo‘lmaydigan aniq vazifalarga qaratilgan bo‘lishi kerak, bir ijrochining vazifalari boshqasi tomonidan bajarilmasligi kerak, aks holda har

birining faoliyatini baholash qiyin bo‘ladi;

- o‘yinli (ziddiyatli) vaziyat – o‘yinning sharoitlarida, ssenariysida ifodalanadi va rivojlanuvchi harakat mazmuni ko‘rinishda beriladi, unga asosiy mazmun ham kiritiladigan (bexosdan vujudga keladigan) holatlar imkoniyatlari ham kirib, ular o‘yindagi ziddiyatni kuchaytiradi;
- o‘yin qoidalari – o‘yinchilar chegarasidan chiqmasligi kerak bo‘lgan cheklashlar, shuningdek o‘yinchilarning harakatlarni noto‘g‘ri bajarganligi va belgilangan cheklashlarni buzganligi (masalan, jarima ochkolari, dastlabki holatga qaytarish) uchun “Jazo choralari”;
- o‘yinning jamoaviy xarakteri - o‘ynovchilarning o‘zaro harakatlari, u bir tomondan jamoaviy qaror chiqarishda ifodalansa, ikkinchi tomondan – o‘yinning ayrim ishtirokchilari yoki o‘ynayotganlarning alohida guruhlarning fikrlari va holatlari bilan bog‘liq qarorlarning ko‘p muqobilligiga yo‘l qo‘yuvchi o‘zaro ta’sirlashuvlar;
- o‘yindagi qodirlik – ishtirokchilarning faoliyatini shaxsiy yoki guruhiy baholash bo‘lib, bunda ishtirokchilar o‘zlarini yutgan yoki yutqazgandek, u yoki bu darajada muvaffaqiyatli o‘ynagandek his qilishlari kerak. Natija o‘quv ishlab chiqarish masalasini bajarish tezligiga ko‘ra farq qiladi; qabul qilinayotgan qarorlarning to‘g‘riligi va samaradorligiga ko‘ra; masalalar yechishda qoida buzganlik yoki yo‘l qo‘yilgan xatoliklar uchun olingan jarima ochko miqdoriga ko‘ra farq qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ishchan o‘yin mutaxassislarning va ishchilarning amaliy faoliyatida yuzaga keladigan aniq bir muammo yoki masalaning qulay yechimini izlashga asoslangan. Ishchan o‘yinlar o‘qitishning boshqa an’anaviy uslublaridan farqli ravishda faoliyatni ancha to‘laroq amalga oshirishga, qiyinchiliklarni va ularning paydo bo‘lish sabablarini aniqlashga, qiyinchiliklarni hal qilish variantlarini ishlab chiqishga va baholashga, qarorlar qabul qilishga va ularni amalga oshirish mexanizmlarini aniqlashga imkon beradi.

Foydalanish maqsadlariga muvofiq ishchan o‘yinlar turli xil vazifalarni: ishlab chiqarish, o‘quv va tadqiqot qilishga oid vazifalarni bajarish mumkin.

Ishchan o‘yinlarning talablaridan biri- inson faoliyatining o‘ziga xos elementlarini imitatsiya qilish (xususan chet tillarga o‘qitishning pedagogik jarayoni), ularni haqiqatga maksimal darajada yaqinlashtirishdir, bu aniq bir o‘quv muassasasi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini va sharoitlarini hisobga olishga bog‘liq. Har bir ishchan o‘yinda uning mazmunini talabalarning o‘zi - o‘yin ishtirokchilari belgilashadi. Odatda, ishchan o‘yinni qarab

chiqishning borishi va uning natijalari takrorlanmaydi. Har bir ishchan o‘yin – bu o‘ziga xos tajribadir.

Ishchan o‘yinlar quyidagi asosiy pedagogik vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

- bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy faoliyatning harakati vaqtidagi yakuniy tasavvurni shakllantirish;
- ham kasbiy fan, ham ijtimoiy tajribaga ega bo‘lish, shu jumladan, shaxsiy va birgalikdagi qarorlar qabul qilish;
- kasbga oid nazariy va amaliy fikrlashni rivojlantirish;
- bilish asosini shakllantirish, kasbiy asosning paydo bo‘lish shart-sharoitlarini ta’minlash.

Ishchan o‘yin murakkablik darajasiga ko‘ra quyidagi turlarda bo‘ladi:

- “aniq ishlab chiqarish kasbiy holatlarni tahlil qilish” – ta’lim oluvchilar mutaxassis oldida uning kasbiy amaliyotida vujudga keluvchi va tegishlicha hal etilishni talab qiluvchi, aniq holatni ifodalovchi, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan asoslar va hodisalar to‘plami bilan tanishadilar, talabalar o‘z yechimlarini taklif etishadi, bu takliflar jamoa bo‘lib muhokama qilinadi;
- “rollarni o‘ynash” – talabalar dastlabki ma’lumotlar oladilar va o‘z zimmalariga ma’lum rollarni ijro etishni oladilar;

Ishchan o‘yinni tuzish jarayoni **to‘rtta bosqich**dan iborat.

- O‘yin maqsadini aniqlash, u o‘qitish vazifalaridan, o‘rganilayotgan nazariy muammolar va talabalarning mashg‘ulotlar jarayonida egallashlari kerak bo‘ladigan ko‘nikma va malakalar mazmunidan kelib chiqqan holda ifodalanadi;
- Mutaxassisning tayyorgarligi va uning malaka tavsifini hisobga olib boriladigan mazmunni aniqlash;
- O‘yinli ketma-ketligini ishlab chiqishni o‘z ichiga yangi qoidalar, o‘yin qoidalarini va o‘yinchilar huquq va majburiyatlarini o‘z ichiga oladi; manfaatlari bo‘yicha ikkilamchi yoki qarama-qarshi rollarni ijro etish: hulqiy qarama-qarshiliklarni tuzish; jarimalar, rag‘batlantirishlar, mukofotlar tizimini ishlab chiqish; natijalarni ko‘rib tasavvur qilish;
- Maqsad va vazifalari bo‘lgan ishchan o‘yinning tuzilma-funksional dasturini tuzish; o‘yin vaziyatini, uning tashkiliy tuzilmasini va ketma-ketligini tavsiflash; ishtirokchilar ro‘yxati, ularning vazifalari; savollar va topshiriqlar; rag‘batlantirish tizimini tuzish.

O‘yin ishtirokchilarini aniq mavzu bo‘yicha dastlabki tayyorlash materialni ma’ruza tarzida bayon qilishni, tavsiya etilgan adabiyotlar ustidan mustaqil ishlashni, keyinchalik o‘qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan savollar va javoblar ro‘yxatini o‘z ichiga oladi.

Ishchan o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlari bir necha bosqichdan iborat:

I bosqich (tashkiliy) – mavzuni va o‘yinning maqsadini asoslash, kichik guruhlarni shakllantirish (to‘rt-besh kishilik), ishtirokchilarni o‘yin sharti bilan xabardor qilish, o‘yin hujjatlarini topshirish amalga oshiriladi.

II bosqich (tayyorgarlik) – kichik guruhlarning mustaqil ishlashini, vaziyatlarni yo‘riqnomalarni o‘rganishni, rollarni taqsimlashni, qo‘shimcha ma’lumot to‘plashni, yozma javoblarni arbitraj tomonidan baholanishini o‘z ichiga oladi.

III bosqich (o‘yinga oid) – talabalar tayyorlangan topshiriqlarni bajarishadi, bir-birlarining harakatlarini aniqlashtirishadi yoki inkor etishadi. Hakamlar barcha chiqishlarni, qo‘shimchalarni qayd etib, uchta bosqich bo‘yicha (ishchan, ritorik, etik)

IV bosqich (qarorlarni tahlil qilish) – hakamlar o‘yin jarayonini, tinglovchilarning xulqi va faolligi tahlil qilinadi hamda baholanadi.

Ishchan o‘yinning texnologik xaritasi


Ish bosqichlari va mazmuni	**Faoliyat**	
	O‘qituvchi	**Talaba**
I bosqich. Tayyorlov	Mavzu tanlaydi, maqsad, vazifa va natijalarni shakllantiradi; o‘rganilayotgan muammoni bayon qiladi; qo‘yilgan vazifani asoslab beradi; o‘yinning texnologik xaritasini ishlab chiqadi, o‘yin tartibini, vaziyat mazmunini va qatnashchilarning xususiyatlarini bayon qiladi; qatnashchilar uchun yo‘riqnomalarini tayyorlaydi, natijalarni (faol ishtirokchilarini) baholash mezonlarini aniqlaydi	
II – bosqich. O‘yinga kirish	Qatnashchilarni va ekspertlarni (tekshiruvchilarni) yo‘lga soladi, ish tartibini aniqlaydi, muammoni qo‘yish va vaziyat tanlashni asoslaydi, natijalarni baholash mezonlarini e’lon qiladi. Qatnashchilarga materiallar solingan paketlarni tarqatadi: yo‘riqnomalar, o‘yin qahramonlarining xususiyatlarini, vaziyat ko‘rsatmalari.	Materiallarni birgalikda tahlil qiladilar, rollarni bo‘lib beradilar.

III – bosqich. Rollarni bajarishga tayyorgarlik	Kuzatadi, individual maslahatlar beradi.	Oldindan belgilangan vaqt ichida qo‘yilgan vazifalarni tushunib yetadilar va rolga kiradilar: har bir qatnashchi ssenariyda yozilgan o‘z roli maqsadini amalga oshiradi; kerak bo‘lsa qo‘shimcha axborot yig‘adilar, olib boruvchi va tekshiruvchilardan maslahat so‘raydilar.
IV – bosqich. O‘yin jarayoni	O‘yin yo‘nalishini o‘zgartirish va bevosita aralashish huquqisiz kuzatadi. O‘yinning oraliq natijalarini baholashni amalga oshiradi (ta’minlaydi), shu bilan birga qatnashchilarning faoliyatiga ularni ongli yondashishini ko‘tarish maqsadida o‘rtacha ta’sir ko‘rsatadi.	Ular tasdiqlangan shartlarga binoan, bir-birlari bilan faol hamkorlikda rol o‘ynaydilar. Shu bilan birga oshkora bo‘lmagan qoidalarga amal qilib, o‘yindan chiqishni ma’n qiladigan, o‘yinga sustlik bilan yondashuvni, boshqalarning faolligini yo‘q qiladigan odob-axloq qoidalarini va tartibini buzadiganlarga yo‘l qo‘ymaydilar.
V – bosqich. Tahlil qilish, natijalarni baholash va yakun yasash.	O‘yin yakunini muhokama qilishni yo‘lga soladi. Tahlilni ilgari e’lon qilingan ko‘rsatkichlar va baholash mezonlari bilan chegaralaydi. Bunda qatnashchilar tomonidan berilgan mavzuni tushunishdan tashqari, rolli maqsadlarga yetishish darajasi, tanqidiy kuzatishlarning predmeti bo‘lib qatnashchilarning mimikasi, imo-ishorasi, ularning o‘quv qurollari bilan bo‘lgan muomalasi bo‘lishi mumkin.	Ekspertlarning chiqishlarini tinglaydilar, fikr almashadilar, rolli maqsadlarga yetishish uchun o‘z qarorlarini himoya qiladilar. O‘z harakatlarini va xulosalarini o‘yin qahramonlarining harakatlari bilan taqqoslaydilar, chunki har bir o‘yin ta’lim olishning ijtimoiy davriga o‘tishi kerak.
VI – bosqich. Yakun yasash, tahlil qilishi va baholash	Qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlarni izohlaydi, xatolarni ko‘rsatadi, mashg‘ulotning uzil-kesil xulosasini aniqlaydi, o‘yinning o‘quv fani bilan bog‘liqligini belgilaydi.	

“Ishchan o‘yin” metodi - har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya berilgan topshiriqlarga ko‘ra yoki o‘yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan

qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. O‘yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining xulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o‘yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko‘ra ishtirokchilar o‘z faoliyatlarini o‘zgartirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Ishchan o‘yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo‘ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat’iy belgilangan va o‘yin davomida o‘zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o‘z maqsadlarini belgilaydilar. Ishchan o‘yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli xarakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o‘zining vazifasi bo‘yicha qaror qabul qiladi, so‘ngra guruh bilan maslahatlashadi. O‘yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi. Quyida “Ishchan o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



1-chizma. “Ishchan o‘yin” metodining tuzilmasi

“Ishchan o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo‘riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.

2. Ta’lim oluvchilarni o‘yinning maqsadi, shartlari va

natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.

3. Ta’lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.

4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘radilar.

5. Ta’lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o‘yinni amalga oshiradilar. Ta’lim beruvchi o‘yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.

6. O‘yin yakunida ta’lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar aytiladi.

7. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.

Har bir rolni ijro etuvchi o‘z vazifasini to‘g‘ri bajarishi, berilgan vaziyatda o‘zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko‘rsata olishi kerak.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib quyidagilarni keltirish mumkin. Har bir metodning ijobiy va salbiy tomonlarini hisobga olgan holda “Ishchan o‘yin” metodining afzalliklari:

- ta’lim oluvchilarning bilimlarini va tajribalarini o‘z qarashlari va xulqlari orqali ifoda etishga yordam beradi;
- ta’lim oluvchining boshlang‘ich bilimlari va tajribalarini safarbar etish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilar o‘z bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratiladi.

Shuningdek “Ishchan o‘yin” metodi qo‘llashda quyidagi kamchiliklarni ko‘rish mumkin:

- ta’lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- vaqt ko‘p sarflanadi;
- tanlangan mavzu ta’lim oluvchining bilim darajasiga mos kelishi talab etiladi;
- ta’lim oluvchining his-hayajoni to‘g‘ri qaror qabul qilishga xalaqit berishi mumkin.

Ta’lim samaradorligiga xizmat qiluvchi har qanday o‘qitish metodi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2021 yilga bag‘ishlangan Oliy Majlisga va xalqqa murojaatnomasi. 29.122020 y.

2. Anorqulova G.M. Parpiev O.T. Kasb-hunar ta’limida pedagogik o‘yinlardan foydalanish. Uslubiy qo‘llanma., T.: 2011 y. – 44 b.

3. Bozorova S.D. Ta’lim jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalashning afzalliklari // “Kasb-hunar ta’limi” jurnali. T. 2009. № 1. B. 13-14.

4. Dementeva O.M., Segelnaya N.V., Arefeva O.V., Bazaeva V.D. Didakticheskie vozmojnosti ispolzovaniya delovыx igr v obrazovatelnom protsesse SPO//Srednee professionalnoe obrazovanie.- M.:2006. № 8. S 46-48.

5. Selevko G.K. Ensiklopediya obrazovatelnыx texnologiy: V 2 t.T.1. – M.: NII shkolnыx texnologiy, 2006. – 816 s.

6. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari /O‘quv qo‘llanma. – “Fan”.Toshkent 2006. – 261 b.

7. Filimonova Yu.V. Igrovыe texnologii na zanyatiyax po inostrannomu yazыku J. Pedagogicheskiy opыt, 2006 y. 74-79 str.

8. O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2021 yilga bag‘ishlangan Oliy Majlisga va xalqqa murojaatnomasidan

ПРОБЛЕМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ, УМЕНИЙ И НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ КАК ФАКТОР УСПЕВАЕМОСТИ

Анаркулова Г.М.,
Профессор кафедры «Социально-гуманитарные предметы»
Ташкентского института менежмента и экономики
Абдиганиева З.С.
магистрант Ташкентского
института менежмента и экономики

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omil sifatida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash usullari muammolari ko'rib chiqiladi. Maqolada maxsus fanlarni o'qitishda talabalar bilimini nazorat qilish turlari va shakllari ham ochib berilgan.*
Kalit so'zlar: *Baholash usullari, baholash shakllari, nazorat turlari, o`qitish samaradorligi.*

Abstract. *This article examines the problems of methods for assessing students' knowledge, skills and abilities as a factor influencing the quality of education. The article also reveals the types and forms of control of students' knowledge when teaching special subjects.*
Keywords: *Assessment methods, assessment forms, types of control, learning efficiency.*

Аннотация. *В данной статьи рассматривается проблемы методов оценки знаний, умений и навыков студентов как фактор влияющий на качество обучения. А также в статье раскрывается виды и формы контроля знаний студентов при обучении специальных предметов.*
Ключевые слова: *Методы оценки, формы оценки, виды контроля, эффективность обучения.*

Введение.

Современная организация образовательного процесса должна гарантировать возможность усвоения учебного материала каждым участником на высоком уровне, обеспечить его готовность осуществлять эффективную деятельность в сложных, вариативных, постоянно изменяющихся условиях.

Модернизация системы непрерывного образования в сторону компетентностного подхода исходит из изменений в обществе, влияющих на ситуацию в сфере образования, – ускорение темпов развития общества.

Проблема методы оценки знаний и умений и навыков студентов является очень древним проблемой как компонент педагогической технологии.

Как и сотни лет назад педагоги спорили, что оценка должна ли она быть индикатором качества – категорическим определителем успеваемости обучаемого или же, наоборот, должна существовать как показатель преимуществ и недостатков той или иной системы (методики) обучения. Противоречивый характер школьной оценки отметил еще Я.А. Коменский, обратившись к педагогам с призывом разумно и взвешенно пользоваться своим правом на оценку.[8] Требование объективности контролирования в сочетании с гуманным отношением педагогов к обучаемым пронизывает все дидактические системы.

Обзор литературы по теме. Первая балльная система оценок возникла в средневековых школах Германии. Каждый балл обозначал разряд ученика по успеваемости среди других учащихся (1-й – лучший, 2-й – средний, 3-й – худший). Позже средний разряд, к которому принадлежало наибольшее число учеников, дополнительно разделили еще на три класса, в результате чего получилась пятибалльная шкала, которую и заимствовали отечественные педагоги.

Строго критиковал современные ему формы контроля К.Д.Ушинский. характеризуя его недостатки, подчеркивал прежде всего то, что существующие подходы и способы подавляют умственную деятельность учащихся. Обычно учитель спрашивает одного или нескольких учащихся, а остальные в это время считают себя свободными от какой-либо деятельности. Они напрасно теряют время, сжигают силы, волнуясь в ожидании. Естественно, в такой обстановке ученик не способен проявлять любознательность, инициативу.[6]

По С.И. Архангельскому, **педагогическая оценка** - это последовательность действий преподавателя, включающая в себя постановку цели, разработку контрольного задания (вопроса), organizatsiю, проведение и анализ результатов деятельности, realizatsia которых в учебном процессе приводит к заключению, обуславливающему цели проверки и ее конечный вывод - отметку в зачетной книжке студента. Следовательно, отметка - это заключение о результатах (успехах) обучения и воспитания студента, сделанное на основании оценочной деятельности преподавателя и выраженное в принятой системе gradatsii (ранговой или функциональной).[7]

Методология исследования. *Объектом* педагогической оценки в учебном процессе является деятельность студентов, *предметом* – результаты этой деятельности, выраженные в различных качественных

характеристиках. Наиболее представительными из них выступают обученность и воспитанность. Как косвенный критерий может выступать развитость способностей студентов.

Обученность - одно из существенных качеств студента, отражающее его способность оперировать знаниями и умениями при решении теоретических и практических задач, которые приобретаются им в действиях над конкретным учебным материалом. И чем больше пройдет через его сознание и практику разнообразного по содержанию и форме учебного материала в изменяющихся ситуatsiях деятельности, тем эта способность будет богаче умениями, прочнее обобщением и тем мобильнее она будет проявляться в его деятельности.

Обученность (в узком смысле слова) - это способность студента применять усвоенные знания для выполнения конкретного учебного задания и достигать определенного темпа деятельности.

Воспитанность - это показатель сформированных отношений студентов к окружающему их миру (к людям, событиям, вещам и т.д.), которые реализуются в их социальной деятельности, в умственных и практических действиях при решении общественных задач.

В качестве оценки воспитанности может выступать готовность приложения этих отношений к реальной действительности в полном соответствии с социальными нормами общества. В последнем заключается качественная сторона воспитанности. Отсюда следует, что школа воспитанности имеет как положительные, так и отрицательные значения, граница между которыми, точка отсчета - "0".

Сущность понятия оценки. Зависимость продуктивности обучения от количества, качества, полноты, своевременности (оперативности), глубины, объективности контролирования - общая закономерность дидактического процесса. В нынешней теории еще нет установившегося подхода к определению понятий «оценка», «контроль», «проверка», «учет» и других, с ними связанных. Нередко они смешиваются, взаимозамещаются, употребляются то в одинаковом, то в различном значении.

Важнейшими принципами диагностирования и контролирования обученности (успеваемости) обучающихся являются объективность, систематичность, наглядность (гласность).

Общим родовым понятием выступает «контроль».

Контроль - выявление, измерение и оценивание знаний, умений обучаемых.

Выявление и измерение называют *проверкой.* Поэтому проверка – составной компонент контроля, основной дидактической функцией которого является обеспечение обратной связи между учителем и учащимися, получение педагогом объективной информаціи о степени освоения учебного материала, своевременное выявление недостатков и пробелов в знаниях. Проверка имеет целью определение не только уровня и качества обученности учащегося, но и объема учебного труда последнего.

Кроме проверки контроль содержит в себе ***оценивание*** **(как процесс) и *оценку* (как результат)** проверки.

Количественная оценка знаний, умений и навыков, приобретенных учащимися выражается в баллах (отметках), а качественная – в оценочных суждениях и заключениях педагога, содержащих характеристику достоинств и недостатков ответов учащихся.

Оценка знаний, умений и навыков рассматривается в дидактике как процесс определения количественных и качественных показателей теоретической и практической подготовки обучаемых существующим оценочным требованиям.

В табелях успеваемости, классных журналах, базах (банках) данных и т.д. оценки фиксируются в виде отметок (условных обозначений, кодовых сигналов, «зарубок», памятных знаках.

Основой для оценивания успеваемости учащегося являются ***итоги*** (результаты) контроля. Учитываются при этом как качественные, так и количественные показатели работы учащихся.

Методы контроля – это способы, с помощью которых определяется результативность учебно-познавательной деятельности учащихся и педагогической деятельности учителя.[8]

Методы контроля — это способы, обеспечивающие обратную связь в процессе обучения с целью получения данных об успешности обучения, эффективности учебного процесса. Современная дидактика выделяет методы устного, письменного, практического, метод наблюдений и тестирования.[9]

Функции оценки. Оценка, как и все другие компоненты учебного процесса, выполняет определённые функции.

Функция - работа, производимая тем или иным органом обязанность, подлежащая исполнению.

Функции оценка – это слагаемые той работы, которую призваны выполнять рецептивно – сопоставительные действия оценивающего. В этой связи имеет смысл проанализировать функции

оценки, выделяемые некоторыми методистами .

Обучающая функция оценки. Сущность обучающей, или развивающей, функции проверки ученые видят в том, что при выполнении контрольных заданий учащиеся совершенствуют и систематизируют полученные знания. Считается, что уроки, на которых учащиеся применяют знания и умения в новой ситуатsii или объясняют физические явления, способствуют развитию речи и мышления, внимания и памяти школьников.

Воспитывающая функция оценки в целом является сопутствующей, но может быть и доминирующей, когда, например, учитель стремится приучить отдельных учащихся к систематической работе, старается воздействовать на их психологические особенности (развивать волю, память и пр.), стимулируя их оценкой, при проявлении излишней самоуверенности осуществляется более строгий подход к оценке .

Ориентирующая функция проверки состоит в ориентатsii учащихся и учителя по результатам их труда, снабжении учителя информацией о достижении целей обучения отдельными учениками и классом в целом. Результаты контрольных мероприятий помогают учителю направлять деятельность учащихся на преодоление недочетов и пробелов в их знаниях, а учащимся – выявить и исправить собственные ошибки. Кроме того, результаты проверки информируют дирекцию школы и родителей об успешности учебного процесса.

Стимулирующая функции. Нельзя забывать и другую важную роль, которую играет оценка. Известно, что учащиеся специально готовятся к контрольной, к зачёту, к экзамену. В присутствии преподавателя все учащиеся выполняют заданные упражнения. Письменным работам уделяется больше внимания, если их будут проверять. Одним словом, наличие или ожидание контроля стимулируют учебные действия учащихся, являются дополнительным мотивом их учебной деятельности. Однако сама оценка, как уже отмечалось, выходит за границы контроля и представляет собой подкрепление, если её используют в обучающих, а не просто в карательных целях.

Виды оценки. Формы оценки знаний и умений учащихся – многочисленные, разнообразные виды деятельности учащихся при выполнении контрольных заданий. Форм оценки очень много, т.к. каждый учитель вправе придумать и провести собственные, кажущиеся ему наилучшими, контрольные задания.

На различных этапах обучения используются различные виды оценки:

- текущая проверка и оценка знаний, проводимая в ходе повседневных учебных занятий,

- промежуточный контроль проверка и оценка знаний, которая проводится в основном после проведения 60-70 % занятий в семестре по предмету,

- итоговый контроль знаний, т.е. оценка успеваемости студентов по семестру.

Современные методы оценки знаний, умений и навыков.

Программированный контроль. В системе проверки знаний учащихся применяется программированный контроль, который еще называют альтернативным методом (от фр. alternative - одна из двух возможностей), или методом выбора. Сущность этого метода состоит в том, что учащемуся предлагаются вопросы, на каждый из которых дается три-четыре ответа, но только один из них является правильным. Задача ученика - выбрать правильный ответ. Несколько подобных вопросов и ответов может быть дано в классе одновременно всем учащимся на отдельных листах бумаги или с помощью компьютера, что позволяет в течение нескольких минут проверить их знания. В этом состоит положительная сторона метода программированного контроля. Однако этот метод имеет и свои недочеты. Главным из них является то, что с его помощью можно проверить лишь отдельные стороны усвоения изучаемого материала. Всей же полноты и объема знаний этот метод выявить не позволяет. Впрочем, свои плюсы и минусы имеет каждый из рассмотренных выше методов проверки и оценки знаний.

Контрольные письменные работы полезны тем, что дают возможность проверять и оценивать одновременно знания всех учащихся класса или группы, но они требуют много времени и поэтому не могут проводиться часто. Отсюда следует вывод: в системе учебной работы должны находить свое применение все рассмотренные выше методы проверки и оценки знаний с тем, чтобы обеспечить необходимую систематичность и глубину контроля за качеством успеваемости обучающихся.

Тестирование Наиболее распространенным в высших учебных заведения является ***тестирование***. Несмотря на его во многом справедливую критику, тестирование является достаточно надежным, эффективным и корректным методом проверки знаний учащихся. Его главным недостатком считается направленность тестов на проверку

репродуктивного уровня познавательной деятельности обучающихся.

Различают следующие виды тестов.

Избирательный тест состоит из системы заданий, к каждому из которых прилагаются как верные, так и неверные ответы. Из них школьник выбирает тот, который считает верным для данного вопроса. При этом неверные ответы содержат такую ошибку, которую ученик может допустить, имея определенные пробелы в знаниях.

Избирательные тесты могут быть различными:

1. Многовариантные тесты, в которых среди предлагаемых ответов на вопрос приведено несколько неверных и единственный верный ответ.
2. Многовариантные тесты с несколькими верными и неверными ответами на вопрос.
3. Альтернативные тесты с двумя ответами на вопрос (один ответ верен, другой - содержит ошибку).

Закрытые тесты не содержат вариантов ответов. Учащиеся предлагают свой вариант ответа.

Имеются тесты перекрестного выбора, в которых требуется установить соответствие между элементами множества ответов.

Встречаются также тесты идентификации, в которых в качестве ответов приводятся графики, схемы, чертежи и т.д.

Тестирование является стандартизированной формой контроля в том понимании, что как процедура проведения теста, так и оценка знаний единообразна (стандартны) для всех учащихся.

Удачно составленный тест имеет ряд достоинств, а именно:

1. Оперативно выявляет знания, умения и навыки учащихся, а также понимание им закономерностей, лежащих в основе изучаемых фактов. Это обеспечивается тем, что задачи и вопросы подбираются в результате анализа материала и, следовательно, учитывают трудности усвоения и характер возможных ошибок.
2. Позволяет в течение короткого времени получить представление о пробелах в знаниях и помогает организовать работу по предупреждению отставания учащихся.
3. Предоставляет учителю возможность проверять знания, умения и навыки на разных уровнях и осуществлять дифференцированное обучение.
4. Способствует рациональному использованию времени на уроке.
5. Активизирует мышление школьников.

6. Дает возможность учителю критически оценить свои методы преподавания.

Однако тест фиксирует только результаты работы, но не ход ее выполнения, возможно угадывание правильного ответа, а также случаи, когда выбор неправильного ответа объясняется невнимательностью ученика, поэтому patsіональнее сочетать тестирование с различными формами традиционного контроля.

Эссе. Применение эссе на занятиях способствует более четкому и грамотному формулированию мыслей, помогает располагать мысли в строгой логической последовательности, предполагает свободное владение языком педагогических терминов и понятий, раскрывает глубину и широту учебного материала, учит использовать примеры, цитаты, необходимые аргументы по соответствующей теме. Анализируя зарубежный и отечественный опыт применения эссе, можно говорить о четырех формах использования данного метода:

1)эссе – самостоятельная творческая работа по предложенной учителем теме (выполняется как домашняя работа);

2)эссе – 30-минутная контрольная (или самостоятельная) работа по изученному учебному материалу;

3)эссе – 10-минутное свободное сочинение для закрепления и проработки нового материала (обычно пишет)

4)эссе – 5-минутное свободное сочинение с целью подведения итогов урока и фиксирования сформулировавшихся на уроке мыслей и выводов по теме (чаще всего дается задание написать, что студенты узнали по новой теме, и задать один вопрос, на который они так и не получили ответа).

Анализ и результаты. В современной системе высшего образования учёные-педагоги предлагают нетрадиционные виды контроля. На уроках возможны короткие проверочные работы нетрадиционного вида. В каждой теме выделяются ключевые понятия и термины, которые могут быть положены в основу кроссвордов, головоломок, ребусов, шарад, викторин. Для ряда тем специально разрабатываются кроссворды, содержащие понятия одной определенной темы, есть достаточное количество кроссвордов, включающих в себя основные понятия предмета. Решение кроссвордов - занятие увлекательное и полезное, позволяет тренировать память.

Методы контроля зависят от того:

- какая обучающая процедура контролируется;

- что контролируется - ход процедуры или ее результат;
- какие задания для проверки хода и результатов обучающей процедуры используются;
- какие ответы студентов используются при выполнении контрольных заданий;
- какова частота и периодичность контроля.

По первому из указанных оснований выделяются методы контроля объяснения и уяснения содержания учебного материала, по второму - методы по операционного контроля и контроля по результату, по третьему - контроль с помощью заданий на воспроизведение знаний (пересказ содержания порции как письменно, так и устно), постановки вопросов по содержанию и предъявления задач, решаемых с применением знаний. По четвертому основанию методы контроля подразделяются на контроль с помощью конструируемых ответов. Наконец, по пятому основанию различаются систематический и эпизодический, частый и нечастый контроль, промежуточный и конечный (рубежный, итоговый). Итак, *основная задача контроля объяснения и уяснения содержания материала - проверить уровень достигаемых целей.*

Виды контроля: текущий, промежуточный, итоговый виды контроля.

Форма текущего контроля - устная или письменная.

Виды текущего контроля:

- индивидуальный или групповой опрос;
- контрольная работа;
- индивидуальная или групповая презентация (представление выполненного задания);
- анализ деловых ситуаций (анализ ситуаций, данной в виде текстового, графического или устного материала, видеофильма, либо анализ вариантов решения проблемы, выбор оптимального варианта);
- расчетные задания;
- тесты;
- подготовка эссе;
- подготовка реферата;
- деловые игры;
- защита выполненных заданий и др.

Виды, количество самостоятельной работы, а также текущий ее контроль по каждой дисциплине определяет преподаватель.

Оценка самостоятельной работы осуществляется преподавателем самостоятельно в рамках кредитно-модульной системы по 100-балльной системе с учетом рекомендованной весомости не

менее 50% от общей итоговой оценки по дисциплине.

Заключение и предложения. Таким образом промежуточный и итоговый контроль может проводиться в виде зачетов, экзамена, контрольных работ и т.д. по части дисциплины. Его цель - оценить работу студента за определенный период, полученные им теоретические знания, развитие творческого мышления, приобретение навыков самостоятельной работы, умение синтезировать полученные знания и применять их к решению практических задач.

Содержание итогового контроля должно соответствовать программе дисциплины, равномерно охватывая все ее разделы.

Промежуточные зачеты и итоговые экзамены сдаются в периоды, предусмотренные календарно-тематическим планом. При промежуточном контроле обучающиеся сдают в течение учебного семестра (по окончании изучения учебного модуля) зачеты.

Учитывая, что оценка является для студентов одним из факторов для самооценки, критическое отношение к своим успехам. При подготовке заданий для видов контроля надо учитывать сложность и значимость предмета. Охват полного содержания программы предмета, разнообразие ее функций требуют поиска таких показателей, которые отражали бы все стороны учебной деятельности студентов и обеспечивали их выявление.

Список использованной литературы:

1. *Амонашвили Ш.А. Обучение.Оценка.Отметка.–М.:Знание,1980.–150с.*
2. *Катханов М.В. и др. Методика разработки и внедрения рейтинг - контроля умений и знаний студентов, Учебное пособие М. 1991*
3. *Анаркулова Г.М. Образовательные технологии. Методическое пособие. Т .: Икбол зиё. 2021 г. - 212 стр.*
4. *Anarkulova G.M. Scientific and methodological foundations of a competent approach to the training of teachers of special disciplines of the vocational education system. ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal./ 2022 . №12*
5. *Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения: В 2-х т.,Т.2.– М.: Педагогика, 1982.–576 с.*
6. *Амонашвили Ш.А. Воспитательная и образовательная функции оценки обучения школьников: Экспериментальное педагогическое исследование. – М.: Педагогика, 1984. – 296 с.*
7. *Сластёнин.В.А. и др. Общая педагогика. Учебное пособие. М.: Владос, 2003.*

8. Татьяна Сорова. Основные виды, формы и методы контроля // Образовательный портал «Справочник». — Дата последнего обновления статьи: 27.01.2023. — URL

9. *Жунусакунова, А. Д. Методы контроля и оценки результатов обучения в учебном процессе / Молодой ученый. — 2016. — № 20.1 (124.1). — С. 26-29. — URL:*

TA'LIMDA KEYS TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Obidov R.A.
Nukus innovatsiyalar instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta'lim jarayonida keys texnologiyalarining o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Keys texnologiyalari talabalarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beruvchi ta'lim usuli sifatida tahlil qilingan. Maqolada keys texnologiyalarining nazariy asoslari, ta'limdagi qo'llanilishi, afzalliklari va cheklovlari muhokama qilinib, zamonaviy ta'limda ushbu metodikaning samaradorligi ko'rib chiqilgan.*
Kalit so'zlar: *keys texnologiyalari, ta'lim metodikasi, muammoli ta'lim, tanqidiy fikrlash, kompetentsiya.*

Abstract. *This article discusses the role and importance of case technologies in the educational process. Case technologies are analyzed as an educational method that helps students develop critical thinking, problem-solving and practical skills. The article discusses the theoretical foundations of case technologies, their application in education, advantages and limitations, and examines the effectiveness of this methodology in modern education.*
Keywords: *case technologies, educational methodology, problem-based learning, critical thinking, competence.*

Аннотация. *В статье рассматривается роль и значение кейс-технологий в образовательном процессе. Кейс-технологии были проанализированы как образовательный метод, помогающий развивать у студентов критическое мышление, навыки решения проблем и практические навыки. В статье рассматриваются теоретические основы кейс-технологий, их применение в образовании, преимущества и ограничения, а также анализируется эффективность данной методики в современном образовании.*
Ключевые слова: *кейс-технологии, образовательная методика, проблемное обучение, критическое мышление, компетентность.*

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday texnologiyalardan biri - keys texnologiyalari bo'lib, u amaliy vaziyatlarni tahlil qilishga asoslangan interaktiv o'qitish usulidir. Keys texnologiyalari talabalarni real hayotiy vaziyatlarni o'rganishga, muammolarni aniqlashga va ularni hal qilish yo'llarini izlashga o'rgatadi (Jonassen & Hernandez-Serrano, 2002).

"Keys-stadi"texnologiyasi— bu muayyan muammolar va masalalarni hal qilishga asoslangan o'quv texnologiyalari, usullar va ta'lim usullari to'plamidir. Ushbu texnologiya

muammoli o‘qitish, axborot-kommunikatsion texnologiyalar va loyiha usulining sintezidir.

“Keys-stadi” texnologiyasining asosiy tushunchalari “vaziyat” va “tahlil” tushunchalaridir. “Vaziyat” atamasi ko‘p kontekstli mazmunga ega bo‘lib, o‘zaro ta’sirni yaratuvchi sharoitlar majmuasi sifatida tushunilishi mumkin; noaniq vaziyat sifatida, u ishtirokchilarining faoliyati yoki faoliyatsizligiga qarab o‘zgarish tendensiyasiga ega. Vaziyat ochiq tizimdir, ya’ni unda o‘z maqsad va manfaatlarini amalga oshirayotgan ishtirokchilarning chiqishi va kirishi imkoniyati mavjud. Vaziyatlarning paydo bo‘lishi qat’iy xulq-atvor determinatsiyasining yo‘qligi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy tizimlar bilan bog‘liq bo‘lib, bu esa vaziyatlarni tahlil qilish usulini yopiq, avtoritar tizimlarda amalga oshirishning deyarli imkonsiz bo‘lishiga sabab bo‘ladi, chunki unda faoliyat avtoritar tarzda boshqariladi va muqobil yechimlarni, tanlovni amalga oshirish imkoniyati yo‘q. Shu sababli vaziyatlarni tahlil qilish usuli kompetentlikka asoslangan ta’limning imtiyozidir

Keys texnologiyalari ilk bor 1870-yillarda Harvard huquqshunoslik maktabida qo'llanilgan bo'lib, hozirda dunyoning ko'plab nufuzli ta'lim muassasalarida keng tarqalgan (Garvin, 2003). Bu texnologiya talabalarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Keys texnologiyalarining nazariy asoslari.

Keys texnologiyalari konstruktivizm nazariyasiga tayanadi, bu nazariyaga ko'ra o'quvchilar bilimlarni passiv ravishda qabul qilmaydilar, balki faol ravishda tuzadilar va talqin qiladilar (Vygotsky, 1978; Piaget, 1972). Keys texnologiyalari o'quvchilarning mavjud bilimlariga tayanib, yangi bilimlarni real hayotiy kontekstda o'zlashtirishga imkon beradi.

Keys texnologiyalarini qo'llashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Kontekstuallik - o'rganish jarayoni real hayotiy vaziyatlarga bog'liq bo'lishi kerak;
2. Faollik - o'quvchilar bilimlarni faol ravishda o'zlashtirishlari kerak;
3. Hamkorlik - bilimlarni birgalikda qurish va muammolarni birgalikda hal qilish;
4. Refleksiya - o'z fikrlash jarayonini tahlil qilish qobiliyati (Hmelo-Silver, 2004).

Keys texnologiyalarining turlari va ularni qo'llash metodikasi

Keys texnologiyalarining bir necha turlari mavjud bo'lib, ular maqsadlari va murakkablik darajasi bo'yicha farqlanadi:

1. Tavsiflovchi (illustrativ) keyslar

Bu turdagi keyslar ma'lum bir vaziyatni tavsiflab beradi va talabalar ushbu vaziyatni tahlil qilishlari, muammoni aniqlashlari va mumkin bo'lgan echimlarni muhokama qilishlari kerak (Yin, 2018).

2. O'rgatuvchi keyslar

Ushbu keyslar talabalarni ma'lum bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan. Ular nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llashga yordam beradi (Ellet, 2007).

3. Tekshiruvchi keyslar

Bu turdagi keyslar talabalarga aniq muammoni hal qilishni taklif etadi va bu jarayonda ular o'z bilim va ko'nikmalarini namoyish etadilar (Herreid, 2011).

Keys texnologiyalarini qo'llash metodikasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Tayyorgarlik bosqichi - o'qituvchi keysni tanlaydi yoki yaratadi;
2. Keys bilan tanishish - talabalar keysni o'rganadilar va muammoni aniqlaydilar;
3. Muhokama bosqichi - talabalar guruhlarda yoki sinf doirasida mumkin bo'lgan yechimlarni muhokama qiladilar;
4. Yechimlarni taqdim etish - har bir guruh o'z yechimini taqdim etadi;
5. Refleksiya bosqichi - talabalar o'z o'rganish jarayonini tahlil qiladilar (Barnes et al., 1994).

Keys texnologiyalarining ta'limdagi ahamiyati

Keys texnologiyalari ta'lim jarayonida quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

1. Nazariya va amaliyotni bog'lash

Keys texnologiyalari talabalarga nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga imkon beradi. Bu esa nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzilishni bartaraf etishga yordam beradi (Christensen & Hansen, 1987).

2. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

Keys texnologiyalari talabalarni muammolarni turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqishga, ma'lumotlarni tahlil qilishga va asosli xulosalar chiqarishga o'rgatadi (Facione, 1990).

3. Qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish

Talabalar keyslarni hal qilish jarayonida turli yechimlarni baholash va eng maqbul qarorni qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar (Hmelo-Silver, 2004).

4. Jamoaviy ishlash ko'nikmalarini oshirish

Keyslar ko'pincha guruh bo'lib hal qilinadi, bu esa talabalarga muloqot qilish, muzokaralar olib borish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini o'rgatadi (Johnson & Johnson, 2009).

5. Motivatsiyani oshirish

Real hayotiy vaziyatlarni o'rganish talabalarning o'quv materialiga qiziqishini oshiradi va

o'rganish jarayonini yanada mazmunli qiladi (Deci & Ryan, 2000).

Keys texnologiyalarining afzalliklari va cheklovlari

Afzalliklari:

1. O'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi;
2. Nazariya va amaliyotni bog'lashga yordam beradi;
3. Yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;
4. Haqiqiy hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi;
5. Mutaxassislik kompetentsiyalarini shakllantirishga ko'maklashadi.

Cheklovlari:

1. Yaxshi tayyorlangan keyslarni yaratish ko'p vaqt va resurs talab qiladi;
2. Katta guruhlarda qo'llash qiyin bo'lishi mumkin;
3. O'qituvchidan yuqori malaka va tayyorgarlik talab qiladi;
4. Keys natijalari ba'zan noaniq va baholash qiyin bo'lishi mumkin (Yadav et al., 2010).

Keys texnologiyalarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar

Keys texnologiyalarini samarali qo'llash uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish muhim:

1. Keyslar o'quv maqsadlariga mos bo'lishi kerak;
2. Keyslar talabalar uchun qiziqarli va dolzarb bo'lishi lozim;
3. Keyslar murakkablik darajasi talabalarga mos bo'lishi kerak;
4. O'qituvchi muhokamani yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi rol o'ynashi kerak;
5. Refleksiya jarayoni muhokamaning muhim qismi bo'lishi lozim (Herreid, 2011; Ellet, 2007).

O'zbekistonda keys texnologiyalarining qo'llanilishi

O'zbekiston ta'lim tizimida ham keys texnologiyalari tobora keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiyot, huquqshunoslik, pedagogika, tibbiyot va boshqa sohalarda keys texnologiyalari samarali qo'llanilmoqda (Abdullaeva, 2018).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, jumladan, keys texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish zarurligi ta'kidlangan.

Xulosa

Keys texnologiyalari zamonaviy ta'limning samarali vositalaridan biri bo'lib, talabalarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu texnologiya nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan bog'lashga, ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga imkon beradi.

Keys texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish o'qituvchilardan yuqori malaka va tayyorgarlikni talab qilsa-da, bu texnologiyaning ta'lim sifatini oshirishdagi roli beqiyosdir. Shuning uchun ham O'zbekiston ta'lim tizimida keys texnologiyalarini yanada keng joriy etish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Abdullaeva, Sh. (2018). Oliy ta'limda keys texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati. Ta'lim muammolari, 2, 45-52.*
2. *Barnes, L. B., Christensen, C. R., & Hansen, A. J. (1994). Teaching and the case method: Text, cases, and readings. Harvard Business Press.*
3. *Christensen, C. R., & Hansen, A. J. (1987). Teaching and the case method. Harvard Business School.*
4. *Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). The "what" and "why" of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. Psychological Inquiry, 11(4), 227-268.*
5. *Ellet, W. (2007). The case study handbook: How to read, discuss, and write persuasively about cases. Harvard Business Press.*
6. *Facione, P. A. (1990). Critical thinking: A statement of expert consensus for purposes of educational assessment and instruction. The California Academic Press.*
7. *Garvin, D. A. (2003). Making the case: Professional education for the world of practice. Harvard Magazine, 106(1), 56-65.*
8. *Herreid, C. F. (2011). Case study teaching. New Directions for Teaching and Learning, 2011(128), 31-40.*
9. *Hmelo-Silver, C. E. (2004). Problem-based learning: What and how do students learn? Educational Psychology Review, 16(3), 235-266.*
10. *Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2009). An educational psychology success story: Social interdependence theory and cooperative learning. Educational Researcher, 38(5), 365-379.*
11. *Jonassen, D. H., & Hernandez-Serrano, J. (2002). Case-based reasoning and instructional design: Using stories to support problem solving. Educational Technology Research and Development, 50(2), 65-77.*
12. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni (2019 yil 8 oktyabr).*
13. *Piaget, J. (1972). The psychology of intelligence. Totowa, NJ: Littlefield Adams.*
14. *Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.*
15. *Yadav, A., Lundeberg, M., DeSchryver, M., Dirkin, K., Schiller, N. A., Maier, K., & Herreid, C. F. (2007). Teaching science with case studies: A national survey of faculty perceptions of the benefits and challenges of using cases. Journal of College Science Teaching, 37(1), 34-38.*
16. *Yin, R. K. (2018). Case study research and applications: Design and methods (6th ed.). Sage Publications.*

MAXSUS FANLARNI O‘QITISHDA RAQAMLI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING METODIK SHART-SHAROITLARI

Narbayev Sh.K.,
TMII Akademik faoliyat bo‘yicha prorektori
Maxkamova N.X.
TMII magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’limda maxsus fanlarni o‘qitishda raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanish muammoli yoritilgan. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish shakllari va vositalari tadqiq etilgan.*
Kalit so’zlar: *oliy ta’lim, innovatsion texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, axborot texnologiyalari, zamonaviy ta’lim vositalari.*

Abstract. *The article examines the problem of using digital and innovative technologies in teaching special disciplines in higher education institutions. The forms and means of using digital technologies in the educational process are studied.*
Key words: *higher education, innovative technologies, digital technologies, information technologies, modern educational teaching aids.*

Аннотация. *В статье рассматривается проблема использования цифровых и инновационных технологий в преподавании специальных дисциплин в высших учебных заведениях. Изучены формы и средства использования цифровых технологий в образовательном процессе.*
Ключевые слова: *высшее образование, инновационные технологии, цифровые технологии, информационные технологии, современные образовательные средства обучения.*

Kirish.

Respublikamizda jadal rivojlanib borayotgan ta’lim tizimi, ilm-fan va texnologiyalar mutlaqo boshqacha mutaxassisni tayyorlashni davlat va jamiyat oldiga vazifa qilib qo‘ymoqda. Bu esa jahon mehnat bozorida raqobatbardosh, intellektual salohiyati va professionallik darajasi yuqori mutaxassis kadrni tayyorlashni va bu mutaxassis kasbiy mahoratidan tashqari xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter texnologiyalarini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishini talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida maktab bitiruvchilarini oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish, ta’lim yo‘nalishlari va o‘qitiladigan fanlarni qayta ko‘rib

chiqish, mutaxassislikka aloqasi bo‘lmagan fanlar sonini 2 barobar qisqartirish, oliy ta’limda o‘quv jarayoni kredit-modul tizimiga o‘tkazish, qator oliy ta’lim muassasalarini o‘zini o‘zi moliyaviy ta’minlashga o‘tkazish, ta’lim sohasini to‘liq raqamlashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini ta’lim sohasiga ham keng tatbiq etish masalalari shu kunning dolzarb masalalari ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.[6]

Mamlakatimizning barcha soha-larida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgar-tirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ta’lim tizimini samaradorligini oshirish albatta ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarga, ularning ijodkorligi, ya’ni ta’lim jarayonini tashkil etishga kreativ yondashuviga bog‘liqdir.

Demak, bugungi kunda ta’lim tizimida innovatsion jarayonlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish mexanizmlarini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganish lozim.

Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo‘llash asosida amalga oshirish tizimidir. Uni ba’zida internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot deb ataydilar. "Raqamli iqtisodiyot” atamasini esa birinchi bo‘lib 1995-yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte amaliyotga kiritgan.

“Raqamli texnologiya” bo‘yicha olimlarimiz tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda quyidagilar keltirilgan: X.Ibragimov “Raqamli” atamasi kelib chiqishiga ko‘ra lotin va ingliz tillariga taalluqli holda “digital“ so‘zidan olingan va “raqamlardagi ma’lumotlar, signal”, “qadam-baqadam” [3] ma’nolarida ketma-ketlikni bildiruvchi sifat darajasini anglatadi deb ta’rif beradi.

Akademik S.S.Gulyamov tomonidan sun’iy intellekt va uning imkoniyatlari, oliy ta’lim tizimini raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot texnologiyalari bo‘yicha yangi yo‘nalishlar va fanlarni joriy etish, bulutli texnologiyalardan foydalanish orqali ta’lim tizimini isloh qilish, o‘qitishda zamonaviy usullar, jumladan interaktiv doskalar hamda planshetlardan samarali foydalanish texnologiyalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan[3],

S.Allayarova tomonidan O‘zbekistonda oliy ta’lim o‘quv jarayoni sifati va samaradorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni, ta’lim

jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg‘or pedagogik texnologiyalarning bir-biri bilan taqozolanganligi, sohaning istiqbolli tendensiyalariga nisbatan olib borilayotgan islohotlar dinamikasining tahliliga e’tibor qaratilgan hamda o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllari va raqamli texnologiyalari imkoniyatlari o‘rganilgan [3]. Mazkur muammo yuzasidan xorijiy olimlardan Devid Franklin Nobl fan, ta’lim va texnologiya tarixchisi sifatida masofali ta’lim imkoniyatlari, uning yutuq va kamchiliklarini tadqiq etgan [3]. Bob Djonston fan – texnika taraqqiyoti bo‘lgan har qanday natijalarga cheklov qo‘yish emas, balki ulardan samarali foydalanish lozim[4] deydi. Uning asosiy g‘oyasi – zamonaviy ta’lim yoshlarning IT texnologiyalariga qiziqishini to‘sishi kerak emas, balki ularga bu vositalardan unumli foydalanishni o‘rgatish maqsadga muvofiq ekanligida namoyon bo‘ladi.

Raqamli iqtisodiyotning oddiy iqtisodiyotdan farqi nimada?

Masalan, qaysidir xaridorga poyabzal kerak. Uni bozorga tushib o‘zi tanlasa va naqd pulga sotib olsa, bu an’anaviy iqtisodiyot sanaladi. Telegramdagi biror-bir savdo boti orqali o‘ziga ma’qul tovarni tanlab, tovar egasiga pulni elektron to‘lov tizimi orqali to‘lash va tovarni yetkazib berish xizmati orqali olish esa raqamli iqtisodiyot deyiladi.

Aslida, hammamiz anchadan beri raqamli iqtisodiyot ichidamiz, uning qulayliklaridan foydalanamiz. Xususan, oylik maoshimiz plastik kartaga tushadi, elektron to‘lov orqali kommunal xizmatlar, telefon, internet hamda boshqa mahsulot va xizmatlarga to‘lov qilamiz, elektron tarzda soliq deklaratsiyasi topshiramiz, kartadan kartaga pul uzatamiz, uyga taom buyurtma qilamiz va hokazo.

Raqamli iqtisodiyot – bu noldan boshlab yaratilishi lozim bo‘lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellarini yaratish, ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko‘chirish deganidir.

Belgilari:

- ❖ yuqori darajada avtomatlashtirilganlik;
- ❖ elektron hujjat almashinuvi;
- ❖ buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashuvi;
- ❖ ma’lumotlarning elektron bazalari;
- ❖ CRM (mijozlar bilan o‘zaro munosabat tizimi) mavjudligi;
- ❖ korporativ tarmoqlar.

Qulayliklari:

- To‘lovlar uchun xarajatlar kamayadi (masalan, bankka borish uchun yo‘lkira va boshqa resurslar tejab qolinadi).

- Tovarlar va xizmatlar haqida ko‘proq va tezroq ma’lumot olinadi.
- Raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari kengayadi.
- Fidbek (iste’molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi.
- Tezroq, sifatliroq, qulayroq tamoyili yorqin namoyon bo‘ladi.

Raqamlashtirish sharoitida yangilangan ta’lim tizimini shakllantirish. Ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, yangi texnologik muammolar ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini tug‘dirdi. Bugungi kunda shaxsni shakllantirishda ta’limning o‘rni dolzarbdir. Ta’lim jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarning asosiy sababi hisoblanadi. Ta’lim asosan, texnologik rivojlanish tendensiyalariga mos kelishi raqamlashtirish davrida juda muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari orasida innovatsion ta’lim texnologiyalari muhim o‘rin tutadi. Lug‘aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“innovation”) yangilik kiritish degan ma’noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida “innovatsiya” tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham innovatsiyalar negizida o‘qitish jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvlarning mohiyati yoritiladi. Xo‘sh, innovatsiyalarning o‘zi qanday ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi?

Innovatsiyalar quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

yangi g‘oyalar;

tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar;

noan’anaviy yondashuvlar;

g‘ayri oddiy tashabbuslar;

ilg‘or ish uslublari.

Shunga ko‘ra, ta’lim innovatsiyalari – bu ma’lum ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Ta’lim tizimida qo‘llaniladigan innovatsiyalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Faoliyat yo‘nalishiga ko‘ra: pedagogik jarayonda yoki ta’lim tizimini boshqarishda qo‘llaniladigan innovatsiyalar.
2. Kiritilgan o‘zgarishlarning tavsifiga ko‘ra: radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar.

3. O‘zgarishlarning ko‘lamiga ko‘ra: tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari.

4. Kelib chiqish manbaiga ko‘ra: jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o‘zlashtirilgan innovatsiyalar.

Ta’lim tizimida yoki o‘quv faoliyatida innovatsiyalarni qo‘llashdan sarflangan mablag‘ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko‘zlanadi.

Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim tizimidagi har qanday yangilik ham innovatsiya bo‘la olmaydi. Bu o‘rinda “novatsiya” va “innovatsiya” tushunchalari farqlanadi.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi.

Bordi-yu, faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o‘zgartirishga xizmat qilsa, u holda u innovatsiya deb yuritiladi.

Har qanday murakkab zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, integratsiyalar, fan sohasidagi olamshumul yangiliklar, raqamli tendensiyalar, avvalo o‘qituvchi tomonidan o‘zlashtirilib, so‘ngra uning bilimi, saviyasi, qobiliyati evaziga talabalar ongiga va tafakkuriga yetkaziladi. Raqamli jamiyatni rivojlanishida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy salohiyat jihatdan tayyorlash asosini texnologik ishlab chiqarish va jamiyat qonuniyatlari ta’sir etadigan sohaga oid, bilimlarga asoslanib tayyorlash maqsadga muvofiq.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish kuchli ta’lim muhitini yaratadi va o‘quv va o‘qitish jarayonini o‘zgartiradi va o‘quvchilarni o‘z bilimlaridan mustaqil foydalanishga majbur qiladi. AKT nafaqat mavjud o‘qitish usullariga qo‘shilishi mumkin bo‘lgan vosita, balki o‘qitish va o‘rganishning yangi usullarini qo‘llab-quvvatlashning muhim usuli hamdir. XXI asrda "texnologiya" atamasi ko‘plab sohalarda, jumladan, ta’limda ham qo‘llaniladi. Buning sababi, ko‘pchilik mamlakatlarda texnologiya bilimlarni uzatishning asosiy vositasiga aylangan. Texnologik integratsiya va innovatsiyalarni boshdan kechirib odamlarning fikrlash, ishlash va yashash tarzini butunlay o‘zgartirdi.

Ta’lim tizimida xam jamiyatimizda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga qo‘shimcha ravishda hozirgi zamon jahon ilmining jadal rivojlanishi va uning natijalarini iqtisodimizga kirib kelishi murakkab iqtisodiy jarayonlarni keltirib

chiqarmoqda, bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayoniga joriy etilmoqda. Ilmiy texnikaviy taraqqiyot rivojlanishi yutuqlari yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini va xo‘jalikning yangi tarmoqlarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Buning oqibatida mavjud kasblarda ham tubdan o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda va butunlay yangi, insondan har taraflama yetuk va yuqori kasbiy sifatlarni talab qiladigan kasblar paydo bo‘lmoqda.

Iqtisodiyotning barcha sohalari rivojlanishi bilan bir qatorda uzluksiz ta’lim tizimining har bir bo‘g‘inida islohotlar olib borilmoqda. Ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va unga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish zamonaviy talablardan hisoblanadi. Ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarini joriy etishdan maqsad:

talabani mantiqiy fikr yuritishga, muammolarni ilmiy, ijodiy yechishga oid ko‘nikmalarni shakllantirish;

zaruriy bilimlarni mustaqil ijodiy izlash ko‘nikmasini shakllantirish;

uchragan qiyinchiliklarni bartaraf etish ko‘nikmalarini shakllantirish;

o‘quv materialini asosli, tushunarli bo‘lishini ta’minlash;

o‘quv materialini chuqurroq va mustahkamroq o‘zlashtirishga yordam beradi;

bilimlar ishonchga aylanishiga ko‘maklashadi;

talabada o‘qishga nisbatan ijobiy hislarni shakllantirish;

talabada yangi bilimlarni olishga qiziqishni shakllantirish va rivojlantirish;

ijodiy shaxsni shakllantirish.

Ta’lim jarayonini samarali tashkil etish yuqorida sanab o‘tilgan asosiy shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta’limiy tadbirdir. Bunda ta’lim samaradorligiga ta’sir etuvchi quyidagi omillarni keltirish mumkin:

- ta’lim mazmunini tanlashda ta’limdagi muammolar – islohot talablari, innovatsiyalarni doimiy ravishda o‘rganib joriy etish;
- ta’lim shakllari va vositalarini to‘g‘ri tanlash;
- shaxsning bilish faoliyati va uni qondirish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish;
- ta’limda uzluksizlik tamoyili, ta’lim dasturlari va ularning uyg‘unlashuvini ta’minlash;
- an’anaviy, noan’anaviy darslarni tashkil etilishi, pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, interfaol ta’lim usullari va ularni ta’lim jarayoniga joriy etish.

Keltirilgan omillardan ko‘rinib turibdiki, ta’lim samaradorligini ta’minlashda ta’lim maqsadlariga to‘liq erishish uchun ta’lim jarayonini tashkil etishning shakl, metod va vositalarini tanlashda ta’limdagi innovatsiyalarning ahamiyati katta.

Ta’lim innovatsiyalaridan hisoblangan raqamli texnologiyalar

ham nafaqat vosita, balki inson zamonaviy olamda ilg`or texnologiyalardan foydalanish uchun yangi muhitdir. Raqamli ta'lim muhiti prinsipial jihatdan yangi imkoniyatlarni taqdim etadi: sinfdagi ta'limdan istalgan joyda va istalgan vaqtda o'qishga o'tish; individual ta'lim yo'nalishini loyihalash, shu bilan o'quvchi shaxsining ta'lim ehtiyojlarini qondirish; talabalarni nafaqat elektron resurslarning faol iste'molchilariga, balki yangi resurslarni yaratuvchilarga aylantirish va hokazo.

Turli kurslar, veb-seminarlar va vebinarlar tufayli o'qituvchilar ta'limda qo'llaniladigan yangi raqamli texnologiyalar bilan tanishadilar. Ushbu mavzuni o'rganishni rag'batlantirish uchun turli tanlovlar o'tkazilib, unda o'qituvchilar zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha o'zlarining uslub va uslublari bilan o'rtoqlashadilar. O'qituvchi qanchalik ko'p texnologiyalarga ega bo'lsa, u darsni shunchalik qiziqarli va xilma-xil o'tkazishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar o'qituvchi uchun cheksiz bo'lgan yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Ushbu texnologiyalardan foydalanganda mumkin bo'lgan ko'rinishni namoyish qilish yanada muvaffaqiyatli bo'ladi. Texnologiyaning katta miqdori mavjud.

Zamonaviy raqamli texnologiyalarga quyidagilar kiradi: o'qituvchi va talaba o'rtasida birgalikdagi eksperimental tadqiqotlar texnologiyasi, "virtual haqiqat", "panoramali tasvir" texnologiyasi, "3D modellashtirish", "ta'lim robototexnikasi", MSI texnologiyasi (kichik axborot texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda), multimedia ta'lim, kontent, interaktiv elektron kontent va boshqalar multimedia texnologiyalari o‘quv jarayoniga uyg‘unlik bilan kiritilmoqda.

Tahlil va natijalar. Yuqorida keltirilgan raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llash uchun quyidagi vazifalar muvaffaqiyatli hal etilmog‘i darkor:

Birinchidan, internet infratuzilmasini yaxshilash orqali talaba yoshlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so‘ng yutuqlarini o‘zlashtirishga shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratib berish lozim;

O‘quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish va axborot resurslari, o‘qitish vositalari va masofaviy o‘qitish texnologiyalarini rivojlantirish;

Ikkinchidan, iqtidorli talabalarni universitetning raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o‘quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o‘z ichiga olgan markazlarni tashkil etish;

Uchinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;

To'rtinchidan, oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarining interfaol taqdimot tizimlaridan samarali foydalanishi, ma'ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog'liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha malaka oshirish kurslarni tashkil qilish va o'tkazish;

Beshinchidan, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, videokonferensiyalarni tashkil etish uchun virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishda o'qitishning onlayn va masofaviy shakli alohida o'rinni egallaydi. Masofaviy ta'lim tashkilotlarini butun dunyo bo'ylab ta'lim muassasalarini global ta'lim jarayoniga jalb qilish tufayli transmilliy xarakterga ega bo'lishiga imkon beradi. Ta'lim bilan jamiyat kerakli o'zgarishlarni amalga oshirishi va modernizatsiya qilishi, doimiy o'zgarib turadigan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda mutaxassislarni strategik fikrlashga o'rgatishi va eng yangi texnologik bilimlarni yuqori tezlikda joriy qilishi mumkin, bu esa o'z navbatida ta'limning xalqaro miqyosidagi talablarga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashda omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish choratadbirlari" to'g'risidagi PF-6079 son Farmoni.

2. Алексеев И.В. Информационное обеспечение системы управления франчайзинговыми предприятиями / И.В. Алексеев, Е.В. Рибокене // Экономические и гуманитарные науки. – 2015. – №1 (276). – С. 105–110.

3. Kuralov, Y. A., Ta'limda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish. "Ko'p tarmoqli tadqiqot va ta'limning global istiqbollari" mavzusiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Chirchiq, 2023 y.

4. Таджибаева К.С. Формирование мотивационной сферы нравственных качеств учащихся //Проблемы педагогики. – 2017. – №. 4 (27). – S. 14-16.

5. Уваров А. Ю. Образование в мире цифровых технологий: на пути к цифровой трансформации. М.: Изд. дом ГУ-ВШЭ, 2018. – 168 с.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasi . "Xalq so'zi", 2020 yil 25 yanvar

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MULTIMEDIA RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Erhanova N.A.
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda ta'lim texnologiyalarini tizimli ravishda boyitib va yangilab borish masalasi sohada yuqori natijalarga erishishda eng muhim jihat ekanligi yoritilgan. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarining axborot-kommunikatsiya texnikalaridan samarali foydalangan holda o'qitish metodlarini innovatsion usullar, multimediali resurslar yordamida berishi natijasida tarbiyalanuvchilarda yangi bilim, malaka va ko'nikmalarga erishishi tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *Multimedia ilovasi, animatsiya, kommunikatsion savodxonlik, kompetentlik.*

Abstract. *This article analyzes the possibilities of achieving high results in the field of preschool education through the systematic improvement and renewal of educational technologies. In particular, it highlights the process of developing new knowledge, skills, and abilities in children through the effective use of information and communication technologies, innovative teaching methods, and multimedia resources by preschool educators.*

Keywords: *multimedia applications, animation, communicative literacy, competence.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы возможности достижения высоких результатов в сфере дошкольного образования за счёт систематического совершенствования и обновления образовательных технологий. В частности, освещается процесс формирования у воспитанников новых знаний, умений и навыков посредством эффективного использования педагогами дошкольных образовательных учреждений информационно-коммуникационных технологий, инновационных методов обучения и мультимедийных ресурсов.*

Ключевые слова: *мультимедийные приложения, анимация, коммуникативная грамотность, компетентность.*

Maktabgacha ta'lim sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ta'lim standartlarini ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etgan holda bajarish dolzarb masala. Bu esa o'z o'rnida, maktabgacha ta'lim sohasi pedagoglari zimmasiga kommunikat-sion jihatdan savodxon bo'lish mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi.

Ma'lumki, maktabgacha ta'limda ta'lim texnologiyalarini tizimli ravishda boyitib va yangilab borish masalasi sohada yuqori natijalarga erishishda eng muhim jihatlardan biridir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog-larining axborot-kommunikatsiya texnikalaridan samarali foydalangan holda o'qitish metodlarini innovatsion usullar, multimediali resurslar

yordamida berishi natijasida tarbi-yalanuvchilarda yangi bilim, malaka va ko‘nikmalarga erishiladi. Bunday tarzda ta’limni tashkil etish mashg‘u-lotlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkillashtirish va o‘quv-uslubiy materiallar yaratish ehtiyojini vujudga keltiradi.

Mul’timedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o‘quv materiallarini ta’lim oluvchilarga yetkazib berishni mujassamlangan holdagi ko‘rinishidir.

Multimedia foydalanuvchiga fantastik(virtual haqiqiy) dunyoni yaratishda juda ajoyib imkoniyatlarni yaratib beradi, bunda foydalanuvchi chekkadagi sust kuzatuvchi rolini bajarmasdan, balki u yerda avj olayotgan hodisalarda faol ishtirok yetadi; shu bilan birga muloqat foydalanuvchi uchun odatlangan tilda - birinchi navbatda tovushli va videoobrazlar tilida bo‘lib o‘tadi. Multimedia - kompyuterda axborotning turli xil ko‘rinishlari: rangli grafika, matn va grafikda dinamik effektlar, ovozlarning chiqishi va sintezlangan musiqalar, animatsiya, shuningdek to‘laqonli videokliplar, hatto videofilmlar bilan ishlashdir.

Multimedia mahsuloti – tarkibida musiqa taraladigan, videokliplar, animatsiya, rasmlar va slaydlar galereyasi, turli ma’lumotlar bazalari va boshqalar kirishi mumkin bo‘lgan interfaol, kompyuterda ishlangan mahsulotdir. Multimedia texnologiyasi axborotni bir vaqtning o‘zida insonga tushunarli, ko‘p shakllar (jumladan, nutq, rasm, chizma, tasvir, musiqa, raqam va harflar) kombinatsiyasida havola qila oladi. Bu texnologiya axborotni qidirish, nusxa olish va boshqa biror kompyuterga ko‘rsatilgan shaklda ko‘chirib o‘tkaza oladi hamda ularning hohlagan kombinatsiyasini yarata oladi. Undan tashqari multi-media texnologiyasidan foydalanuvchi o‘zi dizayn bilan shug‘ullana olishiga imkon beradi, shuningdek statik (harakatsiz) va dinamik (harakat-lanuvchi) tasvirlarni yaratishi hamda o‘z ijodiy ishining natijalarini aloqa kanallari orqali tashqi muhitga tarqatishi mumkin.

Pedagogning axborot kommuni-katsiya texnologiyalari bo‘yicha savodxonligi, ushbu texnikalardan mashg‘ulotlar jarayonida faol foydalana olish malakasi multimediali ta’limiy ilovalar bilan ishlash madaniyatini ham shakllantiradi. Bunda pedagog mustaqil ravishda AKT yordamida ta’lim resurslari yaratish va internet tarmog‘idagi ta’limiy materiallardan ta’lim talablariga ko‘ra foydalanish ustida ish olib boradi. Ta’lim-tarbiya jarayoniga oid o‘quv-metodik majmu-alarni yaratish kompetensiyasiga ega bo‘lgan pedagog faoliyatida bir qator ustunlikka ega bo‘ladi:

1. Ko‘rgazmali materiallarga bo‘lgan ehtiyoj qondiriladi.

2. O‘qitishning didaktik tamoyillari to‘laqonli amalga oshiriladi.

3. Bolalarning yoshiga mos holda ta’limiy materiallar bankiga ega bo‘ladi.

4. Mashg‘ulotlar an’anaviy usuldan ko‘ra qiziqarli va samarali kechadi.

Mashg‘ulotlarda texnik vositalardan va interaktiv ta’lim usullaridan foydalanish pedagogik va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash borasida savodxonlikni shakllantiribgina qolmay, balki zamonaviy mutaxassis ega bo‘lishi lozim bo‘lgan kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Bunda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasi ortishi bilan birga ta’limda sifat va samaradorlik ham ta’minlanadi.

Zamonaviy fan-texnika va axborot texnologiyalarining ilg‘or yutuqlari asosida boyitib borilgan o‘qitish metodlari ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyalanuvchilar bilim oladigan manbalar bo‘yicha: og‘zaki, ko‘rsatmali, amaliy metodlarning barchasida multimedia mahsulotlaridan foydalanish imkoni mavjud. Ayni jarayonda izohli-illyustrativ, reproduktiv, bilimlarni jumboqli bayon qilish metodi, qisman izlanish va tadqiq qilish metodlari faol tarzda bolalarni fikrlashga chorlaydi. Hatto pedagogning ota-onalar bilan uzviy hamkorligi natijasida zamonaviy axborot-texnologiyalari, maxsus gadjetlardan ham oqilona foydalanish mumkin. Bu bolalarda yangi bilimlarni tasavvur qilish va ularni anglab yetishga katta yordam beradi.

Multimedia ta’limiy resurslarini mashg‘ulotning har xil bosqichlarida, har xil maqsadlarda qo‘llash mumkin, ya’ni yangi materialni bayon etish, mustahkamlash, takrorlashda foydalanish bo‘yicha cheklovlar mavjud emas. O‘qitishning bu usuli tarbiyalanuvchilarga kuzatishlar asosida bilimlar olish imkonini beradi. Ko‘rgazmali multimedia vositalari asosida ta’limni amalga oshirishda bir tomondan bolalarning idrok etishlariga, ikkinchi tomondan ularning tasavvurlari rivojlanishiga imkon yaratiladi. Bunday ta’limiy muhit tarbiyalanuvchilarda tasavvurlarning, mazmunli tushunchalarining shakllanishiga imkon beradi, mantiqiy fikr yuritish va nutqni rivojlantiradi, tahlil qilishga undaydi.

Multimedia va tarqatma materiallarni tarbiyalanuvchilar ehtiyojidan kelib chiqqan holda mazmunan talabga javob beradigan tarzda bo‘lishi hamda har bir mashg‘ulotda bir-biriga mazmunan yaqin va bir-birini to‘ldiradigan davomli didaktik o‘yinlarga yangi elementlar qo‘shib foydalanish pedagogning kommunikatsiya kompetensiyasi bilan bir qatorda mahoratini ham oshiradi. Bu “Ilk qadam” o‘quv dasturida berilgan mavzularga mos holda multimedia ilovalarini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etishning dolzarbligini yana bir bor o‘zida aks

ettiradi. Ilg‘or pedagogik hamda axborot kommunikatsion texnologiyalari asosida metodik materiallar bolalarning mashg‘ulotlar jarayonidagi diqqatini oshirishini kuzatuvlarimiz natijasida aniqladik. Multimedia elektron ilovalar, didaktik o‘yin texnologiyalar, tarbiyalanuvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish, lug‘atini yangi so‘zlar bilan boyitish, so‘zlardan nutqida to‘g‘ri va o‘rinli foydalanishga o‘rgatishi jihatdan hammabop ta’lim turi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Multimedia tushunchasi, multimedia vositalari, multimedianing dasturiy vositalari va mahsulotlari, virtual ta’lim muhiti vositalari haqida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglariga ma’lumot berish uchun uzluksiz malaka oshirish tizimidagi kurs modullariga multimedia resursi bilan ishlash bo‘yicha soatlar ajratilishi lozim. Bunda quyidagi masalalar qamrab olinishi kerak:

- virtual ta’lim muhiti haqida;
- virtual ta’lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar haqida;
- on-line muhitida 3D texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini tashkillashtirish;
- mobil ta’lim texnologiyalari;
- internet va ijtimoiy tarmoqlar, ularning imkoniyatlari va xavfsizlik;
- ochiq ta’lim resurslari va ularning imkoniyatlari haqida bilimlarni hosil qilish.

– Bunda mutaxassislar multimedianing texnik vositalari imkoniyatlarini biladi va ulardan foydalanishni amalda ko‘rsatib bera oladi;

– Multimedianing dasturiy ta’minotlari imkoniyatlarini biladi;

– Faoliyat doirasiga taalluqli ta’limiy dasturlar va multimedia vositalarini biladi hamda ulardan samarali foydalana oladi;

– Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan maqsadli foydalanish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladi;

– Kasbiy faoliyat va mehnat unumdorligini oshirish, innovatsiyalarni pedagog amaliyotga joriy etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanadi;

– Rejalashtirilayotgan o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda ta’lim oluvchi faolligini va uning natijalarini baholashga yordam beradigan ta’lim resurslari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini tanlay oladi;

– O‘quv jarayonida mobil ta’lim texnologiyalaridan foydalana olish;

– Faoliyat doirasida va mashg‘ulot jarayonida internet va ijtimoiy tarmoqlar, ularning imkoniyatlaridan foydalana olish;

– Ochiq ta’lim resurslari va ularning imkoniyatlaridan xabardor bo‘lish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008. – 180 b.

2. Michael Henderson, Geoff Romeo. Teaching and digital technologies(Big issues and critical questions). Cambridje University Press. 2015.

1. Бабаева Т.И., Римашевская Л.С. «Как развивать взаимоотношения и сотрудничество дошкольников в детском саду. Игровые ситуации, игры, этюды: учебн-методическое пособие - СПб.: ООО «ИЗДАТЕЛЬСВО «ДЕТСТВО-ПРЕСС», 2012.

4. Ермолаева М.Г. Игра в образовательном процессе: Методическое пособие/ М.Г. Ермолаева. – 2-е изд., доп. – СПб.: СПб АППО, 2015.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH: AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN YONDASHUVLAR

Xidoyatov M.B.
TDIU-Krems AFU xalqaro qo'shma ta'lim dasturi fakulteti uslubchisi,
TDIU Marketing kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Tezisda oliy ta'lim muassasalarining raqamli marketing faoliyatini baholash usullari yoritilgan. Webometrics, uniRank va 4ICU reyting tizimlari tahlil qilinib, milliy sharoitga mos baholash zarurati asoslangan. Milliy reyting tizimini shakllantirish bo'yicha takliflar berilgan.*
Kalit so'zlar: *raqamli marketing, universitet reytingi, Webometrics, onlayn reklama, SEO*

Abstract. *The thesis examines evaluation methods of digital marketing in higher education. It analyzes Webometrics, uniRank, and 4ICU rankings and substantiates the need for a national rating model. Suggestions for developing a localized system are provided.*
Keywords: *digital marketing, university ranking, Webometrics, online advertising, SEO*

Аннотация. *В тезисе рассматриваются методы оценки цифрового маркетинга вузов. Проанализированы рейтинговые системы Webometrics, uniRank и 4ICU. Обоснована необходимость национальной системы оценки и представлены предложения по её формированию.*
Ключевые слова: *цифровой маркетинг, рейтинг университетов, Webometrics, онлайн-реклама, SEO*

Kirish

Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda oliy ta'lim muassasalarining onlayn mavjudligi ularning global ta'sirini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Universitetlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi ta'lim muassasalarining jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, raqamli marketing strategiyalarining samaradorligini aniqlash va ularni baholash zarurati mavjud.

Raqamli marketing universitetlarning talabalarni jalb qilish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda abituriyentlar ta'lim muassasalarini tanlashda nafaqat o'quv dasturlariga, balki universitetning onlayn obro'siga, ijtimoiy tarmoqlardagi faolligiga va kontent sifatiga ham e'tibor qaratadi. Shuning uchun, universitetlarning raqamli marketing strategiyasi qanchalik samarali bo'lsa, ularning auditoriya qamrovi va talabalar oqimi shunchalik yuqori bo'ladi.

Shuningdek, raqamli marketing universitet brendini shakllantirish va rivojlantirish vositasi sifatida ham ahamiyatli hisoblanadi. Kuchli raqamli strategiyaga ega oliy ta'lim muassasalari nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham yuqori mavqega ega bo'lish imkoniyatiga ega. Universitet veb-saytining qidiruv tizimlarida yuqori natijalar berishi, ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtiroki va onlayn reklama samaradorligi universitet imijini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, raqamli marketing orqali ta'lim xizmatlarini targ'ib qilish universitetlarning xorijiy hamkorlik aloqalarini kengaytirish va xalqaro talabalarni jalb qilish imkoniyatini yaratadi. Internet-marketing strategiyalarining to'g'ri yo'lga qo'yilishi universitetlarning o'z ta'lim dasturlarini kengroq auditoriyaga yetkazishiga yordam beradi.

Raqamli marketing faoliyatini baholash universitetning raqamli strategiyasini doimiy ravishda takomillashtirish imkoniyatini beradi. Baholash natijalariga asoslanib, OTMlar qaysi yo'nalishlarda kuchli ekanligini aniqlashi va qaysi jihatlarni rivojlantirish zarurligini belgilashi mumkin. Bunday baholash tizimi universitetlarning marketing rejalash-tirish jarayonini optimallashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Universitetlar o'zlarining raqamli marketing strategiyalarini samarali boshqargan holda, qabul ko'rsatkichlarini yaxshilash, xalqaro reytinglarda mavqeini oshirish va bitiruvchilar hamda tadbirkorlik aloqalarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Raqamli platformalar orqali universitetlarning global miqyosdagi ko'rinishi kuchayib, akademik hamkorlik imkoniyatlari kengayadi. Raqamli marketing faoliyatining baholanishi natijasida universitetlar o'z strategiyalarini dinamik tahlil qilish, zaif jihatlarini aniqlash va marketing faoliyatini yanada samarali yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, universitetlarning raqamli marketing faoliyatini baholash ularning raqobatbardoshligini oshirish, global maydondagi mavqeini mustahkamlash va ta'lim xizmatlarini kengroq auditoriyaga yetkazish uchun zarur bo'lgan muhim jarayondir.

Adabiyotlar sharhi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining raqamli marketing faoliyatini baholash bo'yicha turli xalqaro platformalar mavjud bo'lib, har biri o'ziga xos baholash mezonlariga asoslanadi. Ularning asosiy vazifasi universitetlarning raqamli ekotizimdagi ishtirokini aniqlash va ularning global raqamli ta'sirini baholashdan iborat. Quyida eng nufuzli xalqaro baholash tizimlarining asosiy xususiyatlari keltirilgan.

Webometrics (Ranking Web of Universities)[10] – 2004-yilda Ispaniyaning Cybermetrics Lab tadqiqot markazi tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro universitet reyting tizimi. Ushbu reyting universitetlarning veb-ko‘rinishi, ilmiy ochiqligi va nufuzini baholashga qaratilgan bo‘lib, asosan veb-sayt sifati va ilmiy faoliyatning ochiqligiga asoslanadi. Webometrics reytingi quyidagi asosiy mezonlar bo‘yicha baholanadi:

- Visibility (Ko‘rinish) – 50%. Universitet veb-saytiga tashqi resurslardan qancha va qanday sifatli havolalar berilgani tahlil qilinadi. Bunda universitet veb-saytining global miqyosdagi ta’siri va internetdagi obro‘si hisobga olinadi. Ushbu ma’lumotlar Ahrefs va Majestic SEO kabi platformalar orqali aniqlanadi.

- Transparency (Ochiqlik) – 10%. Universitetning ilmiy tadqiqotchilari tomonidan chop etilgan eng ko‘p iqtibos keltirilgan maqolalar soni tahlil qilinadi. Ushbu ko‘rsatkich Google Scholar Profiles ma’lumotlariga asoslangan bo‘lib, universitetning ilmiy faoliyati ochiqligi darajasini aks ettiradi.

- Excellence (Ilmiy sifat) – 40%. Universitet tomonidan nufuzli ilmiy jurnallarda (Scopus va Scimago kabi xalqaro ilmiy bazalarda) chop etilgan so‘nggi 5 yildagi eng yuqori sifatli ilmiy maqolalar soni baholanadi. Ushbu indikator universitetning ilmiy ta’siri va ilmiy nufuzini ko‘rsatadi.

Webometrics tizimi universitet-larning o‘quv jarayoni sifati, ijtimoiy tarmoq faolligi yoki talabalar sonini hisobga olmasa ham, ilmiy faoliyatning xalqaro ochiqligi va universitetning internetda qanday ko‘rinishga ega ekanligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. uniRank[11] - 2005-yilda tashkil etilgan bo‘lib, universitetlarning onlayn mashhurligini baholaydigan platforma hisoblanadi. Ushbu tizim universitetlarning internetda qanchalik ko‘rinarliligi va raqamli ishtirokini baholashga qaratilgan. uniRank quyi-dagi asosiy mezonlar asosida baho-laydi:

- Ijtimoiy tarmoqlardagi faollik – 30%. Facebook, Instagram, Telegram, YouTube platformalaridagi obunachilar soni, kontent sifati va auditoriya jalb qilish darajasini o‘lchaydi. Universi-tetlarning ijtimoiy tarmoqlardagi obro‘si va ularga bo‘lgan qiziqish darajasi ushbu ko‘rsatkich orqali baholanadi.

- Sayt domenining obro‘si – 20%. Moz Domain Authority va Majestic Trust Flow kabi tahliliy tizimlarga asoslanib, universitet veb-saytining qidiruv tizimlaridagi ishonchliligi va ta’siri baholanadi. Yuqori domain obro‘siga ega bo‘lgan universitet veb-saytlari qidiruv tizimlarida yuqori o‘rinlarni egallaydi.

- Mobil moslashuvchanlik – 10%. Universitet veb-saytining mobil qurilmalarga mosligi, yuklanish tezligi

va foydalanuvchi tajribasi o‘rganiladi. Ushbu mezon universitet veb-saytining barcha turdagi qurilmalarda qulay ishlash darajasini aks ettiradi.

- Trafik va veb-mavjudlik – 25%. Universitet veb-saytiga tashrif buyuruvchilar soni, ulardan foydalanish chastotasi va sessiya davomiyligi o‘lchanadi. SimilarWeb va Alexa Traffic Rank kabi platformalar yordamida trafik sifati va veb-mavjudlik darajasi tahlil qilinadi.

- Tahliliy platformalar ma’lumotlari – 15%. Google Analytics, SimilarWeb va boshqa veb-tahlil xizmatlarining statistik ma’lumotlariga asoslangan holda universitet veb-saytining qamrovi va foydalanuvchi faolligi baholanadi.

Shunday qilib, uniRank reyting tizimi universitetlarning raqamli makondagi ishtirokini baholashga asoslangan bo‘lib, uning asosiy e’tibori universitetlarning internetdagi mashhurligi, auditoriya jalb qilish darajasi va qidiruv tizimlaridagi ko‘rinishiga qaratilgan.

Ushbu platforma universitetlarning raqamli imijini shakllantirish va onlayn auditoriya bilan samarali ishlash darajasini baholashda foydali bo‘lsa-da, ilmiy maqolalar va akademik ta’sirni o‘lchamaydi.

3. 4-International Colleges & Universities (4icu)[12] Xalqaro universitetlar va kollejlar reytingi – bu universitetlarning raqamli mavjudligi va ijtimoiy media ta’sirini baholovchi xalqaro reyting tizimi bo‘lib, onlayn mashhurlik va veb-faollikni tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu reyting faqat rasmiy akkreditatsiyaga ega bo‘lgan universitetlar orasida o‘tkaziladi va quyidagi asosiy indikatorlar bo‘yicha baholanadi:

Google PageRank – 40%. Universitet veb-saytining Google qidiruv natijalarida ko‘rinish darajasi va optimallashuvi baholanadi. Qidiruv tizimlarida yuqori o‘rin egallagan universitetlar yuqori reytingga ega bo‘ladi.

Alexa Global Rank – 30%. Universitet veb-saytining global internet-trafik bo‘yicha jahon miqyosidagi o‘rni tahlil qilinadi. Ushbu indikator saytga tashrif buyuruvchilar soni va ularning geografik tarqalishini baholash uchun ishlatiladi.

Moz Domain Authority – 20%. Universitet domenining qidiruv tizimlaridagi ishonchliligi va obro‘si baholanadi. Yuqori domen vakolati (Domain Authority) universitet veb-saytining boshqa saytlardan havola olish darajasi va qidiruv tizimlarida yuqori ko‘rinishiga bog‘liq.

Majestic Referring Domains – 10%. Universitet veb-saytiga havola beruvchi tashqi domenlar sifati va soni o‘lchanadi. Ushbu indikator universitet veb-saytining internetdagi muhimligini va boshqa saytlar bilan bog‘lanish darajasini ifodalaydi.

4icu reyting tizimi universitetlarning akademik sifati va ilmiy

faoliyatini baholamaydi, balki ularning onlayn mavjudligi va ijtimoiy media faoliyatiga asoslanadi. Shu sababli, bu tizim universitetlarning raqamli brendini va qidiruv tizimlaridagi ko‘rinish darajasini oshirishga qaratilgan strategiyalarni shakllantirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda taqqoslash va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Biz Webometrics, uniRank va 4ICU tizimlarining mezonlarini bir-biri bilan qiyoslab, ularning baholash yondashuvlarini O‘zbekiston sharoitiga nisbatan solishtirdik. Tahlil uchun ochiq manbalardagi statistik ko‘rsatkichlar, rasmiy saytlar va raqamli platformalardagi metrikalardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Oliy ta’lim muassasalarining raqamli marketing faoliyatini baholovchi yetakchi xalqaro reyting tizimlari — Webometrics, uniRank va 4ICU platformalari tahlil qilinadi. Har bir tizimning baholash mezonlari, indikatorlari va ularning O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari kontekstida qanchalik mos kelishi o‘rganiladi. Taqqosloviy tahlil asosida reyting tizimlarining ustun va zaif jihatlari aniqlanadi hamda OTMlarning raqamli ko‘rsatkichlariga ko‘rsatayotgan ta’siri yoritiladi. Tahlil natijalari asosida mavjud baholash mezonlarining milliy sharoitdagi amaliy ahamiyati hamda ehtimoliy takomillashtirish yo‘nalishlari ko‘rsatib o‘tiladi.1-jadvalda Webometrics, uniRank va 4ICU kabi xalqaro platformalarning baholash mezonlari va asosiy yo‘nalishlari taqqoslab ko‘rsatilgan. Har bir reyting tizimi o‘ziga xos indikatorlar asosida universitetlarning raqamli faoliyatini baholaydi.

1-jadval

Universitetlarning raqamli ko‘rsatkichlarini baholovchi xalqaro platformalar

Platforma	Baholash mezonlari	Asosiy yo‘nalishi
Webometrics	Visibility (50%) – veb-saytga tashqi havolalar soni va sifati; Transparency (10%) – ilmiy maqolalar ochiqligi; Excellence (40%) – nufuzli jurnallardagi maqolalar soni.	Universitetning ilmiy salohiyati va global ta’sirini baholaydi. Ilmiy ochiqlik va maqolalar sifati akademik reytingga ta’sir qiladi.
uniRank	Ijtimoiy tarmoqlardagi faollik (30%) – obunachilar soni va kontent sifati; SEO (20%) – veb-saytning qidiruv tizimidagi ko‘rinishi; Trafik va veb-mavjudlik (25%) – tashriflar soni va foydalanuvchi faolligi; Mobil moslashuvchanlik (10%) – yuklanish tezligi va qulaylik.	Universitetning raqamli brendi va onlayn auditoriya jalb qilish darajasini baholaydi. Ijtimoiy media va qidiruv tizimlaridagi ta’sirini o‘lchaydi.
4icu	Google Rank (40%) – veb-saytning qidiruv tizimidagi natijalari; Alexa Rank (30%) – global trafik reytingi; Moz Domain Authority (20%) – domenning ishonchliligi; Majestic Referring Domains (10%) – tashqi havolalar soni va sifati.	Universitetning onlayn ko‘rinishi va raqamli marketing strategiyasining samaradorligini aks ettiradi. Trafik va havolalar sifati reyting o‘sishiga ta’sir qiladi.

1-jadvaldan ko‘rinadiki, Webometrics tizimi asosan ilmiy faoliyat va ochiqlikka urg‘u bersa, uniRank va 4ICU tizimlari universitetlarning internetdagi ko‘rinishi, ijtimoiy tarmoq faolligi va SEO ko‘rsatkichlarini baholashga yo‘naltirilgan. Bu esa baholash mezonlarining turlicha ekanini ko‘rsatadi. Shuni hulosa qilish mumkinki, xalqaro reyting tizimlari universitetlarning raqamli marketing strategiyasiga bevosita ta’sir qiladi.

Universitetlar ushbu reyting natijalariga qarab o‘z marketing yondashuvlarini shakllantirishlari, raqamli imijni mustahkamlash va xalqaro tan olinishi uchun harakat qilishladilar. Jumladan, Webometrics va uniRank kabi tizimlarda yuqori o‘rin egallash universitetning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshiradi va talabalar va tadqiqotchilar universitet haqida tasavvur hosil qilishda ushbu reyting natijalariga e’tibor qaratadilar.

Talabalarni jalb qilish va marketing strategiyasini takomillashtirishda universitet raqamli platformalarda faol bo‘lishi va veb-saytini muntazam yangilab borishini aglaydilar. Ijtimoiy tarmoqlardagi faollik oshirilishi, kontent marketingi kuchaytirilishi ham shular jumlasidandir.

Reyting mezonlaridan biri bo‘lgan veb-trafikni ko‘paytirish uchun universitetlar qidiruv tizimlarida samarali ishlashi tushuniladi. Saytni optimallashtirish (SEO), kalit so‘zlarni to‘g‘ri tanlash va sifatli kontent yaratish muhimligi, universitetlarning o‘z veb-saytlarida foydalanuvchilar uchun o‘zaro aloqani qulaylashtiruvchi mexanizmlar yaratishiga turtki bo’ladi. Onlayn baholash tizimlari va sharhlarni kuzatib borish, foydalanuvchilarning ijobiy fikr-mulohazalarini targ‘ib qilish talab etiladi.

Webometrics, uniRank va 4icu kabi reyting tizimlari o‘zaro taqqoslanishi kerak. 2-jadvalda uchta reyting tizimi – Webometrics, uniRank va 4ICU o‘rtasidagi asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha farqlar keltirilgan. Bu taqqoslash orqali qaysi tizim qanday ko‘rsatkichlarga urg‘u berishini aniq ko‘rish mumkin.

2-jadval

Webometrics, uniRank va 4icu reyting tizimlarini taqqoslash

Ko‘rsatkich	Webometrics	uniRank	4icu
Baholash sohasi	Ilmiy faoliyat, veb mavjudlik	Universitet veb-trafiki va mashhurligi	Universitet veb-saytlarining mashhurligi
Veb-sayt sifati	Ha	Ha	Ha
Ijtimoiy tarmoq faolligi	Yo‘q	Ha	Ha
YouTube marketing	Yo‘q	Ha	Ha
Onlayn reklama samaradorligi	Yo‘q	Yo‘q	Yo‘q
Kontent strategiyasi	Yo‘q	Yo‘q	Yo‘q
Mobil moslashuvchanlik	Yo‘q	Yo‘q	Yo‘q
Universitet obro‘si	Qisman	Yo‘q	Yo‘q

Jadvalda berilgan taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, mavjud reyting tizimlari raqamli marketingning barcha jihatlarini to‘liq qamrab olmaydi. Jumladan, onlayn reklama samaradorligi, kontent strategiyasi va mobil moslashuvchanlik kabi indikatorlar baholashdan chetda qolmoqda. Bu esa milliy reyting tizimini ishlab chiqish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarining raqamli marketing faoliyatini baholashda xalqaro reyting tizimlaridan foydalanish mumkin bo‘lsa-da, ularning aksariyati milliy universitetlarning xususiyatlarini to‘liq aks ettira olmaydi. O‘zbekistonda universitetlarning raqamli marketing strategiyasida ijtimoiy

tarmoqlar muhim rol o‘ynaydi. Xalqaro reyting tizimlari veb-saytlarga tashrif buyuruvchilar soni va sifati bo‘yicha global ma’lumotlarga tayanadi. Ammo ushbu tizimlar mahalliy auditoriyaga yo‘naltirilgan kontent strategiyalarini yetarli darajada baholamaydi. Raqamli marketing nuqtayi nazaridan qaralsa universitetning brend imiji, talabalarni jalb qilish strategiyalari va reklama samaradorligi ham muhim hisoblanadi.

Xalqaro baholash tizimlari universitetlarning raqamli marketing strategiyalarini tahlil qilish imkonini bersa-da, ularning aksariyati mahalliy oliy ta’lim muassasalarining o‘ziga xos jihatlarini hisobga olmaydi. O‘zbekiston universitetlari raqamli marketing strategiyasini baholashda xalqaro tizimlarning chegaralari mavjud bo‘lib, milliy o‘ziga xosliklarni aks ettiruvchi reyting tizimini yaratish zarurati mavjud.

Milliy reyting tizimi quyidagi afzalliklarga ega bo‘lishi lozim:

- Universitetlarning ijtimoiy tarmoqlardagi real faolligini baholash, xalqaro tizimlarda esa faqat yirik platformalar hisobga olinadi.
- Mahalliy auditoriyaga yo‘naltirilgan kontent strategiyasini baholash, xalqaro reytinglar esa ko‘proq ilmiy faoliyatga e’tibor qaratadi.
- Onlayn reklama samaradorligini aniqlash, hozirda mavjud reyting tizimlari esa bunday ko‘rsatkichlarni baholamaydi.
- Veb-saytning davlat va xususiy ta’lim muassasalariga mosligini aniqlash, bu xalqaro reyting tizimlarida hisobga olinmaydi.

Milliy reyting tizimi quyidagi asosiy omillarga asoslanishi lozim:

- Universitetlarning ijtimoiy tarmoqlardagi real faolligini hisobga olish;
- Mahalliy auditoriyaga yo‘naltirilgan kontent strategiyasini baholash;
- SEO ko‘rsatkichlari, mobil moslashuvchanlik va reklama samaradorligini o‘lchash.

Shunday qilib, O‘zbekiston universitetlari uchun raqamli marketing samaradorligini to‘liq baholash uchun xalqaro tizimlarning cheklovlarini bartaraf etuvchi milliy reyting tizimini yaratish dolzarb vazifalardan biridir. Shu sababli, O‘zbekiston sharoitiga mos milliy reyting tizimini ishlab chiqish nafaqat universitetlarning raqamli mavjudligini baholash, balki ularning marketing strategiyalarini yanada rivojlantirish uchun zarurdir. Biz allaqachon ushbu milliy raqamli marketing baholash tizimini yaratish bo‘yicha ilk amaliy bosqichlarni boshlaganmiz va u O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarining raqamli texnologiyalarini rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Cybermetrics Lab. Webometrics Ranking of World Universities. — 2025. — URL: https://www.webometrics.info*
2. *uniRank. 2025 World University Rankings. — URL: https://www.4icu.org*
3. *4-International Colleges & Universities (4ICU). 2025 World University Rankings. — URL: https://www.4icu.org*
4. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida: PQ-4851-son qaror. — 2020-yil 6-oktabr. — URL: https://lex.uz/docs/5032128*
5. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida: 559-son qaror. — 2022-yil 3-oktabr. — URL: https://lex.uz/ru/docs/6221502*
6. *Vazirlar Mahkamasi. Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida: 415-son qaror. — 2024-yil 11-iyul. — URL: https://lex.uz/uz/docs/-7014313*
7. *O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Oliy ta'lim muassasalarida elektron ta'lim tizimlarining joriy etilishi haqida hisobot. — 2023. — URL: https://www.edu.uz*
8. *Uzbekistan ranks 63rd in E-Government Index // UzDaily. — 2024-yil 18-sentabr. — URL: https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-ranks-63rd-in-e-government-index/*
9. *Gartner. Gartner Top 10 Strategic Technology Trends for 2023. — URL: https://www.gartner.com/en/articles/gartner-top-10-strategic-technology-trends-for-2023*
10. *Cybermetrics Lab. Webometrics Ranking of World Universities. — 2025. — URL: https://www.webometrics.info*
11. *uniRank. 2025 World University Rankings. — URL: https://www.4icu.org*
12. *4 International Colleges & Universities (4ICU). 2025 World University Rankings. — URL: https://www.4icu.org*

6-SHO‘BA: INFORMATSION JAMIYATNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY MUAMMOLARI

АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТЛАРИ ФАОЛИЯТИГА РАҚАМЛИ БОШҚАРУВНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Темиров А.А.
Тошкент менежмент ва иқтисодиёт институти
Бизнес бошқаруви ва молия кафедраси, и.ф.н., профессор

Аннотация. *Мақолада муаллиф томонидан рақамли иқтисодиётнинг ўрни ва роли, рақамли бошқарув тизимини ташкил этиш асослари, рақамли платформа ва унинг ўзаро боғлиқ элементлари, рақамли жамоа ҳамда акциядорлик жамиятлари фаолиятида рақамли бошқарувни жорий этиш борасидаги амалга оширилаётган ишлар тўғрисида маълумот берилган. Шунингдек, мақолада акциядорлик жамиятлари бошқарув фаолиятини самарали баҳолаш ва уларни рақамлаштириш масалаларини такомиллаштиришга оид муаллиф таклиф тавсиялари ишлаб чиқилган.*

Калит сўзлар: *корпоратив бошқарув, рақамли ахборот технологиялари, акциядорлик жамиятлари, рақамлаштириш, рақамли платформа, рақамли бошқарув омиллари, рақамли технологиялар, технологик ўзгаришлар*

Abstract. *The article reveals information about the place and role of the digital economy in the development of the country, the basics of creating a digital management system, a digital platform and its interrelated elements, as well as ongoing work on the introduction of digital management in the activities of joint-stock companies of the Republic of Uzbekistan. The author has developed proposals to improve the effective assessment of the management activities of joint-stock companies and their digitalization.*

Keywords: *joint-stock companies, corporate governance, digital information technologies, digitalization, digital platform, digital management factors, digital technologies, technological changes*

Аннотация. *В статье автором раскрывается информация о месте и роли цифровой экономики в развитии страны, основах создания системы цифрового управления, цифровой платформе и ее взаимосвязанных элементах, а также проводимых работах по внедрению цифрового управления в деятельность акционерных обществ. Автором разработаны предложения по совершенствованию эффективной оценки управленческой деятельности акционерных обществ и их цифровизации.*

Ключевые слова: *корпоративное управление, цифровые информационные технологии, акционерные общества, цифровизация, цифровая платформа, цифровые управленческие факторы, цифровые технологии, технологические изменения*

Кириш

Бугунги кунда ривожланган мамлакатларда рақамли бошқарув омили бошқарув маданияти, бошқарув фалсафаси, бошқарув техникаси, иқтисодий ресурслар каби мустақил ривожланиш омили сифатида эътироф этилади. Ривожланаётган мамлакатларда эса акциядорлик компаниялари ривожланишининг асосий муаммоси сифатида рақамли бошқарувни оқилона ташкил этиш бўлиб қолмоқда. Компаниянинг рақамли бошқарув тизими замонавий рақамли технологиялар ёрдамида фаолиятни ташкил этиш ва амалга ошириш бўйича рақамли платформа билан бирлаштирилган ўзаро боғлиқ элементларнинг тўплами бўлиб ҳисобланади. Агар компания фаолиятида рақамли бошқарув тўғри ташкил этилса, фаолиятнинг муваффақиятга эришишига олиб келади. Мазкур жараёнда компания миқёсида маълумотлар базасини шакллантириш, уларни қайта ишлаш, турли даражадаги платформалардаги транзаксиялар алмашинуви тезлигини оширишга, бинобарин қўшилган қиймат яратиш занжирларини трансформациялашувига олиб келади. Айнан бошқарувни рақамлаштириш орқали компаниялар самарадорлик кўрсаткичларига, яратилаётган қўшилган қийматларга, даромадлилик даражасига эга бўлади ҳамда уларнинг харажатларини оптималлаштириш ва сотиш бозорларини кенгайтиришларига таъсир кўрсатади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили

Давлатларнинг рақамли иқтисодиётга тайёргарлик даражасини баҳолаш услубиятига (Digital Economy Country Assessment, ёки DECA) кўра, рақамли иқтисодиёт таркиби қуйидагилардан иборат [1]:

-рақамсиз омиллар (рақамли трансформация жараёнларини амалга ошириш муҳитини таъминловчи сиёсат ва стратегик режалаштириш, етакчилик, қонунчилик, инсон капитали, инновациялар, ишчанлик муҳити, ишонч ва хавфсизлик омиллар);

-рақамли омиллар (рақамли технологияларни ишлаб чиқарувчи рақамли инфратузилма, ҳамкорликдаги рақамли платформалар);

-иқтисодиётнинг рақамли сектори (информацион-коммуникацион сектор, контент сектори ва оммавий ахборот воситалари).

Жаҳон банки гуруҳи талқинига кўра “Билимлар ва рақамли технологияларга асосланган иқтисодиётнинг янги ривожланиш босқичи бўлиб, унинг доирасида жамият, бизнес ва давлатнинг янги рақамли кўникмалари ва имкониятлари шаклланади”. Deloitte консалтинг компанияси талқини бўйича “Рақамли иқтисодиётнинг асоси интернет, мобил

технологиялар ва интернет бозори ёрдамида шаклланадиган ташкилотлар ҳамда машиналар ўртасидаги алоқадорликнинг ўсиб бориш жараёни ҳисобланади" [2]. The Economist журналида қайд этилишича "...юқори сифатли телекоммуникация тармоқлари инфратузилмасини таклиф этувчи ҳамда телекоммуникация тармоқлари орқали яратиладиган имкониятларни истеъмолчилар, бизнес ва давлат манфаатлари учун йўналтирувчи иқтисодиёт" кўриб чиқилган [2].

Компанияларда бошқарув соҳасидаги етакчи олимлардан бири П.Друкерга фикрича, "Барча ривожланаётган мамлакатлар муаммоси юқори самарали рақамли бошқарувнинг йўқлигигадир" [3]. Россиялик иқтисодчи олим Е.Демьянова эса компаниялар учун баҳолаш усулларини ишлаб чиқиш бўйича назарий принциплар ва амалий тавсияларни ишлаб чиқди, компанияларнинг қийматига таъсир этувчи замонавий молиявий технологияларни жорий этадиган экзоген ва эндоген омилларни берди ва таснифлади [4]. Иқтисодчи олим Т.Гилева рақамли трансформациянинг таркибини аниқлади, акциядорлик жамиятининг рақамли етуклигини бошқаришнинг ҳозирги ва мақсадли етуклик даражаси ўртасидаги тафовутни бартараф этишга асосланган концептуал схемани таклиф қилди, шунингдек акциядорлик жамиятларнинг рақамли иқтисодиётда ишлашга тайёрлигини таҳлил қилиш методологиясини тақдим этди [5]. Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлари Ш.Шоҳаъзамий ва Г.Ташпулатовларнинг асарларида берилган бўлиб, улар рақамли баҳолаш ташкилотларида қўлланиладиган тизимли тадқиқотлар ва рақамли иқтисодиётни қуриш учун назарий ва услубий асос бўлиб хизмат қилиши мумкин [6].

Тадқиқот методологияси. Мақолада қиёслаш, гуруҳлаш, таққослаш, тизимли ёндашув, таҳлил ва синтез усуллари қўлланилди. Натижада компаниялар корпоратив бошқаруви фаолиятида рақамлаштириш бўйича алгоритм ишлаб чиқилди, шунингдек олинган маълумотлари базаси асосида таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқишга эришилди.

Таҳлил ва натижалар

Рақамли бошқарув - бу ташкилотнинг рақамли мавжудлиги, унинг веб-сайтлари, мобиль сайтлари, ижтимоий каналлари, онлайн ва интернетда мавжуд бўлган бошқа маҳсулотлар ва хизматларни назарда тутадиган ҳисобдорлик ва қарор қабул қилиш ваколатларини белгилаш учун асослар мажмуидир. Самарали рақамли бошқарув тизимига эга бўлиш компаниянинг рақамли жамоасида турли соҳаларда қарор қабул қилиш ҳуқуқига эга

бўлган шахсни аниқ белгилаш орқали ташкилотнинг рақамли мавжудлигини бошқариш ва бошқариш бўйича тактик мунозараларнинг сонини камайтиради.

Агар рақамли бошқарув тўғри ташкил этилса, акциядорлик жамияти фаолияти муваффақиятли ва фойдали бўлади. Компаниянинг рақамли бошқарув тизими замонавий рақамли технологиялар ёрдамида фаолиятни ташкил этиш ва амалга ошириш бўйича рақамли платформа билан бирлаштирилган ўзаро боғлиқ элементларнинг тўплами бўлиб ҳисобланади. Бошқарув жараёнлари рақамлаштириш унинг режалаштириш, таҳлил қилиш, назорат қилиш каби асосий функцияларига ярим автоматлаштириш тизимини жорий қилиш орқали амалга оширилади. Бошқарув қарорларини рақамлаштириш рақамли платформада “нима бўлади, агар...” тамойили бўйича принципиал кўрсаткичларни ҳисоблаш билан компанияни ривожлантиришнинг мумкин бўлган сценарийларини шакллантириш йўли билан шакллантирилади. Онлайн режимда менежерлар турли сценарийларни кўриб чиқадилар ва энг мақбул вариантни танлайдилар [7].

Рақамли бошқарувда сунъий интеллектдан фойдаланиш компаниянинг асосий функцияларини рақамлаштириш имконини беради, бунда бошқарувга фақат ижодий ишни - ходимларни танлаш, рағбатлантириш тизимини ишлаб чиқиш, командани шакллантириш ва бошқаларни қолдиради. Рақамли платформа мустақил равишда қарорларни танлайди ва баҳолайди, мақсадларни жараёнларни ва рискларни таҳлил қилади. Компания бошқаруви эса ривожланишнинг энг самарали ва фойдали сценарийсини тасдиқлаши керак бўлади холос. Компаниядаги ходимларнинг электрон ҳужжат айланиши, онлайн лойиҳаларни бошқариш тизимлари, замонавий коммуникация воситаларидан фойдаланган ҳолда ўзаро ҳамкорлик бошқарувнинг рақамли ташкилий тузилмасини ташкил этади.

Акциядорлик жамиятининг рақамли стратегияси замонавий рақамли технологиялар асосида амалга ошириладиган ривожланишнинг асосий стратегиясидир. Бу эса компания мақсад ва тадбирларининг муваффақиятини таъминлашга қаратилган рақамлаштиришни ўз ичига олади. Қўйилган мақсадларга эришиш компания фаолиятида юзага келиши мумкин бўлган рисклар туфайли амалга ошмай қолиши мумкин. Бу ўз навбатида рақамли трансформация интеллектуал башоратли таҳлилларга асос-

ланган рақамли рискларни бошқариш тизимини ташкил этишни талаб қилади [6].

Акциядорлик жамияти бошқарув тизимининг рақамли платформадаги модели таҳлил қилинганда, аввало, бошқарув объекти рақамлаштирилганлиги, унинг рақамли эгизаги эса шакллантирилганлиги намоён бўлади. Сўнгра иқтисодий бошқарув субъекти рақамлаштирилади (бошқарув жараёнлари, бошқарувнинг рақамли бошқарув тузилмаси, бошқарув қарорлари). Бошқарувнинг субъекти ва объекти ягона рақамли платформада унинг эгалари ва менежменти учун маълумотларни шакллантирилиши учун ўзаро ҳаракатланади. Бунда улар маълумотларни бир-бирларидан эмас, балки он-лайн режимда мобиль воситалари орқали олади-лар. Бу эса компания менежерлари компаниянинг фаолияти тўғрисидаги нотўғри маълумотларни бериш ҳолатига барҳам беради [7].

Шундай қилиб, бошқарув элементларининг барчасини компаниянинг рақамли платформаси орқали шакллантириш мумкин, бу ўз навбатида компаниянинг бошқарув тизими фаолиятининг стержени бўлиб ҳисобланади. Рақамли платформа эса барча иштирокчилар ўртасидаги муносабатларни рақамлаштиришни таъминловчи, транзаксион харажатларни камайтириш ва бизнес моделларини модернизация қилишга қаратилган интеграциялашган ахборот тизими бўлиб ҳисобланади. Акциядорлик жамиятларида бошқарув жараёнларини рақамлаштиришнинг илк босқичи ҳисобланувчи ишлаб чиқариш жараёнини қамраб олувчи автоматлаштирилган тизимни шакллантиришга боғлиқ. Буни қуйидаги расмда кўриш мумкин.



1-расм. Акциядорлик жамиятларида бошқарув жараёнларини автоматлаштириш*

**Манба. Маълумотлар асосида муаллиф ишланмаси*

Расм маълумотларидан маълум бўлмоқдаки, автоматлаштирилган тизим ўз таркиби маҳсулотларини ишлаб чиқариш билан билан боғлиқ жараёнларни қамраб олувчи автоматлаштирилган тизимни шакллантириш, ишлаб чиқариш ва логистика тизимини оптималлаштириш билан боғлиқ жараёнларни автоматлаштириш, ишлаб чиқариш муддатлари, меъёр ва мезонларни автоматлаштириш, ишлаб чиқариш майдонларининг моддий-техник таъминотини автоматлаштириш

билан боғлиқ чора-тадбирлар мажмуасидан ташкил топган.

Шакллантирилган рақамли платформага рискларни бошқариш ва рақамли стратегияни мониторинг қилиш рақамли тизими қўшилади, бу ўз навбатида акциядорлик жамияти бошқарув ходимларининг рақамли бошқарув панелида керакли ахборатларни берилишига ёрдам беради. Ҳар бир хизматчи компаниянинг мақсади, кўрсаткичлари ва бажариш учун вазифаларни, шунингдек муддати ҳамда мақсадли натижасини кўриши мумкин бўлади. Демак, бошқарув тизимининг барча элементлари ўзаро бир-бири билан боғлиқ ҳамда компаниянинг олдига қўйган мақсадини амалга оширилишига ёрдам берадиган ягона рақамли платформада жойлашган. Жадал суръатлар билан ривожланиб бораётган иқтисодий ислоҳотлар жараёнида бошқарувнинг мураккаблашуви тобора кўзга ташланмоқда. Зеро, ҳар бир соҳада болгани сингари иқтисодиёт соҳасида ҳам фаолият турлари тегишли тартибда мувофиқлаштирилган ҳолда амалга оширилиши мақсадга мувофиқдир. Бу жараёнда, биринчи навбатда, бошқарув жараёнини самарали ташкил этишнинг нечоғли муҳим эканлиги намоён бўлади. Ушбу хусусиятлар бошқарув жараёнида амалга оширилаётган турли чора-тадбирлар, шу жумладан, сарф-харажатларни минималлаштирган ҳолда, даромадни максимал нуқтага олиб чиқиш, ходимлар малакасини ошириш, хом-ашё ресурслари таъминотининг узвийлигини таъминлаш ва фаолиятни оптимал даражада ташкил этиш билан боғлиқ бўлган жараёнларда ўз аксини топмоқда.

Ҳар қандай акциядорлик жамиятининг узоқ муддатли ютуқлари ишлаб чиқилган стратегияга боғлиқ бўлади. Агар акциядорлик жамиятининг ривожланиш стратегияси бўлмаса у ёки бу хатоликлар билан ишлаб чиқилган бўлса, бу ҳол акциядорлик жамиятига бозорда барқарор ва мустаҳкам ўрин эгаллаш учун имкон бермайди [9].

Замонавий илм-фан ва амалиёт стратегик режалаштириш ҳамда бошқаришнинг катта тажрибасига эга, аммо кўпгина стратегиялар ҳалигача ташқи ва ички муҳитнинг ўзгарувчан шарт-шароитларига мослаша олмаяпти. Бу ҳали ҳанузгача корпоратив бошқарувнинг барча муаммолари ҳам ўз ечимини топмаганлигини кўрсатадики, бундай ҳол, биринчи навбатда, акциядорлик жамияти ривожланиши стратегик барқарорлигининг механизмларини ишлаб чиқиш билан боғлиқ.

Ўзбекистон Республикаси акциядорлик жамиятларининг бошқарув тизимини рақамлаштиришда маълумотларни йиғиш ва қайта ишлаш электрон тизими билан интеграциялашув масаласи, бошқа

томондан эса бошқарув тизимига рақамли технологияларни жорий этиш бўйича тегишли органлар билан келишув жараёнларининг мураккаблиги асосий муаммо эканлигини қайд этиш мумкин. Бундан ташқари, ишлаб чиқарувчи акциядорлик жамиятлари учун ходимларнинг рақамли билимларни билиш даражаси ва катта ҳажмдаги маълумотларни қайта ишловчи технологиялар билан боғлиқ муаммолар устуворлик касб этса, маҳсулотларни истеъмолчиларга етказиб берувчи компаниялар учун маълумотлар хавфсизлиги ва иқтисодий самарадорликни таъминлаш масалалари жиддий муаммо сифатида таснифланади.

Бунинг баробарида, акциядорлик жамиятларида рақамлаштиришни жорий этишдаги Ўзбекистон акциядорлик жамиятларининг аксар қисмида классик бошқарув ва технологияларни қўллаши сабабли натижасида соҳага хорижий инвестициялар ва технологияларнинг кириб келиши даражаси жуда паст. Бошқа томондан эса бошқарув соҳасидаги кадрларининг мавжуд салоҳияти натижасида акциядорлик жамиятлари имкониятлари тўлиқ баҳоланмагани ва улардан фойдаланилмагани оқибатида катта моддий наф кўриш эвазига қиммат нархлардаги маҳсулотларни олиб кирувчи дистрибьюторлар кўпайишига сабаб бўлмоқда.

Бунинг баробарида, кўп акциядорлик жамиятларининг олдида турган асосий муаммолардан бири сифатида унинг фаолияти учун салбий таъсир кўрсатадиган ҳамда зарарга олиб келишига сабаб бўладиган самарасиз бошқарув тизимини кўрсатиш мумкин. Фикримизча, Ўзбекистон Республикаси акциядорлик жамиятлари фаолиятида рақамли бошқарувнинг қўлланилиши зарурлигини қуйидагича ифодалаш мумкин.

1. COVID-19 пандемиясига қадар бўлган даврда мамлакатимиз акциядорлик жамиятларида бошқарув жараёнларини рақамлаштириш масаласи зарурий, аммо биринчи навбатдаги масала сифатида кўриб чиқилмаган. Пандемияни кенг тарқалишини олдини олиш бўйича қатъий карантин чораларининг кўрилиши, унинг асоратларини бартараф этишга бўлган эътиборни кучайиши рақамлаштириш жараёнларининг тезлашувига олиб келди.

2. Бошқарув жараёнларини рақамлаштириш ва автоматлаштириш тушунчалари ўртасидаги мавжуд тафовутни очиқлаш. Хусусан, автоматлаштириш бошқарув жараёнларига янги техник воситалар ва технологияларни жорий этиш ҳамда улардан фойдаланишни назарда тутиладиган бўлса, бошқарув жараёнларини рақамлаштириш маълумотларни йиғиш ва таҳлил

қилиш билан боғлиқ масалаларни қамраб олади.

3. Бошқарув тизимига рақамли технологияларни жорий этиш мазкур жараёнларни тўлиқ автоматлаштириш орқали амалга оширилади. Автоматлаштириш бўйича тадбирларнинг самарадорлиги даражаси рақамли технологияларни жорий этилиши даражасига бевосита таъсир этади.

4. Бошқарув тизимига рақамли технологияларни жорий этиш аниқ белгиланган режа ва уни амалга ошириш алгоритмини ишлаб чиқишни тақозо қилади.

Хулоса ва таклифлар

Акциядорлик жамиятларида рақамли бошқарувни жорий этишда унинг самарадорлигини оширишга алоҳида эътибор қаратиш лозим. Миллий ижтимоий-иқтисодий тизимнинг мунтазам ва барқарор ривожланиши иқтисодиётнинг реал сектори акциядорлик жамиятлари фаолиятининг натижаларини оширишга хизмат қилади, бу эса ўз навбатида ушбу акциядорлик жамиятларда рақамли бошқарувнинг замонавий усулларидан фойдаланган ҳолда самарадорликнинг юқори даражасини таъминлайди.

Мамлакатимизда фаолият юритаётган барча акциядорлик жамиятиларда замонавий рақамли бошқарувни қўллаш зарур, бу эса улар фаолиятидаги қуйидаги масалаларни ҳал этишга ёрдам беради:

-маркетингни бошқариш;

-ахборот технологияларини ташкил этиш;

-инновацион рақамли бошқарув ташкилотлари;

-ходимларни рақамли технологиялардан фойдаланишга ундаш.

Рақамли бошқарувни қўлланилиши ушбу масалаларни ҳал этишга ёрдам бериши мумкин. Хусусан, кадрлар фаолиятини кузатиб борувчи оддий дастурий таъминотдан бошлаб, бошқарув тизимини рақамлаштиришга ўтказиш ўз навбатида кадрлар масаласида инсон омилини талаб қилмайдиган жараённи шаффофлигига ва марказлашмаганлигига олиб келиши мумкин.

Шундай қилиб, рақамли технологиялар акциядорлик жамиятлари фаолияти натижаларини режалаштириш, мониторинг қилиш ва баҳолашга асосланган анъанавий ёндашувларни сезиларли даражада ўзгартириши мумкин. Бунинг баробарида, акциядорлик жамиятларининг фаолиятида рақамли бошқарувнинг жорий этилиши, энг аввало, харажатларни тежаш ва хомашёдан самарали фойдаланишга олиб келади, шунингдек акциядорлик жамиятлари обрўсининг кўтарилишига, бинобарин миллий иқтисодиётнинг ривожланишига хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Digital Economy Country Assessment For Russia. https://iis.ru/wp-content/uploads/2020/12/DECARussia2018eng.pdf

2. Махмудов А., Примов Э. Фармацевтика соҳасидаги акциядорлик жамиятлари фаолиятига рақамли бошқарувни жорий этиш масалалари // Жамият ва бошқарув. №1, 2021. -170-175 б.

3. Друкер П. Задачи менеджмента в XXI веке. Пер. с английского. -М. Вильямс, 2004. -742 с.

4. Демьянова Е.А. Актуальные вопросы стоимостной оценки компаний в условиях финтех. Стратегические решения и риск менеджмент. - №1 (106) С. 102-117

5. Гилева Т.А. Цифровая зрелость предприятия: методы оценки и управления. Экономические науки. Вестник УГНТУ. Наука, образование, экономика. Серия экономика. №1 (27). - С. 38-52.

6. Шоҳаъзамий Ш.,Ташпулатов Ғ.Т. Баҳолаш фаолиятида блокчейн технологиясини қўллаш масалалари//Рақамли иқтисодиёт: янги Ўзбекистонни янги технологиялар, платформалар ва бизнес моделлари орқали ривожлантиришнинг янги боқичи. (DEUZ) 4-қисм.–Т.: Tadqiqot, 2020. - 55-59 б

7. Масленников В.В. и др. Формирование системы цифрового управления организацией // Вестник РЭУ им. Плеханова. №6, 2019 г

8. Temirov A.A., Kayumov R.I. Market price of stocks and company dividend policy // Ученый XXI века. № 12-2, 2020. -с. 96-103.

9. *Седегов Н.А. (2018) Информационная система оценки деятельности организаций. «Научно-практический электронный журнал Аллея Науки» - №4 (20)*

ЧОРВАЧИЛИК ХЎЖАЛИКЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА УЛАРГА ЕР АЖРАТИШ ТАРТИБИ

В.А.Ахмадалиев
“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти” Миллий тадқиқот университети ассистенти, тадқиқотчи
v.ahmadaliev@mail.ru

Аннотация. *Мақолада республикамизда чорвачилик соҳасини ривожлантириш бўйича амалга оширилаётган ислоҳотлар натижалари, чорвачилик хўжаликлари, чорва моллари турлари бўйича бош сони ҳақида маълумотлар берилган. Чорвачилик йўналишидаги қишлоқ хўжалиги корхоналари учун ер ажратиш тартиби ва шартлари келтирилган. Чорвачилик йўналишидаги хўжаликлар учун ер ажратиш тартиби ва тизимини такомиллаштириш бўйича тавсиялар берилган.*
Калит сўзлар: *Қишлоқ хўжалиги, фермер хўжалиги, чорвачилик, ер фонди, ер турлари, ер ажратиш, ер участкаси, ер тузиш, озуқа базаси.*

Annotation. *The article examines the results of the reforms carried out in the field of livestock development in our republic, analyzes the number of livestock and types of livestock on livestock farms. The procedure and conditions for the allocation of land for agricultural enterprises in the direction of livestock are given. Recommendations have been made to improve the procedure and system of land allocation for livestock-oriented farms.*
Keywords. *Agriculture, farm, livestock, land fund, land types, land allotment, land plot, land settlement, feed base.*

Аннотация. *В статье рассматриваются результаты реформ, проводимых в сфере развития животноводства в нашей республике, анализируется численность и виды скота на животноводческих фермах. Приводятся порядок и условия выделения земельных участков для сельскохозяйственных предприятий по направлению животноводства. Даны рекомендации по совершенствованию порядка и системы выделения земельных участков для животноводческих хозяйств.*
Ключевые слова: *Сельское хозяйство, фермерское хозяйство, животноводство, земельный фонд, виды земель, земельный надел, земельный участок, земельный населенный пункт, кормовая база.*

Кириш. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётида чорвачилик соҳаси муҳим ўрин эгаллайди. Фермер хўжаликларида чорвачилик маҳсулоти ишлаб чиқарилиши муҳим ижтимоий аҳамиятга эга бўлиб, қишлоқ аҳолиси учун муҳим даромад ва озиқ-овқат манбаи ҳисобланади. Бугунги кунда мамлакатимизда халқ хўжалигининг барча жабҳалари қатори, қишлоқ хўжалигида ва унинг асосий тармоғи ҳисобланган чорвачилик соҳасида ҳам кенг миқёсли иқтисодий

ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Энг асосийси чорвачиликни бозор иқтисодиёти шароитида барқарор ривожлантиришнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари яратилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 январдаги “Чорвачилик тармоғини давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ4576-сон қарори ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 февралдаги “Ўзбекистон Республикасида чорвачилик соҳаси ва унинг тармоқларини ривожлантириш бўйича 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган дастурни тасдиқлаш тўғрисида” ПҚ-120-сон қарорига асосан чорвачилик тармоғини жадал ривожлантириш, замонавий ва инновацион услубларини жорий этиш, маҳсулотлар ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш ва турларини кенгайтириш, шунингдек, аҳолини маҳаллий шароитда ишлаб чиқарилган сифатли ва арзон чорва маҳсулотлари билан узлуксиз таъминлаш ҳамда чорвачиликка ихтисослашган корхоналарни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш мақсадида тармоқда иқтисодий, ташкилий, ижтимоий ва сиёсий жиҳатдан чуқур ислоҳотлар давом этмоқда [1, 2]. Мамлакатимизда чорвачилик соҳасининг ривожланиши бевосита ер ресурслари ва озуқа экинлари билан таъминланиш даражаси билан боғлиқ бўлиб, чорвачилик хўжаликларини зарур ер майдонлари билан таъминлаш орқали уларнинг ривожланиши учун қулай шарт-шароитлар яратиш муҳим аҳамиятга эга. 2022 йил ҳолатига республикамизда жами 91829 та фермер хўжалиги ташкил этилган бўлиб, шундан 18032 та чорвачилик хўжаликлари мавжуд, шу жумладан, 7614 та қорамолчилик, 3263 та қўй ва эчкичилик, 142 та йилқичилик, 52 та туячилик, 1163 та паррандачилик, 4829 та балиқчилик, 715 та асаларичилик ва 254 та қуёнчилик йўналишидаги хўжаликлар фаолият кўрсатган [3].

2022 йил маълумотларига кўра республика ер фонди тоифаси бўйича 27148,5 минг га қишлоқ хўжалиги мақсадлари учун мўлжалланган ерлар бўлиб, чорвачилик субъектларига озуқабоп экинлар экиш учун ажратилган 339,7 минг гектар ер майдонларининг 37 минг гектарига янги беда, 100 минг гектарда эски беда, 158,5 минг гектарига силос учун маккажўхори, 31,8 минг гектарига оқ жўхори, 13,8 минг гектарига хашаки лавлаги экинлари экилган ва чорва учун озуқа етиштирилган. Шунингдек, ғалладан бўшаган 177400 гектар ер майдонига такрорий озуқабоп экинлар экилган ҳамда чорва моллари учун озуқа базасини

мустаҳкамлаш мақсадида жами 23,8 миллион тонна озуқа жамғарилган [3, 4]. Бироқ, қишлоқ хўжалиги корхоаналари боқилаётган чорва молларининг бош сони ажратилган озуқа экин ер майдонлари меъёрига нисбатан (шартли бир бош чорва молига ўртача 0,5-0,6 гектар) 2,5 баравар кўп. Озуқабоп экинлар учун ажратилган ҳар бир гектар экин ерларидан 10-12 тоннадан озуқа жамғариш имкониятлари мавжуд бўлса-да, ҳар бир гектардан 6-7 тоннадан озуқа жамғарилмоқда. Барча тоифадаги хўжаликларда парвариш қилинаётган қорамолларнинг 91,8 фоизи аҳоли хонадонларига, 8,2 фоизи фермер хўжаликларига тўғри келган. Бундан кўринадики, энг кўп чорва моллари (91,8%) аҳоли хонадонлари ва деҳқон хўжаликларида мавжуд бўлиб, лекин улар етарлича экин ва яйлов майдонларига эга эмас. Бу албатта аҳолига чорва молларини зарур ем-хашак ҳамда озуқалар билан таъминлашда қийинчиликларни вужудга келтиради.

Бугунги кунда амалдаги қонун ва қонун ости хужжатларида асосан қишлоқ хўжалик корхоналарига, жумладан фермер хўжаликларига чорвачилик фаолиятини амалга ошириш учун ер ажратиш тартиби аниқ кўрсатиб берилган. Лекин энг кўп чорва молларига эга бўлган деҳқон хўжаликлари учун яйлов ва озуқа экин майдонларини ажратиш ўз ечимини кутаётган муаммо муаммоли масалалардан бири ҳисобланди.

Ўзбекистон Республикасининг Фермер хўжалиги тўғрисидаги қонунида суғориладиган ер майдонларидан ҳар бир шартли мол учун камида 0,30-0,45 гектардан ажратиш белгилаб берилган. Ушбу имкониятда чорвачилик фермер хўжаликларида озуқа базасини мустаҳкамлаш долзарб ҳисобланади. Гектар ҳисобига етиштириладиган озуқалар тўйимлиги ва озуқабоп экинлар ҳосилдорлигини кутарилиши дехончиликда илмий асосланган алмашлаб экиш тизимига боғлиқ. Чорвачилик фермер хўжаликларининг хозирги озуқабоп ер майдонларидан фойдаланишида чорва моллари озуқалар билан тўлиқ таъминланмаяпти. Шунинг билан биргаликда минерал озуқалар билан таъминламаганлиги, озуқа экинларини етиштиришда агротехника ишларининг оптимал муддатларида амалга оширилмаганлиги сабабли гектаридан олинаётган ҳосилдорлик ўртача 50- 56 ц озиқа бирлигида қолмоқда. 1 шартли молга 17-19 ц озуқа бирлиги тўғри келади. Мавжуд ҳолатдан чиқиш ва озуқа базасини мустаҳкамлаш борасида биринчидан шартли молларга ажратилган ер майдонларини 2 бараварга кенгайтириш ва иккинчидан ҳосилдорликни 1,5-2 бараварга кўпайтириш омилларини ишга

солиш жоиз. Чорвачилик маҳсулоти етиштиришга ихтисослаштирилган фермер хўжалиги камида 30 шартли бош чорва моли бўлган тақдирда ташкил этилади. Фермер хўжалигига ижарага бериладиган ер участкаларининг энг кам ўлчами бир шартли бош чорва молга ҳисоблаганда Андижон, Наманган, Самарқанд, Тошкент, Фарғона ва Хоразм вилоятларидаги суғориладиган ерларда камида 0,3 гектарни, бошқа вилоятлар ва Қорақалпоғистон Республикасидаги суғориладиган ерларда камида 0,45 гектарни, суғорилмайдиган (лалмикор) ерларда эса камида 2 гектарни ташкил этади [5].

Фермер хўжаликларини юритиш учун ер участкалари захира ерлардан ҳамда юридик ва жисмоний шахсларга берилмаган, қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан ажратилади. Илмий-тадқиқот муассасалари, олий ўқув юртлари, академик лицейлар, касб-ҳунар коллежлари ва умумтаълим мактабларининг ерлари, шунингдек сув фонди ерлари фермер хўжаликларига берилиши мумкин эмас. Қишлоқ хўжалик корхоналари чорвачилик мақсадлари учун ўрмон хўжалиги ерларидан вақтинчалик тузилган ижара шартномаси асосида мавсумий фойдаланишлари мумкин.

Фермер хўжаликлари юритиш учун ер участкалари бериш тартиби қуйдагича:

фермер хўжаликларини юритиш учун ер участкалари очиқ электрон танлов асосида ўттиз йилдан кам бўлмаган ва 49 йилгача бўлган муддатга ижарага берилади;

фермер хўжалиги юритиш учун ер участкасини олишда фермер хўжалиги ташкил этилаётган жойда яшовчи шахслар бошқа тенг шартларда устун ҳуқуқдан фойдаланади;

фермер хўжалиги юритиш учун ер участкалари олган ва қишлоқ аҳоли пунктида турар жойи бўлган шахсларнинг томорқа ер участкаси сақланиб қолади;

фермер хўжалигининг ер участкаси чегараларини натурада (жойнинг ўзида) белгилаш ҳамда ер тузиш лойиҳаларига мувофиқ фермер хўжалигига ер участкасини ижарага бериш бўйича ҳужжатларни расмийлаштириш маҳаллий давлат органлари органлари томонидан амалга оширилади.

Мамлакатимизнинг чорвачилик тармоғини ривожлантириш, чорвачилик маҳсулотларини ишлаб чиқаришни зарур ер майдоналари билан таъминлашда вужудга келаётган муаммолар, яъни, чорва моллариға яйлов ва озуқа экин майдонларининг етишмаслиги, мавжуд яйловлар деградациясининг кучайиши ва тўйимли озуқа ўтларининг камайиши, иқлим ўзгариши ва қурғоқчиликнинг чорва моллари маҳсулдорлигига салбий таъсири каби ердан фойдаланиш билан

боғлиқ муаммолар бир қатор устувор масалаларга эътибор қаратишни талаб қилади:

деҳқон, фермер ва бошқа чорвачилик хўжалиги ишлаб чиқариши билан шуғуллунувчи хўжаликларнинг чорва моллари бош сони ва мавжуд шароитларини ўрганган ҳолда зарур ер майдоналари билан таъминлаш имкониятларини аниқлаш;

қишлоқ хўжалиги экинлари таркибида озуқа экинлари салмоғини кўпайтириш;

деҳқон хўжаликларини чорва учун зарур яйлов ва ер майдонлари билан таъминлаш;

яйловлардан алмашлаб фойдаланиш тартибини жорий қилиш ва яйловлар деградациясини бартараф этиш;

йирик чорвачилик хўжаликлари ва фермер хўжаликлари ҳудудларида ер тузиш лойиҳаларини ишлаб чиқиш;

қишлоқ хўжалигида озуқа экинларидан иборат алмашлаб экиш тизимини жорий қилиш.

Хулоса қилиб айтганда, чорвачилик хўжаликлари ривожланишида ер асосий ишлаб чиқариш ресурси бўлиб, чорва молларини озуқа экинлари ва яйлов майдонлари билан таъминлаш, чорвачилик тармоғининг кенгайиши учун шарт-шароитлар яратиш, ер ажратиш ва ердан фойдаланишни илмий асосланган ҳолда ташкил этиш соҳанинг барқарор ривожланиши ҳамда алоҳининг озиқ-овқат хавфсизлиги учун муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 январдаги "Чорвачилик тармоғини давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ4576-сон қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 февралдаги "Ўзбекистон Республикасида чорвачилик соҳаси ва унинг тармоқларини ривожлантириш бўйича 2022-2026 йилларга мўлжалланган дастурни тасдиқлаш тўғрисида"ги ПҚ-120-сон фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Ер ресурсларининг ҳолати тўғрисидаги Миллий ҳисоботи, Тошкент, Кадастр агентлиги, 2022. – 96 б.

4. "Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги 2018-2021" Статистик тўплам. Тошкент, 2022.

5. Ўзбекистон Республикасининг "Фермер хўжалиги тўғрисида"ги қонуни. Тошкент, 1998 йил 30 апрель. (қўшимча ва ўзгартиришлар билан)

ЭКСПОРТНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА УЗБЕКИСТАНА: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ (2018–2025 ГГ)

Носирова Наргиза Джамолиддин кизи
Начальник отдела научных исследований и инноваций
Ташкентского института менеджмента и экономики

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida 2018–2025 yillar davomida kichik tadbirkorlik subyektlarining (KTS) eksporti dinamikasi va tarkibi har tomonlama o‘rganilgan. Tarmoq va hududiy tahlil asosida kichik biznesning tashqi iqtisodiy faolligini cheklayotgan asosiy tendensiyalar, institutsional va infratuzilmaviy to‘siqlar aniqlangan. Maqolada Davlat statistika qo‘mitasi statistikasi, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP), Jahon banki va tegishli vazirliklarning materiallaridan foydalanilgan. KTS eksportini rag‘batlantirish bo‘yicha kompleks tavsiyalar asoslab berilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, kichik korxonalar salohiyatini to‘liq ochib berish uchun ularni tizimli qo‘llab-quvvatlash zarur, jumladan, sertifikatlash, logistika va moliyalashtirish sohalarida.*

Kalit so‘zlar: *kichik biznes, eksport salohiyati, tashqi iqtisodiy faoliyat, O‘zbekiston, KTS, eksportdagi to‘siqlar, hududiy tahlil, sertifikatlash, eksport yo‘nalishlari, institutsional muhit, logistika, raqamlashtirish, eksportni qo‘llab-quvvatlash.*

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the dynamics and structure of exports by small business entities (SMEs) in Uzbekistan during the period from 2018 to 2025. Based on sectoral and regional analysis, key trends, institutional and infrastructural barriers hindering the foreign economic activity of small businesses are identified. The study utilizes data from the State Committee on Statistics, materials from UNDP, the World Bank, and relevant ministries. Comprehensive recommendations are substantiated to stimulate SME exports. The study emphasizes that unlocking the potential of small enterprises requires systematic support, particularly in the areas of certification, logistics, and financing.*

Key words: *small business, export potential, foreign economic activity, Uzbekistan, SME, export barriers, regional analysis, certification, export niches, institutional environment, logistics, digitalization, export support.*

Аннотация. *В статье всесторонне исследуется динамика и структура экспорта субъектов малого предпринимательства (МСП) в Узбекистане за период 2018–2025 гг. На основе отраслевого и регионального анализа выявлены ключевые тенденции, институциональные и инфраструктурные барьеры, сдерживающие внешнеэкономическую активность малого бизнеса. Использована статистика Госкомстата, материалы UNDP, Всемирного банка и профильных министерств. Обоснованы комплексные рекомендации по стимулированию экспорта МСП. Работа*

подчеркивает, что раскрытие потенциала малых предприятий требует системной поддержки, в том числе в сферах сертификации, логистики и финансирования.

Ключевые слова: *малый бизнес, экспортный потенциал, внешнеэкономическая деятельность, Узбекистан, МСП, барьеры экспорта, региональный анализ, сертификация, экспортные ниши, институциональная среда, логистика, цифровизация, экспортная поддержка.*

Введение

Малый бизнес — структурный фундамент экономики Узбекистана. На него приходится более 54% ВВП и около 78% занятости. При этом экспортная активность субъектов МСП остается несбалансированной и уязвимой к внутренним и внешним шокам. Особенно это проявилось в постковидный период и на фоне глобальной логистической трансформации. Несмотря на меры государственной поддержки, потенциал МСП в экспорте используется не полностью.

Цель исследования — комплексно проанализировать текущее состояние экспорта субъектов МСП, выявить отраслевые и территориальные различия, определить ключевые барьеры и предложить инструменты стимулирования. Научная новизна заключается в сопоставлении динамики по регионам и секторам в ретроспективе с 2018 года и в выработке адресных решений для устойчивого роста.

Методологическая база включает:

- статистику Государственного комитета по статистике (2018–2024);
- аналитические отчёты Министерства инвестиций, промышленности и торговли Узбекистана;
- обзоры международных организаций (UNDP, Всемирный банк, ADB);
- контент-анализ стратегических документов (Стратегия развития до 2030 года, Программа стимулирования экспорта МСП).

Применены методы:

- сравнительно-динамического анализа (2018–2025 гг.);
- межрегионального и межотраслевого сопоставления экспортной активности;
- выявления узких мест с помощью SWOT и PEST-анализов;
- экспертного оценивания институциональной среды и программ господдержки.

1. Общие тренды. Экспорт МСП вырос с $6,3 млрд в 2018 году до $9,1 млрд в 2023-м. Цель к 2025 — $12 млрд. Рост обеспечен в основном за счёт текстильной, сельскохозяйственной и IT-продукции.

2. Отраслевая структура:

- Текстиль и легкая промышленность — 35% от общего объёма экспорта МСП.

- Аграрный сектор — 28% (в основном фрукты, овощи, орехи, сухофрукты).
- IT и цифровые услуги — ≈8%, с динамичным ростом в последние 3 года.
- Машиностроение и производство стройматериалов — до 5%, но с ограниченной внешней конкурентоспособностью.

3. Региональный разрез:
- Ташкент — лидер по объемам (инфраструктура, доступ к рынкам, концентрация IT).
- Ферганская долина — активный экспорт сельхозпродукции (Андижан, Фергана, Наманган).
- Навоий, Джизак, Сурхандарья — отстают по всем показателям: неразвитая логистика, дефицит квалифицированных кадров, слабая диверсификация.

4. Главные барьеры:
- Финансовые: сложность доступа к экспортному финансированию, особенно в регионах.
- Логистические: удалённость от морских портов, высокие ставки на перевозку.
- Сертификационные: трудности с получением ISO, Halal, GlobalGAP.
- Кадровые: дефицит специалистов по внешнеэкономической деятельности и международному праву.
- Информационные: низкий уровень цифровизации экспортных сервисов.

Полученные результаты показывают, что в условиях открытой экономики МСП может стать мощным драйвером экспорта. Однако в текущей институциональной среде предприятия сталкиваются с:
- низкой доступностью кредитов на экспортные цели;
- неэффективной системой экспортоориентированных кластеров;
- слабой внешнеэкономической подготовкой предпринимателей.

Для устойчивого развития экспортного потенциала МСП требуется:
- создание специализированных экспортных акселераторов по отраслям и регионам;
- цифровизация экспортной поддержки (онлайн-сертификация, реестры рынков, биржи);
- субсидирование транспортных и сертификационных расходов;
- стимулирование выхода МСП на международные онлайн-платформы (Alibaba, Amazon);
- формирование новых экспортных ниш (медицинский туризм, креативные индустрии).

Заключение

Малый бизнес способен стать основным локомотивом устойчивого экспорта Узбекистана, особенно в секторах с высокой добавленной стоимостью. Однако без системных реформ в области инфраструктуры, сертификации,

логистики и финансирования его потенциал останется нереализованным. Необходима комплексная национальная программа экспорта МСП с учётом региональных различий и глобальных вызовов.

Список использованной литературы:

1. *Государственный комитет по статистике Республики Узбекистан. (2018–2024 гг.). Официальные статистические данные по экспорту и МСП.*
2. *Министерство инвестиций, промышленности и торговли Республики Узбекистан. (2023). Отчет о развитии экспортной деятельности МСП.*
3. *United Nations Development Programme (UNDP). (2022). Inclusive growth and SME development in Uzbekistan.*
4. *The World Bank. (2023). Uzbekistan Country Economic Update: Special Focus on SMEs and Export Development.*
5. *Asian Development Bank (ADB). (2021). Uzbekistan: SME Sector Assessment and Export Readiness Report.*
6. *Стратегия развития Узбекистана до 2030 года. (2022).*
7. *Программа стимулирования экспорта субъектов малого предпринимательства. (2024).*
8. *Хусаинов, Ш.Р. (2021). Экспортная деятельность субъектов малого бизнеса: вызовы и перспективы. Ташкент: Экономика.*
9. *Каримов, А.Н. (2020). Логистические барьеры внешнеэкономической деятельности МСП в регионах Узбекистана. Журнал: Вопросы экономики и управления.*

ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОМЫШЛЕННОЙ ПОЛИТИКИ: ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ВЫЗОВЫ

Матлюбов Хуршид Жамшидович
Начальник договорного отдела ООО «TEXNOPARK»
xurshid.matlyubov@texnopark.uz

Annotatsiya. *Ushbu maqolada global tahdidlar, jumladan COVID-19 pandemiyasi, geosiyosiy beqarorlik va global ta'minot zanjirlarining qayta shakllanishi sharoitida sanoat siyosatining transformatsiyasi yo'nalishlari tahlil qilinadi. Muallif an'anaviy import o'rnini bosish modelidan innovatsion rivojlanish va barqaror ishlab chiqarishga o'tish jarayoniga alohida e'tibor qaratadi. Raqamli transformatsiya, ekologik ustuvorliklar, strategik hamkorliklar va moslashuvchan tashqi iqtisodiy strategiyalar kabi zamonaviy tendensiyalar yoritilgan. Maqolada korxonalarni yangi sharoitlarga moslashtirishda "yashil" texnologiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish va kadrlar salohiyatini rivojlantirish muhim omillar sifatida ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *sanoat siyosati transformatsiyasi, tashqi iqtisodiy strategiya, raqamlashtirish, barqaror rivojlanish, innovatsiyalar, import o'rnini bosish, global chaqiriqlar, raqobatbardoshlik, strategik hamkorlik, yashil texnologiyalar.*

Abstract. *This article explores the key directions in the transformation of industrial policy amid global challenges such as the COVID-19 pandemic, geopolitical instability, and the restructuring of global supply chains. Special attention is paid to the shift from the traditional import substitution model to innovation-driven and sustainable development. The author analyzes current trends including digital transformation, environmental priorities, the growing role of strategic partnerships, and flexible foreign economic strategies. The study emphasizes the importance of a comprehensive approach for enterprises to adapt to new conditions, highlighting the role of green technologies, enhanced competitiveness, and human capital development.*

Keywords: *industrial policy transformation, foreign economic strategy, digitalization, sustainable development, innovations, import substitution, global challenges, competitiveness, strategic partnerships, green technologies.*

Аннотация. *В статье рассматриваются ключевые направления трансформации промышленной политики в условиях глобальных вызовов, таких как пандемия COVID-19, геополитическая нестабильность и перестройка глобальных цепочек поставок. Особое внимание уделено переходу от традиционной модели импортозамещения к инновационному развитию и устойчивому производству. Автор анализирует современные тенденции, включая цифровую трансформацию, экологические приоритеты, а также рост значимости стратегических партнёрств и гибких внешнеэкономических стратегий. В работе подчёркивается необходимость комплексного подхода к адаптации предприятий к новым условиям, с акцентом на внедрение «зелёных» технологий, повышение конкурентоспособности и развитие кадрового потенциала.*

Ключевые слова: *трансформация промышленной политики, внешнеэкономическая стратегия, цифровизация, устойчивое развитие, инновации, импортозамещение, глобальные вызовы, конкурентоспособность, стратегические партнёрства, зелёные технологии*

Введение

Трансформация промышленной политики является важным фактором, определяющим изменения в экономической стратегии стран, в том числе в области внешней торговли и взаимодействия с мировыми рынками. Промышленная политика традиционно включает в себя регулирование производства, поддержку технологических инноваций, управление экспортными и импортными потоками, а также развитие новых форм промышленного производства, включая цифровизацию и устойчивость к глобальным рискам.

В условиях глобальных экономических изменений, включая пандемию COVID-19, геополитические напряженности и изменения в глобальных цепочках поставок, трансформация промышленной политики становится необходимостью. Это приводит к пересмотру внешнеэкономической стратегии предприятий, их способности адаптироваться к изменениям внешней среды и эффективно конкурировать на международной арене.

Традиционно промышленная политика стран, особенно в условиях кризиса, ориентировалась на импортозамещение - политику, направленную на замену иностранных товаров отечественными. Однако в последние десятилетия наблюдается тенденция к переходу от импортозамещения к инновационному развитию и модернизации отечественного производства. Основные направления:

- **Повышение конкурентоспособности через инновации**. Страны, ориентирующиеся на устойчивое развитие и высокие технологии, стремятся вкладывать средства в НИОКР (научные исследования и опытно-конструкторские работы), что позволяет производить продукцию, отвечающую мировым стандартам.
- **Технологическое лидерство**. В условиях трансформации промышленной политики акцент смещается на создание высокотехнологичных, устойчивых и экологически безопасных производств.

Трансформация промышленной политики зачастую сопровождается ответом на вызовы,

возникающие в результате глобальных изменений:

- **Геополитические изменения**. Изменения в международной политике, санкционные режимы, торговые войны и политическая нестабильность заставляют страны пересматривать свою внешнеэкономическую стратегию.
- **Глобальные цепочки поставок**. Повышение зависимости от иностранных поставок может стать уязвимостью, как показала пандемия COVID-19, что приводит к необходимости создания резервных поставок и локализации производства.
- **Торговые барьеры**. Ужесточение торговой политики, повышение тарифов и введение квот также являются вызовами для предприятий, занимающихся внешней торговлей.

Стимулом для трансформации промышленной политики также становятся вопросы устойчивого развития. Глобальные экологические проблемы требуют от промышленности внедрения более "чистых" и устойчивых технологий:

- **Зеленая экономика**. Страны вводят политики, направленные на снижение выбросов углекислого газа, увеличение доли возобновляемых источников энергии в производстве, что требует от предприятий пересмотра своих внешнеэкономических стратегий и инвестиций в экологически чистое производство.
- **Социальная ответственность**. Требования к социальным стандартам и правам человека на международной арене также оказывают влияние на промышленную политику, стимулируя компании к более высокому уровню социальной ответственности.

Трансформация промышленной политики требует от предприятий не только адаптации к новым условиям, но и поиска новых форм сотрудничества. Это включает в себя:

- **Инвестиционные альянсы и стратегические партнёрства**. В условиях экономической нестабильности и неопределенности предприятия начинают всё больше опираться на стратегические альянсы с зарубежными компаниями, совместные предприятия и исследования.
- **Гибкость в торговых отношениях**. Множество стран вводят новые формы торговых соглашений, таких как соглашения о свободной торговле (FTA), экономические союзы и интеграционные объединения. Это предоставляет новые возможности для выхода на международные рынки, но и порождает конкуренцию за ресурсы и рынок.

Промышленная политика, ориентированная на цифровизацию, непосредственно влияет на внешнеэкономическую деятельность:

- **Цифровая трансформация**. Внедрение технологий, таких как искусственный интеллект, блокчейн, интернет вещей (IoT), 3D-печать, меняет представление о производственных процессах и изменяет спрос на высокотехнологичные компоненты.
- **Цифровая конкуренция**. Страны и компании, инвестирующие в цифровую инфраструктуру, получают конкурентные преимущества, так как способны быстро адаптироваться к изменениям на внешних рынках, а также снижать издержки за счёт автоматизации.

Исходя из выше изложенного можно сказать, что концепции **конкурентоспособности предприятий тоже претерпевает изменения:**

- **повышение качества и инновационности продукции**. Преимущество на внешнем рынке всё чаще получают те предприятия, которые предлагают продукцию высокого качества, соответствующую международным стандартам, а также обладающую уникальными конкурентными преимуществами.
- **преемственность в бизнес-стратегиях**. С увеличением доли новых игроков на международной арене, существующие предприятия должны быстро адаптироваться к требованиям внешних рынков, модернизируя свою продукцию и процессы.

Одной из основных проблем является экономическая нестабильность на мировых рынках. Страны, зависимые от внешней торговли, сталкиваются с рисками, связанными с повышением цен на сырьевые ресурсы, волатильностью валютных курсов, а также с возможностью введения торговых санкций.

Трансформация промышленной политики требует от предприятий привлечения высококвалифицированных специалистов в области НИОКР, IT, цифровых технологий и производства. Нехватка таких кадров может замедлить процесс технологических изменений и адаптации внешнеэкономической стратегии.

В ряде стран промышленная политика сталкивается с трудностями из-за недостаточной координации между различными государственными органами, что снижает эффективность мероприятий по стимулированию внешней торговли и поддержке инновационных проектов.

Изменения в международных экономических и политических условиях (например, торговые войны, экономические санкции) требуют от предприятий быстрой адаптации. Однако многие компании не могут быстро перестроить свои производственные или торговые процессы из-за неготовности к таким изменениям.

Для успешной адаптации в условиях трансформации промышленной политики предприятия должны активно искать новые рынки и диверсифицировать внешнеэкономические связи. Это включает не только расширение географии сбыта, но и выход на новые высокотехнологичные и экологически устойчивые рынки.

Устойчивое развитие и внедрение инновационных технологий станут основой для конкурентоспособности на мировых рынках. Инвестиции в «зелёные» технологии, цифровую трансформацию и повышение энергоэффективности производства будут определять успешность предприятий в будущем.

Принятие стратегий, ориентированных на минимизацию рисков и гибкость в принятии решений, позволит предприятиям успешно адаптироваться к изменениям в промышленной политике, а также эффективно реагировать на вызовы глобальной экономики.

Заключение

Трансформация промышленной политики, как фактор изменения внешнеэкономической стратегии, накладывает серьёзные требования к предприятиям. Они должны быть готовы к внедрению инноваций, диверсификации внешних связей и гибкости в условиях неопределённости. Успешная адаптация к новым условиям требует комплексного подхода, вовлечения всех заинтересованных сторон и своевременного реагирования на изменения во внешней и внутренней политике.

Список использованной литературы:

1. *Глазьев, С. Ю.* Экономика устойчивого развития. *М.: Экономика. 2016.*
2. *Родрик, Д.* Industrial Policy: Don't Ask Why, Ask How. *Middle East Development Journal, Vol. 1, No. 1, pp. 1–29. 2008.*
3. *Aiginger, K.* Industrial policy for a sustainable growth path. *WIFO Working Papers, No. 448. 2014.*
4. *European Commission.* A New Industrial Strategy for Europe. *Brussels. 2020.*
5. *UNIDO.* Industrial Development Report 2022: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World. *United Nations Industrial Development Organization. 2022.*
6. *Портер, М. Э.* Конкуренция. *М.: Вильямс. 2015.*
7. *World Economic Forum.* Global Manufacturing and Industrialisation Summit Reports. *2023.*

SANOAT KORXONALARINING EKO-MARKETING TIZIMINI BAHOLAH AMALIYOTI

Sa'dulloyev Habibullo Ibodullo o'g'li,
"Proactive Marketing Agentligi" ta'sischisi
Proactive.agency.uz@gmail.com

Annotatsiya. *ushbu tezishda sanoat korxonalarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishning xalqaro standartlar asosida amalga oshiriladigan uslubiyoti tahlil qilingan. Sanoat tarmoqlarining atrof-muhitga bo'lgan ta'siri global miqyosda ekologik inqirozni keltirib chiqarmoqda, shuning uchun korxonalar tomonidan ekologik xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha samarali choralar ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik boshqaruvni optimallashtirish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash va boshqa istiqbolli yo'nalishlarni o'z ichiga olgan.*

Kalit so'zlar: *Sanoat korxonalari, atrof-muhit, ekologik boshqaruv, xalqaro standart, qayta ishlash, chiqindilar, energiya samaradorligi, barqaror rivojlanish.*

Annotation. *This thesis analyzes the methodology for reducing the negative impact of industrial enterprises on the environment based on international standards. The impact of industrial sectors on the environment is causing a global ecological crisis; therefore, it is of great importance for enterprises to take effective measures to minimize environmental risks. It covers the optimization of environmental management, improvement of energy efficiency, waste recycling, and other promising directions.*

Keywords: *industrial enterprises, environment, environmental management, international standards, recycling, waste, energy efficiency, sustainable development.*

Аннотация. *В данной диссертации проанализирована методология снижения негативного воздействия промышленных предприятий на окружающую среду на основе международных стандартов. Влияние промышленных отраслей на окружающую среду приводит к глобальному экологическому кризису, поэтому крайне важно, чтобы предприятия принимали эффективные меры по минимизации экологических рисков. Работа охватывает оптимизацию экологического управления, повышение энергоэффективности, переработку отходов и другие перспективные направления.*

Ключевые слова: *промышленные предприятия, окружающая среда, экологическое управление, международные стандарты, переработка, отходы, энергоэффективность, устойчивое развитие.*

Sanoat korxonalari atrof-muhitga turli xil salbiy ta'sirlarni ko'rsatadi. Ularning faoliyati havoni, suvni va tuproqni ifloslantirish, resurslarni haddan tashqari sarflash, shuningdek, iqlim o'zgarishlariga sabab bo'lishi mumkin. Global miqyosda sanoat sektorining atrof-muhitga bo'lgan salbiy ta'siri kamaytirilishi zarurati kundan-kunga o'sib bormoqda. Bu

yo‘nalishda mamlakatimizda ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi PF-16-son Farmoni «O‘zbekiston - 2030» strategiyasining Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishi bo‘yicha 2025 yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi 72-maqsad: Qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari sifatini yaxshilash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 12 oktabrdagi “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-169-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-436-son qarorlari va boshqa me’yoriy hujjatlar shular jumlasidandir.

Xalqaro hamjamiyat sanoat sektori uchun ekologik xavfsizlikni ta’minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilab, turli xil xalqaro standartlar va normativ hujjatlarni ishlab chiqmoqda. Xususan, ISO 14001 va ISO 50001 kabi ekologik boshqaruv tizimlari sanoat korxonalarining atrof-muhitga bo‘lgan ta’sirini kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi.

Yirik sanoat va agrosanoat korxonalari umumiy mahsulotning katta qismini ishlab chiqarish bilan birga atrof-muhitga antropogen ta’sir darajasi jihatdan ham yuqori turadi. Ular katta miqdordagi xom ashyo materiallari, kimyoviy moddalar, energiya va suvni iste’mol qiladilar. Ular havoga, suvga va tuproqqa katta miqdordagi ifloslantiruvchi moddalarni chiqarishi xavfli va xavfli bo‘lmagan chiqindilarning katta qismini hosil qilishi mumkin. Atrof-muhitga bunday ta’sirlar faoliyat turiga qarab o‘zgaradi va ma’lum bir vaziyatda amalga oshiriladigan muayyan turdagi o‘rnatish yoki jarayonlarga juda xos bo‘lishi mumkin. Bunday ta’sirlarning xilma-xilligi, shuningdek, bunday qurilmalar tartibga solinishi kerak bo‘lgan mahalliy sharoitlardagi farqlar, qoida tariqasida, har bir vaziyatga xos talablarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Ushbu tezisda, asosiy metodologiya sifatida xalqaro standartlar va ekologik boshqaruv tizimlari tahlil qilinadi. Bunga quyidagi asosiy metodlar kiradi:

- ISO 14001 (Ekologik boshqaruv tizimi) va ISO 50001 (Energiya boshqaruvi tizimi) kabi xalqaro ekologik boshqaruv tizimlarining asosiy tamoyillari ko‘rib chiqiladi;

- korxonalar faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta’sirini aniqlash uchun ekologik ta’sirni baholash metodikalaridan foydalaniladi. Bu metodologiya chiqindilarni boshqarish, resurslarni samarali ishlatish va atrof-

muhitni himoya qilishning ahamiyatini tushunishga yordam beradi;

- energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan metodologiyalar va amaliyotlar, masalan, energiya nazorati va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi;

- chiqindilarni minimallashtirish, ularni qayta ishlash va ularning zararli ta’sirini kamaytirish bo‘yicha metodologiyalar tahlil qilinadi.

ISO 14001 atrof-muhitni boshqarish tizimi standarti bo‘yicha sertifikatlangan dunyo bo‘yicha bir qator mashhur sanoat korxonalari mavjud. Bularga Toyota Motor Corporation, Samsung Electronics, General Electric (GE), Nestlé, Apple Inc., BMW Group, Siemens, Unilever, Microsoft va Coca-Cola kabi kompaniyalar kiradi. Ushbu standartlar, sanoat korxonalariga atrof-muhitni himoya qilish bo‘yicha global darajadagi talablarni belgilaydi.

Mavjud eng yaxshi texnologiyalar (BAT) atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish uchun sanoat korxonalarida qo‘llanilayotgan samarali texnologiyalar va jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bularga quyidagilar kiradi:

Chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish:

- chiqindilarni tozalash texnologiyalari: mimol uchun, sanoat chiqindilarini tozalashda biotexnologiyalar (mikroorganizmlar yordamida ifloslantiruvchi moddalarni yo‘q qilish), fizik-kimyoviy usullar (filtrlar, adsorbentlar), va yuqori samarali fotokatalitik jarayonlar qo‘llanilishi mumkin;

- chiqindilarni minimallashtirish: kam chiqindili ishlab chiqarish (Zero Waste) yondashuvi, chiqindilarni ularning manbasidan oldin kamaytirishga intiladi, bu, masalan, yopiq tizimlar orqali resurslarni qayta ishlashni, materiallarni to‘liq ishlatishni va chiqindilarni bartaraf etishning yangi usullarini o‘z ichiga oladi;

Energiya samaradorligini oshirish:

- energiyani tejash texnologiyalari: sanoat jarayonlarida energiya sarfini kamaytirish uchun energiya samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarni joriy etish (masalan, issiqlikni qayta ishlash tizimlari, energiya samarali mashinalar va uskunalar). Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini (quyosh, shamol, biomassa) sanoatda qo‘llash.

Chiqindilarni kamaytirish va minimalizatsiya qilish:

- kam chiqindili ishlab chiqarish usullari: chiqindilarni qisqartirish, materiallarni maksimal darajada qayta ishlash va yangi, ekologik toza materiallar ishlab chiqarish.

Atrof-muhitni nazorat qilish va monitoring qilish:

- texnologik monitoring tizimlari: atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan zamonaviy monitoring texnologiyalari. Bu texnologiyalar korxonalarning chiqindilarini, ifloslantiruvchi moddalarning chiqarilishini va energiya iste'molini real vaqtda kuzatib borish imkonini beradi.

- Yashil ishlab chiqarish jarayonlari: Ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish uchun yangi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarida yashil standartlarga amal qilish.

Kimyoviy moddalarni kamaytirish:

- samarali kimyoviy texnologiyalar: kimyoviy moddalarni ishlab chiqarishda va ishlatishda, xususan, xavfli va zararli moddalar ishlab chiqarishni kamaytirishga qaratilgan texnologiyalarni qo'llash. Misol uchun, kimyoviy reaktorlarda xom ashyo bilan reaksiyalarni optimallashtirish orqali chiqindilarni kamaytirish.

OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti) tadqiqotlariga ko'ra, BAT texnologiyalarini joriy etish orqali sanoat korxonalari 20% dan ortiq chiqindilarni kamaytirish va 15%-30% energiya sarfini qisqartirish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin. Yevropa Ittifoqi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chiqindilarni qayta ishlash va energiya samaradorligi texnologiyalarini qo'llagan korxonalar o'z faoliyatida atrof-muhitga ta'sirni sezilarli darajada kamaytirgan.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda sanoat korxonalari soni sezilarli darajada oshib bormoqda. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, respublikamizda joriy yilning (2025-yil) 1-mart holatiga jami sanoat sohasida ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni 113 059 tani tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024-yilning mos davri bilan solishtirilganda 2 %ga oshgan.[9]

Ularning so'nggi besh yilning mos davridagi dinamikasi quyidagicha (1-mart holatiga):

2021-yil – 91 829 ta
2022-yil – 97 966 ta
2023-yil – 107 561 ta
2024-yil – 110 851 ta
2025-yil – 113 059 ta

Sanoat korxonalarining soni viloyatlar bo'yicha ham o'sib bormoqda:

- Toshkent viloyati: 2024-yilning 1-noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari soni 4 591 taga yetgan, bu 2023-yilga nisbatan 90,8% o'sishni ko'rsatadi.

- Xorazm viloyati: 2024-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra, 4 074 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritgan, bu 2023-yilning shu davriga nisbatan 54 taga ko'proqdir.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilarni kamaytirish maqsadida

"O‘zkimyosanoat" AJ tomonidan 2024-yilda bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Jumladan, umumiy qiymati 34,3 milliard so‘m bo‘lgan tadbirlar doirasida chang-gaz tozalash uskunalarini ta’mirlash va ularning samaradorligini oshirish orqali atmosferaga chiqariladigan 15,6 ming tonna tashlanma moddalarning kamayishiga erishilgan.

Shuningdek, O‘zbekistonda har yili, maishiy chiqindilardan tashqari, 115 million tonna sanoat chiqindilari hosil bo‘ladi, asosan Navoiy, Toshkent va Farg‘ona viloyatlaridagi tog‘-kon sanoati va qayta ishlash korxonalarida. Ushbu sanoat chiqindilarining qayta ishlanishi va boshqarilishi, atrof-muhitning barqarorligini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Buning uchun xalqaro ekologik standartlar, xususan, ISO 14001, sanoat korxonalariga kerakli metodologiyalarni taqdim etadi.

Xalqaro ekologik boshqaruv tizimlarining sanoat korxonalari faoliyatida qo‘llanilishi ko‘plab afzalliklarga ega, ammo ularni amalga oshirishda ba’zi muammolar ham mavjud. Dastlabki investitsiyalarning yuqori bo‘lishi ba’zi korxonalar uchun to‘siq bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ba’zi hollarda xalqaro standartlarga rioya qilishda lokal me’yorlar va iqtisodiy sharoitlar o‘rtasida farqlar yuzaga kelishi mumkin. Shu bilan birga, ekologik boshqaruv tizimining samaradorligini baholashda o‘lchov vositalarining yetishmasligi yoki aniq metodologiyalarning yo‘qligi muammolarni keltirib chiqaradi. Bu esa qo‘shimcha tadqiqotlar va resurslar zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi PF-16-son Farmoni «O‘zbekiston - 2030» strategiyasining Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishi bo‘yicha 2025 yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi 72-maqsad: Qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlari sifatini yaxshilash. https://lex.uz/uz/docs/-7369703

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 12 oktabrdagi “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-169-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6633676

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-436-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/-6303230?ONDATE2=03.12.2022&action=compare

4. International Organization for Standardization (ISO). (2015). ISO 14001:2015 Environmental Management Systems.

5. International Organization for Standardization (ISO). (2018). ISO 50001:2018 Energy Management Systems.

6. United Nations Environment Programme (UNEP). (2020). Environmental Impact Assessment and Management.

7. Dufresne, A., & Brault, A. (2017). Industrial Waste Management: A Global Perspective. Environmental Sciences Journal, 35(2), 155-169.

8. Kumar, S., & Bansal, S. (2019). Sustainability in Industrial Practices: Integration of International Standards and Local Policies. Journal of Sustainable Development, 28(4), 234-245. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. https://stat.uz/uz/

9. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. https://stat.uz/uz/

Ingliz tili muharriri: *Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi*
Musahhih: *Vahobova Marfua Mirkamalovna*
Sahifalovchi va dizayner: *Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li*

1-maxsus son

© Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Management and Economics Scientific Research Journal”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El. pochta: journals@timeedu.uz
Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: C-5669639
PNFL: 308906510

Manzilimiz: *Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani*
Shota Rustaveli ko'chasi, 114